


A. TUYCHIYEV
D. TASHMUHAMEDOVA

G'AZNACHILIK



05.26.3yat
7-82

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

A.TUYCHIEV, D.TASHMUHAMEDOVA

G‘AZNACHILIK

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta
maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent
“IQTISOD-MOLIYA”
2019

UO‘K: 336.14(075)

KBK: 65.261.3ya7

Taqrizchilar: *i.f.d., prof.* **I. Qo‘ziyev;**

i.f.n., dots. **F. Dodiye;**

i.f.d., dots. **D. Pulatov**

T 82 G‘aznachilik: Darslik / A.Tuychiyev, D.Tashmuhamedova; – T.:
“Iqtisod-Moliya”, 2019. – 836 b.

Darslikda byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosi jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan. Darslikda byudjet g‘azna ijrosini tashkil etish va faoliyati mexenizmiga doir iboralar, tushunchalar, o‘zlashtirish uchun savollar, adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Darslik byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosini tashkil etishning nazariy va amaliy masalalarini qamrab olgan bo‘lib, unda davlat byudjeti g‘azna ijrosining mohiyati va ahamiyati, g‘azna ijrosini tashkil etish mexanizmi. Shuningdek byudjet tasnifining g‘aznachilik tizimida qo‘llanilishi bo‘yicha faoliyati tegishli bob va paragraflarda yoritilgan bo‘lib, u o‘quv rejasidagi “G‘aznachilik” fanining Namunaviy dasturiga asosan tayyorlangan va shu fanni o‘qiydigan boshqa barcha ta‘lim yo‘nalishlari talabalari va professor-o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 336.14(075)

KBK: 65.261.3ya7

ISBN: 978-9943-13-806-3

© A.Tuychiyev, D.Tashmuhamedova, 2019

© “Iqtisod-Moliya”, 2019

KIRISH

Jahondagi har qanday rivojlangan davlatlar o'z yalpi ichki mahsulotining yirik qismini maqsadli va manzilli qayta taqsimlashga, mamlakat iqtisodiyotini erkin hamda xalqaro tajriba tamoyillari asosida rivojlantirishga, davlat moliyaviy resurslari yo'nalishlari, uning xarajatlarini to'g'ri samarali amalga oshirilishi va nazoratini ta'minlashga qodir bo'lgan zamonaviy davlat byudjeti g'azna ijrosini takomillash-tirib borishni talab etadi. Iqtisodiyotni hozirgi rivojlangan bosqichida byudjet daromadlarining to'liq va o'z vaqtida tushishini, xarajatlar qismida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlaydigan g'aznachilik tizimini yanada rivojlantirish cora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg'armalar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Taraqqiyotimizning bugungi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyoti-da sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar, butun moliya tizimida, uning markaziy bo'g'ini bo'lgan davlat moliyasida amalga oshirila-

yotgan islohotlar davlat moliyasini boshqarish masalalarida muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat davlat moliyasi haqidagi ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki davlat byudjeti g'azna ijrosi jarayonlarida vujudga keladigan holatlarni tushuna oladigan, byudjet ijrosi ishtirokchilari bo'lgan moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar amaliy faoliyatini samarali tashkil qila oladigan, davlat mablag'larini samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu sababli davlat moliyasi uchun tashabbuskor, ijodiy fikrlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda byudjet-moliya va byudjetning g'azna ijrosi nazariyasi va amaliyotini o'rganishga muhim o'rin beriladi.

Jamiyatning bu talabini anglagan holda, shuningdek, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ta'lim tizimiga yangi avlod darsliklarini yaratish bo'yicha dasturiy vazifasini bajarish maqsadida mualliflar tomonidan oliy ta'limning tegishli yo'nalishlaridagi talabalar uchun "G'aznachilik" nomli darslik yaratildi. Ushbu darslikning maqsadi talabalarda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati haqidagi yaxlit bilimlar tizimini shakllantirish, g'aznachilik mexanizmlarining amal qilish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Ushbu darslikda zamonaviy sharoitda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etishning nazariy asoslari, g'aznachilik faoliyatini tadbiq etish va rivojlanish tarixi, samarali byudjet siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali byudjetning g'azna ijrosi mexanizmlaridan maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatlari, davlat moliyasini boshqarish va davlat mablag'larining maqsadli ishlatilishi ustidan ta'sirchan nazoratni tashkil qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga asosan davlat mablag'lari haqidagi ma'lumot-

larni davlat sektorida hisobga olishning xalqaro standartlariga moslashtirish orqali ularning shaffofligini ta'minlashni amalga oshirish belgilangan bo'lib, yuqorida bayon etilgan fikrlar mazkur darslikning bugungi kunda dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Darslikni tayyorlashda mualliflar "G'aznachilik" fani bo'yicha kengqamrovli va murakkab o'quv materialini yengil o'zlashtirishda talabalarga yordam berish, mamlakatimiz va xorijdagi iqtisodchil-olimler tomonidan yaratilgan adabiyotlar va ilmiy ishlarni ijodiy o'rganish asosida oddiy va tushunarli tilda bu fanning asosiy mazmunini ularga yetkazish, byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi faoliyatiga doir tushunchalar va tayanch iboralarning mazmunini tushunib olishda va davlat byudjeti g'azna ijrosi amaliy faoliyati bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda yaqindan yordam berishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yanlar.

Bayon etilgan o'quv materialini mukammalroq o'zlashtirish maqsadida darslikning har bir bobidan so'ng mavzuga taalluqli savollar, mustaqil bajarish uchun topshiriqlar keltirilgan bo'lib, ularning muntazam bajarib borilishi g'aznachilik ijrosi faoliyati haqidagi bilimlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mualliflar ushbu darslikning davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha nazariy bilimlarni egallashlarida boshqa barcha ta'lim yo'nalishlari talabalariga ham ishonchli yordamchi bo'ladi hamda oliy ta'lim tizimi professor-o'qituvchilarida ma'lum qiziqish uyg'otadi, deb umid bildiradilar va darslikning mazmunini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalarni mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

I BOB. G‘AZNACHILIK TIZIMI FAOLIYATINING NAZARIY VA TASHKILIY ASOSLARI

1-MAVZU. “G‘AZNACHILIK” FANIGA KIRISH

- 1.1. “G‘aznachilik” fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari
- 1.2. “G‘aznachilik” fanining predmeti, maqsad va vazifalari
- 1.3. “G‘aznachilik” fanining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o‘rni va ahamiyati

1.1. “G‘aznachilik” fanining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Bunda davlat moliyasini boshqarish shakllari va usullarini takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari va boshqa texnik vositalar yordamida axborotni jamlash, qayta ishlash, uzatish qoidalari va usullarini o‘zlashtirish asosida axborotlashtirishni yanada rivojlantirish talab etiladi.

Byudjet tizimi mamlakat moliya tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, uning muvaffaqiyatli tashkil etilishi samarali byudjet siyosatining asosini tashkil etadi. Davlat moliyasi tizimidagi tub islohotlar natijasida byudjetning g‘azna ijrosiga o‘tilishi shuningdek, byudjetning o‘rta muddatli istiqbolini belgilashga o‘tish chora-tadbirlari mamlakatimizda

izchillik bilan amaliyotga joriy etilmoqda. Jahon andozalari va xalqaro byudjet amaliyotining yangi qat'iy talablari va mezonlari asosida davlat byudjetining o'rta muddatli istiqbolini belgilash tizimiga o'tishning joriy etilishi, rivojlangan mamlakatlarda samarali amal qilayotgan natijaviylikka asoslangan byudjetlashtirish amaliyotga joriy etilishi byudjet tizimi oldiga ham ulkan vazifalar qo'yadi.

Davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlar sharoitida umumdavlat moliya-tizimining bosh bo'g'ini – davlat byudjetini boshqarish, byudjet jarayonini tashkil etish tizimidagi islohotlar, xususan byudjet ijrosida kassali tizimdan jahon amaliyotida sinalgan va o'zining ijobiy natijalarini bergan *davlat byudjetining g'azna ijrosiga* o'tish amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish doirasida davlat byudjeti g'azna ijrosi mexanizmi joriy etilgan. G'aznachilikning joriy etilishi byudjet daromadlarining to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda xarajatlarining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini bermoqda. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida “xarajatlarni ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda, davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, byudjetning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish” bo'yicha ustuvor vazifalar doirasida iqtisodiy islohotlar davlat moliyasi tizimida ham jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Bu o'z navbatida davlat moliyasini boshqarishga oid islohotlarga mos g'aznachilik tizimini rivojlantirib borishni talab etmoqda.

Shu narsa ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlarda bozor mexanizmlarini ko'r-ko'rona, sun'iylik bilan tadbiq etib bo'lmaydi, chunki jamiyat a'zolari o'rtasida shunday an'anaviy iyerarxik munosabatlar tizimi shakllanganki, ularni mensimaslik, kes-

kin qarorlar qabul qilish chog'ida ularni e'tiborga olmaslik turli noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotni boshqarishning jahon amaliyotida tan olingan bir qator mexanizmlarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish sharoitlarimizga tegishli tarzda moslashtirgan holda qo'llash va ijobiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlovchi shunday mexanizmlardan biri – davlat byudjetining g'azna ijrosidir.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi davlat byudjetining g'azna ijrosi tajribasini O'zbekistonda joriy etish va rivojlantirish, davlat moliyaviy resurslarini boshqarishning axborotlashtirilgan tizimini joriy etish davlat moliyasining holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradi, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta'minlaydi. Ana shu holatlarning mavjudligi, shuningdek, davlat moliyasini boshqarishning mohiyat jihatdan yangi – *byudjetning g'azna ijrosi mexanizimini* joriy etish shart-sharoitlari, imkoniyatlari, afzalliklarini, g'aznachilikning ishlash mexanizmlarini o'rganishning zarurligi mazkur fanning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri – mamlakatda davlat byudjeti g'azna ijrosi mexanizmini joriy qilishdan iborat. “Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi davlat mablag'larini taqsimlash va ulardan foydalanishni tartibga solishda navbatdagi muhim qadam bo'ldi. G'aznachilikni joriy etish byudjetning daromadlar qismida tushumlarning to'liq va o'z vaqtida tushishini va xarajatlar qismida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini berdi.

1.2. “G'aznachilik” fanining predmeti, maqsad va vazifalari

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimida olib borilayotgan islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat byudjetining g'azna ijrosiga bosqichma-bosqich o'tishni va uning

faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida davlat mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash, uzatish usullarini o'zlashtirish asosida davlat moliyasini boshqarishning samarali usul va vositalarini shakllantirish va muvofiq holda ishlashini ta'minlash zarur bo'ladi.

Mamlakatimizda davlat byudjetining g'azna ijrosini samarali tadbiq etishga faqatgina barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga erishganimizdan keyingina muvaffaq bo'lindi. O'zbekiston hukumati davlat moliyasini boshqarish tizimida ham kengqamrovli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Bu islohotlarning ijobiy natijalarini davlat byudjeti g'azna ijrosining muvaffaqiyatli joriy etilishida ko'rishimiz mumkin.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Taraqqiyotimizning bugungi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar, butun moliya tizimida, uning markaziy bo'g'ini bo'lgan davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat moliyasini boshqarish masalalarida muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat davlat moliyasi haqidagi ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki davlat byudjeti g'azna ijrosi

jarayonlarida vujudga keladigan holatlarni tushuna oladigan, byudjet ijrosi ishtirokchilari bo'lgan moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar amaliy faoliyatini samarali tashkil qila oladigan, davlat mablag'larini samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu sababli davlat moliyasi uchun tashabbuskor, ijodiy fikrlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda byudjet-moliya va byudjetning g'azna ijrosi nazariyasi va amaliyotini o'rganishga muhim o'rin beriladi.

“G'aznachilik” fanini o'qitishdan *maqsad* – talabalarga davlat byudjetining g'azna ijrosi haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning bugungi bosqichida davlat moliya tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari va g'aznachilikning samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilish, g'aznachilikning tashkiliy tuzilmasi va uning ishlash mexanizmlarini o'rganish, ularni nazariy, amaliy va metodologik jihatdan takomillashtirishdan iborat.

Shuningdek, fanni o'rganishda talabalar davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati haqidagi yaxlit bilimlar tizimini shakllantirishda g'aznachilik mexanizmlarining amal qilish xususiyatlarini, davlat byudjeti g'azna ijrosining mohiyati va ahamiyati, g'aznachilik faoliyatining tashkiliy elementlarini joriy etish bosqichlari, g'azna ijrosini tashkil etish xususiyatlari va tamoyillari, g'aznachilik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari, uning amal qilish mexanizmlari, milliy iqtisodiyotning rivojlanishida davlat byudjeti g'azna ijrosining o'rni va ahamiyati kabi masalalarni o'rganadilar.

“G'aznachilik” fani zamonaviy sharoitda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etishning nazariy asoslari, g'aznachilik faoliyatini tadbiq etish va rivojlanish tarixi, samarali byudjet siyosatini ishlab chiqish

va amalga oshirish orqali byudjetning g'azna ijrosi mexanizmi. maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatlari, davlat moliyasini boshqarish va davlat mablag'larining maqsadli ishlatilishi ustidan ta'sirchan nazoratni tashkil qilish masalalarini o'rgatadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda mazkur fan o'z predmetini o'rganish uchun quyidagi *vazifalarni* qo'yadi:

- g'aznachilik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;

- davlat byudjeti g'azna ijrosining amal qilish asoslarini o'rganish;

- g'aznachilik faoliyatini boshqarishning tashkiliy asoslarini o'rganish;

- davlat byudjeti daromadlarini g'aznachilik orqali shakllantirish mexanizmini o'rganish;

- davlat byudjeti xarajatlarini g'aznachilik orqali ijro etish va tarkibini o'rganish;

- g'aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tizimi asoslarini o'rganish;

- g'aznachilik faoliyatini samarali yuritish yuzasidan xorij tajribalarini o'rganish;

- davlat byudjeti g'azna ijrosini tadbiq etishning shart-sharoitlari, uning afzalliklari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

- davlat byudjeti g'azna ijrosining amal qilish mexanizmlarini takomillashtirish va h.k.

1.3. "G'aznachilik" fanining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyati

Davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy etish – keng qamrovli masala bo'lib, o'zaro bog'liq bo'lgan qator masalalarni hal qilishni talab etadi, xususan:

huquqiy jihatdan – davlat byudjeti g'azna ijrosiga o'tish va amal qilishining qonuniy-huquqiy asosini yaratish va takomillashtirish;

tashkiliy jihatdan – Moliya vazirligi tarkibida maxsus ixtisoslashgan g‘aznachilik boshqarmasini, shuningdek, uning hududiy va mahalliy bo‘linmalarini tashkil etish;

uslubiy jihatdan – g‘aznachilik faoliyatining uslubiy asoslarini shakllantirish, hisob va hisobot tizimini qayta tuzish, Yagona g‘azna hisobvarag‘ini ochish va yuritish;

texnik va texnologik jihatdan – davlat moliyasi bo‘yicha katta hajmdagi axborotni to‘plash va qayta ishlashga imkon beradigan samarali faoliyat qiluvchi integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan tizimni yaratish va joriy qilish;

kadrlar ta‘minoti jihatidan – Moliya vazirligi tizimidagi moliya organlarining hamda byudjet tashkilotlarining xodimlarini va buxgalterlarini g‘aznachilik sharoitida ishlash bo‘yicha qayta o‘qitish va malakasini oshirish.

Nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham, metodologik hamda tashkiliy jihatdan davlat byudjetining g‘azna ijrosini tushunish hamda bevosita ijro etish ancha murakkab jarayondir.

Ana shu jihatlar “G‘aznachilik” fanining ham murakkabligini belgilab beradi. Fan sifatida mavjud bo‘lishi uning boshqa maxsus fanlar bilan nazariy jihatdan bog‘liqlikda bo‘lishini talab etadi.

Davlat byudjetining g‘azna ijrosi ishtirokchilari: moliya organlari, byudjet tashkilotlari, banklar, g‘aznachilik bo‘linmalari, mol yetkazib beruvchilar va boshqalar faoliyatining xususiyatlari uning boshqa iqtisodiy fanlar: Davlat byudjeti, Mahalliy byudjetlar, Davlat maqsadli jamg‘armalari, Moliyaviy nazorat, Buxgalteriya hisobi, Moliyaviy tahlil, Audit kabi fanlar bilan mantiqan uzviylikda bo‘lishini va bog‘liqligini belgilab beradi.

Shu bilan birga, “G‘aznachilik” fani qator maxsus fanlar, jumladan, “Byudjet g‘azna ijrosi”, “Byudjet tizimi”, “Byudjet hisobi” kabi fanlarni o‘zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. “G‘aznachilik” fanining shakllanish va rivojlanish shart-sharoitlari va zarurligini qanday holatlar bilan izohlash mumkin?
2. Davlat moliyasini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
3. “Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish” loyihasining strategik yo‘nalishlari nimalardan iborat?
4. “G‘aznachilik” fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligi qanday omillar bilan bog‘liq?
5. Fanning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. “G‘aznachilik” fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog‘liqligini hamda maqsad va vazifalarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izoh yozing.
2. “Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish” loyihasining strategik yo‘nalishlarini yanada takomillashtirishda nimalarga alohida e‘tibor talab etiladi?
3. Fanning maqsad va vazifalarini “Klaster” metodidan foydalanib taqdimot tayyorlang.

2-MAVZU. BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI

- 2.1. Byudjet tizimi byudjetlari haqida tushuncha
- 2.2. Byudjet tizimi byudjetlarining prihisiplari
- 2.3. Byudjet tizimini boshqarish

2.1. Byudjet tizimi byudjetlari haqida tushuncha

Davlat byudjeti, uning daromad va xarajatlari jamiyatning iqtisodiy kategoriyalari bilan chambarchas bog‘liq. Chunki davlat byudjeti jamiyatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot qiymatining taqsimlanish jarayonida o‘zining moddiy shakliga ega bo‘ladi. Shuningdek, professor V.Rodionovanning ta’biri bilan aytganda “Byudjet munosabatlari – bu jamiyat iqtisodiy tuzilishining ajralmas qismidir; uni amal qilishi davlat tomonidan unga tegishli funksiyalarni bajarishi uchun zaruriy moddiy-moliyaviy bazani shakllantirish bilan obyektiv ravishda aniqlanadi”.¹

*Sodda shaklda byudjet bu hujjat yoki hujjatlar yig‘indisi, ya’ni tashkilotning (oila, korporatsiya, hukumat) moliyaviy holati va kelgusi rejalari, ya’ni daromadlar, xarajatlar va maqsad hamda natijalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi rejalar sifatida qaraladi. Tarixan, byudjet so‘zi charm karmon, hamyon, sumka va hamyonchadir. Asosan, inglizchada bu termin hukumat ehtiyojlari va resurslarini Parlament bayonotiga Moliya Vaziri ko‘tarib boradigan charm sumka sifatida tasvirlangan.*²

¹ Родионова В.М. Финансы. М.: Финансы и статистика, 2011. С. 251.

² Makarand A.Paithankar. Public Budgeting theory and practice. Create Space Independent Publishing Platform (4 Jun. 2016) USA.

Byudjet davlat moliyasining markaziy bo'g'ini bo'lishi bilan bir qatorda moliya tizimining ham asosini tashkil etadi. Byudjetning iqtisodiy tuzilishi va mazmuni bevosita davlatning funktsiya va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Chunki davlat jamiyatni boshqarish uchun o'z oldiga bir nechta vazifalarni qo'yadiki, u vazifalarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda byudjet mablag'lari xizmat qiladi.

Byudjet munosabatlari davlat bilan xo'jalik subyektlari hamda aholi o'rtasidagi qiymat taqsimlanish jarayonida paydo bo'luvchi moliyaviy munosabatlardir. Bunday moliyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, birinchidan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy ishlab chiqarishning taqsimlash bosqichida vujudga keladi, ikkinchidan, markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va undan davlat manfaatlarini yuzasidan foydalanishga yo'naltiriladi. Davlat manfaatlarini esa - bu ijtimoiy manfaatlar hisoblanadi. Byudjet davlatning asosiy markazlashtirilgan moliyaviy resurslar fondi sifatida o'ziga xos ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Davlat byudjeti – bu tegishli darajadagi (markaziy yoki mahalliy) davlat boshqaruv organi tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan moliyaviy reja bo'lib, unda davlatning o'z funktsiyalaridan kelib chiqib amalga oshiradigan asosiy xarajatlari hamda ularni moliyalashtirish uchun zarur daromadlar o'z aksini topadi.

Turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini ifodalaydigan, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek byudjetlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlar majmuiga *byudjet tizimi* deyiladi. Ko'pchilik hollarda, soddaroq tarzda, byudjet tizimi deyilganda esa, mamlakatdagi mavjud byudjetlar majmui tushuniladi.

Byudjet yaxlit hukumatga xizmat qilishi bilan bir qatorda, moliyaviy resurslarni tarmoqlararo qayta taqsimlashda, hududlararo, mulk shakllari aro qayta taqsimlashda ham bevosita ishtirok etadi.

Byudjet tizimi mamlakat byudjet tuzilishining tarkibiy qismi bo'lib, uning ma'lum bir qismini o'zida ifoda etadi. Shu ma'noda, byudjet tizimi byudjetning o'zaro bog'liqlikda bo'lgan bo'g'inlarining o'zaro yig'indisidan iboratdir. Mamlakatning byudjet tizimi jamiyatning siyosiy tuzilishiga, davlatning iqtisodiy tizimiga va uning ma'muriy-hududiy bo'linishiga bevosita bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining jamlangan (konsolidatsiyalashgan) byudjeti tarkibiga quyidagilar kiradi³:

- Davlat byudjeti;
- davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari;
- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari.

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda byudjet tizimi byudjetlarining (byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini, ular o'rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi jamlangan byudjet tizimini quyidagi 1-rasmda ko'rishimiz mumkin.

Demak, *Davlat byudjeti* quyidagi darajadagi byudjetlardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari.

³ O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013, 52-1-son) 3-modda. 2013 yil 26-dekabrda qabul qilingan.


Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti tuzilmasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi. Viloyatlar mahalliy byudjetlari tuzilmasiga viloyat byudjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.


Toshkent shahar mahalliy byudjeti tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi. Mahalliy byudjetlar davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasi bo‘lib, ikki pog‘onali byudjet tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi jamlangan byudjet tizimini quyidagi 2.1-rasmda ko‘rishimiz mumkin.

Byudjet tushunchasi O‘rta asrlarda qirollik yerlaridan mablag‘lar yig‘ib olinishi bilan rivojlanishni boshladi. Ikki yoqlama yozuv kitobi ilk bora 1543-1588 yillarda ishlatila boshlangan. Britaniyaliklar pul ajratishning qonuniy tizimini 1688-yilda joriy etishgan. Hisobvaraqlar huquqi (“the Bill of Rights”)ga ko‘ra 1689-yilda parlamentning ruxsatisiz soliqlar undirilishi mumkin bo‘lmagan. Amerika mustamlakamalari tomonidan parlamentga vakil ko‘rsatilmagan va ularga soliq solishni joriy qilish noqonuniy sanalgan. Bu Jonatan Mehyu tomonidan 1750-yilda kiritilgan “Vakilsiz soliq yo‘q” degan shiorga asos solinishiga olib kelgan. Moliya bo‘yicha qonuniy asos rivojlantirilgan va faqat bu Angliyada amalga oshirilgan. Qirol Jon boshqaruvi davrida xarajatlar o‘rniga yillik foydani nazorat qilish boshlangan. 1787-yilda buxgalteriya va hisobot tizimi o‘rnatildi. 1866-yildagi audit departamenti qonuni va 1866-yilda Jamiyatlar Uyi (the House of Commons)da mahalliy buxgalterlar qo‘mitasi konstitutsiyasi muhim davriy rivojlanishga asos bo‘ldi.⁴

⁴ Understanding Government Budgets: A Practical Guide// R. Mark Musell (Author). Routledge, 2008. 108 pages.





2.1-rasm. O'zbekiston Respublikasining jamlangan (konsolidatsiyalashgan) byudjet tizimi⁵

⁵ O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013, 52-I-son) 46-modda.

Byudjet tizimi byudjetlari – Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalaridan iborat.

Byudjet tizimi barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari yig‘indisini, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish tamoyillarini, ular o‘rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi. Moliya yili uchun byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘mda amalga oshiriladi.

Oksford lug‘atida keltirilishicha, byudjet – ma‘lum davr uchun daromad va xarajatni hisoblash degan ma‘noni anglatadi: Moliya Vaziri tomonidan yillik daromad va xarajatlarni muntazam baholash ya‘ni oldinga qo‘yilgan maqsadga muvofiq kerakli pul mablag‘ini anglatadi. Merrayam-Vebster lug‘atiga ko‘ra, Byudjet qanday qilib sarflanishi rejalashtirilganligiga bog‘liq holda sarflanishga qodir bo‘lgan pul mablag‘i miqdoridir ya‘ni, pul miqdorini qancha sarflanishi mumkinligini va kelajakda qancha sarflanishidir. Bu hukumat tomonidan belgilangan davr ichida qancha sarflanishi rejalashtirilganligi va xarajatlar uchun qancha to‘lanishi haqidagi rasmiy ma‘lumot. Rene Stourmning fikriga ko‘ra: “byudjet – davlatning yillik tushumi va xarajatlarini bashorat qiladi va tasdiqlaydi”.⁶

Davlatning byudjet tuzilishi turli darajadagi byudjetlarning turlarini, har bir byudjet bo‘g‘inining tayinlanishini, turli pog‘onadagi byudjetlar o‘rtasida daromad va xarajatlarning taqsimlanishini, ularning amal qilish tamoyillarini, markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlarini belgilab beruvchi yuridik me‘yorlarga asoslanadi. Byudjet tizimi mamlakatda amal qiluvchi barcha darajadaga byudjetlar yig‘indisini bildiradi.

⁶ Understanding Government Budgets: A Practical Guide// R. Mark Musell (Author). Routledge, 2008. 108 pages.

Demak, byudjet tuzilishi mamlakatning davlat byudjeti va byudjet tizimini, uning bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjetlar tarkibi va tuzilmasini, byudjet mablag‘larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.

2.2. Byudjet tizimi byudjetlarining tamoyillari

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘RQ-360-son Qonuniga asosan, 2014 yil 1 yanvardan amaliyotga joriy etildi.

Byudjet kodeksini ishlab chiqish va qabul qilishdan asosiy maqsad – byudjet jarayonini tartibga soluvchi hamda amaldagi qarama-qarshi va eskirgan me‘yorlarni bartaraf qiluvchi yagona qonun hujjatini ishlab chiqish va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirishdan iboratdir. Byudjet kodeksi O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Byudjet kodeksining qabul qilinishi davlat moliyasining xalqaro standartlarga mos keluvchi, yagona unifikatsiyalashgan qonunchilik bazasi yaratilishiga olib keldi. Unda nazarda tutilgan me‘yorlar va qoidalar byudjet jarayonining barcha bosqich va darajalarida yagona huquqiy normalar qo‘llanilishini va bir xil yondashuvni ta‘minlash orqali byudjet jarayonining hamma ishtirokchilari ishini yengillash-tirishga qaratilgan. Ushbu kodeks nafaqat moliya, g‘aznachilik yoki nazorat-taftish organlari xodimlari uchun, balki byudjet jarayonida bevosita ishtirok etuvchi mahalliy vakillik va ijroiya organlari vakillari uchun ham muhim hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi yuqorida ta’kidlaganimizdek, taraqqiy etgan mamlakatlarning bu boradagi ilg‘or tajribasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasining asosiy ikkita – “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi va “Davlat byudjeti g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi Qonunlarning deyarli barcha me‘yorlarini hamda byudjet jarayonining alohida masalalarini tartibga soluvchi oltita qonun, Prezidentimizning farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari va idoralararo jami 50dan ortiq me‘yoriy-huquqiy hujjatlarini o‘z ichiga qamrab olgan hamda unda turli qonunosti hujjatlarida nazarda tutilgan me‘yor va qoidalar tizimlashtirib, muvofiqlashtirilgan, byudjet qonunchiligida foydalaniladigan aniq tushunchalarga ta’riflar berilgan.

Byudjet kodeksida byudjet tizimi ko‘plab tamoyillarga asoslanadi (2.2-rasm).


Byudjet tizimining yagonaligi tamoyili – byudjet hujjatlari va byudjet hisobotlarining shakllari, byudjet tasnifi yagona bo‘lishi hamda byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlarini shakllantirish hamda ijro etish, byudjet hisobini yuritish va byudjet hisobotini tuzishning yagona tartibini nazarda tutishi lozim.

Byudjet tizimining O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi tamoyili - byudjet tizimi O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq bo‘lishi lozim.

Byudjet tizimi byudjetlarining balansiligi va o‘zaro bog‘liqligi tamoyili - byudjet tizimi byudjetlarida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni qoplash manbalari yig‘indisining hajmiga muvofiq bo‘lishi kerak. Byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda byudjetlarning mablag‘lari mazkur byudjetlarning balansiligini ta‘minlash uchun ular o‘rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini bashorat qilish va xarajatlarini rejalashtirish tamoyili - byudjet tizimi byudjetlarini tuzishda byudjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari

bo'yicha bashorat qilinadi, xarajatlar esa yo'nalishlar bo'yicha rejalashtiriladi.



2.2-rasm. Byudjet tizimining tamoyillari

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati tamoyili - byudjet tizimi

byudjetlarining mablag‘lari muayyan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarga ushbu mablag‘lardan belgilangan maqsadlarni moliyalashtirishda foydalanish uchun ajratiladi.

Byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi tamoyili - byudjet tizimi byudjetlari mustaqildir.

Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanishning natijadorligi tamoyili - byudjet jarayoni ishtirokchilari byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda, o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida, byudjet tizimi byudjetlarining belgilangan hajmdagi mablag‘laridan foydalangan holda natijaga erishish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Kassaning yagonaligi tamoyili - byudjet tizimi byudjetlarining barcha daromadlari Yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritiladi va ularning xarajatlarini to‘lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshiriladi.

Byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi tamoyili - byudjet jarayonining har bir ishtirokchisi byudjet jarayonining har bir bosqichida o‘z harakatlari uchun javobgar bo‘lishidan iboratdir.

Ochiqlik tamoyili:

- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini ko‘rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini;

- tasdiqlangan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari to‘g‘risidagi axborotning ommaviy axborot vositalarida va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e‘lon qilinishini (chop etilishini);

- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari ijrosining borishi to‘g‘risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida chop etilishini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi va yangilab borilishini anglatadi.


2.3. Byudjet tizimini boshqarish

Byudjet tizimini boshqarish quyidagilarni nazarda tutadi:

- Byudjet tizimining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda byudjet munosabatlarini boshqarish;

- Barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, ijro etish jarayonlarini boshqarish;
- Byudjet jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar, organlar va byudjet mablag‘larini oluvchilar faoliyatini boshqarish

Byudjet tizimini boshqarish tushunchasi subyektiv tushuncha. Byudjet tizimini boshqarish alohida vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi, ularning vakolatlari “Byudjet kodeksi”da tegishli boshqaruv organlari Nizomlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilab berilgan.



2.3-rasm. Byudjet tizimini boshqarish subyektlari

Byudjet tizimini boshqarish obyektlari bo‘lib byudjet munosabatlari, byudjetning daromadlar bo‘yicha shakllanishi va xarajatlar bo‘yicha bajarilishi, byudjetlararo munosabatlar va shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy pul munosabatlari hisoblanadi. Davlat byudjetini boshqarish subyektlari esa bevosita shu munosabatlarni boshqarish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishda ishtirok etuvchi ma‘lum bir vakolatlarga ega bo‘lgan davlatning qonunchilik-ijroiya institutlari –

boshqaruv organlaridir. Byudjet tizimini boshqarish subyektlari qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Oliy Majlis;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning quyi organlari;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi;
- Markaziy bank;
- Vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari va boshqa alohida vakolatli organlar.

Qonun chiqaruvchi organlar (idoralar) – shahar konsulliklari, maktab kengashlari, shtat qonun organlari va kongress ba'zida nisbatan kuchsizroq organ bo'lganliklari uchun mav'qega ega bo'ladilar (ularga berilgan kuch va ular tomonidan qilingan da'vo shartlari evaziga) lekin bu tushuncha oxirgi yillarda ancha o'zgardi. Davlatning barcha darajasidagi Qonun chiqaruvchi organlar siyosat belgilash uchun o'zlarining vakolatlarini qayta ma'qullashmoqda va ularga berilgan vakolatlarga ega bo'lish qobiliyatini oshirish maqsadida chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqdalar. Bunda davlat byudjeti bo'yicha qonun chiqaruvchi organlar muhokamasi uchun mavjud muhitga ta'sir etadigan ko'zga tashlanuvchi xarakterlar va ijobiy o'zgarishlar mavjuddir. Bular;

- qonun chiqaruvchi organlarning birinchi va eng muhim vakillik organi sifatidagi o'rni;
- huquqshunoslar o'zlarining ishlari uchun qanday jarayonda tanlanishi bo'yicha tendensiyalar;
- qonuniy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda harakat qilish;
- mamlakat bo'ylab rivojlantiruvchi tarafdorlarning chuqur bo'linishi.⁷

⁷ Public budgeting systems ninth edition Robert d. Lee, jr., Ronald w. Johnson., Philip g. Joyce. 2013.

Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet sohasidagi vakolatlari quyidagilar (2.4-rasm):

✓ davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

✓ davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ko'rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

✓ byudjetnoma loyahasini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

✓ byudjetnomani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi;

✓ davlat boshqaruvi organlarining Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;

✓ davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda ko'rib chiqadi;

✓ o'tgan moliya yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tashqi audit o'tkazish hamda baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

✓ davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi;

✓ moliya yili mobaynida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

✓ O‘zbekiston Respublikasi byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

✓ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlari-ga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ijroiya hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqa-rishdagi ishtiroki

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bevosita byudjet tizimini boshqarishni amalga oshirib, byudjet munoabatlarini operativ boshqarish organi hisoblanadi va Byudjet Kodeksiga muvofiq, quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

✓ davlat byudjeti hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalarini tayyorlaydi;

✓ davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari loyihalarini ko‘rib chiqadi;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga byudjetnoma loyihasini ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari bashoratini har chorakda yetkazadi;

✓ byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmlarini yetkazadi;

✓ byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalari va jamlanma xarajatlar smetalari, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

✓ Byudjet Kodeksining 145-moddasida nazarda tutilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi byudjetining xarajatlari yoyilmasiga moliya yili mobaynida o‘zgartirishlar kiritadi;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Byudjet Kodeksning 144, 145 va 149-moddalarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjeti, O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari parametrlariga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar taqdim etadi;

✓ Byudjet Kodeksining 146-moddasida nazarda tutilgan tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining tasdiqlangan parametrlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqadi;

✓ soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ularning manbalari kesimida to‘liq va o‘z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

✓ byudjet tizimi byudjetlarining mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

✓ Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar, shuningdek byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag‘lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risida hisobot taqdim etadi;

✓ byudjetdan tashqari maxsus hisobvaraqlarda zaxiralar tashkil etadi;

✓ davlat byudjetini ijro etish jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

- ✓ byudjet tashkilotlari va byudjet mablagʻlari oluvchilarning xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;
- ✓ byudjet ssudalarini beradi;
- ✓ davlat tomonidan mablagʻlar jalb qilish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasining shartnomalari va davlat kafolatlarini roʻyxatdan oʻtkazadi;
- ✓ davlat qarzining hisobini va monitoringini yuritadi;
- ✓ byudjet tizimi byudjetlarining kassa ijrosini yuritadi;
- ✓ byudjet tizimi byudjetlarining Yagona gʻazna hisobvaragʻidagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablagʻlarini boshqaradi;
- ✓ byudjet tashkilotlari va byudjet mablagʻlari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarini roʻyxatdan oʻtkazadi;
- ✓ byudjet tizimi byudjetlarida mablagʻlar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirigʻiga koʻra toʻlovlarni amalga oshiradi;
- ✓ byudjet tizimi byudjetlari ijrosining byudjet hisobini yuritadi;
- ✓ davlat qarzi boʻyicha xizmat koʻrsatadi, Oʻzbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini bajaradi;
- ✓ Oʻzbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordami hamda texnik koʻmaklashish mablagʻlari hisobini yuritadi;
- ✓ byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlarining balanslilikiga taʼsir koʻrsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy hamda iqtisodiy ekspertizadan oʻtkazadi;
- ✓ oʻz vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi;
- ✓ Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari

Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta‘minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta‘minlaydi.

Moliya vazirligi respublika byudjeti ham daromadlar, ham xarajatlar bo‘yicha ijro etilishi uchun, moliyaviy resurslarni umum-respublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo‘limlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi. Moliya vazirligi o‘z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki o‘zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi. Moliya vazirligi tizimiga kiruvchi organlarni boshqarish jarayonida Vazirlik O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy va narx-navo siyosatini amalga oshirishning birligini ta‘minlaydi.

Shu maqsadlarda Moliya vazirligi:

- O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimi tarkibiga kiruvchi organlar faoliyatini kelishilgan yagona moliyaviy, soliq, valyuta va narx-navo siyosatini shakllantirish ishlarini olib borishga, oltin zaxirasini ko‘paytirish yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy mustaqilligini ta‘minlashga, respublika iqtisodiyotini sog‘lomlashtirishga, bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida

narx-navoni tartibga solishning iqtisodiy usullari rolini kuchaytirishga va aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltiradi;

- xalq xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy sohani mablag' bilan ta'minlaydi, respublika mintaqalarining yaxlit ishlab chiqarish va ijtimoiy taraqqiyoti uchun moliyaviy negiz yaratadi;

- o'z vakolati doirasida respublika moliya tizimi tarkibiga kiruvchi organlar faoliyatini nazorat qilishni tashkil etadi va amalga oshiradi, ular faoliyati usullari va shakllarini takomillashtiradi, mazkur organlar xodimlarining kasb mahoratini oshirish ishlarini muvofiqlashtiradi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, preyskurantlar va boshqa hujjatlarni tasdiqlaydi va chiqaradi;

- respublika xalq xo'jaligini, O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik va boshqa davlat muassasalarini, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga a'zolik badallari to'lashni valyuta bilan ta'minlaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Byudjet tizimi deb nimaga aytiladi?
2. Byudjet tizimining mazmuni nimalar bilan belgilanadi?
3. Byudjet tizimi qanday tamoyillarga rioya qilinadi?
4. Byudjet tizimi byudjetlari tarkibi qanday?
5. Byudjet tizimining boshqarishning maqsadi nimadan iborat?
6. Byudjet tizimining boshqaruv organlarining qanday vakolatlari mavjud?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Maxsus adabiyotlar va internet resurs manbalaridan foydalanib xorijiy davlatlarda faoliyat qiluvchi byudjet tizimlari haqida axborot tayyorlang.

2. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi tarkibini aks ettiruvchi taqdimot tayyorlang.

3. “Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish loyihasi”ning mazmunini o‘rganib chiqing va uni amalga oshirish borasidagi tadbirlarning me‘yoriy-huquqiy asosini tashkil etuvchi hujjatlar ro‘yxatini ishlab chiqing.

3-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BYUDJET JARAYONI

3.1. Byudjet jarayoni, uning o‘ziga xos xususiyatlari va asosiy vazifalari

3.2. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasini tuzish

3.3. Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini ko‘rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash

3.4. Byudjet tizimi byudjetlarini ijro etish tartibi

3.5. Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot va uni tasdiqlash

3.1. Byudjet jarayoni, uning o‘ziga xos xususiyatlari va asosiy vazifalari

Byudjet jarayoni – byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosi ustidan nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonidir.

Uning mazmuni mamlakatning davlat va byudjet qurilishi, tegishli vakolatli organlar va yuridik shaxslarning byudjet huquqlari bilan belgilanadi.

Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining quyidagi to‘rt bosqichini o‘z ichiga oladi:

- byudjet loyihasini tuzish;
- byudjetni ko‘rib chiqish va tasdiqlash;
- byudjetni ijro etish;
- byudjetning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.


Byudjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to‘rt bosqichning barchasidan iborat bo‘lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini byudjet loyihasini ishlab chiqish, uni ko‘rib chiqish va tasdiqlashga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) byudjetni ijro etishga (byudjet yili) va sakkiz oyga yaqini byudjetning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to‘g‘ri keladi. Jahon amaliyotida alohida faoliyat turi sifatida tashkil etiladigan byudjet jarayoni bosqichlarga yo‘naltirilgan. Byudjet jarayoni to‘rt bosqichdan iborat: 1) tayyorlash va taqdim etish 2) tasdiqlash 3) ijro 4) audit va baholash.

Fransiyada moliya yili kalendar yiliga mos bo‘lib, u boshqa rivojlangan mamlakatlardan markazlashish darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Markaziy byudjet (umumiy byudjet, turli davlat tashkilotlari qo‘shma byudjetlari va xazinachilikning maxsus hisob-varaqlari kabilarni o‘z ichiga oluvchi davlat byudjeti) butun moliya tizimining 80 foizga yaqin daromad va xarajatlarini o‘z ichiga oladi.⁸


Byudjet jarayonini tashkil qilishda quyidagi tamoyillarga rioya qilinadi (3.1-rasm):

– yagonalik – yagona huquqiy baza, yagona byudjet tasnifi, O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va hududlar byudjetlarini tuzishda statistik axborot tuzish uchun zarur bo‘lgan byudjet hujjatlari shaklining yagonaligi;

⁸ The Federal Budget Process: A Description of the Federal and Congressional Budget Processes, including Timelines // TheCapitol.Net, Inc., 2009. 396 p.



3.1-rasm. Byudjet jarayoni tamoyillari




3.2-rasm. Byudjet jarayoni bosqichlari

– har bir qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati organi byudjet jarayonining mustaqilligi - o‘z daromad manbalari va ulardan foydalanish yo‘nalishlarini belgilash huquqi bilan ta‘minlanadi;

– balans usuli – jami byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasida, shuningdek, moddiy va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasida to'g'ri nisbatlarni belgilashni nazarda tutadi.

Byudjet jarayoni ishtirokchilari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilardir.



3.3-rasm. Byudjet jarayonining vazifalari

Byudjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to'rt bosqichning barchasidan iborat bo'lib, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini byudjet loyahasini ishlab chiqish, uni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish)ga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) byudjetni ijro etishga (byudjet davri) va sakkiz oyga yaqini byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to'g'ri keladi.

Byudjet jarayonining oldiga quyidagi muhim vazifalar qo'yiladi:

- iqtisodiy va moliyaviy taraqqiyotga erishish maqsadida barcha moddiy va moliyaviy rezervlarni maksimal qidirib topish;

- soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bashoratlari va maqsadli dasturlariga muvofiq byudjet daromadlari va ularning umumiy hajmini aniqlash;

- maqsadga mo'ljallanganligi bo'yicha, shuningdek byudjetda ko'zda tutilgan umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan barcha tadbirlarni uzluksiz moliyalashtirish ehtiyojini inobatga olgan holda byudjet xarajatlari va ularning umumiy hajmini belgilash (o'rnatish);

- iqtisodiyotdagi inflyatsion tendensiyalar va pul-kreditni tanazzulini bartaraf etishga, milliy pul birligining barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan moliyaviy barqarorlashtirishning umumiy dasturini byudjet bilan muvofiqlashtirish;

- iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan manbalar hisobidan byudjet taqchilligiga barham berish yoki uni qisqartirish;

- hududlar, xo'jalik sohalari va byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida davlat daromadlarining manbalarini qayta taqsimlash yo'li bilan turli darajadagi byudjetlarni balanslashtirish maqsadida byudjetli tartibga solishni amalga oshirish;

- zamonaviy axborot tizimi texnologiyalaridan keng foydalanish asosida va moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi orqali byudjetlarni tuzish va ijro etish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqalar.

Byudjet jarayonini tashkil etishning ishtirokchilari mavjud bo‘lib ular davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilardan iborat.

3.2. Byudjetlar loyihalarini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish hamda tasdiqlash

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va moliya yili uchun mo‘ljallangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bashorati asosida tuziladi.

Davlat byudjeti loyahasini tuzish uchun mas‘ul organlar quyidagilardir:

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

- vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, – byudjetlar loyihalarini tuzish, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan so‘ralgan axborot va ma‘lumotlarni taqdim etishga taalluqli qismi bo‘yicha;

- davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalarini tuzish uchun mas‘ul organlardir.

Byudjet so‘rovini tuzish tartibi:

– Davlat byudjeti bo‘yicha – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

– davlat maqsadli jamg‘armalari bo‘yicha – ularning taqsimlovchi organlari tomonidan belgilanadi.

Byudjet tashkiloti, byudjet mablag‘lari oluvchi va byudjet mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan *byudjet buyurtmasi* tuziladi.

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasini tuzish

- ✚ *byudjet so'rovini tuzish tartibini yuborishni;*
- ✚ *byudjet so'rovlarini hamda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bashoratlari tayyorlash va taqdim etishni;*
- ✚ *byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish va jamlashni;*
- ✚ *byudjetnomani ishlab chiqishni nazarda tutadi.*

Byudjet tashkiloti yoxud byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan tuzilgan byudjet buyurtmasi tegishli byudjet mablag'larini taqsimlovchiga byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan belgilangan muddatda, biroq tegishli moliya organi va davlat maqsadli jamg'armasini taqsimlovchi organga byudjet so'rovini taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.



Davlat byudjeti loyihasini ishlab chiqish



Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi;



Daromadlarning tashkil topish manbalari bo'yicha Davlat byudjeti daromadlari prognozi;



Byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning byudjet so'rovlari va O'zR ning respublika byudjeti hisobidan ayrim tadbirlar uchun xarajatlar hajmining prognozi;



Davlat byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori va uni qoplash manbalari;



Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent sharining mahalliy byudjetlari loyihlari asosida ishlab chiqiladi.

Byudjet buyurtmasida o'tgan va joriy yillar uchun hamda kelgusi uch yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar byudjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchi o'z tasarrufidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjet buyurtmalari asosida jamlanma byudjet buyurtmasini tuzadi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchining jamlanma byudjet buyurtmasi byudjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog'liq holda tuziladi.

Byudjet buyurtmasida xarajatlar hajmlarini o'tgan yillarga nisbatan ko'paytirishga faqat asoslovchi qonun hujjati bo'lganda va mazkur ko'paytirish byudjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturida nazarda tutilgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Byudjet so'rovini tuzish tartibini yuborish. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili 15 aprelga qadar kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti loyihagini tayyorlash uchun – byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti hamda viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga;

- davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun – davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralardan Davlat byudjeti loyihasi daromad qismi bo'yicha takliflar so'raydi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng uch ish kuni ichida tegishli byudjet so'rovlarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan so'ng uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini:

– tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish uchun – tuman va shahar hokimlariga;

– byudjet so'rovlarini tuzish uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarga yuboradi.

Tuman va shahar hokimlari kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng uch ish kuni ichida tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilarga byudjet so'rovlarini tuzish uchun yuboradi.

Byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish tartibi

Byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish:

- tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha – tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar bo‘yicha, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalari bo‘yicha – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;

- byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalari, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalari bo‘yicha – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda idoralarning Davlat byudjeti loyihasing daromad qismi bo‘yicha takliflarini ko‘rib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Byudjet so‘rovlari ko‘rib chiqilayotganda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga byudjet so‘rovlari olinganidan keyin o‘n ish kuni ichida quyidagilarga yozma bildirishlar yuborish huquqi beriladi:

- ✓ byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarga – amalga oshirish uchun asoslar mavjud bo‘lmagan, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi past bo‘lgan, byudjet daromadlarining tegishli o‘sishi bilan ta‘minlanmagan xarajatlarni kamaytirish to‘g‘risida, shuningdek byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari pasaygan hollarda xarajatlarni maqbullashtirish haqida;

- ✓ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, hokimliklar va davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarga – tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari daromadlari hamda xarajatlarining bashoratlari asossiz ravishda pasaytirilgan yoki oshirilgan hollarda, mazkur bashoratlarga tuzatish kiritish to‘g‘risida.

Ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan hollarda byudjet mablag'larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, hokimliklar va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma bildirishlarini olgandan keyin uch ish kuni ichida mazkur yozma bildirishlarda ko'rsatilgan fikr-mulohazalarni hisobga olgan holda yangilangan byudjet so'rovlarini taqdim etishi shart.

Byudjet so'rovlarini taqdim etish muddatlari

Kelgusi davr uchun byudjet so'rovlari:

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan tegishli moliya organlariga – joriy yilning 1 iyunigacha;
- byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga – joriy yilning 1 iyuligacha;
- davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga – joriy yilning 1 iyuligacha taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarining bashorati bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga joriy yilning 15 iyunigacha taqdim etadi.

Kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari hamda davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalari:

- tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmay;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalarini tayyorlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar *mahalliy byudjetlarining loyihalarini* ishlab chiqishda tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalari tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlari tomonidan:

daromadlar bo‘yicha – Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar bashoratiga doir takliflar hamda davlat soliq inspeksiyalari, hokimliklarning bo‘limlari va davlat boshqaruvi organlarining boshqa tuman hamda shahar bo‘linmalari tomonidan ma‘muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari bashoratiga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida;

xarajatlar bo‘yicha – tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning byudjet so‘rovlari asosida ishlab chiqiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining loyihalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan:

– daromadlar bo'yicha – Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar bashoratiga doir takliflar hamda davlat soliq boshqarmalari va hokimliklarning boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat boshqaruvi organlarining bo'linmalari tomonidan ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bashoratiga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida;

– xarajatlar bo'yicha – Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjet so'rovlari hamda tegishli tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan ayrim tadbirlar uchun xarajatlarning bashorat qilinayotgan hajmi asosida ishlab chiqiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalarini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat byudjetining loyahasini ishlab chiqish. Davlat byudjetining loyihasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi. Davlat byudjetining loyahasida quyidagilar nazarda tutiladi:

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bashorati;

- daromadlarning tashkil topish manbalari bo'yicha Davlat byudjeti daromadlari bashorati;

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning byudjet so'rovlari va O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hisobidan ayrim tadbirlar uchun xarajatlar hajmining bashorati;

- Davlat byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori va uni qoplash manbalari;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari loyihalari asosida ishlab chiqiladi.

Davlat byudjetining loyahasida xarajatlar daromadlarning bashorat qilinayotgan hajmidan kelib chiqib Davlat byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori hisobga olingan, uni qoplash manbalari belgilangan holda nazarda tutiladi.

Davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan ishlab chiqilgan davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalari tushumlar manbalari bo‘yicha daromadlar va yo‘nalishlar bo‘yicha xarajatlar bashoratidan tarkib topadi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalarini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan byudjet loyihalari asosida byudjetnoma shakllantiriladi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga – joriy yilning 15 sentyabriga qadar kiritiladi

Byudjetnoma – erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini nazarda tutadigan hujjat bo‘lib, ushbu yo‘nalishlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalari shakllantiriladi.

Byudjetnoma:

-mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o‘tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining bashorat bahosini;

-Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyahasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bashoratini;

-Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari joriy yildagi ijrosining bashorat bahosini;

-soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyahasini;

-Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasini;

-davlat qarzining holati to'g'risidagi ma'lumotlar;

-soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasiga doir tushuntirish xatini o'z ichiga oladi.

Byudjetnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etishi uchun – joriy yilning 20 sentyabriga qadar kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasi bo'yicha ikki haftalik muddatda xulosa taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga – O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirmay kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan Byudjetnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Mamlakatning oliy ijroiya organi - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma'qullanganidan so'ng Davlat byudjetining loyihasi muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish) uchun qonunchilik organi bo'lgan Oliy Majlisga taqdim etiladi. Odatda, byudjetning loyihasi Oliy Majlisning har bir palatasida (oldin quyi palata bo'lgan Qonunchilik palatasida va yuqori palata sanalgan Senatda) alohida-alohida muhokama qilinadi.

Mamlakat parlamentining har bir palatasida aniq byudjet masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus qo'mitalar va komissiyalar

faoliyat ko'rsatadi. Ular byudjet loyihasining tegishli moddalarini atroflicha tahlil qiladilar, zaruriy hollarda o'zgartirishlarni taklif qiladilar va tushuntiruv xati bilan birgalikda byudjetning loyihasiga xulosa beradilar.

Oliy Majlisning har bir palatalarida byudjet loyihasi qabul qilinganidan so'ng har ikki palata o'rtasida byudjet loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar mavjud bo'lmasa, mamlakat parlamentining byudjet to'g'risidagi umumiy qarori qabul qilinadi. Agar palatalar o'rtasida byudjet loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar vujudga kelsa, har ikki palataning vakillaridan iborat bo'lgan muvofiqlashtiruvchi komissiya ularni bartaraf etishi kerak.

Parlamentda byudjet loyihasini muhokama etish (ko'rib chiqish)da byudjet tashabbuskorligining mavjudligi muhim ahamiyatga egadir. Byudjet tashabbuskorligi deyilganda parlament a'zolarining hukumat tomonidan taqdim etilgan byudjet loyihasiga nisbatan o'zgartirishlar kiritish huquqi nazarda tutiladi.⁹

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari Davlat byudjetini, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini hamda navbatdagi yil uchun soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining navbatdagi yil uchun Davlat byudjeti to'g'risidagi qarorlarini ijro etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinadi, unda:

- asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bashorati;
- Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining asosiy o'lchamlari;
- Davlat byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori va uni qoplash manbalari;
- davlat maqsadli jamg'armalarining asosiy o'lchamlari;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari miqdorlari;

⁹ Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce. 2013. 656 p.

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlari, O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalarning cheklangan miqdorlari;

-umumdavlat soliqlari tushumlaridan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratmalarning normativlari;

-O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg‘armasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg‘armalari miqdorlari tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bashorati va Davlat byudjetining asosiy parametrlarini tasdiqlashga doir qaroriga muvofiq, qaror qabul qilingandan so‘ng bir haftalik muddatda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari hamda xarajatlarining hajmlari qabul qilinadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qabul qilgan qarorlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari o‘n ish kuni ichida:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlarini, Qoraqalpog‘iston

Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan o'tkazib beriladigan daromadlar, subvensiyalar va dotatsiyalarning cheklangan miqdorlarini;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar byudjetlariga soliq tushumlaridan ajratmalarning normativlarini. Umumdavlat soliqlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratmalarning normativlari ayni shu soliqlardan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratmalarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan normativlaridan ortiq bo'lmagan miqdorlarda belgilanadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalari miqdorlarini;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar byudjetlari aylanma kassa mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdorlarini tasdiqlash bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari qabul qilinganidan keyin bir haftalik muddatda tuman va shahar hokimlarining qarorlari bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlarning byudjetlari qabul qilinadi.

Davlat byudjetining, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining asosiy parametrlari tasdiqlanganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:¹⁰

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 100-moddasiga ko'ra.

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlari hajmlarini, shuningdek ularga O‘zbekiston Respublikasi byudjetidan beriladigan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar hajmlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari e‘tiboriga – uch ish kuni ichida;

– byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar va davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar uchun belgilangan daromadlar va xarajatlarning hajmlarini ularning e‘tiboriga – o‘n ish kuni ichida yetkazadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari qabul qilinganidan keyin tegishli moliya organlari bir haftalik muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan hamda viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar e‘tiboriga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmlarini yetkazadi.

3.3. Byudjet tizimi byudjetlarini ijro etish tartibi

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan, byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tushishini ta‘minlash va xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog‘liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi byudjetining, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ta‘minlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan ta‘minlanadi.

Byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining ijrosi byudjet tashkilotlari tomonidan ta'minlanadi.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi. G'azna ijrosi faoliyatni chet elda amalga oshirayotgan byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilarga tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida byudjet tizimi byudjetlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar o'z xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larni moliya yili tugaguniga qadar sarflashga haqli.

Mamlakatda mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni, ichki tartibni saqlash bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi.¹¹

Yagona g'azna hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag'i bo'lib, unga byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va boshqa tushumlari kiritiladi hamda undan mazkur byudjetlarning xarajatlari to'lanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va boshqa banklarda o'zga bank hisobvaraqlari ochish huquqiga ega.

Yagona g'azna hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladi.

Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri bo'lib, bu davr mobaynida o'tgan yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet tizimi byudjetlarining qo'shimcha vaqt davridagi

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 110-moddasiga ko'ra.

ijrosi bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibini va eng kech muddatlarini belgilaydi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarini boshqarishda joriy moliya yili uchun mo'ljallangan Davlat byudjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori ortgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga Davlat byudjeti xarajatlarini qisqartirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Davlat byudjeti xarajatlarini qisqartirishda xarajatlarning ustuvorligi va ijtimoiy yo'naltirilganligi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning qabul qilingan yuridik hamda moliyaviy majburiyatlari hisobga olingan holda baholanadi.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan, byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tushishini ta'minlash va xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi.¹²


Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi. G'azna ijrosi faoliyatni chet elda amalga oshirayotgan byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilarga tatbiq etilmaydi.

Byudjet ijrosini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona axborot tizimida byudjet tizimi byudjetlari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi.

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar o'z xarajatlari smetalarida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larni moliya yili tugaguniga qadar sarflaydilar.

¹² O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, VII bo'lim, 19-bob, 109-modda.

Byudjet qonunchiligiga muvofiq, mamlakatda mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni, ichki tartibni saqlash bilan bogʻliq xarajatlar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.



3.4-rasm. Byudjet tizimi byudjetlari daromadlari ijrosini tashkil etish¹³

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qoʻshimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qoʻshimcha vaqt davri boʻlib, bu davr mobaynida oʻtgan yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet tizimi byudjetlarining qoʻshimcha vaqt davridagi ijrosi boʻyicha operatsiyalarni oʻtkazish tartibini va eng kech muddatlarini belgilaydi.

Byudjet Kodeksining 117-moddasida byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi nimalarni oʻz ichiga olishi koʻrsatilgan

¹³ Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining VII boʻlim, 19-bob, 109-moddasi asosida keltirildi.

bo'lib, byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tushumlarni Yagona g'azna hisobvarag'iga va boshqa bank hisobvaraqlariga kiritish;
- tushumlarni byudjet tizimining byudjetlari o'rtasida taqsimlash;
- ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan tushum summalarini qaytarishni yoxud ularni qarzni to'lash evaziga hisobga olish;
- hisob va hisobot.

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlarni yig'ishga vakolatli bo'lgan organlar va tashkilotlar, bundan davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari mustasno, daromadlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, shuningdek, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organiga hisobot taqdim etishi shart.

Byudjet Kodeksining 120-moddasiga ko'ra, byudjet tizimi byudjetlari xarajatlar qismining ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi:

- yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish;
- kassa xarajatlarini amalga oshirish, shu jumladan byudjetlararo transfertlarni o'tkazish;
- hisob va hisobot.

Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida hamda byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Byudjet ijrosi jarayonida byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarga turli darajadagi byudjetlardan byudjet mablag'larini ajratishga yo'l qo'yilmaydi.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi jarayonida byudjetdan ajratiladigan mablag'lar quyidagi holatlarda kamaytiriladi:

1) quyidagilar munosabati bilan foydalanilmay qolgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larning:

- byudjet tashkilotlarining tarmog'i, shtatlari va kontingentlari bo'yicha reja bajarilmaganligi;

- byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan shtat jadvalida nazarda tutilgan shtat birliklari to'ldirilmaganligi;

- kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar moliya yili yakuni bo'yicha to'liq o'zlashtirilmaganligi;

- byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilar faoliyati to'xtatib turilganligi, to'xtatib turilgan davr uchun;

2) davlat moliyaviy nazorati bo'yicha tadbirlar davomida aniqlangan, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tasdiqlangan xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan ortiqcha va qonunga xilof ravishda byudjetdan ajratiladigan mablag'larning;

3) qonun hujjatlari qabul qilinishi munosabati bilan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar miqdorlarining qisqartirilishi;

4) moliya yili boshiga tovar-moddiy qimmatliklarning normative-dan ortiq zaxiralarining;

5) dotatsiyalar va subsidiyalarni to'lash uchun mo'ljallanib, zarurat qolmagan summalariga kamaytiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat byudjeti ijrosining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tuman va shahar Kengashlari o'z byudjetlarining balanslilikiga buzilishiga va Davlat byudjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori oshishiga olib keladigan tegishli byudjet daromadlarini qisqartirishga yoki xara-

jatlarini ko'paytirishga qaratilgan biror-bir qaror qabul qilishga haqli emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tuman va shahar Kengashlarining tegishli byudjet daromadlari qisqarishiga olib keladigan qarorlari tegishli byudjet xarajatlari qisqartirilgan taqdirdagina qabul qilinishi mumkin.

Agar Davlat byudjeti qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida tegishli byudjetlarning daromadlari va xarajatlari parametrlarini ko'paytirish yoki kamaytirish to'g'risida qarorlar qabul qilinsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya organlari tomonidan tegishli darajadagi byudjetlar hajmlariga o'zgartirishlar kiritiladi. Xarajatlarni ko'paytirish yoki qisqartirish barcha darajadagi byudjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar yo'li bilan amalga oshiriladi.

Joriy moliya yilining byudjet tizimi byudjetlariga tushumlarni kiritish bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalari joriy moliya yilining oxirgi ish kunida yakunlanadi. Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlariga kelgusi yilda kiritilgan daromadlar yangi boshlangan yil daromadlari hisoblanadi.

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlari bo'yicha tranzit hisobvaraqlariga joriy yilning oxirgi ish kuni tugaguniga qadar kiritilgan va yangi boshlangan yilning uch ish kuni mobaynida Yagona g'azna hisobvarag'iga o'tkazilgan daromadlar o'tgan yilning daromadlari hisoblanadi.

Joriy yilning Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalaridan barcha to'lovlari moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri tugaganidan so'ng yakunlanadi.

Qo‘shimcha vaqt davrida joriy moliya yili uchun Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini ijro etish bo‘yicha operatsiyalar, shu jumladan:

- byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish;
- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning kreditorlik qarzlarni to‘lash;
- byudjet tashkilotlari tomonidan iqtisod qilingan mablag‘lar summalarini byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armalariga (tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armalariga) o‘tkazish;

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari mablag‘lari hisobidan boshqa ruxsat etilgan to‘lovlar amalga oshiriladi.

Byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish yuqori va quyi turuvchi byudjetlar, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalari o‘rtasidagi o‘zaro qarzdorlikning jami summasi to‘lanishini nazarda tutadi.

Agar yil mobaynida davlat daromadlari ancha qisqargan va Davlat byudjetining oldindan belgilangan taqchilligi qonun hujjatlarida belgilangan chegara miqdoridan oshadigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining xarajatlarini alohida moddalar bo‘yicha qisqartirish to‘g‘risida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taklif kiritadi.

Turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik tafovutni to‘g‘rilash maqsadida moliya yili davomida ularga tegishli byudjetlardan byudjet ssudalari ajratilishi mumkin. Byudjet ssudalarini berishning eng kech muddati va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Shuningdek, turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik farqni moliya yili davomida aylanma kassa mablag‘i me‘yori hisobiga uni moliya yili oxirigacha tasdiqlangan hajmga qadar tiklagan holda, byudjet mablag‘larining foydalanilmagan qoldiqlari hisobiga va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat-

ning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarini chiqarish hisobiga ham qoplash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat byudjeti ijrosining nazorat qilinishini amalga oshirish davomida:

- turli darajadagi byudjetlar ijrosi yakunlarini ko'rib chiqadi;
- turli darajadagi byudjetlarga mablag'lar tushumi to'g'risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlardan axborot oladi;
- byudjet mablag'lari oluvchilardan byudjetdan ajratiladigan mablag'larning tushumi va sarfi to'g'risida ma'lumotlar talab qilib oladi;
- qonun hujjatlariga muvofiq banklardan byudjet mablag'lari harakati to'g'risida ma'lumotlar oladi;
- byudjet mablag'lari oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyatini o'z vakolatlari doirasida taftish qiladi va tekshiruvdan o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat byudjeti ijrosining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi.

3.4. Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot va uni tasdiqlash

Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot byudjet ijrosining yakuni (natijalari)ni o'zida ifoda etadi. Shu munosabat bilan Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar byudjetidan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etishi kerak. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan hamda mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik

to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etmoqlari lozim.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot byudjet tasnifiga muvofiq muayyan davr uchun Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining ijrosi natijalaridan iborat bo'ladi.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot quyidagi hisobot shakllarini o'z ichiga oladi:

- Davlat byudjeti ijrosining balansi;
- Davlat byudjeti daromadlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot;
- Davlat byudjeti xarajatlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot;
- byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;

- Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha tarmoq, shtatlar va kontingentlarga doir rejaning bajarilishi to'g'risidagi hisobot.

Tumanlar va shaharlar bo'yicha g'aznachilik bo'linmalari tegishli tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlariga tumanlar va shaharlar byudjetlarining kassa ijrosi to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari hisobot davri uchun tumanlar va shaharlar byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar bo'yicha:

- yuqori turuvchi moliya organlariga – ular belgilagan muddatlarda;

- tegishli hokimliklarga – tumanlar va shaharlar byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot yuqori turuvchi moliya organlariga taqdim etilganidan so'ng uch ish kuni ichida taqdim etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha g'aznachilik boshqarmalari Qoraqalpog'iston Respublikasi

byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining kassa ijrosi to'g'risidagi hisobotni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga taqdim etadi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan tegishli byudjetlarning kassa ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni moliya organlariga taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari hisobot davri uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga – u belgilagan muddatlarda;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va tegishli hokimliklarga – Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilganidan so'ng uch ish kuni ichida taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan shakllar bo'yicha Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni tuzadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga:

- Davlat byudjeti ijrosining borishi to'g'risidagi choraklik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda;

- Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning *1 apreligacha* taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi

yillik hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga tashqi audit o‘tkazish va baholash uchun hisobot yilidan keyingi yilning 5 *apreligacha* yuboradi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotga doir xulosani hisobot yilidan keyingi yilning 10 *mayidan* kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuboradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan birga hisobot yilidan keyingi yilning 15 *mayidan* kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari tegishli byudjetlar ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotlarni hisobot yilidan keyingi yilning 10 *mayidan* so‘ng tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlariga taqdim etadi.

Tegishli byudjetning ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobot tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlari qarorlari bilan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hisobot davri uchun taqdim etilgan Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraksiyalari, deputatlar guruhlari va qo‘mtalarida muhokama qilish asosida ko‘rib chiqadi.

Tegishli hisobot davri uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraksiyalari, deputatlar guruhlar va qo'mitalarida ko'rib chiqilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan tasdiqlangandan so'ng hisobot yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi axborot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Nazorat uchun savollar

1. Byudjet jarayoni deb nimaga aytiladi?
2. Byudjet jarayonining mazmuni nimalar bilan belgilanadi va unda nimalar muhim rol o'ynaydi?
3. Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining qanday bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi?
4. Byudjet jarayonining oldiga qanday muhim vazifalar qo'yiladi?
5. Byudjet jarayonining ishtirokchilarikimlar (qanday subyektlar) hisoblanadi?
6. Byudjet jarayonini tashkil etishda qanday tamoyillarga rioya qilinadi?
7. Byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish) jarayonida qanday masalalar yechiladi yoki ularga aniqlik kiritiladi?
8. Byudjet loyihasini tuzishdan oldin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga qanday organlarga byudjet so'rovini yuborishi kerak?

9. Kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat byudjet loyihasi o'z ichiga nimalarni oladi?

10. Byudjetnomada nimalar aks ettiriladi?

11. Davlat byudjetining loyihasi muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish) uchun qanday organga taqdim etiladi?

12. Davlat byudjeti kim tomonidan qabul qilinadi?

13. Davlat byudjetiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar byudjetlari, shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlari va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar byudjetlari qanday organlar tomonidan qabul qilinadi?

14. Davlat byudjeti qabul qilingandan so'ng, uning mablag'lari byudjet mablag'lari oluvchilarga qanday tartibda va muddatlarda yetkazilishi kerak?

15. Byudjetni ijro etish qachondan boshlanadi?

16. Byudjet jarayonining bu bosqichi o'z ichiga nimalarning bajarilishini qamrab oladi?

17. Davlat g'aznachilik tizimi byudjet ijrosi bo'yicha nimalarni amalga oshiradi?

18. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat byudjeti ijrosining nazorat qilinishini amalga oshirish davomida qanday ishlarni amalga oshiradilar?

19. Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot o'zida nimani ifoda etadi?

20. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qachondan kechiktirmay taqdim etishi kerak?

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga qachongacha taqdim etishi mumkin?

22. Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot kim (qanday organ) tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi?

23. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar kimlar tomonidan (qanday organ) ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Maxsus adabiyotlar va internet resurs manbalaridan foydalanib xorijiy davlatlar byudjet jarayonlari axborot tayyorlang.

2. O‘zbekiston Respublikasida byudjeti jarayoni bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshirilgan ishlar sharxini aks ettiruvchi taqdimot tayyorlang.

3. “Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish loyihasi”ning mazmunini o‘rganib chiqing va uni amalga oshirish borasidagi tadbirlarning me‘yoriy-huquqiy asosini tashkil etuvchi hujjatlar ro‘yxatini ishlab chiqing.

4-MAVZU. BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI G‘AZNACHILIK IJROSINING NAZARIY JIHLATLARI

4.1. Byudjet g‘azna ijrosining zarurligi, mohiyati va mazmuni

4.2. O‘zbekistonda davlat byudjeti g‘aznachilik ijrosiga o‘tishning bosqichlari

4.3. G‘aznachilik ijrosini amalga oshirishning tashkiliy elementlari va xususiyatlari

4.1. Byudjet g‘azna ijrosining zarurligi, mohiyati va mazmuni

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Bunda davlat moliyasini boshqarish shakllari va usullarini takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari va boshqa texnik vositalar yordamida axborotni jamlash, qayta ishlash, uzatish qoidalari va usullarini o‘zlashtirish asosida axborotlashtirishni yanada rivojlantirish talab etiladi.

Davlat Byudjeti orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlashda, respublikamizda qabul qilingan ijtimoiy dasturlarni, birinchi navbatda, aholining ijtimoiy nochor tabaqalarini aniq tarzda qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom avlodni tarbiyalash asosida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatning ta‘sirchanligi va aniq tarzda moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishda mahalliy Byudjetlarni samarali ijrosining ahamiyati katta. Bozor iqtisodiyotida davlatning moliyaviy

resurslarni boshqarish ahamiyati beqiyos hisoblanadi, shu sababli respublikamizda Davlat byudjeti ijrosini amalga oshirishda g'aznachilik tizimiga o'tish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Byudjet tizimi mamlakat moliya tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, uning muvaffaqiyatli tashkil etilishi samarali byudjet siyosatining asosini tashkil etadi. Davlat moliyasi tizimidagi tub islohotlar natijasida byudjetning g'azna ijrosiga o'tilishi shuningdek, byudjetning o'rta muddatli istiqbolini belgilashga o'tish chora-tadbirlari mamlakatimizda izchillik bilan amaliyotga joriy etilmoqda. Jahon andozalari va xalqaro byudjet amaliyotining yangi qat'iy talablari va mezonlari asosida davlat byudjetining o'rta muddatli istiqbolini belgilash tizimiga o'tishning joriy etilishi, rivojlangan mamlakatlarda samarali amal qilayotgan natijaviylikka asoslangan byudjetlashtirishning amaliyotga joriy etilishi byudjet tizimi oldiga ham ulkan vazifalar qo'yadi.

Byudjet so'zi – XV asrlarda paydo bo'lgan bo'lib, O'rta asrlardagi Fransuz tilidan “bougette”, qadimgi fransuz tilidagi “bouje”, ya'ni “charm sumka, hamyon, kichik charm sumka”, lotin tilidagi “bulga” so'zidan olingan bo'lib, “charm sumka” degan ma'nolarni anglatadi. Zamonaviy moliyaviy ma'nosi (1973) g'aznachilik vaziri fiskal rejalarini o'zining hamyonida saqlashi degan tushunchani beradi. Boshqa ma'nosi XVIII asrda “yangiliklar shodasi” bo'lib ko'chdi, shu sababdan bu so'zni ishlatish ayrim gazetalar uchun sarlavha sifatida ishlatilgan.

Oksford lug'atida keltirilishicha, byudjet – ma'lum davr uchun daromad va xarajatni hisoblash degan ma'noni anglatadi: Moliya Vaziri tomonidan yillik daromad va xarajatlarni muntazam baholash, ya'ni oldinga qo'yilgan maqsadga muvofiq kerakli pul mablag'ini anglatadi. Merrayam-Vebster lug'atiga ko'ra, Byudjet qanday qilib sarflanishi rejalashtirilganligiga bog'liq holda sarflanishga qodir bo'lgan pul mablag'i miqdoridir. Ya'ni, pul miqdorini qancha sarflanishi mumkinligini va kelajakda qancha sarflanishidir. Bu

hukumat tomonidan belgilangan davr ichida qancha sarflanishi rejalashtirilganligi va xarajatlar uchun qancha to‘lanishi haqidagi rasmiy ma‘lumot. Rene Stourmning fikriga ko‘ra: “byudjet – davlatning yillik tushumi va xarajatlarini bashorat qiladi va tasdiqlaydi”.¹⁴

Byudjet tuzilishi mamlakatning davlat byudjeti va byudjet tizimini, uning bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, Byudjet tasnifini, Byudjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi Byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, Byudjetlar tarkibi va tuzilmasini, Byudjet mablag‘larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.

Byudjet tuzilishining qanday tuzilganligi mamlakatning ma‘muriy-hududiy tuzilishiga va hukumat organlarining vakolatlari taqsimotiga bog‘liq bo‘ladi. Markaziy hukumat bilan mamlakatning ma‘muriy-hududiy tuzilmalari (shtatlar, provinsiyalar, oblastlar, o‘lkalar kabi) o‘rtasida hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishiga ko‘ra barcha davlatlar unitar va federativ (federativ davlatlarda davlat tuzilishining ikki shakli – federativ va konfederativ davlat tuzilishi mavjud) davlatlarga bo‘linadi. Unitar va federativ (konfederativ) davlat tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagi chizmada aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet tuzilishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har yili qabul qilinadigan “O‘zbekiston Respublikasining davlat Byudjeti to‘g‘risidagi” Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat Byudjeti parametrlari bashoratlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

Byudjet birinchi navbatda aniq olingan vaqt davomida daromadlar va xarajatlarni bashorat qiladi. U shu bilan birga asosli huquqlar asosida xarajatlar qilish va daromadlarni yig‘ish demakdir. Davlat

¹⁴ *Williams M.* Government: Cash Management Its Interaction with Other Financial Policies. International Monettare Fund Fiscal Attairs Department Technical Guidance Note. 2010. 201 p.

byudjeti o‘zining resurslari hisobi va bu resurslarni ma’muriy va ijtimoiy talablar uchun katta miqdordagi xarajatlarning qoplanishidir. E.Bukning fikriga ko‘ra, byudjet 3 ta komponentdan tashkil topgan: moliyaviy reja; bajariladigan ish tartibini tuzish, tasdiqlash, rejani ijro etish va nazorat qilish; va ayrim hukumat vakillari bu har bir rejani bajarishga va shu tartibda ijro etishga ma’suldirlar ¹⁵.

Byudjet tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Byudjet tizimining yagonaligi;
- Byudjet tizimining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- Byudjet tizimi byudjetlarining balanslilik va o‘zaro bog‘liqligi;
- Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini bashorat qilish va xarajatlarini rejalashtirish;
- Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanishning aniq yo‘naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;
- Byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi;
- Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanishning natijadorligi;
- kassaning yagonaligi;
- Byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi;
- ochiqlik.

Byudjet tizimini professorlar T.S.Malikov va N.X.Haydarovlar quyidagicha ta’riflaganlar: “Byudjet tizimi bu turli darajadagi Byudjetlar va Byudjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, Byudjetlarni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini ifodalaydigan, Byudjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek Byudjetlar hamda Byudjet mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlar majmuidir. Ko‘pchilik hollarda, soddaroq tarzda, byudjet tizimi deyilganda, mamlakatdagi mavjud byudjetlar to‘plami (majmui) tushuniladi” ¹⁶.

¹⁵ *Williams M.* Government: Cash Management Its Interaction with Other Financial Policies. International Monetary Fund Fiscal Affairs Department Technical Guidance Note. 2010. 201 p.

¹⁶ *Malikov T.S., Haydarov N.H.* Byudjet daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo‘llanma / Toshkent Moliya instituti. T. 2007. 200 b.

Avvalo, byudjet jarayoni tushunchasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinishiga tegishli bo'lgan davlat hokimiyat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda byudjet jarayoni ishtirokchilarining faoliyatiga byudjet jarayoni deyiladi. Byudjet jarayoni – byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonidir.¹⁷

Davlat moliyasini boshqarish masalalari iqtisodiyot va moliya nazariyasida markaziy o'rinni egallaydi. Iqtisodiyotni va davlat moliyasini boshqarishdagi muammolar shundan iboratki, bozor xo'jaligi o'z-o'zini tartiblovchi va rivojlantiruvchi tizim (bozorning "ko'rinmas qo'li") bo'lishiga qaramasdan, hech qachon davlat aralashuvisiz samarali ishlamagan. Tarixiy taraqqiyotdan ma'lumki, umuman olganda, kapitalistik bozor xo'jaligining yuzaga kelishi faol davlat aralashuvi bilan birga sodir bo'lgan. Masalan, 1563-yilda ingliz qirolichasi Yelizaveta I milliy baliqchilikni qo'llab-quvvatlash va unga bo'lgan talabni oshirish maqsadida o'z xizmatkorlariga haftasiga 2 marta go'sht mahsulotlarini iste'mol qilishni ta'qiqlagan. 1666-yilda esa Angliyada jun mahsulotlarini sotish bilan bog'liq qiyinchiliklarni tugatish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilgan, xususan, vafot etgan fuqarolarni jun matodan bo'lgan kiyimlarda dafn etish majburiy qilib qo'yilgan, bu qonunni buzganlarga 5 funt-sterling miqdorida jarima belgilangan.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi (O'RQ-360-son. 26.12.2013)ning 3-moddasi asosida.

Aksariyat hozirgi zamon iqtisodchi-olimlarning fikricha, bozorning “ko‘rinmas qo‘li” davlatning “ko‘rinadigan qo‘li” bilan to‘ldirilib turilishi kerak. Bu borada kelishmovchiliklar, qarama-qarshi fikrlar yuzaga kelishining sababi bu aralashuvning qay darajada bo‘lishi bilan bog‘liq, lekin davlatning tartiblovchi tamoyili asosan ko‘pchilik olimlar tomonidan e‘tirof etilmoqda. Bunday yakdillikning asosiy sababi shundaki, olimlarning fikriga ko‘ra, bozor jamiyatda mavjud bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning barchasini o‘z-o‘zidan hal qila olmaydi. Misol uchun, monopoliya sharoitida o‘z-o‘zini tartiblash raqobatni rivojlantira olmaydi, bu esa tovarlar ma‘lum turlari narxining oshishiga olib keladi va natijada aholi daromadlari iqtisodiyotning alohida bir sektorida ushlanib qoladi. Bunday hollarda bozor mexanizmi samarasiz ishlay boshlaydi va iqtisodiy tanglik sharoitida iqtisodiyotni barqarorlashtirishda bozor mexanizmi sust qatnashadi. Shuning uchun, iqtisodiyotni tartiblovchi qo‘shimcha mexanizmlarni ishlab chiqish ehtiyoji tug‘iladi. Ana shunday mexanizmlardan biri – davlatning iqtisodiyotni tartiblovchi dastak va vositalaridir. Iqtisodiyotni faqat “ko‘rinmas qo‘l”ga tashlab qo‘yish ijobiy natija bermasligini va bu haqiqatning naqadar to‘g‘ri ekanligini bugungi kundagi reallik, jahonda yuz berayotgan to‘fonlar tasdiqlab turibdi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning bosh maqsadi – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, mamlakatda mavjud ichki tuzumni mustahkamlash, mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy jarayonlarni jahondagi o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirishdan iborat. Tartiblashning boshqa barcha maqsad va vazifalari ana shu bosh maqsadga bo‘ysundirilgan.

Bu borada davlat moliyasini boshqarish va tashkil qilishning oldida qanday vazifalar turganini ta‘kidlab o‘tish o‘rinli, ular:

– muvozanatlashtirilgan bozorga kirib borishda barqaror taraqqiyotga erishish maqsadida maksimal darajada moddiy va moliyaviy rezervlarni qidirib topish;

– ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va maqsadli dasturlarning samarali bajarilishini ta'minlovchi byudjet daromadlarining umumiy hajmini to'g'ri belgilash;

– umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan barcha tadbirlarni uzluksiz moliyalashtirish ehtiyojini inobatga olgan holda, davlat byudjeti xarajatlari umumiy hajmini to'g'ri belgilash va ularni optimallashtirish;

– iqtisodiyotdagi inflyatsion tendensiyalar va pul-kredit nobarqarorligini bartaraf etishga, milliy pul birligining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy barqarorlashtirish dasturlarini davlat byudjet siyosati chora-tadbirlari bilan muvofiqlashtirish;

– iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan noinflyatsion manbalar hisobidan byudjet defitsitiga barham berish yoki uni qisqartirish;

– iqtisodiy mintaqalar, xo'jalik sohalari va byudjetlar o'rtasida davlat daromadlarini qayta taqsimlash yo'li bilan turli darajadagi byudjetlarni balanslashtirish maqsadida byudjetni oqilona tartibga solishni amalga oshirish;

– keng ko'lamlı ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash imkonini beradigan byudjetni o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallab rejalashtirishning ahamiyatini oshirish;

– soliq majburiyatlarini bajarishda alohida fuqarolar va yuridik shaxslarning moliyaviy faoliyatlari ustidan nazoratni ta'minlash;

– zamonaviy texnika va texnologiyalardan keng foydalanish asosida va moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish orqali byudjetlarni tuzish va ijro etish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqalar.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri – mamlakatda davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimini joriy qilishdan iborat. G'aznachilikni joriy etish byudjetning daromadlar qismida tushumlarning to'liq va o'z vaqtida tushishini va

xarajatlar qismida byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini beradi. *Davlat byudjetining kassaviy ijrosi* sharoitida Markaziy bank va uning topshirig‘iga muvofiq tijorat banklari davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshiradilar. “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 37-moddasiga muvofiq, “Davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Davlat byudjetining kassa ijrosi operatsiyalarini banklar Markaziy bankning topshirig‘iga binoan bajaradi.

Byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlari ularning hisobvaraqlaridagi byudjet mablag‘lari qoldiqlari doirasida to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tashkil etish, shuningdek, uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Davlat byudjeti ijrosi g‘aznachilik tizimining joriy etilishi quyidagi ijobiy natijalarga erishishga imkoniyat beradi:

- davlat moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko‘rsatkichlarini doimiy nazorat qilish;
- davlat moliyasining holati to‘g‘risidagi tezkor va muntazam ravishda axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish;
- davlat byudjeti daromad va xarajatlari kassa ijrosining har kungi aniqlashtirilgan monitoringini o‘tkazish;
- tasdiqlangan byudjet mablag‘lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini qabul qilish bosqichida dastlabki nazoratni amalga oshirish;
- moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o‘z vaqtida va manzilli moliyalashtirish orqali byudjet mablag‘larini bosh taqsimlov-

chilari tomonidan suiste'mol qilish va noto'g'ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat olib borish;

– byudjet tashkilotlari majburiyatlarni olgandan keyin pul mablag'larini G'aznachilik hisobraqamidan to'g'ridan to'g'ri tovar yetkazib beruvchilar hisobraqamiga o'tkazish orqali pul oqimlari harakatini tezlashtirish;

– o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish orqali ta'minotchilarning moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash;

– g'aznachilik tizimining bir pog'onasidan ikkinchi pog'onasiga pul mablag'lari o'tkazishni tezlashtirish orqali byudjet mablag'larining tezkor harakat qilishini ta'minlash.

G'aznachilik tizimida Davlat byudjeti xarajatlarini, birinchi navbatda, birinchi darajali xarajatlarni o'z vaqtida to'lash, kassaviy uzilish holatlarining oldini olish, bir mintaqaga tushadigan resurslarni boshqa mintaqaning majburiyatini ta'minlash uchun yo'naltirish yo'li bilan markazlashgan tarzda turli darajadagi byudjetlarning daromadlarini boshqarish mexanizmini joriy qilish mumkin.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan, byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tushishini ta'minlash va xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi¹⁸.


Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi. G'azna ijrosi faoliyatni chet elda amalga oshirayotgan byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilarga tatbiq etilmaydi.

Byudjet ijrosini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona axborot tizimida byudjet tizimi byudjetlari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, VII bo'lim, 19-bob, 109-modda.

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar o'z xarajatlari smetalarida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larni moliya yili tugaguniga qadar sarflaydilar.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri bo'lib, bu davr mobaynida o'tgan yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet tizimi byudjetlarining qo'shimcha vaqt davridagi ijrosi bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibini va eng kech muddatlarini belgilaydi.




4.1-rasm. Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosini tashkil etish¹⁹

Byudjet Kodeksining 117-moddasida byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi nimalarni o'z ichiga olishi ko'rsatilgan bo'lib, byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 109-moddasi asosida keltirildi.

- tushumlarni Yagona g'azna hisobvarag'iga va boshqa bank hisobvaraqlariga kiritish;
- tushumlarni byudjet tizimining byudjetlari o'rtasida taqsimlash;
- ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan tushum summalarini qaytarishni yoxud ularni qarzni to'lash evaziga hisobga olish;
- hisob va hisobot.



4.2-rasm. Byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi mexanizmi

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlarni yig'ishga vakolatli bo'lgan organlar va tashkilotlar, bundan davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari mustasno, daromadlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, shuningdek, agar qonun

*hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organiga hisobot taqdim etishi shart.*²⁰

Byudjet Kodeksining 120-moddasiga ko'ra, byudjet tizimi byudjetlari xarajatlar qismining ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi:

- yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish;
- kassa xarajatlarini amalga oshirish, shu jumladan byudjetlararo transfertlarni o'tkazish;
- hisob va hisobot.



4.3-rasm. Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari ijrosini tashkil etish


Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida hamda byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Davlat moliyasini boshqarish (DMB)ni isloh etish strategiyasi O'zbekiston Respub-

²⁰ Steven M. Bragg. TREASURY MANAGEMENT The Practitioner's Guide. John Wiley & Sons, Inc. 2010 New Jersey.

likasida DMB tizimini nazorat qilishni takomillashtirishdan iborat. Ushbu strategiyadan kutilayotgan oraliq maqsad – DMB tizimida muhim jarayonlarni modernizatsiyalash bo‘lib, bugungi kunda islohotlar strategiyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat (4.4-rasm).

2005 yil may oyida davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tizimini bosqichma-bosqich joriy etishni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida “Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tadbiq etish va uslubiyot boshqarmasi”, keyinchalik (2007 yilda) uning negizida Moliya vazirligi G‘aznachiligi tashkil etildi.

2007 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-721-son Qarori (01.11.2007) qabul qilinib, unda davlat moliyasini boshqarishni isloh etish loyihasini yangi ishtirokchi – Osiyo taraqqiyot banki bilan birga amalga oshirish belgilandi.



4.4-rasm. Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish strategiyasi yo‘nalishlari²¹

Yuqorida ta’kidlanganidek, davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri – byudjet

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2007-yil 1-noyabrdagi PQ-721-sonli qarori asosida.

tizimining to‘liq shaffofligini ta‘minlash maqsadida byudjet mablag‘larini ularning oluvchilariga yetkazishda kechikishlarga, qarzdorlikka yo‘l qo‘ymaslik, byudjet mablag‘laridan maqsadsiz foydalanish holatlariga barham berish, byudjetlararo munosabatlar samaradorligini oshirgan holda hokimiyatlarning turli darajalaridagi byudjetlarning hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarning daromad va xarajatlari hisobraqamlarini G‘aznachilikka o‘tkazishdan iborat.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi davlat byudjetining g‘azna ijrosi mexanizmlarini O‘zbekistonda ham joriy etish va rivojlantirish, davlatning moliyaviy resurslarini boshqarishning axborotlashtirilgan tizimini joriy etish, davlat moliyasining holati to‘g‘risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradi, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta‘minlaydi. G‘aznachilik tizimi davlat byudjetini ijro etishning samarali va amaliy mexanizmi hisoblanib, unda davlat daromadlari va xarajatlari bo‘yicha barcha operatsiyalar G‘aznachilik tomonidan amalga oshiriladi.

Muhtaram birinchi Prezidentimiz bu borada shunday degan edilar: “Davlatning xazinasini, uning daromad va buromadini, bugungi va ertangi kunini belgilaydigan boylik qayerda saqlanadi, kim uni himoyalaydi? Albatta, Moliya vazirligi. Shu ma‘noda, agar menga qolsa, Moliya vazirligini Xazina vazirligi deb atagan bo‘lardim”.²²

Zero, “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo‘lishini ta‘minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir. ... Albatta, Davlat byudjeti o‘lchovsiz emas, mablag‘larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatilishini ta‘minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo‘lmaydigan

²² *I.Karimov*. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. T.: O‘zbekiston. 2005. 285-bet.

haqiqat. Shunday ekan, nima uchun G‘aznachilik va Nazorat-taftish boshqarmasining apparatlari haddan tashqari kengayib ketgan? »²³

Davlat byudjetining g‘azna ijrosi deganda davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘lari to‘planadigan va ushbu mablag‘lar doirasida aniq belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g‘azna hisobraqam orqali davlat byudjetini ijro etish hamda davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish tushuniladi.

G‘aznachilik byudjet tashkilotlarining va byudjetdan mablag‘ oluvchilarning majburiyatlarini ro‘yxatga oladi, mol yetkazib beruvchilar tomonidan ularga mahsulotlar yetkazib berilganidan va xizmatlar ko‘rsatilgandan so‘ng, byudjet tashkilotlarining va byudjetdan mablag‘ oluvchilarning nomidan va ularning topshirig‘iga asosan G‘aznachilik vakolatni o‘z zimmasiga oladi va byudjet mablag‘larining maqsadli ishlatilishini ta‘minlash asosida taqdim qilingan hujjatlar bo‘yicha to‘lovni amalga oshiradi.

G‘aznachilikning rivojlanishi byudjet ijrosida ishtirok etuvchi barcha darajadagi moliya va soliq organlarining faoliyatini umumlash-tiradi, yangi sharoitlarda ularning butun faoliyati davlat moliyaviy mablag‘larini yagona davlat xazinasida jamlashga qaratiladi.

Har qanday davlat va jamiyatning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarini bajarish uchun kuchli ijtimoiy himoya, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, mudofaa hamda boshqaruv organlarini saqlab turish zarur bo‘ladi. Buning uchun rivojlangan byudjet tizimini yaratish, mamlakat hududidagi mavjud daromad manbalari va xarajat yo‘nalishlari haqida aniq asoslangan tahliliy ma’lumotlarga ega bo‘lish talab etiladi. Davr talabidan kelib chiqib, davlat byudjetining o‘rta va uzoq istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab olish uchun ushbu ma’lumotlarni aniq va o‘z vaqtida ta‘minlab beruvchi mexanizm sifatida G‘aznachilik

²³ *Sh. Mirziyoyev*. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston. 2017.

organlari oldiga davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil qilish, davlat byudjeti ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish kabi muhim vazifalar yuklatilgan.

4.2. O'zbekistonda davlat byudjeti g'aznachilik ijrosiga o'tishning bosqichlari

Davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlar sharoitida umumdavlat moliya tizimining bosh bo'g'ini - davlat byudjetini boshqarish, byudjet jarayonini tashkil etish tizimidagi islohotlar, xususan byudjet ijrosida kassali tizimdan jahon amaliyotida sinalgan va o'zining ijobiy natijalarini bergan *davlat byudjetining g'azna ijrosiga* o'tish amalga oshirilmoqda. Shu narsa ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlar bozor mexanizmlarini ko'r-ko'rona, sun'iylik bilan tadbir etib bo'lmaydi, chunki jamiyat a'zolari o'rtasida shunday an'anaviy iyerarxik munosabatlar tizimi shakllanganki, ularni mensimaslik, keskin qarorlar qabul qilish chog'ida ularni e'tiborga olmaslik turli noxush holatlarga olib kelishi mumkin.

Byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlovchi shunday mexanizmlardan biri – davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimidir.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini O'zbekistonda ham joriy etish va rivojlantirish, davlatning moliyaviy resurslarini boshqarishning axborotlashtirilgan tizimini joriy etish, davlat moliyasining holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradiki, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta'minlaydi. Lekin, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida byudjet ijrosida bank tizimidan foydalanish bir qator *muammolarni* keltirib chiqardi:

1. byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi axborotlarning yetarli darajada operativ (tezkor) emasligi;

2. daromadlarning bank hisobraqamlariga tushishi va byudjetning hisobraqamlarida aks ettirilishidagi uzilishlarning mavjudligi bois byudjet resurslarini boshqarishdagi tezkorlikning sustligi;

3. Soliq daromadlarining byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish jarayonlarini samarali tartibga solish va daromadlar tushumini jadallashtirishning zarurligi;

4. byudjet ajratmalarining hajmlari bilan haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar summalari ko'rsatkichlarining tarqoqligi tufayli mablag'larning tushumi va sarflanishi ustidan yagona nazoratning murakkablashuvi;

5. byudjet tashkilotlarining hisobraqamlarida ishlatilmayotgan byudjet mablag'larining turib qolishi;

6. byudjet mablag'larining ajratilishi bilan ularning so'nggi iste'molchilarga yetib borishigacha bo'lgan vaqtning uzoqligi;

7. davlat mablag'lari harakatining murakkablashuvi va hajmlarining ortib borishi bilan ulardan oqilona foydalanish ustidan dastlabki nazoratning va joriy monitoringning zarurligi va boshqalar.²⁴

Sanab o'tilgan holatlar davlat byudjetining kassaviy ijrosidan g'azna ijrosiga o'tishning **zarurligini** belgilab berdi.

Byudjetni g'aznachilik tizimi asosida ijro etishning quyidagi **afzalliklari** mavjud:

- qisqa fursatlarda davlatning moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash;

- davlat moliyasining holati to'g'risidagi tezkor axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish;

- davlat byudjetining ham daromadlari, ham xarajatlari qismini kassali ijrosining har kungi detallashtirilgan monitoringini o'tkazish;

- tasdiqlangan byudjet mablag'lari doirasida byudjet tashkilotlarini tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldida majburiyatlar

²⁴ Pulatov D.X., Nurmuxmedova B.I. G'aznachilik. Darslik. T.: Sano-standart, 2014. 372 b.

qabul qilish bosqichida (shartnomalar, kontraktlar tuzish) dastlabki nazorat qilish;

- moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan byudjet mablag'larini bosh taqsimlovchilari tomonidan su'istemol qilish va noto'g'ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat qilish;

- byudjet tashkilotlari majburiyatlarini olgandan keyin pul mablag'larini g'aznachilik hisobraqamidan to'g'ridan to'g'ri ta'minotchilarning hisobraqamiga o'tkazish natijasida pul oqimlari harakati bo'yicha jarayonlarni qisqartirish;

- g'aznachilik tizimining bir pog'onasidan ikkinchi pog'onasiga pul mablag'larini o'tkazishni soddalashtirish natijasida g'aznachilik tizimidagi byudjet mablag'larini tezkor ishlatish.

Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosining *asosiy tamoyillari* - kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyasini boshqarish - davlat o'z vazifalarini samarali bajarishini ta'minlash, moliyaviy resurslarni safarbar qilishda ma'lum samaraga erishish, yagona tizim asosida moliyaviy resurslarni taqsimlash va ishlatish va nihoyat iqtisodiy barqarorlashtirish va jamiyat rivoji uchun sharoit yaratish borasida davlat tomonidan ko'riladigan tadbirlar yig'indisidir.

Davlat moliyasini boshqarishning institutsional tarkibida, boshqa vakolatli organlar bilan bir qatorda, G'aznachilik ham alohida muhim o'rin egallaydi. G'aznachilik - byudjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatlarini ijroga qabul qiladi va byudjet tashkilotlariga yetkazib berilgan tovar mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun G'aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig'iga binoan

vakolatni o'z zimmasiga oladi va byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishini ta'minlash va nazorat qilish asosida to'lovlarni amalga oshiradi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosi deganda davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari fondlarning mablag'lari to'planadigan va ushbu mablag'lar doirasida aniq belgilangan yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g'azna hisobraqami orqali davlat byudjetining ijro etilishi hamda shu orqali davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish tushuniladi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosiga o'tishgacha bo'lgan davrda byudjet ijrosi jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- byudjet tushumlarini taqsimlash;
- tegishli byudjetlarda jamlangan mablag'larni byudjetdan mablag' oluvchilarning ularga xizmat ko'rsatuvchi banklarda ochilgan hisobraqamlariga o'tkazish.

Davlat byudjeti ijrosining bunday tartibida byudjet mablag'larining keyingi taqdiri butunlay foydalanuvchilarning ixtiyoriga bog'liq bo'lib qoldi. Davlat byudjeti mablag'laridan qay darajada samarali va oqilona foydalanilganligini esa faqatgina buxgalteriya hisobotlari orqali so'nggi nazorat usullaridan foydalangan holda tekshirish mumkin edi.

Mazkur muammolarni e'tiborga olgan holda, Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish tadbirlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tizimida byudjetni g'aznachilik orqali ijro etish uchun mas'ul bo'lgan institutsional tuzilma shakllantirildi. Bu faoliyat bir necha bosqichlarda amalga oshirildi. Ularni xronologik jihatdan quyidagicha tavsiflash mumkin:

- 2002 yilda "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish" loyihasi ma'qullandi hamda uni tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha mas'uliyat Moliya vazirligiga yuklatildi. Mazkur loyihaning maqsadi "davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, zamonaviy

kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash, byudjet ijrosining yangi tizimini yaratishdan iborat"²⁵ bo'ldi.

– *2004-yilda* O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Bu qonun byudjet xarajatlarini boshqarish va nazorat qilish jarayonlariga keskin o'zgartirishlar kiritdi. Ushbu qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalarining) va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'ldi. "Davlat byudjeti g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi o'z navbatida byudjetdan mablag' oluvchilarning tovarlarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish hamda ularning xarajatlarini to'lashga qaratilgan byudjet mablag'larining harakatini nazorat qilish tartibini aniqlash va belgilashni taqozo etadi.

– *2005-yilda* Moliya vazirligi tarkibida davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy qilish uslubiyoti boshqarmasi tashkil etildi. Davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy etish – keng qamrovli masala bo'lib, o'zaro bog'liq bo'lgan qator masalalarni hal qilishni talab etardi, xususan, g'aznachilik faoliyatining uslubiy asoslarini shakllantirish, hisob va hisobot tizimini qayta tuzish, yagona g'azna hisobvarag'ini ochish va shu kabi masalalar Uslubiyot boshqarmasi faoliyatining diqqat markazida bo'ldi va byudjetning g'azna ijrosi metodologiyasini yaratishga qaratildi.

– *2007 yilda* respublikaning barcha hududlarida davlat byudjetining g'azna ijrosi elementlari joriy etildi, davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga ko'ra barcha guruhlarini bo'yicha ijrosi g'aznachilik bilan qamrab olindi.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-son (26.04.2002) qarori, 3-band.

– *2007 yilda* Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tadbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida Moliya vazirligi Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tadbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g‘aznachilik bo‘linmalari negizida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi.

– *2009 yilda* davlat byudjeti bilan birgalikda, davlat maqsadli jamg‘armalarining ham ijrosi G‘aznachilikka o‘tdi. Bu maqsadda davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari harakatini ta‘minlovchi tegishli banklardagi ularning hisobraqamlari yopilib, G‘aznachilikda ular uchun shaxsiy hisobraqamlar ochildi va ularning daromadlari tushumi va xarajatlari to‘lovi shu hisobraqamlardan amalga oshirila boshlandi.

– *2010 yildan* boshlab tajriba tariqasida davlat byudjetining bojxona orqali tushuvchi daromadlari ijrosi g‘aznachilik orqali amalga oshirila boshladi;

– *2011 yildan* boshlab yangi byudjet tasnifiga asoslangan, davlat byudjeti g‘azna ijrosini amalga oshirishga xizmat qiluvchi G‘aznachilik dasturiy majmui ishga tushirildi.

– *2011 yilning 7 fevralida* O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-1475-sonli qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ko‘rsatilgan vazifalarning bajarilishini ta‘minlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlari bo‘yicha hukumat komissiyasi tashkil qilindi va uning ishchi organi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi deb belgilandi. G‘aznachilik tashkiliy tuzilmasi tarkibida esa “Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni monitoringi axborot-tahlil bo‘limi” tarkib topdi.

– 2012 yilning 1 yanvaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi qonuni talablaridan kelib chiqib, Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari G‘aznachilikning Yagona g‘azna hisobvarag‘idan amalga oshirila boshlandi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan davlat byudjetiga o‘tkaziladigan soliqlar va majburiy to‘lovlar banklar tomonidan qabul qilinadigan va belgilangan tartibda 23402-, 23403-, 23407-, 23409-, 20207-, 20205- va 23411-sonli balans hisobraqamlarda ochilgan shaxsiy hisobraqamlarga (ShHR) kiritilgan va ular hisobidan tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalari hisobiga belgilangan miqdorlarda ajratmalar amalga oshiriladigan tartib joriy etildi.

– 2014 yildan Byudjet kodeksining amalga kiritilishi byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosini tashkil etishning qonuniy bazasini yanada mustahkamladi;

– 2016 yilda respublikamiz bir necha yillardan buyon davlat moliyasini isloh etishda davlat byudjet daromadlarini g‘azna ijrosi bilan qamrab olish islohotlarning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 5 martdagi (ro‘yxat raqami №02-02/1-860, 2016 yil 14 mart) 1-sonli bayonnomasiga muvofiq 2016-yilning 1-apreldan 1-iyuniga qadar byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini yig‘ishning amaldagi tartibni saqlab qolgan holda O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini g‘azna ijrosi mexanizmi bilan qamrab olishning sinov (test) jarayonini amalga oshirish, shuningdek Moliya vazirligi axborot tizimi hamda Markaziy bank, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi va daromadlarni yig‘ishga vakolatli bo‘lgan tegishli organlar va tashkilotlar axborot tizimlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, 2016-yilning 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini g‘azna ijrosi mexanizmi bilan to‘liq qamrab olish vazifasi yuklatildi. Bunda 2016-yil 1-iyulidan byudjet tizimining byudjetlari daromadlarini g‘azna ijrosi mexanizmi bilan respublikaning barcha hududlarida joriy qilish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti g'azna ijrosini tadbqiq etish bosqichlari

Yillar	Amalga oshirilgan tadbir	Asos
2002-yil	Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasi amalga oshirish boshlandi	O'zR VMning "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasi amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 144-son qarori (26.04.2002)
2004-yil	Davlat byudjeti g'azna ijrosining qonuniy-huquqiy asosi yaratildi	O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjeti g'azna ijrosi to'g'risida" gi 664-II sonli qonuni (26.08.2004)
2005-yil	Samarqand, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida g'aznachilik tizimini joriy qilish bo'yicha tajriba loyihasi boshlandi	O'zR VMning "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasi amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 144-son qarori (26.04.2002)
2006-yil	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdarvo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida davlat byudjeti g'azna ijrosi bosqichma-bosqich joriy qilindi	O'zR Prezidentning "O'zR ning 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bashorati va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" gi PQ-244-sonli qarori (27.12.2005)
2007-yil	Barcha hududlarda davlat byudjeti g'azna ijrosi joriy qilindi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tuzildi	O'zR Prezidentning "Davlat byudjeti g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-594 sonli qarori (28.02.2007)
2009-yil	Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari fondlarning g'azna ijrosi joriy qilindi, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag' lari bo'yicha daromad va xarajatlari g'azna ijrosi yo'lga qo'yildi	O'zR Prezidentning "2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" gi 2008-yil 29-dekabr PQ-1024-son qarori
2010-yil	Tajriba tariqasida davlat byudjetining bo'xona orqali tushuvchi daromadlari ijrosi g'aznachilik orqali amalga oshirila boshladi	O'zR Prezidentning "2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" gi 2009-yil 22-dekabr PQ-1245-son qarori
2011-yil	Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasining ishchi organlari O'zR MV G'aznachiligi deb belgilandi.	O'zR Prezidentning "Davlat xaridlari tizimini muqobilashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida" gi PQ-1475-sonli qarori (17.02.2011)

2012-yil	Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari G'azna-chilikning Yagona g'azna hisobvarag'idan amalga oshirila boshlandi.	Tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida
2014-yil	Byudjet kodeksining amalga kiritilishi byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosini tashkil etishning qonuniy bazasini yanada mustahkamladi.	O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'RQ-360-son. 26.12.2013.
2016-yil	1 iyuldan byudjet tizimining byudjetlari daromadlarini g'azna ijrosi mexanizmi bilan respublikaning barcha hududlarida joriy qilindi.	Tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida
2017-yil	byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosini tashkil etish 2016 yil 22 dekabrda №2580 raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalar" da belgilangan mexanizm asosida tashkil etildi.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 22-noyabrda 88-son buyrug'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 22-dekabrda №2580 raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalar"
2017-2018	Davlat va korporativ xaridlar tizimini zamonaviy uslub va usulbiyot asosida tashkil etish chora tadbirlari belgilandi	2017-yil 23-avgustdagi PQ-3237 asosida

– 2017-yildan byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 22-noyabrdagi 88-son *buyrug‘iga* ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 22-dekabrda №2580 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi Qoidalari”da belgilangan mexanizm asosida tashkil etildi. Bunda byudjetdan mablag‘ oluvchilarning yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro‘yhatdan o‘tkazishda tegishla hujjatlarni UzASBO tizimi orqali g‘aznachilik bo‘linmalariga uzatish va O‘RMVAT tizimida hisobga olishning amaldagi byurokratik tizimdan elektron tizimiga o‘tilishi asosida g‘aznachilik ijrosining yanada samarali ijrosi ta‘minlandi.

4.3. G‘aznachilik ijrosini amalga oshirishning tashkiliy elementlari va xususiyatlari

G‘aznachilik tizimi faoliyat ko‘rsatishi uchun uning beshta tashkiliy elementi mavjud bo‘lishi va o‘zaro bog‘liqlikda amal qilishi zarur. Ular:

1. G‘aznachilikning yagona hisobraqami.
2. G‘aznachilikning bosh kitobi.
3. G‘aznachilik organlari.
4. G‘aznachilikning axborot tizimi.
5. G‘aznachilikda davlat byudjeti mablag‘larini boshqarish.

G‘aznachilikning yagona hisobraqami. Byudjet tizimi byudjetlari ijrosini ta‘minlashda soliqli va soliqsiz davlat tushumlarini to‘plash, saqlash va davlat xarajatlarini amalga oshirish uchun G‘aznachilik tomonidan G‘aznachilikning yagona hisobraqami ochiladi. *Yagona g‘azna hisobraqami* G‘aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobraqami bo‘lib, bu hisobraqamda Davlat byudjeti mablag‘lari hamda byudjet tashkilotlarining

byudjetdan tashqari mablagʻlari kiritiladi. Yagona gʻazna hisobraqamidan davlat byudjetida mablagʻlari nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari toʻlanadi, shuningdek, davlat maqsadli jamgʻarmalarining xarajatlari amalga oshiriladi. Gʻaznachilik alohida operatsiyalarni, shuningdek, davlatning maqsadli fondlarining mablagʻlari bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun gʻaznachilikning yagona hisobraqami doirasida subschyotlarini ochish huquqiga ega. Bu subschyotlardagi qoldiqlar gʻaznachilikning yagona hisobraqami qoldigʻining ajralmas qismi hisoblanadi.

Gʻaznachilikning bosh kitobi. *Gʻaznachilikning bosh kitobi* – byudjet ijrosi gʻaznachilik usulining asosiy elementlaridan biridir. Gʻaznachilikning Bosh kitobi bilan hukumat resurslarining hisob-kitobi yuritiladi va moliya tizimining axborot tizimi faoliyat koʻrsatadi. Gʻaznachilikning Bosh kitobi byudjet operatsiyalari buxgalteriya hisobini yuritishning kompyuterlashtirilgan tizimidir. Gʻaznachilikning Bosh kitobida davlat muassasalari bilan boʻladigan barcha moliyaviy operatsiyalar oʻz ifodasini topadi. Gʻaznachilikning Bosh kitobi Gʻaznachilikning yagona hisobraqami va subschyotlari bilan boʻladigan operatsiyalardagi barcha buxgalteriya provodkalarini aks ettiradi. Gʻaznachilikning Bosh kitobi ham respublika byudjetidan, ham mahalliy byudjetlardan moliyalashtirish hisob-kitobining oʻz vaqtida yuritilishini taʼminlaydi. Gʻaznachilikning Bosh kitobi oʻz ichiga juda koʻp byudjet birliklarini birlashtiradi. Gʻaznachilikning Bosh kitobida byudjetning barcha daromadlari va xarajatlari koʻrinadi.

Gʻaznachilik organlari. Gʻaznachilik yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan, Moliya Vazirligiga boʻysunadigan davlat organi hisoblanadi. Gʻaznachilikning Qoraqalpogʻiston Respublikasi Gʻaznachilik Boshqarmasi, Toshkent shahar va viloyatlar Boshqarmasi, shahar va tumanlarda Gʻaznachilik boʻlimlari kabi

hududiy organlari faoliyat qiladi. G‘aznachilikka O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri o‘rinbosari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlangan Davlat G‘aznachisi rahbarlik qiladi. G‘aznachilikning hududiy organlari huquqiy shaxs maqomiga ega emas. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug‘iga muvofiq G‘aznachilikning hududiy organlari tuziladi va tugatiladi. G‘aznachilik organlarining xarajatlarini moliyalashtirish respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

G‘aznachilik organlari – Moliya vazirligining konsolidatsiyalashgan byudjetning kassa ijrosi uchun, davlat daromadlari va xarajatlari hisobini olib borilishi uchun, davlat xarajatlariga moliyaviy resurslarning yetarli bo‘lishini ta‘minlash uchun mas‘ul bo‘lgan tarkibiy bo‘lim hisoblanadi.

Islohotlar jarayonida byudjet tashkilotlari, yuridik shaxs maqomini olgan tashkilotlar aniqlanadi. Har tomonlama axborot bilan ta‘minlash uchun byudjet tasnifidan foydalaniladi. G‘aznachilikning Bosh Boshqarmasi byudjetni shakllantiradi va barcha byudjet tashkilotlari faoliyatini boshqaradi. G‘aznachilik byudjetdan mablag‘ oluvchilardan boshqarish funksiyalarini tortib olmaydi, byudjetning bajarilish jarayonini yaxshilash uchun ularni yanada kengroq axborotlar bilan ta‘minlaydi. Byudjet tasnifi bo‘yicha berilgan xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlar butun yil bo‘yi xarajatlar tendensiyasini va xarajatlarni amalga oshirish uchun qo‘shimcha kerak bo‘ladigan ehtiyojlarni aniqlashga yordam beradi. G‘aznachilikning faoliyat ko‘rsatishi naqd pullarni to‘g‘ri va samarali boshqarish yo‘li bilan byudjetga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Darmomadlar rejasi bajarilmagan holatda boqimandalik muammosini yechishga harakat qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribalari ko‘rsatadiki, g‘aznachilikning asosiy vazifalari bir-biriga o‘xshaydi:

1. Davlat byudjetining kassali ijrosini amalga oshirish;
2. Davlatning moliyaviy aktivlarini boshqarish;
3. Davlat qarzlarini boshqarish;
4. Davlatning moliyaviy resurslari hisob-kitobini yuritish, yig'ish, ishlash, tahlil qilish tizimining faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;
5. Davlat moliyasining holati to'g'risida doimiy ravishda hisobotlarni tayyorlash va taqdim qilish;
6. Moliyaviy nazoratning qoidalarini va mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish;
7. Davlat moliyasi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq Moliya vazirligiga berilgan huquqlar doirasida byudjet tashkilotlari moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish.²⁶

G'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;
- Davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisobraqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish;
- byudjet tashkilotlarining tovarlar yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy

²⁶ Pulatov D.X., Nurmuxmedova B.I. G'aznachilik: Darslik. T.: Sano-standart, 2014. 372 b.

ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarining oldini olish;

- byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovarlar yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar)ning bevosita hisobraqamlariga byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, Davlat byudjeti ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish.

G'aznachilikning axborot tizimi. G'aznachilikka yagona axborot tizimi xizmat qiladi. Hozirgi kunda G'aznachilikning yagona axborot tizimi yaratilgan bo'lib, "Davlat mablag'larini boshqarishning axborot tizimi" (DMBAT) deb ataladi. O'RMV AT – tegishli byudjetlarning byudjet jarayonini kompleks avtomatlashtirish, shu jumladan byudjet tizimi byudjetlari va BMJ byudjetlari ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni aks ettirish uchun mo'ljallangan axborot tizimi 2016 yildan faoliyati amalga oshirilmoqda.²⁷ G'aznachilik faoliyatini tashkil

²⁷ "O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g'azna ijrosi qoidalari" O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016-yil 22-noyabrda 88-son buyrug'iga ko'ra O'zbekiston

etishda “UzASBO” DM – byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobi va hisobotining yuritilishini kompleks avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan dasturiy majmuasi muhim ahamiyatga ega.

Byudjet operatsiyalari bo‘yicha kodlashtirilgan va tasniflangan ma’lumotlar UzASBO DM orqali g‘aznachilik organlariga yuborilib O‘RMV ATga avtomatik ravishda yuklanadi, bu esa daromadlarni tasniflar, hududiy belgilari, byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlar bo‘yicha aniqlash imkonini beradi. Daromadlar avtomatik ravishda tegishli byudjetlarga belgilangan normativlar asosida o‘tkaziladi va boshqariladi.

G‘aznachilikda davlat byudjeti mablag‘larini boshqarish shundan iboratki, G‘aznachilik yagona g‘azna hisobraqamidan va G‘aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridagi davlat byudjeti mablag‘larini, davlat byudjetining xarajatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun yo‘naltirish, shuningdek, davlat byudjetining vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini bank depozitlari va boshqa aktivlarga vaqtincha joylashtirish hamda ular hisobidan respublika byudjetiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, mahalliy byudjetlarga, shuningdek, davlat maqsadli jamg‘armalariga byudjet ssudalari berish yo‘li bilan boshqarib boradi. G‘aznachilik tomonidan dotatsiyalar va ssudalarni o‘tkazish yagona g‘azna hisobraqamidan yoki G‘aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridan davlat byudjetida mablag‘lar ajratish nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobraqamlariga o‘tkaziladi.

Agar davlat mablag‘laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilish ular ajratilgandan keyingina boshlansa, davlat byudjeti ko‘p narsani boy beradi. Keyingi moliyaviy nazoratning samarasizligi shundaki,

*uning xulosalari byudjetdan mablag' oluvchi o'ziga ajratilgan mablag'larini amalda sarflab bo'lganidan keyin chiqariladi. Vaholanki, joriy nazoratni, ya'ni byudjet mablag'lari o'zlashtirilishi jarayonini nazorat qilishni ta'minlash muhimdir.*²⁸

Jahon tajribasi ko'rsatadiki, byudjetning kassali ijrosi g'aznachilik va bank orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy islohotlar sharoitida byudjet ijrosida bank tizimining qo'llanilishi quyidagi holatlarga olib keldi:

- daromadlarning tushishida pasayish yuz berdi, tartibga soluvchi soliqlarni qo'llashning yagona uslubining yo'qligi byudjet jarayonini boshqarishni qiyinlashtirdi;

- tushgan daromadlar va qilingan xarajatlar to'g'risida tezkor axborotlar olishga, zudlik bilan byudjetga oid boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkoniyat bermadi;

- tijorat banklari hisobraqamlarida byudjet mablag'larining o'rtacha qoldig'ining yuqori darajasi saqlanib qoldi;

- byudjet mablag'larining nazorati kamayib ketdi, amalda ularni maqsadsiz ishlatish hollari kelib chiqdi.

Buning asosiy sabablaridan biri joriy byudjet ijrosi tizimida, moliya organlari sust (passiv) rolga ega bo'lganligi va shu bilan bir vaqtda bank va byudjet tashkilotlariga yuklatilgan funksiyalarni mustaqil bajarib, moliya organlarini amalga oshirilgan byudjet jarayoni faktlaridan keyingina xabardor qilinadi. Buning natijasida mahalliy byudjetlarda mablag' yetishmovchiligi yuzaga kelib, yuqori turuvchi byudjetdan byudjet ssudasini olishga to'g'ri keladi.

Eng asosiysi, buning natijasida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan birinchi darajali xarajatlarni o'z vaqtida amalga oshirishni ma'lum muddatlarda kechikishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari,

²⁸ *Steven M. Bragg. Treasury management: The Practitioner's Guide /Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.*

hozirgi vaqtda mahalliy byudjetlar tarkibida, respublikamiz aholisiga qaratilgan o'ta muhim ijtimoiy tadbirlar bo'lganligi uchun dolzarb masalalaridan biri daromadlarning tushishi bilan xarajatlarni amalga oshirishi kerak bo'lgan vaqt o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishdir. Demak, davlat byudjeti ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga kiritilgani bugungi kunda byudjet islohotlarining yirik yo'nalishlaridan biri desak xato bo'lmaydi, chunki davlat moliyasini samarali boshqarish zaruriyati mavjud, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish uchun byudjet xarajatlarining nazoratini kuchaytirish talab etiladi.

Davlat moliya tizimida o'tkazilayotgan islohotlar davlat xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi, Davlat iqtisodiyotini isloh qilish va bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunda davlat byudjeti islohotlarning eng muhim dastaklaridan biri vazifasini bajaradi.

Shu sababli, yaqin kelajakda davlat byudjeti ijro etilishining g'aznachilik tizimini izchil joriy etishni ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. *G'aznachilik sharoitida byudjetning kassali ijrosi deganda har bir byudjetning daromadlari mazkur byudjetni ijro etuvchi tegishli kassada jamg'arilishi tushuniladi.*²⁹ Shuningdek, ushbu byudjetdan mablag' bilan ta'minlanuvchi barcha tashkilotlarga pul mablag'lari ushbu kassa orqali beriladi.

Bunda konsolidatsiyalashgan byudjetni ijro qilish maqsadida va davlat moliyasi bilan qilinadigan barcha jarayonlarni o'z vaqtida va aniq hisobini qilish uchun g'aznachilikning hisob-kitob schyotlari davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining tasnif tizimiga mos

²⁹ *Steven M. Bragg*. Treasury management: The Practitioner's Guide /Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.

kelishi kerak. Byudjetning daromad qismini ijro etish yuridik va jismoniy shaxslardan soliq va soliqsiz to'lovlar undirish hisobiga amalga oshiriladi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar tegishli to'lovlarni qonunda belgilangan muddatlar va tartiblarda mustaqil ravishda hisoblaydilar va byudjetga to'laydilar.

Byudjetning daromadlar qismi ijrosida soliq organlarining funksiyasi tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlash, noto'g'ri to'langan summalarni qaytarish va byudjet daromadlari tushumi hisobini olib borishdan iborat bo'ladi.

Byudjetning tushumlar bo'yicha ijrosini tashkil etib, G'aznachilik organlari tushumlar tushishining qisqa muddatli bashorati va byudjetning daromadlar qismi ijrosining tahlilini amalga oshiradi. Mamlakatda moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, narxlar va ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich erkinlashtirish byudjet tizimini izchil va tizimli tarzda rivojlantirishni ta'minlaydi.

G'aznachilik - davlat byudjeti ijrosini ta'minlashning bir shakli bo'lib, unda maxsus idora davlat soliqlarini yig'imi va ulardan foydalanishni ta'minlaydi, mablag'lar ustidan nazorat amalga oshiriladi, shuningdek, davlat tashqi va ichki qarzlarni boshqaradi hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari pul oqimlari monitoringini olib boradi.

Bugungi kunga kelib, barchasida ushbu tizim joriy qilindi va ayni paytda mutaxassislar mavjud tizimni takomillashtirish ishlari bilan band.

Yuqoridagi fikrlarimizga xulosa shuki, davlat moliyasi boshqaruvining tuzilishini tarixiy rivojlantirishda nainki ilmiy, balki amaliy tajribalarga ham tayaniladi.

O'zbekistonda davlat byudjeti g'azna ijrosini joriy etishdan ko'zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- byudjet mablag'laridan samarali foydalanish;
- byudjet nazoratini kuchaytirish;
- byudjet ijrosi yuzasidan hisobot muddatlarini qisqartirish.

G'aznachilik joriy etish byudjet daromadlarining to'liq va o'z vaqtida tushishini va xarajatlar qismida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Mazkur tizimni joriy etish orqali byudjet bajarilishini kuzatish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratish, byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflanishidan himoyalash va byudjetni rivojlantirish va bashoratlash sifatini oshirish mumkin.

Konsolidatsiyalashgan byudjetni ijro qilish va davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtirilayotgan barcha jarayonlarni o'z vaqtida va aniq hisobini yuritish maqsadida G'aznachilik hisob – kitoblar schyotlari davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining tasnif tizimi bilan moslashtiriladi.

G'aznachilik tizimini joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan asosiy ishlar quyidagilardan tashkil topadi:

- byudjet daromadlari va xarajatlari bo'yicha barcha opersiyalar turli banklarda ochilgan ko'plab byudjet hisobraqamlari o'rniga markaziy bankda ochiladigan Moliya vazirligining yagona G'azna hisobvarag'iga jamlanadi;
- byudjet tashkilotlari xarajatlarini hisobga olish va byudjet mablag'laridan foydalanishni nazoartni qilish hamda hisobotlar tayyorlash uchun ularning shaxsiy hisobvaraqlari G'aznachilikda ochiladi va yuritiladi;

- tijorat banklar ijrosi o‘rniga G‘aznachilik tomonidan byudjet kassa ijrosini amalga oshirilishi va byudjet jarayonining barcha bosqichlari, ya’ni daromadlar tushumi, byudjet mablag‘lari ajratishdan tortib byudjet ijrosi hisobotini tayyorlashgacha bo‘lgan ishlar birlashtiriladi;

- zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy ta’minotni qo‘llagan holda G‘aznachilikning yagona axborot tizimi shakllantiriladi va u davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari kassa ijrosining kundalik monitoringini ta’minlaydi, barcha darajadagi byudjetlar holati haqida ma’lumotlarni tezkor yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi G‘aznachilik tizimini O‘zbekistonda ham joriy etish va rivojlantirish, davlatning moliya – axborot tizimini joriy etish, davlat moliyasining holati to‘g‘risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradiki, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta’minlaydi.

Mamlakatimizda davlat byudjetining g‘aznachilik tizimini joriy etilishi quyidagi ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi:

- davlat moliyaviy resurslarini real hajmini va uning istiqbol ko‘rsatkichlarini doimiy nazorat qilish;

- davlat moliyasininig holati to‘g‘risida tezkor va muntazam ravishda axboratlarni yig‘ish, ishlov berish va tahlil qilish;

- davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qisimlarini kassa ijrosini har kungi aniqlashtirilgan monitoringini o‘tkazish;

- tasdiqlangan byudjet mablag‘lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini qabul qilish bosqichida dastlabki nazoratni amalga oshirish;

- moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o‘z vaqtida va adresli moliyalashtirish bilan birga byudjet mablag‘larini bosh

taqsimlovchilari tomonidan suiste'mol qilish va noto'g'ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat olib borish;

- byudjet tashkilotlari majburiyatlarni olgandan keyin pul mablag'larini G'aznachilik hisobraqamida to'g'ridan to'g'ri tovar yetkazib beruvchilar hisobraqamiga o'tkazish orqali pul oqimlari harakatini tezlashtirish va o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish orqali ta'minotchilarni moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash;

- g'aznachilik tizimining bir pog'anasidan ikkinchi pog'anasiga pul mablag'lari o'tkazishni tezlashtirish orqali byudjet mablag'larini tezkor harakat qilishini ta'minlash.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlat byudjetini ijro etishning jahon tajribalarida mavjud qanday usullari bor?

2. Davlat byudjetining kassaviy ijrosi byudjetni ijro qilishdagi qanday muammolarni keltirib chiqaradi?

3. Davlat byudjetining g'azna ijrosi byudjetni ijro etishning boshqa usullaridan qanday afzalliklarga ega?

4. Davlat byudjeti g'azna ijrosining mazmun-mohiyati nimadan iborat?

5. Davlat byudjeti g'azna ijrosining tamoyillarini izohlab bering.

6. G'aznachilikning tashkiliy elementlari nimalardan iborat?

7. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining g'azna ijrosiga o'tish qanday bosqichlarda amalga oshirilmoqda?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Maxsus adabiyotlar va internet resurs manbalaridan foydalanib xorijiy davlatlarda faoliyat qiluvchi G'aznachilik tizimlari haqida axborot tayyorlang.

2. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti g'azna ijrosini tadbiq etish bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshirilgan ishlar sharxini aks ettiruvchi taqdimot tayyorlang.

3. "Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish loyihasi"ning mazmunini o'rganib chiqing va uni amalga oshirish borasidagi tadbirlarning me'yoriy-huquqiy asosini tashkil etuvchi hujjatlar ro'yxatini ishlab chiqing.

5-MAVZU. BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI G‘AZNA IJROSINING HUQUQIY TA‘MINOTI

5.1. G‘aznachilik faoliyatini shakllantirishning huquqiy tartibga solinishi

5.2. Byudjet Kodeksi davlat byudjeti g‘azna ijrosining huquqiy asosi

5.3. “Byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi qoidolari”ning mazmuni va tarkibi

5.4. Moliya vazirligi G‘aznachiligining funktsiya va vazifalari

5.1. G‘aznachilik faoliyatini shakllantirishning huquqiy asoslari

O‘zbekiston Mustaqillikka erishgandan so‘ng, xo‘jalik yuritishning bozor tizimiga o‘tilishi, iqtisodiyot bozor infratuzulmasining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo‘jalik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asosni yaratishni talab etdi. Undan tashqari, jahondagi globallashuv jarayonlarida faol qatnashayotgan O‘zbekiston uchun davlat boshqaruv institutlarini shakllantirish va tubdan isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribadan shu narsa ma‘lumki, O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlar bozor mexanizmlarini ko‘r-ko‘rona, sun‘iylik bilan tadbiiq etib bo‘lmaydi, chunki jamiyat a‘zolari o‘rtasida shunday an‘anaviy iyerarxik munosabatlar tizimi shakllanganiki, ularni mensimaslik, keskin qarorlar qabul qilish chog‘ida ularni e‘tiborga olmaslik turli noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotni boshqarishning jahon amaliyotida tan olingan bir qator mexanizmlarini, iqtisodiy-

ijtimoiy rivojlanish sharoitlarimizga tegishli tarzda moslashtirgan holda, qo'llash va ijobiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlovchi shunday mexanizmlardan biri – davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimidir.

Bu boradagi islohotlar davlat moliyasi, davlat byudjeti va byudjet jarayonini boshqarish va tartibga solish organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Shu sababli ular faoliyatini amalga oshirilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar talablariga moslashtirish, so'nggi ijobiy natijalarni ko'zlagan holda muvofiq-lashtirish, shaklan va mazmunan yangi sifat pog'onasiga ko'tarish talab etilmoqda.³⁰

Bu borada dastlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyahasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2002-yil 26-aprelda 144-son qarori qabul qilindi. Mazkur loyihani amalga oshirishga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 400,0 ming AQSH dollari miqdorida mablag' ajratildi. Qarorda aytilishicha, "Yaponiya hukumati tomonidan O'zbekiston Respublikasida moliya axborot tizimining funksional va texnikaviy tuzilmasini ishlab chiqishga"³¹ 500,0 ming AQSH dollari miqdorida grant berilishi bildirildi.

Mazkur loyihaning maqsadi davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, zamonaviy kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining samarali sarflani-shini ta'minlash, byudjet ijrosining yangi tizimini yaratishdan iboratdir. Ko'rsatib o'tilgan loyihani amalga oshirish yuzasidan mas'uliyat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatildi.

³⁰ Davlat moliyasini isloh etishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konfe-rensiyasi materiallari (20.12.2009). T., 2009. 87–88-betlar.

³¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyahasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-son (26.04.2002) qarori, 1-band.

Loyihani tayyorlash va amalga oshirish maqsadida Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi. Bu kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- loyihani tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha monitoring olib borish;

- loyiha doirasida jalb etiladigan vakolatli organlar, konsalting kompaniyalari faoliyatini muvofiqlashtirish;

- loyihani tayyorlash va amalga oshirish uchun jalb etiladigan mablag'lardan samarali foydalanish ustidan nazoratni ta'minlash;

- tender savdolari o'tkazish bo'yicha qarorlar qabul qilish va ularning natijalarini ma'qullash, tegishli tender komissiyalari tarkibini tasdiqlash;

- ekspertizalar o'tkazish va jalb etilayotgan konsultantlar va ekspertlar hisobotini ma'qullash.

Davlat byudjetini tuzish quyidagi qonun-qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi:

Byudjet loyihasi amaldagi hokimyat(hukumat)ning byudjet siyosati va fiskal siyosati bilan muvofiq bo'lishi kerak.

- tushunarlilik – byudjetdagi tushum(daromad)lar va chiqimlar shunday aks ettirilishi kerakki, undan oddiy shaxs foydalanganda ham uni to'liq tushinishi kerak;

- alohidalik (yakkalik) – davlatning byudjet loyihasi uning faqatgina moliyaviy operatsiyalari bilan bog'liq bo'lib, unda moliyaga aloqasi bo'lmagan muammolar ta'sir etmasligi shart.

Byudjet mexanizmining shakllanishi quyidagi omillar ta'sirida vujudga keladi:

- yagonalik – hukumatning barcha daromadlari barcha davlat tushumlari uchun yagona bo'lgan fondga yoki hisobraqamga tushishi;

- maxsuslik-bu omil hukumatning barcha daromadlari va xarajatlar moddalarini klassifikatsiyalashda maxsus shakldaligini bildiradi;

-davriylik – byudjet rejasining ma'lum davr oralig'ida amalga oshirish uchun qonuniy shaklda tasdiqlangan;

-aniqlilik – barcha daromad va xarajatlarning baholanishi aniq davrda va ko'rsatkichlarda ko'rsatilishi;

- maqsadga muvofiqlik – qonun bo'yicha tasdiqlangan byudjet rejasi amaliyot(byudjet yili)da amalga oshirilgandan so'ng u haqiqiy hisoblanadi.

Byudjetni taqdim etishning shakllari va uslublari:

- aniq(shaffof)lilik – siyosiy demokratik asosga ko'ra, amaldagi hokimiyat saylov orqali tanlangan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Shunday ekan, byudjet loyihasi shunday tuzilishi kerakki, hatto oddiy mutaxassis bo'lmagan kishi uchun ham tushunarli bo'lishi kerak.

- ochiq(oshkora)lik – Byudjet hujjatlari barchaga tanishib chiqish uchun ochiq bo'lishi va undagi ma'lumot beruvchi ko'rsatkichlarni o'z maqsadlariga moslashtirilmaligi lozim.³²

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini isloh qilish bo'yicha muhim qadamlardan biri “Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida”gi Qonunining qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalarining) va byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Mazkur qonunda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati bilan bog'liq quyidagi holatlar o'zining huquqiy asosiga ega bo'ldi:

- davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy tamoyillari;
- davlat byudjetining g'azna ijrosi muddatlari;
- G'aznachilikning asosiy vazifalari;
- G'aznachilikning boshqa organlar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari;

³² *Makarand A.Paithankar*. Public Budgeting theory and practice. Create Space Independent Publishing Platform (4 Jun. 2016) USA.

- G‘aznachilikning bank hisobvaraqlari;
- davlat byudjetining xarajatlarini amalga oshirish;
- davlat byudjeti mablag‘larini boshqarish;
- davlat byudjeti g‘azna ijrosining buxgalteriya hisobi;
- davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot va boshqalar.

“Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi o‘z navbatida byudjetdan mablag‘ oluvchilar bilan ularga tovar (xizmat, ish)larni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish hamda ularning xarajatlarini to‘lab berishga qaratilgan byudjet mablag‘larining harakatini nazorat qilish tartibini aniqlash va belgilashni taqozo etadi.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 63-son (05.05.2005) buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1475-raqam (21.05.2005) bilan ro‘yxatga olingan “Moliya organlarida byudjetdan mablag‘ oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning xarajatlari to‘lovini nazorat qilish tartibi haqida Vaqtinchalik nizom” qabul qilindi. Ushbu Nizom tajriba tariqasida Samarqand viloyatida, shu jumladan respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan ayrim byudjet tashkilotlarida byudjetdan mablag‘ oluvchilar bilan mol yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarni tegishli moliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish va byudjet mablag‘larini ularning xarajatlarini to‘lashga o‘tkazish ustidan nazorat qilish tartibini belgilab berdi.

Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tadbiiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida 2007 yil 28 fevralda “Davlat byudjeti g‘azna ijrosi tizimini

yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-594 sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyot boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Shuningdek, mazkur Qaror bilan G'aznachilikning asosiy vazifalari belgilab berildiki, ular "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonunda aks etgan G'aznachilikning vazifalariga yanada aniqlik kiritdi. Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida qarorda qator vazifalar belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Moliya vazirligi Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligini va uning hududiy bo'linmalarini moliya organlari bo'yicha belgilangan boshqaruv xodimlari soni doirasida tashkil etish ;

- G'aznachilik tomonidan davlat byudjetinining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

- Davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisobraqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

- byudjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarining oldini olish;

- byudjet tashkilotlarini, shu jumladan mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, Davlat byudjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish.

Shuningdek, ushbu qaror asosida Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining qarz mablag'larini jalb etgan holda Davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobraqamiga jamlash va undan xarajatlar to'lovini amalga oshirish imkonini beruvchi Davlat byudjeti g'azna ijrosining yagona

integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini qabul qilinishi belgilandi.

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda belgilangan tartibda respublikaning barcha shahar va tumanlarini qamrab olgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining ma'lumotlar tarmog'ini tashkil etish uchun yer usti raqamli aloqa kanallarini berish choralari belgilandi.

Moliya organlarining byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasini bajarish funksiyalari G'aznachilikka berilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklariga byudjet mablag'lari oluvchilarga xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan bank xodimlari sonini maqbullashtirish va qisqartirish choralarini ishlab chiqildi.

2007-yil 20-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 53-sonli qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risida Nizom" qabul qilindi. Mazkur Nizom "Davlat byudjeti g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594 sonli (27.02.2007) qaroriga muvofiq ishlab chiqildi hamda G'aznachilikning asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va javobgarligini belgilab berdi.

2007-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 119-sonli buyrug'i bilan "Davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha funksiyalarini chegaralash to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini tashkil etish borasida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari (G'aznachilikdan tashqari) hamda hududiy moliya organlari zimmalaridagi funksiyalar bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari zimmalariga qo'yilgan funksiyalarini chegaralab berdi. Bu

esa byudjet siyosatini amalga oshirishga mutasaddi bo'lgan bir nechta davlat moliyasini boshqarish organlarining faoliyati bir-birini takrorlamasligini ta'minladi.

5.2. Byudjet Kodeksi - davlat byudjeti g'azna ijrosining huquqiy asosi

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosida byudjet faoliyatini rivojlantirish davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, 2000 yil 14 dekabrda "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinganidan beri o'tgan davr mobaynida byudjet amaliyotida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi, ular:

- davlat byudjeti g'azna ijrosining joriy etilishi;
- bir qator davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa nobyudjet fondlarining tuzilishi va amal qilishi;
- byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag'larni jalb qilish manbalarining kengayishi va ular ustidan nazoratni yaxshilash zarurligi;
- byudjet tasnifi, byudjet hisobi va hisoboti tizimining takomillashuvi;
- yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi va boshqa holatlar bilan bog'liq bo'lib, byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi.

Natijada amaldagi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi hamda "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda Byudjet Kodeksida o'z aksini topdi.

Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida amalga kiritilgan Byudjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan.

Ushbu Kodeks O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

*Xalqaro tajribada, Byudjet kodeksi – ma'lum bir mamlakat byudjet tizimining asoslarini, uning tuzilishi, umumiy tamoyillarini, turli darajadagi byudjetlar va ularning vakolatlarini, byudjet jarayoni asoslari va byudjetlararo munosabatlarni, byudjet qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilovchi qonun hujjati hisoblanadi.*³³

Byudjet Kodeksi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo‘lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me‘yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish maqsadida ishlab chiqildi. Byudjet Kodeksining g‘aznachilik faoliyati bilan bog‘liq alohida qismi davlat byudjeti g‘azna ijrosini tashkil etish, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish, byudjetdan mablag‘ oluvchilar xarajatlari to‘lovini amalga oshirish, davlat xarid-

³³ Public financial management and its emerging architecture / editors, Marco Cangiano, Teresa Curristine, and Michel Lazarc – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2013. 437 p.

larini tashkil qilish, G'aznachilikning yagona g'azna hisobraqamini yuritish kabi masalalarni tartibga solishga qaratilgan.

Byudjet kodeksining qabul qilinishi amaldagi Soliq kodeksi bilan birgalikda davlat moliyasining yagona bixillashtirilgan, xalqaro standartlarga mos bo'lgan qonunchilik bazasini shakllantirishga, byudjet sohasidagi huquqiy munosabatlarni tizimlashtirishga, shuningdek, byudjet jarayonining hamma bosqich va darajalarida yagona huquqiy normalar va yondashuvlar qo'llanilishini, mamlakat byudjet tizimining ochiq-oshkoraligini va barqarorligini ta'minlashga imkon beradi.

Byudjet Kodeksining 7-bobi byudjet tizimi byudjetlarining ijrosini tavsiflab, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan, byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tushishini ta'minlash va xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi.

AQSH Kongressida har bir federal hudud bo'yicha tasdiqlangan byudjet ijrosini nazorat qiluvchi qo'mita mavjud. Kongressmenlar boshqaruv jarayoniga aralashish huquqiga ega emas, biroq, soliq, to'lovchilarning mablag'larining "Federal byudjet to'g'risida"gi qonunga muvofiq, xarajat qilinishini kuzatib boradilar. Federal vazirliklar va shtatlarning hukumatlari, ma'muriy protsessual kodeks asosida ajratilgan byudjet mablag'larini belgilangan huquqiy jarayon doirasida taqsimlaydilar. Bu ochiq ovozga qo'yish yo'li bilan aniqlab olinadi. Bunda Kongressda loyihalar ovozga qo'yiladi va ishtirokchilarni qarshi yoki tarafdorligi orqali tasdiqlanadi.³⁴

O'zbekiston Respublikasi byudjetining, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ta'minlanadi.

³⁴ Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce. 2013. 656 p.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shahar hokimliklari tomonidan ta‘minlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida byudjet tizimi byudjetlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar uchun shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari ochiladi³⁵. Byudjet Kodeksining 111-moddasiga asosan Yagona g‘azna hisobvarag‘i O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag‘i bo‘lib, unga byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va boshqa tushumlari kiritiladi hamda undan mazkur byudjetlarning xarajatlari to‘lanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va boshqa banklarda o‘zga bank hisobvaraqlari ochish huquqiga ega. Yagona g‘azna hisobvarag‘i O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlaridan mablag‘larning so‘zsiz tartibda hisobdan chiqarilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Byudjet Kodeksining 113–116 moddalarida shaxsiy g‘azna hisobraqamlarini ochish va yuritish tartiblari belgilangan. Shuningdek, kodeksda byudjet daromadlari va xarajatlari ijrosini ta‘minlash, byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida tushumlarni taqsimlash, byudjet hisobi va hisobotini yuritish tartiblari, davlat moliyaviy nazoratini huquqiy asoslari belgilangan.

5.3. “Byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi qoidalari”ning mazmuni va tarkibi

Keyingi yillarda ham davlat byudjeti g‘azna ijrosining me‘yoriy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Moliya

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 109- moddasi asosida.

vazirining 88-sonli (22.11.2016) buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2850-son (22.12.2016) bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalarini"ning qabul qilinishi muhim qadam bo'lib xizmat qildi. Mazkur "Qoidalar" O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan respublika va hududiy g'azna hisobvaraqlarini qo'llash sharoitida respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilab berdi.

G'aznachilik organlari byudjetdan mablag' oluvchilarning tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar (keyingi o'rinlarda – mahsulot yetkazib beruvchilar) bilan shartnomalarini, shu jumladan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalarini ro'yxatga olish, O'zbekiston Respublikasining kafolatlarini ijro etish, tegishli byudjetlar xarajatlarining to'lanishi, shu jumladan g'azna hisobvaraqlaridan byudjet ssudalari, subvensiya va dotatsiyalar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu "Qoidalar" quyidagilarni belgilab berdi:

– *G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari tomonidan respublika va hududiy g'azna hisobraqamlarini qo'llash sharoitida respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartibini;*

– *republika g'azna hisobraqami va hududiy g'azna hisobraqamlarini yuritish tartiblarini;*

– *Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarning yoyilmasi;*

– *byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalarini va ularga o'zgartirishlarni g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etish tartiblarini;*

– *yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olishning umumiy qoidalarini; byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga xarajatlarni amalga oshirish tartiblarini va boshqalar.*

G'azna hisobvaraqlaridan foydalanib, g'azna ijrosi bilan qamrab olinadigan byudjetlar, xarajat guruhlari, byudjetdan mablag' oluvchilar, shu jumladan kapital qurilish buyurtmachilarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Naqd pul mablag'larini olish uchun, shu jumladan byudjetdan mablag' oluvchilarning xodimlariga ish haqi to'lash, xizmat safari va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa naqd pul shaklidagi xarajatlarni to'lash uchun g'aznachilik bo'linmalari tomonidan tijorat banklarda 23212 "Moliya vazirligi G'aznachiligi mablag'lari" va 23214 "G'aznachilikning hududiy bo'linmalari mablag'lari" hisobvaraqlari ochiladi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosining hisobini yuritish, hisobotini tuzish va taqdim etish qonunchilikda o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar va muddatlar bo'yicha amalga oshiriladi.

G'azna hisobvaraqlari orqali xizmat ko'rsatiladigan byudjetdan mablag' oluvchilar xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi davriy hisobot (1- OX shakl va 2-shakl)ni yuqori tashkilot va tegishli moliya organlariga taqdim etgunga qadar, uni xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalari bilan tegishli davrda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari va aniqlangan rejali byudjetdan ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga mosligiga taqqoslanadi (byudjetdan mablag' oluvchilarning hisobotlari g'aznachilik bo'linmalarining buxgalteriya hisobi bo'yicha vakolatli xodimlari tomonidan belgilangan shakldagi shtamp qo'yilib, imzolanadi).

Davlat byudjetiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar banklar tomonidan o'rnatilgan tartibda qabul qilinadi va 23402 (005) "Respublika byudjetining mablag'lari" hisobvarag'iga kirim qilinadi hamda belgilangan me'yorlarga muvofiq, banklarda ochilgan tegishli byudjetlarning g'azna hisobvaraqlariga ajratiladi. Byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovi moliya yili uchun ajratilgan byudjet

mablagʻlari doirasida, tasdiqlangan (aniqlangan) xarajatlar smetalari, shuningdek mazkur Qoidalarga muvofiq roʻyxatga olingan, byudjetdan mablagʻ oluvchilarning mahsulot yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari asosida:

- respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar boʻyicha – Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Gʻaznachiligi yoki uning hududiy boʻlinmalari tomonidan mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda;

- Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjeti yoki mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar boʻyicha – Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Gʻaznachiligining hududiy gʻaznachilik boʻlinmalari tomonidan amalga oshirilishi ushbu qoidalarda belgilab berildi.

“Byudjet tizimi byudjetlarining gʻazna ijrosi Qoidalari”ga koʻra byudjetdan mablagʻ oluvchilar tomonidan byudjet mablagʻlarining maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat qonunchilikka muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy boʻlinmalari tomonidan amalga oshirilishi tartibi belgilangan.

Byudjetdan mablagʻ oluvchilarning rahbarlari va bosh hisobchilari qonunchilikka muvofiq:

- byudjet mablagʻlaridan oqilona foydalanishga;

- mahsulot yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarning toʻgʻri rasmiylashtirilishi va asosliligi va ularning qonunchilikka muvofiqligiga;

- IV guruh mablagʻlari hisobidan olinadigan naqd pul mablagʻlarining asosliligi hamda maqsadli ishlatilishining taʼminlanishiga;

- gʻaznachilik boʻlinmalariga taqdim qilinadigan tovar (ish, xizmat)lar yetkazib berilganligini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar va boshqa hujjatlarning, gʻazna hisobvaragʻidan amalga oshirish uchun toʻlov topshiriqnomalar va naqd pul uchun soʻrovnomalarning haqqoniyligiga;

- chek daftarchalarining saqlanishiga;

- mahsulot yetkazib beruvchilar oldidagi qarzdorlikning to‘g‘ri aniqlanishiga javobgarliklari mazkur “Byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi Qoidalari”da asoslangan.

Shuningdek “Byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi qoidalari”larda G‘aznachilik bo‘linmalarining vakolatlari belgilangan:³⁶

- g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan yuridik majburiyatlar, shuningdek ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar ular g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng kuchga kiradi. Bunda yuridik majburiyatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjatlar g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun joriy moliya yilining 25 dekabridan kechiktirmay taqdim qilinishini talab qilishga;

- g‘aznachilik bo‘linmalari “Byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi Qoidalari”ga muvofiq shakldagi to‘lov topshiriqnomalari va g‘azna memorial orderlari asosida to‘lovlarni amalga oshirishiga;

- g‘aznachilik bo‘linmalari imzolar namunalari va muhr izi kartochkasidan buyurtmachilar va kapital qo‘yilma buyurtmachilari-ning yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro‘yxatdan o‘tkazishda va hisobga olishda, shuningdek to‘lovlarni amalga oshirishda ulardagi imzolar va muhr izini imzolar namunalari va muhr izi kartochkasida ko‘rsatilgan imzolar va muhr izi namunalari solishtirishda foydalani- shiga;

- qonunchilikka muvofiq byudjetdan mablag‘ oluvchilarning ro‘yxatga olingan shartnomalarini xarajatlar smetalarida, shuningdek kapital qurilish xarajatlari bo‘yicha esa - qurilish obyektlarining oylik yoyilmalari bo‘yicha (Davlat byudjeti hisobidan kapital qurilish ob‘ektlari bo‘yicha xarajatlar smetalarida) nazarda tutilgan rejali ajratilgan byudjet mablag‘lariga muvofiqligiga va mazkur Qoidalar- ning talablariga muvofiqligiga va byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlari to‘lovi ustidan nazoratning to‘g‘ri amalga oshirilishiga;

³⁶ “O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi Qoidalari” O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016-yil 22-noyabrda 88-son buyrug‘iga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016- yil 22-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami №2580.

- elektron to'lov topshiriqnomalarning "G'aznachilik" dasturiy majmuida to'g'ri shakllantirilishi va ular to'lovini "Bank-mijoz" dasturiy majmui orqali amalga oshirilishiga, naqd pul mablag'lari olish uchun cheklarning mazkur Qoidalar va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq to'g'ri rasmiylashtirilishiga.

5.4. Moliya vazirligi G'aznachiligining funktsiya va vazifalari

Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi №53–qarori asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risidagi Nizom" O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2007-yil 28-fevraldagi PQ–594-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va javobgarligini belgilaydi. G'aznachilikning vakolat berilgan lavozimdagi shaxslaridan boshqa hech bir yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs g'aznachilikning yagona hisobraqami mablag'laridan pul o'tkazish uchun bankka to'lov topshiriqnomasini berish huquqiga ega emas.

G'aznachilikning yagona hisobraqami O'zbekiston Respublikasining Markaziy Bankida ochiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining hududiy boshqarmalarida g'aznachilikning yagona hisobraqami subschyotlari ochiladi. Respublika mintaqalarida davlat xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash maqsadida G'aznachilikning topshirig'i bilan Markaziy Bank tomonidan butun ish kuni mobaynida subschyotlarga va subschyotlardan pul mablag'larini o'tkazish tashkil etiladi. Mablag' o'tkazish va davlatning pul mablag'larini xarajat qilish uchun faqat Moliya Vazirligi ruxsati bilan bank schyotlarini ochish mumkin. Bu huquq Davlat G'aznachisiga Moliya Vazirligining buyrug'i bilan yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki va G'aznachilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga taalluqli masalalar ular o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida tartibga solinadi. G'aznachilik yilda kamida bir marta ushbu shartnomalarning tahlilini o'tkazishi shart, agar G'aznachilik fikri bo'yicha shartnomalarni ko'rib chiqish talab etilsa, ikkala tomon talablarini qondirish maqsadida shartnomalarni qayta tuzish tadbirlari ko'riladi.

G'aznachilik o'zining hududiy bo'linmalari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining g'azna ijrosini amalga oshiradigan maxsus vakolatli moliya organi hisoblanadi.³⁷

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi tizimiga bevosita unga bo'ysunadigan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri G'aznachilik boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) G'aznachilik bo'limlari kiradi. G'aznachilik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda o'z faoliyatiga tegishli bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi. G'aznachilik o'z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bevosita va o'zining hududiy bo'linmalari orqali amalga oshiradi. G'aznachilik faoliyatini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

PQ-594-son Qarori bilan Moliya vazirligi G'aznachiligi zimmasiga bir qator asosiy vazifalar yuklatildi (5.2-rasm).

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 apreldagi 122-sonli qarori tahririda, O'R QHT, 2016, 17-son, 176-modda.

G'aznachilik, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri G'aznachilik boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) G'aznachilik bo'limlari O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri G'aznachilik boshqarmalari yuridik shaxslar hisoblanadi.

Quyidagilar *G'aznachilikning asosiy vazifalari* hisoblanadi:

- Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

- tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan, Davlat byudjeti Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'larni boshqarish;

- byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari mablag'lari hisobiga tuzilgan shartnomalarini xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan summalar doirasida hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq tuzilganligi ustidan nazorat qilish asosida majburiy ro'yxatdan o'tkazish;

- byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'lari-dan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- davlat xaridlari bo'yicha axborot bazasini yaratish va doimiy ravishda yangilab borish, davlat xaridlarini amalga oshirishda narxni shakllantirish jarayonini nazorat qilish;

Moliya vazirligi G'aznachiligining

asosiy vazifalari

davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish

davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisobraqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish

byudjet tashkilotlarining tovar(ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining asossiz xarajatlarning oldini olish

byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish

xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovar(ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash

davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish

5.1-rasm. Moliya vazirligi G'aznachiligining asosiy vazifalari³⁸

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-son (28.02.2007) qarori asosida.

- xarajatlar smetalarida va ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarda nazarda tutilgan summalar doirasida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan hamda ularning topshirig'i bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilarning hisobvaraqlariga to'lovlarni bevosita amalga oshirish orqali to'lov intizomiga rioya etilishini ta'minlash;

- Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, Davlat byudjeti ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish;

- O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari, shu jumladan nomoddiy shakldagi vositalar to'g'risidagi axborotlarni to'plash va ishlash.

G'aznachilik o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglash-tirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun G'aznachilikning bank hisobraqamlariga mablag'lar o'tkazadi;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobraqamlariga sudning qarori bo'yicha yagona g'aznachilik hisobvarag'idan yoki G'aznachilikning boshqa hisobraqamlaridan mablag'lar o'tkazadi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash uchun mablag'lar o'tkazadi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida yagona g'aznachilik hisobraqamida mablag'larning harakati to'g'risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi;

- byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilarga ular uchun moliya organlarida ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga byudjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi;

- manbalar bo'yicha tegishli byudjet tizimi byudjetlari daromadlari tushumi hisobini yuritadi;

- Davlat byudjeti ijrosi jarayonida O'zbekiston Respublikasi byudjeti daromatlari tushumi va xarajatlarining qisqa muddatli bashoratlarini tuzadi;

- moliya organlarining topshirig'i bo'yicha yuqori byudjetlarda nazarda tutilgan dotatsiyalar, subvensiyalar, byudjet ssudalari summasini va boshqa to'lovlarni quyi byudjetlarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkazadi;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar doirasida va maqsadlarga muvofiq tuzilishi ustidan qattiq nazorat qilish asosida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazadi;

- byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan va topshirig'i bo'yicha byudjet tizimi byudjetlarida nazarda tutilgan mablag'lar uchun ro'yxatga olingan shartnomalarda yoki byudjet mablag'larini yuridik va jismoniy shaxslarning hisobraqamlariga o'tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan summalar doirasida tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar)ning bevosita bank hisobraqamlariga to'lovlarni amalga oshiradi;

- byudjet tashkilotlarini va byudjet mablag'lari oluvchilarni, jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib boradi, bunda ular tomonidan tuzila-

yotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechishni nazarda tutadi;

- schyot-fakturalar va tovarlar yetkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi) holatini tasdiqlaydigan yoki byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga soliqlar, yig'imlar hamda Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar uchun byudjet mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlar asosida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy majburiyatlari hisobini yuritadi;

- birlamchi hujjatlar asosida Davlat byudjeti g'azna ijrosining tahliliy va sintetik buxgalteriya hisobini yuritadi;

- byudjet tizimi byudjetlarining ijro etilishi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish asosida byudjet tizimi byudjetlarining kassa ijrosi to'g'risida hisobot tuzadi va ushbu hisobotni belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining davlat qarzlariga xizmat ko'rsatadi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi davlat kafolatlarini ijro etadi;

- o'zining hududiy bo'linmalari faoliyatini tahlil qiladi va muvofiqlashtiradi;

- normativ-huquqiy hujjatlarni va metodologik materiallarni, shu jumladan, G'aznachilik hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarni maqbullashtirish, O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlari ijrosi to'g'risidagi byudjet hisobini va hisobotlarni takomillashtirish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni va metodologik materiallarni ishlab chiqishda qatnashadi;

- kichik biznes subyektlari unda keng ishtirok etishini nazarda tutadigan davlat xaridlarini amalga oshirishda tanlov va tender tartib-taomillarini takomillashtirish va ularni qo'llashni kengaytirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

- G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari xodimlari malakasini oshirish ishlarini tashkil etadi va amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan barcha turdagi inson-parvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari, shu jumladan nomoddiy shakldagi vositalarning to'liq va tizimli hisobini yuritadi;

- davlat xaridlari bo'yicha ma'lumotlar, shu jumladan davlat xaridlari bo'yicha byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan joylashtiriladigan buyurtmalar, shuningdek byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga narxlar bo'yicha ma'lumotlar elektron bazasini shakllantiradi va doimiy ravishda yangilab boradi;

- davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasining ishchi organi funksiyasini amalga oshiradi.³⁹

O'z faoliyatini amalga oshirishda *G'aznachilik organlari quyidagi huquqlarga ega:*

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va tijorat banklarida G'aznachilikning bank hisobraqamlarini ochish va yopish;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilardan Davlat byudjetini ijro etish jarayonidagi daromadlar va xarajatlarning qisqa muddatli bashoratini tuzish uchun zarur bo'lgan hisobot ma'lumotlarini so'rab olish;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilardan ular tomonidan G'aznachilikka ro'yxatdan o'tkazishga taqdim etiladigan shartnomalarning sifatini, maqsadga muvofiqligini va narx yechimlarini baholash uchun barcha zarur hujjatlarni belgilangan tartibda talab qilish;

- belgilangan tartibda Davlat byudjeti bo'sh mablag'larini bank depozitlariga va boshqa aktivlarga vaqtinchalik joylashtirish, shuning-

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 apreldagi 122-sonli qarori tahririda, O'R QHT, 2016,17-son, 176-modda.

dek byudjet ssudalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlariga o'tkazish;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga xarajatlar smetalarida, qurilishlarning manzilli va titul ro'yxatlarida nazarda tutilgan byudjet mablag'lari hajmidan oshib ketadigan hajmda byudjet mablag'lari hisobiga haq to'lanishini nazarda tutuvchi shartnomalarini, shuningdek byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning to'lov jadvalisiz, sifati, maqsadga muvofiqligi va narx yechimlari bo'yicha belgilangan talablarga javob bermaydigan shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning schyot-fakturalarsiz hamda tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish faktini tasdiqlovchi yoki byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar zimmasiga byudjet mablag'larini o'tkazishni yuklovchi boshqa hujjatlarsiz taqdim etilgan kapital qurilish yuzasidan majburiyatlari uchun pul to'lamaslik;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning ularning tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan G'aznachilikda (uning hududiy bo'linmalarida) ro'yxatdan o'tkazilmagan shartnomalaridan kelib chiqadigan kapital qurilish yuzasidan majburiyatlari to'lovi bo'yicha to'lov hujjatlarini ijro etish uchun qabul qilmaslik;

- narxlarining asossiz ravishda oshirib yuborilishiga yo'l qo'yilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovni byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning shartnomalarida nazarda tutilgan summa doirasida cheklash, shuningdek byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar shartnomalari predmetiga muvofiq bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilgan hollarda to'lovni to'xtatib turish;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan hisobotlar taqdim etilmagan taqdirda ularning byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan xarajatlari to'lovini moliya organlari topshirig'iga binoan to'xtatib qo'yish, bu to'g'rida tegishli byudjet mablag'larini taqsimlovchilarni, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarni xabardor qilish;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning G'aznachilikda (uning bo'linmalarida) ro'yxatdan o'tkazilmagan shartnomalar bo'yicha moliyaviy majburiyatlarini hisobga qabul qilmaslik, qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzilmasdan moliyaviy majburiyatlar qabul qilinishi mumkin bo'lgan hollar bundan mustasno;

- korxonalar va tashkilotlardan bajarilmagan moliyaviy majburiyatlar bo'yicha byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilardan to'lov muddati o'tgan qarzlarni summasini byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning bajarilmagan moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi zarur hujjatlar ilova qilingan yozma murojaatlari asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undirib olish;

- belgilangan tartibda insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari oluvchilaridan ularning shaxsiy bank hisobraqamlaridan ko'chirmalar, shuningdek ular tomonidan olingan insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari, shu jumladan nomoddiy shakldagi vositalar to'g'risida hisobotlar va axborotlar olish;

- davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasining ishchi organi funksiyasini bajarish uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlardan zarur materiallarni olish;

- davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasining ishchi organi funksiyasini bajarish uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari,

mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlardan zarur materiallarni olish.⁴⁰

Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosini amalga oshirishda *G'aznachilik organlarining quyidagi majburiyatlari* shakllantirilgan:

-Davlat byudjeti xarajatlarini yagona g'azna hisobvarag'idan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridan belgilangan muddatlarda va tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari qoldiqlari doirasida amalga oshirish;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishda, shu jumladan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilinganda narxlarni oshirib yuborish mavjudligi, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan kreditorlik qarzlari summasining asossiz oshirib yuborilishi hollari aniqlangan taqdirda mavjud materiallarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasiga va uning hududiy bo'linmalariga berish;

-o'ziga berilgan huquqlardan qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish hamda o'z faoliyatida yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik.

G'aznachilik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5.5. Moliya vazirligi G'aznachiligining tarkibi va tashkiliy tuzilishi

G'aznachilik tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. G'aznachilikni lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining o'rinbosari hisoblanadigan boshliq boshqaradi.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 apreldagi 122-sonli qarori tahririda, O'R QHT, 2016 y., 17-son, 176-modda.

G'aznachilik boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining taqdimiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

G'aznachilik boshlig'i o'rinbosarlari G'aznachilik boshlig'ining taqdimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadilar.

G'aznachilikning hududiy bo'linmalari boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda G'aznachilik boshlig'i taqdimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi. G'aznachilikning hududiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlar O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari yagona markazlash-tirilgan tizimni tashkil qiladi hamda quyi boshliqlarning yuqori boshliqlarga va O'zbekiston Respublikasi moliya vaziriga bo'ysunishi va hisobot berishi asosida faoliyat ko'rsatadi.

G'aznachilik o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq o'z hududiy bo'linmalari faoliyati ustidan tezkor boshqaruvni va nazoratni amalga oshiradi.

G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tarkibidagi davlat ijroiya organi hisoblanadi. G'aznachilikning Qoraqalpog'iston Respublikasi G'aznachilik Boshqarmasi, Toshkent shahar va viloyatlar Boshqarmasi, shahar va tumanlarda G'aznachilik bo'linmalari kabi hududiy organlari faoliyat ko'rsatadi.

G'aznachilikka O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlangan Davlat G'aznachisi rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'iga muvofiq G'aznachilikning hududiy organlari tuziladi va tugatiladi. G'aznachilik organlarining xarajatlarini moliyalashtirish respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

Bugungi kunga kelib G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari shtatlari shakllantirilgan bo'lib, markaziy G'aznachilikka 92ta, G'aznachilik hududiy bo'linmalariga 2261ta, jami G'aznachilik tizimiga 2353ta shtat birligi ajratilgan. Lekin davlat byudjeti g'azna ijrosi bilan qamrab olinayotgan jarayonlarni hisobga oladigan bo'lsak, g'aznachilik orqali byudjet daromadlari va xarajatlari ijrosi, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning daromad va xarajatlari ijrosi, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari tushumi va sarfi ijrosi amalga oshirilayotganligini, bu bilan bog'liq bo'lgan ish hajmining ortib borayotganligini hisobga olib, G'aznachilik amaliyot boshqarmalari bo'linmalari shtatlari sonini qayta ko'rib chiqish zarurligini e'tirof etish lozim.

G'aznachilikning tashkiliy tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining Davlat byudjetining g'azna ijrosi bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi Markaziy apparati tuzilmasiga shunday yirik boshqarmalardan biri "Amaliyot boshqarmasi", "Metodologiya, moliyaviy resurslar va hisoblarni boshqarish boshqarmasi" va "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tahlili va nazorati boshqarmasi" singari boshqarmalar kiradi. PQ-594-son qaror bilan shuningdek, G'aznachilik hududiy bo'linmalarining tashkiliy tuzilishi ham tasdiqlangan.

Moliya vazirligi G'aznachiligi to'g'risidagi Nizomga muvofiq, G'aznachilikning hududiy bo'linmalari quyidagi ishlarni bajaradi:

– byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun g'aznachilikning bank hisobraqamlariga mablag'lar o'tkazadi;

– yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobraqamlariga sudning qarori bo'yicha yagona g'aznachilik hisobraqamidan yoki g'aznachilikning boshqa hisobraqamlaridan mablag'lar o'tkazadi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat organlari

yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash uchun mablag'lar o'tkazadi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida g'aznachilik hisobraqamlarida mablag'larning harakati to'g'risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi;

– byudjetdan mablag' oluvchilarga ular uchun g'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisobraqamlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga byudjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi;

– manbalar bo'yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritadi;

– moliya organlarining topshirig'i bo'yicha yuqori byudjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subvensiyalar, byudjet ssudalari summasini va boshqa to'lovlarni quyi byudjetlarning shaxsiy g'aznachilik hisobraqamlariga o'tkazadi;

– byudjet tashkilotlari va buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar doirasida va maqsadlarga muvofiq tuzilishi ustidan qattiq nazorat qilish asosida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazadi;

– byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan ro'yxatga olingan shartnomalarda yoki boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan summalar doirasida tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar)ning bevosita bank hisobraqamlariga to'lovlarni amalga oshiradi;

– byudjet tashkilotlarini, jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'lari-dan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib boradi, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechishni nazarda tutadi;

– schyot-fakturalar va tovarlar yetkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi) holatini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar asosida byudjet mablag‘i oluvchilarning moliyaviy majburiyatlari hisobini yuritadi va boshqa ishlarni amalga oshiradi.

Bugungi kunda davlat byudjeti g‘azna ijrosini tashkil etish borasidagi Prezident qarorlarining ijrosi doirasida Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining qarz mablag‘larini jalb etgan holda davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g‘azna hisobraqamiga jamlash va undan xarajatlar to‘lovini amalga oshirish imkonini beruvchi davlat byudjeti g‘azna ijrosining yagona integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda belgilangan tartibda respublikaning barcha shahar va tumanlarini qamrab olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining ma‘lumotlar tarmog‘ini tashkil etish uchun yer usti raqamli aloqa kanallarini berish choralari ko‘rilmoqda.

Takrorlash uchun savollar

1. G‘aznachilik faoliyatining qonuniy-huquqiy asoslarini nimalar tashkil qiladi?
2. G‘aznachilik maxsus vakolatli moliya organi sifatida qachon, qaysi me‘yoriy-huquqiy hujjat bilan tashkil qilindi?
3. G‘aznachilikning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. G‘aznachilik markaziy apparati va uning hududiy bo‘linmalari tashkiliy tuzilishi, ularning funksional vazifalaridagi farqlarni aytib bering.
5. G‘aznachilikning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
6. Respublika va hududiy g‘azna hisobraqamlarining mazmuni nima, tayinlanishi va yuritilish tartibi qanday?
7. Yagona g‘azna hisobraqamiga o‘tishning afzalliklari nimada?

8. Byudjet daromadlarini yagona g'azna hisobraqamida yuritish tartibi qanaqa?

9. Byudjet xarajatlarini yagona g'azna hisobraqamidan to'lab berish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. G'aznachilikning qonuniy-huquqiy va me'yoriy asoslarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izoh yozing.

2. G'aznachilik markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalari tashkiliy tuzilishi chizmasini mustaqil daftaringizga aks ettiring, tarkibiy bo'linmalarining bajaradigan vazifalari sharhini keltiring.

3. Yagona g'azna hisobraqamida daromadlarni kirim qilish va xarajatlarni to'lash tartibini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va ularni izohlovchi xulosa yozing.

4. Respublika va hududiy g'azna hisobraqamlaridan yagona g'azna hisobraqamiga o'tish davrida amalga oshirilgan tadbirlar va qabul qilingan me'yoriy hujjatlar sharhini keltiring.

5. Davlat byudjeti yagona g'azna hisobraqamini yuritishning jahon tajribalarini o'rganing va xulosalaringizni mustaqil ta'lim daftaringizda aks ettiring.

6. Davlat byudjeti yagona g'azna hisobraqamini yuritishning jahon tajribalarini o'rganing va xulosalaringizni mustaqil ta'lim daftaringizda aks ettiring.

7. G'aznachilikning qonuniy-huquqiy va me'yoriy asoslarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izoh yozing.

8. G'aznachilik markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalari tashkiliy tuzilishi chizmasini mustaqil daftaringizga aks ettiring, tarkibiy bo'linmalarining bajaradigan vazifalari sharhini keltiring.

9. Yagona g'azna hisobraqamida daromadlarni kirim qilish va xarajatlarni to'lash tartibini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va ularni izohlovchi xulosa yozing.

10. Respublika va hududiy g'azna hisobraqamlaridan yagona g'azna hisobraqamiga o'tish davrida amalga oshirilgan tadbirlar va qabul qilingan me'yoriy hujjatlar sharhini keltiring.

11. Davlat byudjeti yagona g'azna hisobraqamini yuritishning jahon tajribalarini o'rganing va xulosalaringizni mustaqil ta'lim daftaringizda aks ettiring.

6-MAVZU. G‘AZNACHILIK ORGANLARI FAOLIYATINING TASHKIL ETILISHI

6.1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi - byudjet tizimi byudjetlari ijrosini ta‘minlovchi organ sifatida

6.2. Davlat byudjeti g‘azna ijrosini tashkil qilishda G‘aznachilikning o‘rni va ahamiyati

6.3. Moliya vazirligi G‘aznachiligi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari

6.4. Hududiy moliya organlari faoliyatining tashkil etilishi

6.5. Mahalliy byudjetlar ijrosini ta‘minlashda hududiy g‘aznachilik bo‘linmalari

6.1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi - byudjet tizimi byudjetlari ijrosini ta‘minlovchi organ sifatida

Byudjet tizimini boshqarish quyidagilarni nazarda tutadi:

- *Byudjet tizimining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda byudjet munosabatlarini boshqarish;*

- *Barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, ijro etish jarayonlarini boshqarish;*

- *Byudjet jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar, organlar va byudjet mablag‘larini oluvchilar faoliyatini boshqarish.*

Byudjet tizimini boshqarish ham boshqarish kategoriyasining barcha funksiyalarini bajaradi, ular orqali byudjet tizimini boshqarish oldidagi maqsad va vazifalar amalga oshiriladi. Bu funksiyalar quyidagilardan iborat:

- rejalashtirish;
- tashkil etish;

- muvofiqlashtirish;
- nazorat;
- motivatsiya (rag'batlantirish).

Byudjet tizimi byudjetlarini boshqarish tushunchasi subyektiv tushuncha. Byudjet tizimini boshqarish alohida vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi, ularning vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, tegishli boshqaruv organlari Nizomlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilab berilgan.

Byudjet tizimini boshqarish subyektlari:

- *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;*
- *Mahalliy davlat hokimiyati organlari;*
- *Moliya vazirligi va uning quyi organlari;*
- *O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligiva uning hududiy organlari;*
- *Markaziy bank va tijorat banklari;*
- *Vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari.*

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet sohasidagi vakolatlari Byudjet kodeksining 29-moddasida keltirilgan. Bunga ko'ra, *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:*

- Davlat byudjeti hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini tayyorlaydi;

- davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyihalarini ko'rib chiqadi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga byudjetnoma loyahasini ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari bashoratini har chorak asosida yetkazadi;

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini yetkazadi;

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalari va jamlanma xarajatlar smetalari, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

- belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi byudjetining xarajatlari yoyilmasiga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda Davlat byudjeti, O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar taqdim etadi;

- o'rnatilgan tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining tasdiqlangan parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarini ko'rib chiqadi;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

- byudjet tizimi byudjetlarining mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risida hisobot taqdim etadi;

- byudjetdan tashqari maxsus hisobvaraqlarda zaxiralar tashkil etadi;

- Davlat byudjetini ijro etish jarayonida unga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

- Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

- byudjet ssudalarini beradi;
- davlat tomonidan mablag‘lar jalb qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining shartnomalari va davlat kafolatlarini ro‘yxatdan o‘tkazadi;
- davlat qarzining hisobini va monitoringini yuritadi;
- byudjet tizimi byudjetlarining kassa ijrosini yuritadi;
- byudjet tizimi byudjetlarining Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larini boshqaradi;
- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazadi;
- byudjet tizimi byudjetlarida mablag‘lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig‘iga ko‘ra to‘lovlarni amalga oshiradi;
- byudjet tizimi byudjetlari ijrosining byudjet hisobini yuritadi;
- davlat qarzi bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi, O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini bajaradi;
- O‘zbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordami hamda texnik ko‘maklashish mablag‘lari hisobini yuritadi;
- byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlarining balanslilikiga ta‘sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy hamda iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazadi;
- o‘z vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

6.2. Davlat byudjeti g‘azna ijrosini tashkil qilishda G‘aznachilikning o‘rni va ahamiyati

Davlat moliyasini boshqarish masalalari iqtisodiyot va moliya nazariyasida markaziy o‘rinni egallaydi. Iqtisodiyotni va davlat mo-

liyasini boshqarishdagi muammolar shundan iboratki, bozor xo'jaligi o'z-o'zini tartiblovchi va rivojlantiruvchi tizim (bozorning "ko'rinmas qo'li") bo'lishiga qaramasdan, hech qachon davlat aralashuvisiz samarali ishlamagan. Tarixiy taraqqiyotdan ma'lumki, umuman olganda, kapitalistik bozor xo'jaligining yuzaga kelishi faol davlat aralashuvi bilan birga sodir bo'lgan. Masalan, 1563 yilda ingliz qirolchasi Yelizaveta I milliy baliqchilikni qo'llab-quvvatlash va unga bo'lgan talabni oshirish maqsadida o'z xizmatkorlariga haftasiga 2 marta go'sht mahsulotlarini iste'mol qilishni ta'qiqlagan. 1666 yilda esa Angliyada jun mahsulotlarini sotish bilan bog'liq qiyinchiliklarni tugatish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilgan, xususan, vafot etgan fuqarolarni jun matodan bo'lgan kiyimlarda dafn etish majburiy qilib qo'yilgan, bu qonunni buzganlarga 5 funt-sterling miqdorida jarima belgilangan.

Aksariyat hozirgi zamon iqtisodchi-olimlarning fikricha, bozorning "ko'rinmas qo'li" davlatning "ko'rinadigan qo'li" bilan to'ldirilib turilishi kerak. Bu borada kelishmovchiliklar, qarama-qarshi fikrlar yuzaga kelishining sababi bu aralashuvning qay darajada bo'lishi bilan bog'liq, lekin davlatning tartiblovchi tamoyili asosan ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Bunday yakdillikning asosiy sababi shundaki, olimlarning fikriga ko'ra, bozor jamiyatda mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning barchasini o'z-o'zidan hal qila olmaydi. Misol uchun, monopoliya sharoitida o'z-o'zini tartiblash raqobatni rivojlantira olmaydi, bu esa tovarlar ma'lum turlari narxining oshishiga olib keladi va natijada aholi daromadlari iqtisodiyotning alohida bir sektorida ushlanib qoladi. Bunday hollarda bozor mexanizmi samarasiz ishlay boshlaydi va iqtisodiy tanglik sharoitida iqtisodiyotni barqarorlashtirishda bozor mexanizmi sust qatnashadi. Shuning uchun, iqtisodiyotni tartiblovchi qo'shimcha mexanizmlarni ishlab chiqish ehtiyoji tug'iladi. Ana shunday mexanizmlardan biri – davlatning iqtisodiyotni tartiblovchi dastak va vositalaridir. Iqtisodiyotni faqat "ko'rinmas qo'l"ga tashlab qo'yish ijobiy natija bermasligini va bu haqiqatning naqadar to'g'ri ekanligini

bugungi kundagi reallik, jahonda yuz berayotgan to'fonlar tasdiqlab turibdi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning bosh maqsadi – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mamlakatda mavjud ichki tuzumni mustahkamlash, mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy jarayonlarni jahondagi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirishdan iborat. Tartiblashning boshqa barcha maqsad va vazifalari ana shu bosh maqsadga bo'ysundirilgan.

Bu borada davlat moliyasini boshqarish va tashkil qilishning oldida qanday vazifalar turganini ta'kidlab o'tish o'rinli, ular:

- muvozanatlashtirilgan bozorga kirib borishda barqaror taraqqiyotga erishish maqsadida maksimal darajada moddiy va moliyaviy rezervlarni qidirib topish;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va maqsadli dasturlarning samarali bajarilishini ta'minlovchi byudjet daromadlarining umumiy hajmini to'g'ri belgilash;

- umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan barcha tadbirlarni uzluksiz moliyalashtirish ehtiyojini inobatga olgan holda, davlat byudjeti xarajatlari umumiy hajmini to'g'ri belgilash va ularni optimallashtirish;

- iqtisodiyotdagi inflyatsion tendensiyalar va pul-kredit nobarqarorligini bartaraf etishga, milliy pul birligining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy barqarorlashtirish dasturlarini davlat byudjet siyosati chora-tadbirlari bilan muvofiqlashtirish;

- iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan noinflyatsion manbalar hisobidan byudjet defitsitiga barham berish yoki uni qisqartirish;

- iqtisodiy mintaqalar, xo'jalik sohalari va byudjetlar o'rtasida davlat daromadlarini qayta taqsimlash yo'li bilan turli darajadagi byudjetlarni balanslashtirish maqsadida byudjetni oqilona tartibga solishni amalga oshirish;

– keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning samarali amalga oshirilishini ta‘minlash imkonini beradigan byudjetni o‘rta va uzoq istiqbolga mo‘ljallab rejalashtirishning ahamiyatini oshirish;

– soliq majburiyatlarini bajarishda alohida fuqarolar va yuridik shaxslarning moliyaviy faoliyatlari ustidan nazoratni ta‘minlash;

– zamonaviy texnika va texnologiyalardan keng foydalanish asosida va moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish orqali byudjetlarni tuzish va ijro etish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqalar.

Davlat moliyasini boshqarish (DMB)ni isloh etish strategiyasi O‘zbekiston Respublikasida DMB tizimini – nazorat qilishni takomillashtirishdan iborat. Ushbu strategiyadan kutilayotgan oraliq maqsad – DMB tizimida muhim jarayonlarni modernizatsiyalash bo‘lib, bugungi kunda islohotlar strategiyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat (6.1-rasm):

1) zamonaviy markazlashgan g‘aznachilik tizimini shakllantirish;

2) yagona byudjet hisobi tizimini shakllantirish va yuritish;


3) o‘rta muddatli byudjet strategiyasi va byudjetlashtirilishiga o‘tib boorish;

4) byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish;

5) barqaror byudjet daromadlilikini ta‘minlash maqsadida oqilona soliq siyosatini yuritish.

Ushbu strategik vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi (26.08.2004) qonunining qabul qilinishi byudjet ijrosi-ning g‘aznachilik tizimiga o‘tilishiga asos soldi. 2005 yil may oyida davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tizimini bosqichma-bosqich joriy etishni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida “Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tadbiq etish va uslubiyot boshqarmasi”, keyinchalik (2007 yilda) uning negizida Moliya vazirligi G‘aznachiligi tashkil etildi.

**Byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish
Barqaror byudjet daromadligini ta'minlash maqsadida
oqilona soliq siyosatini yuritish**



6.1-rasm. Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish strategiyasi yo'nalishlari⁴¹

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007 yil 1 noyabrdagi PQ-721-son Qarori.

2007 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish” loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-721-son Qarori (01.11.2007) qabul qilinib, unda davlat moliyasini boshqarishni isloh etish loyahasini yangi ishtirokchi – Osiyo taraqqiyot banki bilan birga amalga oshirish belgilandi.

Umuman olganda, davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlarini amalga oshirish maqsadlariga hukumatimiz tomonidan ajratilgan mablag‘lardan tashqari, Jahon banki tomonidan – 14,2 mln dollarlik kredit mablag‘lari, Yaponiya hukumati tomonidan – 2,8 mln dollar, TESIS tomonidan – 2,8 mln dollar va Islom taraqqiyot banki tomonidan – 0,2 mln dollarlik grantlar ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri – byudjet tizimining to‘liq shaffofligini ta’minlash maqsadida byudjet mablag‘larini ularning oluvchilariga yetkazishda kechikishlarga, qarzdorlikka yo‘l qo‘ymaslik, byudjet mablag‘laridan maqsadsiz foydalanish holatlariga barham berish, byudjetlararo munosabatlar samaradorligini oshirgan holda hokimiyatlarning turli darajalaridagi byudjetlarning hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarning daromad va xarajatlari hisobraqamlarini G‘aznachilikka o‘tkazishdan iborat.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi davlat byudjetining g‘azna ijrosi mexanizmlarini O‘zbekistonda ham joriy etish va rivojlantirish, davlatning moliyaviy resurslarini boshqarishning axborotlashtirilgan tizimini joriy etish, davlat moliyasining holati to‘g‘risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradi, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta’minlaydi. G‘aznachilik tizimi davlat byudjetini ijro etishning samarali va amaliy mexanizmi hisoblanib, unda davlat daromadlari va xarajatlari bo‘yicha barcha operatsiyalar G‘aznachilik tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining g‘azna ijrosi deganda davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘lari to‘planadigan va ushbu mablag‘lar doirasida aniq belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha

xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g'azna hisobraqam orqali davlat byudjetini ijro etish hamda davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish tushuniladi.

G'aznachilik byudjet tashkilotlarining va byudjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatlarini ro'yxatga oladi, mol yetkazib beruvchilar tomonidan ularga mahsulotlar yetkazib berilganidan va xizmatlar ko'rsatilgandan so'ng, byudjet tashkilotlarining va byudjetdan mablag' oluvchilarning nomidan va ularning topshirig'iga asosan G'aznachilik vakolatni o'z zimmasiga oladi va byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishini ta'minlash asosida taqdim qilingan hujjatlar bo'yicha to'lovni amalga oshiradi.

G'aznachilikning rivojlanishi byudjet ijrosida ishtirok etuvchi barcha darajadagi moliya va soliq organlarining faoliyatini umumlash-tiradi, yangi sharoitlarda ularning butun faoliyati davlat moliyaviy mablag'larini yagona davlat xazinasida jamlashga qaratiladi.

Har qanday davlat va jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bajarish uchun kuchli ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, mudofaa hamda boshqaruv organlarini saqlab turish zarur bo'ladi.

Buning uchun rivojlangan byudjet tizimini yaratish, mamlakat hududidagi mavjud daromad manbalari va xarajat yo'nalishlari haqida aniq asoslangan tahliliy ma'lumotlarga ega bo'lish talab etiladi.

Davr talabidan kelib chiqib, davlat byudjetining o'rta va uzoq istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olish uchun ushbu ma'lumotlarni aniq va o'z vaqtida ta'minlab beruvchi mexanizm sifatida G'aznachilik organlari oldiga davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil qilish, davlat byudjeti ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish kabi muhim vazifalar yuklatilgan.

6.3. Moliya vazirligi G‘aznachiligi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligining maqsad va vazifalari quyidagi bir qancha muhim qonun hujjatlari bilan belgilangan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi (O‘zR 26.12.2013 y. O‘RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan);

“Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2014 yil 1 yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan);

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2007 yil 20 martdagi 53-son qarori.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son qaroriga muvofiq quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligining asosiy maqsadlari etib belgilangan:

✓ zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag‘lari maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish;

✓ barcha darajalardagi daromadlar va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qonun hujjatlari bilan G‘aznachilikka quyidagi asosiy vazifalar yuklangan:

- Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida hisobot tuzish;

- Davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisobvarag'i, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobvaraqlarini joriy etish orqali boshqarish;

- byudjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarining oldini olish;

- byudjet tashkilotlarini, shu jumladan mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobvaraqlariga byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, Davlat byudjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish.

G‘aznachilik faoliyatining umumiy tavsifi

G‘aznachilikka O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri o‘rinbosari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlangan Davlat G‘aznachisi rahbarlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug‘iga muvofiq G‘aznachilikning hududiy organlari tuziladi va tugatiladi. G‘aznachilik organlarining xarajatlarini moliyalashtirish respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

Moliya vazirligi G‘aznachiligi O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida g‘aznachilikning yagona hisobraqami va uning subschyotlarini boshqarishni amalga oshiradi. G‘aznachilikning vakolat berilgan lavozimdagi shaxslaridan boshqa hech bir yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs g‘aznachilikning yagona hisobraqami mablag‘laridan pul o‘tkazish uchun bankka to‘lov topshiriqnomasini berish huquqiga ega emas.

G‘aznachilikning yagona hisobraqami O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Bankida ochiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining hududiy boshqarmalarida g‘aznachilikning yagona hisobraqami subschyotlari ochiladi. Respublika mintaqalarida davlat xarajatlarini o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta‘minlash maqsadida G‘aznachilikning topshirig‘i bilan Markaziy Bank tomonidan butun ish kuni mobaynida subschyotlarga va subschyotlardan pul mablag‘larini o‘tkazish tashkil etiladi. Mablag‘ o‘tkazish va davlatning pul mablag‘larini xarajat qilish uchun faqat Moliya Vazirligi ruxsati bilan bank schyotlarini ochish mumkin. Bu huquq Davlat G‘aznachisiga Moliya Vazirligining buyrug‘i bilan yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Banki va G‘aznachilik o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga taalluqli masalalar ular o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida tartibga solinadi. G‘aznachilik yilda kamida bir marta ushbu shartnomalarning tahlilini o‘tkazishi shart, agar G‘aznachilik fikri bo‘yicha shartnomalarni ko‘rib chiqish talab etilsa,

ikkala tomon talablarini qondirish maqsadida shartnomalarni qayta tuzish tadbirlari ko'riladi.

G'aznachilikka O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlangan Davlat G'aznachisi rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'iga muvofiq G'aznachilikning hududiy organlari tuziladi va tugatiladi. G'aznachilik organlarining xarajatlarini moliyalashtirish respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

G'aznachilikning yagona hisobraqami O'zbekiston Respublikasining Markaziy Bankida ochiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining hududiy boshqarmalarida g'aznachilikning yagona hisobraqami subschyotlari ochiladi. Respublika mintaqalarida davlat xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash maqsadida G'aznachilikning topshirig'i bilan Markaziy Bank tomonidan butun ish kuni mobaynida subschyotlarga va subschyotlardan pul mablag'larini o'tkazish tashkil etiladi. Mablag' o'tkazish va davlatning pul mablag'larini xarajat qilish uchun faqat Moliya Vazirligi ruxsati bilan bank schyotlarini ochish mumkin. Bu huquq Davlat G'aznachisiga Moliya Vazirligining buyrug'i bilan yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki va G'aznachilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga taalluqli masalalar ular o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida tartibga solinadi. G'aznachilik yilda kamida bir marta ushbu shartnomalarning tahlilini o'tkazishi shart, agar G'aznachilik fikri bo'yicha shartnomalarni ko'rib chiqish talab etilsa, ikkala tomon talablarini qondirish maqsadida shartnomalarni qayta tuzish tadbirlari ko'riladi.

Davlat byudjetining kassaviy ijrosini amalga oshirish jarayonida G'aznachilik tijorat banklari bilan ham shartnoma tuzadi. Bu banklarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tavsiyasidan keyin aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va tijorat banklari G'aznachilik talabi bilan quyidagi ma'lumotlarni berishga majbur:

byudjet tashkilotlarining bankda ochilgan shaxsiy hisobraqamlari, unda mablag'lar aylanishi va qoldig'i to'g'risida ma'lumot;

G'aznachilik so'ragan aniq byudjet tashkilotining yoki uning tavsiyasi bilan ochilgan bank hisobraqamidagi mablag'lari to'g'risida ma'lumot.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot G'aznachilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi. Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi G'aznachilik tomonidan, shuningdek, davlat soliq va bojxona xizmati organlari, byudjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan davlat byudjetining g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining yagona hisoblar rejasi va byudjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi yagona hisoblar rejasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

G'aznachilik yuridik va jismoniy shaxslarga ular tomonidan ortiqcha to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar summalari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yagona g'azna hisobraqamidan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridan qaytarilishini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga, shuningdek, turli darajadagi davlat boshqaruvi o'rtasida tushumlar taqsimotini tartibga soladigan boshqa qonunlarga muvofiq, G'aznachilik tushumlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash uchun javobgar hisoblanadi. G'aznachilik belgilangan byudjet tasnifiga muvofiq, barcha davlat tushumlarini ularning aniq ro'yxati bo'yicha yagona g'azna hisobraqamida yuritilishini ta'minlaydi, qonun asosida g'aznachilikning yagona hisobraqamidan barcha to'lovlarni amalga oshirishga G'aznachilik javobgar hisoblanadi.

Davlat moliyasini isloh qilish, davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy etish, byudjet mablag'larini boshqarish va ularning shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish jarayonlari mukammallashib, takomillashib bormoqda. Bu jarayonlarni amalga oshirishda O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-594-son (28.02.2007) Qarorining qabul qilinishi muhim qadam bo‘lib xizmat qildi. Prezident Qarorining ijro etilishi doirasida Moliya vazirligi huzuridagi “Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi” hamda mahalliy moliya organlarining g‘aznachilik bo‘linmalari negizida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi.

PQ-594-son qaror bilan Moliya vazirligi G‘aznachiligi zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatildi :

- ✓ davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida hisobot tuzish;

- ✓ davlat byudjeti mablag‘larini yagona g‘aznachilik hisobraqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta‘minlaydigan hududiy g‘aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

- ✓ byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo‘naltiriladigan byudjet mablag‘laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta‘minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- ✓ xarajatlar smetasi va ro‘yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat‘iy summalar doirasida tovar(ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga byudjet mablag‘lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig‘i bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish orqali to‘lov intizomiga so‘zsis rioya etilishi ustidan ta‘sirchan nazoratni ta‘minlash;

Moliya vazirligi G'aznachiligining

asosiy vazifalari

davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish

davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisobraqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish

byudjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining asossiz xarajatlarning oldini olish

byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish


xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovar(ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash

davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish. O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish

6.2-rasm. Moliya vazirligi G'aznachiligining asosiy vazifalari⁴²

⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-son (28.02.2007) qarori asosida.

✓ davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlari xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish.



6.3-rasm. G'aznachilik markaziy apparatining tashkiliy tuzilishi⁴³

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-son (28.02.2007) Qarori ilovasidan.

Moliya vazirligi G'aznachiligi markaziy apparatining tashkiliy tuzilishi 6.3-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi moliya vaziriga zarur hollarda G'aznachilikning markaziy apparati va uning bo'linmalari tuzilmasiga moliya organlari boshqaruv xodimlarining belgilangan soni doirasida o'zgartishlar kiritish huquqi berilgan.

Bugungi kunga kelib G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari shtatlari shakllantirilgan bo'lib, markaziy G'aznachilikka 92ta, G'aznachilik hududiy bo'linmalariga 2261ta, jami G'aznachilik tizimiga 2353ta shtat birligi ajratilgan. Lekin davlat byudjeti g'azna ijrosi bilan qamrab olinayotgan jarayonlarni hisobga oladigan bo'lsak, g'aznachilik orqali byudjet daromadlari va xarajatlari ijrosi, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning daromad va xarajatlari ijrosi, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari tushumi va sarfi ijrosi amalga oshirilayotganligini, bu bilan bog'liq bo'lgan ish hajmining ortib borayotganligini hisobga olib, G'aznachilik amaliyot boshqarmalari bo'linmalari shtatlari sonini qayta ko'rib chiqish zarurligini e'tirof etish lozim.

G'aznachilikning tashkiliy tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining Davlat byudjetining g'azna ijrosi bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi Markaziy apparati tuzilmasiga bunday yirik boshqarmalardan Operatsiya boshqarmasi, Metodologiya, moliyaviy resurslar va hisoblarni boshqarish boshqarmasi va Davlat byudjetining g'azna ijrosi tahlili va nazorati boshqarmasi singari boshqarmalar kiradi. O'z navbatida ushbu boshqarmalar tarkibiga bir qancha bo'limlar kiradi.

1. Operatsiya boshqarmasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish va narxlar monitoringi bo'limi;
- moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amlaga oshirish bo'limi;
- mudofaa idoralari tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish, to'lovlarini amalga oshirish bo'limi;

- huquq-tartibot tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish, to'lovlarini amalga oshirish bo'limi;
- hisob-kassa amaliyotlar bo'limi;
- O'zbekiston Respublikasiga kelib tushayotgan barcha turdagi grant, nomoddiy shakldagi insonparvarlik yordami hamda texnik ko'maklashish vositalarining hisobi bo'limi;
- davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalari yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish bo'limi;
- ta'lim muassasalari rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash jamg'armalari yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish sektori.

2. *Metodologiya, moliyaviy resurslar va hisoblarni boshqarish boshqarmasi tarkibida quyidagilar mavjud:*

- byudjetning g'azna ijrosi metodologiya bo'limi;
- moliyaviy resurslarni boshqarish bo'limi;
- ichki va tashqi qarz bo'yicha hisob-kitoblar bo'limi;
- davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni monitoringi axborot-tahlil bo'limi.

3. *Davlat byudjetining g'azna ijrosi tahlili va nazorati boshqarmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:*

- Davlat byudjeti g'azna ijrosining yig'ma tahlili bo'limi;
- G'aznachilik operatsiyalari nazorati bo'limi;
- Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining Markaziy apparati bo'linmasi quyidagi *funksiyalarni* bajaradi:

Yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish va narxlar monitoringi bo'limi:

- mudofaa idoralari tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarini amalga oshirish (huquq-tartibot tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish, to'lovlarini amalga oshirish);

- byudjet tashkilotlari buyurtmachilarning xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan qat'iy ravishda summalar doirasida va maqsadlarga muvofiq ularning shartnomalar tuzishi ustidan qattiq nazorat qilish asosida bunday shartnomalarni ro'yxatga oladi;

- byudjet tashkilotlarini, shu jumladan xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshiradi, bunda qoidaga ko'ra vositachilik xizmatlarini istisno etgan holda ular bilan tuziladigan shartnomalarning sifatli bo'lishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini ta'minlashni nazarda tutadi.

Moliyaviy majburiyatlar ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish bo'limi:

- mudofaa idoralari tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish, to'lovlarini amalga oshirish (huquq-tartibot tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish, to'lovlarini amalga oshirish);

- byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun G'aznachilikning bank hisobvaraqlariga mablag'lar o'tkazadi;

- sudning qarori bo'yicha G'aznachilikning yagona g'azna hisobvaraqlaridan yoki boshqa bank hisobvaraqlaridan Davlat byudjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlariga mablag'lar o'tkazilishini, shuningdek davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash uchun mablag'larni qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkazishni amalga oshiradi;

- byudjetdan mablag' oluvchilarga ular uchun G'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlaridan ko'chirmalarni, ularning xarajatlarini qoplash uchun byudjet

mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarning nusxalarini taqdim etadi;

- moliya organlarining topshirig'i bo'yicha yuqori turuvchi byudjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar summasi, subvensiyalar, byudjet ssudalari va boshqa to'lovlarni quyi byudjetlarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkazadi;

- byudjet mablag'larini yuridik va jismoniy shaxslarning hisobvaraqlariga o'tkazish majburiyatini yuklaydigan ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarda yoki boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan summalar doirasida byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan to'lovlarni tovarlar yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar)ning bevosita bank hisobvaraqlariga o'tkazadi;

- tovarlar yetkazib berilganligi (ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi) faktini tasdiqlaydigan yoki byudjetdan mablag' oluvchilarga soliqlar, yig'imlar hamda byudjetga va byudjetdan tashqari davlat maqsadli fondlariga majburiy to'lovlarni to'lash uchun byudjet mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan schyot-fakturalar va boshqa hujjatlar asosida byudjetdan mablag' oluvchilarning moliyaviy majburiyatlari hisobini yuritadi.

Byudjetning g'azna ijrosi metodologiya bo'limi: normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik materiallar, shu jumladan G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarni maqbullashtirish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik materiallarni ishlab chiqishda, Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi buxgalteriya hisobi va hisobotini takomillashirishda qatnashadi.

Moliyaviy resurslarni boshqarish bo'limi: davlat byudjeti ijrosi jarayonida respublika byudjeti daromadlari tushumi va xarajatlari amalga oshirilishining qisqa muddatli bashoratlarini tuzadi.

Ichki va tashqi qarz bo'yicha hisob-kitoblar bo'limi: qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi qarzigina xizmat qiladi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining kafolatlarini ijro etadi.

Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni monitoringi axborot-tahlil bo'limi:

- davlat xaridlari bo'yicha axborot bazasini yaratish va doimiy yangilab borish;
- davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasining ishchi organi funksiyasini bajarish;
- davlat xaridlarini amalga oshirishda kichik biznes subyektlari keng ishtirok etishini nazarda tutgan holda tanlov va tender tartibotlari qo'llanilishini takomillashtirish va kengaytirish yuzasidan belgilangan tartibda takliflar kiritish.

Davlat byudjeti g'azna ijrosining yig'ma tahlili bo'limi:

- respublika va mahalliy byudjetlar ijrosini tahlil qiladi;
- g'aznachilikning hududiy bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

G'aznachilik operatsiyalarini nazorat qilish bo'limi:

- g'aznachilik operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya qilinishini belgilangan tartibda nazorat qilish va monitoringni amalga oshirish;
- davlat byudjetining g'azna ijrosi jarayonida mavjud bo'lgan tavakkalchiliklar bo'yicha xulosalarni baholash va taqdim etish.

Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi:

- manbalar bo'yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritadi;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga kundalik asosida yagona g'azna hisobvarag'ida va hududiy g'azna hisobvaraqlarida pul mablag'lari harakati to'g'risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi;
- birlamchi hujjatlar asosida Davlat byudjeti g'azna ijrosining tahliliy va sintetik buxgalteriya hisobini yuritadi;
- davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi axborotni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish asosida Davlat byudjetining kassa ijrosi haqidagi

hisobotni tuzadi va ushbu hisobotni belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tarkibidagi davlat ijroiya organi hisoblanadi. G'aznachilikning Qoraqalpog'iston Respublikasi G'aznachilik Boshqarmasi, Toshkent shahar va viloyatlar Boshqarmasi, shahar va tumanlarda G'aznachilik bo'linmalari kabi hududiy organlari faoliyat qiladi.

G'aznachilik va uning bo'linmalarining tuzilmasi G'aznachilik rahbariyati tomonidan ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

G'aznachilik rahbariyati o'z xodimlari uchun ochiq eshiklar siyosatini qo'llab-quvvatlaydi. Bu har qanday xodim uchun uning bevosita rahbari o'ziga bo'ysunuvchini eshitishga va tegishli tarzda munosabat bildirishga majbur ekanligini anglatadi.

Agar bevosita boshliq o'ziga bo'ysunadiganni tinglashni xohlama-sa yoki tinglay olmasa, boshliqqa bo'ysunuvchi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Kadrlar boshqarmasiga murojaat qilishi mumkin.

Jamoada ishlash va barcha xodimlarning sa'y-harakatlari muvaffaqiyatga erishish sharti hisoblanadi. G'aznachilik xayrixohli o'zaro munosabatlarni ma'qullaydi va jamoada qulay ijtimoiy-siyosiy muhit saqlab qolinishiga ko'maklashadi. Xodimlar o'rtasidagi barcha kelishmovchiliklar ularning bevosita rahbari tomonidan yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Kadrlar boshqarmasining mutaxassislari bilan hamkorlikda hal etiladi. Qanday bo'lmasin nizo uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

G'aznachilik xodimlari bir-birlari bilan tovush ohangini balandlatmasdan va bir-birining so'zini bo'lmasdan xushmuomalalik bilan munosabatda bo'ladilar.

G'aznachilik rahbariyati g'oyalar, mulohazalar va har qanday takliflar va muammolar bilan murojaat qilgan xodimlarni rag'batlantiradi.

Har qanday jamiyatni yoki davlatni o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarini bajarish jumladan, kuchli ijtimoiy himoya, maorif, mudofaa, sog‘liqni saqlash hamda boshqaruv organlarini saqlab turish zarur bo‘ladi. Buning uchun rivojlangan davlat byudjet tizimini yaratish lozim. Buning uchun mamlakat hududidagi mavjud daromad manbalari va xarajat yo‘nalishlari haqida aniq asoslangan tahliliy malumotlar talab etiladi. Xozirgi davr talabidan kelib chiqib Davlat byudjetining kelgusi yo‘nalishlarini belgilab olish uchun ushbu malumotlarni aniq va o‘z vaqtida ta‘minlab beruvchi mexanizm sifatida G‘aznachilik organlari oldiga quyidagi vazifalar yuklatilgan.

Davlat byudjeti g‘azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko‘rsatish, O‘zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish.

O‘zbekistonda davlat byudjeti g‘azna ijrosining bosqichma bosqich joriy etilishi, bozor iqtisodiyoti asosida rivojlangan davlatlarda amal qiluvchi davlat byudjeti g‘azna ijrosi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda istiqbolda g‘azna ijrosini takomillashtirishda quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- G‘aznachilik yagona hisobraqamini tashkil etish ishlarini jaddallashtirish. Xarajatlar to‘lovi va mablag‘larni o‘tkazish to‘g‘ridan to‘g‘ri tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar, boshqa huquqiy shaxslarga Yagona g‘aznachilik hisobraqamidan o‘tkazib beriladi. YaG‘HR da maqsadli jamg‘armalar mablag‘lari ham jamlanadi;

- Xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishiga erishish va Moliya vazirligini qarzlarni olishini kamaytirish maqsadlarida qisqa muddatli moliyaviy rejalashtirishni (ichki yillik) joriy qilish ko‘zda tutiladi;

- Respublikada g‘aznachilik institutini joriy qilinishi byudjetni tayyorlash jarayonini takomillashtirish, o‘rta muddatli fiskal istiqbollash va byudjet siyosatini olib borishni joriy qilish, byudjet ijrosi sifatini soliqlar yig‘ish faoliyatini takomillashtirish va xarajatlarni g‘aznachilikning Yagona hisobraqami tamoyili asosida amalga oshirish, qisqa

muddatli moliyaviy rejalashtirish, ya'ni to'lovlar rejasini joriy qilish, yagona axborotlar tizimi joriy qilish evaziga byudjet ijrosini hisobga olish va hisobot tayyorlashni yaxshilash, davlat qarzini hisobga olish, tahlil qilish va rejalashtirish takomillashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish borasidagi Prezident qarorlarining ijrosi doirasida Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining qarz mablag'larini jalb etgan holda davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobraqamiga jamlash va undan xarajatlar to'lovini amalga oshirish imkonini beruvchi davlat byudjeti g'azna ijrosining yagona integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi.

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda belgilangan tartibda respublikaning barcha shahar va tumanlarini qamrab olgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining ma'lumotlar tarmog'ini tashkil etish uchun yer usti raqamli aloqa kanallarini berish choralari ko'rilmogda.

O'ylaymizki, qayd etilgan tavsiyalar davlat byudjeti g'azna ijrosiga joriy etish milliy iqtisodiyotimiz, mamlakatimiz davlat moliyasi xarajatlarining samarali tashkil etish va boshqarishni yaxshilaydi.

6.4. Hududiy moliya organlari faoliyatining tashkil etilishi

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi kundagi o'ta murakkab va mas'uliyatli holati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangidan yangi muammolarini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Hozirgi kunning global vazifalarini hal etishning samarali usullari qidirib topishga intilishgina emas, balki jahon iqtisodiy xazinasidurdonalaridan iborat butun "pragmatik" potensialdan, jumladan, jahon miqyosida iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish konsepsiyasining uslubiy, metodologik, nazariy ahamiyatini o'rganishga iqtisodchilimlar diqqat e'tiborining qaratilishi muhim hayotiy zaruriyatdir.

Bozorni tartibga solish nazariyasi gnoseologik asoslarining o'rganilishi shundan dalolat beradiki, iqtisodiy ta'limotlar tarixida "davlatning aralashmasligini" yoqlovchi g'oyalar ham ijtimoiy taraqqiyotga davlat faol intervensiyasining turli-tuman konsepsiyalarini ham uchratish mumkin. Ushbu g'oyalar doimo jamiyat ehtiyojlariga hamda undagi hukmron mafkuraga mos bo'lib kelgan.

Mavjud iqtisodiy tizimlar va iqtisodiy taraqqiyotning borishi shuni tasdiqlamoqdaki, "sof" bozor iqtisodiyoti dunyoda mavjud emas va hech qachon bo'lmagan. Shunday qilib, bugungi kunda kun tartibiga savolni "davlat aralashuvi zarurmi?" tarzida emas, balki "davlat va bozor tartibga soluvchi mexanizmlari "mutanosibli" darajasi" haqida, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish imkoniyatlari va chegaralari haqida qo'yilishi lozim.

Davlat siyosatining xususiyati obyektiv tarzda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqadi tarixiy-milliy qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, har qanday sharoitda masalaga pragmatik holda yodoshish maqbul bo'ladiki, uni odatda barqarorlashtirish siyosati deb ham atalmoqda va u asosida davlat iqtisodiy siyosatining maqsadi barqaror rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratishdan va muvozanatlashgan iqtisodiy holatni saqlashdan iborat bo'ladi.

Makroiqtisodiy tahminlashtirishning umumiy qonuniyatlari nuqtai-nazaridan mutloq to'g'ri hisoblangan holatlar hududiy tizimda o'ziga xos maxsus ahamiyat kasb etishi va aniq olingan hudud manfaatlari nuqtai-nazaridan boshqacharoq talqin etilishi mumkin. Mamlakat miqyosidagi umumiy holat va hududiy iqtisodiyotni qiyoslashda shuni alohida ta'kidlash mantiqiy o'rinli bo'ladiki, bunda hududda umuman jamiyat turmush darajasi barqarorligi ta'minlanishi va shu bilan bir vaqtda hududiy tizim barqarorligi ham e'tiborga olinishi kerak. Amaliyotda mazkur dolzarb masalani respublika markaziy hukumati

hal qiladi. Markaz uchun hudud makroiqtisodiy tizim va makroiqtisodiy tartibga solish obyekti sifatida maydonga chiqadi.⁴⁴

Hududlar taraqqiyotining xususiyatlari ham sifat ko'rsatkichlari – rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari, xo'jalikning bazaviy tarmoqlari, ixtisoslashuv va h.k., ham miqdoriy ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Zero, ayrim asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha, masalan, yo'l ta'minoti bo'yicha, suv ta'minoti va hududiy rivojlanishning boshqa sharoitlari bo'yicha, aholining ijtimoiy-infratuzilmaviy ta'minoti va ular tomonidan ijtimoiy xizmatlar iste'moli bo'yicha turli hududlar "foizlarda" emas, balki hatto "martalarda" bir-biridan farq qilmoqda.

Ijtimoiy yangilanishlarning har qanday konsepsiyasi agar u "umumiy ahamiyat" g'oya shaklini olmasa inqirozga yuz tutadi, amalga oshirish muddatlari ishonchsiz bo'ladi va turmush tarzining pasayishiga olib keladi. Davlat siyosatining maqsadlari mazmunli xususiyat kasb etishi va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim. Ushbu maqsadlar qatoriga so'zsiz tarzda, quyidagilar kiritiladi: iqtisodiy o'sish, xalq turmush sharoitining ko'tarilishi, hayot sifat belgilarining yaxshilanishi, mamlakat xo'jalik subyektlari va fuqarolar havfsizligining ta'minlanishi.


O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida islohotlarning tub maqsadi aralash tipdagi iqtisodiyotni institutsional rasmiylashtirilishidan iboratdirki, bunda iqtisodiyotni tashkil etilishining o'ziga xos tizimi amal qiladi va optimal nisbatlarda xususiy, korporativ va davlat boshqaruvi ishtirokini turli mulk va xo'jalik yuritish shakllari o'zaro ta'sirining doimiy takomillashuvini, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatga erishishining ijtimoiy og'riqsiz, qulay yo'llarini qidirib topishni talab etadi.

Davlatning yaxlit moliyaviy siyosati moliya tizimining barcha bo'g'inlari. Jumladan byudjet tizimining va uning tarixiy qismi bo'lish mahalliy byudjetlarning ham yagona qonunchilik asosida tegishli moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarning yaratilishi bilan to'liq amalga

⁴⁴ Колесов А.С. Бюджетный процесс: сущность и совершенствование. Финансы №11. 2010. С.8.

oshirilishi lozim. Shu tufayli moliyaviy siyosatning ixtiyoriy sohasiga tegishli bo'lgan u yoki bu qarorning qabul qilinishi, mahalliy byudjetlar faoliyatining asoslariga ma'lum ma'noda tegishli bo'ladi.

Mamlakatimizda iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sish tendensiyasiga ega bo'lsada, hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda hal etilishi lozim bo'lgan masalalar mavjudligidan dalolat beradi (6.4-rasm).²




6.5-rasm. Hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning respublika iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi

Rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2015 yilgi yalpi hududiy mahsulot (YaHM) ning ulushi bo'yicha keskin tafovutlar mavjud. Jumladan, eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shaxri, Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlari ulushiga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi ulushiga to'g'ri keladi. Birgina,

Toshkent shaxrining YaHM Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarining YaHMDan ham yuqori.

Jalb etilgan investitsiyalar ulushi bo‘yicha ham hududlar o‘rtasidagi tafovutlar katta. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati yuqori ulushga ega. Sirdaryo, Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlari ulushi esa past. Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi yuqori bo‘lishiga qaramay YaHMning YaIMdagi ulushi past hududlar tarkibida qolmoqda. Yaratilgan yalpi hududiy mahsulotlarning aholi jon boshiga taqsimlanishi bo‘yicha ham yuqori farqlanishlar mavjud (6.5-rasm).⁴⁵



6.5-rasm. 2014 yilda YaHMning aholi jon boshiga taqsimlanishi o‘rtacha (ming so‘m)

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining ma‘lumotlari (<http://www.stat.uz>).

Jumladan, 2014 yilda YalMning aholi jon boshiga taqsimlanishi respublika bo'yicha o'rtacha 4750,1 ming so'mni tashkil etgan. Ammo, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ushbu ko'rsatkich respublika ko'rsatkichlaridan ancha pastni tashkil etmoqda.

Ushbu tafovutlarni kamaytirish uchun hududlarning iqtisodiy salohiyati va tabiiy resurslaridan foydalangan holda hududiy rivojlanishni ta'minlash, hududlarga investitsiyalarni jalb etish hamda sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Hususan, Prezidentimizning "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi bo'yicha dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida viloyatlar, tumanlar va shaharlarning kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- sotsial-iqtisodiy jadal rivojlanishi, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral va xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks

va samarali foydalanishni ta'minlash;

- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish masshtablarni kengaytirish hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasidagi farqini kamaytirish, eng avvalo sanoat va eksport salohiyatini o'stirish yo'li bilan qiyoslangan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish;

- yangi sanoat ishlab chiqarish va servis markazlarini tashkil etish hisobiga shahar tipidagi kichik shaharlar va shaharchalarni aktiv rivojlantirish, yirik xo'jalik birlashmalarning mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

- subvension tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

- sanoat va boshqa ishlab chiqarish obyektlarni joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiyl tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiyl infratuzilmasini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.⁴⁶

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimiz hududlari iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlar va 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi bo'yicha dasturda belgilangan vazifalardan kelib chiqib hududlarni moliyaviyl boshqarish masalasini alohida tadqiq etish dolzarb sanalanadi.

Hududiy rivojlanish – bu moliyaviyl resurslar harakatining tabiiyl-moddiy va qiymat shakllarining rivojlanishi hamda butun hududiy tizim, ya'ni uning tarkibiy elementlari (hududlarning tabiiyl-iqlimiy, geosiyosiy, iqtisodiy, moliyaviyl, demografik, axborot va institutsional tuzilmasi) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimining bir butunlikda ishlashini ta'minlash maqsadida ushbu moliyaviyl resurslarning uzluksiz aylanishidir.

Moliyaviyl boshqarish mohiyatini ochishga tizimli yondashishni qo'llash ushbu moliyaviyl boshqaruvning ta'sir darajasi muayyan davrdagi ijtimoiyl samaradorlikni aks ettirishi lozim, degan xulosaga olib keladi. Bunda, samarali texnologiyalar va me'yoriyl-huquqiy bazadan foydalanishni hisobga olish kerak. Chunki, ba'zi iqtisodiy segmentlarning yaxshi ishlashi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyl yurituvchi subyektlar manfaatiga mos kelmaydi. Demak bu holatda narx-navoni shakllantiruvchi signallarning yo'qligi yoki buzib ko'rsatilishi oqibatida bozor mexanizmi ishlamaydi. O'z navbatida, bu holatlar hududlarning jadal ijtimoiyl-iqtisodiy rivojlanishini to'sqinlik qiluvchi omildir. Bu esa

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi bo'yicha dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni.

hududiy tizimning barcha subyektlari iste'mol qiladigan, ammo ularni ishlab chiqarish subyektlarga naf keltirmaydigan ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga bo'lgan obyektiv ehtiyoj uchun asos bo'ladi. Bunday sharoitda talab va taklif qonunining ishlashi hudud aholisining umumiy manfaatlariga to'g'ri kelmaydi.

Moliyaviy resurslar davlatning markazlashgan va markazlashmagan pul jamg'armalari orqali shakllantirilishi va ishlatilishi jarayoni hamda umumiy iste'mol tarkibiga davlat tomonidan ta'sir o'tkazilishi hududlar iqtisodiyotining davriy tebranishlari amplitudasini yumshatadi, mintaqaviy xo'jaliklardagi tarkibiy o'zgarishlarni o'zaro yaqinlashtiradi. Hududiy rivojlanish darajasini boshqarish davlat moliyasini boshqarish tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda hamda hududlar iqtisodiyotining rivojlanishini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat boshqaruvi to'g'risidagi qarashlarga ko'ra hududiy rivojlanishni moliyaviy jihatdan boshqarish moliyaning muvofiqlashtiruvchi xususiyatlarini amalga oshirishda namoyon bo'ladi. O'z navbatida, hududiy rivojlanishni moliyaviy boshqarish – bu davlat tomonidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini boshqarish maqsadida moliyaviy vositalardan foydalanishini keltirib chiqaradi.

Boshqaruv tarkibiy jihatdan murakkab va xilma xil, shu bilan birga, o'zaro aloqalar bilan bog'langan hududlar iqtisodiyoti barqaror o'sishining zaruriy sharti hisoblanadi. Hududiy rivojlanishning moliyaviy boshqaruvi esa moliyaviy resurslarning aniq shakllari va usullarini amalga oshirish asosida, jumladan xarajatlarni davlat byudjeti hisobidan amalga oshirish hisobiga hududiy tizimlar ishtirokchilarining hayotiy faoliyatiga, ularning daromadlari va xarajatlariga ta'sir ko'rsatadi. Hududlar esa bevosita boshqariladigan obyekt, boshqarish usuli yoki omili vazifasini bajaradi. Iqtisodiyotga bunday moliyaviy ta'sir o'tkazish davlatning boshqaruv vositalari tizimini tashkil etadi.

Hududiy rivojlanishning moliyaviy boshqaruvi jarayonida hal etiladigan asosiy vazifa jamg'armalarni taqsimlash va investitsiyalar o'rtasida mutanosiblikni o'rnatish bilan bog'liq. Ushbu jamg'armalar va investitsiyalar hudud va mintaqalar iqtisodiyoti ehtiyojlarini ta'minlaydi. Bu davlat moliyaviy boshqaruv tizimining hududda amal qilayotgan bozor mexanizmi bilan qo'shilishini aks ettiradi.

Hududiy rivojlanishni moliyaviy boshqaruvning o'ziga xos xususiyati davlat hududlardagi rivojlanishga turtki bo'luvchi omillardan biri hisoblanadi, ammo mavjud hududiy boshqaruv tizimi vazifasini bajarmaydi. Shu sababdan moliyaviy boshqaruv yuzasidan tuzilgan dasturlar doim ham hududiy rivojlanish bo'yicha reja va erishilgan ko'rsatkichlarga mos kelavermaydi.

Hududiy rivojlanishning moliyaviy boshqaruvini shakllantirishda asosiy vazifa – bu moliyaviy boshqarish tizimi sohalari va bo'g'inlarini mantiqan hamda izchil hisoblab chiqarishdir. Hududlarni rivojlantirishni boshqarishning moliyaviy mexanizmlari – bu o'zaro bog'liq tomonlar va guruhlarining (subyektlar, obyektlar, tamoyillar, usullar va vositalar va hokazo) ko'p darajali iyerarxiyalik tizimi, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro aloqa, integratsiya va dezintegratsiya usullari hisoblanadi. Buning natijasida davlat, xo'jalik yurituvchi subyektlar, investorlar va tegishli hudud aholisining iqtisodiy manfaatlari optimallasadi.⁴⁷

Davlat byudjet siyosati vazifalarini amalga oshirishda byudjet amaliyotida shakllanib borayotgan tendensiyalar, qonuniyatlar qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatish lozim:

➤ davlat moliyasini boshqarish va davlatning moliyaviy resurs imkoniyatlari tarkibida davlat byudjeti mablag'lari ahamiyatining o'sishi;

➤ mahalliy byudjetlar majburiyatlarining ortishi, ular zimmasidagi byudjet xarajatlari ko'lamining o'sishi;

⁴⁷ *Steven M. Bragg*. TREASURY MANAGEMENT The Practitioner's Guide. John Wiley & Sons, Inc. 2010 New Jersey.

➤ mahalliy byudjetlar majburiyatlarining o‘sishi natijasida ular huquqlari va moliyaviy imkoniyatlarini oshirish muammosining keskinlashuvi;

➤ byudjet bo‘g‘inlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishning zamonaviy usullari, shakllari hamda tamoyillarini amal qilinishini ta‘minlash ahamiyatining ortishi.

Byudjet tizimi taraqqiyotidagi ushbu qonuniyatlar mahalliy byudjet bo‘g‘inlari oldiga muhim vazifalarni qo‘yadi. Hududlar iqtisodiy salohiyati, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari mustaqilligi va mas‘uliyatlarining ortishi hamda shu bilan bevosita manfaatdor bo‘lgan tegishli byudjet bo‘g‘inining samarali faoliyati, uning huquq va majburiyatlari to‘liq bajarilishini kafolatlaydi.

Mamlakat byudjetining tarkibi avvalo uning davlat qurilishiga bog‘liqdir. Unitar tuzumga ega bo‘lgan mamlakatlarda byudjet tizimi ikki qavatli qurilmaga – davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarga ega bo‘ladi.

Federativ tuzumga ega bo‘lgan mamlakatlarda (AQSH, Germaniya) oraliq bo‘g‘in – shtatlar, o‘lkalar (viloyatlar) va ularga muvofiq ma‘muriy tuzilmalarning shtatlari mavjud.

Byudjet tizimi – bu iqtisodiy munosabatlarga, davlat tuzilishiga va qonun normalariga asoslangan davlat, ma‘muriy-hududiy tuzilishlarning, byudjet munosabatlarida mustaqil bo‘lgan davlat tashkilotlari va jamg‘armalarining majmuidir. Byudjet tizimi davlat moliyaviy tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari yig‘indisini, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish tamoyillarini, ular o‘rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi.⁴⁸

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 6-moddasi asosida.

Konsolidatsiyalashgan byudjetlarning ko'rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy jamg'armasidan foydalanish va uni shakllantirishni tahlil qilishda muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetining ko'rsatkichlari yordamida mamlakatda tuziladigan va davlat moliyaviy balansida aks ettiriladigan moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasi aniqlanadi. Konsolidatsiyalashgan byudjet ko'rsatkichlariga hisobsiz moliyaviy rejalashtirishni umumlashtirish mumkin emas, chunki davlat moliyaviy balansini va hududiy moliyaviy balanslarning ko'pgina ko'rsatkichlari konsolidatsiyalashtirilgan byudjetdan olinadi.

Byudjet davlat uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni aks ettirib va shu bilan birgalikda mamlakat soliq siyosatini belgilaydi. Byudjet mablag'lari sarf etishning aniq yo'nalishlarini, milliy daromad va yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishini o'zida aks ettiradi, bu esa unga iqtisodiyotni samarali boshqaruvchisi sifatida chiqishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda byudjetdan aniq iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida foydalanish mumkin. Byudjetning paydo bo'lishi va rivojlanishi davlatning paydo bo'lishi va shakllanishi bilan bog'liqdir. Davlat byudjetdan nafaqat o'z faoliyatining asosiy ta'minot manbasi sifatida, balki iqtisodiy va ijtimoiy siyosat o'tkazishining muhim elementi sifatida foydalanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida byudjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mamlakatimiz Davlat byudjeti quyidagi darajadagi byudjetlardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.⁴⁹

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 35-moddasi asosida.

Viloyatlar mahalliy byudjetlari tuzilmasiga viloyat byudjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.

Toshkent shahar mahalliy byudjeti tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

Byudjetning yaxlitligi tufayli respublika o'z tasarrufiga pul resurslarining yagona markazlashtirilgan jamg'armasini oladi, uni byudjet tizimining faqat biror-bir bo'g'iniga taqdim etish mumkin emas hamda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga birlashtiriladigan barcha byudjetlarning majmui sifatida ifodalanadi. Respublika byudjet tizimining yaxlitligi va bir butunligi qonun tomonidan mustahkamlab qo'yilgan, unda quyi byudjetlarning biri yuqori bo'g'inga kirishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining yetakchi bo'g'ini – umumrespublika byudjeti.

Respublika byudjeti - Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Milliy daromadni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni umumrespublika byudjeti orqali tartibga solinadi.

Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va ularni davlat markazlashtirilgan tartibda amalga oshiradigan chora-tadbirlar bilan to'g'ri muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjetga daromadlar kelib turishini va resurslardan avaylab foydalanishdan manfaatdorlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy rezervlarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, umuman O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi. Mahalliy byudjetlardan uy-joy kommunal xo'jalik va obodonlashtirish, ta'lim va

sogʻliqni saqlash muassasalari, ijtimoiy taʼminotga doir tadbirlar va hokazolar moliyalashtiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasining Byudjet kodeksida byudjet tizimi byudjetlari amal qilishining tamoyillari belgilangan boʻlib, bunda:

- byudjet tizimining yagonaligi;
- byudjet tizimining Oʻzbekiston Respublikasi maʼmuriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- byudjet tizimi byudjetlarining balansliligi va oʻzaro bogʻliqligi;
- byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini bashorat qilinishi va xarajatlarini rejalashtirilishi;
- byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi;
- byudjet tizimi byudjetlari mablagʻlaridan foydalanishning natijadorligi;
- kassaning yagonaligi;
- byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi va ochiqligi;⁵⁰
- byudjet tizimi Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;⁵¹
- byudjet tizimi byudjetlarida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni qoplash manbalari yigʻindisining hajmiga muvofiq boʻlishi kerakligi va byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda byudjetlarning mablagʻlari mazkur byudjetlarning balansliligini taʼminlash uchun ular oʻrtasida qayta taqsimlanishi mumkinligi;
- byudjet tizimi byudjetlarini tuzishda byudjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari boʻyicha bashorat qilinadi, xarajatlar esa yoʻnalishlar boʻyicha rejalashtirilishi;
- byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi;
- byudjet tizimi byudjetlari mablagʻlaridan foydalanishning natijadorligi;
- byudjet jarayonining har bir ishtirokchisi byudjet jarayonining har bir bosqichida oʻz harakatlari uchun javobgar boʻlishi belgilangan.

⁵⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 7-moddasi asosida.

⁵¹ Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 9-moddasi asosida.

Davlat byudjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida davlat hokimiyatining iqtisodiy imkoniyatlarini moliyaviy asoslarini yaratadi.

Masalan, iqtisodchi G.V. Polyak quyidagi fikrlarni bildiradi “Davlat byudjetdan o‘zining faoliyatini bevosita moliyaviy ta‘minlashning instrumenti sifatida hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim elementi sifatida foydalanadi”⁵² - deb ta‘kidlaydi.

Demak, bir tomondan byudjetning paydo bo‘lishi davlatlarning paydo bo‘lishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ikkinchidan, aynan bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi davlat islohotlarini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatidagi byudjetning sifat belgilariga aniqlik kiritiladi.

Iqtisodchi L.A Drobozinaning byudjetning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati to‘g‘risidagi fikrlari quyidagichadir: “O‘zining moddiy mazmuniga ko‘ra davlat byudjeti – o‘zida davlatning markazlashtirilgan pul mablag‘lari jamg‘armasini shakllantirish va undan foydalanishning alohida shaklidir, o‘zining ijtimoiy- iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra – milliy daromadni taqsimlashning asosiy qurolidir”⁵³ - deb ta‘kidlaydi.

Muallif byudjetning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra bergan ta‘rifi aynan bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy daromadni taqsimlanishida ijtimoiy xarakterdagi noishlab chiqarish sohalar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta‘minlangan qatlamini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim instrumentlaridan biri sifatidagi byudjetning mazmuniga urg‘u beradi.

Byudjet- murakkab iqtisodiy kategoriya hisoblanadi, chunki uning moddiy asosini kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil qiladi.

Byudjet munosabatlari davlat bilan xo‘jalik subyektlari hamda aholi o‘rtasidagi qiymat taqsimlanish jarayonida paydo bo‘luvchi moliyaviy munosabatlardir. Bunday moliyaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, birinchidan, yuqorida ta‘kidlagani-

⁵² Поляк Г.В. Бюджетная система РФ. М.: ЮНИТИ, 2011.

⁵³ Дробозина Л.А. Финансы. М.: ЮНИТИ, 2010.

mizdek, ijtimoiy ishlab chiqarishning taqsimlash bosqichida vujudga keladi, ikkinchidan, markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va undan davlat manfaatlarini yuzasidan foydalanishga yo'naltiriladi. Davlat manfaatlarini esa – bu ijtimoiy manfaatlar hisoblanadi. Zero, taniqli iqtisodchi J.M.Keyns ta'kidlaganidek, “Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy manfaatlar faqatgina davlatlardagina o'z ifodasini topadi”.⁵⁴ Byudjet davlatning asosiy markazlashtirilgan moliyaviy resurslar jamg'armasi sifatida o'ziga xos ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Demak, byudjet iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida markaziy bo'g'ida ishtirok etishi bilan aholining ma'lum qatlamini manfaatlarini o'zida aks ettiradi. Bu tushunchada byudjet munosabatlari o'zida iqtisodiy rivojlanishning aniq falsafasi va ideologiyasini aks ettiradi.

Byudjet munosabatlari obyektiv xarakter kasb etadi, chunki byudjet davlat va unga tegishli funksiyalarni amalga oshirish uchun zaruriy moddiy-moliyaviy baza shakllantirilishi uchun obyektiv zarurdir. Shu bilan birgalikda byudjet munosabatlari bazis elementi hisoblanadi. Takror ishlab chiqarish jarayonida byudjet munosabatlari ularga muvofiq keluvchi moddiy shaklni oladi.

Byudjet munosabatlari - jamiyat iqtisodiy tizimining elementidir. Iqtisodiy kategoriya sifatida byudjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Byudjetning moliyaga xos sifat belgilari birinchidan, ijtimoiy mahsulot qiymatining taqsimlanish jarayonida, aniqrog'i, qayta taqsimlanishi jarayonida vujudga kelib, pul munosabatlarining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ikkinchidan, byudjet markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanishga yo'naltirilgan jamg'arma hisoblanadi.

Professor V. Rodionovanning fikriga ko'ra: “Davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o'rtasida yuzaga keluvchi

⁵⁴ *Ali Hashim Bair Allan*. Treasury reference model. Word Bank & IMF. March. 2010. 347 p.

moliyaviy munosabatlar - byudjet munosabatlari hisoblanadi”.⁵⁵ Shuningdek, byudjet munosabatlarining moliyaviy munosabatlardan farqli 4 jihatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi:

- byudjet davlat qo‘lida milliy daromadni bir qismini jamlash va ijtimoiy ehtiyojlar va alohida davlat-hududiy tuzilmalar uchun undan foydalanish bilan bog‘liq qayta taqsimlash munosabatlarining alohida iqtisodiy shakli hisoblanadi;

- byudjet yordamida milliy daromadning bir qismi va ayrim holatlarda milliy boylik xalq xo‘jaligining tarmoqlari, mamlakat hududlari, ijtimoiy faoliyat sohalari o‘rtasida qayta taqsimlanadi;

- qiymatni byudjet orqali qayta taqsimlash nisbati moliyaning boshqa bo‘g‘inlariga nisbatan yirik miqdorni tashkil qiladi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va jamiyat rivojlanishining har qaysi tarixiy bosqichlarida uni rivojlanishi oldida turgan vazifalari orqali aniqlanadi;

- byudjetning taqsimlash sohasi davlat moliyasida markaziy o‘rinni egallab, moliyaning boshqa bo‘g‘inlariga nisbatan byudjet muhim ahamiyatga ega.

Demak, byudjet iqtisodiy mohiyati nuqtai-nazaridan mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ko‘rib o‘tiladigan bo‘lsa, davlatning moliyaviy asosini, qonuniy o‘rnatilishi nuqtai-nazaridan esa, byudjet davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida ko‘rib o‘tiladi.

Bizning fikrimizcha, birinchidan, byudjet munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida davlat bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlar, aholi o‘rtasidagi imperativ xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlari hisoblanishidir. Ikkinchidan, byudjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida markazlashtirilgan pul jamg‘armalarini tashkil qilish va undan foydalanish bilan bog‘liq pul munosabatlarini o‘zida aks ettiradi. Xo‘jalik mexanizmining tarkibiy elementi hisoblangan byudjet mexanizmidagi yuqorida ta’kidlangan 2 xususiyatli sifat belgilari byudjetning moliyadan V.

⁵⁵ *Ali Hashim Bair Allan*. Treasury reference model. Word Bank & IMF. March. 2010. 347 p.

Rodionova ta'kidlagan 4 asosiy farqli jihatlariga ega bo'lish imkoniyatlarini shakllantiradi.

Prof. G.Romanovskiy: "Byudjet - moliya tizimining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Shuning uchun u moliyaning o'ziga xos sifat belgilarini o'zida aks ettiradi. Byudjet - byudjet jamg'armasini shakllantirish va undan foydalanish bilan bog'liq imperativ pul pul munosabatlari tizimidir"⁵⁶ deb ta'kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, har kandy moliyaviy munosabatlar ham imperativ xarakterga ega bo'lavermaydi. Masalan, xo'jalik subyektlari takror ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qiymatni taqsimlanish jarayonidagi byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar vositasidagi ajratmalari imperativ xarakterdagi moliyaviy munosabatlar hisoblanadi. Xo'jalik faoliyatining sof moliyaviy natijasi hisoblanuvchi sof foyda hisobiga shakllantiriladigan markazlashtirilmagan pul jamg'armalari imperativ xarakterga ega bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi sharoitda byudjet vositasida YaIMni tahminan 30-40 % qismi qayta taqsimlanib, moliyaning boshqa hech qaysi bo'g'ini tarmoqlar, hududlar va iqtisodiyotning sohalari, davlat hokimiyatining markaziy va mahalliy darajalarida mablag'larni bunday yirik miqdorda qayta taqsimlash imkoniyatiga ega emasdir.

Milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy moliyaviy usullari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- pul tushumlarini shakllantirish va ulardan foydalanish (foйда, QQS, ijtimoiy byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lov);
- soliqlarni tashkil qilish;
- iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish;
- umum iste'mol jamg'armalarini, sug'urta va rezerv jamg'armalarni shakllantirish va foydalanish.

Ushbu jarayonlarning barchasida byudjet tizimi byudjetlari asosiy o'rinni egallaydi. Byudjet yordamida davlat va hududiy hukumat

⁵⁶ Романовский Г. Бюджетная система РФ. М.: ЮРАЙТ, 2014.

boshqaruv apparatini saqlash, mudofaa, ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish, iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishni ta'minlash, ya'ni ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun moliyaviy resurslarni oladilar.

Shu bilan birga byudjetga aniq iqtisodiy munosabatlarni anglatishiga iqtisodiy kategoriya sifatida qarash mumkin. Davlat byudjetdan bevosita o'z faoliyatini hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim dastagi sifatida foydalanadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida mahalliy byudjetlarning oldida turgan vazifalar:

- milliy daromadni qayta taqsimlash;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solish;
- ijtimoiy sohani moliyaviy ta'minlash va davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish;
- pul mablag'larini markazlashtirilgan jamg'armasini shakllantirish va foydalash ustidan nazoratdan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.⁵⁷

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini qabul qilish va ijro etishda:

- mablag'lar jalb qilishni amalga oshirishga, bundan yuqori turuvchi byudjetlardan byudjet ssudalari olish mustasno;
- tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lardan ortiq xarajatlarni amalga oshirishga, bundan ushbu Kodeksning 143-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;
- tegishli byudjetlar mablag'lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;
- yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari va kredit liniyalari berishga yo'l qo'yilmaydi.

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 142-moddasi asosida.

Byudjetning yaxlitligi tufayli respublika o'z tasarrufiga pul resurslarining yagona markazlashtirilgan jamg'armasini oladi, uni byudjet tizimining faqat biror - bir bo'g'iniga taqdim etish mumkin emas, hamda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga birlashtiriladigan barcha byudjetlarning majmui sifatida ifodalanadi. Respublika byudjet tizimining yaxlitligi va bir butunligi kodeks tomonidan mustahkamlab qo'yilgan, unda quyi byudjetlarning biri yuqori bo'g'inga kirishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining yetakchi bo'g'ini – umumrespublika byudjeti bo'lib, Respublika byudjeti - Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismidir. Unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Milliy daromadni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni umumrespublika byudjeti orqali tartibga solinadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va ularni davlat markazlashtirilgan tartibda amalga oshiradigan chora-tadbirlar bilan to'g'ri muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjetga daromadlar kelib turishini va resurslardan avaylab foydalanishdan manfaatdorar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy rezervlarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, umuman O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi. Mahalliy byudjetlardan uy-joy komunal xo'jalik va obodonlashtirish, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari, ijtimoiy ta'minotga doir tadbirlar va hokazolar moliyalashtiriladi.

Mahalliy moliya – O'zbekiston Respublikasi mahalliy ma'muriy-hududiy tuzilmalarining naqd va naqdsiz shakldagi pul resurslari va oqimlari yig'indisi bo'lib, mahalliy xo'jalik ehtiyojlarini normal

darajada ta'minlashga hamda mahalliy hududdagi aholiga ijtimoiy-madaniy xizmatlarni pul mablag'lari bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mahalliy moliya hududiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish quroliga aylanib bormoqda.

Mahalliy moliya:

- mahalliy ahamiyatdagi ishlab chiqarishning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishga;

- aholi bandligining oshishini ta'minlashga;

- hududiy xo'jalik kompleksining uzoq muddatli taraqqiyotini ta'minlovchi soha va tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilishga;

- hududdagi aholining zarur ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Mahalliy moliya tizimining tarkibiga quyidagi bo'g'inlar kiradi:

Mahalliy byudjetlar Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat byudjeti, viloyatlar byudjetlari, viloyatlar byudjetlariga kiruvchi quyi (shahar, tuman) byudjetlarni o'z ichiga oladi. Ularning daromadlari va xarajatlari tarkibi, byudjet jarayoni va byudjet huquqi Byudjet kodeksi bilan belgilangan.

Mahalliy maxsus jamg'armalar – mahalliy boshqaruv organlari tomonidan tuziladi va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlarini qo'shimcha pul mablag'lari bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Ularga:

- mahalliy hukumat organlarining maxsus mablag'lar bo'yicha hisobraqami;

- “Mahalla jamg'armasi” kabilar kiradi.

Horijiy davlatlarda mahalliy hokimiyat organlari ihtiyoridagi maxsus pul jamg'armalari soni va mahalliy moliya tizimidagi salmog'i ancha yuqori bo'lib, ular avtonom mustaqillikka egaligi, markaziy hukumat tomonidan qattiq nazoratga tortilmasligi, doimiy yoki vaqtinchalik, ayrim ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni ko'zlab tuzilishi bilan xarakterlanadi.

Mahalliy korxonalar moliyasi – Mahalliy (munitsipal) mulkka asoslangan, mahalliy hokimiyat bo‘ysinuvidagi, unitar korxonalar moliyasi bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- uy-joy kommunal xo‘jaligi korxonalari;
- obodonlashtirish korxonalari;
- suv xo‘jaligi korxonalari;
- gaz, elektr, issiqlik ta‘minoti korxonalari va boshqalar.

Mahalliy byudjetlar davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasi bo‘lib, ikki pog‘onali byudjet tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Ular haqida quyidagilarni ta‘kidlash mumkin:

- mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etuvchi pul jamg‘armalarini shakllantirish;
- bu pul jamg‘armalarini hududiy iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar o‘rtasida qayta taqsimlash va ishlatish;
- mahalliy hokimiyatga bo‘ysinuvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat olib borish.

Mahalliy byudjetlar tarkibiga kiruvchi byudjetlar quyidagi byudjetlarni o‘z ichiga oladi:

- ***Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti*** – Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetini hamda respublikaga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetini;
- ***Viloyat byudjeti*** – umumviloyat byudjetini hamda viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetini;
- ***Tumanlarga bo‘linadigan shahar byudjeti*** – umumshahar byudjetini hamda shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlarini;
- ***Tarkibida shaharlari bo‘lgan tuman byudjeti*** – umumtuman byudjetini hamda tuman bo‘ysinuvidagi shaharlar byudjetlarini.

Huquqiy jihatdan mahalliy byudjetlar byudjet yili davomida daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, aniq maqsadlar uchun mo'ljallangan xarajat yo'nalishlari aks ettiriladigan moliyaviy hujjatdir.

Mahalliy byudjetlar ishlab chiqarishning yakuniy natijalarini aholiga yetkazishning asosiy yo'nalishini belgilab beruvchi vositadir. Mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy iste'mol jamg'armalari aholining ayrim guruhlari o'rtasida taqsimlanadi.

Mahalliy byudjetlar hukumat mahalliy organlarining faoliyatini moliyaviy ta'minoti bo'lib hsoblanadigan pul jamg'armalarini shakllantirish, hudud iqtisodiyot tarmoqlariga bu jamg'armalarni taqsimlash va ishlatish, mahalliy hukumat organlariga qarashli korxonalar, tashkilotlar muassasalarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini nazorat qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlarni taqsimlash va aholiga yetkazish asosan byudjet tizimi orqali amalga oshiradi. Ma'lumki, iste'mol jamg'armalarining asosiy qismi byudjetlar orqali shakllantiriladi. Bunda xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, uy-joy komunal xizmat sohasi bilan bog'liq asosiy xarajatlar mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.⁵⁸

Davlat tomonidan ijtimoiy himoya bilan bog'liq siyosatni amalga oshirish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq chora tadbirlarni moliyalashtirish asosan mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

⁵⁸ *Ali Hashim Bair Allan*. Treaury reference model. Word Bank & IMF. March. 2010. 347 p.

Mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatning byudjet siyosatini samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi ahamiyatga molikdir.

Byudjet kodeksidaning 27-moddasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ***Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlari aniqlashtirilgan***. Bunga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga ko‘ra ko‘rib chiqadi va qabul qiladi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga ko‘ra har chorakda ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining vakolatlari asosida tegishli hududlar ***hokimlarining vakolatlari belgilangan***.⁵⁹

⁵⁹ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 28-moddasi asosida.

- tegishli byudjet loyahasini ishlab chiqish va uni ijro etish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

- byudjet so'rovi olinishiga qarab tegishli byudjetlarning loyihalarini tuzish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, ularni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilaydi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti loyahasini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga ko'rib chiqish va qabul qilish uchun taqdim etadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlarini tasdiqlaydi;

- belgilangan tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

- byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlari va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkinligi Byudjet kodeksida belgilab qo‘yilgan.

Mahalliy byudjetlarning daromadlari - mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari oldidagi muhim strategik ahamiyatga molik bo‘lgan vazifalarning amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan markazlashtirilgan pul jamg‘armasini shakllantirish bilan bog‘liq pulli munosabatlar shaklidir.

Davlat tomonidan ijtimoiy sohalarni mablag‘ bilan ta‘minlash va ijtimoiy himoya bilan bog‘liq siyosatni amalga oshirish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. O‘z navbatida ushbu tadbirlarni mablag‘ bilan ta‘minlashda mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjetlarning daromadlaridan foydalanadilar. Mahalliy hokimiyat organlari, o‘z daromadlari manbalari bazasini ko‘payishidan manfaatdordirlar. Chunki, bu daromadlar hokimiyatlar oldidagi vazifalarni moddiy jihatdan moliyalashtirish manbasi sifatida va ularni mustaqil sarflash imkonini beradi.

Hududiy moliya tomonidan tegishli byudjetlar shakllantiriladi va ular mahalliy hokimiyat organlari funksiyalarini moliyalashtirishga yoʻnaltiriladi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari quyidagilardan tashkil etiladi:

1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi;
- yagona soliq toʻlovi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari boʻyicha qatʼiy

belgilangan soliq;

- qoʻshilgan qiymat soligʻi;
- aksiz soligʻi;
- yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar, shu jumladan:

- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligʻi;
- transport vositalariga benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz ishlatganlik

uchun olinadigan soliq;

- mol-mulk soligʻi;
- yer soligʻi;
- yagona yer soligʻi;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim

turdagi xizmatlarni koʻrsatish huquqi uchun yigʻim.

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) bozorlardan tushadigan daromadlar;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromatlarga davlat daromadiga oʻtkazilgan mol-mulkni realizatsiya

qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining daromadlari hisoblanadi.


Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'i uchun aksiz solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlariga o'tkazib beriladi.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hukumat organlarining faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlar ishlab chiqarishning yakuniy natijalarini aholiga yetkazishning asosiy yo'nalishini belgilab beruvchi vositadir. Mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy iste'mol jamg'armalari aholining ayrim guruhlari o'rtasida taqsimlanadi.

Mahalliy byudjetlar bu yangi byudjet tuzilishi sharoitlarida byudjetlararo munosabatlarni ta'minlovchi o'ziga xos iqtisodiy kategoriyadir, hamda ma'lum hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashkil etiladigan pul mablag'lari jamg'armalarining shakllantirilishi,

taqsimlanishi, ishlatilishi bilan bog‘liq jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning muvofiqiligini ham bildiradi.



6.6-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjet iva mahalliy byudjetlar daromadlari tizimi⁶⁰

Mahalliy byudjetlarning xarajatlari tarkibi Byudjet kodeksida belgilangan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika

⁶⁰ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 52-moddasi asosida.

byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:⁶¹

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

- umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, maktabdan tashqari ta'lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta'lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi filialini, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini, ixtisoslashtirilgan kasalxonalar va dispanserlarni, tug'ruqxonalar va akusherlik majmualarini, tibbiy tashxis qo'yish va davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi muassasalarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti filialini, hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari va yordamchi tashkilotlarini saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to'lash xarajatlari;

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- hududiy madaniyat va sportni boshqarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 71-moddasi asosida.

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarini, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- shahar yo‘lovchilar transporti tashuvchilarining yo‘lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo‘yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini qoplash xarajatlari;

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- qishloq xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat organlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to‘lash, shuningdek yerlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish;

- uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlarida ta‘mirlash ishlarini olib borish;

- suv yo‘llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;

- aholi punktlarini obodonlashtirish;

- shaharlarning, boshqa aholi punktlarining ko‘chalarini va xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash, shuningdek ayrim tashkilotlar xarajatlari;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o‘rmon xo‘jaligini saqlab turish xarajatlari;

3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo‘lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

4) mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, shu jumladan:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesini;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo‘limlarini saqlab turish xarajatlari;

5) *Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg‘armalarini shakllantirish xarajatlari;*

6) *davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash xarajatlari;*

7) *Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.*

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga byudjet ssudalari, dotatsiyalar, subvensiyalar va o‘tkazib beriladigan daromadlar ajratilishi mumkin.

Shuningdek, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) *ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:*

- tuman (shahar) xalq ta‘lim muassasalari faoliyatini uslubiy jihatdan ta‘minlash va tashkil etish bo‘limlarini, shuningdek ular tasarrufidagi maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarini saqlab turish hamda qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta‘lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;

- tumanlar (shaharlar) tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalarini hamda davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tuman, shahar muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- tuman va shahar madaniyat va sport ishlari bo'yicha bo'limlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan kam ta'minlangan oilalarga tayinlanadigan hamda to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam, tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish, Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

2) *iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:*

- veterinariya laboratoriyalari va hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashish stansiyalarini saqlab turish;

- shaharlarning va boshqa aholi punktlarining ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash;

- uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

- aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari;

3) *tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;*

4) *fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;*

5) *boshqa xarajatlar, shu jumladan qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlarining mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalari moliya yili mobaynida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalardagi qo'shimcha, ko'zda tutilmagan xarajatlar o'z vaqtida hamda uzluksiz moliyalashtirilishini ta'minlash uchun tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘lari tegishincha O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetiga tushadigan daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg‘armalari miqdori asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bashorati hamda Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘larining taqsimlovchilari tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlaridir.

Mahalliy byudjetlarning ijrosini ta‘minlash moliya, soliq, g‘aznachilik organlari tomonidan belgilangan vakolatlar asosida amalga oshiriladi.

Hududiy moliya organlari – Qoraqalpog‘iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlaridir.⁶²

Hududiy moliya organlarining mahalliy byudjetlar ijrosini ta‘minlashdagi vakolatlari Byudjet kodeksining 30-moddasida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra **hududiy moliya organlari**:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihasini tayyorlaydi hamda uni tegishincha Qoraqalpog‘iston Res-

⁶² O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 3-moddasi asosida.

publikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

- tegishli byudjetga uning ijro etilishi jarayonida tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

- byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini yetkazadi;

- byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini hamda byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

- belgilangan tartibda tegishli byudjetlar parametrlariga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritadi;

- tegishli byudjetlarning mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- yuqori turuvchi moliya organlariga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga tegishli byudjetning ijrosi to'g'risida har choraklik hisobotlarni taqdim etadi;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

- tegishli byudjetlar ijrosining byudjet hisobini yuritadi;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari balanslilikiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarini moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari yuqoridagi vakolatlar bilan bir qatorda:

- Davlat byudjeti daromadlari bashoratini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga har chorak asosida tegishli ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha yetkazadi;

- byudjet ssudalarini beradi.

Hududiy moliya organlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Hududiy moliya organlari – o‘z tasarrufida O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan mablag‘ oladigan tashkilotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxs sifatida *byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar* maqomiga egadir. Bunga ko‘ra Byudjet kodeksining 31-moddasida belgilangan vakolatlarga ega, ya’ni:

- byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni olish uchun byudjet so‘rovlarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

- byudjet buyurtmalarini tuzish uchun ko‘rsatkichlarni va materiallarni o‘z tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazadi;

- xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini tuzish uchun o‘z tasarrufidagi tashkilotlarga ularning tegishli moliya yiliga byudjetdan ajratiladigan mablag‘lari hajmlarini yetkazadi;

- o‘z tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

- tasdiqlangan xarajatlar smetalarini va jamlanma xarajatlar smetalarini, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ro‘yxatdan o‘tkazish uchun taqdim etadi;

- xarajatlar smetalari va shtat jadvallaridagi o‘zgartirishlar to‘g‘risida o‘z tasarrufidagi tashkilotlarni xabardor qiladi;

- o‘z tasarrufidagi tashkilotlarda byudjet hisobi yuritilishini tashkil etish va nazorat qilishni ta‘minlaydi;

- o‘z tasarrufidagi tashkilotlardan moliyaviy hisobotlarni qabul qiladi;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli davr uchun jamlanma moliyaviy hisobotlar taqdim etadi.

Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

6.5. Mahalliy byudjetlar ijrosini ta'minlashda hududiy g'aznachilik bo'linmalari faoliyati

Hududiy g'aznachilik bo'linmalari – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha g'aznachilik boshqarmalari, tumanlar va shaharlar bo'yicha g'aznachilik bo'linmalari.⁶³

Davlat moliyasini isloh qilish, davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy etish, byudjet mablag'larini boshqarish va ularning shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish jarayonlari mukammallashib, takomillashib bormoqda. Bu jarayonlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-son (28.02.2007) qarorining qabul qilinishi muhim qadam bo'lib xizmat qildi. Prezident Qarorining ijro etilishi doirasida Moliya vazirligi huzuridagi "Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi" hamda mahalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi.

PQ-594-son Qaror bilan Moliya vazirligi G'aznachiligi zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatildi:

➤ davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

➤ davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisobraqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

➤ byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish,

⁶³ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 3-moddasi asosida.

bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

➤ xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

➤ davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish.

Davlat byudjetining kassa ijrosi, daromadlar va xarajatlar ustidan nazorat hamda byudjet mablag'larini boshqarish sohasidagi vazifalari:

➤ davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushgan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

➤ davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisobraqami, shuningdek, tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlari oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish.

Shartnomalarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirishdagi vazifalari:

➤ byudjet tashkilotlarining tovarlar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarni, shuningdek, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmalarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga yo'naltirilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining

xarajatlar smetasida ko'zda tutilmagan hamda ajratilgan limitdan ortiqcha xarajatlarni oldini olish;


➤ byudjet tashkilotlarini, jumladan mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan byudjet mablag'laridan foydalalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra vositachilik xizmatlaridan voz kechish.

Davlat byudjeti G'aznachilik tizimiga o'tilganda byudjet muassasalari tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar uchun to'lovlar moliyaviy majburiyatlarni tasdiqlovchi va xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovarlar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan joriy nazoratni ta'minlashga erishildi.

G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tarkibidagi davlat ijroiya organi hisoblanadi. G'aznachilikning Qoraqalpog'iston Respublikasi G'aznachilik Boshqarmasi, Toshkent shahar va viloyatlar Boshqarmasi, shahar va tumanlarda G'aznachilik bo'linmalari kabi hududiy organlari faoliyat qiladi (6.7-rasm).

G'aznachilikka O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlangan Davlat G'aznachisi rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'iga muvofiq G'aznachilikning hududiy organlari tuziladi va tugatiladi. G'aznachilik organlarining xarajatlarini moliyalashtirish respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

Moliya vazirligi G'aznachiligi markaziy apparatining tashkiliy tuzilishi 6.7-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi moliya vaziriga zarur hollarda G'aznachilikning markaziy apparati va uning bo'linmalari tuzilmasiga moliya organlari boshqaruv xodimlarining belgilangan soni doirasida o'zgartishlar kiritish huquqi berilgan.



**6.7-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
G'aznachiligining tashkiliy tuzilishi⁶⁴**

Moliya vazirligi G'aznachiligi to'g'risidagi Nizomga muvofiq, G'aznachilikning hududiy bo'linmalari quyidagi ishlarni bajaradi:

– byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun g'aznachilikning bank hisobraqamlariga mablag'lar o'tkazadi;

– yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobraqamlariga sudning qarori bo'yicha yagona g'aznachilik hisobraqamidan yoki g'aznachilikning boshqa hisobraqamlaridan mablag'lar o'tkazadi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risidagi Nizom asosida tuzildi.

harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash uchun mablag‘lar o‘tkazadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida g‘aznachilik hisobraqamlarida mablag‘larning harakati to‘g‘risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi;

– byudjetdan mablag‘ oluvchilarga ular uchun g‘aznachilikda yoki uning hududiy bo‘linmalarida ochilgan shaxsiy hisobraqamlaridan ko‘chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga byudjet mablag‘lari o‘tkazilganligini tasdiqlaydigan to‘lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi;

– manbalar bo‘yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritadi;

– moliya organlarining topshirig‘i bo‘yicha yuqori byudjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subvensiyalar, byudjet ssudalari summasini va boshqa to‘lovlarni quyi byudjetlarning shaxsiy g‘aznachilik hisobraqamlariga o‘tkazadi;

– byudjet tashkilotlari va buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko‘rsatilgan summalar doirasida va maqsadlarga muvofiq tuzilishi ustidan qattiq nazorat qilish asosida shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

– byudjetdan mablag‘ oluvchilar nomidan ro‘yxatga olingan shartnomalarda yoki boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan summalar doirasida tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko‘rsatuvchilar)ning bevosita bank hisobraqamlariga to‘lovlarni amalga oshiradi;

– byudjet tashkilotlarini, jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan byudjet mablag‘laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib boradi, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta‘minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini hamda qoidaga ko‘ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechishni nazarda tutadi;

– schyot-fakturalar va tovarlar yetkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi) holatini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar asosida byudjet mablag‘i oluvchilarning moliyaviy majburiyatlari hisobini yuritadi va boshqa ishlarni amalga oshiradi.

Bugungi kunda davlat byudjeti g‘azna ijrosini tashkil etish borasidagi Prezident qarorlarining ijrosi doirasida Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining qarz mablag‘larini jalb etgan holda davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g‘azna hisobraqamiga jamlash va undan xarajatlar to‘lovini amalga oshirish imkonini beruvchi davlat byudjeti g‘azna ijrosining yagona integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda belgilangan tartibda respublikaning barcha shahar va tumanlarini qamrab olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining ma’lumotlar tarmog‘ini tashkil etish uchun yer usti raqamli aloqa kanallarini berish choralari ko‘rilmogda.

Takrorlash uchun savollar

1. G‘aznachilik faoliyatining qonuniy-huquqiy asoslarini nimalar tashkil qiladi?
2. G‘aznachilik maxsus vakolatli moliya organi sifatida qachon, qaysi me‘yoriy-huquqiy hujjat bilan tashkil qilindi?
3. G‘aznachilikning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. G‘aznachilik markaziy apparati va uning hududiy bo‘linmalari tashkiliy tuzilishi, ularning funksional vazifalaridagi farqlarni aytib bering.
5. G‘aznachilikning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
6. G‘aznachilikning qonuniy-huquqiy va me‘yoriy asoslarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izoh yozing.

7. G'aznachilik markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalari tashkiliy tuzilishi chizmasini mustaqil daftaringizga aks ettiring, tarkibiy bo'linmalarining bajaradigan vazifalari sharhini keltiring.

8. G'aznachilik faoliyatining qonuniy-huquqiy asoslarini nimalar tashkil qiladi?

9. G'aznachilik maxsus vakolatli moliya organi sifatida qachon, qaysi me'yoriy-huquqiy hujjat bilan tashkil qilindi?

10. G'aznachilikning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

11. G'aznachilik markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalari tashkiliy tuzilishi, ularning funksional vazifalaridagi farqlarni aytib bering.

12. G'aznachilikning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?

13. Respublika va hududiy g'azna hisobraqamlarining mazmuni nima, tayinlanishi va yuritilish tartibi qanday?

14. Yagona g'azna hisobraqamiga o'tishning afzalliklari nimada?

15. Byudjet daromadlarini yagona g'azna hisobraqamida yuritish tartibi qanaqa?

16. Byudjet xarajatlarini yagona g'azna hisobraqamidan to'lab berish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. G'aznachilikning qonuniy-huquqiy va me'yoriy asoslarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izoh yozing.

2. G'aznachilik markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalari tashkiliy tuzilishi va tarkibiy bo'linmalarining bajaradigan vazifalari qanday?

3. Respublika va hududiy g'azna hisobraqamlaridan yagona g'azna hisobraqamiga o'tish davrida amalga oshirilgan tadbirlar va qabul qilingan me'yoriy hujjatlar sharhini keltiring.

7-MAVZU. BYUDJET G‘AZNA IJROSINING XORIJ TAJRIBALARI

7.1. Xorijiy mamlakatlar g‘aznachilik tizimlarining xususiyatlari

7.2. Byudjet tizimini boshqarishda g‘aznachilik mexanizmining modellari

7.3. AQSH va Rossiya Federatsiyasida g‘aznachilik tizimi faoliyati

7.4. Xorijiy tajribalar asosida g‘aznachilik tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari

7.1. Xorijiy mamlakatlar g‘aznachilik tizimlarining xususiyatlari

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning misolida, davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish sohasida amalga oshirilayotgan yutuqlar qatorida, g‘aznachilik tizimining joriy qilinishi va bu borada qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar islohotlar samarasining dalolatidir. G‘aznachilik tizimining joriy qilinishi byudjet ijrosining samarasini keskin oshirishni ta‘minlamoqda.

Byudjetning g‘azna ijrosiga oid xorijiy adabiyotlarda g‘aznachilik tizimiga quyidagicha ta‘rif beriladi, *"G‘aznachilik tizimi byudjetdan mablag‘ oluvchilarning majburiyatini ijroga qabul qiladi. Keyin taqdim qilingan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun g‘aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig‘iga binoan vakolatni o‘ziga oladi. Byudjet mablag‘larini maqsadli ishlatilishini ta‘minlash asosida to‘lovni amalga oshiradi. G‘aznachilik bo‘linmalari byudjet tashkilotlari va boshqa byudjetdan mablag‘lar oluvchilarga naqd pul to‘lash uchun banklarning vakolatli muassasalarida maxsus*

tranzit g'aznachilik hisobraqami ochadi. Har bir tranzit hisobraqamga joylashuv o'rniga bog'liq tarzda naqd pul mablag'lari oluvchi byudjet tashkilotlari biriktirilishi lozim. Banklarning vakolatli muassasalari G'aznachilik tomonidan yozib berilgan chek asosida mazkur tranzit hisobraqamlardan byudjet tashkilotlariga naqd pul mablag'lari berishni amalga oshiriladi".⁶⁵

"Byudjet ijrosining g'aznachilik tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish byudjet mablag'larini to'liq va samarali ishlatilishining dastlabki va joriy nazoratini ta'minlaydi: Dastlabki nazorat - shartnomalarni ro'yxatga olish jarayonida, joriy nazorat byudjetdan mablag' oluvchilarni xarajatlariga mablag'ni to'lashda amalga oshiriladi".⁶⁶

Jahon tajribalari shuni ko'rsatadiki, byudjetning kassali ijrosi ikki usulda: g'aznachilik va bank tizimi orqali amalga oshiriladi. G'aznachilik tizimining faoliyati birinchi bosqichda nafaqat moliyaviy resurslarni safarbar qilish orqali mahalliy byudjet xarajatlarini muntazam ravishda boshqarish imkonini yaratadi, balki ular ustidan samarali nazorat qilish imkonini ham beradi.

"G'azna" inglizcha "treasure trove" so'zidan olingan bo'lib, insonlar tomonidan ma'lum bir maqsadlarda yerga ko'milgan oltin va kumushning topilishi hamda bu topilma podsholarga tegishli bo'lganligini anglatadi. Boshqa iqtisodiy adabiyotlarda "g'aznachilik" – terminiga iqtisodiy kategoriya sifatida ikki xil ta'rif beriladi. G'aznachilik – davlat byudjeti kassasini ta'minlaydigan va davlat moliyasini boshqaradigan maxsus davlat organidir. G'aznachilik – mamlakatning moliya siyosatiga va iqtisodiyotni boshqarishga javob beradigan vazirlikdir.

G'aznachilik – maxsus davlat moliya organi bo'lib davlat byudjeti-ning ijrosini ta'minlaydi, o'zida yagona markazlashgan pul fondlarini

⁶⁵ Steven M. Bragg. Treasury management: The Practitioner's Guide /Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.

⁶⁶ Пулатов Д. Вопросы совершенствования государственного финансового контроля в Узбекистане. // Perspectives of Innovations, Economics and Business Volume 2. 2009. P. 50.

shakllantiradi, shuningdek davlat tomonidan soliqlari yig'ish va ulardan foydalanishni ta'minlaydi. Ko'pchilik hollarda g'aznachilik Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi yagona tamoyillarga asoslangan tizimdir. AQSH, Avstraliya, Braziliya kabi davlatlarda byudjet ijrosi g'aznachilik orqali amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti kassa ijrosiga bank tizimida davlat dasturlarida ishtirok etayotgan tashkilot va muassasalar tarkibining oshishi natijasida byudjet mablag'larining bosh taqsimlovchisi, ya'ni Moliya Vazirligining ushbu mablag'lar harakati va ularning maqsadli ishlatilishi ustidan olib borayotgan nazoratini ma'lum darajada cheklashga olib kelgan. Moliya Vazirligiga byudjetning daromadlar qismi to'g'risida ma'lumotlarni o'z vaqtida etib kelmasligi byudjet mablag'larini tezkor sur'atlarda samarali ishlatilishiga to'sqinlik qildi.

“G'aznachilik-davlatning moliyaviy resurslarini boshqarishning yangi usulidan foydalanishdir. Davlat byudjetining barcha daromadlarini jamlash va taqsimlashdagi yangicha tamoyil va mexanizmlarni amalga qo'llashdir. Qolaversa, byudjetning har bir so'mini oqilona ishlatishni ta'minlovchi yangicha mexanizmdir. Hozirgi kunda ko'plab horijiy davlatlarda, jumladan, Fransiya, Shvetsiya, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlar byudjet ijrosini g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi”.⁶⁷ G'aznachilik faoliyatini tashkil etishning dastlabki bosqichdagi chora-tadbirlari mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga hamda respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga byudjetdan mablag'lar oluvchilar bilan mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazish va tuzilgan shartnomalarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni nazorat qilish bilan boshlandi.

⁶⁷ Steven M. Bragg. Treasury management: The Practitioner's Guide /Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.

Xorijiy mamlakatlarda Markaziy bankning paydo bo'lishi va tijorat banklari tizimining takomillashuvi g'aznachilik tizimining quyidagi o'zgarishlariga olib keldi:

- tangalar yasash va pul emissiyasi Markaziy banklar zimmasiga o'tdi;
- qarz majburiyatlarini tasdiqlovchi qimmatbaho qog'ozlar miqdorini boshqarish ham Markaziy Bankka berildi;
- bank tizimining poytaxtdan boshqa savdo va sanoat markazlariga tarmoq yoyishi, davlat tomonidan to'lovlar olish va berish funksiyalari ham banklarga topshirildi;
- "G'azna" aholi omonotlarini qabul qiluvchi bank muassasasiga aylandi.

Davlat byudjetining kassa ijrosi jarayonida g'aznachilik tizimining modellari turlicha bo'lib, ularning vazifalari bir-biridan farqlanadi. G'aznachilikda byudjet mablag'lari xarajatlari uch bosqichga bo'linadi:

1-bosqich. Tarmoq, vazirliklar va idoralar hisobraqamiga tushadigan byudjet mablag'larining hajmini tasdiqlash.

2-bosqich. Soliq organlari orqali byudjetning daromad qismini amalga oshirish va tasdiqlangan hajmlariga binoan byudjet oluvchilarning tijorat banklaridagi hisobraqamlariga yetkazib berish.

3-bosqich. Byudjetdan mablag' oluvchilarning kassa xarajatlarini amalga oshirilishi. Byudjetdan mablag' oluvchilarning tijorat banklaridagi hisobraqimiga tushgan mablag' Moliya vazirligi va uning joylardagi moliya organlarining nazorati doirasidan tashqarida amalga oshiriladi. Bu mablag'larning nazorati tijorat banklarining o'ziga yuklatiladi. Tijorat banklarining hisobraqamlaridagi shu davr ichida ishlatilmagan byudjet tashkilotlarining qoldiq mablag'lari tijorat banklarining resurs mablag'lari vazifasini bajaradi hamda to'lov muddati kelgunga qadar o'sha bank tomonidan tijorat maqsadida ishlatilishi mumkin. Bunda tijorat tavakalchiligi bilan bog'liq xatarlar ushbu mablag'lar zimmasiga tushishi tabiiy.

Xalqaro Valyuta Fondi ekspertlari Barri Potter va Jek Daymont fikricha, "Iqtisodiy hamkorlik va tarruqiyot tashkiloti"⁶⁸ tarkibidagi ko'pchilik mamlakatlar davlat moliyasini boshqarishda g'aznachilik tizimiga suyanadilar va bunda g'aznachilik tizimining Moliya vaziri tomonidan boshqarilishi davlat mablag'larini ishlatilish samaradorligini va ularning o'z vaqtida va maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat etish sifatini ham sezilarli darajada oshiradi".⁶⁹

G'aznachilik tizimi davlatning markaziy hukumati va hududlardagi boshqaruv organlarining asosiy moliyaviy xizmatlarini ta'minlaydi. Bu xizmatlar qatorida: davlat mablag'lari to'lovlarini amalga oshirish, mablag'lar harakati hisobi va hisobotini ta'minlashi, fiskal hisobot va boshqalar ko'rsatiladi. Rivojlangan davlatlar moliya vazirligi va boshqa tarmoq vazirliklari uchun davlat moliyasini shakllantirish, ijro qilish va nazorati bo'yicha funksional bog'liq tarzda kompyuter tizimini tuzadi va doimiy ravishda takomillashtiradi. Shu bilan birga, bu yaxlit – integrallashgan tizim, ixtisoslashtirilgan kompyuter dasturlari, byudjetning barcha darajadagi mahalliy byudjetlarga ishlov berish, davlat qarzini boshqaruv vazifalarini optimallashtirish, byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish va birlashtirish, mahalliy moliya organlari va boshqa tashkilotlarining moliyasini boshqarish funksiyalari uchun alohida ixtisoslashgan dasturlarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlarda g'aznachilik tizimining turli ta'riflari uchraydi. Quyida shu ta'riflardan birini keltiramiz:

"G'aznachilik tizimida byudjetdan mablag' oluvchilar topshirig'iga ko'ra to'lov majburiyatlarini ijroga qabul qilib olish, va tovarlar yetkazib berilishi, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun bevosita to'lovlarni amalga oshirilishni g'aznachilik amalga oshiradi va, bunda byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlaydi".⁷⁰

⁶⁸ Organization for Economic Cooperation and Development (OECD)

⁶⁹ Barry Potter. *Jack Diamond. Building Treasury Systems*. 1999.

⁷⁰ Иванова Н.Г., Маковник Т.Д. Казначейская система исполнения бюджетов. Питер Санкт-Петербург. 2001. С. 29

Xalqaro Valyuta Fondi ekspertlari Barri Poter va Jek Daymondning ta'riflarishicha:

*“Davlat moliyasini boshqarish maqsadida integrallashgan axborot tizimi – yoki g‘aznachilik tizimi – bu to‘lovlar, hisobot va moliya boshqaruvini amalga oshiruvchi tizimki unga moliya vazirligi, g‘aznachilik, tarmoq vazirliklari va byudjet tashkilotlari bevosita bog‘lanish huquqiga egadir”.*⁷¹

*Davlat byudjeti g‘aznachilik ijrosi, yana bir ta‘rifga ko‘ra, ijroiya organi tarafidan byudjet mablag‘larini jalb qilish va sarflanishini ta‘minlaydi, bunda, ushbu organ maxsus vakolatlariga ko‘ra tushumlar ro‘yxati bo‘yicha, Yagona hisobraqamidan amalga oshiriladigan to‘lovlar va zimmasidagi byudjet majburiyatlarining vaqti va hajmini tartibga soladi.*⁷²

Xorijiy mamlakatlar G‘aznachilik bo‘yicha o‘tkazilgan taqqoslashdan ko‘rinib turibdiki, byudjetning banklar orqali ijrosi sharoitida byudjet mablag‘larining bosh taqsimlovchisi - Moliya Vazirligining byudjet mablag‘larining tezkorligi ta‘minlashda, davlat byudjetinig daromad qismiga tushadigan mablag‘larining kuzatishda ham, byudjet oluvchi tashkilotlarga mablag‘larni taqsimlab yetkazish borasida ham funksiyalari chegaralangan edi.

Byudjet ijrosining g‘azna tizimida bosh taqsimlovchisi barcha mablag‘larni Yagona g‘azna hisobvarag‘iga tushgan vaqtdan mablag‘ oluvchiga bu summa to‘langunga qadar shafofligini ta‘minlash imkonini bu tizim kengaytiradi.

Barcha mablag‘larining Yagona g‘azna hisobvarag‘iga tushishini tartibga solib turadi, ulardan vaqt tejash bo‘yicha foydalanishning eng qulay variantini tanlaydi. Buning hisobiga Davlat byudjeti ijrosi samaradorligini keskin oshiradi.

⁷¹ Barry Potter, Jack Diamond. Building Treasury Systems. 1999. P. 6.

⁷² Рудовал И.П. Правовое регулирование казначейского исполнения бюджета // Финансы. № 8, 2009. С. 25.

G'aznachilik tizimida byudjet jarayonlarini amalga oshirilishi⁷³

Xarajatlar aylanish davri	Byudjet jarayonlarini amalga oshirilishi	
	Bank tizimidagi holat	G'azna tizimidagi holat
Ajratmalar	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari
Taqsimlash (smeta-yoyilma)	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari
Byudjetni yil ichida qayta ko'rib chiqish	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari	Byudjet boshqarmalari-hududiy moliya organlari
Majburiyatlar (shartnoma, buyurtma)	Byudjet tashkilotlari buxgalteriya bilan birgalikda kreditor qarzlari va haqiqiy xarajatlardan farq qiladigan majburiyatlar hisobotlarda ko'rsatilmaydi	Byudjet tashkilotlari buxgalteriya bilan birgalikda g'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazish kerak. A. har oylik hisobot
Verifikatsiyalash (yetkazib berish)	Byudjet tashkilotlari buxgalteriya bilan birgalikda choraklik hisobotlar	Byudjet tashkilotlari buxgalteriya bilan birgalikda. G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkaziladi. Mumkin bo'lgan ro'yxatga olish rejimlari: majburiyatlarga nisbatan. V. har oylik hisobot
Kassa limitlari (masalan, yo'riqnomasertifikatlar)		G'azna har oylik/har kunlik hisobotlar
To'lov xabarnomalari		G'azna va byudjet tashkilotlari buxgalteriya bilan birgalikda har oylik / har kunlik hisobotlar
To'lovlar (bankka jo'natiladigan xarajatlarni amalga oshirish ruxsatnomalari)	Banklar: kassa balansi: har kunlik hisobot Byudjet tasnifi-tarmoq-paragraf: har oylik hisobot	G'aznachilikda har oylik/har kunlik hisobotlar Byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar (axborot g'aznaga elektron yo'l bilan uzatiladi) D. har oylik/har kunlik hisobotlar. Kassa balanslari haqida kunlik hisobotlar

⁷³ Колесов А.С. Бюджетный процесс: сущность и совершенствование. Финансы № 11. 2010. С. 8.

Buni o'zlashtirish uchun shuni nazarda tutish kerakki, byudjetning g'aznachilik ijrosida turli malakaga ega, davlat boshqaruvi va mahalliy boshqaruv tizimlarining turli pog'onalarida ishlayotgan mutaxassislar faol qatnashadi. Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosiga doir asosiy tamoyillar, byudjet ijrosi bilan bog'liq jarayonlarni va harakatlarda shu tizim qatnashchilari tamoyillarga rioya qilishni o'zaro kelishib olinmagunga qadar, tizim faoliyatining samarasi yuqori bo'la olmaydi. Shu nuqtai nazardan bu tizimga umumiy va tushunarli yagona tamoyillar joriy qilinmasa turli muammolarni olib kelishi mumkin. Bu vaziyatda byudjetning g'azna ijrosida quyidagi tamoyillar keltiriladi:

1. Byudjetning g'aznachilik ijrosiga doir eng muhim tamoyil - daromadlar va xarajatlar Yagona kassadan amalga oshirilishi. Bunda byudjet taqchiligini yopish uchun byudjet tushumlari va byudjetning barcha daromadlari Yagona G'aznachilik hisobidan amalga oshiriladi.

2. Ikkinchi muhim tamoyil - Davlat byudjeti ijrosining hisoboti va buxgalteriya hisobini umumiy (yagona) tasnifga asoslangan tizimini yaratilishi. Bu tamoyil Davlat byudjeti g'aznachilik ijrosi tizimini o'zida mujassamlashtirgan hisobotlar va shu jarayonga tegishli barcha standartlarni joriy qilinishini bildiradi. Bunga davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisob va hisobotlar, davlatning byudjetdan tashqari maqsadli fondlari, uzoq muddatli dasturlari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jalb qilingan mablag'lari kiradi. Bu borada tashkilotlarning yagona buxgalteriya hisobi standartlari va hisobotlari faqatgina O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida emas balki byudjet tashkilotlarida ham yagona byudjet tasnifi, buxgalteriya hisobi plan schyotlari va buxgalteriya hisobi hujjatlari bilan amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Bu tamoyil g'aznachilik organlari va byudjet tashkilotlaridan tashqari, yagona tasnifga asoslangan hisob va buxgalteriya hisobi tizimi soliq va bojxona organlaridan tushadigan davlat byudjeti daromadlari, byudjetdan tashqari fondlarning daromadlariga tushadigan mablag'lar, daromadlarni maxsus yig'uvchilarga hamda davlatning maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchilarga qo'llaniladi.

3. Byudjet ijrosining banklar oraqali amalga oshiriluvchi kassali ijrosidan farqli ravishda g'aznachilik tizimida byudjet ijrosida tushumlarning Yagona g'azna hisobraqamiga kelib tushishidan oxirgi pul mablag'larni oluvchiga yetib borgunga qadar kuchli moliyaviy nazorat qilinishini ta'minlanadi. Bu "tiniqlik" tamoyilini amalga oshirish imkonini yaratadi. Jamiyatni demokratiyalashtirish va fuqarolik jamiyati tarraqqiyoti natijasida, siyosiy partiyalar, turli harakatlar va nodavlat tashkilotlari davlat byudjetini rejalashtirish jarayonida bir-birlari bilan muhokama qilishi va dolzarb yo'nalishlarni aniqlash jarayonida mazkur tamoyildan foydalanishlari tarraqiy etgan davlatlarda tabiiy hol. O'zbekiston Respublikasida "tiniqlik" tamoyilini amalga oshirish byudjet jarayoni uchun asos bo'lib, qolaversa, davlat byudjeti mablag'larining samaradorligi oshishiga hizmat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, shuni e'tiborga olish kerakki, alohida ekspertlar va xalqaro tashkilotlar "tiniqlik" tamoyili ma'nosida Davlat byudjeti ijrosini boshqa davlatlar byudjet ijrosi bilan solishtirishga urinib, haqqoniylikka erishadi.

O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari "shok terapiyani" o'zida mujassamlashtirmagan, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib, oldingi bosqichning samarali amalga oshirilishiga qarab, aholini maksimal ijtimoiy himoyalagan holda amalga oshirishi tamoyili asosida o'zgarishlar bo'lmoqda. Lekin, rivojlangan va qo'shni davlatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar va byudjet bilan bog'liq hal qilinayotgan masalalar, bizning mamlakatimizdagi Davlat byudjeti maqsadlaridan sezilarli farq qilinishini inobatga olishimiz kerak. Hattoki, erkin va dekmokratik hisoblangan davlatlarda davlat byudjetining ba'zi "*backdoor Spending*"⁷⁴ deb nomlangan xarajatlari mavjudki, ularning maqsad va mohiyatining maxfiyligi hech kimda qiziqish, va xalqaro tashkilotlarda va "malakali ekspertlar" doiralarida e'tiroz va yoki tushunmovchilik uyg'otmaydi.

⁷⁴ Allen Schick, Robert Keith, Edward Davis. Manual on the Federal Budget Process. CRS Report for the Congress. 1991. P 115.

Xalqaro tajribalar ko'rsatadiki, g'aznachilik tizimining ustunlik qiladigan birona modeli yo'q. G'aznachilikning bo'lim va boshqarmalar soni va ularning aniq funksiyalari har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq, shu bilan birga bu funksiyalar malakatlarning rivojlanishiga bog'liq holda o'zgaradi.

7.2. Byudjet tizimini boshqarishda g'aznachilik mexanizmining modellari

O'zbekistonda optimal Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yaratish maqsadida Fransiya, AQSH, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlar misolida bu sohadagi ilg'or xalqaro tajriba o'rganildi. Turli davlatlarda g'aznachilik funksiyalariga oid xalqaro tajribani batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Xorijiy davlatlarda byudjet tuzilmasi davlatning tuzilishi, hududiy-ma'muriy bo'linishi, iqtisodiyotining rivojlanishi darajasi, uning tarkibiy belgilariga bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Davlat boshqaruvining ikkita shakli ma'lum: yagona (unitar) va federativ.


Unitar davlatlarda (Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya) boshqarishning ikki bo'g'ini - markaziy va hududiy bo'g'inlar mavjud.

Federativ davlatlarda (AQSH, Kanada, GFR, Shveytsariya) boshqarish uchta bo'g'indan iborat - markaziy, federatsiya a'zolari va hududiy.

Xalqaro tajribalarning ko'rsatishicha, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda moliyani boshqarish, odatda, G'aznachilik yoki bir nechta davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Rossiya Federatsiyasida moliyani boshqarish Moliya vazirligi, Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki va Federal G'aznachiligi tomonidan amalga oshiriladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida Moliya vazirligi G'aznachiligi bevosita Prezidentga bo'ysunadigan bo'linma bo'lib, keng doiradagi iqtisodiy va moliyaviy funksiyalarni bajaradi. Jarayonda ishtirok etayotgan boshqa muassasalar: byudjetni tayyorlash uchun mas'ul

Ma'muriy - byudjet boshqarmasi (BMB) va qator hisob-kitob va audit funksiyalari uchun mas'ul Byudjet - nazorat bosh boshqarmasi (BNBB)dir. Soliq va bojxona boshqarmalari G'aznachilikning bir qismi hisoblanadi.



7.1-rasm. Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining modellari⁷⁵

Byudjetning xarajatlar bo'yicha ijrosi Byudjet direktorati tomonidan nazorat qilinadi. Byudjet derektorati o'z tizimiga qarashli moliyaviy nazoratchilar yordamida mablag'larni xarajat qilishni nazorat qiladi. Xarajatlar juda qattiq nazorat qilinadi: Fransiyadagi G'aznachilik Avstraliyadagi G'aznachilik kabi davlatning ichki va

⁷⁵ Qosimova G. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2013. 476 b.

tashqi qarzlarni boshqaradi, muomalaga qimmatli qog'ozlarni chiqarishni nazorat qiladi, ularni hajmiga, to'lov muddatiga va tarkibiga bog'liq masalalarni yechadi. Fransiyada ham davlat moliya axborot tizimi samarali faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tizimda byudjetni tayyorlash, byudjet hujjatlarini nashr qilish va byudjet ijrosi amalga oshiriladi.

Shuningdek, Byudjet derektorati va tarmoq vazirliklarini bog'laydigan boshqa tizimlar ham mavjud. Buxgalteriya yozuvlari (provodkalar) asosida yagona hisobraqamdagi mablag'lar to'g'risida to'liq axborot olish uchun bir kun ketadi, har hafta to'liq kengaytirilgan ma'lumotlar olish mumkin.

Davlat moliyasini boshqarish uni hisob-kitobini yuritish mablag' jalb qilish bilan olib boriladi. U davlat majburiyatlarini boshqaradi, ichki va tashqi mablag'ni jalb qiladi, ularning hisob-kitobini yuritadi va har yilgi davlat qarzlari to'g'risidagi hisobotni tayyorlaydi.

Quyidagi jadvalda Fransiyaning Davlat byudjeti daromadlari to'g'risida ma'lumot berilgan.



7.2-rasm. Fransiyaning g'aznachilik tizimida daromadlarni yig'ish

**Fransiyaning Davlat byudjeti daromadlari
va xarajatlari to'g'risida ma'lumot⁷⁶**

(mlrd frankda)

Davlat daromadlari	Miqdori	Davlat xarajatlari	Miqdori
Jami tushumlar	1281	Mahalliy hokimiyat organlari byudjetining taqsimlanishi	1194
Davlat byudjeti	870	Kommunalar	38.4%
Mahalliy hokimiyat organlari byudjeti	366	Davlat tashkilotlari	11.9%
Audio yig'imlar	13	Departamentlar	19.9%
Ijtimoiy yig'imlar	31	Mintaqalar	6.6%
		Davlat sog'liqni saqlash muassasalari	23.2%
Davlat xarajatlari	2055	Bosh g'aznachilar	108ta
Joriy xarajatlar	1887	G'aznachilar	3800 ta
Kapital xarajatlar	168	Mintaqaviy axborot markazlarida 58 000dan ortiq xodim	30ta
G'aznachilikning yagona hisobraqami	580	Pensionerlar soni	2227404
Pensiya to'lovlari	198	Harbiy pensionerlar	486362
Boshqa to'lovlar	432	Boshqa pensionerlar	1741078

Fransiyaning Davlat byudjeti daromadlari yig'ish funksiyalarni bajarish uchun soliqli to'lovlar va to'lovlarni yig'ishning avtomatlashtirilgan jarayonlari ishlab chiqilgan. Qo'shimcha qiymat solig'ini to'laydigan 2000ga yaqin soliq to'lovchilar to'lovlarni to'g'ridan to'g'ri Markaziy bankning yagona hisobraqamga o'tkazadi, qolgan soliqlarning 50 foizi Tushumlar Direktorati tomonidan, 35 foizi Davlatning hisob-kitob yuritish bosh dereksiyasi tomonidan, 15 foizi

⁷⁶ Практика государственного управления во Франции: Государственное казначейства. Сборник документов Франко-Российского сотрудничества №8. стр. 19.

Bojxona xizmati tomonidan yig'iladi. Fransiyadagi g'aznachilik tizimi faoliyatining eng muhim tomonlaridan biri shundaki, kadrlar masalasiga alohida e'tibor beriladi. Fransiyada o'tgan yillar mobaynida Davlat G'aznasi Bosh Boshqarmasi kadrlarni sifatli tanlash va xodimlarni samarali boshqarishga alohida e'tibor berdi.

Fransiyada g'aznachilik tizimi 1998 yildan talab darajasida kasb xodimlarini tayyorlashga yo'naltirilgan kadrlarni tayyorlashni modernizatsiyalash amalga oshirildi. Xodimlar guruhlariga qarab taqsimlandi:

A guruhi: rahbarlik funksiyalarini bajarishga tayyorlanayotgan darajali (litsenziyaga ega) davlat xizmatchilari;

B guruhi: o'rta maxsus ma'lumotga ega, o'rta rahbarlik funksiyalarini bajarishga tayyorlanayotgan davlat xizmatchilari;

D guruhi: maxsus kasb ma'lumoti to'g'risida diplomga ega davlat xizmatchilari.

Fransiyada g'aznachilik tizimi orqali Markaziy Hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining xarajatlariga mablag' o'tkazilayapdi. Fransiya Hukumati quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha davlat xarajatlarini amalga oshirishning strategik rivojlanish siyosatini o'tkazmoqda:

1. Hokimiyat boshqaruvidagi nomarkazlashtirish (detsentralizatsiya)

2. Davlat G'aznasi Bosh Boshqarmasi tomonidan g'aznachilik operatsiyalarni o'tqazish vaqtini qisqartirish

G'aznachilikda (xavfli bo'lgan) operatsiyalarni, masalan, xarajatlarning ayrim yo'nalishlari davlat xaridlari, dotatsiyalar, subvensiyalar kabi katta miqdordagi xarajatlarni tanlab nazorat qilinishiga e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda davriy va kam miqdorda bo'lgan to'lovlar (~ 100-200 Yevro) amalda nazoratga olinmaydi. Lekin barcha to'lovlar faqat mahsulotlar qabul qilingandan keyin amalga oshiriladi. Byudjet ijrosi bo'yicha ish vaqti aniq belgilandi. Mahalliy hokimiyat organlari xarajat operatsiyalarini o'tkazish to'la davri hisob varaqasidagi mablag'larni qabul qilingan paytdan kassali

xarajat qilish paytgacha bo'lgan davr – 11ish kuni. Markaziy hukumatning xarajat operatsiyalarini o'tkazishning to'la davri – 8 kun. Muddatlarni jiddiy qisqartirish markaziy hukumat amaldorlariga bog'liq. Davlat xaridlari uchun Yevropa birlashmasi tomonidan direktiv tarzda 45 kun muddat qo'yilgan.

3. Byudjet va hisobot ma'lumotlarini tayyorlash

Markaziy Hukumatining daromadlari va xarajatlarini hisobga olishi Fransiya Davlat G'aznasining 3500 ta bo'limlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Jami Fransiya markaziy hukumati va mahalliy hokimiyat organlarining byudjet tashkilotlari soni 110 mingga teng. Barcha ma'lumotlar har kuni Markaziy ro'yxatga olish agentligiga (ASST) tushadi.

Quyidagi davriy hisobotlar mavjud:

- yillik “ochiq” hisobot;
- Fransiya Iqtisod, moliya va sanoat vaziriga beradigan kundalik operativ hisobot;
- Fransiya Iqtisod, moliya va sanoat vazirlik boshqaruviga hamda parlamentga taqdim qiladigan choraklik hisobot.

4. Konsalting

G'aznachilik amaldorlari byudjet tashkilotlari va mahalliy hokimiyat organlarga moliyaviy konsultantlar bo'lib chiqadi. Ular beradigan maslahatlar byudjet ijrosi protseduralari, soliq maoshlariga tegishli 7000ga yaqin rasmiy maslahatlar berildi. Moliyaviy sohasidagi mutaxassislar bilan ta'minlash jiddiy muammolarga ega bo'lgan Fransiyada 36 ming kommunalar mavjudligini nazarga olgan holda, shu konsultantlar byudjetning huquqiy munosabatlari subyektlari uchun juda ham muhimdir. Buning uchun informatsion texnologiyalardan unumli ravishda foydalaniladi. Ikkita ixtisoslashtirilgan dastur mahsulotlari hamda Fransiya Davlat G'aznasining ommabop sayti mavjud.

Fransiya Davlat G'aznasi uchun mazkur konsultantlar tamoyilial ahamiyatga ega, chunki mahalliy hokimiyat organlari byudjetni bajarish jarayonida xosil bo'ladigan noqonuniy holatlar uchun Fransiya

Davlat G'aznasining amaldorlari ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladi.

5. Umumiy mablag'larni va jamg'armalarni boshqarish

Fransiya Davlat G'aznasida quyidagi moliyaviy resurslar ishlatiladi:

- Markaziy Hukumatning moliyaviy resurslari;
- mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy resurslari;
- notariuslarning moliyaviy resurslari;
- vasiylikda bo'lgan jismoniy shaxslarning moliyaviy resurslari.

Fransiyada g'aznachilik funksiyalari Fransiya Davlat G'aznasi va Byudjet vazirligi Davlat hisob-kitobi bosh direksiyasi (DHKBD) o'rtasida bo'lingan. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

- Fransiya Davlat G'aznasi faoliyatini koordinatsiya qilish;
- Davlat ro'yxatga olish amaliyotining qoidalarini modernizatsiya qilish;
- Mahalliy hokimiyat organlariga iqtisodiy islohotlarda yordam ko'rsatish;
- Fransiya Davlat G'aznasi kadrlarini boshqarish;
- Davlat moliyasini ro'yxatga olish boshqarmasi;
- Markaziy apparatning tashkiliy tuzilmasi.

Buyuk Britaniyada davlat moliyasini boshqarish, tashqi qarzni boshqarish G'aznachilik va hisob-kitoblar olib borayotgan va mablag'larni ro'yxatdan o'tkazayotgan Bosh g'aznachi mahkamasi o'rtasida taqsimlangan.

Ispaniyada g'aznachilik funksiyalari, Moliya vazirligining tarkibidagi Moliya bo'yicha Kotib (MK) o'rinbosari devonxonasi va G'aznachilikning bosh direktorati tomonidan amalga oshiriladi.

Braziliyada g'aznachilik funksiyalari Moliya vazirligi tarkibidagi Federal daromadlari kotibiyati, G'aznachilik kotibiyati va Federal nazorati kotibiyati bo'linmalari kabi tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

Avstraliyada G'aznachilik departamenti vazirlik maqomiga ega bo'lib, hukumatga bo'ysunadi. Uning asosiy funksiyasi – makroiqtisodiy siyosat va tushumlarni yig'ish. G'aznachilik departamenti tarkibiga Soliq boshqarmasi kiradi, Soliq boshqarmasi orqali G'aznachilik tashqi tushumlardan tashqari, barcha soliq to'lovlarini yig'adi.

Yaponiyada g'aznachilik funksiyalari Moliya vazirligining Qarzni boshqarish boshqarmasi, G'aznachilik bo'limi va moliya bo'limlari o'rtasida taqsimlangan.

Xalqaro tajribaning ko'rsatishicha, turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida turgan va turli ijtimoiy-siyosiy tuzilmaga ega bo'lgan aksariyat mamlakatlarda davlat byudjetining ijrosi g'aznachilik organlari orqali amalga oshiriladi. Fransiyada g'aznachilik funksiyalari quyidagilardan iborat. Fransiyaning barcha moliyaviy resurslari yagona g'aznachilik hisobraqamida to'planadi. U Markaziy bankda joylashgan ushbu hisobraqami bo'yicha tushumlarni va to'lovlarni nazorat qiladi. G'aznachilik oylik taqsimot bilan o'zgaruvchan moliyaviy grafikni tayyorlaydi.

Fransiya Davlat G'aznasi tashqi va ichki qarzlarni boshqaradi. U davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarishni nazorat qiladi va ularning hajmi, muddati bilan bog'liq masalalarni hal qiladi. Fransiyada davlat moliya axborot tizimi samarali qo'llanilmoqda. Ushbu tizimda byudjetni tayyorlash, byudjet hujjatlarini e'lon qilish va uning ijrosi amalga oshiriladi. Fransiyada Yagona hisobraqami bo'yicha jamlama ma'lumotni olish bir kun vaqt oladi, batafsil ma'lumot har kun kelib turadi.

Buyuk Britaniyada g'aznachilik funksiyalari aniq belgilangan. Buyuk Britaniyada byudjet g'aznachilik tomonidan tayyorlanadi. G'aznachilikning yagona hisobraqami sifatida ishlatilayotgan jamlanma fondga umumiy tushumlarni tushishini g'aznachilik nazorat qiladi. Tushumlar va xarajatlar balansini ta'minlash maqsadida g'aznachilik har oyda moliyaviy rejani ishlab chiqadi. U qisqa muddatli moliyalashtirishdagi ehtiyojlarni aniqlashda qo'llaniladi.

Jamlama fondan amalga oshirilayotgan to'lovlar g'aznachilikning nazoratida bo'ladi. Davlat moliyaviy aktivlarini ham g'aznachilik nazorat qiladi. Davlat qarzini boshqarish g'aznachilik funksiyasiga kiradi. G'aznachilik davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish hajmi, muddati va tarkibini belgilaydi.

Buyuk Britaniya G'aznachiligi hisob-kitob uslubiyotini belgilaydi. Hisob-kitob tizimi kassa tamoyili asosida olib boriladi, ammo asta-sekin hisoblash tamoyiliga o'tilmoqda.

Buyuk Britaniya davlat moliya ahborot tizimi g'aznachilik tasarrufidadir, unda byudjetni tayyorlash va xarajatlarni ro'yxatga olish amalga oshiriladi. Davlat boshqarish sektori bo'yicha jamlama ma'lumotni olish uchun 14 kunga yaqin vaqt kerak bo'ladi.

Ispaniyada Markaziy bankda yagona g'aznachilik hisobraqami mavjud. Byudjet xarajatlari qismida G'aznachilik majburiy oylik yoki choraklik to'lovlar grafigini belgilaydi. G'aznachilik davlat qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini tartibga solish bo'yicha keng vakolatlarga ega. Mamlakatda davlat moliya axborot tizimi amalda bo'lib, uning uchun javobgarlik Moliya vazirligiga yuklangan. Istisnosiz barcha byudjet jarayonlari byudjet ijrosining oltita bosqichini qayd etadigan ushbu tizim orqali o'tishi kerak: byudjetdan rejalashtirilgan xarajatlar, olingan majburiyatlar, tekshirish, to'lov talabnomasi, to'lov topshiriqnomasi va mablag'larning haqiqiy ajratilishi.

Avstraliyada mamlakatning davlat mablag'lari g'aznachilikning yagona hisobraqamida to'planadi. Byudjet Moliya departamenti tomonidan tayyorlanadi. G'aznachilik jamlama darajadagi o'zgaruvchan moliyaviy grafikni tayyorlaydi. Moliya departamenti moliya xarajatlari rejasini, xarajatlarning turiga qarab choraklik yoki oylik taqsimotini tayyorlaydi.

Avstraliyada davlat moliya axborot tizimi amal qilmoqda. Unda byudjetni tayyorlash, ijro qilish, yig'ilgan tushumlarning ro'yxatga olish va ularning hisob-kitobi amalga oshiriladi. Integrallangan moliya tizimining mavjudligi davlat resurslar bo'yicha jamlama ma'lumotlarni tezkor olishga imkon beradi.

Yaponiyada davlat moliyasini boshqarish tor ixtisosga ega bo'lgan bo'linmalarga yuklatilgan. G'aznachilik bo'limi kunlik taqsimoti bilan moliyaviy rejani tuzadi. Byudjet ijrosi bo'limi bilan birgalikda Yaponiya bankidagi davlat hisobraqami bo'yicha tushumlarni nazorat qiladi. Barcha davlat mablag'lari Yaponiya bankidagi jamlama hisobraqamida yig'iladi. Mablag'larning sarflanishi Byudjet ijrosi bo'limi tomonidan tasdiqlangan to'lovlar grafigi asosida amalga oshiriladi. Yaponiyada ikkita asosiy axborot tizimi mavjud. Ular byudjetni tayyorlash, byudjet hujjatlarini e'lon qilish, byudjetni ijro etish va buxgalteriya hisob-kitobini olib borish uchun ishlatiladi. Jamlama ma'lumotlarni tayyorlash muddatlari hisobotning murakkabligiga bog'liq. Kassa jarayonlari bo'yicha jamlama ma'lumot har kuni tayyorlanadi.

Rivojlangan mamlakatlarning davlat moliyaviy tuzilmasini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, odatda, milliy g'aznachilik, moliyaviy boshqarishda faol rol o'ynaydi. Shu bilan birga, G'aznachilik funksiyalari turli mamlakatlarda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. G'aznachilik organlarning ichki tuzilmasi ham jiddiy farqlarga ega. Bu holat tarixiy sabablar bilan hamda mamlakatlarning obyektiv xususiyatlari bilan izohlanadi.

7.3. AQSH va Rossiya Federatsiyasida g'aznachilik tizimi faoliyati

AQSH Senat Kongressining qaroriga muvofiq, g'aznachilik moliyani boshqaruvchi doimiy organ hisoblanadi. Uning barcha vazifalarini quyidagi organlar bajaradi. G'aznachilik sekretarlari - bosh idora, kontroler, auditor, g'aznachilik inspektori va g'aznachilik sekretariat yordamchisi. G'aznachilik sekretari lavozimiga birinchi bo'lib A.Gaminton tayinlangan bo'lib, u 1789 yil 11 sentyabrdan 1795 yilgacha ushbu vazifani bajardi. O'n yillar mobaynida g'aznachilik funksiyasi kengaytirib va murakkablashib bordi. Bugungi kunda G'aznachilik AQSHda hisob siyosati, pul belgilarini yaratish, iqtisodiy

siyosat loyihalarini ishlab chiquvchi yagona muassasasidir. AQSHda g'aznachilik uchta asosiy funksiyani bajaradi:

1. Mamlakat Prezidentining ichki va tashqi moliya siyosatini ishlab chiqish, soliq siyosatini yuritish va davlat qarzlarini boshqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy maslahatchisidir.

2. G'aznachilik davlatga moliya xizmati ko'rsatish bo'yicha funksiyalarni bajaradi:

- davlat pul mablag'larini hisobga olish;
- omonat obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish;
- soliq to'lovlari va bojxona bojlarini yig'ish;
- milliy banklar faoliyatini nazorat qilish;
- tangalar zarb qilish, qog'oz pullar va pochta markalari chiqarish.

3. Qonunni ijro etuvchi tashkilotchisi sifatida g'aznachilik Prezident, Vitse prezident ularning oilasi, ushbu lavozimga nomzodlar xavfsizligini ta'minlaydi. U firibgarlar, kontrabandist, butlegerlar, davlat chek va qimmatbaho qog'ozlarini qalbakilashtirgan shaxslarni qidirish, jazolash, o'q otar qurollar savdosini nazorat qilish va qonun nazorati bo'yicha kadrlar tayyorlovchi 60dan ortiq federal tashkilotlarni nazorat qiladi. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda g'aznachilik AQSH hukumatining tashqi aloqalar bo'yicha vakilidir. AQSH tomonidan XVF, XTTB, Amerika taraqqiyot bankining boshqaruvchisidir. Shuningdek AQSH G'aznachiligi ko'p sonli qo'mita va uyushma, sug'urta fondining a'zosisidir.

G'aznachilik milliy omonat muassasalari faoliyatini nazorat qiladi, ularga litsenziyalar beradi va omonat xolding kompaniyalarini faoliyatini nazorat qiladi. Xolding – aksiyadorlik kompaniyasi hisoblanadi, o'z mablag'ini boshqa kompaniyalar nazorat paketini sotib olishga sarflaydi va ularni nazorat qiladi.

G'aznachilik Kongressga mamlakatning moliyaviy holati bo'yicha yillik hisobot tayyorlaydi va taqdim etadi. G'aznachilik tomonidan doimiy nashr etiladigan hisobotlar g'aznachilikning kunlik hisoboti, AQSHning ichki qarzi bo'yicha oylik hisobot, AQSHning daromad va

xarajatlari bo'yicha oylik hisobot va muomaladagi pul mablag'lari bo'yicha oylik hisobotni o'z ichiga oladi. Shuningdek g'aznachilik oylik byudjetni ham chop etadi. Oylik byudjetda quyidagi ma'lumotlar beriladi:

- ✓ Federal hukumatning moliyaviy operatsiyalari;
- ✓ Federal hukumatning pul majburiyatlari;
- ✓ G'aznachilik hisobvarag'idagi federal va qarz mablag'lari statistikasi;

- ✓ davlat qarzlari moliyalashtirish;
- ✓ davlat omonat obligatsiyalari;
- ✓ davlat qimmatli qog'ozlarning bozor kotirovkasi;
- ✓ davlat qimmatli qog'ozlarning egalik tarkibi;
- ✓ tijorat banklardagi g'aznachilik mulki tarkibi;
- ✓ uzoq muddatli obligatsiyalarining daromadlilik darajasi;
- ✓ xalqaro moliyaviy statistika;
- ✓ kapital harakatlar statistikasi.
- ✓ valyuta rezervlari;
- ✓ davlat agentliklari va fondlarining moliyaviy operatsiyalari.

AQSH g'aznachiligi funksiyalari quyidagilardan iborat. G'aznachilik Nyu-Yorkdagi Federal jamg'arma bankidagi o'zining yagona hisobraqami bo'yicha barcha tushumlarni va to'lovlarni nazorat qiladi hamda hukumatning bankdagi hisobraqamlarini nazorat qiladi. G'aznachilik tushumlarni yig'ish uchun bank tizimidan foydalanadi. G'aznachilik 4-6 oyga, kunlik taqsimoti bilan, o'zgaruvchan moliyaviy grafikni tayyorlaydi va uni har oyda yangilaydi.

AQSH g'aznachiligi:

- davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarishni nazorat qiladi va hajmi, muddatlari va auksionlarda joylashtirish bilan bog'liq masalalarni hal qiladi.
- qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori uchun tartib-qoidalarni belgilaydi;

- barcha soliq va bojxona bojlarini yigʻadi va ayrim muassasalar uchun foydalanganlik va xizmatlar uchun toʻlovlarni markazlashgan tarzda yigʻishni taʼminlaydi.

- xarajatlarga byudjet birligi talabnomasi boʻyicha byudjet ajratmalari doirasida amalga oshiriladi. Ajratmalar tuzilmasi gʻaznachilik va Maʼmuriy - byudjet boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi;

- buxgalteriya hisob-kitobida tashkilotlarga yoʻriqnomalarni tayyorlash, ularning talabnomalarini olish, har oylik hisobotlarni va yillik moliyaviy qaydnomalarni tayyorlash uchun javob beradi.

Dunyoing rivojlangan kapitalistik davlati-AQSHda davlat byudjetini tayyorlash va ijrosini tashkil etilishiga mamlakat Prezidentining Maʼmuriyatiga kiruvchi Byudjet Boshqaruvi Idorasi (**Office of Management and Budget**) (**BBI**) javob beradi. AQSH Kongressi tomonidan ajratmalar xarajatlari haqidagi qarorlar Prezident maʼmuriyatidagi tarmoqlar departamentlari orqali nazorat qilinadi.

Quyidagi rasmda byudjetning qarzga olingan pul oqimlari koʻrsatilgan. U shaxodatlangan \$78.1 mlrd pul mablagʻlari oqimlarini gʻaznachilikka, dasturlar hisobraqamiga, moliyalashtirish hisobraqamiga, qarz va xususiy qarz beruvchilar oʻrtasida taqsimlangan. Bu zayomlar ichida hisoblangan subsidiyalar xarajatlari \$2.9mlrdni tashkil qilgan. Bu soʻrov moliya yilida dasturlar hisobvaragʻiga kiritilgan va shaxodatlangan qarzlarni boʻyicha majburiyatlar tasdiqlanganda moliyalashtirish hisobvaragʻiga oʻtkazilgan. Shu moliyaviy yilda \$1.5 milliardni xususiy kreditorlarning majburiyatlari boʻyicha hisob toʻlovlariga oʻtkazilgan. Dastur hisobraqamlaridan subsidiyalangan ajratmalardan tashqari qarz beruvchilardan xizmatlari (komission toʻlov) uchun ham (\$2.2mlrd) olingan u rezervda saqlangan va Gʻaznachilik tomonidan foizlar (\$0.1mlrd) oʻtkazilgan. Rezervlar xususiy kreditorlarning toʻlovlariga defolt vaqtida toʻlanmagan) holatida (\$0.4 mlrd) foydalanilgan (5-ilova).

Nodavlat moliyaviy nazorati ichki (byudjet tashkiloti, gʻaznachilik, firma, korporativ) va tashqi (auditorlik) nazoratlariga boʻlinadi. Nazoratning davlat va nodavlat turlari oʻtkazish usullariga koʻra

o'xshash bo'lishi bilan birgalikda oxirgi maqsadlari bo'yicha bir biridan keskin farq qiladi. Nodavlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadi esa – xo'jalik subyektlari tomonidan davlat hisobiga soliqlar va boshqa iqtisodiy agentlarga qilinadigan xarajatlarni minimallashtirish hisobiga qo'yilgan kapitallar hisobiga foyda normasini oshirish hisoblanadi.

AQSH g'aznachiligi (Treasure Department) hamma davlat tushumlari va to'lovlar tizimi ustidan nazoratni amalga oshiradi. G'aznachilik tarkibiga Soliq boshqaruvi va Bojxona boshqaruvi kiradi. Shu bo'linmalar orqali G'aznachilik, hamma soliq va bojxona yig'imlari va davlat bojlari hamda ayrim muassasalar xizmatlari evaziga tushumlarni yig'ib oladi. G'aznachilikning bosh hisobraqami Federal rezerv tizimida (AQSH Markaziy bankida) yuritiladi. Shu bilan birga g'aznachilik hukumat hisobraqamini nazorat qiladi. Daromadlar va tushumlar yig'imi bank tizimi orqali amalga oshiriladi.

Davlat mablag'lari xarajatini hisobi va auditini Bosh Nazoratchi boshchiligidagi Bosh Hisob Boshqarmasi (BHB) (**General Accounting Office**) ta'minlaydi. Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari va bashorati Internet tizimida AQSH g'aznachiligining saytida chop etiladi. Chop etilgan ma'lumotlarning maxsus bo'limi kassa operatsiyalari va majburiyatlarni bajarish operatsiyalariga bag'ishlangan. Kongressning taqdimotiga va Prezident tasdiqlagan ajratmalarga asoslangan ravishda byudjet mablag'larini oluvchilar G'aznachilikka rasmiy talabnoma taqdim qilishadi. G'aznachilik departamentlarga ajratilgan ulushni Byudjet Boshqaruvi Idorasi bilan birgalikda nazorat qiladi. Shu bilan birga, BBI departamentlar xarajatlari tarkibiga umumiy holda javob beradi.

AQSH davlat moliyasi boshqarmasining qatnashchilari⁷⁷

	Byudjet ijrosi va hisoboti	Auditor bahosi	Moliya boshqaruvi tizimi
Kongress	Qo'shimcha, muddati uzaytirilgan, bekor qilingan xarajatlar va qayta dasturlangan xarajatlar to'g'risidagi qonun. Dasturlar monitoringi	Moliyaviy hisobotlarga so'ralganlarni aniqlash. Nazorat o'tkazilishi. GUBU (rus) va boshqalarda audit va ko'rib chiqishlar talabnomasi	Ajratilgan vositalarga hisobot tarkibini tuzish. Moliya va boshqaruv vositalari to'g'risidagi qonunni qabul qilish
Byudjet Boshqarmasi Idorasi (BBI)	Byudjet vakolatini taqsimlash. Muddati uzaytirilgan va bekor qilinganlar bo'yicha takliflar tayyorlash. Taklif qilingan qo'shimcha xarajatlarni qayta ishlash. Agentlik faoliyati natijalarini kuzatish. Hisobotlarni kamchiliklarini qayta ishlash. Xarajatlar istiqbolini hisoblash	Byudjet inspektorlari tomonidan nazorat. Agentlikning baholanishi	Agentlikning ma'muriy vositalar nazorati nizomining tasdiqlanishi. Moliyaviy menejmentning xarid bo'yicha joriy muammolari aylanishini ishlab chiqish
Departamentlar Agentliklar	Byudjet ijrosi. Ijro monitoringi. Markaziy agentlikning hisoboti. Markaziy agentliklarga hisobotlar. Kundalik operatsiyalar boshqaruvi	Ichki audit va baholashni o'tkazilishi. Ijro organlari va Kongress talabnomalariga javoblar tayyorlash	Moliyaviy boshqaruv tizimini ishlab chiqish va joriy qilish. Ichki va tashqi maqsadlar uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlash

⁷⁷ Allen Schick, Robert Keith, Edward Davis. Manual on the Federal Budget Process. CRS Report for the Congress. 1991. P. 172.

<p>G'aznachilik</p>	<p>Hukumat bankiri. Kassa ijrosi va majburiyatlarini boshqarish. Mablag'lar boshqaruvini amalga oshirish. Agentlikning xarajatlarini ularning xarajat huquqlari bilan taqqoslash</p>	<p>O'tkazmaslik</p>	<p>Umumdavlat hisob tizimini qo'llab quvatlash. Umumdavlat moliyaviy hisobotini tayyorlash</p>
<p>BHB</p>	<p>Hisobot Mablag'lar xarajatlarini ushlab qolinishi va bu haqida hisobot berish. Davolar o'tkazilishini muvofiq lashtirish</p>	<p>Federal programmalarni va operatsiyalarni ko'rinishi. Davlat korporatsiyalarining moliyaviy hisoboti auditi va Kongressning ishga doir faolligi auditi</p>	<p>Hisob tamoyillari va standartlari farmoyishi. Agentlikning uchyot sistemasini tasdiqlanishi. Federal fiskal, byudjet programmalariga tegishi bo'lgan standartlar ishlovining sharoiti</p>

Rasmiy to'lov talabnomalari va to'lov hujjatlariga asosan g'azna taqdim qilingan talabnomalarni to'lab beradi. Odatda to'lov vositalari sifatida cheklar ishlatiladi. Lekin oxirgi yillarda ularning o'rmini elektron to'lovlar egallamoqda. Quyidagi jadvalda AQSH davlat moliya boshqarmasi tizimi byudjet jarayoni qatnashchilari javobgarligi va majburiyatlari ko'rsatilgan. AQSHda davlat byudjeti ijrosi G'aznachilik va Byudjet Boshqaruvi Idorasi bilan izchil hamkorlikga asoslangan holda amalga oshiriladi. Byudjet Boshqarmasi Idorasi hisobot yilidagi Byudjet ijrosi qonuniga asosan Prezident ma'muriyatining turli departamentlararo xarajatlar smetasi, shuningdek xarajatlar hisobi taqsimlanishini amalga oshiradi. G'aznachilik makroiqtisodiy holat istiqbollarinig belgilanganligiga asosan, davlat g'aznachiligiga daromadlar tushumining hisobini ta'minlaydi. G'aznachilik xarajatlar oqimini hamda daromad tushumlari oqimini ta'minlaydi. Shu maqsadda G'aznachilik Departamenti va tarmoqlar departamentlari orasida doimiy maslahatlar olib boriladi. Tushumlar bilan belgilangan xarajatlar qoplanmagan taqdirda AQSH G'aznachiligi, unga berilgan vakolatdan foydalanib, yangi qarz majburiyatlarini chiqarishni va hisobini tashkil etadi.

1) Kongress, BBI, G'aznachilik Departamenti, va BHB xarajatlar siyosati uchun umumdavlat oldida javobgardir. Shuningdek agentlik o'zining moliyaviy resurslarini boshqaruvida ham javobgar hisoblanadi;

2) Kongress Federal dasturlari nazoratini olib boradi va tez-tez BHBB va boshqalardan baholashni talab qiladi;

3) BBI agentliklararo mablag'larni taqsimlaydi, xarajatlar va faoliyat natijalarini kuzatadi. Moliyaviy menejment bo'yicha turli xil yo'riqnomalarni chiqaradi. Agentliklar xarajatlar rejalarini ishlab chiqadi va o'zlarinig resurslarini boshqaradi. Ular o'zlarinig moliyaviy operatsiyalari bo'yicha hisobotlar tayyorlaydilar va ichki nazorat tizimini me'yorda saqlaydilar;

4) Agentliklar o'zlarinig xarajatlari yuzasidan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisobot tayyorlab, ichki nazorat tizimini me'yorida saqlaydilar;

5) G'aznachilik Departamenti markaziy ajratmalar va schyot fondlari bilan shug'ullanib, majburiyatlari va mavjudligi boshqaruviga javob beradi;

6) BHB federal dasturlarga baho beradi va davlat korporatsiyalari moliyaviy hisoboti auditi o'tkazilib, standart va buxgalteriya hisobi tamoyillari va standartlarini o'rnatilib, agentlikning buxgalteriya hisobi sistemasini tasdiqlab beradi. Davlat xarajatlari mablag'larini hisobi va auditi Bosh Nazoratchi boshchiligida ta'minlash Bosh Hisob Boshqarmasi ta'minlaydi.

G'aznachilik qimmatli qog'ozlarning (T-Bills-g'aznachilik majburiyatlari) chiqarilishi va aylanishini to'liq nazoratini ta'minlaydi. Bu yerda davlat majburiyatlari qaysi muddatda chiqarilish hajmi kabi savollar ko'rib chiqiladi. Davlatning uzoq muddatli majburiyatlarini samarali tashkillashtirish, g'aznachilik qimmatli qog'ozlarini ikkilamchi bozorida o'rnatishga yordam beradi.

AQSH Federal hukumati pul mablag'larining barcha kassa oqimlarini G'aznachilikning AQSH Federal Rezerv tizimida ochilgan hisobidan o'tadi. Uning vazifasiga G'aznachilikning hisobini olib borish va elektron to'lov tizimi orqali to'lovlarni o'tkazishni ta'minlash kiradi. Dunyodagi boshqa mamlakatlarning Markaziy banklaridek, Federal rezerv tizimi monetar siyosatni va bank faoliyatini boshqarishni amalga oshiradi hamda iqtisodiy statistikani olib boradi.

Rossiyada XV asrda g'azna palatalari deb nomlangan guberniya organlari tashkil qilingan bo'lib, 1775 yil 7 noyabrda amalga oshirilgan imperator Yekaterina II farmoni Butun Rossiya imperiyasini guberniyalarini boshqaruvchi tashkilot bilan g'azna palatalari tashkil etildi. G'azna palatasi to'g'risidagi farmonda ko'rsatilganidek, ularga barcha xazina vositalari, pullar, gerbli qog'ozlar, pasportlar, g'azna do'konlaridan tuz va vino, bojxona va boshqalar kiritildi. G'azna daromadlarini o'ziga yig'ish, sarflash huquqiga ega emas, barcha tillalarni saqlashni tartibga solingan holda kirim-chiqim kitobini yuritishlari kerak. Guberniya g'aznachiligi va ularga bo'ysinuvchi uezd g'aznachiligi kirim, pul mablag'larini saqlash va tarqatish bilan

shug'ullangan. Barcha g'azna daromadlari boshqarmaning qaysi bo'linmasida va qaysi manbadan kelib tushishidan qat'iy nazar g'aznachilikka tegishlidir, har qanday ortiqcha sarf -xarajat ruxsatsiz amalga oshirilmasligi kerak.

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi:

- federal byudjetning yagona hisobraqamidagi jarayonlarni boshqaradi;

- Federal byudjet mablag'larini bashoratlaydi va kassa rejalarini tuzadi;

- Federal byudjet mablag'lari bosh boshqaruvchilari, boshqaruvchilari va federal byudjetdan mablag' oluvchilarning jamlama reyestrlarini olib boradi;

- Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga asosan, byudjet tizimidagi byudjetlar o'rtasida federal soliqlar va yig'imlar to'langanidan tushgan mablag'lar taqsimotini amalga oshiradi;

- Rossiya Federatsiyasi Federal byudjetining ijrosi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni va hisobotlarni tuzadi va Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

1821 yilda Moliya vazirligi tarkibida davlat G'aznachilik Departamenti tashkil etildi va bu departament 1918 yil 1 noyabrgacha amal qilib keldi. Shu tarzda g'aznachilik va markaziy emissiya organlari funksiyalari aralastirib yuborildi. Bozor munosabatlarini rivojlantirishning zamonaviy Rossiya iqtisodiyotida markazlashtirish va ko'p sonli tijorat banklarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu davrda Rossiya banki pul-kredit munosabatlarini kuchaytirishga ko'proq e'tiborga qaratdi va byudjet tizimi bo'g'inlarida byudjet ijrosi masalalari e'tibordan chetda qolib ketdi. Natijada byudjet mablag'larining bank hisobi susayib ketdi, tijorat banklari esa byudjet mablag'lari sarflanishda nazoratdan cheklab qo'yishdi va shuningdek bunday nazorat yo'qligi bilan ham qiziqishmadi.

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi funksiyalari:

- Federal byudjeti ijrosini ta'minlash;

- byudjet tizimidagi byudjetlar ijrosiga kassa xizmatini ko'rsatish;
- Federal byudjet mablag'lari bilan bosh boshqaruvchilari, taqsimotchilari va federal byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan turli operatsiyalar ustidan dastlabki va joriy nazoratni o'rnatish.

Byudjet xarajatlari sohasida barcha byudjet bo'g'inlari mablag'larini moliya organlari hisobraqamlariga taqsimlashdagi tezkor ma'lumotga ega edilar, lekin mablag' oluvchilar va ularni kassa xarajatlari to'g'risida tezkor ma'lumot olish imkoni mavjud emasdi. Shu tarzda ushbu operatsiyalarni samarali nazorat qilinmadi. Byudjet mablag'lari tushumi va sarflanishi ustidan nazoratning susayishi, ularning aniq hisob tizimining mavjud emasligi byudjet intizomining susayishiga olib keldi. Byudjet intizomi – tashkilot, korxon va muassasalar, shuningdek, rahbar va jismoniy shaxslar tomonidan byudjetga to'lanadigan to'lovlarni o'z vaqtida to'lash hamda byudjet mablag'larini belgilangan yo'nalishlarga muvofiq maqsadli sarflashdir. Bundan tashqari byudjet mablag'larining taqchilligi ushbu mablag'larni eng muhim maqsadlar uchun ratsional sarflashga yo'naltirishni talab etadi, lekin mavjud tizim buning ilojini topa olmadi.

Rossiya Federatsiyasi Byudjet Kodekisi byudjetning g'azna ijrosi tizimida moliyaviy nazoratning asosiy shakllari ko'rsatildi (4-ilova).

1. Nazorat – taftish boshqarmalari amalga oshiradigan nazorat. U byudjet mablag'lari oluvchilari, taqsimlovchilari o'rtasida amalga oshiriladi.

2. G'aznachilik amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat – joriy dastlabki va yakuniy nazorat bo'lishi mumkin. Bu nazorat byudjet mablag'lari bosh taqsimlovchilari va mablag' oluvchilar, kredit tashkilotlari va byudjet jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasida amalga oshiriladi.

3. Byudjet mablag'lari bosh taqsimlovchilari tomonidan amalga oshirilib mablag'larning maqsadli sarflanishi, byudjet ijrosi bo'yicha hisobot taqdim etilishi nazorat qilinadi.

4. Moliya organlari amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat bo'lib, mahalliy organlarning mustaqil byudjet mablag'lari sarflash jarayonida

bo'ladi. Byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi quyidagilarda ifodalanadi:

G'aznachilik organlari rahbarlari quyidagi majburlovchi choralar qo'llash huquqiga ega:

– maqsadsiz sarflangan mablag'larni musodara etish, to'lov muddati o'tib ketgan to'lovlarni qaytarib olish:

– to'lov muddati yetib kelgan, qaytarish lozim mablag'larga foiz hisoblash.

– muddati yetib kelgan byudjet mablag'lari uchun peniyalar hisoblash;

– qarzdor shaxslar hisobraqamlarni to'xtatib qo'yish.

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi maxsus davlat moliyasi organi bo'lib, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi va uning ma'muriy hududiy bo'linishi tamoyiliga asosan tuzilgan, yagona markazlashgan tizimdir.

G'aznachilikning tashkil etilishi va joriy etilish eng avvalo byudjet mablag'larini qayta taqsimlash, moliyaviy oqimlarni boshqarishda ko'p organ va tuzilmalar o'rtasida vakolatlar taqsimlanishi bilan bog'liq bir qator kamchiliklarga duch keladi. Mazkur tizim barcha g'aznachilik organlaridan iborat yaxlit organdir. Uning tashkiliy tuzilmasi markazlashgan, ko'p darajalidir. Tashkiliy tizilishi Rossiya Federatsiyasi ma'muriy hududiy bo'linishga mos keladi.

Barcha g'aznachilik organlari yuridik shaxs sifatida ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi. Ular o'z faoliyatini Rossiya Federatsiyasi Prezidenti, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi, Rossiya Federatsiyasi hukumati bilan kelishilgan holda boshqa organlar tasdiqlagan me'yoriy huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi. G'aznachilik organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari tarraqqiyotning zamonaviy bosqichida iqtisodiy munosabatlar rivojlantiriladi.

G'aznachilik organlari nazorat taftish funksiyalariga ko'ra dastlabki, joriy va yakuniy nazoratni olib borishadi. Bu funktsiya byudjet mablag'lari taqsimlovchilari, oluvchilar, banklar, kredit tashkilotlari va boshqa byudjet ijrosi jarayonining ishtirokchilarining

byudjet mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalarda amalga oshadi. Bugungi kunda g'aznachilik texnologiyasi zamonaviy talablarga javob beradi. Shu munosabat bilan g'aznachilik, soliq, bojxona, bank, byudjet mablag'lari taqsimlovchilari va oluvchilari o'rtasida axborot va huquqiy aloqalarni sifatli va yuqori darajada tashkil etish muammolari o'z yechimini topmoqda.

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligining tarkibi va tuzilishi bilan tanishamiz. Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligida yagona markazlashgan g'aznachilik organi tashkil etilgan bo'lib, Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi, 89ta g'aznachilik boshqarmasi va 2311ta g'aznachilik bo'linmalaridan iborat. G'aznachilik tizimi yaxlit g'aznachilik organlari faoliyatini birlashtiradi. G'aznachilik organlarining tashkiliy tuzilmasi markazlashgan, ko'p darajali va iyerarxiya shaklda bo'ladi. Tuzilishi Rossiya Federatsiyasi ma'muriy hududiy bo'linishiga mos keladi. Tashkiliy funksional tuzilmasi 3ta iyerarxiyadan iborat: 1 – daraja – Rossiya Federatsiyasi Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi. 2 – daraja – Moskva, Sankt Peterburg shahar oblastlar, avtonom respublikalar bo'yicha federal g'aznachilik boshqarmalari. 3 – daraja tuman va shahar bo'yicha g'aznachilik bo'linmalari.

Rossiya Federatsiyasi Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi mamlakatning Moliya vazirligi o'rinbosari darajasidagi boshliq bajaradi. Uning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- Federal byudjetning daromad va xarajatlarning jamlanma hisobini yuritish;
- g'aznachilik hisobraqamlarida mablag'lar harakatini boshqarish;
- byudjet ijrosini yuqori ijro etuvchi organlarga va qonunchilik organlarga yetkazish.
- quyi darajadagi g'aznachilik organlarini boshqarish va ulardan Federal byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risida tezkor ma'lumotlar tayyorlash;

- quyi g'aznachilik organlarida mavjud qonunchilikning ijrosini ta'minlash.

Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi respublikalar, oblastlar, o'lkalar, avtonom tuzilmalar, Moskva, Sankt Peterburg shaharlari g'aznachilik boshliqlarini Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi boshlig'i tavsiyasiga ko'ra Moliya vaziri lavozimiga tayinlaydi. Federal g'aznachilik boshqarmalarining asosiy funksiyasi quyi g'aznachilik organlarida daromadlarning bajarilishi va xarajatlarni amalga oshirilishini ta'minlashdir. Federal G'aznachilikning shaharlar, tuman va shahar tumanlari bo'yicha bo'linmalari boshliqlari Federal G'aznachilikning tegishli boshqarma boshliqlari tomonidan tayinlanadi. Ularning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- Federal byudjet daromadlarining tegishli hududda bajarilishini ta'minlash;

- byudjetdan mablag' oluvchilarining maqsadli moliyalashtirishini ta'minlash;

- g'aznachilik hisobvaraqlarida mablag'lar harakati hisobini yuritish;

- yuqori g'aznachilik organlariga Federal byudjet ijrosi bo'yicha tezkor ma'lumot taqdim etish.

Barcha g'aznachilik organlari – yuridik shaxs sifatida ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi va RF prezidenti RF hukumati, Moliya vazirligi tasdiqlagan me'yoriy-huquqiy asosida faoliyat yuritadi. Boshqa har qanday vazirlik va idora hujjatlari Federal byudjet ijrosi bo'yicha taalluqli bo'lmaydi va g'aznachilik organlari boshqaruviga aloqador bo'lmaydi. Shu tarzda g'aznachilik organlari faqat federal byudjet ijrosi bo'yicha qabul qilingan hujjatlar asosida faoliyat olib boradi va o'zlariga tegishli bo'lmagan hujjatlar asosida qaror qabul qilish huquqiga ega emas. G'aznachilikka o'tishda Federal byudjet ijrosi bilan bog'liq quyidagi muammolarni yechimini topish bilan o'zini oqlaydi:

- Federal byudjet mablagʻlari yagona davlat organi hisobvaraqa-sida toʻplanadi;
- Rossiya Federatsiyasi byudjeti daromadlarining daromadlar tasnifi boʻyicha tushumi haqida tezkor axborot toʻplash imkoni yaratiladi;
- tezkor nazorat oʻrnatish byudjet mablagʻlari sarflanishi va ularning maqsadsizligi eng kam darajaga keltiriladi;
- Federal ijrosi boʻyicha tezkor maʼlumotning mavjudligi xarajatlarning moliyalashtirilishi, kassa xarajatlarining byudjet hisobvaraqlari qoldigʻining xarajatlar tasnifi boʻyicha aniqligi oshadi.

7.4. Xorijiy tajribalar asosida gʻaznachilik tizimini takomillashtirish yoʻnalishlari

Milliy gʻaznachilik tizimining asosiy vazifalaridan biri davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishdir. Jahon tajribasi shuni koʻrsatadiki, davlat moliyasi tarkibiga kiruvchi, “gʻaznachilik” deb ataluvchi organ oʻziga yuklatilgan funksiyadan kelib chiqib, turli majburiyatlarni bajaradi. Gʻaznachilikning tuzilishi va vazifalari mamlakatning tarixiy va madaniy urf-odatlaridan, shuningdek, iqtisodiy holatidan kelib chiqib belgilanadi.

Gʻaznachilik ayrim mamlakatlarda passiv ahamiyatga ega. U faqat tasdiqlangan byudjet mablagʻlarini ajratish bilan shugʻullansa, majburiyatlar limitini belgilash va xarajatlar toʻlovini amalga oshirsa yoki oldindan belgilangan mezonlar asosida alohida xarajatlarni ishlab chiqishga ruxsat bersagina, faol ahamiyatga ega. Gʻaznachilik davlat qarzlarini boshqarishning turli darajalarida ishtirok etadi va nihoyat, hisob funksiyasi bajarilishiga ham javob berishi mumkin. Davlat moliyasini boshqarishning va gʻaznachilik tashkiliy tuzilishining yagona modeli mavjud emas, gʻaznachilikning boʻlimlari, boshqarmalari va aniq funksiyalari turli mamlakatlarda farqlanadi. Gʻaznachilik funksiyasi vaqt oʻtishi bilan oʻzgarishi mumkin. Uning tashkiliy tuzilishi agarda AQSHda Moliya vazirligi Departamenti,

Fransiyada Moliya vazirligi Boshqarmasi, Angliyada mustaqil mahkama, Avstraliyada esa vazirlik darajasida ko‘rinishiga ega.

Berilgan jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, qayd etilgan mamlakatlarning barchasida to‘lovlar nazorati g‘aznachilikning yagona hisobraqami orqali amalga oshiriladi. Bu hisobraqamning aniq ko‘rinishi turli mamlakatlarda turlichadir. Yuqorida qayd etilgan mamlakatlarning qariyb barchasida g‘aznachilik amalga oshirilgan xarajatlari nazoratini markaziy bankda ochilgan yagona hisobraqami orqali, ya‘ni bosh kitobi tizimi orqali nazorat qiladi. Bu mamlakatlarda davlat to‘lovlari 7.4-jadvalda aks ettirilgan tartibda amalga oshiriladi.

7.4-jadval

**Rivojlangan mamlakatlarning davlat to‘lovlari pi
amalga oshirish uslubiyati⁷⁸**

Mamlakatlar	Tavsiflar
Avstraliya	Moliya vazirligi to‘lovlarni cheklar chiqarish yoki mablag‘larni g‘aznachilikning yagona hisobraqami (G‘YaH) - Avstraliya uyushmasining davlat hisobraqamidan chiqarish orqali amalga oshiradi.
Fransiya	Moliya vazirligining davlat hisob xizmati hududiy kassa boshqarmalariga to‘lovlarni chek chiqarish yoki pul mablag‘larini G‘YaHdan ko‘chirish orqali amalga oshiradi.
Germaniya	Xuddi Fransiya amaliyotiga o‘xshaydi, lekin mablag‘larni o‘tkazish elektron shaklda amalga oshiriladi.
Yaponiya	Tarmoq vazirliklarining nazoratchilari to‘lovlarni cheklar yoki Yaponiya bankida ochilgan G‘YaHdan ko‘chirish orqali amalga oshiradi.
Angliya	Tarmoq vazirliklari to‘lovlarni cheklar yoki G‘YaHdan ko‘chirish orqali (Angliya bankidagi bosh g‘azna hisobraqami orqali) amalga oshiradi.
AQSH	AQSH G‘aznachiligi to‘lovlarni cheklar chiqarish yoki mablag‘larni G‘YaH - Nyu-York Federal zaxira bankining g‘azna hisobraqami orqali amalga oshiradi.

⁷⁸ Eshnazarov T. G‘aznachilikning yagona hisobvaragi: nazariya va amaliyot \ Moliya. 2009 yil. 1-son. 41 bet.

Yuqorida keltirilgan mamlakatlar G'aznachilik Yagona hisobraqami tuzilishi jadvalda keltirilgan.

Berilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Fransiya va Germaniyada G'aznachilik Yagona hisobraqami hududiy kassa boshqarmalari hisobraqamini o'z ichiga oladi, Yaponiya G'aznachilik Yagona hisobraqami Yaponiya bankining hisobraqamini qamrab oladi. Angliyada tarmoq vazirliklari G'aznachilik Yagona hisobraqami mablag'dan to'la hajmda foydalana oladi, ammo jamlanma daromad fondidan bu hisobraqamlarga mablag'larni ko'chirish, jamlanma har kunlik balans va ularning hisobi g'aznachilik nazorati ostida bo'ladi.

Angliyada AQSH kabi soliq-byudjet sohasidagi asosiy javobgarlik to'g'ridan to'g'ri g'aznachilikka yuklatilgan. Germaniyadan tashqari boshqa barcha mamlakatlarda byudjet muassasalari o'z hisobini yuritadi, ammo ularning tizimi to'liq markaziy hisob tizimiga birlashtirilgan, bu tizim Moliya vazirligi tomonidan boshqariladi. Mamlakatda Moliya vazirligi barcha byudjet muassasalariga hisob yuritish borasida to'liq xizmat ko'rsatadi. Bu xizmat to'lovlarni amalga oshirishning barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. Yaponiya banki hukumat uchun paralel ravishda byudjet-soliq sohasidagi barcha hisob-kitoblarni yuritadi, shuningdek, Moliya vazirligi umumiy buxgalteriya hisobi va hisobotini boshqarish va tartibga solish bo'yicha javobgar. Bu borada Yaponiya dunyoda yagona davlat hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan mamlakatlar g'aznachiligining institutsional asoslarini o'rganishda qanday byudjet masalalariga javob berishini va byudjet ijrosini kim nazorat qilishini aniqlab olishimiz lozim. Bu borada Angliyaning amaldagi modeli e'tiborni tortadi. Mamlakatda g'aznachilik byudjet masalalarining barcha jihatlariga javob beradi, kadrlar masalalari bilan shug'ullanadi, byudjet ijrosi bo'yicha nazoratni tashkil etish, shuningdek, mavjud resurslar boshqaruvi jarayonini ham o'z ichiga oladi.

**Rivojlangan mamlakatlar G‘aznachilik
yagona hisobraqami tuzilishi⁷⁹**

Mamlakatlar	G‘aznachilik yagona hisobraqami tuzilishi
Avstraliya	Yagona hisobraqam
Fransiya	Yagona hisobraqam, hududiy hisobraqam
Germaniya	Yagona hisobraqam, hududiy hisobraqam
Yaponiya	Yagona hisobraqam. U bir vaqtning o‘zida davlat boshqaruvi organlari bilan bog‘liq bo‘lgan moliya muassasalariga xizmat ko‘rsatadi
Angliya	Yagona hisobraqam
AQSH	Yagona hisobraqam, tijorat banklaridagi g‘aznachilik, soliq va ssuda hisobraqamlari

Tadqiqot jarayonida o‘rganilgan davlatlarning barchasida moliyaviy aktivlarni boshqarish siyosati tarmoq departamentlari, boshqarmalari va vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur davlatlarda byudjet ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi:

- soliqlar va boshqa tushumlarni yig‘ishni;
- bank bilan o‘zaro aloqani (tushumlarni bank orqali yig‘ishda);
- daromad tushumlari nazoratini;
- turli darajadagi davlat boshqaruv organlari o‘rtasida tushumlarni taqsimlashini.

AQSH va Avstraliyada davlat byudjeti daromadi ijrosida g‘aznachilik faol rol o‘ynaydi. U o‘zining soliq va bojxona boshqarmalari orqali bank tizimi bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, barcha soliq va bojxona bojlarni yig‘ishga javob beradi.

G‘aznachilik Avstraliyada soliq boshqarmasi soliqlar to‘lovlari bo‘yicha tushumlarni ta‘minlaydi. Angliya va Fransiya g‘aznachilik

⁷⁹ Eshnazarov T. G‘aznachilikning yagona hisobvaragi: nazariya va amaliyot \ Moliya. 2009. 1-son. 43 bet.

soliqlar va bojxona to'lovlarini yig'ishda ishtirok etmaydi. U faqatgina jamlanma fondga va g'aznachilikning yagona hisobraqamiga kelib tushgan jami tushumlarni kuzatadi.

Byudjetning xarajat bo'yicha ijrosida AQSH, Avstraliya va Angliya g'aznachiligi passiv rol o'ynaydi. Bunda byudjet assignovaniyalari doirasida to'lovlarni va nazoratni tarmoq departamentlari amalga oshiradi. Fransiyada byudjetning xarajat qismi bo'yicha nazoratni Byudjet direktorati olib boradi. Fikrimizcha, byudjetning joriy holatida, agar xarajatlar xuddi majburiyatlar va to'lov topshiriqnomalarini qabul qilish, to'lovlarni amalga oshirish bosqichlaridagidek qattiq nazorat qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

G'aznachilikni struktura sifatida byudjet ijrosi bilan bog'liq holda ko'rib chiqishda quyidagilarni ta'kidlash kerak: g'aznachilik byudjet ijrosi bilan bog'liq masalalarga to'g'ridan to'g'ri aralashmaydi, u faqatgina byudjet muassasalariga dasturlarni amalga oshirish uchun mablag' ajratadi yoki byudjet ijrosi jarayonida ancha faol ishtirok etishi mumkin. Masalan, u majburiyatlar chegaralarini o'rnatishga va xarajatlar to'lovini yoki oldindan belgilangan mezon asosida aniq xarajatlarni ishlab chiqishga ruxsat berish huquqiga ega.

G'aznachilikka moliyaviy boshqaruv bo'yicha asosiy majburiyatlar yuklatilgan. Mablag'larni boshqarish uning muhim va asosiy faoliyati hisoblanadi. U hukumatning hisobraqamiga barcha tushumlar va to'lovlarni shuningdek, tushumlarni yig'ish jarayonidagi operatsion faoliyatni va to'lovlarni amalga oshirish jarayoni nazoratini ta'minlaydi. AQSH va Angliyada g'aznachilik buxgalteriya hisobi metodikasini o'rnatadi, umumiy hisob, muassasalarga yo'riqnoma, oylik va yillik moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javob beradi. Ko'rib chiqilgan davlatlarning barchasida g'aznachilik ichki nazorat va audit bilan shug'ullanadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqalar) g'aznachilik tizimi tahlili shuni ko'rsatadiki, G'YaHni Markaziy bankda ochish g'aznachilikni tashkil etishning asosiy talablaridan biridir. Milliy bankda G'YaHidan foydalanish

davlatning bo'sh turgan mablag'larini bir joyga yig'ish, ulardan samarali foydalanish, naqd pul oqimlarini boshqarish va kassa to'lovlarini vaqtida hech qanday majburiyatlar jalb qilmasdan amalga oshirish imkonini beradi.

Rossiyada Rossiya Federatsiyasi Prezidenti tomonidan 2008 yildan boshlab "Axborotlashgan Jamiyatni rivojlantirish Strategiyasi" joriy etilmoqda. Mazkur strategiyaning maqsadi Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy madaniy va diniy jihatdan jamiyatini rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, davlat boshqaruv tizimi zamonaviy axborot va telkommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali takomillashtirishdir.

Kanadada "Elektron hukumat" asosiy vazifasi xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish va byudjet mablag'laridan foydalanishda samaradorlikka erishishdan iborat. Shuning uchun bu borada taraqqiy etgan mamlakatlar, jumladan, Kanadada joriy etilgan "Elektron hukumat" axborot tizimini o'rganish muhimdir. O'zbekiston uchun Kanadaning "Elektron hukumat" tajribasini o'rganishning ahamiyati katta. "Elektron hukumat"ni tuzish uchun Kanada hukumati tomonidan 2000–2006 yillarda 34ta vazirlik va idoralar qamrab olingan. Dasturining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- fuqarolarga 130dan ortiq hukumat xizmatlarini elektron ko'rinishda taqdim etishi;
- foydalanuvchilarga elektron xizmatlarga cheksiz foydalanish imkoni berish;
- xizmatchilarni tezkor yetkazish va o'tkazuvchi loyihalarni ishlab chiqish;
- shaxsiy ma'lumotlarni va axborotlarni himoyalash infrastrukturasi yaratish;
- "Elektron hukumat" faoliyati uchun standart va me'yoriy cheklovlar ishlab chiqish.

Kanadada 2003 yil sentyabrdan mazkur dasturni boshqarish ishlarini G'aznachilik Soveti va Hukumat xizmatlari va jamoatchilik ishlari vazirligi bajardi. 2001 yil sentyabrdan dasturni boshqarish

uchun G'aznachilik Soveti boshchiligida maslahatlar guruhi jalb etildi, uning tarkibiga Kanada iqtisodiyotining turli sohalaridan vakillar kiritildi.

Dasturni boshqarishining asosiy e'tibori, uni amalga oshirish rejasi va amalga oshirish jarayonini monitoring qilishdir. 2003 yilga qadar bu va axborot texnologiyalari boshqarmasi amalga oshirgan bo'lsa, keyinchalik hukumat xizmatlari vazirligiga o'tdi. Ular "Elektron hukumat"ning aniq bir tashkilotda amalga oshirilishiga javobgardirlar.

Hozirgi paytda devonxona asosiy e'tiborni olti yil davomida to'plangan tajribalarni targ'ib etish yakuniy natijaga yo'naltirilgan tadbiq etish vositalarini topishga qaratmoqda, davlat sektorida axborot va axborot texnologiyalarini boshqarish masalalari bo'yicha vakolatni kengash va davlat sektori xizmatlarini tashkil etish masalalari bo'yicha kengashdan iborat. Dasturning samaradorligini baholash uchun 11 turdagi ko'rsatkichlar ishlab chiqildi, bu ko'rsatkichlar uch asosiy yo'nalishga bo'lingan: axborot sifati; elektron xizmat sifati; elektron aloqa sifati. Rossiya Federatsiyasida 2007 yil 6 martda "Federal g'aznachilik va uning hududiy organlari axborotlariga ruxsat berilishini ta'minlash haqida"gi Federal g'aznachilik buyrug'i bilan federal g'aznachilik faoliyatiga doir axborotlarga fuqarolar va tashkilotlarning kirishi umumiy talablar asosida o'rnatilgan.

7.6-jadval

"Elektron hukumat" dasturini baholash ko'rsatkichlari⁸⁰

Axborot	Xizmat	Yetkazib berish
Qulaylik	Zaruriy xizmatning mavjudligi	Himoyalanganlik
Ochiqlilik		Samaradorlilik
Ishonchlilik	Foydalilik va qulaylilik	Innovatsiyaviyligi

Kanada tajribasi asosida Federal G'aznachilik fuqarolarga hujjatlarning skaner tasvir texnologiyasi asosida xizmat qiladi. Bu

⁸⁰ Qo'chqorov T., Xaydarov M. Davlat byudjeti g'azna ijrosining axborot tizimi. T.: Iqtisod-Moliya. 2010. 82 b.

texnologiyaning qulayligi shundan iboratki, fuqarolar hujjatining aynan haqiqiy nusxasini olishadi. Barcha hujjatlar Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi, Federal G'aznachilikdan hujjatlarni skaner qilish orqali olinadi va ularning 100 % "tiniq"ligiga erishiladi. Kanadaning "Elektron hukumat" tajribasi shuni ko'rsatadiki global elektron axborot tizimini yaratish uzoq muddatga mo'ljallangan strategik rejalarni ishlab chiqishni talab etadi. Moliya vazirligi G'aznachiligida asosiy e'tibor g'aznachilikda axborot ochiqligini ta'minlovchi turli uslub va texnologiyalarni yaratilishiga qaratiladi.

Kanada internet saytlarini monitoring qilish uslubini respublika-mizda keng qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu texnologiya Moliya vazirligi G'aznachiligining hududiy organlarida internet saytida axborotlar ochiqligini yagona yondashuv asosida monitoring qilish imkoniyatini beradi.

G'aznachilik organlari tomonidan bajariladigan vazifalarning murakkabligi va ko'p qirraliligi shundaki, g'aznachilik faoliyatini joriy qilish bilan g'aznachilik organlari o'z ishlarida zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan foydalanadi. Bu esa byudjet ijrosi jarayonida nafaqat bank tizimini bog'laydi, balki, bu jarayonlarda turli darajadagi moliya organlari, byudjet tashkilotlari, tarmoq idoralari, davlat maqsadli jamg'armalari va byudjetdan tashqari fondlar, bank, bojxona, soliq organlarining o'zaro aloqasi o'rnatiladi. G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida yagona g'aznachilik hisobraqamida va hududiy g'aznachilik hisobraqamlarida mablag'larning harakati to'g'risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi. Byudjetdan mablag' oluvchilarga ular uchun G'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisobraqamlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga byudjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi va manbalar bo'yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritiladi. Moliya organlarining topshirig'i bo'yicha yuqori byudjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subvensiyalar, byudjet

ssudalari summasini va boshqa to'lovlarni quyi byudjetlarning g'aznachilik hisobraqamlariga o'tkazadi.

Rivojlanish strategiyasini amalga oshirish hujjatining loyihasiga binoan G'aznachilik Davlat byudjeti ijrosi tizimiga asta-sekin o'tish, G'aznachilik va uning joylardagi bo'linmalari tizimini rivojlantirishga oid tadbirlarni rejalashtirildi. Bu tadbirlar byudjetning daromad va xarajat qismlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda aniq bosqichlarga bo'linishi mumkin. Mazkur strategiyani amalga oshirish quyidagilarni nazarda tutadi:

a) byudjet daromadlari ijrosi sohasida:

- bajarilayotgan ish hajmidan va bu bo'linmalarning qo'shimcha xodimlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda G'aznachilikning hududiy bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish;

- davlat byudjeti g'azna ijrosi elementlari sonini ko'paytirish maqsadida respublika mintaqalarida bu elementlarni joriy qilish natijalarini tahlil qilish va o'rganish, xususan, byudjet daromadlarini ijrosi g'aznachilik tizimining funksional tartibini yanada takomillashtirish. Buning uchun dasturiy ta'minotni va normativ-huquqiy hujjatlarning hamda boshqa uslubiy hujjatlarni mukammallashtirish;

- g'aznachilik bo'linmalarini kerakli kompyuter va boshqa texnik vositalar, aloqa vositalari hamda dasturiy mahsulotlar bilan ta'minlashini kuchaytirish;

- daromadlarni byudjetning turli darajalari o'rtasida taqsimot qilish funksiyalarini bank muassasalaridan bosqichma-bosqich G'aznachilik bo'linmalariga o'tkazish;

- Davlat byudjetiga tushadigan soliq va bojxona tushumlarini Davlat byudjeti g'azna ijrosiga o'tkazish;

- G'aznachilik bilan soliq organlari va banklarning o'zaro harakatini aniq tartibini ishlab chiqish;

- Davlat maqsadli fondlariga daromadlarni tushish ustidan nazoratni olib boruvchi tashkilotlarni G'aznachilik bilan o'zaro harakat tartibini ishlab chiqish hamda ular o'rtasida axborot almashuvi dasturiy ta'minotini yanada takomillashtirish;

- amalda faoliyat ko'rsatayotgan byudjetdan tashqari fondlar va davlat maqsadli jamg'armalari nazoratni tashkil etish;

b) byudjet xarajatlari ijrosi sohasida:

- byudjetdan mablag' oluvchilarning banklardagi hisobvaraqlarini yopish va ularning shaxsiy hisobvaraqlarini Davlat byudjeti g'azna ijrosining axborot tizimida ochish;

- G'aznachilik bo'linmalarining byudjetdan mablag' oluvchilarga naqd pul berish bo'yicha maxsus hisobvaraqlar bilan ishlaydigan banklar bilan o'zaro munosabatlar tartibini yanada takomillashtirish;

- g'aznachilikda tarmoqli va hududiy boshqarish organlariga Davlat maqsadli fondlar mablag'larini sarf qilish bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarni ochish;

- Davlat byudjeti g'azna ijrosi elementlarini joriy qilish natijalarini umumlashirish va Davlat byudjeti g'azna ijrosi tartibini va dasturiy komplekslarni ko'paytirish;

- byudjet majburiyatlari (shartnomalar va byudjetdan mablag' oluvchilarning hamkorlari oldida paydo bo'ladigan yuridik majburiyatlarini asoslovchi hujjatlar) hisobini olib borish tizimini yanada takomillashtirish hamda byudjetdan mablag' oluvchilarning moliyaviy majburiyatlari hisobini olib borishni mukammallashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi byudjeti hisobvaraqlardagi pul mablag'larini kundalik jamlama balansini tuzish bilan markazlash-tirilgan holda boshqarish tizimini yaxshilash.

Xorijiy mamlakatlar tajribalaridan shuni xulosa qilish mumkinik, g'aznachilikning "amerika modeli" davlat pul mablag'larini, davlat qarzlarini, moliyaviy aktivlarini boshqarishda, byudjetni ijro etishda, nazorat funksiyasini amalga oshirishda ancha keng vakolatga ega. AQSHdagi g'aznachilik modelini o'rganib, g'aznachilikning "o'zbek modeli"ni yaratish va buni uzoq muddatli dastur sifatida qabul qilish lozim.

Takrorlash uchun savollar

1. Rivojlangan davlatlarda byudjet g'azna ijrosi qanday tashkil etilgan?
2. Byudjetning xarajatlar ijrosida G'aznachilik organlarining roli nimalardan iborat?
3. Xorijiy mamlakatlarda G'aznachilik tizimini samarali tashkil etishning qanday chora-tadbirlari amalga oshiriladi?
4. G'aznachilik tizimi mexanizmining qanday shart-sharoitlari yaratiladi?
5. Xorijiy g'aznachilik tizimlarining qanday modellari mavjud?
6. Fransiya g'aznachilik usulining afzalliklari nimalardan iborat?
7. G'aznachilikning AQSH byudjet ijrosidagi o'rnini ko'rsating?
8. Yaponiyada g'aznachilik tizimini joriy etish konsepsiyasini tushuntiring?
9. Rivojlangan davlatlarda g'aznachilik faoliyatining muammolari nimalardan iborat?
10. Rossiya Federatsiyasida g'aznachilikning ijobiy tomonlarini aytib bering?
11. Rossiyada g'aznachilik tizimini moliyalashtirish muammolari qanday hal qilinadi?
12. Qozog'iston g'aznachilik tizimining byudjet ijrosini amalga oshirish mexanizmi qanday?
13. Qozog'iston g'aznachilik tizimining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating?
14. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda g'aznachilik tizimini samarali tashkil etish uchun qanday tadbirlar amalga oshirish kerak?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Horijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlari xususiyatlarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izoh yozing.

2. G'aznachilik tizimlari modellarini, funksiyalarini, mustaqil daftaringizga aks ettiring, Yagona g'azna hisobraqamida daromadlarni kirim qilish va xarajatlarni to'lash tartibini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va ularni izohlovchi xulosa yozing.

3. Davlat byudjeti yagona g'azna hisobraqamini yuritishning jahon tajribalarini o'rganing va xulosalaringizni mustaqil ta'lim daftaringizda aks ettiring.

4. Rossiya G'aznachiligi yagona g'azna hisobraqamiga o'tish davrida amalga oshirilgan tadbirlar va qabul qilingan me'yoriy hujjatlar sharhini keltiring.

5. AQSH G'aznachilik departamentining faoliyati sharhini keltiring.

II-BOB. G‘AZNACHILIK FAOLIYATI MEXANIZMI

8-MAVZU. YAGONA G‘AZNA HISOBVARAG‘I VA SHAXSIY G‘AZNA HISOBRAQAMLARI

- 8.1. Yagona g‘azna hisobraqami to‘g‘risida tushuncha.
- 8.2. Respublika va hududiy g‘aznachilik hisobraqamlarining yuritilishi
- 8.3. Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarini yuritish tartibi
- 8.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Yagona G‘azna hisobvarag‘ini yuritilishini takomillashtirish

8.1. Yagona g‘azna hisobraqami to‘g‘risida tushuncha

Yagona g‘azna hisobvarag‘i - G‘aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag‘i bo‘lib, bu hisobvaraqa Davlat byudjeti mablag‘lari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari kiritiladi. Yagona g‘azna hisobvarag‘idan Davlat byudjetida mablag‘lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to‘lanadi, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalarining xarajatlari amalga oshiriladi.

Yagona g‘azna hisobvarag‘i O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag‘i bo‘lib, unga byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va boshqa tushumlari kiritiladi hamda undan mazkur byudjetlarning xarajatlari to‘lanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi

Markaziy bankida va boshqa banklarda o'zga bank hisobvaraqlari ochish huquqiga ega.⁸¹

Yagona g'azna hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlaridan mablag'larning so'zsiz tartibda hisobdan chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatilganligi uchun haq olinmaydi.

“Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi qoidalari”ga ko'ra, *Yagona g'azna hisobvarag'i (YaG'H)*- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladigan va Moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag'i hisoblanadi. Moliya vazirligi (g'aznachilik bo'linmalari) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va boshqa banklarda o'zga bank hisobvaraqlari ochish huquqiga ega.

“Mamlakatda g'aznachilik organlari Davlat byudjetini to'ldirish va ijro qilishni ta'minlaydigan 4000dan ortiq bo'limlariga ega. G'aznachilik organlari davlatning solikli va soliqsiz daromadlarini yig'ib oladi va kerakli nazorat ishlaridan keyin davlat mablag'larini sarflanishini amalga oshiradi.

G'aznachilik organlari daromadlar tushumining va Davlat byudjeti xarajatlarining hisob-kitobini yuritadi. Bu vazifa har bir geografik departamentda tayinlangan Bosh g'aznachiga yuklatilgan. Ularning amalga oshirgan moliyaviy operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar har kuni G'aznachilikning Markaziy Hisob agentligi Bosh buxgalteriyasida ishlov uchun yig'iladi.

Bundan tashqari, G'aznachilik organlari davlat tashkilotlari bo'lgan ta'lim muassasalari, ijtimoiy ta'minot va boshqaruv organlari hamda ijtimoiy turar joy tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini tekshiradi va nazorat qiladi”.⁸²

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 111-moddasi asosida.

⁸² Практика государственного управления во Франции: Государственное Казначейство. Сборник документов Франко-российского сотрудничества №8. стр-11.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa maqsadli jamg'armalar (DMJ va BMJ) byudjetlariga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar *YaG'Hga kirim qilinadi* va qonun hujjatlariga muvofiq mos ravishda O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, Toshkent shahar va viloyatlar mahalliy byudjetlari, DMJ va BMJ byudjetlari *daromadlarida aks ettiriladi*. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari *YaG'Hga kirim qilinadi* va mazkur tashkilotlarga tushumlar sifatida aks ettiriladi.

Byudjet tizimi va BMJ byudjetlari xarajatlari *YaG'H* yoki Moliya vazirligining (g'aznachilik bo'linmalarining) boshqa bank hisobvaraqlaridan Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda hamda:

- O'zbekiston Respublikasi byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlari;

- davlat maqsadli va boshqa maqsadli jamg'armalar byudjetlari;

- byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari qoldig'i doirasida amalga oshiriladi.

Debitor qarzdorlik summalari, shuningdek deponentlangan mablag'lar *YaG'Hga*:

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarining byudjet mablag'lari bo'yicha – joriy moliya yilida hamda moliya yiliga qo'shimcha davr mobaynida;

- byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari va BMJ mablag'lari bo'yicha – joriy moliya yilida tegishli kassa xarajatlarini tiklash orqali kirim qilinadi.

Barcha moliyaviy resurslar G'aznachilikning yagona hisobraqamida yig'iladi, bu mablag'larning miqdori Markaziy Bankda joylashgan barcha tushumlar va to'lovlar yig'iladigan shu hisobraqam bilan nazorat qilinadi. Davlat G'aznasi quyidagi huquqlarga ega:

- byudjet mablag'lari taqsimlovchilarining taqdim qilgan kirim orderlarini, shartnomalarda belgilangan qarz talabnomalarini ijro qilish uchun qabul qiladi, shuningdek, qarz majburiyatlari bo'yicha naqd

pullarni va davlat tashkilotlarining huquqi bo'lgan boshqa shakldagi tushumlarni oladi;

– buyruqqa asosan, kreditorlarning talabi bo'yicha taqdim qilingan hujjatlar asosida xarajatlar to'lovini amalga oshiradi, shuningdek, sud qarorlarini ijro qiladi;

– davlat muassasalarini yoki ularning ishonchli vakillariga qarashli pul mablag'larini va moddiy boyliklarni saqlashni va qo'riqlashni ta'minlaydi;

– naqd pullar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni bajaradi;

– amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarni tasdiqlaydigan buxgalteriya hisob-kitobi bo'yicha yuritiladigan hujjatlarni saqlaydi;

– buxgalteriyada ularga yuklatilgan buxgalteriya hisob-kitobini olib boradi.⁸³

Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'larni boshqarishni

Davlat byudjeti daromadlari tushumlari va xarajatlarning qisqa muddatli bashoratlarini tuzish yo'li bilan amalga oshiradi.

Qabul qilingan moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun Yagona g'azna hisobvarag'ida mablag'lar yetishmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti xarajatlarning cheklangan hajmini belgilaydi hamda uning asosida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnomalar beradi.

Xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnomalar berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi byudjetining vaqtincha bo'sh turgan mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tijorat banklarida depozitlarga joylashtirilishi mumkin bo'lgan mablag'larning hajmini belgilaydi.

Byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi:⁸⁴

⁸³ Steven M. Bragg. Treasury management: The Practitioner's Guide /Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 117- moddasi asosida.

✓ tushumlarni Yagona g'azna hisobvarag'iga va boshqa bank hisobvaraqlariga kiritishni;

✓ tushumlarni byudjet tizimining byudjetlari o'rtasida taqsimlashni;

✓ ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan tushum summalarini qaytarishni yoxud ularni qarzni to'lash evaziga hisobga olishni;

✓ hisob va hisobotni nazarda tutadi.

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlarni yig'ishga vakolatli bo'lgan organlar va tashkilotlar, bundan davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari mustasno, daromadlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, shuningdek, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organiga hisobot taqdim etishi shart.


Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga joriy moliya yilida qaytarilgan o'tgan yillarning byudjet mablag'lari bo'yicha debitor qarzdorliklari summalarini kirim qilish uchun "O'RMV" ATda byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha (4004 mablag'lar manbasi bilan) shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi.

Buyurtmachilarning joriy moliya yilida qaytarilgan o'tgan yillarning debitor qarzdorlik summolari YaG'Hga kirim qilinadi va:

❖ byudjet mablag'lari bo'yicha – byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning o'tgan yillarning debitorlik qarzdorligini hisobga olish bo'yicha byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida ushbu summalarni keyinchalik tegishli byudjetlarning joriy moliya yili daromadiga o'tkazish bilan;

❖ DMJ va BMJ mablag'lari bo'yicha – DMJ va BMJ byudjetlarining tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida joriy moliya yilining daromatlari sifatida;

❖ byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha – byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida joriy moliya yilining daromatlari sifatida hisobga olinadi.



8.1-rasm. Yagona g'aznachilik hisobvaragida pul mablag'lari harakati

Joriy moliya yilida qaytarilgan o'tgan yillarning byudjet mablag'lari bo'yicha debitor qarzdorliklari summolari byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kelib tushgan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan tegishli byudjet daromadiga o'tkazilishi lozim.

Debitor qarzdorliklar summolari qoldiqlari o'z vaqtida yoki hisobot oyi tugaguniga qadar o'tkazilmagan hollarda joriy oying oxirgi ish kunida g'aznachilik bo'linmalari ushbu mablag'larni mustaqil ravishda tegishli byudjetlar daromadlariga o'tkazadi.

Byudjet tashkilotlarning tovar-moddiy qimmatliklarini yoki asosiy vositalarini sotishdan, shuningdek inventarizatsiya (tekshirishlar) natijalari bo'yicha tushgan mablag'lar YaG'Hga kirim qilinadi hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida keyinchalik byudjet tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq qayta taqsimlash orqali hisobga olinadi.

DMJ yoki BMJ byudjetlaridan mablag' oluvchilarning joriy moliya yilida qaytarilgan o'tgan yillarning debitor qarzdorlik summolari, shuningdek tovar-moddiy qimmatliklarini yoki asosiy vositalarni sotishdan va inventarizatsiya (tekshirishlar) natijalari bo'yicha tushgan mablag'lari YaG'Hga kirim qilinadi va tegishli DMJ va BMJ byudjetlarida joriy moliya yilining daromadi sifatida hisobga olinadi.

Bunda DMJ yoki BMJ byudjetlaridan mablag' oluvchilarning byudjet mablag'lari hisobidan sotib olingan tovar-moddiy qimmatliklarini yoki asosiy vositalarini sotishdan tushgan mablag'lar tegishli byudjetlar daromadiga o'tkaziladi (8.1-rasm).

O'quvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslar tomonidan to'langan darsliklar ijara to'lovlari va darsliklar yoki o'quv-metodik qo'llanmalarni yo'qotilganlik yoki yaroqsiz holga keltirilganlik uchun to'lovlar bo'yicha tushumlarning kirim qilinishi, shuningdek ularni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazilishi ta'lim muassasalarining tegishli (4011 mablag'lar manbasi bilan) shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarining tegishli (4011 mablag'lar manbasi bilan) shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazilishi "O'RMV" ATda avtomatlashtirilgan ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Naqd pul mablag'larini olish uchun, shu jumladan buyurtmachilarning xodimlariga ish haqi to'lash, shuningdek xizmat safari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa naqd pul shaklidagi to'lovlar uchun g'aznachilik bo'linmalari tomonidan tijorat banklarida mos ravishda 23212 "**Moliya vazirligi G'aznachiligi mablag'lari**" va 23214 "**G'aznachilikning hududiy bo'linmalari mablag'lari**" hisobvaraqlari ochiladi.

G'aznachilik bo'linmalarining 23212 "Moliya vazirligi G'aznachiligi mablag'lari" va 23214 "G'aznachilikning hududiy bo'linmalari mablag'lari" hisobvaraqlaridan ko'chirmalar ularga ilovalar bilan xizmat ko'rsatuvchi banklardan g'aznachilik bo'linmalari tomonidan mazkur hisobvaraqlarda mablag'lar harakatining keyingi ish kunida olinadi.

Ko'chirmalar va ularga ilovalar tegishli banklar tomonidan elektron hujjat ko'rinishida – **O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki axborot tizimi** (tijorat banklari) va "**O'RMV**" AT ma'lumotlar bazalari o'rtasida ma'lumot almashish yo'li bilan taqdim qilinishi mumkin.

Bunda elektron tarzda taqdim qilingan ko'chirmalar va ularga ilovalar qog'oz ko'rinishida g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etilmaydi.


Byudjet tizimi byudjetlari, shuningdek BMJ byudjetlari daromadlariga kirim qilish uchun asos bo'lmagan YaG'Hga kelib tushgan mablag'lar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan aniqlanmagan tushumlar sifatida qabul qilinadi.

Agar *uch ish kuni mobaynida* ushbu tushumlarni aniqlash hamda ularni tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlarga kirim qilish imkoni bo'lmasa, g'aznachilik bo'linmalari ularni uchinchi ish kunida, biroq joriy yilning 31 dekabridan kechiktirmasdan 2850-qoidalariga muvofiq shaklda Yagona g'azna hisobvarag'idan to'lanishi (qaytarilishi) lozim bo'lgan aniqlanmagan tushumlar bo'yicha elektron to'lov asosida amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish vazifasi "O'RMV" ATda elektron to'lov hujjatini shakllantirish orqali mablag'lar qaysi bank hisobraqamlaridan o'tkazib berilgan bo'lsa shu bank hisobraqamlariga qaytaradi.

YaG'Hdan *to'lovlarni o'tkazish uchun "Bank-G'aznachilik"* dasturiy majmuasi orqali yuborilgan to'lov topshiriqnomalarining asli O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim etilmaydi va *g'aznachilik bo'linmalarida saqlanadi*, bundan "UzASBO" DM orqali elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan elektron to'lov topshiriqnomalari mustasno.

8.2. Respublika va hududiy g'aznachilik hisobraqamlarining yuritilishi

Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartiblari belgilab berildi. Unga ko'ra, davlat byudjetiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar banklar tomonidan o'rnatilgan tartibda qabul qilinadi va 23402 (005) "Respublika byudjetining mablag'lari" hisobvarag'iga kirim qilinadi hamda belgilangan me'yorlarga muvofiq, banklarda ochilgan tegishli byudjetlarning g'azna hisobvaraqlariga ajratiladi.



8.3-rasm. Daromadlarni tegishli byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalariga o'tkazishning amaldagi tartibi

Byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovi moliya yili uchun ajratilgan byudjet mablag'lari doirasida tasdiqlangan (aniqlangan) xarajatlar smetalari, shuningdek 2850-sonli qoidalarga muvofiq ro'yxatga olingan, byudjetdan mablag' oluvchilarning mahsulot yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari asosida:

– Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi yoki uning hududiy bo'linmalari tomonidan Qoidalarda belgilangan tartibda;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti yoki mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining hududiy g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Respublika g'azna hisobvarag'i. Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan barcha byudjetdan mablag' oluvchilar g'azna ijrosi bilan to'liq qamrab olingunga qadar, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligiga Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazida (HKKM) 23402 (006) balans raqami bilan Respublika g'azna hisobvarag'i (RG'H) ochiladi.

RG'Hga respublika byudjetining g'azna ijrosi bilan qamrab olingan byudjetdan mablag' oluvchilarning kassa xarajatlarini amalga oshirish uchun mablag'lar HKKMda 23402 (005) hisobvarag'i bilan ochilgan respublika byudjetining asosiy hisobvarag'idan tushadi.

RG'Hdagi mablag'lar taqsimlovchisi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi hisoblanadi. Respublika byudjetidan moliyalashtirishni amalga oshirish uchun ajratilgan byudjet mablag'larining bosh taqsimlovchisi hisoblangan byudjetdan mablag' oluvchilar, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tarmoq boshqarmalariga byudjetning g'azna ijrosi bilan qamrab olingan har bir byudjetdan mablag' oluvchi bo'yicha sertifikat summasining yoyilmasini ilova qilgan holda, shuningdek byudjetning g'azna ijrosi bilan qamrab olinmagan, quyi turuvchi byudjetdan mablag' oluvchilarga mablag'larni o'tkazish uchun byudjet mablag'lari bosh

taqsimlovchilarining byudjet depozit hisobvaraqlariga o'tkazilishi lozim bo'lgan qismi bo'yicha mablag'larni RG'Hga o'tkazish uchun rasmiylashtirilgan tayinlash sertifikatlarini taqdim etadilar.

Tarmoq boshqarmalari byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan taqdim qilingan tayinlash sertifikatlarini o'rnatilgan tartibda tekshirganlaridan so'ng, ularni ijro uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat byudjeti Bosh boshqarmasiga (DBBB) taqdim etadi.

DBBB byudjetdan mablag' oluvchilarning tayinlash sertifikatleri asosida respublika byudjetining asosiy hisobvarag'idan RG'Hga mablag' o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomalarini o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiradi va ularni HKKMga ijro uchun taqdim qiladi.

23402 (005) hisobvarag'idan respublika g'azna hisobvarag'iga mablag'lar o'tganligini tasdiqlovchi HKKMdan shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirmalar olinganidan so'ng, DBBB ijro etilgan tayinlash sertifikatlarining birinchi nusxalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligiga taqdim etadi.

Byudjetdan mablag' oluvchilar (moliyalashtirish saqlangan sharoitda - RG'Hda moliyalashtirilgan mablag'lar mavjud bo'lganda) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligiga RG'Hdan mablag'larni mahsulot yetkazib beruvchilarning bevosita bank hisobvaraqlariga yoki qonunchilikda nazarda tutilgan maqsadlarga o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomalarni qoidaga ko'ra, mablag'larni o'tkazish sanasidan bir kun oldin taqdim etadi.

Respublika byudjeti qaramog'ida bo'lgan byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lari (ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni saqlash uchun to'lovlari, ota-onalarning musiqa va san'at maktablarida bolalarni o'qitish uchun to'lovlari, maktabgacha ta'lim muassasalari ishchilaridan ovqatlanish uchun tushgan tushumlar, shuningdek ijtimoiy ta'minot organlaridan byudjet tashkiloti xodimlariga pensiya va ijtimoiy nafaqa to'lash uchun tushgan mablag'lar) o'rnatilgan tartibda RG'Hga kirim qilinadi.

Joriy yilda byudjetdan mablag‘ oluvchilarning joriy moliya yili uchun kelib tushgan debitorlik qarzlari summasi kassa xarajatlarini tiklash orqali RG‘Hga kirim qilinadi (byudjetdan mablag‘ oluvchilarning shartnomalar tuzmasdan amalga oshiriladigan to‘lovlari bo‘yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlar).

Byudjetdan mablag‘ oluvchilarning o‘tgan yilgi debitorlik qarzlarning joriy moliya yilida qaytarilgan summolari, shuningdek tovar-moddiy boyliklarni, asosiy vositalarni sotishdan va inventarizatsiya (tekshirish) natijalari bo‘yicha kelib tushgan summalar RG‘Hga kirim qilinadi va keyinchalik ushbu summalar byudjetdan mablag‘ oluvchilar joylashgan hududning shartli hisobvaraqa raqami (ShHR) bilan ochilgan, 23402 (005) “Respublika byudjeti mablag‘lari” daromadlar tranzit hisobvaraqlari orqali respublika byudjetining daromadlariga o‘tkazilishi bilan alohida shaxsiy hisobvaraqlarda hisobga olinadi.

RG‘H shaxsiy hisobvaraqlaridan ko‘chirmalar RG‘Hda operatsiyalar amalga oshirilganligini tasdiqlovchi, birlamchi to‘lov hujjatlarining asl va ko‘chirma nusxalari ilovalari bilan, shuningdek naqd pul mablag‘larini berish uchun 23212 “Moliya vazirligi G‘aznachiligi mablag‘lari” va 23214 “G‘aznachilikning hududiy bo‘linmalari mablag‘lari” hisobvaraqlaridan ko‘chirmalar ularga ilovalar bilan, tegishli ravishda, HKKM va tegishli xizmat ko‘rsatuvchi banklar tomonidan RG‘Hda va 23212 “Moliya vazirligi G‘aznachiligi mablag‘lari” va 23214 “G‘aznachilikning hududiy bo‘linmalari mablag‘lari” hisobvaraqlarida mablag‘lar harakatining keyingi ish kunida doimiy ravishda g‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim etiladi.

Respublika byudjeti qaramog‘ida bo‘lgan byudjetdan mablag‘ oluvchilarni g‘azna ijrosi bilan to‘liq qamrab olingandan so‘ng, ularning xarajatlarini respublika byudjetining asosiy hisobvarag‘idan RG‘Hga moliyalashtirish to‘xtatiladi va asosiy respublika byudjeti hisobvarag‘i RG‘H bilan birlashtiriladi.

Respublika byudjetining asosiy hisobvarag‘i RG‘H bilan birlashtirilgandan so‘ng, respublika byudjeti daromadlari 23402 (005)

“Respublika byudjetining mablag‘lari” hududiy daromad tranzit hisobvaraqlaridan mablag‘lar to‘g‘ridan to‘g‘ri RG‘Hga kiritiladi.

Hududiy g‘azna hisobvaraqlari. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar qaramog‘ida bo‘lgan byudjetdan mablag‘ oluvchilarning pul mablag‘larini kiritish va o‘tkazish bo‘yicha operatsiyalar hududiy g‘azna hisobvaraqlari (HG‘H) orqali amalga oshiriladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar qaramog‘ida bo‘lgan byudjetdan mablag‘ oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag‘lari (ota-onalarning maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni saqlash uchun to‘lovlari, ota-onalarning musiqa va san‘at maktablarida bolalarni o‘qitish uchun to‘lovlari, maktabgacha ta‘lim muassasalarida ishchilaridan ovqatlanish uchun tushgan tushumlar, shuningdek ijtimoiy ta‘minot organlaridan byudjet tashkiloti xodimlariga pensiya va ijtimoiy nafaqa to‘lash uchun tushgan mablag‘lar) o‘rnatilgan tartibda HG‘Hga kiritiladi.


Joriy yilda byudjetdan mablag‘ oluvchilarning joriy moliya yili uchun kelib tushgan debitorlik qarzlari summasi kassa xarajatlarini tiklash orqali HG‘Hga kiritiladi (byudjetdan mablag‘ oluvchilarning shartnomalar tuzmasdan amalga oshiriladigan to‘lovlari bo‘yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlar).

Byudjetdan mablag‘ oluvchilarning o‘tgan yilgi debitorlik qarzlarning joriy moliya yilida qaytarilgan summalarini, shuningdek tovar-moddiy boyliklarni, asosiy vositalarni sotishdan va inventarizatsiya (tekshirish) natijalari bo‘yicha kelib tushgan summalar HG‘Hga kiritiladi va keyinchalik ushbu summalar byudjetdan mablag‘ oluvchilar joylashgan hududning shartli hisobvaraqlar raqami (ShHR) bilan ochilgan 23402 (005) “Respublika byudjeti mablag‘lari” daromadlar tranzit hisobvaraqlari orqali tegishli byudjetlarning daromadlariga o‘tkazilishi bilan alohida shaxsiy hisobvaraqlarda hisobga olinadi. HG‘H shaxsiy hisobvaraqlaridan ko‘chirmalar HG‘Hda operatsiyalar amalga oshirilganligini tasdiqlovchi, birlamchi to‘lov hujjatlarining asl va ko‘chirma nusxalari ilovalari bilan, shuningdek naqd pul mablag‘larini berish uchun 23212 “Moliya

vazirligi G‘aznachiligi mablag‘lari” va 23214 “G‘aznachilikning hududiy bo‘linmalari mablag‘lari” hisobvaraqlaridan ko‘chirmalar ularga ilovalar bilan, tegishli banklar tomonidan HG‘Hda va 23212 “Moliya vazirligi G‘aznachiligi mablag‘lari” va 23214 “G‘aznachilikning hududiy bo‘linmalari mablag‘lari” hisobvaraqlarida mablag‘lar harakatining keyingi ish kunida doimiy ravishda g‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim etiladi.

8.3. Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarini yuritish tartibi

Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida ochiladigan, byudjet tizimi byudjetlari ijrosi bilan bog‘liq operatsiyalarni aks ettirish uchun mo‘ljallangan tahliliy hisob registrlaridir.



8.4-rasm. Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari quyidagi turlar bo‘yicha tasniflanishi

*Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari quyidagi turlar bo‘yicha ochiladi*⁸⁶:


- byudjet tizimi byudjetlarining darajalari bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari;
- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalarining daromadlari bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari;
- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari.

⁸⁶ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 112-116 moddalariga ko‘ra.

Shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Byudjet tizimi byudjetlarining darajalari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;
- tumanlar va shaharlar byudjetlari bo'yicha – tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan;
- davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari bo'yicha – davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan ochiladi (8.5-rasm).



8.5-rasm. Byudjet tizimi byudjetlarining darajalari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochish vakolatlarining taqsimlanishi

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlari:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar uchun – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlar byudjetlaridan va Toshkent shahrining byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;

- tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan tashkilotlar uchun – tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan;

- davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar uchun – davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan ochiladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 30 martda 2772-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 24 martdagi 21-sonli buyrug'iga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish qoidalari" belgilandi. Byudjet tizimi byudjetlari va boshqa maqsadli jamg'armalar daromadlari va mablag'lari xarajati hisobi bo'yicha operatsiyalarni yuritish maqsadida byudjet tizimi byudjetlarining tegishli darajalari, byudjet tashkilotlari, byudjet mablag'lari oluvchilar, BMJ byudjetlaridan mablag' oluvchilar uchun moliya organlari va davlat maqsadli jamg'armalarini va BMJ taqsimlovchi organlari tomonidan "O'RMV" ATda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti byudjet tasnifining tegishli kodlari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi.

Darajalar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari

Darajalar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari byudjet tizimi byudjetlarining tegishli darajalari va turlarining tasdiqlangan byudjet mablag'lari hajmlari bo'yicha ma'lumotlarni, turli darajadagi byudjet

tizimi byudjetlari o'rtasida taqsimlangan o'zaro hisob-kitob mablag'larini bo'yicha operatsiyalarni, byudjet tizimi byudjetlari va BMJ byudjetlarining g'azna ijrosi jarayonida byudjet tizimi tegishli byudjetlarining kassa daromadlari va xarajatlari summolari hajmini o'zida aks ettirishga mo'ljallangan analitik hisob registrlari hisoblanadi.

Darajalar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'i raqami o'n etti razryaddan iborat:

1 dan 6 gacha bo'lgan razryadlar - tasdiqlangan Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifiga muvofiq mablag'lar manbasi va tegishli byudjetlar darajalari kodi;

7dan 9gacha bo'lgan razryadlar - tasdiqlangan Valyutalar tasnifiga muvofiq valyuta kodi;

10dan 14gacha bo'lgan razryadlar - tasdiqlangan Hududiy tasnifga muvofiq hududiy tegishlilik kodi;

15dan 17gacha bo'lgan razryadlar – "O'RMV" ATda avtomatik tarzda beriladigan shaxsiy g'azna hisobvarag'ining noyobraqami.

Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari byudjet tizimi tegishli byudjetlarining tasdiqlangan daromadlari miqdori bo'yicha ma'lumotlarni, byudjet tizimi byudjetlari va BMJ byudjetlari daromadlarining g'azna ijrosi jarayonida daromadlarning kassa tushumlari hajmini va tegishli byudjetlarga va byudjetlardan daromadlar turlari va manbalari bo'yicha qaytarish (hisobga olish) summalarini o'zida aks ettirishga mo'ljallangan analitik hisob registrlari hisoblanadi.

Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari kelib tushayotgan daromadlarning tegishli byudjetlarga mablag'lar kirimi amalga oshirilgan tegishli hududga mansubligini aniqlaydi.

Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'i raqami yigirma besh razryaddan iborat:

1dan 6gacha bo'lgan razryadlar - tasdiqlangan Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifiga muvofiq mablag'lar manbasi va tegishli byudjetlar darajalari kodi;

7dan 9gacha bo'lgan razryadlar - tasdiqlangan Valyutalar tasnifiga muvofiq valyuta kodi;

10-razryad - nazorat kaliti;

11dan 15gacha bo'lgan razryadlar - tasdiqlangan Hududiy tasnifga muvofiq hududiy tegishlilik kodi;

16dan 22gacha bo'lgan razryadlar - daromad turi;

23dan 25gacha bo'lgan razryadlar - tashkiliy tasnifning tegishli kodi.

Daromadlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega:

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi	Valyuta kodi	Nazorat kaliti	Hududiy tasnif	Daromad turlari	Tashkiliy tasnif
X XXX X X	XXX	X	XXXXX	X XX XXXX	X XX

Xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari

Xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari tasdiqlangan (aniqlangan) rejali byudjetdan ajratiladigan mablag'larni, ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik va moliyaviy majburiyatlarni, XTRLarni, amalga oshirilgan kassa xarajatlarini o'zida aks ettirishga mo'ljallangan analitik hisob registrlari hisoblanadi.

Xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari raqami yigirma yetti razryaddan iborat:

1dan 6gacha bo'lgan razryadlar - tasdiqlangan Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifiga muvofiq mablag'lar manbasi va tegishli byudjetlar darajalari kodi;

7dan 9gacha bo'lgan razryadlar - tasdiqlangan Valyutalar tasnifiga muvofiq valyuta kodi;

10dan 14gacha bo'lgan razryadlar - tasdiqlangan Hududiy tasnifga muvofiq hududiy tegishlilik kodi;

15dan 21gacha bo'lgan razryadlar - Vazifa jihatdan tasnifning tegishli kodi;

22dan 24gacha bo'lgan razryadlar - Tashkiliy tasnifning tegishli kodi;

25dan 27gacha bo'lgan razryadlar – “O‘RMV” ATda avtomatik tarzda beriladigan shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ining noyobraqami.

Xarajatlar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari ikki turga bo‘linadi: byudjet mablag‘lari bo‘yicha va byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha.

Xarajatlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko‘rinishga ega⁸⁷:

Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining manbalari va darajalari tasnifi				Vazifa jihatdan tasnif			Tashkiliy tasnif	Iqtisodiy tasnif	Hududiy tasnif			
X	XXX	X	X	X	XXX	XXX	XXX	XX	XX	XXX	XX	XXX

Xarajatlar bo‘yicha byudjet shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida quyidagilarning hisobi olib boriladi:

- ularning faoliyatini yuritishni ta‘minlash va markazlashgan tadbirlarini amalga oshirish uchun xarajatlar smetasida nazarda tutilgan rejali byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar va BMJ mablag‘lari;

- yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan quyi tashkilotlar uchun nazarda tutilgan rejali byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar;

- kapital qurilish obyektlari bo‘yicha xarajatlarning oylik yoyilmasida nazarda tutilgan rejali byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar va DMJ mablag‘lari;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Zaxira jamg‘armasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag‘lar;

- yuridik va moliyaviy majburiyatlar;

- XTR;

- kassa xarajatlari.

Xarajatlar bo‘yicha byudjetdan tashqari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida quyidagilarning hisobi olib boriladi:

⁸⁷ O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2014 yil 20 fevraldagi 11-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2146-3, 17.03.2014 y.) tahririda – O‘R QHT, 2014 y., 12-son, 140-modda).

- byudjet tashkilotlari, byudjet mablag‘lari oluvchilari va BMJ byudjetidan mablag‘ oluvchilarning tegishli smetalarida nazarda tutilgan rejali byudjetdan tashqari mablag‘lari,

- kelib tushayotgan byudjetdan tashqari mablag‘lar;
- yuridik va moliyaviy majburiyatlar;
- kassa xarajatlari.

Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish

Darajalar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarini ochish va yopish “O‘RMV” ATda quyidagicha amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasi byudjeti bo‘yicha - Moliya vazirligi tomonidan;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar byudjetlari va Toshkent shahri byudjeti bo‘yicha - tegishli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, Toshkent shahri va viloyatlar hokimliklari moliya boshqarmalari tomonidan;

- tumanlar va shaharlar byudjetlari bo‘yicha - tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlari tomonidan;

- DMJ va BMJ byudjetlari bo‘yicha - ularning taqsimlovchi organlar tomonidan.

Darajalar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari ochilganidan yoki o‘zgartirilganidan so‘ng hududiy moliya organlari hamda DMJ va BMJ taqsimlovchi organlar bu haqda g‘aznachilik bo‘linmalari, davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga xabar beradilar.

Darajalar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida tegishli byudjetlarning darajalari va turlarining tasdiqlangan byudjet mablag‘lari hajmlari, turli darajadagi byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida taqsimlangan o‘zaro hisob-kitob mablag‘lari bo‘yicha operatsiyalar, byudjet tizimi byudjetlari va BMJ byudjetlarining g‘azna ijrosi jarayonida tegishli byudjetlarning kassa daromadlari va xarajatlari summalarining hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar hisobi yuritiladi.

Darajalar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarining yopilishi tegishli byudjetga mansub bo‘lgan hudud qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan (birlashtirilgan) hollarda amalga oshiriladi. Boshqa hollarda,

darajalar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari yopilmaydi. Ochilgan va yopilgan darajalar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari to'g'risidagi ma'lumotlar hisobi "O'RMV" ATda Darajalar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobida elektron ko'rinishda belgilangan shaklda yuritiladi (8.6-rasm).

**Byudjet tizimi byudjetlari byudjetlari darajasi bo'yicha shaxsiy
g'azna hisobvaraqlarni ro'yxatdan o'tkazish
KITOBI**

T/r	Byudjet nomi	Shaxsiy g'azna hisobvarag'i ochilgan sana	Shaxsiy g'azna hisobvarag'i yopilgan sana	Shaxsiy g'azna hisobvarag'i			
				mablag'lar manbasi va byudjet darajasi kodi	valyuta kodi	hududiy tegishlilik kodi	noyob raqami

8.6-rasm. Byudjet tizimi byudjetlari byudjetlari darajasi bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobi shakli

Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarining ochilishi va yopilishi *Moliya vazirligi tomonidan "O'RMV" ATda amalga oshiriladi.* Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari tegishli yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tegishli hududda to'lanadigan, byudjet tasnifiga muvofiq har bir soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, ma'muriy jarimalar va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha har bir byudjet uchun ochiladi. Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochilgandan yoki o'zgartirilgandan so'ng Moliya vazirligi bu haqda tegishli hududiy moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, DMJ va BMJ taqsimlovchi organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, shuningdek to'lovlarni undiruvchi vakolatli organlarga xabar beradi.

**Byudjet tashkilotlari, byudjet mablag‘lari oluvchilar va boshqa maqsadli jamg‘armalar
byudjetidan mablag‘ oluvchilarning shaxsiy g‘azna hisobvoraqlari**

TURLARI

		Davlat byudjeti											Shaxsiy g‘azna hisobvoraqlari turi	
T/r	Mablag‘lar manbasi	Yo‘llima	Vaqmchalik	Xarajatlar smetasi	Xarajatlar smetasi	Yuridik majburiyalar	Tushumlar	XTR	100% XTR	I va II guruh xarajatlari bo‘yicha so‘rovnomalari	To‘lov hujjatlari	Bir sardagi xarajatlar		Majmumot
1	1 000	Davlat byudjeti (byudjet tashkilotlari uchun)	+	+	+	+	-	+	+	+	+	-	-	1
2	1 000	Davlat byudjeti (bir sarda moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari uchun)	+	+	+	+	-	+	+	+	+	+	-	13
3	1 000	Maxfiy xarajatlarni bir sarda moliyalashtirish	+	+	+	-	-	-	+	-	+	+	-	4
4	1 000	Maxfiy bo‘lmagan xarajatlarni moliyalashtirish (Davlat byudjetining g‘azna ijrosiga o‘tmagan byudjet tashkilotlari)	+	+	+	+	-	-	+	-	+	-	-	9
5	1 000	O‘zaro hisob-kitoblar uchun	+	+	+	-	-	-	+	-	+	-	+	5
6	1 000	Subvensiya	+	+	+	+	-	-	+	-	+	-	-	9
7	1 000	Dotatsiya	+	+	+	+	-	-	+	-	+	-	-	9
8	1 000	O‘tkazib beriladigan daromadlar	+	+	+	+	-	-	+	-	+	-	-	9
9	1 000	Rejali ssuda	+	+	+	+	-	-	+	-	+	-	-	15
10	1 000	Rejadan tashqari ssuda	-	-	-	+	-	-	-	-	+	-	-	12
11	1 000	Erkin qoldiqlar hisobiga o‘tkazib beriladigan mablag‘lar	+	+	+	+	-	-	+	-	+	-	-	20
12	1000	Daromadlarni oshirib bajarilgan qismi hisobiga o‘tkazib beriladigan mablag‘lar	-	+	+	+	-	-	+	-	+	-	-	21

13	1 000	Xususiy lashtirish hisobiga o'tkazib beriladigan mablag'lar	-	+	+	+	-	+	+	+	+	+	-	-	21
Davlat maqsadli va boshqa maqsadli jamg'armalari															
1	2 001	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	+	+	+	-	+	+	+	-	-	+	-	-	10
2	2 002	O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko' maklamlash davlat jamg'armasi	+	+	+	+	-	-	+	+	-	-	-	-	18
3	2 003	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi	+	+	+	+	-	-	+	+	-	-	-	-	18
4	2 003	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi (depoziti)	-	-	-	+	-	-	-	+	-	-	-	-	12
5	2 004	Davlat mulkini xususiy lashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi	-	-	-	+	-	-	-	+	+	-	-	-	12
6	2 001-2 003	Daromadlarni oshirib bajarilgan qismi hisobiga o'tkazib beriladigan mablag'lar	-	+	+	+	-	+	+	+	+	-	-	-	21
7	3 002	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'mirlashni davlat tomonidan rag'batlantirish jamg'armasi	+	+	+	+	-	-	+	+	-	-	-	-	18
8	3 003	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi	+	+	+	+	-	-	-	-	+	-	-	-	19
9	3 004	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi	+	+	+	+	-	-	-	+	+	-	-	-	18
10	3 004	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi (depoziti)	-	-	-	+	-	-	-	-	+	-	-	-	12
11	3 007	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi	+	+	+	+	-	-	-	+	+	-	-	-	18

10	4 010	Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari	-	-	+	+	+	+	+	-	-	2
11	4 011	Umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi uchun to'lovlardan tushgan mablag'lar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	14
12	4 012	Kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar	-	-	+	+	+	+	+	-	-	2
13	4 013	Turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to'lovlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	32
14	4 014	Taqsimlanishi nazarda tutilgan mablag'lar (tibbiyot muassasalari uchun)	-	-	-	-	-	-	-	-	-	11
15	4 014	Taqsimlanishi nazarda tutilgan mablag'lar (tranzit)	-	-	-	-	-	-	-	-	-	11
16	4 015	Boshqa ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun o'ta-onalar to'lovi	-	-	+	-	-	-	-	-	-	33
17	4 016	Boshqa mablag'lar bo'yicha depozitlar	-	-	+	-	-	-	-	-	-	33
18	4 028	Bojxona to'lovlari to'lashdan tushgan tushumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	11

8.8-rasm. Xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvoraqlarini ochish, yuritish va yopish shakli

T/r	Shaxsiy g'azna hisobvarag'i nomi	Shaxsiy g'azna hisobvarag'i ochilgan sana	Shaxsiy g'azna hisobvarag'i yopilgan sana	Shaxsiy g'azna hisobvarag'i					
				mat-lag'lar manbasi va byudjet darajasi kodi	Valyuta kodi	Nazorat kaliti	Hududiytegishlilik kodi	Daromad turi	Tashkiliy tasnif kodi

8.7-rasm. Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa maqsadli jamg'armalar daromadlari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobi shakli

Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida tegishli byudjetlar daromadlarining tasdiqlangan rejaviy hajmi, haqiqiy tushumlar hajmlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, DMJ va BMJ byudjetlari daromadlarining g'azna ijrosi jarayonida darajalar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga amalga oshirilgan ajratmalar (taqsimotlar) hamda tegishli byudjetlarga yoki tegishli byudjetlardan daromadlar turlari va manbasi bo'yicha qaytarilgan (hisobga olingan) summalar to'g'risidagi ma'lumotlar hisobi yuritiladi.

Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarining yopilishi tegishli byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan to'lov turi bekor qilingan hollarda amalga oshiriladi. Ochilgan va yopilgan daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari to'g'risidagi ma'lumotlar hisobi "O'RMV" ATda Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobida elektron ko'rinishda belgilangan tartibda quyidagi shaklda yuritiladi.

Xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish

Xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ularning belgilangan maqsadiga ko'ra tegishli turlar bo'yicha ochiladi.

Xarajatlar bo'yicha byudjet shaxsiy g'azna hisobvaraqlari quyidagilarga asosan ochiladi:

- *shaxsiy g'azna hisobvarag'i ochish uchun ariza.* Bunda, agar byudjet tashkiloti bir vaqtning o'zida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, quyi byudjet tashkilotining byudjet mablag'larini taqsimlovchisi bo'lsa, tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochish uchun shaxsiy g'azna hisobvarag'i ochish to'g'risidagi arizaga xizmat ko'rsatiladigan quyi byudjet tashkilotlarining ro'yxati ilova qilinadi;

- *xarajatlar smetasi.* Bunda, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan quyi byudjet tashkilotlarining xarajatlariga xizmat ko'rsatish va hisobini yuritishni amalga oshiradigan byudjet tashkilotlari uchun o'z xarajatlari hisobini yuritish uchun (xarajatlar smetasi asosida) alohida shaxsiy g'azna hisobvaraqlari va xizmat ko'rsatiladigan quyi byudjet tashkilotlarining xarajatlari hisobini yuritish uchun (jamlanma xarajatlar smetalari asosida) byudjet tasnifining har bir kichik bo'limi bo'yicha alohida shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi;

- kapital qurilish buyurtmachilari uchun - kapital qurilish obyektlari bo'yicha xarajatlarning oylik yoyilmasi, qurilishlarning manzilli ro'yxati, loyiha-tadqiqot ishlarining manzilli ro'yxati, qurilishlarning titul ro'yxati.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Zaxira jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalari mablag'lari uchun xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari har bir xarajatlar smetasi bo'yicha alohida ochiladi.

Xarajatlar bo'yicha byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlari quyidagilarga asosan ochiladi:

- shaxsiy g'azna hisobvarag'i ochish uchun ariza;

- byudjetdan tashqari mablag'larning limitlangan tushumi va xarajatlari bo'yicha xarajatlar smetasi (tushumi va xarajat yo'nalishi limitlanmagan byudjetdan tashqari mablag'lar bundan mustasno).

Xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari byudjet tashkilotlari, byudjet mablag'lari oluvchilar va BMJ byudjetidan

mablag' oluvchilar tomonidan tegishli hujjatlar taqdim qilingan kundan boshlab bir ish kuni mobaynida ochiladi. Agar taqdim etilgan hujjatlar talablarga muvofiq bo'lmasa, ular qayta ishlash va kamchiliklarni bartaraf etish uchun ikki ish kuni mobaynida qaytariladi.

Shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish uchun asos bo'lgan taqdim etilgan hujjatlar qaytarib berilmaydi va moliya organlari hamda DMJ va BMJ taqsimlovchi organlarda saqlanadi. Moliya organlari hamda DMJ va BMJ taqsimlovchi organlar xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochilgandan yoki o'zgartirilgandan so'ng keyingi kundan kechiktirmasdan bu haqda byudjet tashkilotlari, byudjet mablag'lari oluvchilar va BMJ byudjetidan mablag' oluvchilarni xabardor qiladilar. O'z navbatida byudjet tashkilotlari, byudjet mablag'lari oluvchilar va BMJ byudjetidan mablag' oluvchilar ikki ish kuni mobaynida ochilgan yoki o'zgartirilgan xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari rekvizitlarini tegishli davlat soliq xizmati organlari va Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlariga yetkazadilar.

Ochilgan va yopilgan xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari to'g'risidagi ma'lumotlar hisobi "O'RMV" ATda Xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ro'yxatdan o'tkazish kitobida elektron ko'rinishda yuritiladi.

Moliya organlarining vakolatli xodimlari xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarining tegishli satrlarida quyidagilarni aks ettiradilar:

a) byudjet mablag'lari bo'yicha:

– byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari, shuningdek vaqtinchalik xarajatlar smetalari hamda kapital qurilish obyektlari bo'yicha xarajatlarning oylik yoyilmalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Zaxira jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalari mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan mablag'lar;

– xarajatlar smetalariga, shuningdek kapital qurilish obyektlari bo'yicha xarajatlarning oylik yoyilmalariga kiritilgan o'zgartirishlar;

b) byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha:

– byudjet tashkilotlarining tegishli xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan mablag'lar, tushumi va xarajat yo'nalishlari cheklanmaydigan byudjetdan tashqari mablag'lar turlari bundan mustasno;

– xarajatlar smetalariga kiritilgan o'zgartirishlar.

G'aznachilik bo'linmasining vakolatli xodimlari xarajatlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarining tegishli satrlarida quyidagilarni aks ettiradilar:

a) byudjet mablag'lari bo'yicha:

– byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga berilgan XTR;

– g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan yuridik majburiyatlar;

– g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan moliyaviy majburiyatlar;

– g'aznachilik bo'linmalari tomonidan to'langan (o'tkazilgan) xarajatlar, shuningdek naqd pul shaklidagi to'langan mablag'lar.

b) byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha:

– kelib tushayotgan byudjetdan tashqari mablag'lar;

– g'aznachilik bo'linmalarida hisobga olingan yuridik majburiyatlar;

– g'aznachilik bo'linmalarida hisobga olingan moliyaviy majburiyatlar;

– g'aznachilik bo'linmalari tomonidan to'langan (o'tkazilgan) xarajatlar, shuningdek naqd pul shaklidagi to'langan mablag'lar.

d) DMJ va BMJ mablag'lari bo'yicha:

– g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan yuridik majburiyatlar;

– g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan moliyaviy majburiyatlar;

– g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan to‘langan (o‘tkazilgan) xarajatlar, shu jumladan naqd pul shaklidagi to‘langan mablag‘lar.

e) *DMJ va BMJ byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha:*

– kelib tushayotgan byudjetdan tashqari mablag‘lar;

– g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatga olingan yuridik majburiyatlar;

– g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatga olingan moliyaviy majburiyatlar;

– g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan to‘langan (o‘tkazilgan) xarajatlar, shuningdek naqd pul shaklidagi to‘langan mablag‘lar.

G‘aznachilik bo‘linmalari byudjet tashkilotlari, byudjet mablag‘lari oluvchilar hamda BMJ byudjetidan *mablag‘ oluvchilarning so‘roviga ko‘ra ularning tegishli xarajatlar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan operatsiyalar amalga oshirilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda* ulardan ko‘chirmalarni taqdim etadilar. “Uzasbo” DMga ulangan byudjet tashkilotlari “Uzasbo” DMdan elektron hujjat ko‘rinishdagi ko‘chirmalarni olishlari mumkin. Elektron hujjat ko‘rinishda taqdim qilingan ko‘chirmalar va ularga ilovalar qog‘oz hujjatlarga tenglashtiriladi va ular bilan bir xil yuridik kuchga ega bo‘ladi.

8.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Yagona G‘azna hisobvarag‘ini yuritilishini takomillashtirish

2012 yilning 1 yanvaridan boshlab Davlat byudjeti daromadari va xarajatlari ijrosi Yagona G‘azna hisobvarig‘iga o‘tkazilishi ma’lum qilindi. Respublika va mahalliy byudjet daromadlari shuningdek davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalari daromadlari 2012 127 yil 1 yanvardan boshlab Markaziy bankning Toshkent shahar bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa Markazida ochilgan Yagona G‘azna hisobvaragiga kirim qilinadi va xarajatlarni ushbu hisobvaraqdan to‘lab beriladi. Yagona G‘azna hisobvarag‘i rekvizitlari: Bank nomi: Markaziy bank Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-

kitob kassa Markazi Yagona g'azna hisobvaragi: 23402 000 300 100 001 010 MFO6 00014 STIR INN: 201122 919 Byudjet tashkilotlari va fond mablag'larini tasarruf etuvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish hamda ilgari ochilgan shaxsiy hisovaraqlar orqali tegishli operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida o'zgartirishlar bo'lmaydi hamda ushbu shaxsiy hisobvaraqlardan xarjatlarni amalga oshirishning amaldagi tartibi saqlab qolinadi. Bunda, byudjetdan mablag' oluvchilarning ishlab turgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari yopilmaydi va belgilangan tartibda ishlaydi. "Byudjetdan mablag' oluvchilar va fond mablag'lari tasarruf etuvchilarning 2012 moliya yilidan boshlab tovarlar ishlar, xizmatlar yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan shartnomalarda jumladan, kapital qurilish buyicha yildan-yilga o'tuvchi obyektlar bo'yicha shartnomalarga qo'shimcha kelishuvlarda hamda to'lov hujjatlarida to'lovchi, ya'ni g'aznachilik rekvizitlari qismida Yagona G'azna hisobvarag'i va ularning shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ko'rsatiladi". Byudjetdan mablag' oluvchilarning 2012 moliya yilidan boshlab byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga kelib tushadigan (tovar ishlab chiqarish va sotish, xizmatlar ko'rsatish, to'lov kontrakt mablag'lari, ota-onalar to'lovlari va boshqa to'lovlar) tushumlarida oluvchi, ya'ni g'aznachilik rekvizitlari qismida Yagona G'azna hisobvarag'i 28 O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2011 yil 2 dekabrda BA\ 31-01\1-34-13\800 sonli xati. 128 rekvizitlari ko'rsatiladi. Byudjetdan mablag' oluvchilar o'z mijozlariga (tovar ishlab chiqarish va sotish, xizmatlar ko'rsatish) yoki boshqa mablag' to'lovchilarga (to'lov kontrakt mablag'lari, ota-onalar to'lovlari va boshqa to'lovlar) byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha tegishli shaxsiy hisobvaraqlarni yetkazishlari va to'lovlarni amalga oshirishda to'lov maqsadida ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ko'rsatishlari shart. Aks holda byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tegishli tushumlar noaniq tushumlar hisobvarag'iga kiritiladi va aniqlik kiritish maqsadida to'lovlar amalga oshirilgan bank hisobvarag'iga qaytarib yuboriladi. 2011 moliya yiliga qo'shimcha davrdagi operatsiyalar

“G‘aznachilik” dasturiy majmuada bitta bazada, ya’ni “Yagona G‘azna hisobvarag‘i” rejimida Yagona g‘azna hisobvarag‘i orqali amalga oshiriladi. Bunda byudjetdan mablag‘ oluvchilarning hamda fond mablag‘lari tasarruf etuvchilarning tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan 2011 moliya yili uchun tuzilgan shartnomalariga qo‘shimcha kelishuv tuzilmaydi, balki to‘lov hujjatlarining to‘lovchi qismida Yagona g‘azna hisobvarag‘i rekvizitlari ko‘rsatiladi. Respublikamizda kelgusida g‘aznachilik tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish uchun doimiy G‘aznachilikning Yagona g‘azna hisobvarag‘i monitoringini o‘tkazish kerak. G‘aznachilikning Yagona g‘azna hisobvarag‘i holatining monitoringini o‘tkazish uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi: buyurtma qilingan mablag‘lar hajmi, Davlat byudjetining kassa tushumi va to‘lovlari, yagona hisobvaraqdagi mablag‘larning kassa qoldig‘i. Yagona g‘azna hisobvarag‘i holatining monitoringini maqsadi quyidagilardan iborat:

- Davlat byudjetining kassa ijrosida mahalliy byudjetlarni mablag‘lar bilan ta’minlash tartib-qoidalarining ijrosini baholash;

- Yagona g‘azna hisobvaraqlarning holatini xarakterlovchi ko‘rsatkichlarni baholash va tahlil qilish;

- kassa tushumi va to‘lovlarni bashorat qilish;

- Yagona g‘azna hisobvarag‘i faoliyatida operatsiyalarni tezkor boshqarish va Yagona g‘azna hisobvarag‘ining likvidligini boshqarish konsepsiyasini amalga oshirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda byudjet amaliyotida g‘aznachilik texnologiyalarini takomillashtirish va davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish uchun Davlat byudjeti mablag‘larini bashoratlashtirish va kassali rejalashtirishni takomillashtirish bilan birga, Davlat byudjeti mablag‘larini likvidligini oshirishga olib keladigan G‘aznachilikning Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi operatsiyalarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish zarur.

Respublikamizda Davlat byudjetitini samarali boshqarishdagi o‘zgarishlardan biri – kassali rejalashtirish tizimini joriy qilish hisoblanadi.

G'aznachilikda kassali rejalashtirish byudjet daromadlarini sifatli bashoratlashtirish va xarajatlarini to'lovini o'z vaqtida amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, mamlakatimizdagi islohotlarning hozirgi sharoitida asosiy e'tiborni byudjet xarajatlari va daromadlarini to'g'ri rejalashtirish hamda byudjet siyosatining ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Yagona g'azna hisobraqamiga qanday ta'riflar berilgan?
2. Byudjet tizimi byudjetlarini boshqarishda yagona g'azna hisobraqamining o'rni qanaqa?
3. Horijiy yagona g'azna hisobraqamlari faoliyati qanday tashkil etilgan?
4. Respublika va hududiy g'azna hisobraqamlarining mazmuni nima, tayinlanishi va yuritilish tartibi qanday?
5. Yagona g'azna hisobraqamiga o'tishning afzalliklari nimada?
6. Shaxsiy g'azna hisobraqamlari qanday tartibda ochiladi va yuritiladi?
7. Shaxsiy g'azna hisobraqamlarining qanday turlari mavjud?
8. Shaxsiy g'azna hisobraqamlarini ochish vakolatiga qaysi organlar ega?
9. Yagona g'azna hisobraqami va shaxsiy g'azna hisobraqamlari qaysi axborot tizimi orqali yuritiladi?
10. Byudjet tasniflanishining g'azna hisobraqamlari bilan qanday bog'liqligi mavjud?
11. Byudjet daromadlarini yagona g'azna hisobraqamida yuritish tartibi qanaqa?
12. Byudjet xarajatlarini yagona g'azna hisobraqamidan to'lab berish qanday tartibda amalga oshiriladi?
13. Yagona g'azna hisobraqamini yuritishning qanday muammolarini bilasiz?

14. Davlat moliyasini samarali boshqarishda yagona g'azna hisobraqami faoliyatini samarali tashkil etishning qanday omillari mavjud?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Yagona g'azna hisobraqamida daromadlarni kirim qilish va xarajatlarni to'lash tartibini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va ularni izohlovchi xulosa yozing.

2. Respublika va hududiy g'azna hisobraqamlaridan yagona g'azna hisobraqamiga o'tish davrida amalga oshirilgan tadbirlar va qabul qilingan me'yoriy hujjatlar sharhini keltiring.

3. Davlat byudjeti yagona g'azna hisobraqamini yuritishning jahon tajribalarini o'rganing va xulosalaringizni mustaqil ta'lim daftaringizda aks ettiring.

9-MAVZU. BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI DAROMADLARINING G‘AZNA IJROSI

9.1. Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining g‘azna ijrosini tashkil etishning zarurligi

9.2. Yagona g‘azna hisobraqamida byudjet daromadlari ijrosini hisobga olish

9.3. To‘lovlar kontingentini “O‘RMV” ATda aks ettirish orqali yag‘hga kiritish va ortiqcha to‘langan to‘lovlarni qaytarish

9.4. Byudjet tizimi byudjetlari daromadlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va hisobini yuritish tartibi

9.1. Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining g‘azna ijrosini tashkil etishning zarurligi

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo‘l tutishi davrida Davlat byudjetining mamlakatni jiti-moiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi. Byudjet daromad-larini shakllantirish iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatning iqtisodiy barqarorligi byudjet daromadlarining darajasi bilan belgilanadi, uning asosiy manbalari soliqlar hisoblanadi. Mamlakatimizdagi islohotlarning hozirgi sharoitida asosiy e‘tiborni byudjet tizimini rivojlantirish va soliq siyosatini samarali yo‘nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga e‘tibor qaratish muhim vazifalardan biridir. Mamlakatda pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi moliyaviy munosabatlarni o‘zida ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning

funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi byudjet daromadlari deyiladi.

“Davlat byudjeti daromadlari» moliyaviy kategoriyaning namoyon bo'lish shakli byudjetga borib tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imglar, bojlar va ajratmalardan iborat. Davlat byudjetining daromadlarining absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning Yalpi ichki mahsulotining umumiy hajmi, muayyan davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Davlat byudjetida mablag'larni to'plash miqdori va ularni undirishning shakl va uslublari aniqlanadi.

*Davlat byudjetiga majburiy to'lovlarning kelib tushishi soliq va bojxona tizimlariga kiruvchi maxsus vakolatli organlar hamda mazkur vazifa zimmasiga yuklatilgan boshqa davlat organlari tomonidan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi turmush darajasini yaxshilash, milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishdir. Soliq yukining optimal darajasi, tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiyot rivojlanishiga to'siq bo'lmasligi, soliqlar tortiladigan obyektlarni yashirishga majburiy ehtiyoj tug'dirmasligi, soliq to'lagandan keyin qolgan daromadlar korxonalar moliyaviy barqarorligini va aholining yaxshi turmush darajasini ta'minlashi kerak.*⁸⁸

Bizga ma'lumki, davlat byudjetining daromadlari mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, ular oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini byudjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Byudjet daromadlarining moddiy mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu

⁸⁸ Петту В. Экономические и статистические работы. М.: Соцингиз, 1940. С. 98.

byudjet kategoriyaning namoyon bo'lish shakli byudjetga borib tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'img'lar, bojlar va ajratmalardan iborat.

Miqdoriy jihatdan Davlat byudjetining daromadlari yaratilgan yalpi ichki (milliy) mahsulotda (milliy daromadda) davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda Davlat byudjetida mablag'larni konsentratsiya qilish (to'plash, yig'ish) miqdori va ularni undirishning shakl va metodlari aniqlanadi.

Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayonining quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

- soliqlarning byudjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;

- soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanmog'i lozim;

- soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga ta'sir ko'rsatmasligi;

- soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;

- davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi lozim;

- soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak;

- subyektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishiga rioya etish lozim;

- subyektlarning xatti-harakati va intilishiga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to'liq yoki qisman byudjetga olinishi;

- ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun korxonaning rejalashtirilgan ehtiyojidan ortgan summalarni byudjetga olish;

- byudjet mexanizmining rag'batlantiruvchi ta'sirini ta'minlash;

- byudjet daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish.

Davlat byudjetining daromadlari o‘zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to‘lovlarning turi, mablag‘larning tushish shakli va ularni byudjetga undirish metodlariga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.

Hozirgi vaqtda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida soliqlar davlat byudjeti daromadlarining birlamchi manbai hisoblanadi. Rivojlangan industriya davlatlarda, xususan, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Kanadada soliqlar davlat byudjeti daromadlarining 90 foizgacha bo‘lgan qismini, AQSHda esa 70 foizdan ortiq qismini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining asosiy (95 foizdan ortiq) qismi soliq tushumlaridan iborat.

Soliqlarni davlat byudjeti daromadlarining asosiy, birlamchi manba ekanligi ularning mohiyatini ochish maqsadida qator ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazilishiga sabab bo‘ldi. Soliqlarni byudjet daromadlarining manbai sifatidagi mohiyatini nazariy jihatdan asoslab bergan birinchi olim V.Petti hisoblanadi. U o‘zining 1662 yilda yozgan “Soliqlar va yigimlar to‘grisida traktat” nomli ilmiy asarida davlat uchun zarur bo‘lgan soliqlar miqdorini asoslab berish uchun davlat xarajatlarining majmuini aniqlashga harakat qildi. V.Pettining fikriga ko‘ra davlat foydasiga soliqlarni undirish mutanosib bo‘lishi lozim, chunki bu mexanizm turli miqdordagi daromadlar uchun “betaraf” hisoblanadi: “Soliq qanchalik ulkan bo‘lmasin, agar u barchaga mutanosib ravishda belgilangan bo‘lsa, u tufayli hech kim boyligining qandaydir qismini yo‘qotmaydi. Bundan tashqari, yig‘ilgan soliqlar mamlakatdan chiqib ketmas ekan, mamlakat boshqa mamlakatlarga nisbatan bir xilda boy bo‘lib qolaveradi”.⁸⁹ Demak, Petti soliqlarni byudjet daromadlarining asosiy manbai sifatidagi rolini e‘tirof etgan holda, soliqqa tortishni barcha soliq to‘lovchilar uchun teng bo‘lishini ta’kidlab o‘tgan.

⁸⁹ *Петти В. Экономические и статистические работы. М.: Соцингиз, 1940. С. 98.*

Klassik iqtisodchilardan Adam Smit soliqlarni faqat davlat byudjeti daromadlarining manbai sifatida tatqiq qildi. Uning fikriga ko'ra, soliqlar hukumatni saqlash xarajatlarini qoplashga yetishi zarur. Demak, A.Smit o'zining butun diqqat e'tiborini soliqlarni fiskallik funksiyasiga qaratdi.

Shuningdek, A.Smit soliq yukini taqsimlash nazariyasini quyidagicha shakllantirdi: barcha soliqlar pirovard natijada, yer egalari olinadi, chunki ular daromadning qo'zgalmas manbaini doimiy egalari hisoblanishadi. A.Smit fiziokratlardan farqli ravishda yagona soliq nazariyasini qo'llab quvvatlamadi. Uning fikriga ko'ra, rentani soliqqa tortish bilan birga ish haqiga solinadigan soliq ham mavjud bo'lishi lozim. Ushbu soliq ish haqini to'langan soliqlarning to'liq summasiga ko'paytiradi, agar faqat mehnatga bo'lgan talabni kamayishi yuz bermasa, albatta. Bundan tashqari, A.Smit iste'mol buyumlariga ham soliqlar solishni taklif qilgan, bu soliqlar tovarlar bahosini oshiradi va tovarlarning alohida turlariga bo'lgan talabning o'zgaruvchanligiga ta'sir qiladi.⁹⁰

Klassik iqtisodchi D.Rikardo, A.Smitning soliqlar to'grisidagi nazariyasini sezilarli darajada to'ldirdi. O'zining oldin o'tgan taniqli iqtisodchilardan farqli o'laroq, D.Rikardo soliqqa tortishning yangi tamoyilini yaratdi. Ushbu tamoyilga ko'ra, barcha soliqlar, agar u ishab chiqarish hajmini oshirish yoki noishlab chiqarish xarakteridagi iste'molni kamaytirishga asoslangan holda o'rnatilmagan bo'lsa, kapitalni jamgarishga to'sqinlik qiladi.⁹¹

D.Rikardoning fikriga ko'ra yer rentasini soliqqa tortish juda oson va qulay, ammo rentadan olinadigan soliqning yuki to'gridan to'gri xaridor zimmasiga yuklatilmasligi lozim, chunki bu soliq taklifi qat'iy belgilangan omilga solingan soliqdir. D.Rikardo foydaga solinadigan soliqni tovarlarning bahosi va taklifiga ta'sirini tahlil qilgan. U tahlil natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosani shakllantiradi:

⁹⁰ Петту В. Экономические и статистические работы. М.: Социгиз, 1962. С. 408.

⁹¹ Рикардо Д. Начала политической экономики и податного обложения. М.: 1908, М. Л.: 1929; М., 1935. С. 193.

tovarlarni oborotining tezligini turli tovar pozitsiyalari bo'yicha bir xil emasligi soliq yukini ularning bahosiga bir xilda ta'sir etmasligiga olib keladi. Soliqlarning to'g'ri xildagi samarasi tufayli pullarning miqdorining ko'payishi baholarning tarkibiga ham, darajasiga ham ta'sir qiladi.⁹²

XIX asrda S.Sismondi soliqlarning byudjet daromadi sifatidagi mohiyatini tadqiq qilish asosida shunday xulosaga keldi: soliq to'lovchi davlat xizmatlarini kelgusida iste'mol qilish maqsadida joriy ne'matining ma'lum qismini hukumat foydasiga qurbon qiladi. XIX asrning boshqa iqtisodchilari – A.Ter va J.Mak-Kullox soliqni davlatga berilgan “sugurta to'lovi” sifatida qaradilar.

Soliqlarni davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai sifatidagi mohiyatini ochib berishda J.M.Keynsning xizmatlari juda kattadir. Uning fikriga ko'ra, bozor mexanizmi takomillashmagan mexanizmdir, shuning uchun iqtisodiyot o'z-o'zini boshqarishning samarali instrumentlariga ega emasdir. Bunday sharoitda faqat davlat fiskal va pul kredit siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga solish qobiliyatiga egadir. Keyns mazkur usullar ichida soliqlarni bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roliga alohida e'tibor qaratdi. Uning fikriga ko'ra yuqori progressiv soliqlar davlat byudjetini muvozanatlashga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda davlatning adolatli ijtimoiy siyosati muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aholining kam ta'minlangan qatlamlari soliqdan ozod qilinadi va soliq yuki to'liq badavlat soliq to'lovchilar zimmasiga yuklanadi. Keynsning qat'iy tarzda e'tirof etishiga ko'ra, katta jamgarmalar iqtisodiy o'sishga halaqit beradi. Chunki ular ishlab chiqarishga yo'naltirmaydi va daromadlarning passiv manbai hisoblanadi. Shuning uchun ortiqcha jamgarmalarni soliqlar yordamida undirib olish zarur.⁹³

⁹² Блауз М. Экономическая мысль в ретроспективе. Пер. с англ., 4-е изд. М.: Дело Лтд. 1994. С. 124-125.

⁹³ Кейнс Джон Мейнард. Общая теория занятости, процента и денег. М.: Прогресс. 1978. С. 365.

Keynsning soliq nazariyasiga oid qarashlari uning izdoshlarini nazariy qarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Amerikalik iqtisodchi olimlar – G.Tibold, J.Pechler; inglizlik iqtisodchi olimlar – T.Kou, K.Krosland; fransuz iqtisodchi olimlar – M.Klyuzo, J.Furastelar J.M.Keynsning izdoshlari bo'lib, yuqori soliq stavkalarini qo'llash, davlat byudjetida yirik mablag'larni to'plash, davlat tomonidan yirik ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish tarafdorlari bo'lib chiqdilar.

XX asrning 50 yillarida J.M.Keyns ta'limotiga nisbatan muqobil ta'limot sifatida monitarizm ta'limoti yuzaga keldi. Bu ta'limotning asoschisi AQSHning Chikago Universitetining professori M.Fridman hisoblanadi. Monitaristlar iqtisodiyotga davlatning aralashuvini maksimal darajada cheklashni qat'iy talab qildilar. Shu boisdan ular soliqlarning darajasini minimallashtirishni, iqtisodiyotni pul massasini va foiz stavkalarini o'zgartirish orqali tartibga solishni taklif qildilar.


Soliq nazariyasini rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan olimlardan biri italiyalik Nitti hisoblanadi. U davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini taqqoslash usulidan foydalangan holda soliqlarning byudjet daromadi sifatidagi rolga quyidagicha baho beradi: *“Soliqlar – davlatning iqtisodiy siyosatini ajralmas qismidir. Agar yigiladigan soliqlarning sezilarli qismi ishlab chiqarish maqsadlariga, samarali ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishga va ilmiy-tadqiqotlarga ishlatilsa, agar armiya va davlat apparatini saqlash xarajatlari nisbatan katta bo'lmasa, u holda soliqlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi. Va, aksincha, agar yigiladigan soliqlar byudjet sohasi orqali iste'molga yo'naltirilsa, ya'ni yeb yuborilsa u holda ular mamlakat iqtisodiyotiga vayron qiladigan tarzda ta'sir ko'rsatadi”*.⁹⁴

Taniqli rus iqtisodchi-olimlaridan M.Speranskiy, S.Vittilar soliqlarning byudjet daromadlari sifatidagi rolga baho berganlar. Ularning nazariy qarashlariga xos bo'lgan o'ziga xos jihat – bu soliqqa tortishning ma'naviylik (нравственность) tamoyilini ishlab

⁹⁴ *Нумми Ф.* Основные начала финансовой науки. С. 241.

chiqilganligi hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra o'ziga to'q, badavlat mulk egalariга nisbatan qo'shimcha soliqlarning va yuqori soliq stavkalarining qo'llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Lekin, biron-bir mamlakat amaliyotida yuqorida qayd etilgan nazariyalarning biron-tasi sof holda qo'llanilmaydi. Odatda, mazkur nazariy oqimlarning ayrim qoidalaridan milliy soliq tizimi ma'lum bir davriy oraliqlarda foydalaniladi.



9.1-rasm. Davlat byudjeti daromadlari tarkibi⁹⁵

Soliqlarning byudjet daromadlarining manbai sifatidagi mohiyatini ochib berishga bag'ishlangan nazariy qarashlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, *birinchidan*, soliqlar davlatning funksiyalarini bajarishning asosiy va birlamchi moliyaviy manbai hisoblanadi; *ikkinchidan*,

⁹⁵ "O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'RQ-360-son (26.12.2013) O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan qabul qilingan Byudjet Kodeksiga asosida.

soliqlarning milliy daromadni qayta taqsimlashdagi roli bevosita davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi bilan belgilanadi; *uchinchidan*, soliqlardan byudjetning iqtisodiy mazmundagi xarajatini moliyalashtirishda foydalanish masalasiga alohida e'tibor berish amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish davlatning iqtisodiyotga faol moliyaviy aralashuvini zarur qilib qo'yadi; *to'rtinchidan*, soliqqa tortish tamoyillarini buzilishiga yo'l qo'ymaslik soliq tushumlarining barqarorligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi; *beshinchidan*, respublika-miz iqtisodiyotining investitsion resurslarga bo'lgan yuqori darajadagi talabini qondirish maqsadida soliqlarning jamgarmalarga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Rivojlangan industrial mamlakatlar bank amaliyotida byudjet daromadlarining hajmidagi salmog'iga ko'ra, bank kreditlari uchinchi o'rinni egallaydi. Masalan, AQSHda bu ko'rsatkich uch foizni tashkil qiladi.

Byudjet daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli, ularni byudjetga undirish metodlari va hokazolarga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.


Byudjetning solikli daromadlari tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig'implari, mahalliy soliqlar va yig'implar, bojxona bojlari, boj yig'implari va boshqa boj to'lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

Nosoliqli daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat mulkini foydalanishdan olingan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- byudjet tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan haqli (to'lovli) xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy choralarni qo'llash natijasida olingan mablag'lar, jumladan, jarimalar, konfiskatsiyalar,

kompensatsiyalar va davlat subyektlariga yetkazilgan zararlarni tiklash bo'yicha olingan mablag'lar va majburiy undirilgan boshqa mablag'lar;

- moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar (byudjet ssudalari va byudjet kreditlaridan tashqari);
- boshqa soliqsiz daromadlar.



9.2-rasm. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning guruhlanishi⁹⁶

Budjet daromadlarining tarkibiga tushumlarning quyidagi ko'rishlari hisobga olinishi mumkin:

⁹⁶ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23-moddasi.

- davlat mulkini vaqtinchalik foydalanishga berish natijasida ijara haqi yoki boshqa ko‘rinishda olinadigan mablag‘lar;
- kredit muassasalaridagi hisob varaqlarida byudjet mablag‘larining qoldig‘i bo‘yicha foizlar ko‘rinishida olinadigan mablag‘lar;
- davlat mulkiga tegishli bo‘lgan mol-mulknii garovga yoki ishonchli boshqaruvga berishdan olinadigan mablag‘lar;
- qaytarish va haq olish asosida boshqa byudjetlarga, xorijiy davlatlarga yoki boshqa yuridik shaxslarga berilgan byudjet mablag‘laridan foydalanganlik uchun haq;
- davlatga qisman tegishli bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari ustav kapitalining hissasiga yoki aksiyalar bo‘yicha dividendlarga to‘g‘ri keladigan foyda ko‘rinishidagi daromadlar;
- davlat unitar korxonalarini foydasining bir qismi (soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq to‘langan soliq va yig‘imlardan so‘ng);
- davlatga tegishli bo‘lgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olinadigan qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa daromadlar.


Byudjet daromadlar qismini to‘ldirishning manbalaridan biri byudjet tizimida boshqa darajada turgan byudjetdan dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar yoki mablag‘larni qaytarilmaslik va tiklamaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir.

Bunday moliyaviy yordamlar mablag‘larni oluvchi byudjetning daromadlarida o‘z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o‘tkazilayotgan mablag‘lar ham byudjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi.

9.2. Yagona g‘azna hisobraqamida byudjet daromadlari ijrosini hisobga olish

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari qismi asosini mamlakatimizda 2014 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 50-51-52-moddalari bilan belgilab qo‘yilgan daromadlar tashkil qiladi. Davlat byudjetiga

o'tkaziladigan soliqlar va majburiy to'lovlarning hisobga olinishi yoki byudjet hisobiga keragidan ortiq miqdorda o'tkazib yuborilgan summalarning qaytarib berilishi respublikamizda amalda bo'lgan Soliq Kodeksi, Bojxona Kodeksi, shuningdek, 2001 yil 19 fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining kassa operatsiyalarini amalga oshirish orqali ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 1009-sonli raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yo'riqnomalar asosida bajariladi.



9.3-rasm. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi tarkibidagi soliqlarning byudjet tizimi bo'g'inlari daromadlarini shakllantirishiga ko'ra guruhlanishi⁹⁷

⁹⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23-moddasi asosida.

Davlat byudjetining markaziy bo'g'ini bo'lgan respublika byudjetiga Soliq Kodeksining 23-moddasida belgilab berilgan umumdavlat daromadlari va majburiy to'lovlari tushiriladi. Ma'lumki, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan tartibga soluvchi soliqlar bo'yicha to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Byudjet parametrlari to'g'risidagi maxsus qarori bilan har moliya yili uchun tasdiqlanadigan normativlar bo'yicha respublika byudjetiga o'tkaziladi.

Davlat byudjetiga majburiy to'lovlarning kelib tushishi soliq va bojxona tizimlariga kiruvchi maxsus vakolatli organlar hamda mazkur vazifa zimmasiga yuklatilgan boshqa davlat organlari tomonidan ta'minlanadi.⁹⁸

Umumdavlat soliqlarining ayrimlari bo'yicha to'lovlar to'lig'icha respublika byudjetiga yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining byudjetlariga o'tkazilishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy hokimiyat organlari byudjetlariga tartibga soluvchi umumdavlat soliq to'lovlarining normativlarga asosan taqsimlanadigan ma'lum qismi, mahalliy byudjetlarga o'tkazilishi belgilab qo'yilgan umumdavlat soliqlarining bir qismi hamda mahalliy soliqlar va boshqa xil yig'imlar bo'yicha to'lovlar o'tkaziladi.

Tartibga soluvchi umumdavlat soliqlardan to'lovlarini bajarish yuzasidan zimmasidagi majburiyatlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar tomonidan to'langan soliqlar va boshqa to'lovlar summalari tegishli banklar tomonidan respublika byudjetiga o'tkaziladi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadigan tartib-qoidalarga muvofiq respublika byudjetining asosiy hisob-kitobraqamiga jamlanadi, shuningdek, amaldagi qonunchilik normalariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy hokimiyat organlarining byudjetlariga o'tkazib beriladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat sektorining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli katta ahamiyatga ega. Uning

⁹⁸ D. Pulatov, B. Nurmammedova. G'aznachilik. T.: Sano Standart, 2014.

samarali faoliyatini amalga oshirish uchun davlat byudjeti daromadlarini yetarli va uzluksizligini ta'minlash zarur hisoblanadi. Ayniqsa, respublikamiz bir necha yillardan buyon davlat moliyasini isloh etishda davlat byudjet daromadlarini g'azna ijrosi bilan qamrab olish islohotlarning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 5 martdagi (ro'yxat raqami №02-02/1-860, 2016 yil 14 mart) 1-sonli bayonnomasiga muvofiq 2016 yilning 1 apreldan 1 iyuniga qadar byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini yig'ishning amaldagi tartibni saqlab qolgan holda O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini g'azna ijrosi mexanizmi bilan qamrab olishning sinov (test) jarayonini amalga oshirish, shuningdek Moliya vazirligi axborot tizimi hamda Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va daromadlarni yig'ishga vakolatli bo'lgan tegishli organlar va tashkilotlar axborot tizimlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish, shuningdek, 2016 yilning 1 iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini g'azna ijrosi mexanizmi bilan to'liq qamrab olish vazifasi yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasining Byudjet, Soliq va Bojxona kodekslari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining kassa ijrosi to'g'risidagi" yo'riqnomaga ko'ra⁹⁹ byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining g'azna ijrosi jarayonida tegishli byudjetlar daromadlarining tasdiqlangan miqdori, daromadlarning kassa tushumlari hajmi va tegishli byudjetlarga va byudjetlardan daromadlar turi va manbasi bo'yicha amalga oshirilgan qaytarish (hisobga olish) summalari

⁹⁹ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 30 martda 2771-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining 2016 yil 24 martdagi 20, 2016-14, 01-02/8-10-sonli qarori asosida.

bo'yicha ma'lumotlarni aks ettirish uchun mo'ljallangan analitik hisob registrlari shakllantirilgan.

To'lovlar turlari

TASNIFI

T/r	To'lov turi	To'lovlar nomi	Tarkibi
Byudjetga to'lovlar bo'yicha			
1	08101	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha oldindan to'lov	Soliq bo'yicha majburiyatni muddatdan oldin ijrosi
2	08102	Hisob-kitobga muvofiq soliq va boshqa majburiy to'lovlar to'lovi	Soliq hisoboti bo'yicha vujudga kelgan soliq majburiyati ijrosi
3	08103	Qayta hisoblashga asosan soliq va boshqa majburiy to'lovlar to'lovi	Aniqlangan soliq hisoboti bo'yicha vujudga kelgan soliq majburiyati ijrosi
4	08104	Kameral tekshiruvga asosan soliq va boshqa majburiy to'lovlar to'lovi	Kameral tekshiruv natijasida vujudga kelgan soliq majburiyati ijrosi
5	08105	Soliq tekshiruvi natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar to'lovi	Soliq tekshiruvi natijasida vujudga kelgan soliq majburiyati ijrosi
6	08106	Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning depozit hisobraqamlariga o'tkazib berilgan qo'shimcha hisoblangan soliqlar to'lovi	Tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning depozit hisobraqamlariga o'tkazib berilgan qo'shimcha hisoblangan soliq summasi hisobidan soliq majburiyati ijrosi
7	08107	Sud ijrochilari tomonidan undirib olingan soliq to'lovlari	Sud ijrochilari tomonidan undirib olingan soliq summasi hisobidan soliq bo'yicha majburiyatlari ijrosi
8	08108	Penalar	Soliq to'lovlari muddatlarini buzganligi uchun hisoblangan pena bo'yicha soliq majburiyatlari ijrosi
Bir martalik hisobga olish uchun byudjetga to'lovlar			
9	08201	Bir martalik hisobga olish uchun byudjetga asosiy to'lov	
10	08202	Bir martalik hisobga olish uchun byudjetga to'lov bo'yicha pena	
11	08203	Bir martalik hisobga olish uchun byudjetga to'lov bo'yicha moliyaviy sanksiya	

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida bir martalik hisobga olish uchun byudjetga to'lovlar			
12	08301	Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida bir martalik hisobga olish uchun byudjetga asosiy to'lov	
13	08302	Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida bir martalik hisobga olish uchun byudjetga to'lov bo'yicha pena	
14	08303	Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida bir martalik hisobga olish uchun byudjetga to'lov bo'yicha moliyaviy sanksiya	

9.4-rasm. Byudjet tizimi byudjetlariga to'lovlar turlari bo'yicha tasniflanishi¹⁰⁰

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining kassa ijrosi "O'RMV" ATda YaG'Hni qo'llagan holda amalga oshiriladi. 3. Jismoniy va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, yuridik shaxslardan milliy valyutadagi to'lovlar O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan qabul qilinadi va YaG'Hga o'tkaziladi.

Byudjet tizimi byudjetlariga to'lovlar tushumi bo'yicha operatsiyalar hisobini yuritish va keyinchalik ularni byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida taqsimlash uchun Moliya vazirligi tomonidan "O'RMV" ATda har bir tuman, shahar uchun har bir to'lov turi bo'yicha soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha vakolatli organlar kesimida daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi. Bunda daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazilgan to'lovlar, *To'lovlar turi tasnifidagi 08201 - 08203, 08301 - 08303 to'lov kodlari* bilan ko'rsatilgan to'lovlardan tashqari, byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida taqsimlanguniga qadar

¹⁰⁰ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 30 martda 2771-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining 2016 yil 24 martdagi 20, 2016-14, 01-02/8-10-sonli qarori asosida.

byudjet tizimi byudjetlariga to'lovlar kontingenti (bundan buyon matnda to'lovlar kontingenti deb yuritiladi) hisoblanadi.

Byudjet tizimi byudjetlariga to'lovlar to'lovchilar tomonidan har bir to'lov turi bo'yicha alohida to'lov hujjatlari bilan to'lanadi va tegishli daromadlar turlari bo'yicha tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida aks ettirilgan holda to'liq YaG'Hga o'tkaziladi.

Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari "O'RMV" ATda ochilgan kundan boshlab, shuningdek kelgusida ularga o'zgartirishlar kiritilgan hollarda hududiy moliya organlari bir ish kuni mobaynida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha vakolatli organlarga bu haqda xabar beradi.

"O'RMV" AT bilan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha vakolatli organlar va Markaziy bank axborot tizimlari o'rtasida idoralararo o'zaro axborot almashinuvi yo'lga qo'yilganida daromadlar bo'yicha ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlar va kelgusida ularning o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumot (bundan buyon matnda daromadlar bo'yicha ShG'H ma'lumotnomasi deb yuritiladi) "O'RMV" ATdan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha vakolatli organlar va Markaziy bank axborot tizimlariga avtomatik tarzda berilishi mumkin.

Banklar Markaziy bankning axborot tizimi orqali olingan daromadlar bo'yicha SHG'H ma'lumotnomasi ma'lumotidan byudjet tizimi byudjetlari daromadlariga jismoniy va yuridik shaxslardan to'lovlarni qabul qilishda foydalanadilar.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha vakolatli organlar to'lovchilar e'tiboriga hududiy moliya organlaridan olingan ma'lumotni va unga kelgusi o'zgarishlarni yetkazadi. Kelib tushayotgan to'lovlar Markaziy bankdan YaG'Hga to'lovlar summasi kiritilganligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushganidan so'ng "O'RMV" AT orqali avtomatik rejimda taqsimlanadi.

To'lovlardan byudjet tizimi byudjetlariga ajratmalar me'yorlari

To'lovlardan byudjet tizimi byudjetlariga ajratmalar me'yorlari qonun hujjatlariga muvofiq o'rnatiladi. To'lovlardan O'zbekiston

Respublikasi byudjetiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlariga, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalari (bundan buyon matnda DMJ deb yuritiladi) byudjetlariga ajratmalar me‘yorlarining miqdorlari ular o‘rnatilganidan so‘ng 3 ish kuni mobaynida Moliya vazirligi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalarga, Moliya vazirligi G‘aznachiligiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmalariga yetkaziladi.

To‘lovlardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining tumanlar va shaharlar *mahalliy byudjetlariga o‘rnatilgan ajratmalar me‘yorlarining miqdorlari* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari tomonidan tegishli tuman va shahar hokimliklariga, tuman va shahar hokimliklari moliya bo‘limlariga, tuman va shaharlar bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmalariga yetkaziladi.

To‘lovlardan O‘zbekiston Respublikasi byudjeti va DMJ byudjetlariga ajratmalar me‘yorlari “O‘RMV” ATga Moliya vazirligi G‘aznachiligining vakolatli xodimlari tomonidan kiritiladi.

To‘lovlardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjeti, tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me‘yorlari “O‘RMV” ATga mos ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmalarining vakolatli xodimlari tomonidan kiritiladi.

Moliya yili mobaynida *o‘rnatilgan me‘yorlar o‘zgarsa yoki yangidan kiritilgan boshqa* to‘lovlar bo‘yicha ajratmalar me‘yori o‘rnatilsa, yangidan o‘rnatilgan ajratmalar me‘yorlari miqdorlari ular *o‘rnatilganidan so‘ng 3 ish kuni mobaynida* ushbu o‘rnatilgan tartibda tegishli manfaatdor organlarga yetkaziladi. Bunda yangidan o‘rnatilgan

ajratmalar me'yorlarining amal qilish sanasining boshlanishi majburiy tartibda ko'rsatiladi.

To'lovlardan byudjet tizimi byudjetlariga aniqlashtirilgan ajratmalar me'yorlari belgilangan tartibda "O'RMV" ATga kiritiladi.

9.3. To'lovlar kontingentini "O'RMV" ATda aks ettirish orqali YaG'Hga kiritish va ortiqcha to'langan to'lovlarni qaytarish

To'lovlar kontingentini YaG'Hga o'tkazish, ularni "O'RMV" ATning "Tushumlarni boshqarish" modulida aks ettiriladi. Byudjet tizimi byudjetlari daromadlariga jismoniy (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklari) va yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan to'lovlar ushbu Yo'riqnomada belgilangan shakldagi to'lov topshiriqnomasiga asosan YaG'Hga o'tkaziladi. To'lovni amalga oshirish uchun to'lov topshiriqnomasida to'lovchi tomonidan:

- "Daromad shaxsiy g'azna hisobvarag'i" grafasida - tegishli daromad shaxsiy g'azna hisobvarag'i;

- "To'lov maqsadi" grafasida - ushbu Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq to'lov turining kodi va to'lov maqsadi ko'rsatiladi.

Bunda to'lov maqsadida birinchi navbatda to'lov turining kodi ko'rsatiladi. Bank xodimlari to'lovni amalga oshirish uchun to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalarini qabul qilganlaridan so'ng, "Daromad shaxsiy g'azna hisobvarag'i" grafasida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'i raqamini byudjetga o'tkazilayotgan to'lovga muvofiqligini va to'g'riligini, "To'lov maqsadi" grafasida esa 9.5-rasmdagi shaklga muvofiq ko'rsatilgan to'lov turi kodining muvofiqligini tekshiradilar.

To'lovchilarning bank hisobraqamlaridan YaG'Hga kelib tushgan to'lovlar kontingenti summalari "O'RMV" ATda tegishli daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida, shuningdek "O'RMV" ATning "Tushumlarni boshqarish" modulida yuritiladigan To'lovlar kontingentini hisobga olish kitobida aks ettiriladi.

Bojxona to'lovlari, ularni bojxona organlarining "O'RMV" ATda ochilgan depozit shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida aks ettirgan holda ushbu yo'riqnomaning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi to'lov topshiriqnomasiga asosan YaG'Hga o'tkaziladi. Bojxona to'lovlarini bojxona organlarining depozit shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan daromadlar bo'yicha tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazilishi bojxona organlari tomonidan ushbu Yo'riqnomaning 4-ilovasiga muvofiq shakldagi tegishli g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladigan g'azna memorial orderlariga asosan amalga oshiriladi.

"O'RMV" ATda daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida va To'lovlar kontingentini hisobga olish kitobida kelib tushayotgan to'lovlar kontingentining hisobi quyidagi talablarga rioya etgan holda yuritiladi:

- kelib tushayotgan mablag'larni to'lov turlari bo'yicha majburiy tartibda aks etish va guruhlash;

- banklar tomonidan to'lovchilarning bank hisobraqamlaridan YaG'Hga o'tkazib berilayotgan har bir summani kelib tushish sanasini majburiy tartibda ko'rsatish;

- har bir to'lov turini hududiy belgisi va soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha vakolatli organlar bo'yicha majburiy tartibda guruhlash;

- kelib tushgan to'lovlarni kunlar, oylar, choraklar va birinchi yarim yil, to'qqiz oylik va yillik ortib boruvchi yakun bilan majburiy tartibda hisobini yuritish.

Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari kelib tushgan to'lovlar kontingentini tasdiqlangan me'yorlarga muvofiq byudjet tizimining tegishli byudjetlari o'rtasida amaliyot kuni mobaynida har soatda taqsimlash yo'li bilan "nol" holatiga keltiriladi. Zarurat tug'ilganda kelib tushgan to'lovlar kontingentini byudjet tizimining tegishli byudjetlari o'rtasida taqsimlash real vaqt rejimida amalga oshirilishi mumkin.

To'lovlar kontingentini hisobga olish kitobi har bir moliya yili uchun alohida yuritiladi. Ma'lum bir sabablarga ko'ra tavsiflanishi va

tegishli byudjetga kiritilishi imkoniyati yo'q bo'lgan to'lovlar tushumi summalari, aniqlanmagan tushumlar sifatida identifikatsiya qilinadi va YaG'Hga qaysi bank hisobraqamlaridan o'tkazib berilgan bo'lsa, shu bank hisobraqamlariga g'aznachilik bo'linmalari tomonidan 3 ish kuni mobaynida qaytariladi.

Aniqlanmagan tushumlar To'lovlar kontingentini hisobga olish kitobida hududiy mansubligi bo'yicha, ya'ni YaG'Hga mablag' o'tkazilgan hisobraqami bankining joylashgan joyi ko'rsatilgan holda aks ettiriladi. Byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari hamda byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan byudjet mablag'lari hisobidan to'lanadigan to'lovlar tegishli daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga yo'riqnomada belgilangan shakldagi g'azna memorial orderiga asosan o'tkazib beriladi.

Bunda, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga to'lovlarni to'lashning ushbu yo'riqnomaning 18-bandida nazarda tutilgan tartibi qo'llaniladi.

YaG'Hga to'lovlar to'g'risidagi ma'lumot Moliya vazirligi tomonidan har kuni elektron shaklda "O'RMV" ATdan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha vakolatli organlarning axborot tizimlariga taqdim etiladi.

To'lovlar jismoniy shaxs tomonidan:

- naqd pul mablag'lari orqali amalga oshirilganida mablag'lar to'lovi ushbu Yo'riqnomaning 5-ilovasiga muvofiq shakldagi to'lov hujjatini rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. To'lov hujjati uch qismdan, e'lon, kvitansiya va kirim orderidan iborat. Kirim orderi bank kuni hujjatlariga tikiladi, kvitansiya to'lovni to'lab bergan jismoniy shaxsga beriladi, e'lon esa tegishli tuman (shahar) davlat soliq xizmati organi xodimlariga taqdim etiladi;

- bank plastik kartochkasi orqali amalga oshirilganida mablag'lar to'lovi ushbu Yo'riqnomaning 6-ilovasiga muvofiq shakldagi to'lov hujjatini rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi;

- o'zining omonat hisobvarag'idan tegishli daromad bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'iga amalga oshirilganida mablag'larni o'tkazish O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 2465, 2013 yil 3 iyun) muvofiq amalga oshiriladi. Bunda ko'rsatilgan to'lov summasi bank tomonidan memorial order orqali, unda tegishli daromad turi bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'ini ko'rsatgan holda YaG'Hga o'tkaziladi.

To'lovlar summalarini qaytarish yoki hisobga olish

To'lovlar summalarini qaytarish yoki hisobga olish mazkur to'lovlar ortiqcha yoki noto'g'ri to'langanida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha vakolatli organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining Soliq va Bojxona kodekslarida hamda to'lovlar summalarini qaytarish yoki hisobga olish masalalarini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Agar yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlarda mazkur paragrafdan nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, ushbu normativ-huquqiy hujjatlar qoidalari qo'llaniladi.

To'lovlar jismoniy shaxs tomonidan naqd pul mablag'lari orqali amalga oshirilganida qaytarish jismoniy shaxsning *"20206 - jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha depozitlari"* hisobvarag'iga, bank plastik kartasi orqali amalga oshirilganida esa jismoniy shaxsning *"231XX - jismoniy shaxslarning plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlari"* hisobvarag'iga amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 56- va 57- moddasiga muvofiq ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan soliqlar summalarini hisobga olishda soliq to'lovchi tomonidan ariza taqdim etilishi zarur bo'lganda, mazkur ariza ushbu yo'riqnomada belgilangan shaklga muvofiq bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 56 va 57- moddalariga muvofiq ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan soliqlar summalarini qaytarish yoki hisobga olishda davlat soliq xizmati organi tomonidan tegishli xulosa yo'riqnomada belgilangan shaklga muvofiq bo'lishi lozim.

Ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan soliqlar summalarini qaytarish yoki hisobga olish tegishli tuman (shahar) bo'yicha G'aznachilik bo'linmasiga davlat soliq xizmati organi tomonidan xulosa va moliya organining to'lov hujjatini taqdim qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Soliqlardan tashqari ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan to'lovlar summalarini qaytarish yoki hisobga olish to'lovchining arizasi hamda soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha vakolatli organning ushbu Yo'riqnomaning 9-ilovasiga muvofiq shakldagi xulosasiga asosan mazkur vakolatli organ tomonidan tegishli tuman (shahar) bo'yicha G'aznachilik bo'linmasiga xulosa va to'lov hujjatini taqdim qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qaytarish yoki hisobga olish bank kuni davomida daromadlar bo'yicha tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kelib tushgan to'lovlar kontingenti summasi doirasida amalga oshiriladi. Bank kuni davomida daromadlar bo'yicha tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kelib tushgan to'lovlar summasi yetmaganda qaytarish yoki hisobga olish keyingi bank kunining tushumlari hisobidan amalga oshiriladi. Ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan bojxona to'lovlarining qaytarilishi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qaytarish yoki hisobga olish bank kuni davomida daromadlar bo'yicha tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kelib tushgan to'lovlar kontingenti summasi doirasida amalga oshiriladi. Bank kuni davomida daromadlar bo'yicha tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kelib tushgan to'lovlar summasi yetmaganda qaytarish yoki hisobga olish keyingi bank kunining tushumlari hisobidan amalga oshiriladi. Ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan bojxona to'lovlarining qaytarilishi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Alohida hollarda, agar 30 kun mobaynida joriy tushumlarning yetishmasligi yoki mavjud bo'lmaganligi sababli qaytarish yoki hisobga olish imkoniyati bo'lmasa, qaytarish yoki hisobga olish Moliya vazirligining yozma xulosasiga ko'ra tegishli byudjetning shaxsiy g'azna hisobvarag'idan amalga oshirilishi mumkin.

XULOSA

(xulosa taqdim etuvchi vakolatli organning nomi)

arizasiga asosan (STIR - _____)
(to'lovchi yuridik shaxsning - nomi, STIR raqami yoki to'lovchi jismoniy shaxsning - F.I.O., STIR raqami)

ortiqcha (yoki noto'g'ri) to'langan summani qaytarish yoki boshqa to'lovlar hisobiga hisobga olish
to'g'risida _____
(soliq yoki to'lov nomi)

_____ summada
(sonda va yozuvda)

Taqdim etilgan materiallar tekshiruvi natijasida 20__ yil " __ " _____
holatiga ariza beruvchi tomonidan _____
_____ so'm _____
_____ tiyin

(soliq yoki to'lov nomi)

bo'yicha _____ natijasida ortiqcha
(yoki noto'g'ri) to'langani aniqlandi.

Ko'rsatilgan summa to'lovchining _____ bank
hisobraqamiga (bank kodi _____) yoki _____
_____ shaxsiy g'azna hisobvarag'iga _____
_____ lozim.

(qaytarilishi, hisobga olinishi)

Rahbar _____

Bosh buxgalter
(buxgalter, mutaxassis) _____

9.7-rasm. Ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan soliqlar summalarini qaytarish yoki hisobga olishda xulosasi shakli¹⁰²

¹⁰² O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 30 martda 2771-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining 2016 yil 24 martdagi 20, 2016-14, 01-02/8-10-sonli qarori asosida.

Ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan to'lovlarni tegishli byudjetning shaxsiy g'azna hisobvarag'idan qaytarish yoki hisobga olishda qaytarilgan yoki hisobga olingan summalar xarajatlarda aks ettirilmaydi, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti yoki DMJ daromadlari ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan daromad turi bo'yicha qaytarish yoki hisobga olish summasiga kamaytiriladi. Byudjet tashkilotlarining joriy moliya yilida byudjet yoki byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga to'langan to'lovlari summasi byudjet tashkilotining to'lov amalga oshirilgan shaxsiy g'azna hisobvarag'iga qaytariladi. Bunda byudjet tashkilotining tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'ida joriy moliya yilining kassa xarajatlarining tiklanishi bo'yicha operatsiya aks ettiriladi.

Agar byudjet tashkiloti tomonidan o'tgan moliya yilida byudjet mablag'lari hisobiga to'langan to'lov summasi qaytarilayotgan bo'lsa, u holda mablag'lar byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha (4004 mablag'lar manbasi bilan) shaxsiy g'azna hisobvarag'iga, kelgusida qaytarilgan to'lov summasini tegishli daromad shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazish hamda tushgan to'lov summasini tegishli byudjet daromadiga taqsimlash orqali qaytariladi.

Agar byudjet tashkiloti tomonidan o'tgan moliya yilida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga to'langan to'lov summasi qaytarilayotgan bo'lsa, u holda mablag'lar byudjet tashkilotining tegishli byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvarag'iga qaytariladi. Bunday holatda, qaytarilgan to'lov summasi byudjet tashkilotining joriy yildagi byudjetdan tashqari jamg'armasi tushumi manbasi sifatida aks ettiriladi, byudjet tashkilotining o'tgan moliya yilidagi kassa xarajatlari esa tiklanmaydi.

To'lovchilarga to'lovlar qaytarilganligi yoki hisobga olinganligini tasdiqlovchi to'lov topshiriqnomasi, g'azna memorial orderi va boshqa to'lov hujjatlari har kuni elektron tarzda "O'RMV" ATdan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha vakolatli organlarning tegishli axborot tizimlariga taqdim etiladi.

O‘zbekiston respublikasi davlat byudjeti va DMJ byudjetlariga kelib tushgan to‘lovlardan ajratmalarni hisobga olish kitobini yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahrining shahar byudjeti, tuman va shahar byudjetlari, DMJ byudjetlariga ajratma qilingan to‘lovlar hisobini yuritish uchun “O‘RMV” ATning “*Daromadlarni boshqarish*” modulida har yili To‘lovlardan ajratmalarni hisobga olish kitobi yuritiladi. To‘lovlardan ajratmalarni hisobga olish kitobi Davlat byudjeti hamda DMJ byudjetlari tarkibiga kiruvchi har bir byudjet uchun alohida ochiladi va yuritiladi. To‘lovlardan ajratmalarni hisobga olish kitobida to‘lovlar hisobi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining byudjet tasnifiga muvofiq yuritiladi. To‘lovlardan ajratmalarni hisobga olish kitobida YaG‘Hga kelib tushgan, To‘lovlar kontingentini hisobga olish kitobida aks ettirilgan, byudjet tizimining tegishli byudjetiga taalluqliligini aniqlash va byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida taqsimlash tartib-taomillaridan o‘tgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahrining shahar byudjeti, tuman va shahar byudjetlari, DMJ byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida aks ettirilgan to‘lovlar summasi aks ettiriladi.

To‘lovlardan ajratmalarni hisobga olish kitoblarida kelib tushgan to‘lovlarning hisobi to‘lovlar turi va byudjet tizimi byudjetlarining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga o‘tkazilgan sanalari bo‘yicha yuritiladi.

9.4. Byudjet tizimi byudjetlari daromadlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va hisobini yuritish tartibi

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlar ijrosi bo‘yicha to‘lovlar kontingenti tushumi hisobi yuritiladi va O‘zbekiston Respublikasi

Davlat byudjeti va DMJ byudjetlariga to'lovlar kontingenti bashorating ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tuziladi.

To'lovlar kontingentini hisobga olish kitobida jamlanadigan ma'lumotlar asosida "O'RMV" ATda:

- tumanlar va shaharlar bo'yicha, shuningdek soliq to'lovchilar kesimida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va DMJ byudjetlariga to'lovlar kontingenti tushumi to'g'risida tezkor ma'lumot;

- O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha, shuningdek soliq to'lovchilar kesimida to'lovlar kontingenti tushumi to'g'risida tezkor jamlanma ma'lumot;

- O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va DMJ byudjetlariga to'lovlar kontingenti tushumi to'g'risida hisobot shakllantiriladi.¹⁰³

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga to'lovlar kontingenti tushumi to'g'risidagi ma'lumot davlat soliq xizmati va bojxona organlari bilan taqqoslangandan so'ng moliya organlari va g'aznachilik bo'linmalari to'lovlar kontingenti tushumi to'g'risidagi hisobotni shakllantiradilar va yuqori turuvchi organlariga taqdim etadilar.

Tuman, shahar moliya organlari to'lovlar kontingenti tushumi to'g'risidagi hisobotni tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalariga taqdim qiladilar.

Tumanlar va shaharlar bo'yicha G'aznachilik bo'linmalari hisobotni tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalariga taqdim qiladilar.

¹⁰³ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 30 martda 2771-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining 2016 yil 24 martdagi 20, 2016-14, 01-02/8-10-sonli qarori asosida.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari to‘lovlar kontingenti tushumi to‘g‘risidagi hisobotni Moliya vazirligiga taqdim qiladilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmalari to‘lovlar kontingenti tushumi to‘g‘risidagi hisobotni Moliya vazirligi G‘aznachiligiga taqdim qiladilar.

Daromadlar tushumi hisobini yuritish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va DMJ byudjetlari daromadlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tuzish uchun “O‘RMV” ATda:

- O‘zbekiston Respublikasi byudjetiga daromadlar tushumi to‘g‘risida tezkor ma‘lumot;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahrining shahar byudjetiga daromadlar tushumi to‘g‘risida tezkor ma‘lumot;

- tumanlar va shaharlar byudjetlariga daromadlar tushumi to‘g‘risida tezkor ma‘lumot;

- DMJ byudjetlariga daromadlar tushumi to‘g‘risida tezkor ma‘lumot;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahrining shahar byudjetiga daromadlar tushumi to‘g‘risida jamlanma ma‘lumot;

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga daromadlar tushumi to‘g‘risida jamlanma ma‘lumot;

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va DMJ byudjetlariga daromadlar tushumi to‘g‘risida jamlanma ma‘lumot jamlanadi va “O‘RMV” ATda byudjet tizimining tegishli byudjetlariga daromadlar tushumi to‘g‘risidagi hisobot shakllantiriladi.

Daromadlar tushumi to‘g‘risidagi hisobot to‘lovlar turlari kesimida:

- tumanlar va shaharlar byudjetlari;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar byudjeti, Toshkent shahrining byudjeti;

- O‘zbekiston Respublikasi byudjeti;
- DMJ byudjetlari bo‘yicha shakllantiriladi.

Daromadlar tushumi to‘g‘risidagi jamlanma hisobot to‘lovlar turlari kesimida:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar byudjeti, Toshkent shahri byudjeti;

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va DMJ byudjetlari bo‘yicha shakllantiriladi.

To‘lovlar kontingenti tushumi, shuningdek ulardan tegishli byudjetlarga ushlanmalar to‘g‘risidagi hisobot ma‘lumotlarining ishonchliligi va bir xilligini ta‘minlash maqsadida moliya organlari, g‘aznachilik bo‘linmalari, davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari o‘rtasida to‘lovlar kontingenti tushumi, shuningdek ulardan byudjet tizimining tegishli byudjetlariga ajratmalar to‘g‘risidagi hisobot ma‘lumotlarining majburiy ravishda taqqoslanishi o‘tkaziladi.

YaG‘Hga to‘lovlar kontingenti kelib tushishi va byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida to‘lovlarni taqsimlash jarayoni ustidan nazorat g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Kelib tushayotgan to‘lovlar kontingentini “O‘RMV” ATda tegishli tuman, shahar hududiy kodlari bilan ochilgan daromadlar bo‘yicha tegishli shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida aks ettirish, to‘lovlardan ajratmalar me‘yorlariga majburiy tartibda amal qilinishini ta‘minlash, shuningdek kelib tushgan, qaytarilgan, hisobga olingan to‘lovlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning ishonchliligi va bir xilliligini ta‘minlash, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash va ularni to‘g‘rilash bo‘yicha choralar ko‘rish nazoratning vazifasi hisoblanadi.

G‘aznachilik bo‘linmalari har kuni YaG‘Hga mablag‘lar tushishi va ularni byudjet tizimi tegishli byudjetlari o‘rtasida taqsimlash jarayonini nazorat qiladi.

YaG'Hga pul mablag'larini o'tkazishda, shuningdek to'langan to'lovlar summasidan byudjet tizimi byudjetlariga ajratishda yo'l qo'yilgan xatolar to'g'rilanishi shart.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan moliya organlari hamda soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha vakolatli organlar bilan kelishilgan holda to'g'rilanadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Respublika va hududiy g'azna hisobraqamlarining mazmuni nima, tayinlanishi va yuritilish tartibi qanday?
2. Yagona g'azna hisobraqamiga o'tishning afzalliklari nimada?
3. Byudjet daromadlarini yagona g'azna hisobraqamida yuritish tartibi qanaqa?
4. Byudjet daromadlarini Yagona g'azna hisobraqamga kirim qilish tartibi qanaqa?
5. To'lovlarni O'RMV ATga kiritish uchun qanday tasnifdan foydalaniladi?
6. Byudjet g'azna ijrosini amalga oshirishning qanday huquqiy asoslarini bilasiz?
7. Ortiqcha to'langan to'lovlarni qaytarishning tartibi qanaqa?
8. Byudjet mablag'larini tushumini samarali tashkil etishning qanday omillarini bilasiz?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Yagona g'azna hisobraqamida daromadlarni kirim qilish va xarajatlarni to'lash tartibini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va ularni izohlovchi xulosa yozing.

2. Respublika va hududiy g'azna hisobraqamlaridan yagona g'azna hisobraqamiga o'tish davrida amalga oshirilgan tadbirlar va qabul qilingan me'yoriy hujjatlar sharhini keltiring.

3. Davlat byudjeti yagona g'azna hisobraqamini yuritishning jahon tajribalarini o'rganing va xulosalaringizni mustaqil ta'lim daftaringizda aks ettiring.

10-MAVZU. BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI XARAJATLARI G‘AZNA IJROSINI TASHKIL ETISH

10.1. Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari g‘azna ijrosining mazmuni, zarurligi va Yagona g‘azna hisobraqamdan amalga oshirilishi

10.2. Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilarni moliyalashtirish tartibi

10.3. Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari g‘azna ijrosini tashkil etish

10.1. Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari g‘azna ijrosining mazmuni, zarurligi va davlat funksiyalari bilan bog‘liqligi

Har bir mamlakatning normal ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun samarali faliyat qiluvchi davlat zarur. Davlat jamiyatga va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish, iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning samarali faoliyat qilishi uchun me‘yoriy va institutsional tuzilmalarning qonuniy asoslarini yaratish va shu bilan o‘z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib berish vazifalarini bajaradi. Shu vazifalardan kelib chiqqan holda davlatning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Bozor xo‘jaligining institutsional asoslarini shakllantiruvchi qonuniy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish, amalga oshirish va takomillashtirish;

2. Makroiqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiyotni samarali boshqarish va tartibga solish;

3. Asosiy ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

4. Milliy manfaatlarni himoya qilgan holda, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish va tartibga solish;

5. Davlat boshqaruvini, mamlakat mudofaasi va milliy havfsizligini ta'minlash;

6. Tabiat muhofazasi va ekologik muvozanatni ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish va hokazo.¹⁰⁴

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakat iqtisodiy salohiyatining oshib borishi bilan davlatning kuch-qudrati, uning o'z funksiyalarini kengaytirib borish imkoniyati ortib boradi. Zero, 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida belgilangan vazifa - makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustabkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishda byudjet xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash belgilangan.¹⁰⁵

Davlat o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, shuningdek, rivojlanishning har bir bosqichida dolzarb bo'lgan strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i va maqsadga muvofiq sarflamog'i obyektiv zaruriyatdir. Aynan shu obyektiv zaruriyatning mavjud bo'lishi davlat byudjeti xarajatlarining mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Davlat byudjeti xarajatlari YaIMning qayta taqsimlanishi natijasida davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining maqsadga muvofiq qayta taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadigan pul munosabatlari yig'indisidir.¹⁰⁶

¹⁰⁴ Pulatov D.X., Nurmuxmedova B.I. G'aznachilik: Darslik. T.: Sano-standart, 2014. 372 b.

¹⁰⁵ "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

¹⁰⁶ Колесов А.С. Бюджетный процесс: сущность и совершенствование. Финанси № 11. 2010. С. 8.

Konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibiga kiruvchi davlat maxsus fondlari bilan birgalikda esa xarajatlar ushbu davrda YalMning oʻrtacha 32-34 foizini tashkil qilgan.

Mazkur koʻrsatkichlarning birmuncha yuqori boʻlishi Oʻzbekiston ijtimoiy yoʻnaltirilgan iqtisodiyotga ega ekanligidan hamda davlatning iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga taʼsiri koʻlami kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Byudjet kodeksining 112-moddasida byudjet tizimi byudjetlari ijrosida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamgʻarmalari byudjetlari ***daromadlari va xarajatlarining yoyilmasi***¹⁰⁷ yuritilib:

- byudjet tasnifiga muvofiq tuzilgan daromadlar va xarajatlar bashoratining ularning tasdiqlangan parametrlariga muvofiqligini;
- daromadlar va xarajatlar parametrlari ijrosining monitoringini taʼminlash maqsadida tuziladi.

Daromadlar va xarajatlar yoyilmasining daromad qismi tegishli byudjet daromadlarining byudjet tasnifiga muvofiq oyma-oy boʻlingan yillik hajmlaridan tashkil topadi.

Daromadlar va xarajatlar yoyilmasining xarajat qismi tegishli byudjet xarajatlarining byudjet tasnifiga muvofiq oyma-oy boʻlingan moliya yili uchun tasdiqlangan xarajatlar smetalari asosida tuziladigan yillik hajmlaridan tashkil topadi.

Daromadlar va xarajatlar yoyilmasining yakuniy maʼlumotlari, bundan byudjetlararo transfertlar mustasno, tasdiqlangan yillik byudjetda qabul qilingan summalarga mos kelishi lozim.

Daromadlar va xarajatlar yoyilmasi:


- Oʻzbekiston Respublikasining respublika byudjeti boʻyicha – Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;
- Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjeti boʻyicha – Qoraqalpogʻiston Respublikasi Moliya vazirligi,

¹⁰⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 112-moddasiga asosan.

viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;

- tumanlar va shaharlar byudjetlari bo'yicha – tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan;

- davlat maqsadli jamg'armalari bo'yicha – davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan tuziladi.



10.1-rasm. Daromadlar va xarajatlar yoyilmasini tuzish vakolatining taqsimlanishi

Daromadlar va xarajatlar yoyilmasining *xarajat qismiga xarajatlar smetalarini tuzish talab qilinmaydigan quyidagilar nazarda tutiladi:*

- o byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini ro'yxatdan o'tkazish hamda ijro etish jarayonida bo'shaydigan;

- o tovar-moddiy qimmatliklarning normativdan ortiq zaxiralari bo'yicha hisobga olingan;
- o advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan to'lanishi nazarda tutiladigan;
- o qo'shilgan qiymat solig'i summasini soliq to'lovchilarga qaytarish uchun nazarda tutiladigan;
- o davlat organlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun nazarda tutiladigan;
- o byudjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish nafaqasini to'lash uchun nazarda tutiladigan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar, bundan byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritilgan hollar mustasno;
- o bir yo'la beriladigan davlat pul mukofotlari va mukofotlarini to'lash uchun nazarda tutiladigan;
- o Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatish ishtirokchilariga kompensatsiyalar to'lash uchun nazarda tutiladigan;
- o transportda imtiyozli yurishni qoplash uchun nazarda tutiladigan;
- o davlat qarzini to'lash va unga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash va ularni moliyalashtirishda ishtirok etish uchun mo'ljallangan;
- o davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun nazarda tutiladigan;
- o saylov va referendumlar o'tkazish uchun nazarda tutiladigan;
- o byudjetlararo transfertlar ajratish uchun nazarda tutiladigan;
- o tijorat banklari va boshqa moliya institutlarining ustav kapitalini shakllantirish va ko'paytirish uchun nazarda tutiladigan;

o rezident – yuridik shaxslarga byudjet ssudalari ajratish va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining kredit liniyalarini ochish uchun nazarda tutiladigan;

o soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlarida nazarda tutilgan tadbirlar hamda moliya yili mobaynida amalga oshirilishi nazarda tutilgan va Davlat byudjeti xarajatlarini ko‘paytirishni talab qiladigan boshqa tadbirlar uchun mo‘ljallangan;

o davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazib beriladigan;

o O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg‘armalarini shakllantirish uchun byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar kiritiladi.

Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlar qismining ijrosi:

- *yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga olishni;*

- *kassa xarajatlarini amalga oshirishni, shu jumladan byudjetlararo transfertlarni o‘tkazishni;*

- *hisob va hisobotni nazarda tutadi.*

Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida hamda byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarga turli darajadagi byudjetlardan byudjet mablag‘larini ajratishga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan hollar mustasno.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi jarayonida byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar:

1) quyidagilar munosabati bilan foydalanilmay qolgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning:

✓ byudjet tashkilotlarining tarmogʻi, shtatlari va kontingentlari boʻyicha reja bajarilmaganligi;

✓ byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan shtat jadvalida nazarda tutilgan shtat birliklari toʻldirilmaganligi;

✓ kapital qoʻyilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablagʻlar moliya yili yakuni boʻyicha toʻliq oʻzlashtirilmaganligi;

✓ byudjet tashkiloti va byudjet mablagʻlari oluvchilar faoliyati toʻxtatib turilganligi, toʻxtatib turilgan davr uchun.


2) davlat moliyaviy nazorati boʻyicha tadbirlar davomida aniqlangan, byudjet tashkilotlari va byudjet mablagʻlari oluvchilarning tasdiqlangan xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan ortiqcha va qonunga xilof ravishda byudjetdan ajratiladigan mablagʻlarning;

3) qonun hujjatlari qabul qilinishi munosabati bilan byudjetdan ajratiladigan mablagʻlar miqdorlarining qisqartirilishi;

4) moliya yili boshiga tovar-moddiy qimmatliklarning normativdan ortiq zaxiralarning;

5) dotatsiyalar va subsidiyalarni toʻlash uchun moʻljallanib, zarurat qolmagan summalariga kamaytiriladi.

Byudjetdan ajratiladigan mablagʻlarni kamaytirish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.¹⁰⁸




10.2-rasm. Gʻaznachilik boʻlinmalariga toʻlov hujjatlarini taqdim etish

¹⁰⁸ Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 120-moddasiga asosan.

Byudjet tizimi byudjetlarining *kassa xarajatlarini amalga oshirish* G'aznachilik bo'linmalari byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning buyurtmalari bo'yicha to'lovlarni ularda byudjetdan ajratiladigan mablag'lar, yuridik va moliyaviy majburiyatlar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining qoldiqlari doirasida amalga oshiradi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar xarajatlarni to'lash uchun to'lov hujjatlarini g'aznachilik bo'linmalariga to'lov amalga oshiriladigan sanadan kamida bir ish kuni oldin taqdim etadi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan byudjet tashkilotlari (byudjet mablag'lari oluvchilar) o'rtasidagi, byudjet tizimi byudjetlarining turli darajalari o'rtasidagi, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi to'lovlar g'azna memorial orderlari asosida amalga oshiriladi.



10.3-rasm. Qabul qilingan moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun Xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnomalar berish tartibi

Byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning chet el valyutasidagi to'lovlari hamda pul o'tkazmalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining norezidentlari foydasiga amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi mablag‘larni boshqarishni Davlat byudjeti daromadlari tushumlari va xarajatlarining qisqa muddatli bashoratlarini tuzish yo‘li bilan amalga oshiradi.¹⁰⁹

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga joriy yoki kelgusi yilda qaytariladigan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining mablag‘lari hisobidan o‘tgan moliya yilida hosil bo‘lgan debitorlik qarzining summasi, tegishli moliya yiliga qo‘shimcha davrda qaytariladiganidan tashqari, tegishli byudjet daromadlariga o‘tkaziladi.

Qabul qilingan moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun Yagona g‘azna hisobvarag‘ida mablag‘lar yetishmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti xarajatlarining cheklangan hajmini belgilaydi hamda uning asosida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarga xarajatlarni to‘lash uchun ruxsatnomalar beradi. Xarajatlarni to‘lash uchun ruxsatnomalar berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi byudjetining vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘lari mavjud bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tijorat banklarida depozitlarga joylashtirilishi mumkin bo‘lgan mablag‘larning hajmini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi byudjetining vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini joylashtirish va ularni tijorat banklarida depozitlarga joylashtirishdan olingan daromadlardan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

10.2. Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilarni moliyalashtirish tartibi

Byudjetning barcha xarajatlari joriy xarajatlar va kapital xarakteridagi xarajatlardan iborat bo‘ladi. Mablag‘ning asosiy qismi joriy

¹⁰⁹ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 125-moddasiga asosan.

xarajatlarga to'g'ri keladi, qolgan qismi kapital xarajatlarga to'g'ri keladi. Shu o'rinda byudjet xarajatlari tasnifini ko'rib chiqish lozim.

Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifi byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarini kodlashdan iborat bo'ladi va ularning yo'nalishini aks ettiradi.

Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari tasnifining tuzilmasi quyidagilardan iborat:

↓ *byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi;*

↓ *vazifa jihatidan tasnif;*

↓ *tashkiliy tasnif;*

↓ *iqtisodiy tasnif;*

↓ *hududiy tasnif.*

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi amalga oshirilayotgan xarajatlarning tegishli mablag'lar manbalari va byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi davlat funksiyalarini bajarish uchun mablag'lar yo'nalishini aks ettiruvchi xarajatlarni guruhlashdir.

Xarajatlarning tashkiliy tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining mablag'larini taqsimlovchilar bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi.

Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi xarajatlarni iqtisodiy yo'nalishiga ko'ra kodlashdan iborat bo'ladi.

Hududiy tasnif byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Byudjet tizimi byudjetlarining *iqtisodiy belgilar bo'yicha xarajatlari* quyidagi xarajatlar guruhlarini o'z ichiga oladi:

– birinchi guruh – ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya to'lovlari va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam;

– ikkinchi guruh – ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar;

– uchinchi guruh – kapital qo‘yilmalar (Davlat investitsiya dasturlarida nazarda tutilgan aniq yo‘naltirilgan ro‘yxatlarga muvofiq);

– to‘rtinchi guruh – boshqa xarajatlar.

Xarajatlar guruhlari bo‘yicha aniq moddalar byudjet tasnifiga muvofiq belgilanadi.

Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotining unga ajratilgan byudjet mablag‘larining hajmi, maqsadli yo‘nalishi va yil choraklari (har bir chorakning oylari) bo‘yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy moliyaviy hujjati.

Byudjet tashkilotlarida smetalarning quyidagi *turlari* amalda qo‘llaniladi:

- yakka (individual) smetalar;
- jamlanma smetalar;
- byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalar;
- markazlashgan tadbirlar uchun smetalar.

Xarajatlar smetasi va byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta bir yillik muddatga - 1 yanvardan 31 dekabrgacha bo‘lgan davrga tuziladi (mavsumiy tadbirlar uchun yoki joriy moliya yilida ishga tushiriladigan tashkilotlar bo‘yicha esa ularning mazkur yildagi faoliyat ko‘rsatish oylariga tuziladi va amal qiladi).

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalari xarajatlar smetalari byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan, yil oylari bo‘yicha taqsimlangan holda¹¹⁰:

- *xarajatlarning birinchi – uchinchi guruhlari bo‘yicha* – xarajatlarning moddalariga ko‘ra ajratib;

- *xarajatlarning to‘rtinchi guruhi bo‘yicha* – xarajatlarning moddalariga ko‘ra ajratmasdan tuziladi.

Xarajatlar smetasiga xarajatlarning moddalari bo‘yicha to‘rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi, shuningdek davlat ehtiyojlari uchun ustuvor ravishda kichik tadbirkorlik subyektlaridan xarid qilinadigan

¹¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 102-moddasiga ko‘ra.

tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhlarining ro'yxati bo'yicha xarajatlar yoyilmasi ilova qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining diplomatik muassasalari bo'yicha xarajatlar smetalari har bir diplomatik muassasa bo'yicha alohida-alohida xorijiy va milliy valyutalarda tuziladi.

Xarajatlar smetasida tasdiqlangan byudjet mablag'larini oluvchilarga yetkazish. Respublika va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar e'tiboriga byudjetdan ajratiladigan mablag'larning xarajatlar smetasida tasdiqlangan miqdori yetkaziladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi - xarajatlarni amalga oshirishdagi majburiyatlarni qabul qilishda byudjet tashkilotlariga byudjet majburiyatlari limitini belgilash va yetkazishdir. Byudjet majburiyatlarining limiti byudjet ijrosini amalga oshiruvchi byudjet mablag'larini taqsimlovchi, oluvchi organlar uchun aniqlangan va tasdiqlangan byudjet majburiyatlarining yig'indisidir.

Boshqacha qilib aytganda, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish rejasining hajmi davlatning byudjetdan mablag' oluvchiga byudjet majburiyatlarini qabul qilish huquqining berilishidir. Byudjet xarajatlarini kassali ijro etishda belgilangan tartibda va chegaralangan mablag'lar doirasida tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan qabul qilingan byudjet majburiyatlarini to'lovi amalga oshiriladi.

Davlat byudjetidan majburiyatlarning to'lovi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan byudjet mablag'i oluvchilarining taqdim qilgan va byudjet majburiyatlari ijrosini tasdiqlovchi hujjatlar asosida xarajatlarning amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Ta'kidlab o'tish kerakki, alohida mahalliy byudjetlarning xarajatlar tarkibi bir xil bo'lmaydi, shu mintaqadagi turli darajada bo'lgan xo'jalik va idoralarning hajmiga bog'liq bo'ladi.

Davlat byudjetining to'la hajmda moliyalashtiriladigan birinchi navbatdagi xarajatlarga ish haqi, ish haqidan ajratmalar, stipendiyalar, nafaqalar, ovqatlanish va dori-darmonlarni sotib olish uchun sarflandigan xarajatlarni ko'rsatish mumkin.

Byudjet xarajatlarini to'lab berish limiti – joriy moliya yilida byudjetdan mablag' oluvchilarga beriladigan pul mablag'larining chegarasidir. Byudjet tashkilotlari faqat yuqori byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan chegaralangan mablag'larni sarflashni amalga oshirish huquqiga ega bo'lishlari lozim.

Byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari uch nusxada tuziladi. Moliya organlari va byudjet mablag'larini taqsimlovchilar byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalariga doir hisob-kitoblarni talab qilishga haqlidir.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchi o'z tasarrufidagi tashkilotlardan kelib tushgan xarajatlar smetalarini moliya yili uchun byudjet mablag'larini taqsimlovchiga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida ko'rib chiqadi va byudjet mablag'larini taqsimlovchining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladigan jamlanma xarajatlar smetasini tuzadi.

Xarajatlar smetasining, jamlanma xarajatlar smetasining va ularga doir ilovalarning shakllari, shuningdek ularni tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi tashkilot bosh buxgalteri (uning o'rinbosari) va moliya-iqtisod bo'linmasi boshlig'i (shtat jadvaliga muvofiq moliyaviy-iqtisodiy masalalar bo'yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi hamda tashkilot rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

Byudjet tashkilotlari o'zlarining xarajatlarini hisoblab chiqishda va smetalarni rejalashtirishda quyidagilarga amal qiladilar:

– O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, Prezident farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining normativ hujjatlariga;

– byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirishning normativ uslubiga;

– tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga, shuningdek, nodavlat korxonalar va tashkilotlarning ayrim tovarlari va xizmatlari baholariga;

– yuqori turuvchi tashkilotlar rahbarlarining o'zlari tasarrufidagi muassasalarning kelgusi yil uchun xarajatlar smetalarini tuzish masalalari bo'yicha ko'rsatmalari va takliflariga, agarda ular qonun hujjatlariga zid bo'lmasa,

– bolalar va boshqa ijtimoiy-madaniy tashkilotlarda ovqatlanishga ketadigan xarajatlar summasi tashkilotlarning ayrim turlari uchun qonun hujjatlari bilan tasdiqdangan ovqatlanish me'yorlari va ovqatlanish kunlari sonidan kelib chiqib hisoblanadi;

– dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar summasi qonun hujjatlari bilan belgilangan pul xarajatlari me'yoriga qarab hisoblab chiqiladi;

– ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyafzal, choyshab, yotoq anjomlari va boshqa yumshoq jihozlar sotib olishga ketadigan xarajatlar moddiy ta'minotning amaldagi me'yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tashkil etilgan tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh tashkilotlar) rahbarlari va tegishli hudud hokimlari (ular vakolat bergan mansabdor shaxslar) jamlanma xarajatlar smetasi bo'yicha byudjetdan ajratilgan mablag'larni taqsim qiluvchilar bo'lib hisoblanadilar.

Jamlanma xarajatlar smetasi, xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning rahbarlaridan olingan buyurtmalar asosida hamda markazlashtirilgan buxgalteriyada mavjud bo'lgan hisob va hisobot, shuningdek iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuziladi.

Jamlanma xarajatlar smetasini tuzish uchun buyurtmalar hokimiyatlarning tegishli boshqarma va bo'limlari tomonidan belgilangan shakllar yoki ko'rsatkichlar ro'yxati bo'yicha xarajatlarning guruhlari

bo'yicha va ilovalarni hamda smetalarga qilingan hisob-kitoblarni ilova qilgan holda tashkilotlar tomonidan taqdim qilinadi.

Buyurtmalarda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

– isitish, yoritish, suv ta'minoti xarajatlarini hisoblash uchun zarur natural ko'rsatkichlar;

– sotib olish uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar va jihozlar ro'yxati;

– kapital va joriy ta'mirlash bo'yicha asosiy ishlar ro'yxati;

– o'rmon xo'jaligi tashkilotlarining bajaradigan ishlari hajmi;

– qonunchilikka muvofiq belgilangan kadastr yuritish bo'yicha ishlar hajmi va boshqa ko'rsatkichlar hisobi;

– bino va inshootlarni kapital ta'mirlash bo'yicha manzilli ro'yxatga kiritish uchun hisob-kitoblarning asoslanganligi;

– byudjetdan mablag'lar ajratishni asoslash uchun boshqa kerakli hisob-kitoblar.

Tashkilotlar tomonidan berilgan buyurtmalar markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan tegishli tashkilotlarning vakillari ishtirokida oldindan ko'rib chiqiladi hamda jamlanma xarajatlar smetasini tuzishda hisobga olinadi.

Markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuzilgan jamlanma xarajatlar smetasining loyihalari tegishli tashkilotlar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning xarajatlar smetasi tashkilotlar bilan markazlashtirilgan buxgalteriyalar bosh (katta) hisobchilari yoki iqtisodchilari ishtirokida tuziladi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchining jamlanma xarajatlar smetasi byudjet mablag'larini taqsimlovchining bosh buxgalteri (uning o'rinbosari) va moliya-iqtisod bo'linmasi boshlig'i (shtat jadvaliga muvofiq moliyaviy-iqtisodiy masalalari bo'yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi hamda byudjet mablag'larini taqsimlovchining rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining diplomatik muassasalari bo'yicha xarajatlar smetalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining bosh buxgalteri va moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i tomonidan imzolanadi hamda O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri va O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri yoki ular vakolat bergan shaxslar tomonidan tasdiqlanadi.

Kapital qurilish obyektlari bo'yicha xarajatlarning smetalari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan qurilishlarning manzilli ro'yxatlari va obyektlarning titul ro'yxatlari asosida tuziladi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini byudjet mablag'larini taqsimlovchining jamlanma xarajatlar smetalarini tasdiqlash joriy moliya yilining 10 martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari joriy moliya yilining 25 dekabrigacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasida nazarda tutiladigan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar o'tgan moliya yilining oxirgi choragidagi byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan ortiq bo'lmasligi lozim. Vaqtinchalik xarajatlar smetasida nazarda tutiladigan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar qonun hujjatlarida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun xarajatlar summasiga aniqlashtirilishi mumkin.

Ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan xarajatlar smetasida birinchi chorak uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar vaqtinchalik xarajatlar smetasida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan kam bo'lmasligi kerak.

Ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi mavjud bo'lmagan taqdirda, joriy moliya yilining 1 apreldan e'tiboran byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchining byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan xarajatlari xarajatlar smetasi ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar

to'xtatib turiladi. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish hamda tasdiqlash byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari uchun belgilangan tartibga o'xshash tartibda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasining daromad qismi moliya yili boshidagi mablag'lar qoldig'i hamda daromadlarning manbalar kesimidagi bashoratidan tashkil topadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan xodimlar soni saqlab turilgan taqdirda, byudjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasiga ko'rsatilgan xodimlar soni bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan shtat jadvali ilova qilinadi.

Byudjet tashkilotining shtat jadvali 1 yanvar holatiga ko'ra har bir byudjet tashkiloti bo'yicha mazkur tashkilot uchun belgilangan mehnatga haq to'lash shartlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha tuziladi.

Yangidan tuzilayotgan byudjet tashkilotining shtat jadvali, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, byudjet tashkiloti faoliyat ko'rsata boshlashidan ikki oy oldin tuziladi va kuchga kiradi.

Lavozimlarning nomlari va xodimlar soni, mehnatga haq to'lash bo'yicha razryadlar, bazaviy stavkalar:

- Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorida, namunaviy shtatlarda hamda qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan mehnatga haq to'lash bo'yicha tarif razryadlarida va bazaviy stavkalarda nazarda tutilgan lavozimlarga;

- tasdiqlangan namunaviy shtatlarda nazarda tutilgan xodimlar soniga;

- xodimlarning tasdiqlangan umumiy cheklangan soniga, shu jumladan byudjet tashkilotlarining byudjet mablag‘lari va byudjetdan tashqari jamg‘armalari hisobidan saqlab turilgan boshqaruv xodimlari soniga;

- davlat boshqaruvi organlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan boshqaruv, xizmatlar ko‘rsatuvchi va texnik xodimlari sonining o‘zaro nisbati normativlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Ish haqining hisob-kitobi tarifkatsiya ro‘yxatlariga muvofiq amalga oshiriladigan lavozimlar shtat jadvaliga lavozimlarning har bir guruhi bo‘yicha stavkalar soni, oylik mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi ko‘rsatilgan, tarifkatsiya ro‘yxatining shtat jadvaliga ilova qilingan holda kiritiladi.

Ayrim byudjet tashkilotlari uchun tasdiqlangan namunaviy shtat normativlari va mehnatga haq to‘lash bo‘yicha razryadlar, bazaviy stavkalar mavjud bo‘lmaganda, ularning shtat jadvallariga kiritiladigan lavozimlarning nomi va xodimlar soni hamda ularning mehnatga haq to‘lash bo‘yicha razryadlari, bazaviy stavkalari ushbu tashkilotlar tomonidan tashkilotning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan kelishuvga ko‘ra belgilanadi.

Byudjet tashkilotining shtat jadvali tashkilotning bosh buxgalteri (uning o‘rinbosari) va moliya-iqtisod bo‘linmasi boshlig‘i (shtat jadvaliga muvofiq moliyaviy-iqtisodiy masalalar bo‘yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi hamda tashkilot rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

Byudjet tashkilotlarining shtat jadvallarini tasdiqlash joriy moliya yilining 10 martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Tashkilotlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetalari va shtat jadvallari ular moliya va g‘aznachilik organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyin amalga kiritiladi.

Joriy yilning 1 apreliyigacha:

– byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar bo‘yicha tasdiqlangan jamlanma xarajatlar smetalari va jamlanma shtat jadvallari, shuningdek

xarajatlar smetalari va shtat jadvallari – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning tasdiqlangan xarajatlar smetalari va shtat jadvallari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligida, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalarida;

– tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning tasdiqlangan xarajatlar smetalari va shtat jadvallari – tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak.

10.3. G‘aznachilikda byudjet xarajatlarini to‘lash tartibi

G‘aznachilik organlari tomonidan “O‘RMV” ATda daromadlar va xarajatlar yoyilmasini shakllantirish, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan xarajatlar smetalari va kelgusida ularga o‘zgartirishlar bo‘yicha ma’lumotlarni kiritiladi. Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari “O‘RMV” ATga quyidagi ma’lumotlarni kiritadi:

a) byudjet mablag‘lari bo‘yicha:

– xarajatlar smetalari Moliya vazirligi va hududiy moliya organlarida ro‘yxatga olinguniga qadar – birinchi chorak uchun oylar kesimida tegishli moliya organlarida ro‘yxatga olingan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari ma’lumotlarini;

– xarajatlar smetalari Moliya vazirligi va hududiy moliya organlarida ro‘yxatga olinganidan so‘ng – oylar kesimida tegishli moliya organlarida ro‘yxatga olingan xarajatlar smetalari va ularga o‘zgartirishlar, shuningdek byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar

tomonidan tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining ro'yxatga olingan xarajatlar smetalari va ularga o'zgartirishlar bo'yicha ma'lumotlarni;

b) byudjet tashkilotlarining tegishli byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha – byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari hamda ularga o'zgartirishlar bo'yicha ma'lumotlarni.

Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar taqsimlovchi organlari "O'RMV" ATga quyidagi ma'lumotlarni kiritadi:

– xarajatlar smetalari ro'yxatga olinguniga qadar – birinchi chorak uchun oylar kesimida tegishli DMJ va BMJ taqsimlovchi organlari tomonidan ro'yxatga olingan vaqtinchalik xarajatlar smetalari ma'lumotlarini;

– xarajatlar smetalari ro'yxatga olinganidan so'ng – oylar kesimida tegishli DMJ va BMJ taqsimlovchi organlari tomonidan ro'yxatga olingan xarajatlar smetalari va ularga o'zgartirishlar bo'yicha ma'lumotlarni.

G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan yuridik majburiyatlar, shuningdek ularga o'zgartirish va qo'shimchalar ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng kuchga kiradi. Bunda yuridik majburiyatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjatlar g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazish uchun joriy moliya yilining 25 dekabridan kechiktirmay taqdim qilinadi.

Buyurtmachilarning I va II guruh bo'yicha xarajatlar to'lovi birinchi navbatda amalga oshiriladi. Bunda I guruh xarajatlarini II guruh xarajatlari to'lovisiz amalga oshirish taqiqlanadi (ish haqi uchun olingan avanslardan tashqari). Tegishli byudjetda I va II guruh xarajatlari to'lovi uchun zarur mablag'larni qoplaydigan qoldiqlar mavjud bo'lganda, I va II guruh xarajatlarini to'liq amalga oshirgan

tashkilotlar bo'yicha III va IV guruh xarajatlarini amalga oshirishga ruxsat etiladi.

IV guruh bo'yicha mablag'larning sarflanishi belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

- oziq-ovqat va dori-darmon;
- kommunal xizmatlar;
- yonilg'i va yoqilg'i-moylash materiallari;
- boshqa xarajatlar.

Bunda IV guruh hisobidan amalga oshiriladigan quyidagi xarajatlar I guruh to'lovlarga tenglashtiriladi va I guruh xarajatlariga belgilangan muddatlarda to'lanishi mumkin:

- pul shaklidagi ijtimoiy yordam nafaqalari;
- yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nafaqalar;
- natura shakldagi ijtimoiy yordam nafaqalari;
- yolg'iz qariyalar uchun oziq-ovqat sotib olish xarajatlari.

G'aznachilik bo'linmalari "Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi Qoidalari"da belgilangan muvofiq shakldagi to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari asosida to'lovlarni amalga oshiradi.

Bunda "UzASBO" DMga ulangan buyurtmachilar to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlarini qog'oz shaklda rasmiylashtirgandan so'ng ularni "UzASBO" DMga kiritadi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda g'aznachilik bo'linmalariga elektron shaklini yuboradi. "UzASBO" DM orqali elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan elektron to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlarining qog'oz ko'rinishdagi asli g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etilmaydi va buyurtmachilarda saqlanadi. To'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlarining qog'oz va elektron

shaklda rasmiylashtirilishi, ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi, o'zaro muvofiqligi va aslining saqlanishi uchun buyurtmachilar javobgar hisoblanadi.

Xarajatlarni to'lashga to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari g'aznachilik bo'linmalariga to'lov amalga oshiriladigan sanadan kechi bilan bir ish kuni oldin taqdim etiladi. Buyurtmachilar elektron to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlarini g'aznachilik bo'linmalariga "UzASBO" DM orqali to'lovni amalga oshirish kunida yuborishi mumkin.

Bunda g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari o'n kun muddatgacha amal qiladi.

Buyurtmachilar g'aznachilik bo'linmalaridan tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan ko'chirmalar va ularga ilovalarni oladi.

Bunda "UzASBO" DMga ulangan buyurtmachilar ko'chirmalarni elektron hujjat ko'rinishida "UzASBO" DMdan oladi va elektron tarzda taqdim qilingan ko'chirmalar buyurtmachilarga qog'oz ko'rinishida taqdim etilmaydi.

YaG'H bilan qamrab olinmagan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarni O'zbekiston Respublikasi byudjetidan moliyalashtirish g'aznachilik bo'linmalari tomonidan ularning bank hisobvaraqlariga Qoidalarda nazarda tutilgan shaklda Moliya vazirligining sohalarni moliyalashtiruvchi tegishli boshqarmasi tomonidan taqdim qilinadigan Byudjet mablag'larini o'tkazish (so'zsiz undirish) uchun so'rovnomaga asosan YaG'Hdan amalga oshiriladi.

YaG'H orqali xizmat ko'rsatiladigan buyurtmachilar moliyaviy hisobotlarni yuqori turuvchi tashkilotlarga, byudjet mablag'lari taqsimlovchilariga va hududiy moliya organlariga taqdim qilishdan oldin moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlarini tegishli hisobot davrida

g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshirilgan kassa xarajatlariga muvofiqligini ularga xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalari bilan solishtiradi. Buyurtmachilarning hisobotlari to'g'ri bo'lganda ular belgilangan shakldagi shtamp qo'yilgan holda g'aznachilik bo'linmalarining byudjet hisobi bo'yicha vakolatli xodimlari tomonidan imzolanadi.

Bunda "UzASBO" DM orqali elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan elektron moliyaviy hisobotlarining qog'oz ko'rinishdagi asli g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etilmaydi va g'aznachilik bo'linmalarining shtampi va imzosi bilan tasdiqlanmaydi. Elektron moliyaviy hisobotlarining rasmiylashtirilishi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun buyurtmachilar javobgar hisoblanadi.

Buyurtmachi rahbarining buyrug'i bilan g'aznachilik bo'linmasi bilan ishlash uchun buyurtmachining mazkur qoidalar talablari bilan tanishtirilgan mas'ul xodimlari belgilanadi. Buyurtmachining ushbu buyrug'ining nusxasi tegishli g'aznachilik bo'linmasiga buyurtmachining kuzatuv xati bilan taqdim qilinadi.

Byudjet tashkilotlari tomonidan tashqi qarzlarning jalb qilinishi, ssuda va kreditlar olinishi, shuningdek byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobiga lizing shartnomalarini tuzish taqiqlanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Buyurtmachilarning YaG'Hga mablag' undirish bo'yicha inkasso topshiriqnomalari va to'lov talabnomalarini ijro etish

Buyurtmachilarning inkasso topshiriqnomalari va to'lov talabnomalari O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2465, 2013 yil 3 iyun) talablari doirasida rasmiylashtiriladi va g'aznachilik bo'linmasiga taqdim

etiladi. Bunda inkasso topshiriqnomasi va to'lov talabnomasining "Mablag'larni oluvchining nomi" ustunida "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi", "Mablag'larni oluvchining hisobvarag'i" ustunida – YaG'H, "To'lov maqsadida" ustunida – to'lov kodi, buyurtmachining tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'i hamda inkasso topshiriqnomasini yoki to'lov talabnomasini qo'yish uchun asos bo'lgan hujjatlar rekviziti ko'rsatiladi.

Buyurtmachilar tomonidan inkasso topshiriqnomasi tegishli hujjatlar bilan birgalikda xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalariga quyidagicha taqdim etiladi:

– to'lovchiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa-markazida xizmat ko'rsatilganida besh nusxada. Bunda buyurtmachining tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan inkasso topshiriqnomasining birinchi nusxasi buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga inkasso topshiriqnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi. Inkasso topshiriqnomasining ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi nusxalari g'aznachilik bo'linmasining vakolatli va mas'ul xodimi tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmasining muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa-markaziga taqdim etiladi. Inkasso topshiriqnomasining beshinchi nusxasi qabul qilingan sana ko'rsatilib, YaG'Hga xizmat ko'rsatuvchi bank buxgalteri imzosi va mazkur buxgalterga birlashtirilgan muhr bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmasiga qaytariladi;

– bir hudud ichida hisob-kitoblarni amalga oshirishda (g'aznachilik bo'linmasi to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank bilan bitta hududda (shahar yoki tumanda) joylashgan bo'lsa) to'rt nusxada. Bunda

buyurtmachining tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan inkasso topshiriqnomasining birinchi nusxasi buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga inkasso topshiriqnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi. Inkasso topshiriqnomasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi nusxalari g'aznachilik bo'linmasining vakolatli va mas'ul xodimi tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmasining muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda bevosita to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etiladi. Inkasso topshiriqnomasining to'rtinchi nusxasi qabul qilingan sana ko'rsatilib, to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank buxgalteri imzosi va mazkur buxgalterga birlashtirilgan muhr bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmasiga qaytariladi;

- hududlararo hisob-kitoblarni amalga oshirishda (g'aznachilik bo'linmasi to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank bilan turli hududda (shahar yoki tumanda) joylashgan bo'lsa) to'rt nusxada. Bunda buyurtmachining tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan inkasso topshiriqnomasining birinchi nusxasi buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga inkasso topshiriqnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi. Inkasso topshiriqnomasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi nusxalari g'aznachilik bo'linmasining vakolatli va mas'ul xodimi tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmasining muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda bevosita to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etiladi. Inkasso topshiriqnomasining to'rtinchi nusxasi qabul qilingan sana ko'rsatilib, to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank buxgalteri imzosi va mazkur buxgalterga birlashtirilgan muhr bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmasiga qaytariladi.

Buyurtmachilar tomonidan to'lov talabnomasi tegishli hujjatlar bilan birgalikda xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalariga quyidagicha taqdim etiladi:

- to'lovchiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa-markazida xizmat ko'rsatilganida to'rt nusxada. Bunda buyurtmachining tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan to'lov talabnomasining birinchi nusxasi buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga to'lov talabnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi. To'lov talabnomasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi nusxalari g'aznachilik bo'linmasining vakolatli va mas'ul xodimi tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmasining muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa-markaziga taqdim etiladi. To'lov talabnomasining to'rtinchi nusxasi qabul qilingan sana ko'rsatilib, to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank buxgalteri imzosi va mazkur buxgalterga birlashtirilgan muhr bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmasiga qaytariladi.

- oluvchi va to'lovchiga turli banklarda xizmat ko'rsatilganida to'rt nusxada. Bunda buyurtmachining tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan to'lov talabnomasining birinchi nusxasi buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga to'lov talabnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi. To'lov talabnomasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi nusxalari g'aznachilik bo'linmasining vakolatli va mas'ul xodimi tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmasining muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda bevosita to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etiladi. To'lov talabnomasining to'rtinchi nusxasi qabul qilingan sana ko'rsatilib, to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank buxgalteri imzosi va

mazkur buxgalterga birlashtirilgan muhr bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmasiga qaytariladi.

G'aznachilik bo'linmasi tomonidan inkasso topshiriqnomasi va to'lov talabnomasi "Bank-mijoz" dasturiy majmuidan foydalangan holda elektron tarzda ijro etilganida buyurtmachi tomonidan inkasso topshiriqnomasi va to'lov talabnomasi ikki nusxada taqdim qilinadi.

Bunda buyurtmachining tegishli mansabdor shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan inkasso topshiriqnomasi va to'lov talabnomasining birinchi nusxasi buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga inkasso topshiriqnomasini va to'lov talabnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi nusxasi buyurtmachining shaxsiy g'azna hisobvarag'idan ko'chirma bilan birgalikda buyurtmachining mas'ul xodimiga beriladi.

Keyingi yilning yanvar oyi *moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri bo'lib*, bu davr mobaynida o'tgan yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. Moliya vazirligi byudjet tizimi byudjetlarining qo'shimcha vaqt davridagi ijrosi bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibini va oxirgi muddatlarini belgilaydi.

Qo'shimcha vaqt davrida moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, shuningdek byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilari tomonidan joriy moliya yili uchun Davlat byudjeti va DMJ byudjetlarini ijro etish bo'yicha operatsiyalar, shu jumladan:

- byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish;
- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning kreditorlik qarzlarini to'lash;
- byudjet tashkilotlari tomonidan iqtisod qilingan mablag'lar summalarini Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalariga (Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armalariga) o'tkazish;

- Davlat byudjeti va DMJ byudjetlari mablagʻlari hisobidan boshqa ruxsat etilgan toʻlovlar amalga oshiriladi.

Bunda moliya yili uchun qoʻshimcha vaqt davri byudjet tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamgʻarmalariga tatbiq etilmaydi, iqtisod qilingan mablagʻlarni Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamgʻarmalariga (Tibbiyot tashkilotlarining moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmalariga) oʻtkazish bundan mustasno.

Qoʻshimcha vaqt davrida kreditor qarzdorliklar oʻtgan yilgi xarajatlar smetasining qaysi xarajatlar moddasi boʻyicha yuzaga kelgan boʻlsa, shu xarajatlar moddasi boʻyicha toʻlanadi.

Kreditor qarzdorliklarni toʻlab berish uchun buyurtmachilar tomonidan gʻaznachilik boʻlinmalariga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- buyurtmachi va tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchi (pudratchi) oʻrtasida oʻtgan yil yakuni boʻyicha tuzilgan solishtirish dalolatnomasi nusxasi;

- Moliyaviy majburiyatlarni roʻyxatdan oʻtkazishga (hisobga olishga) buyurtma va tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hisobvara-q-fakturalar nusxalari;

- toʻlov topshiriqnomalari (bunda toʻlov maqsadida qoʻshimcha ravishda “oʻtgan yilgi kreditor qarzdorlikni toʻlash” koʻrsatiladi);

- oʻtgan yilning dekabr oyi uchun oʻtuvchi kreditor qarzdorlikni toʻlash joriy moliya yilining xarajatlar smetasida (vaqtinchalik xarajatlar smetasini hisobga olgan holda) nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablagʻlar hisobidan amalga oshiriladi;

- Qoʻshimcha vaqt davrida kreditor qarzdorlikni qoplash yoki mablagʻlarni Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamgʻarmalariga va Tibbiyot tashkilotlarining moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmalariga oʻtkazish boʻyicha toʻlov topshiriqnomalari va

g'aznachilik memorial orderlarini to'ldirishda to'lov topshiriqnomalari va g'anachilik memorial orderlarining to'lov maqsadida mos ravishda "20__ yil uchun kreditor qarzdorlikni qoplash" yoki "20__ yil uchun iqtisod qilingan mablag'larni Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armalariga (Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armalariga) o'tkazish" yozuvi yoziladi.

Iqtisod qilingan mablag'larni Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi va Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazish byudjet tashkilotlari tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha – tegishli hududiy moliya organlarining xulosalari asosida;

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha – ushbu byudjet tashkilotlari tomonidan mustaqil ravishda ularning rahbarlari va bosh buxgalterlari imzolagan yozma shakldagi murojaatlari asosida.

O'tgan yilgi kreditor qarzdorlikni qoplash, shuningdek Byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi va Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasiga iqtisod qilingan mablag'larni o'tkazish bo'yicha to'lov topshiriqnomalar yoki g'aznachilik memorial orderlari g'aznachilik bo'linmalariga moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri tugashidan besh ish kuni oldin taqdim qilinishi lozim. Kreditor qarzdorlikni to'lash hamda shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida qolgan iqtisod qilingan mablag'larni o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomalar va g'aznachilik memorial orderlari moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri tugashidan besh ish kuni oldin taqdim etilmagan hollarda byudjetdan ajratilgan mablag'lar belgilangan maqsadni yo'qotadi va tegishli byudjetlarning qoldiqlari bo'lib

hisoblanadi. Qo'shimcha vaqt davrida O'zbekiston Respublikasi byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahri byudjetining tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga tegishliligi bo'yicha o'tgan yil mobaynida ishlatilmagan:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalaridan ajratilgan;

- o'tgan yil uchun davlat tashqi qarzini to'lash uchun ajratilgan mablag'larning tiklanishi amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalaridan ajratilgan, shuningdek o'tgan moliya yili uchun davlat tashqi qarzini to'lanishiga oldin ajratilgan va o'tkazilgan mablag'larning o'tgan moliya yili mobaynida foydalanilmagan qismining majburiy ravishda tegishliligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetiga qaytarib o'tkazilishi moliya yili yakunlangandan keyin keyingi yilning 10 yanvaridan kechikmagan muddatda amalga oshiriladi.

Agar zaxira jamg'armasidan mablag'lar ajratilgan tadbirlar muayyan muddatga ega bo'lsa, foydalanilmay qolgan mablag'lar oluvchi tomonidan tadbirlar o'tkazish muddati tugashi bilan o'n ish kuni mobaynida belgilangan shakldagi hisobotni taqdim etish bilan birga qaytariladi.

Qo'shimcha vaqt davri yakunlanganidan so'ng byudjet tashkilotlarining kreditor qarzdorligi birinchi navbatda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalarida mablag'lar mavjud bo'lmaganda yoki yetarli bo'lmagan hollarda o'tgan yilning kreditor qarzdorligini joriy moliya yili xarajatlar smetalarida (vaqtinchalik smetalarni hisobga olgan holda) nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan to'lab beriladi. Bunda joriy moliya yilining xarajatlar smetasida kreditor qarzdorlikni (byudjet tashkilotlari tomonidan taqdim qilingan tasdiqlangan smetalar va yuzaga kelgan kreditor qarzdorlik bo'yicha tegishli hisob-kitoblar asosida) to'lash uchun zarur mablag'lar nazarda tutilganligi to'g'risidagi byudjet mablag'larini taqsimlovchilar (O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan mablag' oladigan tashkilotlar bo'yicha), hududiy moliya organlari, DMJ va BMJ taqsimlovchi organlarning yozma xulosasi mavjud bo'lgandagina to'lovlar amalga oshiriladi.

Bunda byudjet mablag'lari bo'yicha joriy moliya yili uchun xarajatlar smetasining tegishli moddasi bo'yicha qabul qilinadigan yuridik majburiyatlar summasi o'tgan yilning kreditor qarzdorligini to'lash uchun yo'naltirilgan summaga kamaytiriladi. Buyurtmachilarning yetkazib beruvchilar bilan davriy asosda tuziladigan shartnomalari bo'yicha kreditor qarzdorlik summasi shartnomada joriy moliya yili uchun qabul qilinadigan yuridik majburiyatlar summalari va kreditor qarzdorlik summalari alohida ko'rsatiladi.

Buyurtmachilar o'tgan moliya yilining kreditorlik qarzdorligini to'lash uchun tegishli g'aznachilik bo'linmalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ikki asl nusxada To'lovlar jadvali va Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtma;
- kreditor qarzdorlik to'lanishi nazarda tutilgan mablag'lar manbasi, tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'i va boshqa rekvizitlar ko'rsatilgan xat;

- ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan o'tgan moliya yilidagi shartnoma nusxasi;

- moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtma va tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hisob-fakturalar nusxasi;

- buyurtmachining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchi (pudratchi) bilan tuzilgan solishtirish dalolatnomasi (qo'shimcha vaqt davrida amalga oshirilgan hisob-kitoblarni inobatga olgan holda);

- joriy moliya yilining xarajatlar smetasida kreditor qarzdorlikni (kreditor qarzdorlik byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobidan to'langan hollarda) to'lash uchun zarur mablag'lar nazarda tutilganligi to'g'risidagi yozma xulosa;

- belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan to'lov topshiriqnomasi va g'aznachilik memorial orderi (bunda to'lov maqsadida qo'shimcha ravishda "o'tgan yilgi kreditor qarzdorlikni to'lash" ko'rsatiladi).

Buyurtmachilarning tegishli g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilmagan hamda hisobga olinmagan shartnomalari bo'yicha yuzaga kelgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) oldidagi kreditor qarzdorliklari to'lab berilmaydi.

Byudjet tizimi byudjetlari va BMJ byudjetlarining g'azna ijrosini amalga oshirish jarayonida buyurtmachilar hamda kapital qo'yilma buyurtmachilari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanilishiga, moliya organlari va g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligiga va byudjet qonunchiligi talablariga rioya etilishga qonun hujjatlariga muvofiq javobgardir.

G'aznachilik bo'linmalari yuridik va moliyaviy majburiyatlarni o'z muddatida va to'g'ri ro'yxatdan o'tkazilishi va hisobga olinishiga, to'lovlarning amalga oshirilishi hamda talab qilinadigan hujjatlarning

to'liqliligiga, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarni mazkur Qoidalariga muvofiq bajarishga javobgardir.

10.4. Byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlarini amalga oshirish ruxsatnomalari

G'aznachilik organlari tomonidan bajariladigan vazifalarning murakkabligi va ko'p qirraliligi shundaki, g'aznachilik faoliyatini joriy qilishda zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan foydalanadi. Bu esa byudjet ijrosi jarayonida nafaqat bank tizimini bog'laydi. Balki, bu jarayonlarda turli darajadagi moliya organlari, byudjet tashkilotlari, tarmoq idoralari, davlat maqsadli jamg'armalari, byudjetdan tashqari fondlar, bank, bojxona, soliq organlarining o'zaro aloqasi o'rnatiladi.

G'aznachilikning axborot tizimi har bir byudjet tashkiloti bo'yicha uning xarajatlari va tushumlari to'g'risida doim tezkor ma'lumot olishga imkon beradi. G'aznachilik byudjetning ijrosi jarayonini yaxshilaydi, yuqori boshqaruv organlarini byudjet ijrosi haqida yanada kengroq axborotlar bilan ta'minlaydi.

G'aznachilikda byudjet tashkilotlari kelgusida to'lov xabarnomalarini banklarga to'g'ridan to'g'ri berish o'rniga g'azna bo'limlariga nazorat uchun jo'natiladi, g'azna nazorati faqat muvofiqlashtiruvchi nazorat bo'ladi, g'azna mazkur to'lovni amalga oshirish uchun haqiqatda to'lov xabarnomasi to'g'ri asoslanganligini smetalar, kassa limitlari bilan tekshiradi. Byudjet tasnifi bo'yicha kassa hisoboti g'azna tomonidan amalga oshiriladi. Banklar solishtirish uchun operatsiyalar bo'yicha har kuni hisobot berib boradi. Shartnomaviy majburiyatlar va solishtirish natijalarini g'azna jurnallarida ro'yxatdan o'tkazilib boriladi.

Byudjetdan mablag' oluvchilarga ular uchun G'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisobraqamlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga byudjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni

taqdim etadi va manbalar bo'yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritadi. Moliya organlarining topshirig'i bo'yicha yuqori byudjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subvensiyalar, byudjet ssudalari summasini va boshqa to'lovlarni quyi byudjetlarning g'aznachilik hisobraqamlariga o'tkazadi. Byudjet tashkilotlari va buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar doirasida va maqsadga muvofiq tuzilishi ustidan qattiq nazorat qilish asosida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazadi. Byudjet tashkilotlarini, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib boradi, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimi qoidalariga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechishni nazarda tutadi.

Schyot-fakturalar va tovarlar yetkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi) holatini tasdiqlaydigan yoki byudjetdan mablag' oluvchilarga soliqlar, yig'imlar hamda byudjetga va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar uchun byudjet mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlar asosida byudjet mablag'i oluvchilarning moliyaviy majburiyatlari hisobini yuritadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, "Rossiya Federatsiyasida ayrim holatlarda (davlat boshqaruv organlari va mas'ul shaxslarning noqonuniy qarorlari asosida yuridik va jismoniy shaxslarga zarar yetkazilganligi uchun byudjetdan kompensatsiya berish to'g'risida sud qarori mavjud bo'lsa) byudjet hisobraqamlaridan G'aznachilik Departamenti ruxsatnomalarisiz xarajatlar uchun mablag'larni o'tkazishga ruxsat beriladi".¹¹¹

G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish byudjet mablag'lari oluvchilarning yuridik majburiyatlari asosida moliyaviy majburiyatlarni bajarilishi deb tushuniladi.

¹¹¹ Золотарева А. Совершенствование процедур разработки, утверждения, исполнения и контроля за исполнением Государственного бюджета. Монография. М. 2008. С. 31.

Hozirgi kunda respublikamiz barcha hududlarida Hududiy g'azna hisobraqami ochilgan bo'lib, g'aznachilik tizimining joriy etilishi bilan mahalliy byudjetlarda bo'ladigan kassa uzilishlarni oldi olinmoqda, bu bilan mablag'larning o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish ta'minlanmoqda, amalga oshirilgan xarajatlar va daromadlar to'g'risida tezkor axborot olinmoqda. G'aznachilik organlari byudjet tashkilotlari va oluvchilar uchun muhim rol o'ynaydi. Byudjetdan mablag' oluvchilar tasdiqlangan tartibda g'aznachilik organlarida shaxsiy hisobvaraqlar ochadilar, bu hisoblarda davlat byudjeti tomonidan ajratilgan mablag' saqlanadi.

Davlat byudjetning barcha xarajatlari har bir byudjet oluvchi uchun o'zining qat'iy yo'nalishiga ega. Bu yo'nalish byudjet tasnifi kodlariga ega: bob, bo'lim, bo'linma, maqsadli bo'linma, xarajat turi. Shundan kelib chiqqan holda, har bir byudjet oluvchiga bir necha shaxsiy hisobraqami ochiladi. Har bir hisobraqam bo'yicha iqtisodiy tasnifga asosan bir necha yo'nalish beriladi. G'aznachilikda byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjet mablag'laridan qonunga muvofiq maqsadli foydalanishi ustidan yakuniy nazoratni Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari amalga oshiradi. Byudjetdan mablag' oluvchilarning raxbari va bosh buxgalteri qonunga muvofiq to'g'ri rasmiylashtirganlik, yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar asosligi, tovarlar yetkazib berilishini va yetkazib beruvchilardan qarz mavjudligini tasdiqlaydigan birlamchi hujjatlarning haqqoniyligi uchun javobgar bo'ladi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, g'aznachilik bo'linmalari zimmasiga yuklatilgan eng asosiy vazifalar qatoriga byudjetdan mablag' oluvchilar shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish, xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovarlar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi)larning bevosita hisobraqamlariga byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning

topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash kiradi. Biroq byudjetdan mablag' oluvchining xarajatlar smetasida belgilangan mablag' doirasida shartnoma imzolanmaydigan va imzolanadigan yo'nalishlarda yuridik majburiyatlar qabul qilingan yoki ushbu yuridik majburiyatlarning ikkinchi ko'rinishi yuzasidan tovarlar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi)lar taqdim qilgan turli hisob-kitob hujjatlari asosida moliyaviy majburiyatlar qabul qilingan sharoitlarda to'lovlarni amalga oshirish uchun mablag' tanqisligi muammosini ko'pincha ushbu paytda tegishli mahalliy byudjetda vaqtinchalik kassa uzilishlari oqibatida yetarli mablag' bo'lmasligi omili keltirib chiqishi holati amaliyotda ko'p kuzatilishi barchamizga ma'lum. Shu sababli byudjetdan mablag' oluvchining xarajatlar smetasida belgilangan mablag' doirasida shartnoma imzolanmaydigan yoki imzolanadigan muayyan xarajat turining ma'lum bir davr (yil yoki oy) uchun summasidan shu davr bo'yicha sarflanishi mumkin bo'lgan qismini xarajatlar smetasidan emas, balki mahalliy byudjet bo'yicha kutilayotgan daromadlar bashorati asosidagi kassali rejalashtirishdan (soddaroq aytganda, mavjud imkoniyatdan) kelib chiqib oldindan belgilab qo'yish tartibi iqtisodiyotda majburiyatlarning bajarilmay qolishi, xo'jalik aloqalari va to'lov intizomi buzilishi, nizolar va ular asosida ortiqcha moliyaviy sanksiyalar yuzaga kelishi, shuningdek, debitorlik qarzlarini undira olmagan tomonning soliqlarni o'z vaqtida to'lay olmaslik va boshqa masalalarda qiyinchiliklarga duchor bo'lishi kabi bir qator salbiy holatlarning oldini oladi.

Davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar pul oqimini rejalashtirishning asosiy maqsadi Davlat byudjeti pul mablag'larini boshqarish uchun asoslangan hisob-kitoblar ko'rinishida poydevor bo'lib xizmat qilish bo'lsa, o'z navbatida Davlat byudjeti pul mablag'larini boshqarishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

– byudjetlarning daromadlar va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik kassa uzilishlarini operativ bartaraf etish;

– byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar to‘lovini o‘z vaqtida amalga oshirish;

– hududiy (respublika) g‘azna hisobvaraqlari (*HG‘H (RG‘H)*)dagi pul mablag‘laridan samarali foydalanish.

Nizomga ko‘ra aniq belgilab berilgan tushuncha – **kassali rejalashtirishning** mazmuni tushumlarning hajmi va manbalari, shuningdek, to‘lovlarning yo‘nalishi va maqsadlari bo‘yicha respublika va mahalliy byudjetlar kassa rejalarini tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladigan hududiy (respublika) g‘azna hisobvaraqlari orqali o‘tadigan pul mablag‘larining aylanmasini rejalashtirish va boshqarishdan iborat.

Davlat byudjeti ijrosi uchun yangi jarayonni ifodalovchi tushunchalardan biri – **xarajatlar to‘lovi ruxsatnomasi** (tayinlash sertifikat) (**XTR**) – xarajatlar to‘lovi ruxsatnomasida ko‘rsatilgan vaqt davridan boshlab, uning doirasida byudjetdan mablag‘ oluvchi yuridik majburiyatni qabul qilishi mumkin bo‘lgan g‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan byudjetdan mablag‘ oluvchiga beriladigan byudjetdan ajratilgan mablag‘lar summasini aks ettiradigan hujjat.

Respublika va mahalliy byudjetlarning yillik kassali rejalashtirishi tegishli byudjetlarning oylik daromadlar va xarajatlar yoyilmasiga asosan amalga oshiriladi. Nizom orqali joriy kassali rejalashtirish bilan bog‘liq amaliyotga kiritilgan yangiliklardan biri sifatida g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan byudjetdan mablag‘ oluvchilarga XTR berilishi asosida respublika va mahalliy byudjetlar ijrosi amalga oshiriladigan sharoitda ushbu ikki darajadagi byudjetlarning oylik daromad bashoratiga asosan kassali rejalashtirilishi uchun zarur axborot – kutilayotgan daromadlar tushumi to‘g‘risidagi tezkor (operativ) ma’lumotlardan foydalanilishini alohida ta’kidlab o‘tish kerak.

Hozirgi kunda byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar to‘lovini o‘z vaqtida amalga oshirish hamda byudjetlarning daromadlar va xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik kassa uzilishlarini bartaraf etish uchun G‘aznachilik bo‘linmalari tegishli byudjet bo‘yicha mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda o‘zlari uchun belgilangan

quyidagi imkoniyatlardan samarali va o'z o'rnida foydalanishlari muhim ahamiyat kasb etadi:

- g'azna hisobvaraqlaridagi aylanma kassa mablag'larini belgilangan tartibda ishlatish;
- tegishli byudjetlar tomonidan byudjet ssudalari olinishi tashabbusi bilan chiqish;
- mablag'larni jalb qilishda qonun hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa manbalardan (respublika byudjeti bo'yicha) foydalanish.

Daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi kassa uzilishlarini bartaraf etish maqsadida XTR faqat tegishli davrda HG'H (RG'H)ga tushishi kutilayotgan summalar doirasida beriladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari g'azna ijrosining mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?
2. Byudjet xarajatlarining davlat funksiyalari bilan bog'liqligini qanday tavsiflaysiz?
3. Byudjet xarajatlari g'azna ijrosi byudjet jarayonining qaysi bosqichida amalga oshiriladi?
4. Byudjet xarajatlarining ijrosi qaysi organlar tomonidan amalga oshiriladi?
5. Byudjet xarajatlarining g'azna ijrosi qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. Byudjet xarajatlarining tasnifi qanday tasniflardan tashkil topgan?
7. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetalari qanday shakllantiriladi?
8. Byudjet limitlari va me'yorlari qanday tartibda belgilanadi?
9. Xarajatlar smetalarining qanday turlari mavjud?
10. Shtatlar jadvallari qanday tartibda shakllantiriladi?
11. Xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallari g'aznachilik organlarida qanday tartibda ro'yhatdan o'tkaziladi?

12. Byudjet xarajatlarining yoyilmasi nimalarni nazarda tutadi?
13. G'aznachilik tomonidan byudjet xarajatlarini qay tartibda to'lanadi?
14. Xarajatlar to'lovi ruxsatnomasi qanday tartibda shakllantiriladi?
15. Byudjet xarajatlari g'azna ijrosini amalga oshirishda qanday me'yorlardan foydalaniladi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Byudjet xarajatlari g'azna ijrosini amalga oshirish bo'yicha taqdimot tayyorlang.
2. G'aznachilikda byudjet xarajatlari to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha amaliy ish o'yini stsenariysini ishlab chiqing va amaliy mashg'ulot davomida uni amalga oshiring.

11-MAVZU. G‘AZNACHILIK IJROSIDA BYUDJET TASHKILOTLARI VA BYUDJET MABLAG‘LARI OLUVCHILARNING XARAJATLAR SMETASI VA ULARGA O‘ZGARISHLAR KIRITISH TARTIBI

11.1. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi to‘g‘risida umumiy tushuncha

11.2. Xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash va ro‘yhatdan o‘tkazish tartibi

11.3. G‘aznachilik sharoitida xarajatlar smetalari va shtatlar jadvalariga o‘zgartirishlar kiritish tartibi

11.1. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi to‘g‘risida umumiy tushuncha


O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 4-moddasida byudjet tashkilotlariga quyidagicha ta’rif berilgan: “*Byudjet tashkiloti* – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot”.¹¹² Bu tashkilotlar asosan yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, ularning faoliyati bu maqomning barcha talablariga (moddiy-texnika bazasi va faoliyat sohasi bo‘yicha xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun yetarli sharoitning mavjudligi, buxgalter kadrlarning mavjud bo‘lishi, shaxsiy hisobraqamining mavjud bo‘lishi va sh.k. javob berishi kerak. Lekin bugungi kunda yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan byudjet tashkilotlari ham faoliyat yuritib kelmoqda. Ularga tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo‘linma sifatidagi byudjet tashkiloti)

¹¹² O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 4-moddasiga asosan.

huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatiladi (masalan, tuman madaniyat bo'limiga qarashli markaziy kutubxonalar tizimi, tegishli hokimiyatlar bo'linmalariga qarashli veterinariya uchastkalari va punktlari va sh.k.).

Ma'lumki, iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohalari ikki yirik sohadan iborat (11.1-rasm):

1. Moddiy ishlab chiqarish sohasi.
2. Nomoddiy ishlab chiqarish (yoki noishlab chiqarish) sohasi.



11.1-rasm. Iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohalari¹¹³

Moddiy ishlab chiqarish sohasida moddiy qiymatliklar yaratiladi, tovarlar ishlab chiqariladi, xizmatlar ko'rsatiladi, ishlar bajariladi.

¹¹³ Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya: O'quv qo'llanma. T.: VNESHINVESTPROM. 2013. 180-bet.

Noishlab chiqarish sohasida turli xizmatlar (maishiy, kommunal, ijtimoiy, davlat boshqaruvi, mamlakat mudofaasi, milliy xavfsizlik, ichki ishlar xizmatlari) ko'rsatiladi.

Noishlab chiqarish muassasa va tashkilotlarining bir qismi tijorat hisobi asosida ish yuritsalar, bir qismi notijorat faoliyatini olib boradilar. Bu faoliyatning pirovard maqsadi tijorat foydasiga ega bo'lish bo'lmaydi, lekin ularning qo'shimcha daromadlarni jalb qilishga bo'lgan intilishlarini ham inkor etmaydi. Bunday muassasalarning aksariyati "byudjet tashkiloti" maqomida faoliyat qiladi.

Davlat byudjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, byudjet mablag'laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida 1999 yil 3 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-son Qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror 2000 yil 1 yanvardan boshlab byudjet tashkilotlari xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashning yangi tartibini belgilab berdi. U quyidagilarni nazarda tutadi:

– byudjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda byudjet intizomini mustahkamlash uchun byudjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish;

– byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini soddalashtirish va byudjet mablag'laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash uchun imkoniyatlar yaratish;

– ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, ish haqiga qo'shimchalar, kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlarni guruhlagan holda bir satrda mablag' bilan ta'minlash usulida byudjet tashkilotlarini normativlar bo'yicha (faoliyat turiga ko'ra) mablag' bilan ta'minlashning yangi tartibini joriy etish;

– byudjetdan mablag' bilan ta'minlashni byudjet tashkilotlarining faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish faoliyatini kengaytirish bilan birga qo'shib olib borish;

– byudjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o‘rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Mazkur Qarorning to‘liq ijrosini ta‘minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan faoliyatdagi tashkilotlarga qo‘shimcha ravishda 2000 yildan boshlab bir qator byudjet tashkilotlari va muassasalariga *yuridik shaxs maqomi* berilgan. Bular:

Maorif sohasida:

– kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, bolalar uylari;
– umumta‘lim maktablari, gimnaziyalar, litseylar, maktablararo o‘quv-ishlab chiqarish kombinatlari – o‘quvchilar kontingenti 400 kishidan kam bo‘lmasa;

– internatlar – o‘quvchilar kontingenti 200 kishidan kam bo‘lmasa;

– maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari – bolalar kontingenti 350 kishidan kam bo‘lmasa;

– viloyat va tuman (shahar) ahamiyatiga molik maktabdan tashqari muassasalar;

Sog‘liqni saqlash sohasida:

– kasalxonalar (ixtisoslashtirilgan markazlar bilan), tug‘ruqxonalar, tibbiy-sanitariya qismlari, dispanserlar, shifoxonalar;

– bolalar uylari, bolalar sanatoriylari, kattalar uchun sil kasalliklari sanatoriylari;

– tajriba tariqasida ochilgan qishloq vrachlik punktlari.

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 26 fevral “Xalq ta‘limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta‘minlash doirasida barcha turdagi ta‘lim muassasalariga ularning kontingentidan (o‘quvchilar, bolalar, tarbiyalanuvchilar sonidan) qat‘iy nazar yuridik shaxs maqomi berildi.

Byudjet tashkilotlari bo'ysunuviga ko'ra respublika byudjeti va mahalliy (viloyat, tuman, shahar) byudjetlardan mablag' bilan ta'minlanadilar, ularning joriy faoliyati byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlashning o'rnatilgan tartibiga asosan moliyalashtiriladi, bunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tashkilotlar mustaqil ravishda o'z moliyaviy rejalarini *xarajatlar smetasi* shaklida qonunchilik bilan belgilangan tartibda ishlab chiqadilar.

Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotining unga ajratilgan byudjet mablag'larining hajmi, maqsadli yo'nalishi va yil choraklari (har bir chorakning oylari) bo'yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy moliyaviy hujjati.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom"¹¹⁴-ga muvofiq, byudjet tashkilotlarida smetalarning quyidagi *turlari* amalda qo'llaniladi:

- yakka (individual) smetalar;
- jamlanma smetalar;
- byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalar;
- markazlashgan tadbirlar uchun smetalar.

Yakka smetalar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida olingan muassasa bo'yicha tuziladi. Masalan, muayyan hududda (tuman yoki shaharda) joylashgan yuridik shaxs maqomida faoliyat qiluvchi davlat sog'liqni saqlash muassasasi (kasalxonalar, qishloq vrachlik punkti, ixtisoslashgan dispanser va sh.k.) mustaqil ravishda byudjetdan to'lanishi ko'zda tutilgan o'z xarajatlarini yakka smeta asosida rejalashtiradi.

Jamlanma smetalar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan

¹¹⁴ O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2014 yil 14 noyabrdagi 74-son buyrug'i.

xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha tuziladi (masalan, tuman madaniyat bo'limiga qarashli markaziy kutubxonalar tizimi bo'yicha).

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida keltirilishicha, "jamlanma xarajatlar smetasi – byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan uning tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi" hisoblanadi.

“Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo'linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha quyidagi alohida hollarda *jamlanma xarajatlar smetasi* tuzilishi mumkin:

– bir turdagi kichik tashkilotlar bo'yicha - veterinar uchastkalar va punktlar hamda boshqa tashkilotlar bo'yicha;

– bir turdagi yirik tashkilotlar bo'yicha, qachonki ularga xo'jalik xizmatlarini ko'rsatish xo'jalik xizmatlarni ko'rsatuvchi maxsus guruhlar orqali markazlashtirilgan holda amalga oshirilsa;

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bo'yicha;

– ozodlikdan mahrum etilgan joylardan qaytgan shaxslarga ijtimoiy moslashuv markazlari hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari bo'yicha.”*

*Izoh: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom” dan.

Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta – tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkil bo'lish manbalari va ushbu mablag'larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda byudjetdan tashqari daromadlar tushumlarining bashorat hajmlari aks ettiriladi. Masalan, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

muassasalarida talabalarni o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar va ularni ishlatish yo'nalishlari byudjet qonunchiligi (xususan, 2157-sonli Nizom) bilan belgilangan tartibda byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta asosida rejalashtiriladi.

“Tashkilotlar quyidagi byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarni tuzadilar:

- byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi;
- tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;
- ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar;

- qonunchilikda belgilangan boshqa barcha byudjetdan tashqari mablag'lar, jumladan, vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalariga yo'naltirilayotgan davlat bojlari, yig'imlar va soliq bo'lmagan to'lovlardan, ma'muriy va moliyaviy jazolardan ajratmalar.

Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha (Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi va Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bundan mustasno) smetalar tegishli moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.”*¹¹⁵

Markazlashgan tadbirlar uchun smetalar – vazirliklar, idoralar va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha tuziladi va har bir markazlashgan tadbir uchun alohida ishlab chiqiladi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini qishki kiyim-bosh bilan ta'minlash, birinchi sinf o'quvchilariga o'quv qurollari va anjomlari majmuasi taqdim qilish bilan bog'liq tadbirlar uchun tegishli vazirlik darajasida markazlashgan tadbirlar uchun smetalar ishlab chiqiladi.

¹¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom”.

“O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo‘limlari markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo‘yicha ularning o‘zini saqlash uchun xarajatlar smetasidan tashqari tashkilotning markazlashtirilgan tadbirlari uchun xarajatlar smetasini tuzadilar. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo‘limlari tomonidan markazlashtirilgan holda bir necha tadbirlar (tizimdagi barcha tashkilotlar bo‘yicha qo‘riqlash xizmatini to‘lash, xizmat kiyimini sotib olish, yagona axborot-kompyuter tizimiga xizmat ko‘rsatish, seminarlar o‘tkazish va boshqalar) bo‘yicha xarajatlar amalga oshirilayotganda, xarajatlar smetasiga har bir to‘lanadigan markazlashtirilgan tadbirlar bo‘yicha hisob-kitoblar ilova qilinadi.

Xarajatlar smetasi va byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta bir yillik muddatga - 1 yanvardan 31 dekabrgacha bo‘lgan davrga tuziladi (mavsumiy tadbirlar uchun yoki joriy moliya yilida ishga tushiriladigan tashkilotlar bo‘yicha esa ularning mazkur yildagi faoliyat ko‘rsatish oylariga tuziladi va amal qiladi).

Byudjet qonunchiligida kelgusi moliya yili uchun davlat byudjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan holatdagi xatti-harakatlar belgilab berilgan. Xususan, agar moliya yili boshlangunga qadar shu yilga mo‘ljallangan davlat byudjeti mamlakat qonun chiqaruvchi organi tomonidan qabul qilinmasa, byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash ular tomonidan tuzilgan *vaqtinchalik xarajatlar smetasi* asosida amalga oshiriladi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotining (yoki byudjet mablag‘lari oluvchining) xarajatlar smetasi tasdiqlanishiga va ro‘yxatdan o‘tkazilishiga qadar amal qiladigan hujjat bo‘lib, unda qonun hujjatlaridagi o‘zgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar har oy uchun aks

ettiriladi. Vaqtinchalik xarajatlar smetasi oylar kesimida birinchi chorakdan oshmagan davr uchun tuziladi, ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Bunda har oylik xarajatlar o'tgan moliya yilining oxirgi choragida byudjet tashkiloti tomonidan sarflangan byudjet mablag'larining uchdan bir qismidan oshib ketmasligi shart.

“Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari joriy moliya yilining 25 dekabrigacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi”.¹¹⁶

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi asosiy smeta tasdiqlangunga qadar amalda bo'ladi, bunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasidagi birinchi chorak uchun ko'zda tutilgan xarajatlar summasi tashkilotlarning vaqtinchalik xarajatlar smetasida rejalashtirilgan xarajatlar summasidan kam bo'lishi mumkin emas.

Byudjet tashkilotlari o'zlarining xarajatlarini hisoblab chiqishda va smetalarni rejalashtirishda quyidagilarga amal qiladilar:

– O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, Prezident farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining normativ hujjatlariga;

– byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirishning normativ uslubiga;

– tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga, shuningdek, nodavlat korxonalar va tashkilotlarning ayrim tovarlari va xizmatlari baholariga;

– yuqori turuvchi tashkilotlar rahbarlarining o'zlari tasarrufidagi muassasalarning kelgusi yil uchun xarajatlar smetalarini tuzish masalalari bo'yicha ko'rsatmalari va takliflariga, agarda ular qonun hujjatlariga zid bo'lmasa,

– bolalar va boshqa ijtimoiy-madaniy tashkilotlarda ovqatlanishga ketadigan xarajatlar summasi tashkilotlarning ayrim turlari uchun

¹¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi 104-moddasiga asosan.

qonun hujjatlari bilan tasdiqdangan ovqatlanish me'yorlari va ovqatlanish kunlari sonidan kelib chiqib hisoblanadi;

– dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar summasi qonun hujjatlari bilan belgilangan pul xarajatlari me'yoriga qarab hisoblab chiqiladi;

– ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyafzal, choyshab, yotoq anjomlari va boshqa yumshoq jihozlar sotib olishga ketadigan xarajatlar moddiy ta'minotning amaldagi me'yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi.

10.2. Xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash va ro'yhatdan o'tkazish tartibi

Xarajatlar smetasi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan Nizomga muvofiq shaklda tuziladi (1-ilova).

Moliya organlari va byudjet mablag'larini taqsimlovchilar byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalariga doir hisob-kitoblarni talab qilishga haqlidir. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining har bir diplomatik muassasalari bo'yicha xarajatlar smetasi xorijiy va milliy valyutalarda har bir diplomatik muassasa bo'yicha alohida tuziladi (1a-ilova).

Xarajatlar smetasi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan ularga tegishli moliya yili uchun yetkazilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmi doirasida tuziladi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga tegishli moliya yili uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmini yetkazish tegishli moliya organlari yoki byudjet mablag'larini taqsimlovchilari tomonidan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Byudjet mablag'larini taqsimlovchi-

larga tegishli moliya yili uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmini yetkazish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo'yicha ishlarni tashkil etish davomida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga bo'ysunuvchi tashkilotlarga byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari va moliya organining mazkur masala bo'yicha ko'rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida ko'rsatmalar beradi.

Buning uchun O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning rahbarlari hamda tegishli xodimlarining kengashini chaqiradilar va xarajatlar smetasini tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar, ularga tashkilotlarning xarajatlar smetasini tuzish tartibi masalalari bo'yicha qonun hujjatlari talablarini tushuntiradilar, byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasi hisob-kitoblarini qonun hujjatlariga muvofiq kelishi majburiyiligi, xarajat qilishda smeta-shtat intizomiga va tejamkorlik rejimiga rioya qilish haqida ko'rsatmalar beradilar, shuningdek xarajatlar smetasini tuzish hamda blankalarni to'ldirish texnikasi masalalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar.

Bir vaqtning o'zida bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga kelgusi yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturlariga muvofiq asosiy ko'rsatkichlarni (sinflar, o'quvchilar, bolalar, shifoxonalarda joy-kunlar, bola-kunlar soni va boshqalar) yozma ravishda xabar qiladilar.

Xarajatlar smetasi bo'yicha xarajatlarni hisoblab chiqarish iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlari ko'rsatkichlariga va tejamkorlikning qat'iy rejimini hisobga olgan holda mablag'larga bo'lgan ehtiyojga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Xarajatlarni hisoblab chiqarishda quyidagilarga amal qilinishi zarur:

- o belgilangan tartibda tasdiqlangan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga;
- o davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ularga taqdim etilgan byudjet sohasidagi vakolatlari doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga;
- o belgilangan tartibda tasdiqlangan byudjet tashkilotlari xarajatlarining normativlariga;
- o tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar va tariflariga.

Jumladan:

- xarajatlar smetasiga ish haqi uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar qonun hujjatlari bilan belgilangan lavozim maoshlari va bazaviy mehnatga haq to'lash stavkalari, ularga qo'shimcha haq to'lash va ustamalar hamda amaldagi namunaviy shtatlar va shtat normativlariga rioya etilgan holda kiritiladi. Ishbay shaklida bajari-ladigan ishlar uchun ish haqi, moliya yiliga xarajatlar smetasida nazarda tutilgan shunday ishlarning hajmidan kelib chiqib xarajatlar smetasiga kiritiladi;
- pedagog xodimlar ish haqi uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni aniqlashda qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy mehnatga haq to'lash stavkalaridan, daftarlarni tekshirganlik, sinf rahbarligi va boshqalar uchun qo'shimcha haq to'lashni hisobga olgan

holda o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan tarifkatsiyalardan kelib chiqilishi lozim;

- tibbiyot xodimlari ish haqi uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni aniqlashda qonun hujjatlariga muvofiq bazaviy mehnatga haq to'lash stavkalari va shartlarini hisobga olgan holda tuzilgan tarifkatsiyalardan kelib chiqilishi lozim;

- stipendiya xarajatlari stipendiyalar miqdorlari va stipendiya bilan ta'minlash tartibiga muvofiq hisoblanadi;

- yagona ijtimoiy to'lovni to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga belgilangan stavkalardan va qonun hujjatlariga muvofiq yagona ijtimoiy to'lov to'lanadigan barcha to'lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ish beruvchining barcha xodimlarining o'tgan yilgi ish haqining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

- xo'jalik xarajatlari, jumladan, kommunal xizmatlar uchun xarajatlar har bir tashkilotga ko'rsatiladigan xizmatga belgilangan limit (jismoniy hajmlar) doirasida hamda narx va tariflarni hisobga olgan holda hisoblanadi;

- telefon va boshqa telekommunikatsiya xizmatlari xarajatlari abonent raqamlari soni va xizmatlar uchun tasdiqlangan tariflaridan kelib chiqib hisoblanadi. Bunda, limitdan ortiqcha foydalanilgan aloqa xizmatlari, shu jumladan shaharlararo (xalqaro) so'zlashuvlar uchun, Internet xizmatlari va boshqa aloqa xizmatlari xarajatlari byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasida tegishli moliya organlari bilan kelishilgan holda ularning faoliyat xususiyatlaridan va mazkur xizmatlarga bo'lgan talabidan (zaruriyatidan) kelib chiqib nazarda tutiladi;

- davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soha byudjet tashkilotlarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar byudjet tashkilotlarining har bir turi uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining natural me'yorlaridan va o'rtacha yillik sonidan kelib chiqib hisoblanadi;

- dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar kuniga bir bemorga hisoblangan dori-darmonlar me'yoriga qarab belgilanadi;

- ijtimoiy-madaniy tashkilotlarni ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyabzal, choyshab, ko'rpa-to'shak anjomlari va boshqa yumshoq anjomlar sotib olishga ketadigan xarajatlar mavjud moddiy ta'minotning me'yorlari asosida ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi;

- suv, o'rmon xo'jaligi va boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari ularning bajarayotgan ish me'yori va hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

- qo'riqlash faoliyati xizmatlarining to'lovi bilan bog'liq xarajatlar mazkur xizmatlarni yetkazib beruvchilarning tariflariga muvofiq aniqlanadi;

- tashkilotlarning binolar, inshootlar, transport vositalaridan foydalanish, binolar va transport vositalari, shuningdek boshqa mulk ijarasi bilan bog'liq xarajatlari qonun hujjatlarida belgilangan xarajatlar me'yori, limitlar va natural ko'rsatkichlardan kelib chiqib aniqlanadi;

- xizmat safarlariga xarajatlar tashkilotlarning oldiga qo'yilgan vazifalaridan, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

- epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga (chigirtkalar, tut parvonasi va boshqalar) qarshi kurashish bilan bog'liq xarajatlar bashorat ish hajmlari va kimyoviy preparatlarga bo'lgan ehtiyojlar, shuningdek bajariladigan ish turlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda o'zgacha ko'rsatkichlar va uslublar qo'llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazuvchi tegishli byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va/yoki tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari (bosh bo'linma sifatida belgilangan) huzuridagi buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha quyidagi alohida hollarda bo'limlar va kichik bo'limlar (tashkilotlar turi) kesimida xarajatlar smetasi tuzilishi va tasdiqlanishi mumkin:

- bir turdagi kichik tashkilotlar bo'yicha – veterinar uchastkalar va punktlar hamda boshqa kichik tashkilotlar bo'yicha;

- bir turdagi yirik tashkilotlar bo'yicha, agar ularga xo'jalik xizmatlarini ko'rsatish xo'jalik xizmatlarni ko'rsatuvchi maxsus guruhlar orqali markazlashtirilgan holda amalga oshirilsa;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bo'yicha;

- ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod bo'lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuv markazlari hamda voyaga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari bo'yicha;

- tashkilotlarning xarajatlar smetasi bo'yicha byudjetdan ajratiladigan mablag'larni taqsimlovchilari bo'lib xarajatlar smetasini tasdiqlagan bosh tashkilotlarning rahbarlari hisoblanadi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va/yoki tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari (bosh bo'linma sifatida belgilangan) huzuridagi buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar xarajatlar smetasi, xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning rahbarlaridan olingan buyurtmalar asosida hamda markazlashtirilgan buxgalteriyada mavjud bo'lgan hisob va hisobot, shuningdek iqtisodiy

va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuziladi.

Xarajatlar smetasini tuzish uchun buyurtmalar hokimiyatlarning tegishli boshqarma va bo'limlari tomonidan belgilangan shakllar yoki ko'rsatkichlar ro'yxati bo'yicha xarajatlarning guruhlari va ilovalari bo'yicha, shuningdek xarajatlar smetalariga doir hisob-kitoblarni ilova qilgan holda tashkilotlar tomonidan taqdim qilinadi.

Buyurtmalarda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- isitish, yoritish, suv ta'minoti xarajatlarini hisoblash uchun zarur natural ko'rsatkichlar;

- sotib olish uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar va jihozlar ro'yxati;

- kapital va joriy ta'mirlash uchun asosiy ishlar ro'yxati;

- o'rmon xo'jaligi tashkilotlari tomonidan bajariladigan ishlar hajmi;

- qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan kadastr yuritish va boshqa ko'rsatkichlar hisobi bo'yicha ishlar hajmi;

- bino va inshootlarni kapital ta'mirlash bo'yicha manzilli ro'yxatga kiritish uchun asoslangan hisob-kitoblar;

- byudjetdan ajratiladigan mablag'larni ajratishni asoslash uchun boshqa zarur hisob-kitoblar.

Tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan buyurtmalar markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan tegishli tashkilotlarning vakillari ishtirokida oldindan ko'rib chiqiladi hamda xarajatlar smetasini tuzishda hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha ular tomonidan o'zini saqlash uchun xarajatlar

smetasidan *tashqari markazlashtirilgan tadbirlarga xarajatlar smetasi tuzilishi mumkin.*

Agarda O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda bir necha tadbirlar (tizimdagi barcha tashkilotlar bo'yicha qo'riqlash xizmatini to'lash, xizmat kiyimini sotib olish, yagona axborot-kompyuter tizimiga xizmat ko'rsatish, seminarlar o'tkazish va boshqalar) bo'yicha xarajatlar amalga oshirilayotganda, xarajatlar smetasiga har bir markazlashtirilgan holda to'lanadigan tadbirlar bo'yicha hisob-kitoblar ilova qilinadi.

Kelgusi moliya yilida ochilishi rejalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha xarajatlar smetasi tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari, bo'limlari tomonidan har bir tashkilotga alohida, mehnatga haq to'lash shartlari va faoliyat ko'rsatayotgan shunga o'xshash tashkilotlarda mavjud bo'lgan xarajatlarning o'rtacha me'yorlaridan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunda, yangi byudjet tashkilotlarini saqlash xarajatlari mazkur tashkilotlar faoliyatining boshlanishi mo'ljallanayotgan muddatlardan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Davlat ilmiy-texnik dasturlarini bajarishga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasi ijrochi-tashkilotlar bo'yicha barcha ilmiy-texnik loyihalarning umumiy summasini smetada byudjet tizimi byudjetlari iqtisodiy xarajatlar tasnifining bir satrida aks ettirgan holda tuziladi. Bunda xarajatlar smetalariga ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini bajarish uchun ish haqi, unga tenglashtirilgan to'lovlar, ish beruvchilarning ajratmalari va boshqa xarajatlarni o'z ichiga olgan

loyiha bo'yicha barcha xarajatlarni o'zida aks ettirgan xarajatlar kalkulyatsiyasi ilova qilinadi.

Byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlari smetasi tashkilot rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi, tasdiqlangan kuni ko'rsatilgan holda ularning imzolari hamda mazkur smetaning barcha nusxalari tashkilot muhri izini aks ettirish bilan rasmiylashtiriladi. Bunda xodimlar ish haqi jamg'armasining summasini ajratgan holda smetada xarajatlarning umumiy summasi ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining diplomatik muassasalari bo'yicha xarajatlar smetalari O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri va moliya vaziri yoki ular vakolat bergan shaxslar tomonidan tasdiqlanadi, tasdiqlangan kuni ko'rsatilgan holda ularning imzolari hamda mazkur smetaning barcha nusxalari tashkilot muhri izini aks ettirish bilan rasmiylashtiriladi. Bunda xodimlar ish haqi jamg'armasining summasini ajratgan holda smetada xarajatlarning umumiy summasi ko'rsatiladi.

Kapital qurilish obyektlari bo'yicha xarajatlar smetalari buyurtmachi rahbari tomonidan tasdiqlanadi, tasdiqlangan kuni ko'rsatilgan holda ularning imzolari hamda mazkur smetaning barcha nusxalari tashkilot muhri izini aks ettirish bilan rasmiylashtiriladi (2-ilova).

Bunda smeta bo'yicha xarajatlarning umumiy summasi ko'rsatiladi.

Davlat ilmiy-texnik dasturlarini bajarish uchun ijrochi-tashkilotlarga yo'naltiriladigan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasi ular bilan mazkur dasturlarga kiritilgan loyihalarni bajarishga byudjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida shartnoma tuzgan tegishli vazirlik, davlat qo'mitasi va idorasi rahbari (u vakolat bergan shaxs) tomonidan tasdiqlanadi, tasdiqlangan kuni ko'rsatilgan

holda ularning imzolari hamda mazkur smetaning barcha nusxalari tashkilot muhri izini aks ettirish bilan rasmiylashtiriladi. Bunda xodimlar ish haqi jamg'armasining summasini ajratgan holda smetada xarajatlarning umumiy summasi ko'rsatiladi.

Xarajatlar smetalarini tasdiqlash joriy moliya yilining 10 martidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Bunda, byudjet mablag'larini taqsimlovchi bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar xarajatlar smetasini byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy moliya yilining 10 martidan kechiktirmay tasdiqlaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, smeta xarajatlari quyidagi xarajat guruhlari bo'yicha rejalashtiriladi:

I guruh – ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (stipendiyalar va boshqalar);

II guruh – ish beruvchilarning ajratmalari (ish haqiga ustamalar);

III guruh – kapital qo'yilmalar;

IV guruh – boshqa xarajatlar.

Xarajatlarni moliyalashtirish (to'lash) byudjet ijrosi jarayonida xarajatlar ro'yxati va smetasiga kiritiladigan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda tegishli yil uchun tasdiqlangan byudjet parametrlariga hamda byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga muvofiq tuzilgan byudjet xarajatlarining choraklar bo'yicha taqsimlangan yillik ro'yxatiga binoan amalga oshiriladi.

I guruh – ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga quyidagi xarajat turlari kiradi:

– “Ish haqi”;

– “Ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish Direktor fondi mablag'lari” (umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda);

– Stipendiyalar.

Umuman olganda, byudjet tashkilotlari xodimlari ish haqini hisoblashda ular mehnatiga haq to‘lashning Yagona Tarif Setkasi (YaTS) qo‘llaniladi. YaTS O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o‘rnatiladi. U 22 ta razryaddan va har bir razryad uchun o‘rnatilgan tegishli tarif koeffitsientlaridan iborat. Yagona Tarif Setkasi qonunan o‘rnatilgan eng kam ish haqi miqdoriga asoslanadi va byudjet tashkilotlari xodimlari lavozim okladlarini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Ayrim tarmoqlar uchun esa mehnatga haq to‘lashning tarmoq setkasi qo‘llaniladi. Masalan, oliy ta‘lim muassasalari, xalq ta‘limi muassasalari, sog‘liqni saqlash davlat tashkilotlari uchun ular xodimlari mehnatining xususiyatidan kelib chiqqan holda haq to‘lashning tarmoq setkalari ishlab chiqilgan.

II guruh – “Ish haqiga ustamalar” (Ish beruvchilarning ajratmalari):

Bu guruhda mehnat haqi fondiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan yagona ijtimoiy to‘lov summasi aks ettiriladi. Xarajatlar hisoblab chiqilgan mehnat haqi fondi summasiga nisbatan o‘rnatilgan foizlarda hisoblanadi. 2018 yil uchun yagona ijtimoiy to‘lov miqdori mehnat haqi fondiga nisbatan 25 foiz qilib belgilangan.¹¹⁷

III guruh – “Kapital qo‘yilmalar” guruhi bo‘yicha xarajatlar Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro‘yxatlarga muvofiq alohida tarzda rejalashtiriladi. Bu xarajatlar alohida byudjet tashkilotining smetasida rejalashtirilmaydi.

IV guruh – “Boshqa xarajatlar” tarkibiga quyidagi xarajat turlari va ularga mos xarajat kodlari kiradi:

– “Xizmat safar xarajatlari”;

¹¹⁷ “O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari bashorati va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori. PQ-3454-son. 29.12.2018. 3-band.

- “Kommunal xizmatlarni to‘lash xarajatlari”;
- “Telefon, telekommunikatsion va axborot xizmatlari xarajatlari”;
- “Joriy ta‘mirlash xarajatlari”;
- “Saqlash, ekspluatatsion xarajatlar va boshqa xizmatlarni to‘lash xarajatlari”;
- “Texnika, uskunalar, joriy maqsadlardagi boshqa buyumlarni va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish xarajatlari”;
- “Boshqa joriy xarajatlar”.

IV guruh moddalari bo‘yicha xarajatlarni rejalashtirish va hisob-kitob qilishning eng umumiy bo‘lgan *o‘ziga xos xususiyatlari* quyidagilardan iborat:

- amaldagi narxlar va tariflar asosida hisoblab chiqariladi;
- natural shaklda ajratilgan limitlar asosida aniqlanadi;
- hisoblagichlarning ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘tgan yildagi haqiqiy xarajatlar inobatga olinadi;
- bir birlik uchun o‘rnatilgan xarajat me‘yorlariga rioya etiladi;
- energo-yoqilg‘i va boshqa resurslarni iqtisod qilish rejimiga rioya etiladi.

Shtat jadvallarini tuzish va tasdiqlash

Byudjet tashkilotining shtat jadvalida mehnatga haq to‘lash shartlarida nazarda tutilgan, bir yilga hisob-kitob qilingan ustamalar to‘lashga, qo‘shimcha haq to‘lash va xodimlarni moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltiriladigan mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi alohida satri da ko‘rsatiladi, masalan:

- qonun hujjatlariga muvofiq shakllantiriladigan Byudjet tashkilotlari va muassasalarini moddiy rag‘batlantirish maxsus jamg‘armasi (tibbiyot muassasalari, barcha tipdagi umumta‘lim maktablari va o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari bundan mustasno);

- mukofotlash, moddiy yordam ko'rsatish, ko'p yillik mehnati uchun bir martalik rag'batlantirish uchun mehnatga haq to'lash jamg'armasi;

- ko'p yillik mehnati va maxsus unvonlarga (malaka darajasi, darajali unvon, diplomatik martaba va boshqalar) oylik ustamalar va qo'shimcha haq to'lashni belgilash uchun mehnatga haq to'lash jamg'armasi;

- mehnat ta'tilidagi shaxslarning o'rnini bosuvchi xodimlarning mehnatiga haq to'lash uchun mehnatga haq to'lash jamg'armasi;

- Umumta'lim, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining direktor jamg'armasi va boshqalar.

Byudjet tashkilotining *shtat jadvalini tasdiqlash joriy moliya yilining 10 martidan kechiktirmay amalga oshiriladi*. Bunda, byudjet mablag'larini taqsimlovchi bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari shtat jadvallarini byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan belgilangan, biroq joriy moliya yilining 10 martidan kechiktirmay tasdiqlaydi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetalarini tuzish va tasdiqlash

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan vaqtinchalik xarajatlar smetalarini tuzish va tasdiqlash keyingi moliya yilining birinchi choragini oyma-oy bo'lgan holda amalga oshiriladi. Bunda, vaqtinchalik xarajatlar smetasida nazarda tutiladigan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar o'tgan moliya yilining oxirgi choragidagi byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan ortiq bo'lmasligi lozim hamda qonun hujjatlarida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun xarajatlar summasiga aniqlashtirilishi mumkin.

Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari joriy moliya yilining 25 dekabrighacha tuziladi va tasdiqlanadi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetalari xarajatlar smetasi tasdiqlangunga qadar amalda bo'ladi. Bunda, ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim

etilgan xarajatlar smetasida birinchi chorak uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar vaqtinchalik xarajatlar smetasida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan kam bo'lmashligi kerak.

Vaqtinchalik xarajatlar smetalarini tuzish va tasdiqlash xarajatlar smetalarini tuzish va tasdiqlash talablariga muvofiq tartibda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish va tasdiqlash

Byudjetdan tashqari jamg'armalarga ega bo'lgan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini har yili tuzadi va tasdiqlaydi. Bunda, byudjetdan tashqari mablag'lar tushumlari va xarajatlarini rejalashtirish byudjet tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan daromadlar manbai va xarajatlar yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish hamda tasdiqlash byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarini uchun belgilangan tartibga o'xshash tartibda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasida tushumlar manbaini ko'rsatgan holda byudjetdan tashqari mablag'lar tushumlarining hajmi va mazkur mablag'lardan foydalanish yo'nalishlari qonun hujjatlariga talablaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasining daromad qismi moliya yili boshidagi mablag'lar qoldig'i hamda daromadlarning manbalar kesimidagi bashoratidan tashkil topadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan xodimlar soni saqlab turilgan taqdirda, byudjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va

xarajatlar smetasida ko'rsatilgan xodimlar soni bo'yicha shtat jadvali ilova qilinadi. Bunda, mazkur shtat jadvali byudjet tashkilotining shtat jadvaliga o'xshash holda tuziladi hamda tegishli byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan yoki moliya organida belgilangan muddatlarda va tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va xarajatlarning smetalari tegishli byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan yoki moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi va Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bundan mustasno.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar ularga yetkazilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmi doirasida bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari ko'rib chiqishni ta'minlaydi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan ularning bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari, daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtat jadvallari ko'rib chiqish

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan taqdim etilgan xarajatlar smetalari zarur hollarda mazkur tashkilotlarning rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqiladi. Bunda, xarajatlar smetalari ko'rib chiquvchi byudjet mablag'larini taqsimlovchilar quyidagilarga majbur:

- qonun hujjatlari talablariga, shuningdek kelgusi yil xarajatlar smetalari tuzish bo'yicha ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash;

- tejamkorlik rejimiga amal qilgan holda xarajatlar smetalarida talab etilmaydigan tadbirlar uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar kiritishga yo'l qo'ymaslik;

- alohida tadbirlarni o'tkazish muddatlarini va ularni moliyalashtirishni ta'minlash imkonini hisobga olgan holda xarajatlar smetasi

bo'yicha byudjetdan ajratiladigan mablag'larni chorak (oy)larga taqsimlashni ta'minlash;

- hisob-kitoblar va asoslantirishlar bilan tasdiqlanmagan summalarini xarajatlar smetalarida qabul qilishga yo'l qo'ymaslik.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar quyidagilarni tekshirishi lozim:

- byudjet tashkiloti xodimlariga ish haqi to'lovi uchun xarajatlar smetasi bo'yicha tasdiqlangan summalarining shtat jadvaliga (bunda, xarajatlar smetasidagi ish haqi jamg'armasi xodimlar to'liq to'ldirilmaganligi dinamikasidan kelib chiqib, shtat jadvalidagidan kam miqdorda tasdiqlanishi mumkinligini nazarda tutish lozim) binoan tasdiqlangan ish haqi summalariga muvofiqligini;

- ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan shtat jadvallarini belgilangan namunaviy shtat jadvallari va shtat normativlariga muvofiqligini;

- shtat jadvalida ko'rsatilgan lavozimlarni xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatoriga va namunaviy shtatlarga muvofiqligini;

- lavozim maoshlari hamda ularga ustamalarning to'g'ri belgilanganligini;

- byudjet tashkilotlari va muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasining to'g'ri tashkil qilinganligini;

- umumta'lim, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining Direktor jamg'armasining to'g'ri tashkil qilinganligini;

- xarajatlar smetasida tasdiqlangan stipendiyalar uchun xarajatlar summasini talabalar tarkibi bo'yicha hisobot ma'lumotlari va xarajatlar smetasiga doir hisob-kitoblarga muvofiqligini;

- to'rtinchi guruh bo'yicha xarajatlar summasining to'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasida ko'rsatilgan summaga muvofiqligini;

- xarajatlar smetasiga kiritilgan xarajatlar bo'yicha boshqa hisob-kitoblar va asoslantirishlarni.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar xarajatlar smetasini asoslanganligini chuqurroq o'rganish maqsadida bo'ysunuvidagi

byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasini tuzish va ijro etishning istalgan bosqichida ularga doir hisob-kitoblarni talab qilishga haqli.

Agar byudjet tashkiloti va byudjet mablag‘lari oluvchilarning ro‘yxatdan o‘tkazish uchun taqdim etilgan xarajatlar smetasi bo‘yicha xarajatlar summasi belgilangan tartibda ularga yetkazilganiga nisbatan ortiq bo‘lsa, byudjet mablag‘larini taqsimlovchi tegishli summaga bo‘ysunuvidagi mazkur byudjet tashkiloti va/yoki byudjet mablag‘lari oluvchining xarajatlar smetasi bo‘yicha xarajatlarni qisqartirishga majbur.

Ro‘yxatdan o‘tkazish uchun taqdim etilgan xarajatlar smetasida xarajatlar summasining oshirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan va byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar bo‘ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda shtat jadvallari byudjet mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng hamda byudjet mablag‘larini taqsimlovchining jamlanma xarajatlar smetasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng amalga kiritiladi.

Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar smeta va shtat jadvallari ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan o‘zining bo‘ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning hisobini yuritishlari shart.

Byudjet mablag‘larini taqsimlovchi bo‘ysunuvidagi har bir byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag‘lari oluvchilarning ro‘yxatdan o‘tkazish muddatlarini belgilangan muddatda ro‘yxatga olishni to‘liq yakunlashni va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yilining 1 apreliga qadar belgilangan muddatda jamlanma xarajatlar smetasini topshirishni hisobga olgan holda belgilaydi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning shtat jadvallarini ro‘yxatdan o‘tkazishda byudjet mablag‘larini taqsimlovchi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan shtat jadvallariga nisbatan

ortiqcha shtat birliklarni qisqartirishi lozim. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyingina ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirish lozim.

Yangidan tashkil etilayotgan (jumladan, qayta tashkil etish natijasida tashkil qilingan) byudjet tashkilotlari yoki byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish mazkur tashkilotlarni belgilangan tartibda tashkil qilinishi to'g'risidagi tegishli qaror ko'rsatilganidan so'ng amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlari yoki byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ro'yxatga olish ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi (6-ilova).

Xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallari ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning ro'yxatga olingan (jamlanma) xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini hisobga olish jurnaliga kiritiladi (7-ilova).

Ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatlar (ro'yxatdan o'tkazish kartochkalari, smetalar va shtat jadvallari) byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning rahbarlari yoki ularning o'rinbosarlari va moliya-iqtisod bo'linmasi boshliqlari tomonidan imzolanadi.

Xarajatlar smetasi va shtat jadvallari ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi shtamp bilan:

- birinchi nusxasi – tegishli byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchiga qaytiriladi;

- ikkinchi nusxasi – har bir byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchilar uchun alohida papkalarda byudjet mablag'larini taqsimlovchining tegishli moliya-iqtisod bo'linmalarida saqlanadi;

- uchinchi nusxasi – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga byudjet mablag'larini taqsimlovchining jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallari bilan birgalikda taqdim qilinadi.

Mamlakatda mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta'minlash, ichki tartibni saqlash bilan bog'liq xarajatlari bilan bog'liq xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan jamlanma xarajatlar smetasini tuzish va tasdiqlash

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar:

- jamlanma xarajatlar smetasini, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasini byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari tasnifiga muvofiq bo'lim, kichik bo'lim, bob va xarajatlar moddolari kesimida, bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi hamda daromadlar va xarajatlar smetasini, markazlashtirilgan tadbirlar xarajatlar smetasini, byudjet mablag'larini taqsimlovchilar xarajatlar smetasi hamda daromadlar va xarajatlar smetasini jamlash yo'li bilan belgilangan shakllarda (8- va 9- ilova);

- jamlanma shtat jadvalini byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari tasnifiga muvofiq bo'lim va kichik bo'limlari kesimida bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari xodimlarining va byudjet mablag'larini taqsimlovchi xodimlarining lavozimlari yoki toifalari bo'yicha sonini guruhlashtirish yo'li bilan tuzadi (10-ilova).

Jamlanma xarajatlar smetasiga set, shtat va kontingentlar (sinflar, ko'kalar miqdori, xodimlar soni va shu kabilar) bo'yicha jamlanma hisobotlar ilova qilinadi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan davlat bojlari, yig'imglar va soliq bo'lmagan to'lovlar, ma'muriy jarimalar hamda moliyaviy sanksiyalardan ajratmalar hisobidan belgilangan tartibda shakllantiriladigan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi tuziladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha jamlanma daromadlar va xarajatlar smetalari hisobidan belgilangan miqdorda xodimlar birliklari saqlab turilgan hollarda smetaga moliyalashtirish manbai ko'rsatilgan holda shtat jadvali ilova qilinadi (3-ilova).

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi va jamlanma shtat jadvallari byudjet mablag'lari taqsimlovchilarning bosh buxgalteri (uning o'rinbosari) va moliya-iqtisod bo'linmasi boshlig'i (shtat jadvaliga muvofiq moliya-iqtisod masalalar bo'yicha mutaxassisi) tomonidan imzolanadi hamda byudjet mablag'larini taqsimlovchi rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi hamda jamlanma shtat jadvallari bilan bir vaqtda bo'ysunuvlaridagi byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'larini oluvchilar bo'yicha tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtat jadvallarining hamda byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetasining, daromadlar va xarajatlar smetasining va shtat jadvallarining nusxalarini, shuningdek ularning ilovalarini taqdim etadi.

Belgilangan tartibda tasdiqlangan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda shtat jadvallari, shuningdek byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi hamda jamlanma shtat jadvallari, ular moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin amalga kiritiladi.

Moliya organlari byudjet mablag'larini taqsimlovchilar, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilari bilan birgalikda *xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda shtat jadvallari, shuningdek byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi hamda jamlanma shtat jadvallari* har bir tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish muddatlarini byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari

bilan belgilangan muddatda ro'yxatga olishni to'liq yakunlashni hisobga olgan holda belgilaydilar.

Xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazish:

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi, jamlanma vaqtinchalik xarajatlar smetasi va jamlanma shtat jadvallari – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilar xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, shtat jadvallari – Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;

- shahar va tuman byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, shtat jadvallari – tegishli tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari kasb-hunar kollejarining xarajatlar smetasi, shtat jadvallari va vaqtinchalik xarajatlar smetasini, ular uchun O'zbekiston Respublikasi byudjeti *shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochib*, ro'yxatdan o'tkazadi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha kasb-hunar kollejarining jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma vaqtinchalik xarajatlar smetasi va jamlanma shtat jadvallarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga belgilangan muddatlarda ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining diplomatik muassasalarini saqlab turish uchun tasdiqlangan jamlanma xarajatlar smetasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sohalarni moliyalashtiruvchi boshqarmasi tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Moliya organlari xarajatlar smetasi va shtat jadvallari ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan tashkilotlar hisobini olib borishga majburlar.

Xarajatlar smetasi tasdiqlangan xarajatlar bo'yicha quyidagi xarajatlar guruhiga ajratgan holda umumiy tarzda ro'yxatdan o'tkaziladi:

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar;
- ish beruvchilarning ajratmalari;
- boshqa xarajatlar.

Tashkilotlar xodimlarining lavozim bo'yicha maoshlari va tarif stavkalari qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi hamda ro'yxatdan o'tkazish uchun xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mehnatga haq to'lash jamg'armasi doirasida qabul qilinadi.

Ish haqi miqdori tarifkatsiya bo'yicha belgilanadigan, ya'ni, attestatsiya natijalari bo'yicha beriladigan tegishli malaka toifasi mavjudligiga, ish vaqtining haqiqiy hajmiga va boshqalarga ko'ra belgilanadigan xodimlar mehnatiga haq to'lash jamg'armasi shtat jadvallarida ko'rsatiladi va u rahbar, bosh buxgalteri (buxgalter) tomonidan imzolanadigan tarifkatsiya ro'yxatidagi mehnatga haq to'lash jamg'armasiga muvofiq bo'lishi lozim.

Xarajatlar smetasi mazkur xarajatlar smetasida tasdiqlangan barcha guruhlar bo'yicha xarajatlarni, xarajatlar yoyilmasiga va ularning hisob-kitoblariga to'liq mos kelishini tekshirgan holda ro'yxatdan o'tkazish uchun qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimiga belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi ko'rsatkichlarini kiritish:

❖ O'zbekiston Respublikasi byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sohalarni moliyalashtiruvchi tegishli boshqarmalari (bo'limlari);

❖ Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar

byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha – Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalarining tegishli bo'limlari;

❖ tuman va shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha – tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

G'azna ijrosiga o'tgan byudjet tashkilotlarining xarajatlari Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan yagona g'azna hisobraqamidan, shuningdek smetada ko'rsatilgan xarajatlar guruhlarining har bir moddasi bo'yicha g'aznachilik hisobraqamidan amalga oshiriladi. Bu tadbirlar byudjet tashkilotlari xarajatlarini to'g'ri va oqilona rejalashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, mablag'larni iqtisod qilish, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishga yangicha talablarni qo'ymoqdaki, ushbu talablar byudjetdan moliyalashtirish, byudjet tashkilotlarida moliyaviy rejalashtirish va xarajatlar smetasini tuzish va ijro etish jarayonlarini chuqurroq o'rganishni talab etadi.

11.3. G'aznachilik sharoitida xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallariga o'zgartirishlar kiritish tartibi

Byudjetdan mablag' oluvchilar byudjet xarajatlarini amalga oshirish uchun g'aznachilik bo'linmalariga quyidagilarni:

a) byudjet mablag'lari bo'yicha:

- doimiy xarajatlar smetalari moliya organlarida ro'yxatga olinguniga qadar – birinchi chorak uchun oylar kesimida moliya bo'limlarida ro'yxatga olingan vaqtinchalik xarajatlar smetalari nusxalarini;

- doimiy xarajatlar smetalari moliya organlarida ro'yxatga olingandan so'ng – moliya organlarida ro'yxatga olingan, oylar kesimida doimiy xarajatlar smetalari;

b) byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha – moliya organlarida ro'yxatga olingan, byudjetdan tashqari mablag'larning kelib tushishi va ishlatilishining cheklanishi oylar kesimida ko'rsatilgan vaqtinchalik va aniqlangan xarajatlar smetalari nusxalarini taqdim etadilar (kelib tushishi va sarflanish yo'nalishi cheklanmagan byudjetdan tashqari mablag'lar turlari bundan mustasno).

Byudjetdan mablag' oluvchilar byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalari nusxalarini va ularga ilovalarni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Zaxira jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi zaxira jamg'armasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimligi zaxira jamg'armalari mablag'lari hisobiga va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarni, ular moliya organlarida o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olinganidan so'ng, g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qiladilar.

Xarajatlar smetasiga o'zgartirishlar byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartib va miqdorlar doirasida ro'yxatdan o'tkazish uchun qabul qilinadi.

Tasdiqlangan xarajatlar smetasiga yil mobaynida qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda kiritiladigan o'zgartirishlar to'g'risida moliya organlari (byudjet mablag'larini taqsimlovchilar o'z bo'ysunuvidagi) byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarni yozma shaklda xabardor qilishi lozim.

Mazkur o'zgartirishlar byudjet tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan smetalarga tuzatishlar kiritmay, *Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma (ro'yxat raqami 2169, 2010 yil 22 dekabr) bilan tasdiqlangan 294-son shakldagi* kassa va haqiqiy xarajatlarni hisobga olish daftarida hisobga olib boriladi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning so'rovi bo'yicha o'zgartirishlardan tashqari barcha o'zgartirishlar:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sohalarni moliyalashtiruvchi tegishli boshqarmalari 17-son shakldagi ma'lumotnoma-bildirishnomani byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga yo'llaydi.

Bunda bo'ysunuvida byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilar mavjud byudjet mablag'larini taqsimlovchilar ma'lumotnoma-bildirishnoma asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan ma'lumotnoma-bildirishnomani bo'ysunuvidagi tashkilotlarga yo'llaydi (12, 13-ilova);

- tegishli hududiy moliya organlari Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilarga ma'lumotnoma-bildirishnomani yo'llaydi.

Ma'lumotnoma-bildirishnomani olgandan so'ng byudjet mablag'larini taqsimlovchilar, byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilar xarajatlar smetasidagi o'zgartirishlar ro'yxatini:

- byudjet mablag'larini taqsimlovchi bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar – byudjet mablag'larini taqsimlovchiga;

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilar, shuningdek yuqori turuvchi bo'ysunuvga bo'lmagan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar – tegishli moliya organlariga taqdim etadi.

Diplomatik muassasalarning xarajatlar smetasiga o'zgartirishlar kiritish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga xarajatlar smetasidagi o'zgartirishlar ro'yxatini taqdim etadi.

Manzilli va titul ro'yxatiga kiritilgan aniqliklar asosida kapital qurilish obyektlari bo'yicha xarajatlar smetasiga mazkur Nizomga asosan o'zgartirishlar kiritiladi.

Byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotining va byudjet mablag'lari oluvchining so'roviga ko'ra xarajatlar smetasiga o'zgartirishlar yilda ko'pi bilan 4 marta kiritiladi:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha – byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan;

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan. Bunda byudjet mablag'larini

taqsimlovchilar bo'ysunuvlaridagi byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilar kesimida o'zgartirishlar ro'yxati ilova qilingan jamlanma so'rovni taqdim qiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha – Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;

- tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha – tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasiga kiritiladigan o'zgartirishlar soni hisobga olinayotganda byudjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lash uchun byudjet tashkilotining tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida byudjetdan ajratiladigan mablag'larni bir moddadan boshqa moddaga ko'paytirishni yoki kamaytirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar hisobga olinmaydi.

Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasidagi barcha o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimiga tegishli moliya organlari tomonidan kiritiladi.

Daromadlar va xarajatlar smetasiga o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi mazkur Nizomda daromadlar va xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimiga tegishli moliya organlari tomonidan kiritiladi.

Byudjet tashkilotlari, byudjet mablag'lari oluvchilar va byudjet mablag'larini taqsimlovchilar xodimlarining lavozim bo'yicha maoshlari va tarif stavkalarida oldingi ro'yxatdan o'tkazilganlariga nisbatan o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ish haqini oshirish haqidagi farmonlariga muvofiq, shuningdek belgilangan

tartibda xodimlarning navbatdagi attestatsiyasini o'tkazish vaqtida byudjet tashkilotlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash jamg'armasi doirasida kiritilishi mumkin. Mazkur hollarda shtat jadvallariga o'zgartirishlar ro'yxatdan o'tkazilmaydi.

Boshqa barcha hollarda shtat jadvallariga kiritiladigan o'zgartirishlar shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Joriy moliya yilining o'tgan oy (chorak)ida ishlatilmay qolgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar qoldig'i joriy moliya yilining keyingi oyi (choragi)ga xarajatlar smetasiga o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazmasdan o'tadi.

Tashkilotlar boshqa shahar yoki tumandan belgilangan tartibda o'tkazilgan holda yuqori tashkilotlar rahbarlari o'n kunlik muddatda yangi joylashgan joydagi moliya organiga avval ro'yxatdan o'tkazilgan smeta, shtat jadvallari va ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini taqdim etishlari lozim.

Bir vaqtning o'zida moliya organi tashkilotlarni saqlab turish xarajatlari smetasi va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha ma'lumotlarni oldingi ro'yxatdan o'tkazish joyidagi moliya organidan talab qiladi hamda mazkur ma'lumotlar olinganidan so'ng Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning ro'yxatga olingan (jamlanma) xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini hisobga olish jurnaliga "hisobga qabul qilindi" deb yozadi. Bunda, ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi tegishli o'zgartirishlar bilan yangisiga almashtiriladi.

Moliya organi tashkilot boshqa joyga o'tkazilganligi to'g'risida ham Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning ro'yxatga olingan (jamlanma) xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini hisobga olish jurnaliga tegishli yozuvni yozadi.

Tashkilotlar rahbarlarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallariga o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha arizalari

mazkur hujjatlar ro'yxatdan o'tkazilgan hududiy moliya organining rahbari tomonidan o'n kunlik muddatda ko'rib chiqiladi.

Xarajatlar smetasi va shtat jadvallariga o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazgan hududiy moliya organining qarori bo'yicha norozilik to'g'risidagi arizalar yuqori moliya organida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining o'rinbosari qarori bo'yicha norozilik to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri tomonidan ko'rib chiqiladi.

Byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishining nazorat etilishini ta'minlash maqsadida, xarajatlar smetasi va shtat jadvallari ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng bir haftalik muddatda byudjet tizimi byudjetidan moliyalashtiriladigan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rahbarlari tomonidan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarda, shuningdek ular bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishini ta'minlovchi buyruqlar chiqariladi. Buyruqlarda quyidagilar tartibga solinadi:

✓ byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilish, xarajatlarni tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshirish;

✓ ular bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar rahbarlarining quyidagilar bo'yicha majburiyatlari:

✓ byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishi nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish;

✓ byudjetga keltirilgan zararni qoplash bo'yicha choralarni qabul qilish;

✓ byudjet va smeta-shtat intizomini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish.

Tegishli byudjet mablag'larining taqsimlovchilari (oluvchilari) tashabbusi bilan byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga o'zgartirish kiritilgan hollarda, ular tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan so'rovnomalar imzolash uchun g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladi.

G'aznachilik bo'linmalari taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini tekshirishni taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini, tegishli byudjet mablag'larining taqsimlovchilari (oluvchilari) bo'yicha ularning yuridik va moliyaviy majburiyatlari, shuningdek kassa xarajatlari bilan band qilinmagan, ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradi.

So'rovnomada ko'rsatilgan xarajatlar turlari bo'yicha ajratilgan byudjet mablag'lariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalari G'aznachilik dasturiy majmuida ushbu byudjet mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar)ning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi tegishli xarajatlar moddalari bo'yicha keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi.

G'aznachilik dasturiy majmuida keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirish to'xtatib qo'yilgandan so'ng, byudjetdan mablag' oluvchilar (taqsimlovchilar)ning so'rovnomasi tegishli g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli xodimlari tomonidan imzolanadi va muhri bilan tasdiqlanadi.

Imzolanagan va muhr bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi so'rovnoma, uni g'aznachilik bo'linmasiga taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda, byudjet mablag'ining taqsimlovchi (oluvchi)ga keyinchalik uni tegishli moliya organlariga taqdim etish uchun qaytariladi.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band bo'lmagan byudjet mablag'lari mavjud bo'lmaganda va byudjet mablag'lariga so'rovnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, g'aznachilik bo'linmalari so'rovnomani qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda byudjetdan mablag' oluvchilar (taqsimlovchilar)ga qaytaradilar.

Byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga tegishli moliya organlari tashabbusi bilan o'zgartirishlar kiritilgan hollarda, ular tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan taqdimnoma yoki ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihalari g'aznachilik bo'linmalariga imzolash uchun taqdim etiladi.

G'aznachilik bo'linmalari taqdimnomada taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini, taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini tegishli byudjet mablag'larining taqsimlovchilari (oluvchilari) bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek kassa xarajatlari bilan band qilinmagan ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradi.

Taqdimnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha ajratilgan byudjet mablag'lariga o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalari G'aznachilik dasturiy majmuida ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar moddalari bo'yicha keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi.

G'aznachilik dasturiy majmuida keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirish to'xtatib qo'yilgandan so'ng, moliya organining taqdimnomasi tegishli g'aznachilik bo'linmasining vakolatli xodimlari tomonidan imzolanadi va uning muhri bilan tasdiqlanadi.

Imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi taqdimnoma, u g'aznachilik bo'linmasiga taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda, tegishli moliya organiga qaytariladi.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band bo'lmagan ajratilgan byudjet mablag'lari mavjud bo'lmaganda va ajratilgan byudjet mablag'lariga taqdimnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, g'aznachilik bo'linmalari taqdimnomani tegishli

moliya organiga qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda yozma ravishda qaytaradilar.

Moliya organlari tomonidan qonun hujjatlari asosida byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar (kamaytirishlar) kiritilgan hollarda, g'aznachilik bo'linmalariga ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihalari taqdim qilinadi (respublika byudjeti bo'yicha – Moliya vazirligining tarmoq boshqarmalari O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi G'aznachiligiga ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasini taqdim etadi).

G'aznachilik bo'linmalari taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini tekshirishni, taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek tegishli byudjetda turuvchi, barcha byudjet mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar)ning tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar moddalari bo'yicha kassa xarajatlari bilan band qilinmagan ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradilar.

Ma'lumotnoma-bildirishnomada ko'rsatilgan ajratilgan byudjet mablag'lari limitlariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni kiritish imkoni mavjud bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalari:

– G'aznachilik dasturiy majmuida tegishli byudjet mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar)ning tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar moddalari bo'yicha keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlar olishni va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi;

– ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasi taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda ijobiy xulosa tuzadi va uni tegishli moliya organlariga taqdim etadi.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band bo'lmagan ajratilgan byudjet mablag'lari mavjud bo'lmagan hollarda va so'rovnoma ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha ajratilgan byudjet mablag'lari limitlariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lmaganda, g'aznachilik bo'linmalari, ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasi taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan

kechikmagan muddatda, unga o'zgartirishlar kiritish imkoni yo'qligi sabablari ko'rsatilgan holda xulosa tuzadi.

Ma'lumotnoma-bildirishnomaga salbiy xulosa olingandan so'ng, tegishli moliya organlari ularni o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha choralarini ko'radilar.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yishni yechish, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan moliya organlari tegishli ma'lumotnoma-bildirishnomalar va ularni o'zaro solishtirish asosida tayyorlangan byudjet mablag'lari taqsimlovchilar (oluvchilar)ning xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar ro'yxatining barcha nusxalarini taqdim qilganidan keyin amalga oshiriladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Byudjet tashkilotlarini xarajatlar smetasi asosida moliyalashtirishning mazmuni va xususiyatlarini tushuntirib bering.

2. Xarajatlar smetasining mazmuni va ahamiyati nimada?

3. Byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirishda smetalarning qaysi turlari qo'llaniladi va ularga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

4. Qaysi holatlarda vaqtinchalik xarajatlar smetasidan foydalaniladi?

5. Byudjet tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirishni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlarni sanab o'ting.

6. Amaliyot tahlili asosida byudjet sohasida smeta asosida rejalashtirish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish yo'llarini ayting.

7. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtat jadvalini tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida gapirib bering.

8. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasiga o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritish tartibi qanday?

9. Byudjet tashkilotlari smetalariga kiritilgan o'zgarishlar G'aznachilikda qanday tartibda ro'yxatga olinadi?

10. Ma'lumotnoma-bildirishnoma nima, u qanday tuziladi va ishlatiladi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'larini oluvchi boshqa muassasalar xarajatlarini amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ro'yxatini tuzib chiqing va ularning qisqacha sharhini keltiring.

2. Byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish, g'aznachilikda ular xarajatlari to'lovini amalga oshirish, smetalarga kiritilgan o'zgarishlarni G'aznachilikda ro'yxatga olish tartibini aks ettiruvchi slaydlar yarating va ularni umumlashtirib taqdimot tayyorlang.

12-MAVZU. G‘AZNACHILIKDA YURIDIK MAJBURIYATLARNI RO‘YXATGA OLISH MEXANIZMI

12.1. G‘aznachilikda yuridik majburiyat tushunchasi

12.2. Xo‘jalik shartnomasini shakllantirish tartibi

12.3. Yuridik majburiyatlar bo‘limida shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi

12.1. G‘aznachilikda yuridik majburiyat tushunchasi

Ma‘lumki, davlat moliyaviy nazoratining dastlabki, joriy va so‘ngi nazorat shakllari mavjud. Agar byudjet amaliyoti nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, dastlabki byudjet nazorati turli darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari loyihalarini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash, byudjet tashkilotlarining byudjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetasini hamda byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetasini tuzish, tasdiqlash va tegishli moliya organlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olish jarayonida amalga oshiriladigan nazorat shakli hisoblanadi.

Byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish natijasiga g‘aznachilik idoralari va byudjet jarayonining boshqa ishtirokchilari hamkorligida Davlat byudjeti pul mablag‘larini uning daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta‘minlagan holda rejalashtirish va boshqarish usulisiz erishib bo‘lmaydi.¹¹⁸

Davlat byudjeti g‘azna ijrosining joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish Moliya vazirligi tizimidagi hududiy va mahalliy moliya organlari bilan bir qatorda, g‘aznachilik

¹¹⁸ Treasury Management: The Practitioner's Guide (Wiley Corporate F&A) (Steven M. Bragg). John Wiley & Sons Inc. Hoboken, New Jersey. Canada 2010 year.

organlariga ham yuklatiladi. (Yakuniy nazorat Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarma va bo'limlari hamda boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi).

Dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar majburiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

*Joriy nazorat shakli moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag'larning ajratilishida, bevosita to'lovlarning amalga oshirilishida olib boriladi. Byudjet mablag'larini oluvchilari o'z zimmaciga muayyan yuridik majburiyatlarni olishi, byudjetdan olingan mablag'larning maqsadga muvofiq va to'g'ri ishlatilishini nazorat qilish tartiblarini belgilovchi muayyan yuridik normalar o'rnatilgan.*¹¹⁹


Majburiyat - bu odatda yozma ravishda rasmiylashtirilgan, so'zsiz bajarilishi talab qilinuvchi va'da demakdir. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra majburiyat fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishi, ya'ni mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash yoki ma'lum harakatlardan voz kechish va boshqa shu kabilarni amalga oshirilishini anglatadi.

Majburiyatlarni hisobga olish tizimida quyidagi omillar asosiy o'rin egallaydi (12.1-rasm).

Majburiyatlarni qabul qilishda quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi:

– imzolangan va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan kontrakt va shartnomalar, tender savdolari asosidagi tovar va xizmatlar xaridlari bo'yicha hujjatlar, ishlab chiqaruvchilarning tovar va xizmatlari sifati va boshqa xususiyatlarini tasdiqlovchi patentlar, litsenziyalar va boshqalar;

¹¹⁹ Treasury Management: The Practitioner's Guide (Wiley Corporate F&A) (Steven M. Bragg). John wily & Sons Inc. Hoboki, New jersey. Canada 2010 year.



12.1-rasm. Majburiyatlarni hisobga olish tizimidagi omillar¹²⁰

– ish haqi, stipendiyalar, nafaqalar va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish uchun qonuniy asos bo‘lib xizmat qiluvchi hujjatlar;


– jarimalar va sud qarorlariga asosan penyalar to‘lovini amalga oshirish uchun asos bo‘luvchi tegishli davlat vakolatli organlari qarorlari;

– byudjet dotatsiyalarini ajratish, davlat grantlari, mukofotlar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirishga asos bo‘luvchi hujjatlar.

Majburiyat qabul qilish huquqiga ega mas’ul shaxslar – bu byudjetdan mablag‘ oluvchilar va byudjet tashkilotlari rahbarlari yoki ular tomonidan vakolat berilgan boshqa mas’ul shaxslar hisoblanadi. G‘aznachilikda o‘rnatilgan tartib-qoidalarga muvofiq, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilot rahbarining buyrug‘i asosida G‘aznachilik bo‘linmalari bilan ishlash uchun aniq xodimlar belgilanadi. G‘aznachilik organlarida byudjet tashkiloti rahbari va u tomonidan mas’ul etib tayinlangan shaxslarning imzo namunalari va tashkilotning muhr izi namunalari G‘aznachilikning maxsus kartochkalarida saqlanadi. Imzo namunalari va muhr izi kartochkalari o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

¹²⁰ U.Burxonov. Davlat xaridi. T.: infoCOM.UZ. 2010. 99-bet.

Kartochkalarning bir nusxasi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga oluvchi mutaxassisda, ikkinchi nusxasi xarajatlar to‘lovini nazorat qiluvchi mutaxassisda saqlanadi.




12.2-rasm. Majburiyatlarni qabul qilish asoslari

G‘aznachilikda ikki turdagi majburiyat amal qiladi: *yuridik majburiyat va moliyaviy majburiyat*.

Yuridik majburiyat byudjetdan mablag‘ oluvchilar va ularga mol (tovarlar, ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnoma

tegishli tartibda majburiy ravishda G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga keladi. Yuridik majburiyatlarni tegishli G'aznachilik organlarida majburiy ravishda ro'yxatga olishdan ko'zlangan asosiy maqsad - byudjet nazoratining samaradorligini yanada oshirish, shartnomalarda nazarda tutilgan xarajatlarning tasdiqlangan rejadan (xarajatlar smetasi ko'rsatkichlaridan) ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik.



Moliyaviy majburiyatlar – byudjet tashkilotlarida va byudjetdan mablag' oluvchilarda ularga pul mablag'larini o'tkazib berish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'lib, ular qabul qilingan yuridik majburiyatlar va xarajatlarni to'lash uchun berilgan ruxsatnomalar doirasida hisobvara-q-fakturalari hamda moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida g'aznachilik bo'linmalari tomonidan qabul qilinadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan yuridik majburiyatlarni qabul qilish, ularni G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazish hamda hisobga olish ishlari "O'zbekiston Respublikasi

moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda №2580 raqami bilan ro'yxatdan o'tkaziladigan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" asosida tartibga solinadi va amalga oshiriladi.

Byudjet Kodeksida: "*yuridik majburiyatlar* – byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag'lari oluvchilarda tuzilgan shartnomalar, shuningdek tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qarorlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar"¹²¹ deb belgilab qo'yilgan.

Yuridik majburiyatlar byudjet tasnifining turi bo'lgan iqtisodiy tasnif kodlari bo'yicha byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan qabul qilinadi hamda G'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

***Yuridik majburiyatlar** – tuzilgan shartnomalar, shuningdek tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qarorlari asosida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar, shuningdek BMJ byudjetidan mablag' oluvchilarda yuzaga keladigan majburiyatlardir.*¹²²


Byudjet tashkiloti kontragentdan tovarlar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida ofertani (taklifni) qabul qilganidan so'ng, shartnomani akseptlaydi (imzolaydi) va G'aznachilikka ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi. Yuridik majburiyat vujudga kelishi uchun bu shartnomaning ro'yxatdan o'tkazilishi talab qilinadi (12.3-rasm).

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmat-

¹²¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 3-moddasiga asosan.

¹²² "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №2580.

larni) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.



12.3-rasm. Byudjetdan mablag' oluvchilar shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi¹²³

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari o'zlari uchun belgilangan byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan ham tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadilar. Byudjet Kodeksida belgilanishicha, byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan ijro etilishi lozim bo'lgan yuridik majburiyatlar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan vazirlik va idoralarning daromadlar va xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida hisobga olish uchun qabul qilinadi.

¹²³ U. Burxonov. Davlat xaridi. T.: infoCOM.UZ. 2010. 102-bet.

Yuridik majburiyatni G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida majburiy tarzda ro'yxatga olinishidan maqsad - shartnomalarning to'g'ri tuzilganligi, ularning tasdiqlangan smetalar doirasida tuzilganligi, narxlar to'g'ri belgilanganligini nazorat qilishdan iborat. Bu faoliyatning to'g'ri amalga oshirilishi G'aznachilik faoliyatining samaradorligini ko'rsatadi, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlaydi, byudjetdan mablag' oluvchilar va ularga mol yetkazib beruvchilarning shartnomaviy-huquqiy munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishini talab etadi.

“O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi Qoidalari”¹²⁴ga muvofiq, byudjet tizimining tegishli bo‘g‘inidan (respublika byudjeti, viloyat, tuman va shahar byudjetlaridan) mablag‘ oluvchilarning byudjet hisobidan mahsulot yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek kapital qurilish buyurtmachilarining shartnomalari G‘aznachilik bo‘linmalarida majburiy tartibda ro‘yxatga olinadi.

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan qabul qilinadigan yuridik majburiyatlar hajmi ular xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan, ajratilgan byudjet mablag‘lari bilan, kapital qo‘yilmalar xarajatlari bo‘yicha esa – har bir obyekt bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan kapital qo‘yilmalar bilan chegaralanadi.

Yuridik majburiyatlar iqtisodiy tasnif kodlari bo‘yicha byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan qabul qilinadi hamda g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi.¹²⁵

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan ijro etilishi lozim bo‘lgan yuridik majburiyatlar g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan daromadlar va

¹²⁴ O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug‘iga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami №2580.

¹²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 122-moddasi asosida.

xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida hisobga olish uchun qabul qilinadi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar yuridik majburiyatlar yuzaga kelishini tasdiqlovchi hujjatlarni g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazish uchun joriy moliya yilining 25 dekabridan kechiktirmay taqdim etadi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish to'g'risida tuziladigan shartnomalarida 15 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish nazarda tutiladi, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan hollar mustasno.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilish bo'yicha shartnomalari, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ushbu shartnomalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda vakolatli organlarda tegishli ekspertizadan o'tganidan va hisobga qo'yilganidan so'ng g'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda shartnomalarda ko'rsatilgan summalar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida hisobga olinadi. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning birinchi hamda ikkinchi guruh xarajatlari bo'yicha yuridik majburiyatlari g'aznachilik bo'linmalari tomonidan buyurtmalar shaklida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari joriy moliya yili doirasida amal qilish muddati bilan tuzilishi lozim, bundan kapital qo'yilmalar bo'yicha shartnomalar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan amal qilish muddati bir necha yilni tashkil

etishi mumkin bo'lgan hollar mustasno. Shartnomaning amal qilish muddati tugagach, agar shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida qo'shimcha bitim tuzilmagan bo'lsa, yetkazib beruvchi (pudratchi) tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish bo'yicha yuridik majburiyatlarni bajarish tugatiladi.

Byudjetdan ajratiladigan mablag'lar asosida belgilangan yuridik majburiyatlarni qabul qilish uchun limit birinchi navbatda tegishli moddalar bo'yicha moliya yili boshida mavjud bo'lgan, byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan to'lanishi lozim bo'lgan va g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalar bo'yicha yuzaga kelgan kreditor qarzdorliklar summasiga band qilib qo'yiladi.

Mablag'larni:

- byudjet tashkilotining iqtisod qilingan byudjetdan ajratiladigan mablag'lari hisobidan o'z byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasiga, shuningdek tibbiyot muassasasi tomonidan – xarajatlar smetasida nazarda tutilgan maqsadli byudjetdan ajratiladigan mablag'lari hisobidan o'zining tibbiyot tashkilotlarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasiga;

- har bir obyekt bo'yicha kelishilgan manzilli va titul ro'yxatlarda hamda shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan summalar doirasida kapital qo'yilmalar bo'yicha buyurtmachi xizmatini saqlab turishga;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining xizmatlari uchun haq to'lashga;

- yuridik majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladigan xarajatlarni to'lashga o'tkazish shartnoma tuzilmagan holda amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi boshqarmalari va uning hududiy bo'linmalari tomonidan 2010 yil 26830ta, 2011 yil 27686ta, 2012 yil 27702ta, 2013 yil 27651ta, 2014 yil 27237ta, 2015 yilda 27064ta byudjetdan mablag' oluvchi muassasa-

larga xizmat ko'rsatilib kelinmoqda. Biz buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

12.1-jadval

Byudjetdan mablag' oluvchilar soni to'g'risida¹²⁶

№	Hudud nomi	Byudjetdan mablag' oluvchilar soni					
		2010	2011	2012	2013	2014	2015
1	Qoraqalpog'iston Res	1872	1905	1918	1916	1889	1883
2	Andijon viloyati	2183	2211	2214	2200	2189	2194
3	Buxoro viloyati	1650	1844	1844	1844	1772	1725
4	Jizzax viloyati	1382	1396	1415	1413	1396	1389
5	Qashqadaryo viloyati	2542	2504	2482	2538	2542	2542
6	Navoiy viloyati	1030	1033	1039	1052	1037	1027
7	Namangan viloyati	1876	2035	2020	2004	1960	1948
8	Samarqand viloyati	2864	3023	3011	2962	2844	2869
9	Surxondaryo viloyati	2036	2074	2029	2064	2050	2036
10	Sirdaryo viloyati	974	977	988	986	982	979
11	Toshkent viloyati	2250	2318	2307	2325	2295	2262
12	Farg'ona viloyati	2648	2651	2697	2675	2702	2685
13	Xorazm viloyati	1420	1440	1441	1427	1435	1429
14	Toshkent shahri	1269	1359	1370	1343	1318	1270
15	Amaliyot boshqarmasi	834	916	927	902	826	826
jami:		26830	27686	27702	27651	27237	27064

¹²⁶ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi ma'lumotlari asosida.

Ro'yxatga olingan shartnomalar soni to'g'risida ¹²⁷

№	Hudud nomi	Ro'yxatga olingan shartnomalar								
		2010	2011	2012	2013	2014	2015			
1	Qoraqalpog'iston Resp.	55 287	69 327	76 681	86 728	60 952	60 455			
2	Andijon viloyati	56 473	82 614	110 110	118 175	80 260	69 343			
3	Buxoro viloyati	46 651	72 133	79 107	83 781	55 132	54 261			
4	Jizzax viloyati	23 451	34 937	41 678	45 733	37 781	40 095			
5	Qashqadaryo viloyati	34 426	54 887	59 723	65 960	51 402	43 753			
6	Navoiy viloyati	23 751	36 124	45 314	49 142	33 372	33 401			
7	Namangan viloyati	46 023	75 956	95 619	99 954	60 840	58 125			
8	Samarqand viloyati	50 679	90 147	109 455	111 756	68 480	71 073			
9	Surxandaryo viloyati	37 225	61 230	73 812	88 074	66 998	69 352			
10	Sirdaryo viloyati	17 923	28 569	36 863	41 710	31 509	29 009			
11	Toshkent viloyati	58 999	86 175	105 934	120 663	72 468	64 796			
12	Farg'ona viloyati	80 713	130 748	174 001	168 630	95 472	87 125			
13	Xorazm viloyati	37 145	66 544	77 433	79 716	47 853	46 849			
14	Toshkent shahri	44 225	70 443	81 687	82 267	51 211	48 487			
15	Amaliyot boshqarmasi	55 535	78 175	101 200	106 207	71 345	67 025			
J A M I		668 506	1 038 009	1 268 617	1 348 496	885 075	843 149			

¹²⁷ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi ma'lumotlari asosida.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi boshqarmalari va uning hududiy bo'linmalari tomonidan 2010 yil 668506ta, 2011 yil 1038009ta, 2012 yil 1268617ta, 2013 yil 1348486ta, 2014 yil 885075ta, 2015 yilda 843149ta shartnomalar g'aznachilikda ro'yxatga olindi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi boshqarmalari va uning hududiy bo'linmalari tomonidan 2010 yil 95102 ta, 2011 yil 118506ta, 2012 yil 112738ta, 2013 yil 142999ta, 2014 yil 101789ta, 2015 yilda 103800ta shartnomalar g'aznachilikda ro'yxatga olinmasdan byudjet tashkilotlariga qaytarildi.

12.3-jadval

Ro'yxatga olinmay qaytarilgan shartnomalar soni to'g'risida

Yillar	JAMI		shu jumladan			
			ro'yxatga olingan shartnomalar		qaytarilgan shartnomalar	
	soni (%)	summasi (%)	soni (%)	summasi (%)	soni (%)	summasi (%)
2011	100	100	89,8	82,9	10,2	17,1
2012	100	100	87,5	89,6	12,5	10,4
2013	100	100	90,4	87,1	9,6	12,9
2014	100	100	89,7	89,2	10,3	10,8
2015	100	100	89,0	88,7	11,0	11,3

Yuridik majburiyatlar bo'limlarida ro'yhatga olinmay qaytarilgan shartnomalar hajmi 2011-2015 yillar davomida 17,1%dan 11,3%ga kamayganini tahlili shuni ko'rsatadiki, xo'jalik shartnomalarini shakllantirish va taqdim etish tartibiga qat'iy rioya etilishi talab etiladi.

12.2. Xo'jalik shartnomasini shakllantirish tartibi

Iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari hamda ijtimoiy soha muassasa va tashkilotlari o'rtasidagi, ularning uzluksiz faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni yetkazib berish

bilan bog‘liq munosabatlar muayyan shartnomaviy-huquqiy munosabatlar asosida tashkil etiladi. Bunday munosabatlarga kirishgan taraflar o‘rtasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish *xo‘jalik shartnomasi* asosida amalga oshiriladi.


Xo‘jalik shartnomasi deb taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlar yetkazib berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to‘lash majburiyatini oladigan kelishuvga aytiladi.

Xo‘jalik shartnomalarini tuzish va bajarish jarayoni bir qator qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni (670-son, 29.08.1998) shular jumlasidandir.

Fuqarolik Kodeksining 353-moddasiga muvofiq, “Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi”. Shuningdek, Fuqarolik Kodeksi bilan fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkin ekanliklari, shartnoma bo‘yicha taraf o‘z burchlarini bajarganligi uchun haq olishi yoki unga boshqa muqobil to‘lov to‘lanishi lozim bo‘lsa, bunday shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma ekanligi, shartnoma bo‘yicha bir taraf ikkinchi tarafga undan haq yoki boshqa muqobil to‘lov olmasdan biron narsani berish majburiyatini olsa, bunday shartnoma tekinga tuzilgan shartnoma hisoblanishi, agar qonun hujjatlaridan, shartnomaning mazmuni yoki mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma hisoblanishi kabilar belgilab qo‘yilgan.

“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga

ko'ra, tadbikorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat (12.4-rasm).



12.4-rasm. Shartnomaviy munosabatlarning asosiy tamoyillari

Demak, shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan taraflar hech kimning tazyiqisiz, mustaqil va erkin ravishda, o'zaro manfaatdorlik asosida shartnoma tuzishlari, shartnoma shartlarida belgilangan talablarni so'zsiz bajarishlari, shartnoma shartlari buzilgan hollarda esa taraflar kontragent oldidagi o'z majburiyatlarini bajarishda mulkiy javobgar ekanliklari qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan.

Xo'jalik shartnomasi, qoida tariqasida taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo'llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo'li bilan tuziladi. Agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari bo'yicha kelishuvga erishilgan bo'lsa, xo'jalik shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Xo'jalik shartnomalari ularni imzolashga tayyorlash jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarning yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirib ko'rilishi kerak. Shartnomalarni ularning imzolarisiz tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki yuz baravaridan ortiq summadagi xo'jalik shartnomalari xo'jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmatining yoki jalb etilgan advokatlarning yozma xulosasidan keyingina tuziladi.

Xulosada, qoida tariqasida quyidagilar ko'rsatiladi:

– xo'jalik shartnomasida ko'rsatilgan munosabatlar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi;

– xo'jalik shartnomasi shartlarining qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi;

– taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi.

Xo'jalik shartnomasi shartnoma shartlariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo'lmagan hollarda esa ish muomalasi odatlariga muvofiq bajarilishi lozim.

Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

Tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiy foydalanishdagi transportda yo'lovchi tashish, aloqa xizmati, energiya bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati va

sh.k.) belgilab qo'yadigan shartnoma *ommaviy shartnoma* deyiladi. Bunday tashkilot ommaviy shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Tovarlar, ishlar va xizmatlarning bahosi, shuningdek ommaviy shartnomaning boshqa shartlari hamma iste'molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi, qonun hujjatlarida iste'molchilarning ayrim toifalari uchun imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno.

Tashkilotning iste'molchiga tegishli tovarlarni berish, xizmatlar ko'rsatish, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo'la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Hukumati ommaviy shartnomalarni tuzish va bajarishda taraflar uchun majburiy bo'lgan qoidalar (namunaviy shartnomalar, qoidalar va h.k.) chiqarishi mumkin.

12.3. Yuridik majburiyatlar bo'limida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi

I va II guruh xarajatlari bo'yicha yuridik majburiyatlar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan shartnomalar I va II guruh xarajatlari bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalar (YuMMR buyurtmalari) asosida ro'yxatdan o'tkaziladi yoki hisobga olinadi.

Bunda "UzASBO" DMga ulangan buyurtmachilar YuMMR buyurtmasini "UzASBO" DMda shakllantiradi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda g'aznachilik bo'linmalariga elektron shaklini yuboradi¹²⁸. "UzASBO" DM orqali elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan elektron YuMMR buyurtmalari rasmiylashtiriladi, ulardagi ma'lumotlarning

¹²⁸ "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalariga kiritilayotgan O'zgarish va qo'shimchalar" O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 20 noyabr 2017 yildagi 159-son buyrug'i asosida.

to'g'riligi, o'zaro muvofiqi va aslining saqlanishi uchun buyurtmachilar javobgar hisoblanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish yoki hisobga olish uchun buyurtmachilar g'aznachilik bo'linmalariga mazkur shartnomaning ikkita asli va bitta nusxasini, ikki asl nusxada To'lovlar jadvali taqdim etadi. Bunda "UzASBO" DMga ulangan buyurtmachilar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi ma'lumotlarini "UzASBO" DMga kiritadi.¹²⁹

Buyurtmachilarning "UzASBO" DM orqali elektron shaklda g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan YuMMR buyurtmalari g'aznachilik bo'linmalari tomonidan bir ish kuni ichida mas'ul xodimning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan holda "O'RMV" ATda elektron tarzda ro'yxatdan o'tkaziladi yoki hisobga olinadi, kamchiliklar aniqlanganida esa tegishli kamchiliklari ko'rsatilgan holda elektron tarzda buyurtmachilarga qaytariladi.

"UzASBO" DMga ulanmagan buyurtmachilar YuMMR buyurtmalarini qog'oz shaklida ikki asl nusxada, unda ko'rsatilgan summalarni to'lashga to'lov hujjatlari ilova qilingan holda g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qiladi.

G'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari YuMMR buyurtmalarini qabul qilganlaridan so'ng YuMMR buyurtmalariga qabul qilib olgan sanasini ko'rsatgan holda o'z imzolarini qo'yadi.

G'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari bir ish kuni mobaynida YuMMR buyurtmalarida ko'rsatilgan summalarni xarajatlarni qoplashga tegishli manbalarning (byudjetdan ajratiladigan mablag'lar, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari va BMJ mablag'lari) mavjudligiga, shuningdek ularga ilova qilingan to'lov hujjatlaridagi summalarni

¹²⁹ "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalariga kiritilayotgan O'zgarish va qo'shimchalar" O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 20 noyabr 2017 yildagi 159-son buyrug'i asosida.

YuMMR buyurtmalarida ko'rsatilgan summalarga muvofiqi yuzasidan tekshiradi.

Kamchiliklar bo'lmaganida g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari tomonidan YuMMR buyurtmalari:

↓ byudjetdan ajratiladigan mablag'lar va BMJ mablag'lari bo'yicha – YuMMR buyurtmalarining ikki asliga ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasini ko'rsatgan holda “Ro'yxatdan o'tkazildi” shtampini va shaxsiy imzosini qo'yish yo'li bilan ro'yxatdan o'tkaziladi;

↓ vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari bo'yicha – YuMMR buyurtmalarining ikki asliga hisobga olish raqami va sanasini ko'rsatgan holda “Buyurtma bo'yicha to'lovlar shaxsiy g'azna hisobvarag'i qoldig'i doirasida amalga oshiriladi” yozuvi bilan “Hisobga olindi” shtampini va shaxsiy imzosini qo'yish yo'li bilan hisobga olinadi.

YuMMR buyurtmalarida kamchiliklar aniqlanganida, g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari YuMMR buyurtmasida kamchiliklarini ko'rsatgan holda uni buyurtmachining *mas'ul xodimiga qaytaradi*.

Kamchiliklari ko'rsatib qaytarilgan YuMMR buyurtmalari to'g'risidagi ma'lumot hisobi g'aznachilik bo'linmalari tomonidan “O'RMV” ATda elektron shaklda amalga oshiriladi.

YuMMR buyurtmasi g'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilganidan yoki hisobga olinganidan so'ng buyurtmachilarning mas'ul xodimlari YuMMR buyurtmasining ikki asliga qabul qilib olgan sanasini ko'rsatgan holda o'z imzosini qo'yadi va YuMMR buyurtmasining bir asli buyurtmachilarning mas'ul xodimlariga qaytariladi. YuMMR buyurtmasining ikkinchi asli g'aznachilik bo'linmalarida saqlash uchun qoladi.

III guruh xarajatlari bo'yicha yuridik majburiyatlar kapital qo'yilma buyurtmachilari tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan tuzgan shartnomalari (ularga qo'shimcha va o'zgartirishlarni ham inobatga olgan holda) (bundan

buyon matnda shartnomalar deb yuritiladi) asosida g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilishi yoki hisobga olinishi shart.

Bunda shartnomalarda qurilishning dastlabki ikki oyi mobaynida avans to'lovlari qurilishning bashorat qilinayotgan yili uchun tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilangan *ishlar qiymatining 30 foizigacha miqdorda* teng ulushlarda ajratilishi nazarda tutiladi. III guruh xarajatlari bo'yicha shartnomalar amal qilish muddati tegishli moliya yilining *31 dekabridan* kechikmasdan tuzilishi lozim, kapital qo'yilmalar bo'yicha shartnomalar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan amal qilish muddati bir necha yilni tashkil etishi mumkin bo'lgan hollar bundan mustasno.

Shartnomalar aniq va ravshan siyoh yoki sharikli ruchka yoki yozuv mashinasida yozilgan holda to'ldirilishi lozim. Bunda tuzatishlar, o'chirib yozishlar yoki to'g'rilashlarga yo'l qo'yilmaydi.

Kapital qo'yilma buyurtmachilarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan shartnomalarida tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari belgilangan tartibga muvofiq rasmiylashtiriladi. Kapital qo'yilmaga xarajatlar turli manbalar hisobidan, investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar doirasida, Davlat byudjeti mablag'lari, kredit mablag'lari, davlatlar, davlatlar hukumatlari, xalqaro moliyaviy institutlar, shuningdek xalqaro va chet el hukumat va nohukumat tashkilotlari va boshqalar qarzlari hamda grantlari hisobidan moliyalashtiriladigan hollarda shartnomalar, ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi birlamchi va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish tegishli xalqaro shartnomalar talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

G'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari kapital qo'yilma buyurtmachilari tomonidan *shartnoma taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida* shartnomada ko'rsatilgan summani shartnomada ko'rsatilgan xarajatlarni qoplashga tegishli manbaning (byudjetdan ajratiladigan mablag'lar, vazirliklar, davlat qo'mitalari va

idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari va BMJ mablag'lari mavjudligini, tomonlarning zarur rekvizitlari, muhrlari va imzolari, muhrlar va imzolarning kapital qo'yilma buyurtmachisi tomonidan taqdim etilgan imzolar namunalari va muhr izi kartochkasida ko'rsatilgan imzolar va muhr iziga mosligini, tegishli hujjatlarning mavjudligini tekshiradi.

III guruh xarajatlari yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun g'aznachilik bo'linmalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

shartnomaning ikkita asli va bitta nusxasi;

✚ ikki asl nusxada To'lovlar jadvali;

✚ shartnoma summasi 50 ming AQSH dollaridan kam miqdorni tashkil etganida qonun hujjatlariga muvofiq erkin savdolar o'tkazish bayonnomasi nusxasi;

✚ shartnoma summasi 50 ming AQSH dollari va undan ortiq miqdorni tashkil etganida qonun hujjatlariga muvofiq tanlov (tender) savdolari o'tkazish bayonnomasi nusxasi;

✚ agar shartnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq tanlov (tender) savdolarisiz tuzilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorining nusxasi;

✚ tanlov savdolari natijalari hisobotining O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bilan kelishilgan nusxasi;

✚ O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining qurilish-montaj ishlarini bajarishga (qurilishning butun davri uchun berilgan) ruxsati nusxasi;

✚ manzilli ro'yxat (loyiha-tadqiqot ishlarining manzilli ro'yxati) nusxasi;

✚ qurilish obyekti titul ro'yxati nusxasi;

✚ pudrat tashkilotining qurilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash yuzasidan shartnomasi nusxasi;

✚ davlat ekologiya ekspertizasi xulosasi nusxasi (zarur bo'lganda);

✚ moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar, hisob-kitob (smeta) qiymati 2,0 mlrd so'm va undan ortiq bo'lgan ijtimoiy va fuqaro obyektlari bo'yicha qurish va rekonstruksiya qilishning manzilli ro'yxatlarining Hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan nusxasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining tegishli qarorlari mavjud bo'lgan obyektlar bundan mustasno);

✚ obyektlarni parallel ravishda loyihalashtirish bilan bir vaqtda qurish va rekonstruksiya qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori nusxasi. Bunda shartnomalarda tomonlar yuridik xizmatlarining yoki jalb qilingan advokatlarning imzosi bo'lishi shart.

Shartnomalarni mazkur qoidalar talablariga muvofiqligi yuzasidan tekshirishda kamchiliklar bo'lmagan hollarda shartnomalar taqdim etilganidan so'ng to'rtinchi ish kunidan kechiktirmay g'aznachilik bo'linmalari tomonidan:

-byudjetdan ajratilgan mablag'lar va BMJ mablag'lari bo'yicha – ro'yxatdan o'tkaziladi;

-vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari bo'yicha – hisobga olinadi.

“O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari”¹³⁰ talablariga nomuvofiq holda taqdim etilgan shartnomalar ro'yxatdan o'tkazilmasdan yoki hisobga olinmasdan, shartnomalarni qaytarish varaqasida uni ro'yxatdan o'tkazmasdan yoki hisobga olmasdan qaytarishning asosli sabablarini yozma ko'rsatgan holda qaytariladi.

Qaytarilgan shartnomalar to'g'risidagi ma'lumot hisobi g'aznachilik bo'linmalari tomonidan “O'RMV” ATda elektron ko'rinishda

¹³⁰ O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №2580.

belgilangan shaklda Qaytarilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish kitobida yuritiladi. Shartnomalarni qaytarish varaqalarida ko'rsatilgan barcha kamchiliklar to'liq bartaraf etilgan hollarda, shuningdek qayta taqdim etilgan shartnomalarda avval Shartnomalarni qaytarish varaqalarida ko'rsatilmagan boshqa kamchiliklar bo'lmaganda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan shartnomani kapital qo'yilma buyurtmachilariga takroran qaytarilishiga yo'l qo'yilmaydi.



12.5-rasm. G'aznachilik organlariga yuridik majburiyatni ro'yhatga olish uchun hujjatlar paketini taqdim etish

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- byudjetdan ajratiladigan mablag'lar va BMJ mablag'lari bo'yicha – mas'ul xodim tomonidan shartnomaning birinchi va ikkinchi asli, shuningdek nusxasining barcha varaqlariga ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasini ko'rsatib “Ro'yxatdan o'tkazildi” shtampini va shaxsiy imzosini qo'yish, shuningdek g'aznachilik bo'linmasining vakolatli shaxsi tomonidan shaxsiy imzosini va “Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish” muhrini qo'yish yo'li bilan ro'yxatdan o'tkaziladi;

- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari bo'yicha – mas'ul xodim tomonidan shartnomaning birinchi va ikkinchi asli, shuningdek nusxasining barcha varaqlariga hisobga olish raqami va sanasini ko'rsatgan holda “*Shartnoma bo'yicha to'lovlar shaxsiy g'azna hisobvarag'i qoldig'i doirasida amalga oshiriladi*” yozuvi bilan “*Hisobga olindi*” shtampini va shaxsiy imzosini qo'yish hamda vakolatli shaxs tomonidan shaxsiy imzosini qo'yish yo'li bilan hisobga olinadi.

Shartnomalar ro'yxatdan o'tkazilganidan yoki hisobga olinganidan so'ng *shartnomaning ikkita asli va to'lovlar jadvalining bitta asli* kapital qo'yilma buyurtmachisiga qaytariladi, ro'yxatga olingan yoki hisobga olingan *shartnomaning nusxasi, to'lovlar jadvalining ikkinchi asli* va shartnoma bilan taqdim etilgan hujjatlar nusxalari esa g'aznachilik bo'linmalarida saqlash uchun qoladi.

Manzilli ro'yxatlar asosida bir necha yil amalga oshiriladigan shartnomalar bo'yicha joriy moliya yilining yuridik majburiyatlari g'aznachilik bo'linmalari tomonidan kapital qo'yilmalarning joriy moliya yili uchun tasdiqlangan manzilli ro'yxatida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida ro'yxatdan o'tkaziladi yoki hisobga olinadi.

Bajarish muddati bir yildan ortiq muddatni tashkil etadigan shartnomalar bo'yicha yuridik majburiyatlarni keyingi moliya yilida ro'yxatdan o'tkazish yoki hisobga olish kapital qo'yilma buyurtmachilari tomonidan g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladigan quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

↓ ilgari g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan yoki hisobga olingan shartnomaning nusxasi;

↓ qo'shimcha kelishuvning ikkita asli va bitta nusxasi (asosiy shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritilgan hollarda);

↓ ikki asl nusxada to'lovlar jadvali;

↓ manzilli ro'yxat (loyiha-tadqiqot ishlarining manzilli ro'yxati) nusxasi;

↓ qurilish obyekti titul ro'yxati nusxasi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan va hisobga olingan shartnomalar va yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga buyurtmalar to'g'risidagi ma'lumotlar hisobi "O'RMV" ATda *Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish (hisobga olish) kitobida* elektron ko'rinishda yuritiladi.

IV guruh xarajatlari bo'yicha yuridik majburiyatlar buyurtmachilar tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan tuzgan shartnomalari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar (yig'imlar, badallar, soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha yuridik majburiyatlar) asosida g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilishi yoki hisobga olinishi shart.

Bunda buyurtmachilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish to'g'risida tuziladigan shartnomalarida 15 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish nazarda tutiladi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan hollar bundan mustasno. Ayrim hollarda Vazirlar Mahkamasi tomonidan byudjetdan mablag' oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi lozim bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxati tasdiqlanadi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgustdagi 241-son qaroriga muvofiq, elektr energiyasi, mazut, ko'mir, benzin, dizel yoqilg'isi, mineral o'g'itlar, shuningdek, avia va temir yo'l chiptalari, sanatoriylar, dam olish zonalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yo'llanmalar, barcha turdagi shahar yo'lovchi transporti yo'l kartochkalari kabilarni xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda (30 foizdan 100 foizgacha) oldindan to'lov joriy etilgan.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilish bo'yicha shartnomalari, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ushbu shartnomalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda vakolatli organlarda tegishli ekspertizadan o'tganidan va hisobga qo'yilganidan so'ng g'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda shartnomalarda ko'rsatilgan summalar g'aznachilik bo'linmalari

tomonidan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida hisobga olinadi.

IV guruh xarajatlari bo'yicha shartnomalar amal qilish muddati tegishli moliya yilining 31 dekabridan kechikmagan muddatga tuzilishi lozim, manzilli ro'yxatlar asosida muddati bir necha yilni tashkil qilishi mumkin bo'lgan kapital ta'mirlash xarajatlari bo'yicha shartnomalar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan amal qilish muddati bir necha yilni tashkil etishi mumkin bo'lgan hollar bundan mustasno.

Agar shartnomada ikkinchi tomonning xabarnomasiga ko'ra shartnoma qo'shimcha kelishuvsiz bekor qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu shartnoma bo'yicha yuridik majburiyatni bekor qilish buyurtmachilarning ikki asl nusxada yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmasi va tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarning (pudratchilarning) mazkur shartnoma shartlariga muvofiq shartnomani bekor qilinishiga qarshiligi yo'qligi to'g'risidagi yozma xabarnomasi asosida amalga oshiriladi.

Buyurtmachilarning (byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan shartnomalarida tomonlarning *yuridik manzillari va rekvizitlari rasmiylashtiriladi*. Buyurtmachilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olishda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilardan (pudratchilardan) tegishli *litsenziyaning yoki ruxsatnoma tusidagi hujjatning nusxasini* so'rab oladi. Ushbu hujjatlar nusxasi g'aznachilik bo'linmalariga ro'yxatdan o'tkazish yoki hisobga olish uchun taqdim etiladigan shartnomalar bilan birga taqdim qilinadi.

Buyurtmachilar tomonidan qabul qilinadigan *yuridik majburiyatlar hajmi*, mos ravishda, byudjetdan ajratiladigan mablag'lar, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari va BMJ mablag'lari hajmi bilan chegaralanadi. Vaqtinchalik xarajatlar smetasi doirasida tuzilgan

asosiy shartnomaga qo'shimcha kelishuv tanlov (tender) savdolari o'tkazilishi talab qilinmaydigan hollarda mazkur qo'shimcha kelishuv bo'yicha To'lovlar jadvalida birinchi chorak uchun nazarda tutilgan summa asosiy shartnoma bo'yicha amalga oshirilgan kassa xarajatlaridan kam bo'lmaslik sharti bilan tuzilishi mumkin.


Buyurtmachilar tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olishga bitta tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi (pudratchi) bilan xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifining bir nechta kodi bo'yicha shartnomalar tuzishda shartnomalarda har bir shaxsiy g'azna hisobvarag'i va ulardan to'lov summasi majburiy tartibda alohida ko'rsatiladi. Mazkur shartnomalar g'aznachilik bo'linmalariga vazifa jihatidan tasnifining har bir bo'limi va kichik bo'limi alohida ko'rsatilgan holda ikki asl nusxada to'lovlar jadvali bilan birga taqdim etiladi. Bunda ro'yxatdan o'tkazish yoki hisobga olish uchun shartnomalarga ilova qilinadigan hujjatlar buyurtmachilar tomonidan bir nusxada taqdim etiladi.

IV guruh bo'yicha xarajatlarni turli manbalar hisobidan - Davlat byudjeti mablag'lari, kredit mablag'lari, davlatlar, davlatlar hukumatlari, xalqaro moliyaviy institutlar, shuningdek xalqaro va chet el hukumat hamda nohukumat tashkilotlari va boshqalar qarzlari hamda grantlari hisobidan moliyalashtiriladigan hollarda shartnomalar tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilganligini tasdiqlovchi birlamchi va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish tegishli xalqaro shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi. Shartnomalarda *tovarlar miqdori* (ishlar va xizmatlar hajmi), *tovarlar (ishlar va xizmatlar) birligining narxi va umumiy summasi* yoki ish hajmi summasi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Buyurtmachilarning *shartnomalar tuzmasdan qonun hujjatlariga muvofiq yuridik majburiyatlar yuzaga kelishini tasdiqlovchi hujjatlari* (schyotlar, kvitansiyalar, xabarnomalar va boshqa hujjatlar) asosida qabul qilinadigan yuridik majburiyatlarining ro'yxatdan o'tkazish yoki hisobga olish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash;

- iqtisod qilingan mablag'larni byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazish;
- tibbiyot tashkilotiga ajratiladigan byudjet mablag'lari umumiy hajmining 5 foizigacha bo'lgan miqdorda byudjetdan ajratiladigan mablag'larni tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armalariga o'tkazish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa to'lovlarni to'lash.



12.6-rasm. Shartnomalar tuzmasdan yuridik majburiyatlar yuzaga kelishiga asos bo'luvchi hujjatlar

Quyidagi hollarda shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun mazkur hujjatlarga qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

a) avtotransport, mashina, texnika va uskunalarni joriy, o'rta va mukammal ta'mirlashda – nuqson dalolatnomasi;

b) bino va inshootlarni joriy va o'rta ta'mirlashda – loyiha-smeta hujjatlarini (bajariladigan ishlar summasi O'zbekiston Respublikasi

hududida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining yuz baravaridan oshgan hollarda) ekspertizadan o'tkazilganligi to'g'risida xulosa nusxasi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

d) binolar, inshootlar va ichki xo'jalik yo'llarini mukammal ta'mirlashda:

✓ binolar, inshootlar va ichki xo'jalik yo'llarini mukammal ta'mirlash manzilli ro'yxati nusxasi;

✓ loyiha-smeta hujjatlarining ekspertizadan o'tkazilganligi bo'yicha xulosa nusxasi;

✓ shartnoma summasi 50 ming AQSH dollari va undan ortiq miqdorni tashkil etganida qonun hujjatlariga muvofiq tender savdolarini o'tkazish bayonnomasi nusxasi;

✓ shartnoma summasi 50 ming AQSH dollaridan kam miqdorni tashkil etganida qonun hujjatlariga muvofiq erkin savdolar o'tkazish bayonnomasi nusxasi.

IV guruh xarajatlari bo'yicha shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish buyurtmachilar g'aznachilik bo'linmalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- shartnomaning ikki asli va bir nusxasi;

- ikki asl nusxada To'lovlar jadvali (agar shartnoma vazifa jihatidan tasnifning bir nechta kodlari bo'yicha tuzilgan bo'lsa, unda byudjet tasnifining tegishli kodlari alohida ko'rsatiladi);

- shartnoma summasi 1000 AQSH dollari miqdorigacha summani tashkil etganda yetkazib beruvchilarning eng yaxshi takliflarini tanlab olish bo'yicha erkin savdolar o'tkazish bayonnomasi nusxasi;

- summasi 1 ming AQSH dollari miqdoridan 100 ming AQSH dollari miqdorigacha summani tashkil etgan alohida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) birja tashkil qilgan elektron savdolar orqali xarid qilish bo'yicha konkurs savdolar o'tkazish bayonnomasi nusxasi;

- summasi 100 ming AQSH dollari miqdoridan ortiq summadagi shartnomalar bo'yicha tender savdolari bayonnomasi nusxasi;

- tegishli faoliyat turi uchun litsenziyaning yoki ruxsatnoma tusidagi hujjatning nusxasi (tovarlarni yetkazish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashni yoki ruxsatnoma tusidagi hujjat olishni talab qilsa). Bunda shartnomalarda tomonlar yuridik xizmatining yoki jalb qilingan advokatning imzosi bo'lishi shart.

Buyurtmachilarning Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi, hududiy va tarmoq sanoat yarmarkalari doirasida tuzilgan shartnomalari ro'yxatdan o'tkazish yoki hisobga olish uchun g'aznachilik bo'linmalariga shartnomalar tegishli Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng taqdim etiladi. Mazkur shartnomalarning (Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasida ro'yxatdan o'tkazilgan) ikki asli va bir nusxasi bilan birga g'aznachilik bo'linmalariga ikki asl nusxada To'lovlar jadvali taqdim etiladi.

Bunda shartnomalarda tomonlar yuridik xizmatlarining yoki jalb qilingan advokatlarning imzosi bo'lishi shart.

Bajarish muddati bir yildan ortiq muddatni tashkil etadigan shartnomalar bo'yicha yuridik majburiyatlarni keyingi moliya yilida ro'yxatdan o'tkazish yoki hisobga olish buyurtmachilar tomonidan g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladigan quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

➤ ilgari g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilgan yoki hisobga olingan shartnomaning nusxasi;

➤ qo'shimcha kelishuvning ikki asli va bir nusxasi (asosiy shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritilgan hollarda);

➤ ikki asl nusxada to'lovlar jadvali.

Bunda qo'shimcha kelishuvda tomonlar yuridik xizmatlarining yoki jalb qilingan advokatlarning imzosi bo'lishi shart.

Ambulatoriya sharoitida davolanayotgan alohida toifadagi bemorlarni imtiyozli retseptlar bo'yicha dori vositalari bilan ta'minlash uchun hududiy sog'liqni saqlash bo'limlari yoki ambulatoriya-poliklinika muassasalari xarajatlar smetasi doirasida,

bemorlarga yozib berilgan retseptlar asosida berilgan dori vositalari qiymatini to‘lash uchun oldindan tanlov, tender yoki elektron savdolari o‘tkazmasdan, shuningdek birjaning maxsus axborot portaliga e‘lon joylashtirmasdan dorixona muassasalari bilan belgilangan tartibda shartnomalar tuzadi. Mazkur shartnomalar g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Bunda hududiy sog‘liqni saqlash bo‘limlari yoki ambulatoriya-poliklinika muassasalari shartnoma summasidan kelib chiqib va xarajatlar smetasi doirasida oylik summadan 15 foiz miqdorda har oylik oldindan to‘lovni amalga oshiradi. Yakuniy hisob-kitob dorixona muassasalari tomonidan haqiqatda yetkazib berilgan dori vositalari miqdoridan kelib chiqib yozib berilgan hisobvaraqa-fakturalar asosida amalga oshiriladi.

IV guruh xarajatlari hisobiga naqd pul mablag‘lari to‘lash faqat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda amalga oshiriladi.

Buyurtmachilarning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda “O‘qitish xarajatlari”, “Oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish xarajatlari”, “Boshqa xarajatlar” va xarajatlar smetasining boshqa xarajat moddalaridan naqd pul olish bo‘yicha yuridik majburiyatlari g‘aznachilik bo‘linmalarida buyurtmachilar tomonidan taqdim etiladigan quyidagi hujjatlar asosida I va II guruh xarajatlari bo‘yicha yuridik majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish yoki hisobga olish tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkaziladi yoki hisobga olinadi:

- ikki asl nusxada YuMMR buyurtmasi;
- buyurtmachilarning (xodimni xizmat safariga yuborish, tadbirni o‘tkazish va boshqalar to‘g‘risidagi) buyrug‘i nusxasi.

Bunda davlat ilmiy-texnik dasturlarini bajarishga iqtisodiy xarajatlar tasnifining bir satrida mablag‘lar oluvchi buyurtmachilarning ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlari bo‘yicha yuridik majburiyatlari YuMMR buyurtmasi asosida ro‘yxatdan o‘tkaziladi yoki hisobga olinadi.

G'aznachilik bo'linmalari buyurtmachilar tomonidan shartnoma yoki Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtma taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida:

- ko'rsatilgan hujjatlarning mavjudligini;
- shartnomalarda yoki Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalarda tomonlarning zarur rekvizitlari, muhr va imzolari mavjudligini;
- muhr izi va imzolarning buyurtmachilar tomonidan taqdim etilgan imzolar namunalari va muhr izi kartochkasida ko'rsatilgan imzolar va muhr iziga mosligini;
- shartnomalarda yoki Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalarda ko'rsatilgan summani shartnomada yoki Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalarda ko'rsatilgan xarajatlarni qoplashga tegishli manbaning (byudjetdan ajratilgan mablag'lar, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari va BMJ mablag'lari) mavjudligini tekshiradi.

Buyurtmachilarning shartnomalari va Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalari yuzasidan tekshirishda kamchiliklar bo'lmagan hollarda shartnomalar yoki Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalar taqdim etilganidan so'ng *to'rtinchi ish kundan* kechikmasdan g'aznachilik bo'linmalari tomonidan:

- byudjetdan ajratilgan mablag'lar va BMJ mablag'lari bo'yicha – ***ro'yxatdan o'tkaziladi***;

- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari bo'yicha – ***hisobga olinadi***.

Talablarga nomuvofiq holda taqdim etilgan shartnomalar ro'yxatdan o'tkazilmasdan yoki hisobga olinmasdan Shartnomalarni qaytarish varaqasida uni ro'yxatdan o'tkazmasdan yoki hisobga olmasdan qaytarishning asosli sabablarini yozma ko'rsatgan holda qaytariladi.

Qaytarilgan shartnomalar va Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalar to'g'risidagi ma'lumot hisobi g'aznachilik bo'linmalari tomonidan "O'RMV" ATda elektron ko'rinishda Qaytarilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish kitobida yuritiladi.

Shartnomalarni qaytarish varaqalarida ko'rsatilgan barcha kamchiliklar to'liq bartaraf etilgan hollarda, shuningdek qayta taqdim etilgan shartnomalarda yoki Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalarda avval Shartnomalarni qaytarish varaqalarida ko'rsatilmagan boshqa kamchiliklar bo'limganda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan buyurtmachilarga shartnomalarni va Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalarni takroran qaytarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- **byudjetdan ajratiladigan mablag'lar va BMJ mablag'lari bo'yicha** – mas'ul xodim tomonidan shartnomaning birinchi va ikkinchi asli, shuningdek nusxasining barcha varaqlariga, To'lovlar jadvali va Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmaning ikki asliga ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasini ko'rsatib "Ro'yxatdan o'tkazildi" shtampini va shaxsiy imzosini qo'yish, shuningdek g'aznachilik bo'linmasining vakolatli shaxsi imzosi bilan tasdiqlash va "Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish" muhri qo'yish yo'li bilan ro'yxatdan o'tkaziladi;

- **vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari bo'yicha** – mas'ul xodim tomonidan shartnomaning birinchi va ikkinchi asli, shuningdek nusxasining barcha varaqlariga, to'lovlar jadvali va yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmaning asli hisobga olish raqami hamda sanasini ko'rsatgan holda "shartnoma bo'yicha to'lovlar shaxsiy g'azna hisobvarag'i qoldig'i doirasida amalga oshiriladi" yozuvi bilan "Hisobga olindi"

shtampini va shaxsiy imzosini qo'yish hamda vakolatli shaxs imzosi bilan tasdiqlash yo'li bilan hisobga olinadi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan yuridik majburiyatlar ro'yxatdan o'tkazilganidan yoki hisobga olingandan so'ng:

- shartnomalarning ikki asli va To'lovlar jadvallarning birinchi asli buyurtmachilarga qaytariladi, ro'yxatdan o'tkazilgan yoki hisobga olingan shartnomalarning nusxasi, To'lovlar jadvalining ikkinchi asli va buyurtmachilar tomonidan shartnomalar bilan birga taqdim etilgan hujjatlar nusxalari esa g'aznachilik bo'linmalarida saqlash uchun qoladi;

- yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmaning va To'lovlar jadvalining birinchi asli buyurtmachilarga qaytariladi, ikkinchi asli hamda Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalar bilan birga taqdim etilgan hujjatlar nusxalari esa g'aznachilik bo'linmalarida saqlash uchun qoladi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan va hisobga olingan shartnomalar va Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalar to'g'risidagi ma'lumotlar hisobi "O'RMV" ATda Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish (hisobga olish) kitobida elektron ko'rinishda yuritiladi.

Ro'yxatdan o'tkazilgan yoki hisobga olingan shartnomalar summasiga nisbatan moliyaviy majburiyatlarni kam miqdorda ro'yxatdan o'tkazilishi yoki hisobga olinishi natijasida yuzaga kelgan xarajatlarni qoplashga tegishli manba (byudjetdan ajratilgan mablag'lar, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari va BMJ mablag'lari) bo'yicha ishlatilmagan qoldiq mavjud bo'lganida buyurtmachilar amal qilish muddati:

- tugamagan shartnomalar bo'yicha – tegishli hisobot davri uchun shartnoma summasini kamaytirishni va uni mazkur shartnoma bo'yicha qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar summasiga

muvofiglashtirishni nazarda tutuvchi qo'shimcha kelishuv tuzishi va g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etishi;

- tugagan shartnomalar bo'yicha – g'aznachilik bo'linmalari tomonidan shartnoma summasini kamaytirilishi va uni mazkur shartnoma bo'yicha qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar summasiga muvofiglashtirilishi uchun asos bo'luvchi mazkur shartnoma bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan solishtirish dalolatnomasini tuzishi va g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etishi zarur.

108. Agar shartnomalar bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilishi asosli sabablarga ko'ra keyingi moliya yiliga o'tsa, buyurtmachilar mazkur shartnoma muddati tugaguniga qadar, tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan tuzilgan solishtirish dalolatnomalari asosida shartnomalar muddatini uzaytirish, joriy moliya yilida qabul qilingan yuridik majburiyatlar summasini yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) summasiga kamaytirish, shuningdek yetkazib berilmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha yuridik majburiyatlarni keyingi moliya yiliga o'tkazishni nazarda tutuvchi qo'shimcha kelishuvlar tuzishi mumkin. Bunda mazkur qo'shimcha kelishuvlar tovarlar (ishlar, xizmatlar) birligi narxining oshishini nazarda tutmasligi va ularning umumiy summasi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yetkazib berilmagan qismi bo'yicha yuridik majburiyatlar summasidan oshmasligi shart.

Bunda mazkur qo'shimcha kelishuvni ro'yxatdan o'tkazish yoki hisobga olishda "O'RMV" ATda ularning amal qilish muddati joriy yilning 31 dekabri sifatida kiritiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. G'aznachilikda yuridik va moliyaviy majburiyat tushunchasi nimani anglatadi?

2. Xo'jalik shartnomalari nima va ularning xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Xo'jalik shartnomalarini shakllantirishning qanday tamoyillarini bilasiz?
4. Qanday hollarda yurist xulosasi talab etiladi?
5. Yurist xulosasi nimalarni nazarda tutadi?
6. G'aznachilikda yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish tartibi qanday?
7. Nima uchun yuridik majburiyatlarni G'aznachilikda majburiy tarzda ro'yxatga olish tartibi joriy etilgan?
8. Xo'jalik shartnomalari ro'yhatdan o'tkazish uchun necha nusxada taqdim etiladi?
9. 1-guruh xarajatlari uchun yuridik majburiyat nima asosida shakllanadi?
10. Yuridik majburiyat shakllanishi uchun buyurtmachilar tomonidan qanday hujjatlar paketi shakllantiriladi?
11. 3-guruh xarajatlari doirasida yuridik majburiyatlarni shakllanishida nimalar inobatga olinadi?
12. 3-guruh xarajatlari doirasida yuridik majburiyatlarni ro'yhatga olish uchun g'aznachilik bo'linmalariga qanday hujjatlar taqdim etiladi?
13. 4-guruh xarajatlari doirasida shartnomalarni ro'yhatga olish uchun qanday hujjatlar shakllantiriladi?
14. To'lovlar jadvali nima?
15. Shartnomalarni ro'yhatdan o'tkazish tartibi qanday?
16. Qaytarilgan shartnomalar qanday tartibda rasmiylashtiriladi?
17. G'aznachilikda narx monitoringini amalga oshirish mexanizmlari haqida nima bilasiz?
18. Tenderlar haqida nima bilasiz, ularning maqsad va vazifalari, zarurligi va ahamiyati nimada?
19. Davlat xaridlari bo'yicha elektron auksion savdolarini tashkil etishdan qanday maqsad ko'zlangan?
20. Davlat xaridlari bo'yicha elektron auksion savdolarini tashkil etish tartibi qanday? Davlat xaridlarini tashkil etish qaysi hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. G'aznachilikda yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish bo'yicha taqdimot tayyorlang.
2. Narx monitoringini tashkil etish tartibini sxemada tushuntiring.
3. Elektron auksion savdolarning narxlarni boshqarish va nazorat qilish, shartnomalarni tuzish va ro'yxatdan o'tkazish jarayonlaridagi ahamiyati haqida esse yozing.

13-MAVZU. G'AZNACHILIKDA MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR VA XARAJATLAR TO'LOVINI BOSHQARISH

13.1. Moliyaviy majburiyatning shakllanishi, maqsadi, xususiyatlari

13.2. I va II guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish hamda xarajatlar to'lovi

13.3. III guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish hamda xarajatlar to'lovi

13.4. IV guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish hamda xarajatlar to'lovi

13.1. Moliyaviy majburiyatning shakllanishi, maqsadi va xususiyatlari

Moliyaviy majburiyat esa ana shu shartnomaga muvofiq tovarlar yetkazib berilganidan (ishlar bajarilganidan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi. Byudjet Kodeksida belgilab qo'yilishicha, "*moliyaviy majburiyatlar* – byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag'lari oluvchilarda ularga pul mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar"¹³¹ hisoblanadi.

Moliyaviy majburiyatlarni *G'aznachilikda ro'yxatga olishdan ko'zlangan asosiy maqsad* – qabul qilingan yuridik majburiyatlar, tasdiqlangan byudjet va xarajatlar smetasi ko'rsatkichlari doirasida xarajatlarni amalga oshirishni ta'minlash hamda byudjet tashkilotlarining kreditor qarzlklarini nazorat qilish.

¹³¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 3-modda. O'RQ-360-son.

Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishini talab etadi. Masalan, tovarlar yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjat bo'lgan *schyot-fakturalar*, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi *qabul qilib olish-topshirish dalolatnomalari*, *ish haqi qaydnomalari* (vedomostlar) va boshqa shu kabi hujjatlar. Mazkur hujjatlar tegishli vakolatga ega bo'lgan mas'ul shaxslar tomonidan imzolanishi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi shart.

Moliyaviy mavjburiyatlarning shakllanishi yuzasidan nazariyotchi olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. *Po'latov D.H. tomonidan* –“*Moliyaviy majburiyatlar* - byudjet tashkilotlarida va byudjetdan mablag' oluvchilarda ularga pul mablag'larini o'tkazib berish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'lib, ular qabul qilingan yuridik majburiyatlar va xarajatlarni to'lash uchun berilgan ruxsatnomalar doirasida hisobvaraqa-fakturalari hamda moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida G'aznachilik bo'linmalari tomonidan qabul qilinadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi”¹³² *deyilgan*. Kosimova G.A.ning fikricha, “Moliyaviy majburiyat - shartnomaga muvofiq tovarlar yetkazib berilgan (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi. Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi talab etiladi. Masalan, *schyot fakturalar*, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi olish-topshirish dalolatnomalari, *ish haqi qaydnomalari* (vedomostlar) va boshqa shu kabi hujjatlardir”¹³³. A.I.Musayevaning fikricha, “Moliyaviy majburiyatlar - ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar, shuningdek sud qarorlari bo'yicha to'lovlar, yig'imlar, badallar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan tashqari, oldin

¹³² *Po'latov D.X.* Davlat byudjetining g'azna ijrosi. T.: Moliya, 2016. 288 b.

¹³³ *Kasimova G.A.* G'aznachilik. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya. 2015. 165 b.

tuzilgan shartnomalar va yuridik majburiyatlar qabul qilinganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar doirasida qabul qilinadi”.¹³⁴


Moliyaviy majburiyatlar qabul qilingan yuridik majburiyatlar va xarajatlarni to‘lash uchun berilgan ruxsatnomalar doirasida hisobvara-q-fakturalari hamda moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan qabul qilinadi hamda ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Birinchi va ikkinchi guruh xarajatlari bo‘yicha moliyaviy majburiyatlar, shuningdek Byudjet Kodeksining 122-moddasi o‘ninchi qismida ko‘rsatilgan xarajatlar yuridik majburiyatlarni qabul qilishga doir buyurtmalar asosida g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi.¹³⁵ Moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish chog‘ida G‘aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan nazorat quyidagilarni o‘z ichiga oladi (13.1-rasm).

Amal qilish muddati o‘tgan shartnomalar bo‘yicha yetkazib berilgan tovarlar (ko‘rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar) haqini to‘lash bo‘yicha moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish joriy moliya yili doirasida, hisobvara-q-fakturalar va o‘zaro majburiyatlarni solishtirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy majburiyatlar, ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar, shuningdek sud qarorlari bo‘yicha to‘lovlar, yig‘imlar, badallar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan tashqari, oldin tuzilgan shartnomalar va yuridik majburiyatlar qabul qilinganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar doirasida qabul qilinadi.

G‘aznachilik bo‘linmalari byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning buyurtmalari bo‘yicha to‘lovlarni ularda byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar, yuridik va moliyaviy majburiyatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, shuningdek byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larining qoldiqlari doirasida amalga oshiradi.

¹³⁴ *Musayeva I.A.* “Yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olishning umumiy qoidari”. Ma’ruza matn. 2016. 4-b.


¹³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 123-moddasi asosida.



13.1-rasm. Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish chog'ida G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan nazorat

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar xarajatlarni to'lash uchun to'lov hujjatlarini g'aznachilik bo'linmalariga to'lov amalga oshiriladigan sanadan kamida bir ish kuni oldin taqdim etadi. G'aznachilik bo'linmalari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan byudjet tashkilotlari (byudjet mablag'lari oluvchilar) o'rtasidagi, byudjet tizimi byudjetlarining turli darajalari o'rtasidagi, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi to'lovlar g'azna memorial orderlari asosida amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning chet el valyutasidagi to'lovlari hamda pul o'tkazmalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining norezidentlari foydasiga amalga oshiriladi.

XARAJATLAR TO'LOVI RUXSATNOMASI



Smetalar nusxasi

G'aznachilik xodimi shartnomalarni ro'yhatdan o'tkazishdan oldin XTR summasini va mahalliy byudjetda pul mablag'lari mavjudligini tekshiradi

G'aznachilik tomonidan byudjet tashkilotlariga XTR beriladi, byudjet tashkiloti bo'yicha to'lov amalga oshiriladi

13.2-rasm. Xarajatlar to'lovi ruxsatnomasi shakllanishi

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan shaxsiy g'azna hisobvarag'iga joriy yoki kelgusi yilda qaytariladigan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari hisobidan o'tgan moliya yilida hosil bo'lgan debitorlik qarzining summasi, tegishli moliya yiliga qo'shimcha davrda qaytariladiganidan tashqari, tegishli byudjet daromadlariga o'tkaziladi.¹³⁶

G'aznachilik organlarida pul mablag'larini samarali boshqarish, moliyaviy majburiyatlarning limitini baholash maqsadida *xarajatlarni to'lash ruxsati* (XTR) joriy etilgan. Bunda har haftada pul mablag'larini boshqarish bo'linmasi kassa rejasini yangilaydi va XTR hajmini belgilaydi. So'ngra byudjet tasnifiga muvofiq byudjet tashkilotlariga XTR beriladi. XTRLar muayyan muddatga yoziladi va shu muddat o'tgandan so'ng ular o'z kuchini yo'qotadi.

XTR - G'aznachilik bo'linmalari tomonidan har bir byudjetdan mablag' oluvchiga byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar baza smetasi summasi doirasida beriladi.

- byudjetdan mablag' oluvchilarga xarajatlar to'lovi ruxsatnomasini berish qoida tariqasida:

- respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjetdan mablag' oluvchilar uchun - oyda bir marta

- mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjetdan mablag' oluvchilar uchun - oyda ikki marta amalga oshiriladi.

Yil davomida muayyan byudjet (masalan, tuman byudjeti)ning byudjet tashkilotlari uchun smetalar asosida xarajatlarni amalga oshirish ruxsat(XTR)lari yozib beriladi. Biroq byudjet, bashoratlashtirilganga nisbatan kamroq daromad to'plasa, xarajatlarni to'liq hajmda amalga oshirishga ruxsat berilmaydi. Shuning uchun yillik ajratmalar va smetalar aniqlashtirilmaguncha, xarajatlarni amalga oshirish ruxsatlarini olish uchun rejadan tashqari byudjetlararo ssudalar taqdim etilishi mumkin.

¹³⁶ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 124-moddasi asosida.

To'lab berilgan to'lov topshiriqnomalari soni¹³⁷

№	Hudud nomi	To'lab berilgan to'lov topshiriqnomalari soni						
		2010	2011	2012	2013	2014	2015	
1	Qoraqalpog'iston Resp.	468 358	510 602	608 532	665 058	661 548	694 814	
2	Andijon viloyati	510 740	580 902	663 374	736 033	744 447	756 910	
3	Buxoro viloyati	376 525	494 923	490 077	514 771	527 540	545 914	
4	Jizzax viloyati	284 879	340 323	370 235	408 501	413 843	412 169	
5	Qashqadaryo viloyati	420 930	481 008	542 668	601 902	620 870	576 929	
6	Navoiy viloyati	257 970	284 157	311 710	361 598	347 709	347 045	
7	Namangan viloyati	436 527	542 214	582 907	670 838	670 716	697 634	
8	Samarqand viloyati	521 896	627 808	747 180	794 817	772 938	822 174	
9	Surxandaryo viloyati	418 301	477 869	542 667	629 616	602 143	643 568	
10	Sirdaryo viloyati	208 243	244 554	273 664	295 478	331 229	294 560	
11	Toshkent viloyati	536 892	620 011	695 570	760 496	762 150	749 250	
12	Farg'ona viloyati	677 390	847 395	986 003	994 760	943 460	963 993	
13	Xorazm viloyati	340 515	431 787	481 617	529 628	519 805	540 446	
14	Toshkent shahri	312 406	340 223	414 396	471 337	514 510	501 178	
15	Amaliyot boshqarmaci	302 548	343 007	386 102	402 565	416 203	423 059	
J A M I		6 076 130	7 168 794	8 098 714	8 839 411	8 851 125	8 969 643	

¹³⁷ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi ma'lumotlari asosida.

G'aznachilik organlari XTRlar chiqarilishi va to'lanishi, yuridik majburiyatlarning ro'yxatga olinishi, hisobvara-q-fakturalarning va to'lovga arizalarning yozilishi, arizalarning tasdiqlanishi va to'lov amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lib hisoblanadi.

G'aznachilik bo'linmalari g'azna hisobvaraqlaridan to'lov topshiriqnomalar asosida tashkilot va muassasalarni saqlash, markazlash-tirilgan tadbirlarni o'tkazish, kapital qo'yilmalar va boshqa maqsadlar uchun to'lovlarni tasdiqlangan xarajatlar smetasi, shuningdek, kapital qo'yilmalar limitlari doirasida amalga oshiradi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, g'aznachilik organlari tomonidan byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosini ta'minlash maqsadida to'lovlar amalga oshirilgan.

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan, dastlabki va joriy nazorat natijalariga ko'ra to'lov topshiriqnomalari qaytariladi.

13.2-jadval

Qaytarilgan to'lov topshiriqnomalar haqida ma'lumot¹³⁸

№	Hudud nomi	Qaytarilgan to'lov topshiriqnomalar soni					
		2010	2011	2012	2013	2014	2015
1	Qoraqalpog'iston Resp.	5 900	7 510	8 835	14 224	12 122	14 132
2	Andijon viloyati	16 074	17 965	34 846	35 147	28 586	35 331
3	Buxoro viloyati	20 405	22 460	30 709	45 266	42 913	92 182
4	Jizzax viloyati	4 235	3 816	4 201	6 991	12 048	12 626
5	Qashqadaryo viloyati	11 340	14 835	13 083	15 864	12 597	10 096
6	Navoiy viloyati	6 053	8 240	8 963	9 240	10 195	14 279
7	Namangan viloyati	7 938	9 639	10 909	20 351	18 710	19 210
8	Samarqand viloyati	4 170	6 754	11 780	14 250	10 011	10 838
9	Surxandaryo viloyati	8 952	10 476	13 242	14 449	9 623	7 221
10	Sirdaryo viloyati	11 459	11 452	19 004	21 420	13 711	8 836
11	Toshkent viloyati	36 609	45 982	42 889	47 199	43 913	35 278
12	Farg'ona viloyati	32 731	58 110	67 826	68 584	35 720	34 017
13	Xorazm viloyati	14 574	13 175	15 452	22 396	19 172	17 459
14	Toshkent shahri	19 053	34 036	35 179	43 304	27 155	29 000
15	Amaliyot boshqarmasi	4 649	2 621	7 410	7 691	5 408	11 838
J A M I		204 142	267 071	324 328	386 376	301 884	352 343

¹³⁸ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi ma'lumotlari asosida.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G‘aznachiligi boshqarmalari va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan 2010 yil 204142 ta, 2011 yil 267071 ta, 2012 yil 324328 ta, 2013 yil 386376 ta, 2014 yil 301884 ta, 2015 yilda 352343 ta to‘lov topshiriqnomalari xatoliklar sababli g‘aznachilik orqali byudjet tashkilotlariga qaytarildi.

13.3-jadval

To‘lab berilgan to‘lov topshiriqnomalari va qaytarilgan to‘lov topshiriqnomalar¹³⁹

Yillar	jami		To‘lab berilgan to‘lov topshiriqnomalari		Qaytarilgan to‘lov topshiriqnomalar	
	soni (%)	summasi (%)	soni (%)	summasi (%)	soni (%)	summasi (%)
2 011	100	100	96,4	97,6	3,6	2,4
2 012	100	100	96,1	96,9	3,9	3,1
2 013	100	100	95,8	96,6	4,2	3,4
2 014	100	100	96,7	96,3	3,3	3,7
2 015	100	100	96,2	95,6	3,8	4,4

G‘aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan nazoratning maqsadi byudjet tashkilotlarining kundalik faoliyatiga aralashish, ularning mablag‘laridan foydalanish jarayonlarini murakkablashtirish emas, balki davlat pul mablag‘larining samarali boshqarilishini ta‘minlash, byudjet mablag‘larining harakatida operativlikni oshirish, mablag‘larning maqsadli va aniq yo‘nalishlarda ishlatilishiga erishish va shu asosda byudjetning samarali ijrosini ta‘minlashdan iboratdir.


13.2. I va II guruh xarajatlari bo‘yicha moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga olish hamda xarajatlar to‘lovi

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchlar (buyurtmachilar)ning I va II guruh xarajatlari bo‘yicha moliyaviy majburiyatlari

¹³⁹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi ma‘lumotlari asosida.

YuMMR buyurtmalari, shuningdek ushbu guruhlar xarajatlari bo'yicha to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari asosida ro'yxatdan o'tkaziladi va hisobga olinadi. Buyurtmachilar byudjetga majburiy to'lovlarni to'lash, naqd pul mablag'larini olish yoki xodimlarning plastik kartalariga mablag'larni o'tkazish uchun YuMMR buyurtmalarida ko'rsatilgan summalar doirasida g'aznachilik bo'linmalariga to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari taqdim etadi.

I guruh va unga tenglashtirilgan xarajatlar bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni qabul va ularning to'lovi



13.3-rasm. I guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va xarajatlar to'lovi

Bunda "UzASBO" DMga ulangan buyurtmachilar to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlarini belgilangan tartibda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda g'aznachilik bo'linmalariga elektron shaklda yuboradi.

Buyurtmachilarning "UzASBO" DM orqali elektron shaklda g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari g'aznachilik bo'linmalari tomonidan *bir ish kuni ichida* g'aznachilik bo'linmasi mas'ul xodimning elektron raqamli

imzosi bilan tasdiqlangan holda “O‘RMV” ATda to‘lovga qabul qilinadi, kamchiliklar aniqlanganida esa tegishli kamchiliklari ko‘rsatilgan holda elektron tarzda buyurtmachilarga qaytariladi. “UZASBO” DMga ulanmagan buyurtmachilar to‘lov topshiriqnomalari va g‘azna memorial orderlarini g‘aznachilik bo‘linmalariga qog‘oz shaklda taqdim qiladilar va ularni ro‘yxatdan o‘tkazish yoki hisobga olishda g‘aznachilik bo‘linmalarining mas‘ul xodimlari ish yuritadi.

To‘lov topshiriqnomalari g‘aznachilik bo‘linmalariga uch nusxada taqdim qilinadi.

- *birinchi nusxasi* - buyurtmachilarning tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan to‘lov topshiriqnomalarining buyurtmachilarning g‘aznachilik bo‘linmalariga shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i bo‘yicha kassa xarajatlarini amalga oshirish uchun topshirig‘i bo‘lib xizmat qiladi;

- *ikkinchi nusxasi* - to‘lov topshiriqnomalarining g‘aznachilik bo‘linmalarining vakolatli va mas‘ul shaxslari tomonidan imzolaniadi, g‘aznachilik bo‘linmalarining muhr izi bilan tasdiqlanadi va YaG‘Hdan xarajatlar to‘lovini amalga oshirish uchun asos bo‘ladi;

- *uchinchi nusxasi* G‘aznachilik bo‘linmalarining “TO‘LANDI” belgisi bilan va to‘langan sana qo‘yilgan to‘lov topshiriqnomalarining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan birga buyurtmachilarning mas‘ul xodimlariga qaytariladi.

Bunda to‘lov topshiriqnomalarining:

✓ “Mablag‘larni to‘lovchining nomi” ustunida g‘aznachilik bo‘linmasining nomi;

✓ “Mablag‘larni to‘lovchining hisobvarag‘i” ustunida – YaG‘H;

✓ “To‘lov maqsadi” ustunida – buyurtmachining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i raqami;

✓ STIRi va nomi;

✓ byudjet tasnifining tegishli kodlari;

✓ to‘lovni o‘tkazishga asos bo‘ladigan hujjat;

✓ to‘lov maqsadi ko‘rsatiladi.

Buyurtmachilar tomonidan taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari "Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi Qoidalari"ga muvofiq bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari to'lov topshiriqnomalarining ikkinchi nusxasiga "*TEKSHIRILDI*" belgisini, to'lov topshiriqnomalari *qabul qilingan sanani* va o'zining *imzosini* qo'yadi. To'lov topshiriqnomalar Qoidalar talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari to'lov topshiriqnomalarining orqa tomonida *qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda* ularni buyurtmachilarning mas'ul xodimlariga qaytaradi. To'lov topshiriqnomalarining ikkinchi nusxasini g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli va mas'ul shaxslari imzolari va g'aznachilik bo'linmalarining muhr izi bilan rasmiylashtirish tekshiruvlar tugaganidan so'ng amalga oshiriladi.

G'aznachilik memorial orderlari – bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan boshqa shaxsiy g'azna hisobvarag'iga mablag'lar o'tkazish uchun asos bo'lib, buyurtmachilar tomonidan g'aznachilik bo'linmalariga *uch nusxada* taqdim qilinadi:

– G'aznachilik memorial orderlarining *birinchi nusxasi* – buyurtmachilarning tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlanib buyurtmachilarning g'aznachilik bo'linmalariga shaxsiy g'azna hisobvarag'i bo'yicha *kassa xarajatlari*ni amalga oshirish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi;

– G'aznachilik memorial orderlarining *ikkinchi nusxasi* - g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli va mas'ul shaxslari tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmalarining muhr izi bilan tasdiqlanadi va *buyurtmachilarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan mablag'larni o'tkazish uchun asos bo'ladi*.

G'aznachilik memorial orderlarining *uchinchi nusxasi* - G'aznachilik bo'linmalarining "*TO'LANDI*" belgisi qo'yiladi, to'langan sana qo'yiladi, *shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan ko'chirma bilan birgalikda buyurtmachilarning mas'ul xodimlariga qaytariladi*.

G'aznachilik memorial orderi N _____			
Sana	KK.OO.YYYY		
To'lovchi			
To'lovchining nomi			
To'lovchining shaxsiy g'azna hisobvarag'i		STIR	
Summa			
Oluvchi			
Oluvchining nomi			
Daromad shaxsiy g'azna hisobvarag'i		STIR	
Summa yozuvda			
To'lov maqsadi			
Rahbar	Imzo	F.I.O.	
M.O'.			
Bosh buxgalter	Imzo	F.I.O.	
G'aznachilik memorial orderi N _____			
Sana	KK.OO.YYYY		
To'lovchi			
To'lovchining nomi			
To'lovchining shaxsiy g'azna hisobvarag'i		STIR	
Summa			
Oluvchi			
Oluvchining nomi			
Daromad shaxsiy g'azna hisobvarag'i		STIR	
Summa yozuvda			
To'lov maqsadi			
G'aznachilik bo'linmasining rahbari yoki vakolatli shaxs	Imzo	F.I.O.	
M.O'.			
Mas'ul xodim	Imzo	F.I.O.	

13.5-rasm. G'aznachilik memorial orderi shakli¹⁴¹

¹⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 30 martda 2771-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining 2016 yil 24 martdagi 20, 2016-14, 01-02/8-10-sonli qarorining 4-ilovasi asosida.

G'aznachilik memorial orderlarining -

❖ "To'lov maqsadi" ustunida-To'lov turlari bo'yicha ma'lumotnomaga asosan tegishli to'lov kodi;

❖ buyurtmachilarning shaxsiy g'azna hisobvarag'i raqami;

❖ STIRi va nomi;

❖ byudjet tasnifining tegishli kodlari;

❖ to'lovni o'tkazishga asos bo'ladigan hujjat;

❖ to'lov maqsadi ko'rsatiladi.

Buyurtmachilar tomonidan taqdim qilingan g'aznachilik memorial orderlari talablariga muvofiq bo'lganda - g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimi g'aznachilik memorial orderlarining ikkinchi nusxasiga "TEKShIRILDI" belgisini, g'aznachilik memorial orderi qabul qilingan sanani va o'zining imzosini qo'yadi.

G'aznachilik memorial orderlari talablarga nomuvofiq bo'lgan hollarda - g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari g'aznachilik memorial orderlarining orqa tomonida qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda uni buyurtmachilarning mas'ul xodimlariga qaytaradi.

G'aznachilik memorial orderlarining ikkinchi nusxasini g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli va mas'ul shaxslarining imzolari va g'aznachilik bo'linmalarining muhr izi bilan rasmiylashtirish tekshiruvlar tugaganidan so'ng amalga oshiriladi.

Mablag'larni bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan boshqasiga o'tkazishda g'aznachilik memorial orderlariga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- iqtisod qilingan byudjet mablag'larini o'tkazishda - Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha - tegishli hududiy moliya organlarining xulosalari, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha - ushbu byudjet tashkilotlari tomonidan mustaqil ravishda ularning rahbarlari va bosh buxgalterlari imzolagan yozma shakldagi murojaatlari;

- noto'g'ri tushgan mablag'larni qaytarishda buyurtmachilarning xati ilova qilinadi.

Bunda ota-onalarning maktabgacha va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida bolalarni saqlash uchun to'lovlari, musiqa va san'at maktablarida bolalarni o'qitish uchun to'lovlari, xodimlardan ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo'yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlarni o'tkazishda va boshqa shunga o'xshash to'lovlarni amalga oshirishda qo'shimcha hujjatlar ilova qilinmaydi (talab qilinmaydi), biroq to'lov maqsadida oyi, yili va kimga to'layotganligi ko'rsatilishi shart (g'aznachilik memorial orderi har bir to'lovchi bo'yicha alohida rasmiylashtiriladi), shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan boshqasiga mablag'larni o'tkazishda ham g'azna memorial orderiga qo'shimcha hujjatlar talab qilinmaydi va to'lov maqsadida tegishli qonun hujjati va nima maqsadda o'tkazilayotganligi ko'rsatilishi shart.

G'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari I va II guruh xarajatlari bo'yicha YuMMR buyurtmalari asosida "O'RMV" ATga buyurtmachilari tomonidan taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlarini kiritadi hamda ular bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi.

I va II guruh xarajatlari bo'yicha XTR summalarini hisoblashda xarajatlarni moliyalashtirishning quyidagi sanalarini inobatga olish lozim:

• *Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar - har oyning 1 - 5 sanalarida 60% miqdorida, har oyning 15 - 20 sanalarida 40% miqdorida, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno;*

• *Yagona ijtimoiy to'lov - har oyning 1 - 5 sanalarida;*

• *Ijtimoiy nafaqalar (voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar) - har oyning 1 - 15 sanalarida.*

Naqd pul mablag'lari olish uchun chek – bu g'aznachilik bo'linmasining ma'lum naqd pul summasini buyurtmachiga berish uchun yozma topshirig'idir. Cheklar buyurtmachi tomonidan siyoh yoki sharikli ruchka bilan qo'lda yoziladi. Cheklarda o'chirib yozish, tuzatish, to'g'rilashlarga hamda faksimile ishlatilishiga yo'l

qo'yilmaydi. Cheklar o'n kun davomida (ular yozib berilgan kunni hisobga olgan holda) haqiqiy hisoblanadi.

G'aznachilik bo'linmalari chek daftarchalarini ularga xizmat ko'rsatuvchi banklardan ularni keyinchalik buyurtmachilarga tarqatish uchun oladi. Bunda buyurtmachilar g'aznachilik bo'linmalariga chek daftarchalarini olish uchun mazkur buyurtmachi rahbari va bosh buxgalteri imzosi qo'yilgan ishonchnoma va so'rovnomalarni taqdim qiladi. Ishonchnoma bo'yicha bir buyurtmachiga berilgan chek daftarchasidan boshqa buyurtmachi tomonidan foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Olingan chek daftarchalari buyurtmachilarda saqlanadi.

Cheklar 23212 va 23214 balans hisobvaraqlarida ochilgan hisobvaraqlarga o'tkazilgan mablag'lar doirasida yoziladi. Buyurtmachilar 23212 va 23214 balans hisobvaraqlariga mablag'lar o'tkazilganidan so'ng g'aznachilik bo'linmalariga to'ldirilgan chek taqdim qiladilar. Bunda buyurtmachilar naqd pul to'lovlari bo'yicha 23212 va 23214 balans hisobvaraqlarga pul tushganidan so'ng o'n kun ichida (ular yozib berilgan kunni hisobga olgan holda) naqd pul mablag'larini umumiy summa doirasida yozilgan bir nechta chek bilan olish huquqiga ega. Buning uchun buyurtmachilar g'aznachilik bo'linmalariga tegishli summaga YuMMR buyurtmasi yoki pul oladigan sanalar va summalarini aniq va alohida ko'rsatgan holda YuMMR buyurtmasini taqdim etadi.

Bunda bankning mas'ul xodimlari g'aznachilik bo'linmalari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan buyurtmachilarning mas'ul xodimi tomonidan taqdim qilingan naqd pul mablag'larini olish uchun cheklarni ular taqdim qilingan kunda qabul qilishi shart. G'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari to'ldirilgan cheklarni qabul qilganidan so'ng chek va YuMMR buyurtmasi summalari muvofiqligini tekshiradi, imzo va muhr qo'yadi hamda tekshirishdan so'ng chekning nazorat markasini buyurtmachilarning mas'ul xodimlariga beradi. Bunda yozilgan cheklar ikki nusxada chop etilgan qog'oz shaklidagi yozilgan cheklar reyestri bilan birga g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari tomonidan

buyurtmachilarning mas'ul xodimlariga, xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim qilish uchun beriladi.

Moliya yili mobaynida ishlatilgan chek daftarchalari milklari buyurtmachilar tomonidan "UzASBO" DMda shakllantirilgan, ishlatilgan va buzilgan cheklar reyestri bilan birga oxirgi chek varag'i to'ldirilgan kunning keyingi kunida g'aznachilik bo'linmalariga qaytarilishi shart.



13.6-rasm. Moliyaviy majburiyatlar va to'lovlar bo'limi tomonidan ish haqini to'lash mexanizmi

Ishlatilgan va buzilgan cheklar reyestri g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlariga ikki nusxada taqdim qilinadi. Buyurtmachilarning mas'ul xodimlari imzolari to'liqligi g'aznachilik bo'linmalari xodimlari tomonidan tekshiriladi. Bunda ishlatilgan va buzilgan cheklar reyestrining birinchi nusxasi g'aznachilik bo'linmalarining

mas'ul xodimlari tomonidan imzolanadi va buyurtmachilarning mas'ul xodimlariga tekshirilgan sanasini ko'rsatgan holda qaytariladi, ikkinchi nusxasi chek bilan birga g'aznachilik bo'linmalarida qoladi. Buyurtmachilar ishlatilgan va buzilgan cheklar reyestrini g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlariga topshirilgandan so'ng buyurtmachilarga yangi chek daftarchasi beriladi. Bunda buzilgan cheklar mavjud bo'lgan hollarda buyurtmachilar ularni ishlatilgan chek daftarchalari bilan birga qaytaradi, ular mavjud bo'lmaganda esa ularning yo'qligi sabablari hamda ko'rilgan choralar to'g'risida g'aznachilik bo'linmalarini yozma xabardor qiladi.

G'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari ishlatilgan chek daftarchalarini olganlaridan so'ng ulardagi ma'lumotlarni "O'RMV" ATdagi to'langan summalar va cheklar soni to'g'risidagi ma'lumotlar bilan solishtiradi.

Ishlatilgan cheklar bo'yicha ma'lumotlarda farqlar mavjud bo'lgan hollarda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan yetishmayotgan cheklarning raqami va summalarini ko'rsatgan holda chek daftarchalari ro'yxati va unga ilovalar tuziladi hamda buyurtmachilarga farqlar sabablarini aniqlashtirish uchun taqdim qilinadi.

Banklar tomonidan chekda ko'rsatilgan summani berish unda g'aznachilik bo'linmalarining imzo qo'yish huquqiga ega vakolatli shaxslarining g'aznachilik bo'linmalarining muhri bilan tasdiqlangan hamda imzo namunalari va muhr izi kartochkasida ko'rsatilgan imzolari bo'lganda amalga oshiriladi. Bunda noto'g'ri rasmiylashtirilgan cheklar banklar tomonidan g'aznachilik bo'linmalariga chek taqdim qilingan kuni yoki keyingi bank kunidan kechikmagan muddatda qaytariladi.

Naqd pul mablag'lari berilganidan so'ng yozilgan cheklar reyestrining ikkinchi nusxasi chek ijro etilganligi to'g'risidagi belgi qo'yilgan holda ko'chirma bilan birga banklar tomonidan g'aznachilik bo'linmalariga qaytariladi. G'aznachilik bo'linmalari ko'chirma asosida tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'iga naqd pul mablag'lari berilganligi to'g'risida ma'lumot kiritadi va buyurtmachilarga shaxsiy

g'azna hisobvarag'idan g'aznachilik bo'linmalarining belgisi qo'yilgan ko'chirma beradi.

Banklardan naqd pul mablag'larini olish uchun buyurtmachilar tomonidan moddiy javobgar shaxsga (kassirga) berilgan *Ishonchnoma* asosida tegishli g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qilinadi.

Buyurtmachilarning ishonchli shaxslari tomonidan *chek yo'qotilgan taqdirda* chek yo'qotilganligi aniqlangan kuni tegishli g'aznachilik bo'linmasiga buyurtmachilar rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan bildirishnoma-xat yo'llanadi. G'aznachilik bo'linmasi buyurtmachining bildirishnoma-xati asosida murojaat qilingan kunning keyingi kunidan kechikmagan muddatda yo'qotilgan chekning seriyasi va raqamini ko'rsatgan holda mazkur chek to'lovini to'xtatish maqsadida bankka xat yuboradi. Bunda cheklar reyestri chaqirib olingan chek summasini ayirgan holda ijro qilinadi.

G'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari berilgan va ishlatilgan cheklarni ro'yxatdan o'tkazishni Berilgan va ishlatilgan cheklarni hisobga olish jurnalida olib boradilar.

Buyurtmachilarning *xodimlari uchun plastik kartochkalar* bir vaqtning o'zida ikki yoki bir necha bankda ochilgan holda buyurtmachilar g'aznachilik bo'linmasiga tegishli miqdorda to'lov topshiriqnomalari taqdim qiladi. Xodimlarining ish haqi summalarini plastik kartochkalarga o'tkazish uchun buyurtmachilar xizmat ko'rsatuvchi bankka ikki asl nusxada qog'oz hamda elektron ko'rinishda xodimlar ro'yxatini taqdim qiladi.

Bunda:

- xodimlar ro'yxatida xodimlarning familiyasi, ismi, otasining ismi, tabel raqami, plastik kartochkalarining rekvizitlari hamda xodimlarga o'tkazib berilayotgan summalar ko'rsatiladi;

- xodimlar ro'yxatining har bir varag'i tashkilot rahbari, bosh buxgalteri va xodimlar bo'limining mas'ul xodimi yoki uni o'rnini bosuvchi xodim tomonidan imzolanadi, tashkilot va xodimlar bo'limining muhri bilan tasdiqlanadi.

“UzASBO” DMga ulangan buyurtmachilar xodimlarining ish haqi summalarini plastik kartoçkalarga o‘tkazish uchun xodimlar ro‘yxatini elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda banklarga faqat elektron shaklda yuboradi. Banklar buyurtmachilar tomonidan taqdim qilingan xodimlar ro‘yxatni sinchkovlik bilan tekshiradi va xatolik yoki kamchiliklar aniqlangan hollarda xatolik yoki kamchiliklar aniqlangan kundan keyingi kundan kechiktirmasdan, elektron shaklda yuborilgan hollarda esa shu kunning o‘zida xatolik va kamchiliklarni to‘g‘rilash uchun buyurtmachilarga qaytaradi. Xizmat ko‘rsatuvchi banklar xodimlar ro‘yxatining ikkinchi nusxasini mablag‘lar o‘tkazilganligini tasdiqlovchi shtamp bosgan holda buyurtmachilarga xodimlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan mablag‘lar to‘liq o‘tkazilgan kundan keyingi kundan kechikmasdan beradi.

G‘aznachilik bo‘linmalarining mas‘ul xodimlari buyurtmachilarning shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida operatsiyalar amalga oshirilishi bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlardan ko‘chirmalar beradi hamda ularni Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan berilgan ko‘chirmalarni ro‘yxatdan o‘tkazish jurnalida ro‘yxatdan o‘tkazadi. Buyurtmachilarning mas‘ul xodimlari Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlardan ko‘chirma olishda Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan berilgan ko‘chirmalarni ro‘yxatdan o‘tkazish jurnaliga ko‘chirmani olganligi to‘g‘risida tegishli belgi qo‘yadi.

Bunda Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan berilgan ko‘chirmalarni ro‘yxatdan o‘tkazish jurnali har bir buyurtmachi bo‘yicha alohida ochiladi va yuritiladi. Buyurtmachilar ko‘chirmalarni “UzASBO” DMdan elektron tarzda olgan hollarda Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan berilgan ko‘chirmalarni ro‘yxatdan o‘tkazish jurnali yuritilmaydi.

13.3. III guruh xarajatlari bo‘yicha moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga olish hamda xarajatlar to‘lovi

III guruh xarajatlari bo‘yicha moliyaviy majburiyatlar kapital qo‘yilma buyurtmachilari tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar)

yetkazib beruvchilarning (pudratchilarning) ishlar bajarilganligini (tovarlar yetkazib berilganligini) tasdiqlovchi hisobvaraƒ-fakturalari va qonun hujjatlariga muvofiq hisobvaraƒ-faktura o‘rnini bosuvchi hujjatlar (bundan buyon matnda hisobvaraƒ-faktura deb yuritiladi) asosida qabul qilinadi.

III guruh xarajatlari bo‘yicha moliyaviy majburiyatlar g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan *hisobvaraƒ-fakturalar hamda moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida* yuridik majburiyatlar va xarajatlarni *to‘lash uchun ruxsatnoma* doirasida ro‘yxatdan o‘tkaziladi va hisobga olinadi.

Kapital qo‘yilma buyurtmachilari tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilardan (pudratchilardan) ishlar bajarilganligini (tovarlar yetkazib berilganligini) tasdiqlovchi hisobvaraƒ-fakturalar olganlaridan *so‘ng o‘n ish kunidan* kechikmasdan ro‘yxatdan o‘tkazish yoki hisobga olish uchun ularning asli va nusxasini belgilangan shakldagi ikki asl nusxada Moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazishga (hisobga olishga) buyurtma bilan birga tegishli g‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim qilishi lozim.

O‘n ish kunidan kechikib taqdim qilingan hisobvaraƒ-fakturalar kapital qo‘yilma buyurtmachilarining kechikish sababi ko‘rsatilgan, kapital qo‘yilma buyurtmachisining rahbari va bosh buxgalteri imzolagan yozma tushuntirishi asosida ro‘yxatdan o‘tkaziladi yoki hisobga olinadi.

G‘aznachilik bo‘linmalari kapital qo‘yilma buyurtmachilari tomonidan taqdim qilingan buyurtma va hisobvaraƒ-fakturalar asosida ular *taqdim qilinganidan keyingi kundan kechikmasdan* moliyaviy majburiyatlarni byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar va BMJ mablag‘lari bo‘yicha – mas‘ul xodim tomonidan Moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazishga (hisobga olishga) buyurtmaning ikki asliga ro‘yxatdan o‘tkazish raqami va sanasini ko‘rsatib “*Ro‘yxatdan o‘tkazildi*” shtampi va shaxsiy imzosini qo‘yish hamda g‘aznachilik bo‘linmasining vakolatli shaxsi tomonidan shaxsiy imzosi

va “*Moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish*” muhrini qo‘yish yo‘li bilan ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Ro‘yxatdan o‘tkazilgan Moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazishga (hisobga olishga) buyurtmaning *bir asli va hisobvaraƒ-fakturalarning asli* kapital qo‘yilma buyurtmachilariga qaytariladi, Moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazishga (hisobga olishga) buyurtmaning *ikkinchi asli va hisobvaraƒ-fakturalarning nusxasi* g‘aznachilik bo‘linmalarida saqlash uchun qoladi.

Agar hisobvaraƒ-fakturalar bo‘yicha bajarilgan ishlar hajmi ishlarni bajarish jadvalidan ilgarilab ketish natijasida yuzaga kelgan hamda ro‘yxatdan o‘tkaziladigan yoki hisobga olinadigan moliyaviy majburiyatlar tegishli yil uchun rejalashtirilgan mablag‘lardan oshsa, kapital qo‘yilma buyurtmachilari g‘aznachilik bo‘linmalariga tegishli hujjatlar bilan birga bosh buxgalterlari tomonidan imzolangan ma‘lumotnoma taqdim etadi. Ushbu ma‘lumotnomada tegishli hisobvaraƒ-faktura rekvizitlari hamda smeta doirasida joriy yil uchun qabul qilinishi lozim bo‘lgan moliyaviy majburiyat summasi ko‘rsatiladi. Bunda moliyaviy majburiyatlar g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan kapital qo‘yilma buyurtmachilarining ma‘lumotnomasida ko‘rsatilgan summa doirasida ro‘yxatdan o‘tkaziladi yoki hisobga olinadi.

Kapital qo‘yilma buyurtmachilarining “UzASBO” DM orqali elektron shaklda g‘aznachilik bo‘linmalariga yuborilgan to‘lov topshiriqnomalari va g‘azna memorial orderlari g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan *bir ish kuni ichida* mas‘ul xodimning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan holda “O‘RMV” ATda elektron tarzda ro‘yxatdan o‘tkaziladi yoki hisobga olinadi, kamchiliklar aniqlanganida esa tegishli kamchiliklari ko‘rsatilgan holda elektron tarzda kapital qo‘yilma buyurtmachilariga qaytariladi.

“UzASBO” DMga ulanmagan kapital qo‘yilma buyurtmachilari to‘lov topshiriqnomalari va g‘azna memorial orderlarini g‘aznachilik bo‘linmalariga qog‘oz shaklda taqdim qiladi.

Kapital qo'yilma buyurtmachilarining *xarajatlar to'lovi* quyidagi talablarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

a) to'lov hujjatida shaxsiy g'azna hisobvarag'i raqami, kapital qo'yilma buyurtmachisining nomi va STIRi, byudjet tasnifining tegishli kodlari, yuridik majburiyat yuzaga kelishiga asos bo'lgan hujjat va hisobvara- faktura raqami va sanasi, avans (to'lov) miqdori va to'lov maqsadi *to'g'ri ko'rsatilganida*;

b) qurilishlarning tasdiqlangan manzilli va titul ro'yxatlari asosida va tegishli obyektlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlardagi mavjud ajratilgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari qoldig'i doirasida;

d) agar to'lov topshiriqnomasida yoki g'azna memorial orderida ko'rsatilgan summa g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilgan yoki hisobga olingan yuridik majburiyatga asosan oldin o'tkazilgan mablag'larni hisobga olgan holda to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'laridan oshmasa;

e) hisobvara- fakturalar, kapital qo'yilma buyurtmachisining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarga (pudratchilarga) oldidagi qarzdorligini tasdiqlovchi solishtirish dalolatnomasi, shuningdek avans to'lovlarini o'tkazishi lozimligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda;

f) to'lov topshiriqnomasida yoki g'azna memorial orderida tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchining (pudratchining) nomi va rekvizitlari yuridik va moliyaviy majburiyatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchining (pudratchining) nomi va rekvizitlariga muvofiq bo'lganida.

To'lov topshiriqnomalari g'aznachilik bo'linmalariga uch nusxada taqdim qilinadi:

– *birinchi nusxasi* - Kapital qo'yilma buyurtmachilarining tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan to'lov topshiriqnomalari kapital qo'yilma buyurtmachilarining g'aznachilik bo'linmalariga *shaxsiy g'azna hisobvarag'i*

bo'yicha kassa xarajatlarini amalga oshirish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi.

– *ikkinchi nusxasi* - g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli va mas'ul shaxslari tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmalarining muhr izi bilan tasdiqlanadi va *YaG'Hdan xarajatlar to'lovini amalga oshirish uchun asos bo'ladi.*

– *uchinchi nusxasi* - g'aznachilik bo'linmalarining "TO'LANDI" belgisi bilan va to'langan sana qo'yilgan holda shaxsiy g'azna hisobvarag'idan ko'chirma bilan birga *kapital qo'yilma buyurtmachilarining mas'ul xodimlariga qaytariladi.*

Bunda to'lov topshiriqnomalarida:

"Mablag'larni to'lovchining nomi" ustunida g'aznachilik bo'linmasining nomi;

✓ "Mablag'larni to'lovchining hisobvarag'i" ustunida – YaG'H;

✓ "To'lov maqsadi" ustunida – kapital qo'yilma buyurtmachisining shaxsiy g'azna hisobvara q raqami;

✓ STIRi va nomi;

✓ byudjet tasnifining tegishli kodlari;

✓ to'lovni o'tkazishga asos bo'ladigan yuridik va moliyaviy majburiyat yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjat;

✓ to'lov maqsadi ko'rsatiladi.

Kapital qo'yilma buyurtmachilari tomonidan taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari talablarga muvofiq bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari to'lov topshiriqnomalarining ikkinchi nusxasiga "TEKSHIRILDI" belgisini, to'lov topshiriqnomalari qabul qilingan sanani va o'zining imzosini qo'yadi.

To'lov topshiriqnomalar talablarga nomuvofiq bo'lgan hollarda g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari to'lov topshiriqnomalarining *orqa tomonida qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda ularni kapital qo'yilma buyurtmachilarining mas'ul xodimlariga qaytaradi.* To'lov topshiriqnomalarining ikkinchi nusxasini g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli va mas'ul shaxslari imzolari va

g'aznachilik bo'linmalarining muhr izi bilan rasmiylashtirish tekshiruvlar tugaganidan so'ng amalga oshiriladi.

Bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan boshqa shaxsiy g'azna hisobvarag'iga mablag'lar o'tkazish uchun kapital qo'yilma buyurtmachilari tomonidan g'aznachilik bo'linmalariga ***g'aznachilik memorial orderlari*** uch nusxada taqdim qilinadi:


– birinchi nusxasi - kapital qo'yilma buyurtmachilarining tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan g'aznachilik memorial orderlari g'aznachilik bo'linmalariga kapital qo'yilma buyurtmachilarining g'aznachilik bo'linmalariga shaxsiy g'azna hisobvarag'i bo'yicha kassa xarajatlarini amalga oshirish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi;

– ikkinchi nusxasi - g'aznachilik memorial orderlari g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli va mas'ul shaxslari tomonidan imzolaniadi, g'aznachilik bo'linmalarining muhr izi bilan tasdiqlanadi va kapital qo'yilma buyurtmachilarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan mablag'larni o'tkazish uchun asos bo'ladi;

– uchinchi nusxasi - G'aznachilik bo'linmalarining "TO'LANDI" belgisi bilan va to'langan sana qo'yilgan g'aznachilik memorial orderlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan ko'chirma bilan birgalikda kapital qo'yilma buyurtmachilarining mas'ul xodimlariga qaytariladi.

Bunda g'aznachilik memorial orderlarining "To'lov maqsadi" ustunida To'lov turlari bo'yicha ma'lumotnomaga asosan tegishli to'lov kodi, kapital qo'yilma buyurtmachilarining shaxsiy g'azna hisobvarag'i raqami, STIRi va nomi, byudjet tasnifining tegishli kodlari, to'lovni o'tkazishga asos bo'ladigan hujjat, shuningdek to'lov maqsadi ko'rsatiladi.

TO'LOVNI AMALGA OSHIRISH



13.7-rasm. To'lovlarni amalga oshirish tartibi

Kapital qo'yilma buyurtmachilari tomonidan taqdim qilingan g'aznachilik memorial orderlari qoidalar¹⁴² talablariga muvofiq bo'lganda g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari g'aznachilik memorial orderlarining ikkinchi nusxasiga "TEKSHIRILDI" belgisini, g'aznachilik memorial orderi qabul qilingan sanani va o'zining imzosini qo'yadi.

G'aznachilik memorial orderlari mazkur Qoidalar talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari g'aznachilik memorial orderlarining orqa tomonida qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda uni kapital qo'yilma buyurtmachilarining mas'ul xodimlariga qaytaradi.

G'aznachilik memorial orderlarining ikkinchi nusxasini g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli va mas'ul shaxslarining imzolari va g'aznachilik bo'linmalarining muhr izi bilan rasmiylashtirish tekshiruvlar tugaganidan so'ng amalga oshiriladi.

Mablag'larni bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan boshqasiga o'tkazishda g'aznachilik memorial orderlariga mablag'larni o'tkazishga asos bo'luvchi yuridik va moliyaviy majburiyatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi ilova qilinadi. G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan yoki hisobga olingan yuridik majburiyatlarda nazarda tutilgan, belgilangan tartibda har bir hisobvara-fakturadan chegirib qolinadigan, kafolat muddati tamom bo'lganidan so'ng to'lanadigan kafolat summasi to'g'risidagi ma'lumot "O'RMV" ATga kiritilmaydi. Kafolat muddati tugaganidan so'ng to'lanadigan obyekt qiymatidan 5 foiz kafolat summasini to'lash bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish yoki hisobga olish bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi hisobvara-faktura va kapital qo'yilma buyurtmachisi va tovarlar

¹⁴² "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrda 88-son buyrug'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №2580.

(ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchi (pudratchi) o'rtasida tuziladigan *solishtirish dalolatnomasi* asosida amalga oshiriladi.¹⁴³

G'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari kapital qo'yilma buyurtmachilarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida operatsiyalar amalga oshirilishi bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan ko'chirmalar beradi hamda ularni Shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan berilgan ko'chirmalarni ro'yxatdan o'tkazish jurnalida ro'yxatdan o'tkazadi. Shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan ko'chirma olishda kapital qo'yilma buyurtmachilarining mas'ul xodimlari jurnalga ko'chirmani olganligi to'g'risida tegishli belgi qo'yadi. Bunda g'aznachilik bo'linmalarida Shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan berilgan ko'chirmalarni ro'yxatdan o'tkazish jurnali har bir kapital qo'yilma buyurtmachisi bo'yicha alohida ochiladi va yuritiladi.

Kapital qo'yilma buyurtmachilari ko'chirmalarni «UzASBO» DMdan elektron tarzda olgan hollarda Shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan berilgan ko'chirmalarni ro'yxatdan o'tkazish jurnali yuritilmaydi.

13.4. IV guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish hamda xarajatlar to'lovi

Xarajatlar smetalarining IV guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlar buyurtmachilar tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarning (pudratchilarning) tovarlar yetkazib berilganligini (ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi *hisobvaraq-fakturalari asosida* qabul qilinadi. IV guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan hisobvaraq-fakturalar hamda moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida yuridik majburiyatlar va

¹⁴³ "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №2580.

xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnoma doirasida ro'yxatdan o'tkaziladi va hisobga olinadi.¹⁴⁴

Buyurtmachilar tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilardan (pudratchilardan) tovarlar yetkazib berilganligini (ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hisobvaraqq-fakturalar olganidan so'ng *besh ish kundan kechikmasdan* ularni ro'yxatdan o'tkazish yoki hisobga olish uchun ularni asli va nusxasini ikki asl nusxada Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtma bilan birga tegishli g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qilishi lozim.

Besh ish kundan kechikib taqdim qilingan hisobvaraqq-fakturalar buyurtmachilarning kechikish sababi ko'rsatilgan, buyurtmachining rahbari va bosh buxgalteri imzolagan yozma tushuntirishi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi yoki hisobga olinadi.

G'aznachilik bo'linmalari buyurtmachilar tomonidan taqdim qilingan Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtma va hisobvaraqq-fakturalar asosida ular taqdim qilinganidan keyingi kundan kechikmasdan moliyaviy majburiyatlarni:

- *byudjetdan ajratiladigan mablag'lar va BMJ mablag'lari bo'yicha* – mas'ul xodim tomonidan Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmaning ikki asliga ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasini ko'rsatib "Ro'yxatdan o'tkazildi" shtampini va shaxsiy imzosini qo'yish, shuningdek g'aznachilik bo'linmasining vakolatli shaxsi tomonidan shaxsiy imzosini va "Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish" muhrini qo'yish yo'li bilan ro'yxatdan o'tkazadi;

- *vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari bo'yicha* – mas'ul xodim tomonidan Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga)

¹⁴⁴ "(O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №2580.

buyurtmaning ikki asliga hisobga olish raqami va sanasini ko'rsatgan holda "Hisobga olindi" shtampini va shaxsiy imzosini qo'yish hamda vakolatli shaxs tomonidan shaxsiy imzosini qo'yish yo'li bilan hisobga oladi.

Ro'yxatdan o'tkazilgan yoki hisobga olingan Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmaning bir asli va tovarlar yetkazib berilganligini (ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hisobvara-q-fakturalarning asli buyurtmachilarga qaytariladi, Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmaning ikkinchi asli va tovarlar yetkazib berilganligini (ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hisobvara-q-fakturalarning nusxasi g'aznachilik bo'linmalarida saqlash uchun qoladi. Buyurtmachilarning "UzASBO" DM orqali elektron shaklda g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari g'aznachilik bo'linmalari tomonidan bir ish kuni ichida mas'ul xodimning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan holda "O'RMV" ATda elektron tarzda ro'yxatdan o'tkaziladi yoki hisobga olinadi, kamchiliklar aniqlanganida esa tegishli kamchiliklari ko'rsatilgan holda elektron tarzda buyurtmachilarga qaytariladi.

Buyurtmachilarning xarajatlar to'lovi quyidagi talablarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

a) to'lov hujjatida shaxsiy g'azna hisobvarag'i raqami, kapital qo'yilma buyurtmachisining nomi va STIRi, byudjet tasnifining tegishli kodlari, yuridik majburiyat yuzaga kelishiga asos bo'lgan hujjat va hisobvara-q-faktura raqami va sanasi, avans (to'lov) miqdori va to'lov maqsadi to'g'ri ko'rsatilganida;

b) buyurtmachilarning xarajatlar smetasining IV guruhi tegishli moddalari bo'yicha rejali mablag'lar, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari qoldiqlari summalari doirasida;

d) agar to'lov topshiriqnomasida yoki g'azna memorial orderida ko'rsatilgan summa g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilgan

yoki hisobga olingan yuridik majburiyatga asosan oldin o'tkazilgan mablag'larni hisobga olgan holda to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'laridan oshmasa;

e) hisobvara-qfakturalar, buyurtmachining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) oldidagi qarzdorligini tasdiqlovchi solishtirish dalolatnomasi, shuningdek avans to'lovlarini o'tkazishi lozimligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda;

f) to'lov topshiriqnomasida yoki g'azna memorial orderida tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchining (pudratchining) nomi va rekvizitlari yuridik va moliyaviy majburiyatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchining (pudratchining) nomi va rekvizitlariga muvofiq bo'lganida.

To'lov topshiriqnomalari g'aznachilik bo'linmalariga IV guruh xarajatlari bo'yicha uch nusxada taqdim qilinadi:

- Buyurtmachilarning tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan to'lov topshiriqnomalarining *birinchi nusxasi*, buyurtmachilarning g'aznachilik bo'linmalariga shaxsiy g'azna hisobvarag'i bo'yicha kassa xarajatlarini amalga oshirish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi;

- To'lov topshiriqnomalarining *ikkinchi nusxasi* g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli va mas'ul shaxslari tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmalarining muhr izi bilan tasdiqlanadi va YaG'Hdan xarajatlar to'lovini amalga oshirish uchun asos bo'ladi;

- G'aznachilik bo'linmalarining "TO'LANDI" belgisi bilan va to'langan sana qo'yilgan to'lov topshiriqnomalarining *uchinchi nusxasi* shaxsiy g'azna hisobvarag'idan ko'chirma bilan birga buyurtmachilarning mas'ul xodimlariga qaytariladi.

Bunda to'lov topshiriqnomalarining:

"Mablag'larni to'lovchining nomi" ustunida - g'aznachilik bo'linmasining nomi,

"Mablag'larni to'lovchining hisobvarag'i" ustunida – YaG'H,

“To‘lov maqsadi” ustunida – buyurtmachining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i raqami, STIRi va nomi, byudjet tasnifining tegishli kodlari, to‘lovni o‘tkazishga asos bo‘ladigan yuridik va moliyaviy majburiyat yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek to‘lov maqsadi ko‘rsatiladi.

Buyurtmachilar tomonidan taqdim qilingan to‘lov topshiriqnomalari mazkur Qoidalar talablariga muvofiq bo‘lganda, g‘aznachilik bo‘linmalarining mas‘ul xodimlari to‘lov topshiriqnomalarining ikkinchi nusxasiga “*TEKSHIRILDI*” belgisini, to‘lov topshiriqnomalari qabul qilingan sanani va o‘zining imzosini qo‘yadi. To‘lov topshiriqnomalar mazkur Qoidalar talablariga nomuvofiq bo‘lgan hollarda g‘aznachilik bo‘linmalarining mas‘ul xodimlari to‘lov topshiriqnomalarining orqa tomonida qaytarish sabablarini ko‘rsatgan holda ularni buyurtmachilarning mas‘ul xodimlariga qaytaradilar. To‘lov topshiriqnomalarining ikkinchi nusxasini g‘aznachilik bo‘linmalarining vakolatli va mas‘ul shaxslari imzolari va g‘aznachilik bo‘linmalarining muhr izi bilan rasmiylashtirish tekshiruvlar tugaganidan so‘ng amalga oshiriladi.

Bir shaxsiy g‘azna hisobvarag‘idan boshqa shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga mablag‘lar o‘tkazish uchun buyurtmachilar tomonidan g‘aznachilik bo‘linmalariga *uch nusxada* g‘aznachilik memorial orderlari taqdim qilinadi va bu nusxalar tegishli ravishda taqsimlanadi, ya‘ni, bir nusxasi - *g‘aznachilik bo‘linmalariga* buyurtmachilarning g‘aznachilik bo‘linmalariga shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i bo‘yicha kassa xarajatlarini amalga oshirish uchun topshirig‘i bo‘lib xizmat qiladi, ikkinchi nusxasi g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan rasmiylashtirilib *buyurtmachilarning shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan mablag‘larni o‘tkazish uchun asos* bo‘ladi, g‘aznachilik bo‘linmalarining “TO‘LANDI” belgisi bilan va to‘langan sana qo‘yilgan g‘aznachilik memorial orderlarining uchinchi nusxasi - *shaxsiy g‘azna hisobvaraqlardan ko‘chirma bilan birgalikda buyurtmachilarning mas‘ul xodimlariga qaytariladi.*

Bunda g'aznachilik memorial orderlarining «To'lov maqsadi» ustunida To'lov turlari bo'yicha ma'lumotnomaga asosan tegishli to'lov kodi, buyurtmachilarning shaxsiy g'azna hisobvarag'i raqami, STIRi va nomi, byudjet tasnifining tegishli kodlari, to'lovni o'tkazishga asos bo'ladigan hujjat, shuningdek to'lov maqsadi ko'rsatiladi.

Buyurtmachilar tomonidan taqdim qilingan g'aznachilik memorial orderlari mazkur Qoidalar talablariga muvofiq bo'lganda g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari g'aznachilik memorial orderlarining ikkinchi nusxasiga "TEKSHIRILDI" belgisini, g'aznachilik memorial orderi qabul qilingan sanani va o'zining imzosini qo'yadi. G'aznachilik memorial orderlari mazkur Qoidalar talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda g'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari g'aznachilik memorial orderlarining orqa tomonida qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda uni buyurtmachilarning mas'ul xodimlariga qaytaradi. G'aznachilik memorial orderlarining ikkinchi nusxasini g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli va mas'ul shaxslarining imzolari va g'aznachilik bo'linmalarining muhr izi bilan rasmiylashtirish tekshiruvlar tugaganidan so'ng amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida chorak (yil) oxirida qolgan, iqtisod qilingan byudjet mablag'lari (kapital qo'yilmalar bo'yicha to'lovlar uchun nazarda tutilgan mablag'lardan tashqari) Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi va Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi va sarflanadi. Yil oxirida shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda qolgan iqtisod qilingan byudjet mablag'larini Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi va Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilishi moliya yiliga qo'shimcha davr mobaynida amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetasining tegishli moddasida nazarda tutilgan rejali ajratilgan byudjet mablag'lari belgilangan muddatlarda Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasiga shartnomalar tuzilmasdan Yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan

o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtma va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan g'aznachilik memorial orderi asosida o'tkaziladi.

G'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari buyurtmachilarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida operatsiyalar amalga oshirilishi bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan ko'chirmalar beradi hamda ularni Shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan berilgan ko'chirmalarni ro'yxatdan o'tkazish jurnalida ro'yxatdan o'tkazadi. Buyurtmachilar ko'chirmalarni "UzASBO" DMdan elektron tarzda olgan hollarda Shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan berilgan ko'chirmalarni ro'yxatdan o'tkazish jurnali yuritilmaydi.

Byudjet tashkilotlarining moliyaviy majburiyatlari bo'yicha undiruvni nazarda tutuvchi ijro hujjatlarini ijro etish sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, ushbu moddada belgilangan o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda sud ijrochilari tomonidan amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlaridan ijro yig'imi undirilishiga yo'l qo'yilmaydi.¹⁴⁵

Byudjet tashkilotlarining moliyaviy majburiyatlari bo'yicha undiruvni nazarda tutuvchi ijro hujjatlarini ijro etish:

– birinchi navbatda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari hisobidan;

– to'lanishi lozim bo'lgan qarz byudjet tashkilotining xarajatlar smetasi bo'yicha xarajatlar moddasiga muvofiq bo'lganda – byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmi doirasida amalga oshiriladi.

Takrorlash uchun savollar

1. G'aznachilikda moliyaviy majburiyat tushunchasi nimani anglatadi?

2. G'aznachilikda moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish tartibi qanday?

3. Nima uchun moliyaviy majburiyatlarni G'aznachilikda majburiy tarzda ro'yxatga olish tartibi joriy etilgan?

¹⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 129-moddasi asosida.

4. Moliyaviy majburiyat tushunchasi bo'yicha qanday ta'riflar keltirilgan?

5. 1-guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlar shakllanishining asosi qaysi hujjatlar?

6. 3 va 4 guruh xarajatlari shakllanishi uchun nimalar asos bo'ladi?

7. To'lov topshiriqnomasi qanday hujjat va qay tartibda rasmiylashtiriladi?

8. G'aznachilik memorial orderlari qanday rasmiylashtiriladi va taqsimlanadi?

9. Cheklar nima va qanday tartibda rasmiylashtiriladi?

10. Ishonchnoma qanday rasmiylashtiriladi?

11. Plastik kartochkalar bo'yicha to'lovlar qanday amalga oshiriladi?

12. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish tartibini aytib bering.

13. G'aznachilikda byudjetdan mablag' oluvchilarning naqd pullarni olish tartib-qoidalari qanday, ular iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida o'rnatilgan tartiblardan qanday farq qiladi?

14. To'lovlarni amalga oshirish uchun to'lov topshiriqnomalari qanday hollarda necha nusxada taqdim etiladi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. G'aznachilikda moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha taqdimot tayyorlang.

2. G'aznachilikda yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha amaliy ish o'yini stsenariysini ishlab chiqing va amaliy mashg'ulot davomida uni amalga oshiring.

14-MAVZU. BYUDJET TASHKILOTLARI BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARI G'AZNA IJROSINI TASHKIL ETISH

14.1. Byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining shakllanishi va guruhlanishi

14.2. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha g'azna ijrosini tashkil etish

14.1. Byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining shakllanishi va guruhlanishi

Byudjet tashkilotlari byudjet mablag'lari doirasida faoliyat yuritish bilan bir qatorda, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi bilan belgilab qo'yilishicha, *byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari* qonun hujjatlarida nazarda tutilgan manbalardan byudjet tashkiloti tasarrufiga kelib tushadigan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.¹⁴⁶


Byudjet Kodeksining 60-moddasiga muvofiq, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari qo'shimcha daromadlari "Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi" deb nomlangan jamg'armada jamlanadi. Bu jamg'armani shakllantirish quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi (14.1-rasm):

– hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar, bundan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar mustasno;

– faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

¹⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 3-modda.

- byudjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag‘larning bir qismi;
- belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag‘lar;
- homiylikdan olingan mablag‘lar.



14.1-rasm. Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larining shakllanish manbalari¹⁴⁷

Shuningdek, davlat tibbiyot muassasalarida ham byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan *Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi* shakllantiriladi. Ushbu jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari hamda ishlatish yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 de-

¹⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 11-bob, 60-moddasi asosida tayyorlandi.

kabrdagi “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 276-sonli qaroriga muvofiq belgilab berilgan. Byudjet Kodeksining 61- va 81-moddalarida ham Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasining shakllanish manbalari va ishlatish yo‘nalishlari aniqlashtirilgan (14.1-jadval).

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- tibbiyot tashkilotiga ajratiladigan byudjet mablag‘lari umumiy hajmining 5 foizigacha bo‘lgan miqdorda byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar;

- faoliyat ixtisosligi bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

- hisobot choragining so‘nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo‘yicha tejalgan mablag‘lar, bundan kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag‘lar mustasno;

- tibbiyot tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag‘larning bir qismi;

- belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag‘lar;

- homiylikdan olingan mablag‘lar.

Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi hamda Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari faqat:

- avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to‘lashga;

- byudjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga;

- ijtimoiy rivojlantirish va byudjet tashkilotlarining xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jam'armasini shakllantirish va uning mablag'larini sarflash¹⁴⁸

Tibbiyot muassasalari guruhlari	Jamg'armaning shakllanish manbalari	Jamg'arma mablag'larini sarflash yo'nalishlari	
		moddiy rag'batlantirish	moddiy-texnika bazani mustahkamlash
I guruh	<ul style="list-style-type: none"> - tibbiyot tashkilotiga ajratiladigan byudjet mablag'lari umumiy hajmining 5 foizigacha bo'lgan miqdorda byudjetdan ajratiladigan mablag'lar; - faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar; - hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajalar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar; - tibbiyot tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag'larning bir qismi; - belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar; - homiylikdan olingan mablag'lar 	25 %	75 %
II guruh		35 %	65 %
III guruh		40 %	60 %
IV guruh		50 %	50 %

¹⁴⁸ D.Po'latov, B.Nurmuxamedova, G'aznachilik. Darslik. 2014.

Byudjet tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar, muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarzi mavjud bo'lsa, Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari tejab qolingan byudjet mablag'lari doirasida ushbu qarzlarni to'lashga (ishlar, xizmatlar tovarlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar o'rni qoplangandan so'ng) sarflanadi.

Agar kreditorlik qarzi byudjet tashkilotining xarajatlari vaqtincha yetarli miqdorda mablag' bilan ta'minlanmaganligi munosabati bilan paydo bo'lgan taqdirda, kreditorlik qarzni Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi hisobiga to'langan miqdori joriy moliya yiliga belgilangan xarajatlar limiti doirasida byudjetdan qoplanadi.

Agar kreditorlik qarzi byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasiga ilovada nazarda tutilgan tegishli xarajatlar to'lanmaganligi va (yoki) xarajatlarning har qaysi guruhi bo'yicha belgilangan limitlarning oshib ketganligi munosabati bilan paydo bo'lgan bo'lsa, to'liq hajmda byudjetdan mablag' bilan ta'minlangan taqdirda, Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari (ishlar, xizmatlar, tovarlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar o'rni to'ldirilgandan so'ng) avvalo xarajatlarning to'lanmagan qismi va belgilangan limitlarning ortib ketgan miqdori doirasida kreditorlik qarzlarni uzishga yo'naltiriladi.


Byudjet tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar va kreditorlik qarzi mavjud bo'lmasa yoxud ushbu qarzlarni belgilangan doirada va shartlarda to'langan taqdirda Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasining qolgan mablag'lari (homiyluk yordami, beg'araz yordam miqdori bundan mustasno):

– tushgan barcha mablag'larning kamida 75 foizi tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlarning o'rni to'ldirishga va moddiy-texnika bazani mustahkamlashga;

– tushgan barcha mablag'larning ko'pi bilan 25 foizi byudjet tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlan-tirish jamg'armasi mablag'lari 14.1-jadvalda ko'rsatilgan nisbat-larda quyidagi yo'nalishlarda sarflanadi:

- xodimlarni moddiy rag'batlantirishga;
- moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, muassasani moderni-zatsiya qilish va ta'mirlash, shuningdek kreditorlik qarzlarni to'lashga.



14.2-rasm. Byudjet tashkilotlarini rivojlan-tirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotiga ko'rsatilgan homiylik (beg'araz) yordamidan olingan mablag'larning barcha summasi, agar homiy bilan maxsus o'zgacha hol kelishilmagan bo'lsa, to'lig'icha moddiy-texnika bazani mustahkamlashga sarflanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, byudjet tashkilotlarini byudjetdan tashqari mablag' topishga undash va yaxshi ish natijalarini rag'batlantirish maqsadida tegishli qarorlar asosida (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qarori bilan belgilangan) yuzasidan barcha soliqlar va yig'imlardan, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlarni to'lashdan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi bilan shuningdek *vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlarini* shakllantirish manbalari belgilab qo'yilgan bo'lib, ular belgilangan tartibda davlat bojlari, yig'imlar va soliq bo'lmagan to'lovlar, ma'muriy jarimalar hamda moliyaviy sanksiyalardan ajratmalar hisobidan shakllantiriladi. Jamg'arma mablag'laridan moddiy-texnika bazani mustahkamlash, xodimlarni moddiy rag'batlantirish, boshqa xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan alohida tartibda belgilanadi.

Bundan tashqari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari rasman o'rnatilgan *undiriladigan to'lovlar* hisobidan ham shakllanadi. Ularning tarkibi Byudjet Kodeksining 63-moddasi bilan belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, byudjet tashkilotlari tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:

– o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarining kuni uzaytirilgan guruhlarida, maktab-internatlarda, olimpiya zaxiralari kollejlari va boshqa ta'lim muassasalarida saqlab turilganligi uchun;

– o'quvchilar bolalar musiqa va san'at maktablari hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim olganligi uchun;

– oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olganlik uchun;

– stasionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotganlar tarkibi ovqatlanishi uchun;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi undiriladigan to'lovlar.

Undiriladigan to'lovlarning miqdorlari, ularni kiritish va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek undiriladigan to'lovlar bo'yicha imtiyozlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarga ega bo'lgan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini har yili tuzadi va tasdiqlaydi. Bunda, byudjetdan tashqari mablag'lar tushumlari va xarajatlarini rejalashtirish byudjet tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan daromadlar manbai va xarajatlar yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlari quyidagi byudjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha smetalar tuzadilar:

- Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi;
- Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;
- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari;
- byudjet tashkilotlariga undiriladigan to'lovlar hisobidan shakllantiriladigan byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarining kuni uzaytirilgan guruhlarida, maktab-internatlarda, olimpiya zaxiralari kollejlari va boshqa ta'lim muassasalarida saqlab turilganligi uchun, o'quvchilar bolalar musiqa va san'at maktablari hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim olganligi uchun, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olganlik uchun, statsionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotganlar tarkibi ovqatlanishi uchun hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi to'lovlar.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni saqlab turilganligi uchun undiriladigan to'lovlar hisobidan shakllantiriladigan, shuningdek tibbiyot muassasalarida statsionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotganlar tarkibi ovqatlanishi uchun undiriladigan to'lovlar hisobidan shakllantiriladigan byudjetdan

tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tuzilmaydi. Bu mablag'lar mazkur muassasalarning xarajatlar smetasida hisobga olinadi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish hamda tasdiqlash byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari uchun belgilangan tartibga o'xshash tartibda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasida tushumlar manbaini ko'rsatgan holda byudjetdan tashqari mablag'lar tushumlarining hajmi va mazkur mablag'lardan foydalanish yo'nalishlari qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasining daromad qismi moliya yili boshidagi mablag'lar qoldig'i hamda daromadlarning manbalar kesimidagi bashoratidan tashkil topadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan xodimlar soni saqlab turilgan taqdirda, byudjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasida ko'rsatilgan xodimlar soni bo'yicha shtat jadvali ilova qilinadi. Bunda, mazkur shtat jadvali byudjet tashkilotining shtat jadvaliga o'xshash holda tuziladi hamda tegishli byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan yoki moliya organida mazkur Nizomga muvofiq muddatlarda va tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari tegishli byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan yoki moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi va Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bundan mustasno.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tasdiqlash, ro'yhatga olish tartibi byudjet

mablagʻlari boʻyicha xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash va roʻyhatdan oʻtkazish tartibi kabi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

14.2. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablagʻlari boʻyicha gʻazna ijrosini tashkil etish

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrda PQ-1275-sonli qarorining 25-bandiga muvofiq, 2010 yildan boshlab vazirlik va idoralarning, byudjet tashkilotlarining barcha byudjetdan tashqari jamgʻarmalari mablagʻlarini davlat byudjetining gʻazna ijrosi mexanizmi bilan qamrab olish amalga oshirilmoqda. Bunda, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablagʻlari boʻyicha bank hisobvaraqlari yopilib, Gʻaznachilikda tegishli shaxsiy hisobvaraqlar ochildi.

Byudjet tashkilotlarining davlat byudjetining gʻazna ijrosi bilan qamrab olingan byudjetdan tashqari mablagʻlari quyidagilardan iborat:

- Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamgʻarmasi;
- Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasining ijtimoiy nafaqalarni toʻlash uchun mablagʻlari;
- Tibbiyot muassasalarini moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmasi;
- oʻtgan yillar debitorlik qarzlarning tushgan summasi;
- maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalar taʼminoti uchun ota-onalardan tushumlar;
- maktabdan tashqari muassasalarda (musiqa va sanʼat maktablari) bolalar taʼminoti uchun ota-onalardan tushumlar;
- xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanligi boʻyicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar;
- maktab-internatlar va litseylarda bolalarning taʼminoti uchun ota-onalardan tushumlar;
- taʼlim muassasalarida oʻqishdan tushadigan mablagʻlar;

- vazirlik va idoralarning ajratmalar hisobiga shakllanadigan byudjetdan tashqari jamg'armalari;
- umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan byudjetdan tashqari mablag'lar;
- kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar;
- turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to'lovlar;
- taqsimlanishi nazarda tutilgan tushumlar;
- boshqa ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'lovi;
- boshqa mablag'lar bo'yicha depozitlar;
- byudjet tashkilotlarining boshqa byudjetdan tashqari mablag'lari.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016 yil 22 noyabr-dagi 88-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda 2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi Qoidalari"i asosida byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarning qabul qilinishi, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'larning kassa xarajatlari kelib tushgan byudjetdan tashqari mablag'lar doirasida amalga oshiriladi va byudjet mablag'lari kabi bir xil tartibda rasmiylashtiriladi. Yuqorida tarkibi keltirilgan byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar g'azna ijrosini G'aznachilikda tashkil qilishning o'ziga xos jihatlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi. Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobi tegishli moliya organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaning 1-

ilovasiga) muvofiq ochiladigan 4001 - mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida yuritiladi.

Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari hamda ishlatish yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qaroriga muvofiq belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014 yil 15 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2634 -"Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq, byudjet tashkilotlari Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha daromad va xarajatlar smetalarini tuzadilar.

Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan yuridik majburiyatlarni qabul qilish cheklanmaydi, moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish esa ilgari qabul qilingan yuridik majburiyatlar summalari doirasida amalga oshiriladi.

Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan xarajatlar qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlar hamda tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'idagi mablag'lar qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi. Byudjet tashkiloti tomonidan faoliyati turiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish amaldagi tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, pulli asosda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish asosan byudjet tashkilotining shtatdagi xodimlari tomonidan ish jadvali va hajmlari, mehnatga haq to'lash shakllari va hajmlari va boshqa zarur shartlarni ko'rsatgan holda mehnat shartnomasiga qo'shimcha ko'rinishda tegishli rasmiylashtirish bilan amalga oshiriladi, shuningdek muddatli mehnat shartnomalari asosida qo'shimcha xodimlarni jalb etishga ruxsat beriladi.

Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va

to'lovlarni amalga oshirish "Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi Qoidalari"¹⁴⁹ga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, byudjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan o'rnatilgan tartibda tuzilgan shartnomalari, g'aznachilik bo'linmasining mas'ul xodimi tomonidan shartnomaning birinchi va ikkinchi asl nusxalari va ko'chirma nusxasining barcha varaqlariga "Shartnoma bo'yicha to'lovlar shaxsiy g'azna hisobvarag'idagi qoldiq doirasida amalga oshiriladi" degan izoh bilan unga biriktirilgan "Hisobga olindi" shtampini qo'yish, imzolash va "G'aznachilik" dasturiy majmuasiga kiritish va hisobga olingan raqam va sanasi ko'rsatilib, ularni g'aznachilik bo'linmasining vakolatli shaxsi imzosi bilan tasdiqlash orqali hisobga olinadi.

Yetkazib berilgan tovar (ish, xizmat)lar uchun to'lovlar mahsulot yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (hisobvara-q-faktura) asosida, ro'yxatga olingan yuridik majburiyatlar va mazkur shaxsiy g'azna hisobvarag'idagi mavjud qoldiqlar doirasida amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarni (unga qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan) to'g'ri rasmiylashtirish, shartnoma bilan birga G'aznachilik bo'linmasiga taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi bo'yicha javobgarlik byudjetdan mablag' oluvchilar (ya'ni byudjet tashkilotlari) zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun mablag'lari. O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun mablag'lari hisobi tegishli moliya organlari tomonidan

¹⁴⁹ 2016 yil 22 noyabrdagi 88-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda 2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi Qoidalari".

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaning 1-ilovasiga) muvofiq ochiladigan 4002-mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida yuritiladi. Bunda, byudjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlarga pensiya to'lovlarini to'lash uchun mablag'lar byudjet tashkilotlari uchun ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'ar-masidan uning hududiy bo'linmalari orqali moliyalashtiriladi.

Ushbu shaxsiy g'azna hisobvarag'idan byudjet tashkilotida ishlovchi xodimlarning pensiya to'lovlari bo'yicha xarajatlar, byudjetdan mablag' oluvchilarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun naqd pul olishga so'rovnomasi, pensiya to'lovlarini naqd pulda olish uchun mablag'larni G'aznachilikning bankdagi 23212, 23214 balans raqamli hisobvaraqlariga o'tkazish to'g'risidagi to'lov topshiriqnomalari, ushbu hisobraqamga o'tkazilgan mablag'lar doirasida yozilgan cheklar yoki ishlovchi pensionerlarning roziligi asosida ularning pensiyalarini plastik kartochkalarga o'tkazish bo'yicha to'lov topshiriqnomalari asosida, shaxsiy g'azna hisobvarag'ida mavjud qoldiqlar doirasida amalga oshiriladi. Bunda, ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqdan xarajatlarni amalga oshirish xarajatlar smetalarisiz ushbu shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

Ushbu shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lardan maqsadli foydalanish bo'yicha javobgarlik byudjetdan mablag' oluvchilarning rahbarlari va bosh hisobchilariga yuklatiladi.

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi. Tibbiyot muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobi tegishli moliya organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini

qo'llash bo'yicha yo'riqnomaning 1-ilovasiga) muvofiq ochiladigan 4003–mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda yuritiladi. Bunda, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari uchun alohida shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochiladi.

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan ham yuridik majburiyatlarni qabul qilish cheklanmaydi, moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish esa ilgari qabul qilingan yuridik majburiyatlar summolari doirasida amalga oshiriladi.

Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan xarajatlar qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlar hamda tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'idagi mablag'lar qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi. Pulli davolash va xizmat ko'rsatish hisobiga tushadigan mablag'lar esa Byudjet tasnifining mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi bo'yicha 4014 - "Taqsimlanishi ko'zda tutilgan tushumlar" kodi bilan ochiladigan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga kiritiladi. Mazkur shaxsiy hisobvaraqdan belgilangan tartibda davolash va xizmatlar ko'rsatishning tannarxi qoplangandan so'ng mablag'larning qolgan qismi mos ravishda xodimlarni moddiy rag'batlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga alohida o'rnatilgan foizlar bo'yicha yo'naltiriladi. Bunda, tibbiyot muassasasi uchun ajratiladigan umumiy byudjet mablag'larining 5 foizigacha qismi hamda pulli davolash va xizmatlar ko'rsatishdan tushgan tushumning davolash va xizmatlar ko'rsatishning tannarxi qoplangandan so'ng qolgan qismini moddiy rag'batlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash jamg'armasiga o'tkazish, tibbiyot muassasalarining g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qilgan yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish uchun so'rovnomalar va o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan g'azna memorial orderlari asosida G'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha yuridik va moliyaviy

majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlar "Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi Qoidalari"¹⁵⁰ga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, byudjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan o'rnatilgan tartibda tuzilgan shartnomalari, G'aznachilik bo'linmasining mas'ul xodimi tomonidan shartnomaning birinchi va ikkinchi asl nusxalari va ko'chirma nusxasining barcha varaqlariga "Shartnoma bo'yicha to'lovlar shaxsiy g'azna hisobvarag'idagi qoldiq doirasida amalga oshiriladi" degan izoh bilan unga birlashtirilgan "Hisobga olindi" shtampini qo'yish, imzolash va "G'aznachilik" dasturiy majmuiga kiritish va hisobga olingan raqam va sanasi ko'rsatilib, ularni G'aznachilik bo'linmasining vakolatli shaxsi imzosi bilan tasdiqlash orqali hisobga olinadi. Yetkazib berilgan tovar(ish, xizmat)lar uchun to'lovlar mahsulot yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (hisobvaraqa-faktura) asosida, ro'yxatga olingan yuridik majburiyatlar va mazkur shaxsiy g'azna hisobvarag'idagi mavjud qoldiqlar doirasida amalga oshiriladi.

Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarini (unga qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan) to'g'ri rasmiylashtirish, shartnoma bilan birga G'aznachilik bo'linmasiga taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi bo'yicha javobgarlik byudjetdan mablag' oluvchilar zimmasiga yuklatiladi.

O'tgan yillar debitorlik qarzlarning tushgan summasi. Byudjetdan mablag' oluvchilarning o'tgan yillardagi debitorlik qarzlarning qaytarilgan summalaridan tushumlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari hisobi tegishli moliya organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga muvofiq ochiladigan 4004-mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda yuritiladi. Byudjetdan mablag' oluvchilarning

¹⁵⁰ 2016 yil 22 noyabrdagi 88-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda 2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi Qoidalari".

byudjet mablag‘lari hisobidan paydo bo‘lgan o‘tgan yillardagi debitorlik qarzlarning qaytarilgan summalari 4004–mablag‘ manbali shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarga kirim qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli qaroriga muvofiq, tegishli byudjetlar daromadlariga o‘tkaziladi. Bunda, mablag‘larning tegishli byudjetlarga o‘tkazilishi g‘aznachilik tomonidan byudjetdan mablag‘ oluvchilarning o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan to‘lov hujjatlari asosida amalga oshiriladi. O‘tgan yillardagi debitorlik qarzlarning qaytarilgan summalarining tegishli byudjetlarga o‘tkazilishi tartibiga va muddatlarga amal qilinishi bo‘yicha javobgarlik byudjet tashkilotlari rahbarlari va bosh hisobchilariga yuklatiladi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalar ta‘minoti uchun ota-onalardan tushumlar. Byudjetdan mablag‘ oluvchilarning maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalar ta‘minoti uchun ota-onalardan tushumlar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari hisobi tegishli moliya organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag‘lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaning 1-ilovasiga) muvofiq ochiladigan 4005–mablag‘ manbali shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarda yuritiladi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalar ta‘minoti uchun ota-onalardan tushumlar shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan mablag‘larning sarflanishi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 23 fevralda 2821-son bilan ro‘yxatga olingan “Maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari va maktab-internatlardagi bolalar ta‘minotiga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida” Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarida bolalar (tarbiyalanuvchilar) ta‘minoti uchun to‘lovlar qonun hujjatlarida belgilanadigan miqdorlarda undiriladi.

Byudjet tashkilotlarida bolalar ta‘minoti uchun to‘lovlar ularning ota-onalari yoki ona-onalarning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan naqd pul orqali yoki pul ko‘chirish orqali o‘zlarining ish haqlari

hisobidan yoki bank plastik kartochkalari orqali amalga oshirishlari mumkin. Bunda, to'lov hujjatlarining to'lov maqsadida maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab-internatning tegishli 4005 – mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvarag'i, tashkilot nomi, to'lov qaysi oy uchun va kim uchun amalga oshirilayotganligi ko'rsatilishi shart. Bolalar ta'minoti uchun noto'g'ri yoki ortiqcha kelib tushgan mablag'larni G'aznachilik bo'linmalari tomonidan qaytarish byudjet tashkilotlarining yozma murojaatlariga va o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan to'lov hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarida bolalar va tarbiyalanuvchilar ta'minoti uchun to'lanadigan mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tuziladi va "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom" (ro'yxat raqami № 2634, 2014 yil 15dekabr) talablari asosida tegishli moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun otanalardan tushumlar shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish "Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi Qoidalari"ga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, byudjet tashkilotlarining oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha yetkazib beruvchilar bilan o'rnatilgan tartibda tuzilgan shartnomalari, moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi doirasida G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olinadi.

Yetkazib berilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun to'lovlar mahsulot yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (hisobvaraqq-faktura) asosida xarajatlar smetasidagi mablag'lar, ro'yxatga olingan yuridik majburiyatlar va tegishli 4005–mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvarag'idagi mavjud mablag'lar qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalari (unga qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan) to'g'ri rasmiylashtirilishi, shartnoma bilan birga G'aznachilik bo'linmasiga taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi bo'yicha javobgarlik byudjetdan mablag' oluvchilar zimmasiga yuklatiladi.

Maktabdan tashqari muassasalarda (musiqa va san'at maktablari) bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar. Byudjetdan mablag' oluvchilarning maktabdan tashqari muassasalarda bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar (musiqa va san'at maktablari) bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari hisobi tegishli moliya organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaning 1-ilovasiga) muvofiq ochiladigan 4006-mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda yuritiladi.

Maktabdan tashqari muassasalarda bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar (musiqa va san'at maktablari) bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan mablag'lar xarajati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 5 fevralda 1898-son bilan ro'yxatga olingan "Ota-onalar tomonidan bolalarning musiqa va san'at maktablarida o'qishi uchun haq to'lash va undan foydalanish tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi. Jumladan, mablag'larning:

- 50 foizi - maktabning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga;

- 40 foizi - maktab pedagog xodimlarining umumiy soni ko'rsatkichining 50 foizidan oshmagan o'qituvchi va konsertmeysterlarga har oylik bazaviy tarif stavkasining 40 foizigacha moddiy rag'batlantirishga;

– 10 foizi - xalqaro va respublika, viloyat, tuman (shahar) ko‘riktanlovlari, festivallar, ko‘rgazmalardagi yutuqlari uchun rag‘batlantirishga, shuningdek o‘quvchilarning teatr, konsert, muzeylarga tashrifi hamda madaniy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishga yo‘naltiriladi.

Musiq va san‘at maktablarida o‘qish uchun to‘lanadigan to‘lovlar qonun hujjatlarida belgilanadigan miqdorlarda undiriladi.

Musiq va san‘at maktablarida bolalarning ta‘lim olishlari uchun to‘lovlar ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar va maktab ma‘muriyati tomonidan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bunda, to‘lov hujjatlarining to‘lov maqsadida maktabdan tashqari musiq va san‘at maktabining tegishli 4006 - shaxsiy hisobvarag‘i, tashkilot nomi, to‘lov qaysi oy uchun va kim uchun amalga oshirilayotganligi ko‘rsatilishi shart.

Maktabdan tashqari muassasalarda (musiq va san‘at maktablari) bolalar ta‘minoti uchun ota-onalardan noto‘g‘ri yoki ortiqcha kelib tushgan mablag‘larni G‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan qaytarish byudjet tashkilotlarining yozma murojaatlariga va o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan to‘lov hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Maktabdan tashqari muassasalarda bolalar ta‘minoti uchun ota-onalardan to‘lanadigan mablag‘lar bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tuziladi va “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” (ro‘yxat raqami № 2634, 2014 yil 15dekabr) talablari asosida tegishli moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Maktabdan tashqari muassasalarda bolalar ta‘minoti uchun ota-onalardan to‘lanadigan mablag‘lar shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish va to‘lovlarni amalga oshirish “Byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosi qoidalari”ga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, byudjet tashkilotlarining oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo‘yicha yetkazib beruvchilar bilan o‘rnatilgan tartibda tuzilgan shartnomalari, moliya organlarida

ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi doirasida G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olinadi.

Yetkazib berilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun to'lovlar mahsulot yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (hisobvaraqa-faktura) asosida xarajatlar smetasidagi mablag'lar, ro'yxatga olingan yuridik majburiyatlar va tegishli 4006–mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvarag'idagi mavjud mablag'lar qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi.

Maktabdan tashqari muassasalarda bolalar ta'minoti uchun otanalardan tushumlar hisobidan tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar (unga qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan) to'g'ri rasmiylashtirilishi, shartnoma bilan birga g'aznachilik bo'linmasiga taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi bo'yicha javobgarlik byudjetdan mablag' oluvchilar zimmasiga yuklatiladi.

Xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlaniganligi bo'yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari hisobi tegishli moliya organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (2146-son yo'riqnomaning 1-ilovasiga) muvofiq ochiladigan 4007 – mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda yuritiladi. Ushbu byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tuzilmaydi.

Xodimlarning ovqatlaniganligi uchun to'lovlar xodimlarning ish haqidan undirilgan holda mablag'larni bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan ikkinchi shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazish bilan yoki xodimlarning o'zlari tomonidan bank muassasalari orqali naqd pulda yoki plastik kartochkalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xodimlarning ovqatlaniganligi uchun noto'g'ri yoki ortiqcha kelib tushgan mablag'larni G'aznachilik bo'linmalari tomonidan qaytarish byudjet tashkilotlarining yozma murojaatlariga va o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan to'lov hujjatlariga asosan amalga oshiriladi. Xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlaniganligi bo'yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar byudjetdan mablag' oluvchilar

tomonidan maqsadli ravishda xodimlarni ovqatlantirish uchun yo'naltiriladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish "Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi qoidalari"ga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, byudjet tashkilotlarining oziq-ovqat mahsulotlarini harid qilish bo'yicha yetkazib beruvchilar bilan o'rnatilgan tartibda tuzilgan shartnomalari, G'aznachilik bo'linmasining mas'ul xodimi tomonidan shartnomalar "UZASBO" tizimi orqali qabul qilingandan so'ng "Shartnoma bo'yicha to'lovlar shaxsiy g'azna hisobvarag'idagi qoldiq doirasida amalga oshiriladi" degan izoh bilan unga birlashtirilgan "Hisobga olindi" shtampini qo'yish, imzolash va O'RMV ATga kiritish va hisobga olingan raqam va sanasi ko'rsatilib, ularni g'aznachilik bo'linmasining vakolatli shaxsi imzosi bilan tasdiqlash orqali hisobga olinadi. Yetkazib berilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun to'lovlar mahsulot yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (hisobvaraqa-faktura) asosida, ro'yxatga olingan yuridik majburiyatlar va tegishli 4007 – mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvarag'idagi mavjud qoldiqlar doirasida amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanish bo'yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar shaxsiy g'azna hisobvarag'i hisobidan tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar (unga qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan) to'g'ri rasmiylashtirilishi, shartnoma bilan birga g'aznachilik bo'linmasiga taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi bo'yicha javobgarlik byudjetdan mablag' oluvchilar zimmasiga yuklatiladi.

Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari hisobi tegishli moliya organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (2146-son bilan ro'yxatga olingan yo'riqnomaning 1-ilovasiga)

muvofig ochildigan 4008 – mablag‘ manbali shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarda yuritiladi.

Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta‘minoti uchun ota-onalardan to‘lovlar qonun hujjatlarida belgilanadigan miqdorlarda undiriladi. Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta‘minoti uchun ota-onalardan to‘lovlar ularning ota-onalari yoki ona-onalarning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan naqd pul orqali yoki pul ko‘chirish orqali o‘zlarining ish haqlari hisobidan yoki bank plastik kartochkalari orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda, to‘lov hujjatlarining to‘lov maqsadida byudjet tashkilotining tegishli 4008 - shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i, tashkilot nomi, to‘lov qaysi oy uchun va kim uchun amalga oshirilayotganligi ko‘rsatilishi shart. Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta‘minoti uchun ota-onalardan noto‘g‘ri yoki ortiqcha kelib tushgan mablag‘larni G‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan qaytarish byudjet tashkilotlarining yozma murojaatlariga va o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan to‘lov hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarida ota-onalar to‘lovlaridan tushgan mablag‘lar byudjetda nazarda tutilgan mablag‘lar bilan birga maqsadli ravishda xarajatlarni qisman qoplagan holda, bepul (imtiyozli) oziq-ovqat bilan ta‘minlash uchun yo‘naltiriladi. Byudjet tashkilotlarida ota-onalar to‘lovidan tushadigan mablag‘lar bo‘yicha Daromadlar va xarajatlar smetasi tuziladi va 2157 - “O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” talablari asosida tegishli moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta‘minoti uchun ota-onalardan to‘lanadigan mablag‘lar shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish va to‘lovlarni amalga oshirish “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi qoidalari”ga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, byudjet tashkilotlarining oziq-ovqat mahsulotlarini harid qilish bo‘yicha yetkazib beruvchilar bilan

oʻrnatilgan tartibda tuzilgan shartnomalari, moliya organlarida roʻyxatdan oʻtkazilgan xarajatlar smetasi doirasida Gʻaznachilik boʻlinmalarida roʻyxatga olinadi. Yetkazib berilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun toʻlovlar mahsulot yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (hisobvaraqa-faktura) asosida xarajatlar smetasidagi mablagʻlar, roʻyxatga olingan yuridik majburiyatlar va tegishli 4008–mablagʻ manbali shaxsiy gʻazna hisobvaragʻidagi mavjud mablagʻlar qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlarining Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning taʼmini uchun ota-onalardan tushumlar shaxsiy gʻazna hisobvaragʻidan tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar (unga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar bilan) toʻgʻri rasmiylashtirilishi, shartnoma bilan birga Gʻaznachilik boʻlinmasiga taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligi va ulardagi maʼlumotlarning toʻgʻriligi boʻyicha javobgarlik byudjetdan mablagʻ oluvchilar zimmasiga yuklatiladi.

Taʼlim muassasalarida oʻqishdan tushadigan mablagʻlar hisobi tegishli moliya organlari tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablagʻlar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (2146-son yoʻriqnomaning 1-ilovasiga) muvofiq ochiladigan 4009 – mablagʻ manbali shaxsiy gʻazna hisobvaraqlarda yuritiladi. Ushbu shaxsiy gʻazna hisobvaraqlaridan mablagʻlarni sarflash Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 26 fevralda 2431-son bilan roʻyxatga olingan “Oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida oʻqitishning toʻlov-kontrakt shakli va undan tushgan mablagʻlarni taqsimlash tartibi toʻgʻrisidagi Nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi. Oʻqitishning toʻlov-kontrakt shakli boʻyicha toʻlovlar qonunchilikda belgilangan miqdor va muddatlarda undiriladi. Oʻqitishning toʻlov-kontrakt shakli boʻyicha toʻlovlar ularning ota-onalari yoki ota-onalarning oʻrnini bosuvchi shaxslar tomonidan naqd pul orqali yoki pul koʻchirish orqali oʻzlarining ish haqlari hisobidan yoki bank plastik kartochkalari orqali va toʻlovni amalga oshiruvchi uchinchi (yuridik) shaxslar tomonidan pul koʻchirish yoʻli bilan amalga

oshirilishi mumkin. O'qitishning to'lov-kontrakt shakli bo'yicha noto'g'ri yoki ortiqcha kelib tushgan mablag'larni g'aznachilik bo'linmalari tomonidan qaytarish byudjet tashkilotlarining yozma murojaatlariga va o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan to'lov hujjatlariga asosan amalga oshiriladi. O'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushadigan mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tuziladi va 2634 - "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida tegishli moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

O'qitishning kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar oliy ta'lim muassasasi daromadiga kiritiladi hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasi asosida quyidagilarga sarflanadi:

- oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarishdan ajralgan holda kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalariga (xorijiy talabalardan tashqari) stipendiyalar to'lashga;

- oliy ta'lim muassasalari xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, shuningdek yagona ijtimoiy to'lovlar bo'yicha xarajatlarni to'lashga;

- oliy ta'lim muassasalarida bino va inshootlarni saqlash hamda kommunal xizmatlar bo'yicha xarajatlarni to'lashga;

- mavjud kreditor qarzlarni uzishga;

- o'quv-laboratoriya binolari, talabalar turar joylari hamda boshqa bino va inshootlarni, asbob-uskunalarni joriy va kapital ta'mirlashga, oliy ta'lim muassasasining hududini va atrofini obodonlashtirishga, shuningdek qurilish-tiklash ishlariga;

- o'quv, ilmiy-tadqiqot va laboratoriya jihozlari, yumshoq va qattiq inventarlar, mebellar, o'qitishning texnik vositalari, kompyuter texnikasi va ularning ehtiyot hamda butlovchi qismlarini, kerakli materiallarni va boshqalarni sotib olish hamda ta'mirlashga;

– oliy ta’lim muassasasi Axborot-resurs markazi (kutubxona) fondini to’ldirishga;

– “Ma’naviyat va ma’rifat” tadbirlari, “Universiada” va “Barkamol avlod” sport tadbirlari, “Nihol” ijodiy festivallarini o’tkazishga;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iste’dod” jamg‘armasi yo‘nalishi bo‘yicha xorijiy oliy o‘quv yurtlarida istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish va stajirovka o‘tashlariga;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumati qarorlari asosida vazirlik va idoralarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan tashqari jamg‘armalariga ajratmalarni amalga oshirishga;

– oliy ta’lim muassasalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirishga (ustama, mukofot) va ularga moddiy yordam ko‘rsatishga;

– oliy ta’lim muassasalari talabalarini ijtimoiy muhofaza qilish doirasida bir yilda bir talabaga eng kam ish haqining olti barobaridan ortiq bo‘lmagan miqdorda biryo‘la moddiy yordam ko‘rsatishga;

– oliy ta’lim muassasasi faoliyatini amalga oshirishni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan boshqa xarajatlarni qoplashga.

O‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli bo‘yicha to‘lovlar shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish va to‘lovlarni amalga oshirish “Byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosi qoidalari”ga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, byudjet tashkilotlarining yetkazib beruvchilar bilan o‘rnatilgan tartibda tuzilgan shartnomalari, moliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xarajatlar smetasi doirasida g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatga olinadi.

Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag‘larning bo‘sh qismini O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy barqaror va to‘lov qobiliyati yuqori bo‘lgan banklarining depozit hisobvaraqlariga tanlov asosida joylashtirishlari mumkin. Bunda pul mablag‘larini bank depozitlariga joylashtirish bo‘yicha shartnomalar quyidagi tartibda taqdim etiladi:

– to‘lovlar jadvali;

– taraflarning kamida birining yuridik xizmati yoki jalb qilingan advokatlari tomonidan imzolangan shartnomaning ikki asl va bir ko‘chirma nusxasi, agar shartnoma summasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 200 baravari miqdoridan oshmasa, u holda shartnomalarning ikki asl nusxasi tomonlardan birining yuridik xizmati yoki jalb qilingan advokat tomonidan imzolangan bo‘lishi lozim, agar shartnoma summasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 200 baravari miqdoridan oshsa, u holda yurist yoki jalb qilingan advokat tomonidan imzolangan shartnomaga qo‘shimcha ravishda tomonlardan birining yuridik xizmati yoki jalb qilingan advokat xulosasi ilova qilinishi lozim;

– moliyaviy barqaror va to‘lov qobiliyati yuqori bo‘lgan banklarni tanlash bo‘yicha o‘tkazilgan tanlov savdolari bayonnomasi nusxasi.

Olingan foiz daromadlari oliy ta‘lim muassasasining o‘qitishning kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lari daromadlar va xarajatlar smetasiga kiritiladi hamda o‘qitishning kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari bo‘yicha sarflanadi.

Yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar (unga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bilan) to‘g‘ri rasmiylashtirilishi, shartnoma bilan birga G‘aznachilik bo‘linmasiga taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligi va ulardagi ma‘lumotlarning to‘g‘riligi bo‘yicha javobgarlik byudjetdan mablag‘ oluvchilar zimmasiga yuklatiladi.

Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalariga tushayotgan mablag‘lar hisobi tegishli moliya organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag‘lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (2146-son yo‘riqnomaning 1-ilovasiga) muvofiq ochiladigan 4010 – mablag‘ manbali shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarda yuritiladi.

Ushbu jamg‘arma mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 19 noyabrdagi 520-sonli “Vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalariga mablag‘lar ajratish va ulardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

qaroriga hamda Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 2 apreldagi 62-sonli “Vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalariga mablag‘lar ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan davlat bojlari, yig‘imlar va soliq bo‘lmagan to‘lovlardan, ma‘muriy va moliyaviy jazolardan ajratmalar banklar tomonidan 23411 balans hisobvarag‘iga kirim qilinadi va o‘rnatilgan tartibda Davlat byudjeti hamda tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari o‘rtasida taqsimlanadi.

Davlat byudjetidan mablag‘ bilan ta‘minlanadigan vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari daromadlari va xarajatlari smetalarini ro‘yxatdan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan, byudjet mablag‘lari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

Vazirlik va idoralarda ajratmalar hisobiga shakllanadigan byudjetdan tashqari jamg‘armalariga kelib tushayotgan mablag‘lar:

- moddiy-texnik bazani yanada mustahkamlashga;
- ijtimoiy rivojlantirish tadbirlariga va xodimlarni moddiy rag‘batlantirishga;
- kommunal-foydalanish xarajatlarini qoplashga yo‘naltiriladi.

Byudjet tashkilotlarining ajratmalar hisobiga shakllangan mablag‘lari bo‘yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish va to‘lovlarni amalga oshirish “Byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosi qoidalari”ga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, yetkazib beruvchilar bilan o‘rnatilgan tartibda tuzilgan shartnomalar, moliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xarajatlar smetasi doirasida g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatga olinadi.

To‘lovlar tasdiqlovchi hujjatlar asosida, xarajatlar smetasidagi mablag‘lar, ro‘yxatga olingan yuridik majburiyatlar hamda 4010 - son shaxsiy g‘azna hisobvarag‘idagi qoldiq doirasida amalga oshiriladi.

Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar (unga

qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan) to'g'ri rasmiylashtirilishi, shart-noma bilan birga G'aznachilik bo'linmasiga taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi bo'yicha javobgarlik byudjetdan mablag' oluvchilar zimmasiga yuklatiladi.

Umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi tegishli moliya organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (2146-son bilan ro'yxatga olingan yo'riqnomaning 1-ilovasiga) muvofiq ochiladigan 4011 – mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda yuritiladi.

Mazkur shaxsiy g'azna hisobvarag'ida umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi bo'yicha ota-onalar tomonidan to'langan mablag'lar aks ettiriladi. Ushbu shaxsiy g'azna hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda to'lov hujjatlarining to'lov maqsadida byudjet tashkilotining tegishli 4011 - shaxsiy g'azna hisobvarag'i, tashkilot nomi, to'lov qaysi oy uchun va kim uchun amalga oshirilayotganligi ko'rsatilishi shart. Ushbu shaxsiy g'azna hisobvarag'idan mablag'lar har besh ish kuni ichida G'aznachilik bo'linmalari tomonidan Respublika maqsadli kitob jamg'armasining byudjet shaxsiy g'azna hisobvarag'iga ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqlari qoldiqlari doirasida o'tkaziladi.

Kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar mablag'lari hisobi tegishli moliya organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (2146-son bilan ro'yxatga olingan yo'riqnomaning 1-ilovasiga) muvofiq ochiladigan 4012 – mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda yuritiladi. Ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga mablag'lar Davlat byudjeti hisobidan kapital qo'yilmalarga ajratilgan mablag'larning joriy yilda foydalanilmagan qismiga har bir qurilish obyekti bo'yicha alohida 4012 – mablag' manbasi bilan ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan mablag'larni keyingi moliya yilida qat'iy belgilangan maqsadlarga xarajat qilish uchun o'tkaziladi.

Kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar bo'yicha xarajatlar smetasi tuziladi va 2634 - "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida tegishli moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan ushbu hisobvaraqlar bo'yicha yuridik majburiyatlarning qabul qilinishi ajratilgan limitlar (xarajatlar smetalari) doirasida oldingi yil uchun tuzilgan shartnomalar rekvizitlarini va ushbu shartnomaning tegishli shartlarini ko'rsatgan holda keyingi moliya yili uchun tuzilgan yangi shartnomalar (agar shartnoma amal qilish muddati tugamagan bo'lsa, ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv) asosida qabul qilinadi. Mazkur shartnoma (qo'shimcha kelishuv)lar bo'yicha to'lovlar ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hisobvaraqlar-fakturalar, shuningdek Moliya vazirligi va uning hududiy moliya boshqarmalarining har bir bajarilgan ish uchun alohida to'lovga ruxsat berish haqidagi xulosalari asosida ushbu hisobvaraqdagi mablag'lar qoldig'i doirasida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar (unga qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan) to'g'ri rasmiylashtirilishi, shartnoma bilan birga G'aznachilik bo'linmasiga taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi bo'yicha javobgarlik byudjetdan mablag' oluvchilar (yagona buyurtmachi xizmati) zimmasiga yuklatiladi.

Turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to'lovlar hisobi tegishli moliya organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifiga (2146-son yo'riqnomaning 1-ilovasiga) muvofiq ochiladigan 4013 – mablag' manbali shaxsiy g'azna hisobvaraqlarda yuritiladi.

Mazkur shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davolash-profilaktika muassasalarini mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undirilgan to'lovlar bo'yicha mablag'lar tushumi va ularning xarajati hisobi yuritiladi.

Ovqatlanish to'lovi (nonushtalardan tashqari) fuqarolarning shaxsiy mablag'lari, shuningdek, korxonalar, tashkilotlar, jamg'armalar va boshqa homiyalar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. To'lovlar kasalxona muassasalari yoki davolash-profilaktika muassasalari buyurtmanomalariga ko'ra xizmatlar ko'rsatuvchi boshqa korxonalar tomonidan faqat taom tayyorlash uchun sarflangan oziq-ovqat mahsulotlari qiymati uchun to'lanadi.

Taom tayyorlash uchun asbob-uskunalar sotib olish va ulardan foydalanish bilan bog'liq boshqa xarajatlar, oziq-ovqat bloklari binolarini saqlash, taom tayyorlash bilan band bo'lgan xodimlar mehnatiga haq to'lash xarajatlari va boshqalar davlat byudjeti mablag'lari hisobiga qoplanadi. Ushbu byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tuzilmaydi.

Bemorlardan ovqatlaniganlik uchun to'lovlar bank muassasalari orqali naqd pulda yoki plastik kartochkalari orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish "Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi qoidalari"ga muvofiq amalga oshiriladi. Jumladan: byudjet tashkilotlarining oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha yetkazib beruvchilar bilan o'rnatilgan tartibda tuzilgan shartnomalari, G'aznachilik bo'linmasining mas'ul xodimi tomonidan shartnomalar ularni g'aznachilik bo'linmasining vakolatli shaxsi elektron imzosi bilan tasdiqlash orqali O'RMVAT tizimiga kiritilib hisobga olinadi.

Yetkazib berilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun to'lovlar mahsulot yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (hisobvaraq-faktura) asosida, ro'yxatga olingan yuridik majburiyatlar va tegishli

mazkur shaxsiy g'azna hisobvarag'idagi mavjud qoldiqlar doirasida amalga oshiriladi.

Turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undirilgan to'lovlar hisobidan tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar (unga qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan) to'g'ri rasmiylashtirilishi, shartnoma bilan birga g'aznachilik bo'linmasiga taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi bo'yicha javobgarlik byudjetdan mablag' oluvchilar zimmasiga yuklatiladi.

Ushbu paragrafda bayon qilingan fikrlar va ma'lumotlar quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (14.2-jadval):

14.2-jadval

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha g'azna ijrosini tashkil qilish

№	Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari va jamg'armalari nomi	Hisobi yuritiladigan shaxsiy g'azna hisobvara	Smetalarning tuzilishi va turi
1	Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi	4001	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
2	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun mablag'lari	4002	smeta tuzilmaydi
3	Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi	4003	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
4	O'tgan yillar debitorlik qarzlarning tushgan summasi	4004	smeta tuzilmaydi

5	Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun otalardan tushumlar	4005	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
6	Maktabdan tashqari muassasalarda (musiqa va san'at maktablari) bolalar ta'minoti uchun otalardan tushumlar	4006	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
7	Xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanligi bo'yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar	4007	smeta tuzilmaydi
8	Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta'minoti uchun otalardan tushumlar	4008	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
9	Ta'lim muassasalarida o'qishdan tushadigan mablag'lar	4009	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
10	Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari	4010	daromad va xarajatlar smetasi tuziladi
11	Umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan byudjetdan tashqari mablag'lar	4011	smeta tuzilmaydi
12	Kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar mablag'lari	4012	xarajatlar smetasi tuziladi
13	Turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to'lovlar	4013	smeta tuzilmaydi

Xulosa qilib aytganda, byudjet tashkilotlarining qonunchilik bilan belgilab qo'yilgan rasmiy manbalardan oladigan daromadlari va tushumlari hamda ular bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish davlat byudjeti g'azna ijrosi mexanizmlari bilan qamrab olingan bo'lib, byudjet tashkilotiga tegishli mablag'larning (byudjet va nobyudjet) samarali, maqsadga muvofiq va oqilona ishlatilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi, bu mablag'larning shakllanishi va ishlatilishining dastlabki va joriy nazoratini amalga oshirish imkonini beradi.

Takrorlash uchun savollar

1. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalari va ularni ishlatish yo'nalishlari nimalardan iborat?
2. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha jamg'armalar qanday guruhlanadi?
3. Undiriladigan to'lovlar hisobiga tushgan mablag'lar qanday hisobraqamlarda yuritiladi?
4. Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobining yuritilishi tartibi qanday?
5. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari g'azna ijrosini tashkil etishning o'ziga xos jihatlarini aytib bering.
6. Oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari qanday manbalardan shakllanadi va qanday maqsadlarga ishlatiladi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalari va ularni ishlatish yo'nalishlari qaysi umumiy va maxsus qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang.
2. Me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining guruhlanishi, ular bo'yicha shaxsiy hisobraqamlarning yuritilishi, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni bajarish bo'yicha javobgarlik kabilarni aks ettiruvchi

umumlashma jadval tayyorlang, jadval yuqoridagi 8.2-paragrafda bayon qilingan ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan holda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosini tashkil etish bo'yicha yaxlit tasavvur hosil qilishga xizmat qilsin.

15-MAVZU. HUDUDIY BYUDJETLAR G'AZNA IJROSINI TASHKIL QILISH

15.1. Hududlarda byudjet g'azna ijrosini tashkil etishning zarurligi, xususiyatlari.

15.2. Hududiy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va xarajatlari amalga oshirish tartibi

15.3. Hududiy g'aznachilik organlari faoliyati

15.4. Hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida g'azna ijrosini samarali tashkil etish

15.1. Hududlarda byudjet g'azna ijrosini tashkil etishning zarurligi, xususiyatlari

Har qanday davlatda boshqaruv tizimining xususiyatiga qarab, byudjet tizimining tarkibi qonuniy tarzda belgilanadi. Shunga ko'ra federativ davlatlarda 3 bo'g'inli byudjet tizimi amal qiladi.

O'zbekistonda siyosiy mustaqillik qo'lga kiritilgan, iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun muhim islohotlar boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd qilinishiga mamlakatda 2 bo'g'inli byudjet tizimi amal qiladi. Bularga Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar kirishi ko'rsatilgan.

Davlat byudjet siyosati vazifalarini amalga oshirishda byudjet amaliyotida shakllanib borayotgan tendensiyalar, qonuniyatlar qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatish lozim:

➤ davlat moliyasini boshqarish va davlatning moliyaviy resurs imkoniyatlari tarkibida davlat byudjeti mablag'lari ahamiyatining o'sishi;

➤ mahalliy byudjetlar majburiyatlarining ortishi, ular zimmasidagi byudjet xarajatlari ko‘lamining o‘shishi;

➤ mahalliy byudjetlar majburiyatlarining o‘shishi natijasida ular huquqlari va moliyaviy imkoniyatlarini oshirish muammosining keskinlashuvi;

➤ byudjet bo‘g‘inlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishning zamonaviy usullari, shakllari hamda tamoyillarini amal qilinishini ta‘minlash ahamiyatining ortishi.

Byudjet tizimi taraqqiyotidagi ushbu qonuniyatlar mahalliy byudjet bo‘g‘inlari oldiga muhim vazifalarni qo‘yadi. Hududlar iqtisodiy salohiyati, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari mustaqilligi va mas‘uliyatlarining ortishi hamda shu bilan bevosita manfaatdor bo‘lgan tegishli byudjet bo‘g‘inining samarali faoliyati, uning huquq va majburiyatlari to‘liq bajarilishini kafolatlaydi.

Hususan, Prezidentimizning “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi bo‘yicha dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida viloyatlar, tumanlar va shaharlarning kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish bo‘yicha quyidagi vaziflar belgilandi:

– sotsial-iqtisodiy jadal rivojlanishi, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral va xomashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks

va samarali foydalanishni ta‘minlash;

– hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish masshtablarni kengaytirish hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasidagi farqini kamaytirish, eng avvalo sanoat va eksport salohiyatini o‘stirish yo‘li bilan qiyoslangan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish;

– yangi sanoat ishlab chiqarish va servis markazlarini tashkil etish hisobiga shahar tipidagi kichik shaharlar va shaharchalarni aktiv

rivojlantirish, yirik xo‘jalik birlashmalarning mablag‘larini, banklar-ning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

- subvension tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

- sanoat va boshqa ishlab chiqarish obyektlarni joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.¹⁵¹

Byudjet tizimi taraqqiyotidagi ushbu qonuniyatlar mahalliy byudjet bo‘g‘inlari oldiga muhim vazifalarni qo‘yadi. Hududlar iqtisodiy salohiyati, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari mustaqilligi va mas’uliyatlarining ortishi hamda shu bilan bevosita manfaatdor bo‘lgan tegishli byudjet bo‘g‘inining samarali faoliyati, uning huquq va majburiyatlari to‘liq bajarilishini kafolatlaydi.

Mamlakat byudjetining tarkibi avvalo uning davlat qurilishiga bog‘liqdir. Unitar tuzumga ega bo‘lgan mamlakatlarda byudjet tizimi ikki qavatli qurilmaga – davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarga ega bo‘ladi.

Federativ tuzumga ega bo‘lgan mamlakatlarda (AQSH, Germaniya) oraliq bo‘g‘in – shtatlar, o‘lkalar (viloyatlar) va ularga muvofiq ma’muriy tuzilmalarning shtatlari mavjud.

Byudjet tizimi – bu iqtisodiy munosabatlarga, davlat tuzilishiga va qonun normalariga asoslangan davlat, ma’muriy-hududiy tuzilmalar-ning, byudjet munosabatlarida mustaqil bo‘lgan davlat tashkilotlari va jamg‘armalarining majmuidir. Byudjet tizimi davlat moliyaviy tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.

¹⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi bo‘yicha dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari yig'indisini, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish tamoyillarini, ular o'rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.¹⁵²

Konsolidatsiyalashgan byudjetlarning ko'rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy jamg'armasidan foydalanish va uni shakllantirishni tahlil qilishda muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetining ko'rsatkichlari yordamida mamlakatda tuziladigan va davlat moliyaviy balansida aks ettiriladigan moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasi aniqlanadi. Konsolidatsiyalashgan byudjet ko'rsatkichlariga hisobsiz moliyaviy rejalashtirishni umumlashtirish mumkin emas, chunki davlat moliyaviy balansini va hududiy moliyaviy balanslarning ko'pgina ko'rsatkichlari konsolidatsiyalashtirilgan byudjetdan olinadi.

*Byudjet davlat uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni aks ettirib va shu bilan birgalikda mamlakat soliq siyosatini belgilaydi. Byudjet mablag'lari sarf etishning aniq yo'nalishlarini, milliy daromad va yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishini o'zida aks ettiradi, bu esa unga iqtisodiyotni samarali boshqaruvchisi sifatida chiqishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda byudjetdan aniq iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida foydalanish mumkin. Byudjetning paydo bo'lishi va rivojlanishi davlatning paydo bo'lishi va shakllanishi bilan bog'liqdir. Davlat byudjetdan nafaqat o'z faoliyatining asosiy ta'minot manbasi sifatida, balki iqtisodiy va ijtimoiy siyosat o'tkazishning muhim elementi sifatida foydalanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida byudjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.*¹⁵³

¹⁵² O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 6-moddasi asosida.

¹⁵³ Steven M. Bragg. TREASURY MANAGEMENT The Practitioner's Guide. John Wiley & Sons, Inc. 2010 New Jersey.

Mamlakatimiz Davlat byudjeti quyidagi darajadagi byudjetlardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti tuzilmasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.¹⁵⁴

Viloyatlar mahalliy byudjetlari tuzilmasiga viloyat byudjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.

Toshkent shahar mahalliy byudjeti tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

Byudjetning yaxlitligi tufayli respublika o‘z tasarrufiga pul resurslarining yagona markazlashtirilgan jamg‘armasini oladi, uni byudjet tizimining faqat biror-bir bo‘g‘iniga taqdim etish mumkin emas hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga birlashtiriladigan barcha byudjetlarning majmui sifatida ifodalanadi. Respublika byudjet tizimining yaxlitligi va bir butunligi qonun tomonidan mustahkamlab qo‘yilgan, unda quyi byudjetlarning biri yuqori bo‘g‘inga kirishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimining yetakchi bo‘g‘ini - umumrespublika byudjeti.

Respublika byudjeti - Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Milliy daromadni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri o‘rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni umumrespublika byudjeti orqali tartibga solinadi.

¹⁵⁴ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 35-moddasi asosida.

Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va ularni davlat markazlashtirilgan tartibda amalga oshiradigan chora-tadbirlar bilan to'g'ri muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjetga daromadlar kelib turishini va resurslardan avaylab foydalanishdan manfaatdorlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy rezervlarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, umuman O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi. Mahalliy byudjetlardan uy-joy kommunal xo'jalik va obodonlashtirish, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari, ijtimoiy ta'minotga doir tadbirlar va hokazolar moliyalashtiriladi.

Davlat byudjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida davlat hokimiyatining iqtisodiy imkoniyatlarini moliyaviy asoslarini yaratadi.

Masalan, iqtisodchi G.V. Polyak quyidagi fikrlarni bildiradi "Davlat byudjetdan o'zining faoliyatini bevosita moliyaviy ta'minlashning instrumenti sifatida hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim elementi sifatida foydalanadi"¹⁵⁵ - deb ta'kidlaydi.

Demak, bir tomondan byudjetning paydo bo'lishi davlatlarning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ikkinchidan, aynan bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi davlat islohotlarini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatidagi byudjetning sifat belgilariga aniqlik kiritiladi.

Iqtisodchi L.A Drobozinaning byudjetning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati to'g'risidagi fikrlari quyidagichadir: "O'zining moddiy mazmuniga ko'ra davlat byudjeti – o'zida davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armasini shakllantirish va undan foydalanishning alohida shaklidir, o'zining ijtimoiy- iqtisodiy

¹⁵⁵ *Поляк Г. В.* Бюджетная система РФ. М.: ЮНИТИ, 2011.

mohiyatiga ko'ra – milliy daromadni taqsimlashning asosiy qurolidir”¹⁵⁶ – deb ta'kidlaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.¹⁵⁷

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini qabul qilish va ijro etishda:

- mablag'lar jalb qilishni amalga oshirishga, bundan yuqori turuvchi byudjetlardan byudjet ssudalari olish mustasno;

- tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lardan ortiq xarajatlarni amalga oshirishga, bundan ushbu Kodeksning 143-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

- tegishli byudjetlar mablag'lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

- yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari va kredit liniyalari berishga yo'l qo'yilmaydi.

15.2. Hududiy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini amalga oshirish tartibi

Mahalliy byudjetlarning daromadlari - mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari oldidagi muhim strategik ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarning amalga oshirish uchun zarur bo'lgan markazlashtirilgan pul jamg'armasini shakllantirish bilan bog'liq pulli munosabatlar shaklidir.

Davlat tomonidan ijtimoiy sohalarni mablag' bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya bilan bog'liq siyosatni amalga oshirish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu muhim

¹⁵⁶ Дробозина Л.А. Финанси. М.: ЮНИТИ, 2010.

¹⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 142-moddasi asosida.

vazifalar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. O'z navbatida ushbu tadbirlarni mablag' bilan ta'minlashda mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjetlarning daromadlaridan foydalanadilar. Mahalliy hokimiyat organlari, o'z daromadlari manbalari bazasini ko'payishidan manfaatdordirlar. Chunki, bu daromadlar hokimiyatlar oldidagi vazifalarni moddiy jihatdan moliyalashtirish manbasi sifatida va ularni mustaqil sarflash imkonini beradi.

Hududiy moliya tomonidan tegishli byudjetlar shakllantiriladi va ular mahalliy hokimiyat organlari funksiyalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari quyidagilardan tashkil etiladi:

1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- yagona soliq to'lovi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy

belgilangan soliq;

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan:

- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- yagona yer solig'i;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) bozorlardan tushadigan daromadlar;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining daromatlari hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'i uchun aksiz solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlariga o'tkazib beriladi.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hukumat organlarining faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlar ishlab chiqarishning yakuniy natijalarini aholiga yetkazishning asosiy yo'nalishini belgilab beruvchi vositadir. Mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy iste'mol jamg'armalari aholining ayrim guruhlari o'rtasida taqsimlanadi.



15.1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjet iva mahalliy byudjetlar daromadlari tizimi¹⁵⁸

¹⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 52-moddasi asosida.

Mahalliy byudjetlar bu yangi byudjet tuzilishi sharoitlarida byudjetlararo munosabatlarni ta'minlovchi o'ziga xos iqtisodiy kategoriyadir, hamda ma'lum hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashkil etiladigan pul mablaglari jamg'armalarining shakllantirilishi, taqsimlanishi, ishlatilishi bilan bog'liq jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning muvofiqligini ham bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti va DMJ byudjetlari daromadlarining g'azna ijrosi Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining kassa ijrosi to'g'risidagi yo'riqnomaga (ro'yxat raqami 2771, 2016 yil 30 mart) muvofiq amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari YaG'Hga kiritiladi va mazkur byudjet tashkilotlariga tushumlar yoki byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan avval amalga oshirilgan kassa xarajatlarining tiklanish summalari sifatida ularning byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida hisobga olinadi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga kelib tushgan mablag'larni to'g'ri aks ettirishini ta'minlash uchun banklar tomonidan shakllantiriladigan elektron to'lov hujjatlarining "to'lov maqsadi" grafasida to'lov turlari bo'yicha ma'lumotnomada ko'rsatilgan tegishli to'lov kodlari, shuningdek byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha tegishli byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ko'rsatilishi lozim.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga noto'g'ri yoki ortiqcha kelib tushgan mablag'larni, shuningdek DMJ va BMJ shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga noto'g'ri yoki ortiqcha kelib tushgan mablag'larning qaytarilishi g'aznachilik bo'linmalari tomonidan byudjet tashkilotlari, DMJ va BMJ taqsimlovchi organlarning yozma murojaatlari va mazkur Qoidalar talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan to'lov hujjatlari asosida amalga oshiriladi, bundan davlat soliq xizmati organlari tomonidan undiriladigan to'lovlar mustasno.

Bojxona organlarining depozit g'azna hisobvaraqlaridan mablag'larni to'lovchilarga qaytarish faqat to'lov hujjatlari asosida, davlat soliq xizmati organlarining tegishli byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan mablag'larni to'lovchilarga qaytarish esa soliq organlarining tegishli xulosalari va to'lov hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining mablag'lari turli darajadagi byudjetlar o'rtasida quyidagi tarzda qayta taqsimlanadi:

- umumdavlat soliqlari va boshqa umumdavlat daromadlari bir qismining belgilangan tartibda o'rnatilgan me'yorlar asosida turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi asosida;
- yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga byudjet subvensiyalari va dotatsiyalarini ajratilishi asosida;
- yuqori byudjet bo'g'inidan quyi byudjet bo'g'inlariga, shuningdek, quyi byudjet bo'g'inlaridan yuqori byudjet bo'g'inlariga byudjet ijrosi jarayonida yuzaga keluvchi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larning yo'naltirilishi asosida;
- byudjet ssudalarining ajratilishi asosida.

Ma'lumki, respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan byudjet subvensiyalari va dotatsiyalari tartibda amalga oshiriladi. Bunday ajratmalarning miqdori quyidagilarga bog'liq:

- hududlarning moliyaviy holatiga, jumladan, ularning o'z daromad bazalarining mustahkamligiga;
- hududda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalari va dasturlari ko'lamiga;
- hududlar bo'yicha tovar (ish, xizmat)lar qiymatidagi farqlarga;
- hududlar aholisining soniga;
- ushbu hududda joylashgan va tegishli byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning byudjet ajratmalariga bo'lgan ehtiyojiga;
- hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni bartaraf etish uchun hisobga olinadigan boshqa omillarga.

Mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlaridagi kassa tafovuti kassadagi naqd pul aylanmasiga, yuqori byudjetlar ssudalari hisobiga,

oldingi davrlardagi foydalanilmay qolgan byudjet mablag‘lari hisobiga qoplanadi.

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarish tizimida mahalliy byudjetlar rioya qilishi lozim bo‘lgan cheklanishlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, mahalliy byudjetlar byudjet qonunchiligiga ko‘ra, balanslashgan daromadlar va xarajatlar tizimiga ega bo‘lishlari zarur. Mahalliy byudjetlarning haqiqiy taqchilligiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim.

Qonunga muvofiq, mahalliy byudjetlar uchun quyidagilar ta‘qiqlanadi:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘zda tutilmagan manbalar hisobiga o‘z byudjetlarini to‘ldirish yoki maqsadli fondlar tashkil etish;

2. Byudjet ssudalaridan tashqari boshqa har qanday qarz olishlarni amalga oshirish;

3. Byudjet qonunchiligida ko‘zda tutilgan holatlardan tashqari, o‘z byudjet xarajatlarini tasdiqlangan ajratmalardan ortib ketishiga yo‘l qo‘yish;

4. Boshqa shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va vasiylik xatlari berish;

5. Yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalarini berish.

Mahalliy byudjetlarning xarajatlari tarkibi Byudjet kodeksida belgilangan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:¹⁵⁹

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

- umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi, maktabdan tashqari ta‘lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta‘lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

¹⁵⁹ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 71-moddasi asosida.

- bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi filialini, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini, ixtisoslashtirilgan kasalxonalar va dispanserlarni, tug'ruqxonalar va akusherlik majmualarini, tibbiy tashxis qo'yish va davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertisasi muassasalarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti filialini, hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari va yordamchi tashkilotlarini saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to'lash xarajatlari;

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- hududiy madaniyat va sportni boshqarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarini, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo'yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zararlarining o'rnini qoplash xarajatlari;

2) *iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:*

- qishloq xo'jaligi sohasida hududiy nazorat organlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to'lash, shuningdek, yerlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish;

- uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

- suv yo'llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;

- aholi punktlarini obodonlashtirish;

- shaharlarning, boshqa aholi punktlarining ko'chalarini va xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash, shuningdek ayrim tashkilotlar xarajatlari;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'rmon xo'jaligini saqlab turish xarajatlari;

3) *Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;*

4) *mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, shu jumladan:*

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesini;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;

5) *Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari;*

6) *davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash xarajatlari;*

7) *Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.*

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga byudjet ssudalari, dotatsiyalar, subvensiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlar ajratilishi mumkin.

Shuningdek, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) *ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:*

- tuman (shahar) xalq ta'lim muassasalari faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlash va tashkil etish bo'limlarini, shuningdek ular tasarrufidagi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini saqlab turish hamda qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;

- tumanlar (shaharlar) tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalarini hamda davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tuman, shahar muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- tuman va shahar madaniyat va sport ishlari bo'yicha bo'limlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan kam ta'minlangan oilalarga tayinlanadigan hamda to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam, tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish, Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-

yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

2) *iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:*

- veterinariya laboratoriyalari va hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashish stansiyalarini saqlab turish;

- shaharlarning va boshqa aholi punktlarining ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash;

- uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

- aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari;

3) *tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;*

4) *fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;*

5) *boshqa xarajatlar, shu jumladan qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlarining mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalari moliya yili mobaynida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalardagi qo'shimcha, ko'zda tutilmagan xarajatlar o'z vaqtida hamda uzluksiz moliyalashtirilishini ta'minlash uchun tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalari mablag'lari tegishincha O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetiga tushadigan daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalari miqdori asosiy

makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bashorati hamda Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalari mablag'larining taqsimlovchilari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlaridir. Mahalliy byudjetlarning ijrosini ta'minlash moliya, soliq, g'aznachilik organlari tomonidan belgilangan vakolatlar asosida amalga oshiriladi.

Hududiy moliya organlari – o'z tasarrufida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan mablag' oladigan tashkilotlarga ega bo'lgan yuridik shaxs sifatida *byudjet mablag'larini taqsimlovchilar* maqomiga egadir. Bunga ko'ra Byudjet kodeksining 31-moddasida belgilangan vakolatlariga ega, ya'ni:

- byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olish uchun byudjet so'rovlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

- byudjet buyurtmalarini tuzish uchun ko'rsatkichlarni va materiallarni o'z tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazadi;

- xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini tuzish uchun o'z tasarrufidagi tashkilotlarga ularning tegishli moliya yiliga byudjetdan ajratiladigan mablag'lari hajmlarini yetkazadi;

- o'z tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

- tasdiqlangan xarajatlar smetalarini va jamlanma xarajatlar smetalarini, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi;

- xarajatlar smetalari va shtat jadvallaridagi o'zgartirishlar to'g'risida o'z tasarrufidagi tashkilotlarni xabardor qiladi;

- o'z tasarrufidagi tashkilotlarda byudjet hisobi yuritilishini tashkil etish va nazorat qilishni ta'minlaydi;

- o'z tasarrufidagi tashkilotlardan moliyaviy hisobotlarni qabul qiladi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli davr uchun jamlanma moliyaviy hisobotlar taqdim etadi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Byudjetlararo transfertlar – O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, davlat maqsadli jamg'armalariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarining viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan mablag'lardir.

O'zbekiston Respublikasi byudjetidan byudjetlararo transfertlar O'zbekiston Respublikasi byudjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'idan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari hamda Toshkent shahri byudjeti, shuningdek DMJ byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga hamda buning aksicha o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar byudjetlari hamda Toshkent shahri byudjetidan byudjetlararo transfertlar ularning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan tumanlar va shaharlar byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga hamda buning aksicha o'tkaziladi. Byudjetlararo transfertlarni o'tkazish O'zbekiston Respublikasi byudjetidan byudjet mablag'larini o'tkazish uchun so'rovnoma va g'aznachilik memorial orderlari asosida amalga oshiriladi. Byudjetlararo transfertlar bo'yicha hisob-kitoblar joriy moliya yilida qo'shimcha vaqt davrini hisobga olgan holda yakunlanishi lozim.

Mahalliy byudjetdan o'z muddatida qaytarilmagan byudjet ssudalari va o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha yuqori byudjet oldidagi qarzdorliklarni so'zsiz undirish uchun mablag'larni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek DMJ

byudjetlaridan O‘zbekiston Respublikasi byudjetiga undirishda Moliya vazirligining tegishli boshqarmalari tomonidan Moliya vazirligi G‘aznachiligiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlariga tuman va shahar byudjetlaridan undirishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya boshqarmalari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha g‘aznachilik boshqarmalariga tegishli mazmundagi xat bilan birgalikda ikki nusxada Byudjet mablag‘larini o‘tkazish (so‘zsiz undirish) uchun so‘rovnoma taqdim etadi.

15.3. Hududiy g‘aznachilik organlari faoliyati

Hududiy g‘aznachilik bo‘linmalari – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha g‘aznachilik boshqarmalari, tumanlar va shaharlar bo‘yicha g‘aznachilik bo‘linmalari.¹⁶⁰

Davlat moliyasini isloh qilish, davlat byudjetining g‘azna ijrosini joriy etish, byudjet mablag‘larini boshqarish va ularning shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish jarayonlari mukammallashib, takomillashib bormoqda. Bu jarayonlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-594-son (28.02.2007) Qarorining qabul qilinishi muhim qadam bo‘lib xizmat qildi. Prezident Qarorining ijro etilishi doirasida Moliya vazirligi huzuridagi “Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi” hamda mahalliy moliya organlarining g‘aznachilik bo‘linmalari negizida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi.

PQ-594-son Qaror bilan Moliya vazirligi G‘aznachiligi zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatildi:

– davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlash, byudjetdan mab-

¹⁶⁰ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 3-moddasi.

lagʻ oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va davlat byudjeti ijrosi toʻgʻrisida hisobot tuzish;

– davlat byudjeti mablagʻlarini yagona gʻaznachilik hisobraqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari oʻrtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni taʼminlaydigan hududiy gʻaznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

– byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yoʻnaltiriladigan byudjet mablagʻlaridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati taʼminlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

– xarajatlar smetasi va roʻyxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qatʼiy summalar doirasida tovar(ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga byudjet mablagʻlari oluvchilar nomidan va ularning topshirigʻi boʻyicha toʻlovlarni amalga oshirish orqali toʻlov intizomiga soʻzsiz rioya etilishi ustidan taʼsirchan nazoratni taʼminlash;

– davlat byudjeti gʻazna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborot yigʻish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat koʻrsatish, Oʻzbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish.

Davlat byudjetining kassa ijrosi, daromadlar va xarajatlar ustidan nazorat hamda byudjet mablagʻlarini boshqarish sohasidagi vazifalari:

Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushgan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar oʻrtasida taqsimlash, byudjetdan mablagʻ oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi toʻgʻrisida hisobot tuzish;

Davlat byudjeti mablagʻlarini yagona gʻaznachilik hisobraqami, shuningdek, tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari oʻrtasidagi

kassa uzilishlari oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

Shartnomalarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirishdagi vazifalari:

- Byudjet tashkilotlarining tovarlar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarni, shuningdek, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmalarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga yo'naltirilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasida ko'zda tutilmagan hamda ajratilgan limitdan ortiqcha xarajatlarni oldini olish;

- Byudjet tashkilotlarini, jumladan mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra vositachilik xizmatlaridan voz kechish.

Davlat byudjeti G'aznachilik tizimiga o'tilganda byudjet muasasalari tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar uchun to'lovlar moliyaviy majburiyatlarni tasdiqlovchi va xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovarlar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan joriy nazoratni ta'minlashga erishildi.

G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tarkibidagi davlat ijroiya organi hisoblanadi. G'aznachilikning Qoraqalpog'iston Respublikasi G'aznachilik Boshqarmasi, Toshkent shahar va viloyatlar Boshqarmasi, shahar va tumanlarda G'aznachilik bo'linmalari kabi hududiy organlari faoliyat ko'tsatadi.

G'aznachilikka O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlangan Davlat G'aznachisi rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'iga muvofiq G'aznachilikning hududiy organlari tuziladi va tugatiladi. G'aznachilik organlarining xarajatlarini moliyalashtirish respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

Bugungi kunga kelib G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari shtatlari shakllantirilgan bo'lib, markaziy G'aznachilikka 92ta, G'aznachilik hududiy bo'linmalariga 2261ta, jami G'aznachilik tizimiga 2353ta shtat birligi ajratilgan. Lekin davlat byudjeti g'azna ijrosi bilan qamrab olinayotgan jarayonlarni hisobga oladigan bo'lsak, g'aznachilik orqali byudjet daromadlari va xarajatlari ijrosi, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning daromad va xarajatlari ijrosi, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari tushumi va sarfi ijrosi amalga oshirilayotganligini, bu bilan bog'liq bo'lgan ish hajmining ortib borayotganligini hisobga olib, G'aznachilik amaliyot boshqarmalari bo'linmalari shtatlari sonini qayta ko'rib chiqish zarurligini e'tirof etish lozim.

PQ-594-son qaror bilan shuningdek, G'aznachilik hududiy bo'linmalarining tashkiliy tuzilishi ham tasdiqlangan.

Moliya vazirligi G'aznachiligi to'g'risidagi Nizomga muvofiq, G'aznachilikning hududiy bo'linmalari quyidagi ishlarni bajaradi:

– byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun g'aznachilikning bank hisobraqamlariga mablag'lar o'tkazadi;

– yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobraqamlariga sudning qarori bo'yicha yagona g'aznachilik hisobraqamidan yoki g'aznachilikning boshqa hisobraqamlaridan mablag'lar o'tkazadi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-

harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash uchun mablag'lar o'tkazadi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida g'aznachilik hisobraqamlarida mablag'larning harakati to'g'risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi;

– byudjetdan mablag' oluvchilarga ular uchun g'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisobraqamlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga byudjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi;

– manbalar bo'yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritadi;

– moliya organlarining topshirig'i bo'yicha yuqori byudjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subvensiyalar, byudjet ssudalari summasini va boshqa to'lovlarni quyi byudjetlarning shaxsiy g'aznachilik hisobraqamlariga o'tkazadi;

– byudjet tashkilotlari va buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar doirasida va maqsadlarga muvofiq tuzilishi ustidan qattiq nazorat qilish asosida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazadi;

– byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan ro'yxatga olingan shartnomalarda yoki boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan summalar doirasida tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar)ning bevosita bank hisobraqamlariga to'lovlarni amalga oshiradi;

– byudjet tashkilotlarini, jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib boradi, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechishni nazarda tutadi;

– schyot-fakturalar va tovarlar yetkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi) holatini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar asosida byudjet mablag'i oluvchilarning moliyaviy majburiyatlari hisobini yuritadi va boshqa ishlarni amalga oshiradi.

Bugungi kunda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish borasidagi Prezident qarorlarining ijrosi doirasida Osiyo taraqqiyot banki va boshqa g'azna ijrosining yagona integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi.

G'aznachilik bo'linmalarining mas'ul xodimlari Byudjet mablag'larini o'tkazish (so'zsiz undirish) uchun so'rovnomalarini qabul qilganlaridan so'ng so'rovnomada kamchiliklar aniqlanmasa so'rovnomalarining ikkala nusxasiga qabul qilib olgan sanasini ko'rsatgan holda o'z imzolarini qo'yadi hamda bir nusxasini Byudjet mablag'larini o'tkazish (so'zsiz undirish) uchun so'rovnomani yuborgan moliya organiga qaytaradi. Byudjet mablag'larini o'tkazish (so'zsiz undirish) uchun so'rovnomada kamchiliklar aniqlanganida kamchiliklarni bartaraf etish uchun so'rovnomaning ikkala nusxasini moliya organiga qaytaradi.

G'aznachilik bo'linmalari moliya organlarining Byudjet mablag'larini o'tkazish (so'zsiz undirish) uchun so'rovnomani qabul qilib olganidan so'ng shu ish kunining o'zida "O'RMV" ATda mablag'larni so'zsiz undirish uchun g'anachilik memorial orderi shakllantiradi va g'anachilik memorial orderi "O'RMV" ATda avtomatik tarzda bajariladi.

Buyurtmachilarning inkasso topshiriqnomalari va to'lov talabnomalari O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi *nizom* (ro'yxat raqami 2465, 2013 yil 3 iyun) talablari doirasida rasmiylashtiriladi va g'aznachilik bo'linmasiga taqdim etiladi.

Bunda inkasso topshiriqnomasi va to'lov talabnomasining "Mablag'larni oluvchining nomi" ustunida "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi", "Mablag'larni oluvchining hisobvarag'i" ustunida – YaG'H, "To'lov maqsadida" ustunida – to'lov kodi, buyurtmachining tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'i hamda inkasso topshiriqnomasini yoki to'lov talabnomasini qo'yish uchun asos bo'lgan hujjatlar rekviziti ko'rsatiladi.

Buyurtmachilar tomonidan inkasso topshiriqnomasi tegishli hujjatlar bilan birgalikda xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalariga quyidagicha taqdim etiladi:

- to'lovchiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa-markazida xizmat ko'rsatilganida besh nusxada. Bunda buyurtmachining tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan inkasso topshiriqnomasining birinchi nusxasi buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga inkasso topshiriqnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi. Inkasso topshiriqnomasining ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi nusxalari g'aznachilik bo'linmasining vakolatli va mas'ul xodimi tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmasining muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa-markaziga taqdim etiladi. Inkasso topshiriqnomasining beshinchi nusxasi qabul qilingan sana ko'rsatilib, YaG'Hga xizmat ko'rsatuvchi bank buxgalteri imzosi va mazkur buxgalterga biriktirilgan muhr bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmasiga qaytariladi;

- bir hudud ichida hisob-kitoblarni amalga oshirishda (g'aznachilik bo'linmasi to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank bilan bitta hududda (shahar yoki tumanda) joylashgan bo'lsa) to'rt nusxada. Bunda buyurtmachining tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan inkasso topshiriqnomasi

sining birinchi nusxasi buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga inkasso topshiriqnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi. Inkasso topshiriqnomasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi nusxalari g'aznachilik bo'linmasining vakolatli va mas'ul xodimi tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmasining muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda bevosita to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etiladi. Inkasso topshiriqnomasining to'rtinchi nusxasi qabul qilingan sana ko'rsatilib, to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank buxgalteri imzosi va mazkur buxgalterga birlashtirilgan muhr bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmasiga qaytariladi;

- hududlararo hisob-kitoblarni amalga oshirishda (g'aznachilik bo'linmasi to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank bilan turli hududda (shahar yoki tumanda) joylashgan bo'lsa) to'rt nusxada. Bunda buyurtmachining tegishli vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan inkasso topshiriqnomasining birinchi nusxasi buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga inkasso topshiriqnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi. Inkasso topshiriqnomasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi nusxalari g'aznachilik bo'linmasining vakolatli va mas'ul xodimi tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmasining muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda bevosita to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etiladi. Inkasso topshiriqnomasining to'rtinchi nusxasi qabul qilingan sana ko'rsatilib, to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank buxgalteri imzosi va mazkur buxgalterga birlashtirilgan muhr bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmasiga qaytariladi.

Buyurtmachilar tomonidan to'lov talabnomasi tegishli hujjatlar bilan birgalikda xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalariga quyidagicha taqdim etiladi:

-to'lovchiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa-markazida xizmat ko'rsatilganida *to'rt nusxada*. Bunda buyurtmachining tegishli

vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan to'lov talabnomasining birinchi nusxasi – buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga to'lov talabnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi. To'lov talabnomasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi nusxalari g'aznachilik bo'linmasining vakolatli va mas'ul xodimi tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmasining muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa-markaziga taqdim etiladi. *To'lov talabnomasining to'rtinchi nusxasi qabul qilingan sana ko'rsatilib*, to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank buxgalteri imzosi va mazkur buxgalterga biriktirilgan muhr bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmasiga qaytariladi.

- oluvchi va to'lovchiga turli banklarda xizmat ko'rsatilganida to'rt nusxada. Bunda buyurtmachining tegishli vakolatli shaxslari tomondan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan *to'lov talabnomasining birinchi nusxasi buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga to'lov talabnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi.*

To'lov talabnomasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi nusxalari g'aznachilik bo'linmasining vakolatli va mas'ul xodimi tomonidan imzolanadi, g'aznachilik bo'linmasining muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda bevosita *to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim etiladi. To'lov talabnomasining to'rtinchi nusxasi qabul qilingan sana ko'rsatilib, to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank buxgalteri imzosi va mazkur buxgalterga biriktirilgan muhr bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmasiga qaytariladi.*

G'aznachilik bo'linmasi tomonidan inkasso topshiriqnomasi va to'lov talabnomasi “Bank-mijoz” dasturiy majmuidan foydalangan holda elektron tarzda ijro etilganida buyurtmachi tomonidan inkasso topshiriqnomasi va to'lov talabnomasi ikki nusxada taqdim qilinadi.

Bunda buyurtmachining tegishli mansabdor shaxslari tomonidan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan inkasso topshiriqnomasi va

to'lov talabnomasining birinchi nusxasi buyurtmachining g'aznachilik bo'linmasiga inkasso topshiriqnomasini va to'lov talabnomasini qo'yish uchun topshirig'i bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi nusxasi buyurtmachining shaxsiy g'azna hisobvarag'idan ko'chirma bilan birgalikda buyurtmachining mas'ul xodimiga beriladi.

15.4. Hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida g'azna ijrosini samarali tashkil etish

Ma'lumki, insoniyat rivojlanishi tarixidagi har qanday mamlakat farovonligi bu yerda amal qilayotgan davlat qudratiga, o'z navbatida, ixtiyoriy davlatning kuch-qudrati esa uning o'z vazifalarini nechog'li darajada to'laqonli bajarishi bilan belgilanadi. Har qanday tuzumda davlat zimmasiga yuklanadigan o'ta murakkab vazifalar ijrosi esa avvalo ulkan xarajatlar oqimini shart qilib qo'yadi, bu esa o'z navbatida daromadlar barqarorligini, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy sharoitning turli omillari tufayli daromadlar va xarajatlar tarkibida yuzaga keladigan doimiy o'zgarishlar evaziga ularni avvalo iqtisodiy-moliyaviy richaglar orqali bir-biriga mutanosiblashni taqozo qiladi. Iqtisodiy tarix sahifalarida daromad manbalari yoki hajmining to'satdan ko'payishi hodisasi emas, xarajatlarning kutilmaganda yo'nalish va ko'lam nuqtai nazaridan o'sishi voqeasi aksar hollarda kuzatilishi inobatga olinsa, xarajatlardan kelib chiqib daromadlarni rejalashtirish maqsadga muvofiq emas (bu ko'pincha soliq va yig'imlar miqdori yoki stavkasini oshirish ko'rinishidagi taktikani talab qiladi), daromadlar o'zgarishiga qarab xarajatlar oqimini davriy rejalashtirib va boshqarib borish esa ishonchliroq, soddaroq aytganda, "daromadga qarab buromad" tamoyili makon va zamon omilidan nisbatan xoli tarzda ko'proq qo'l keladi.

Hamma zamonlarda ham o'z davri uchun mushkul bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimi, shuningdek, avvalgi davlat moliyasi tizimining ayrim salbiy asoratlari, geosiyosiy vaziyat va boshqa muhim masalalar bizning mamlakatimiz taraqqiyotiga o'z ta'siri mavjud bo'lgan hozirgi paytda Davlat byudjeti pul mablag'larini samarali hamda o'zaro mutanosiblikda rejalashtirish va boshqarish borasida oqilona siyosat bir qator omillarning, jumladan, jahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozining salbiy ta'siri yengil kechishini ta'minlamoqda.

Davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar pul oqimini rejalashtirishning asosiy maqsadi Davlat byudjeti pul mablag'larini boshqarish uchun asoslangan hisob-kitoblar ko'rinishida poydevor bo'lib xizmat qilish bo'lsa, o'z navbatida Davlat byudjeti pul mablag'larini boshqarishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- byudjetlarning daromadlar va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik kassa uzilishlarini operativ bartaraf etish;

- byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar to'lovini o'z vaqtida amalga oshirish;

- hududiy (respublika) g'azna hisobvaraqlari (*HG'H (RG'H)*)dagi pul mablag'laridan samarali foydalanish.

Kassali rejalashtirishning mazmuni tushumlarning hajmi va manbalari, shuningdek, to'lovlarning yo'nalishi va maqsadlari bo'yicha respublika va mahalliy byudjetlar kassa rejalarini tuzish yo'li bilan amalga oshiriladigan hududiy (respublika) g'azna hisobvaraqlari orqali o'tadigan pul mablag'larining aylanmasini rejalashtirish va boshqarishdan iborat.

Respublika va mahalliy byudjetlarning yillik kassali rejalashtirishi tegishli byudjetlarning oylik daromadlar va xarajatlar yoyilmasiga asosan amalga oshiriladi. Nizom orqali joriy kassali rejalashtirish

bilan bog'liq amaliyotga kiritilgan yangiliklardan biri sifatida g'aznachilik bo'linmalari tomonidan byudjetdan mablag' oluvchilarga XTR berilishi asosida respublika va mahalliy byudjetlar ijrosi amalga oshiriladigan sharoitda ushbu ikki darajadagi byudjetlarning oylik daromad bashoratiga asosan kassali rejalashtirilishi uchun zarur axborot – kutilayotgan daromadlar tushumi to'g'risidagi tezkor (operativ) ma'lumotlardan foydalanilishini alohida ta'kidlab o'tish kerak.

Hozirgi kunda byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar to'lovini o'z vaqtida amalga oshirish hamda byudjetlarning daromadlar va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik kassa uzilishlarini bartaraf etish uchun G'aznachilik bo'linmalari tegishli byudjet bo'yicha mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda o'zlari uchun belgilangan quyidagi imkoniyatlardan samarali va o'z o'rnida foydalanishlari muhim ahamiyat kasb etadi:

- g'azna hisobvaraqlaridagi aylanma kassa mablag'larini belgilangan tartibda ishlatish;
- tegishli byudjetlar tomonidan byudjet ssudalari olinishi tashabbusi bilan chiqish;
- mablag'larni jalb qilishda qonun hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa manbalardan (respublika byudjeti bo'yicha) foydalanish.

Davlat byudjeti pul mablag'larini boshqarish borasida Nizomdagi alohida ahamiyatli qoidalardan biri shuki, daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi kassa uzilishlarini bartaraf etish maqsadida XTR faqat tegishli davrda HG'H (RG'H)ga tushishi kutilayotgan summalar doirasida (*ya'ni, "daromadga qarab buromad" tamoyilida*) beriladi.

Yuqoridagilarning barchasi, toki davlat mavjudligi uning vazifalari bilan bilan bog'liq ulkan xarajatlarning hamda ularning moliyaviy manbasi bo'lmish daromadlarning mutanosibligiga bog'liq

bo'lar ekan, hudud byudjetining pul mablag'larini rejalashtirish hamda boshqarish tartibini doimiy tadqiq qilish va takomillashtirishni taqozo qilishini ko'rsatadi.

Takrorlash uchun savollar

1. G'aznachilik faoliyatining qonuniy-huquqiy asoslarini nimalar tashkil qiladi?

2. G'aznachilik maxsus vakolatli moliya organi sifatida qachon, qaysi me'yoriy-huquqiy hujjat bilan tashkil qilindi?

3. G'aznachilikning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

4. G'aznachilik markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalari tashkiliy tuzilishi, ularning funksional vazifalaridagi farqlarni aytib bering.

5. G'aznachilikning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?

6. Respublika va hududiy g'azna hisobraqamlarining mazmuni nima, tayinlanishi va yuritilish tartibi qanday?

7. Yagona g'azna hisobraqamiga o'tishning afzalliklari nimada?

8. Byudjet daromadlarini yagona g'azna hisobraqamida yuritish tartibi qanaqa?

9. Byudjet xarajatlarini yagona g'azna hisobraqamidan to'lab berish qanday tartibda amalga oshiriladi?

10. G'aznachilikning qonuniy-huquqiy va me'yoriy asoslarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izoh yozing.

11. G'aznachilik markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalari tashkiliy tuzilishi va tarkibiy bo'linmalarining bajaradigan vazifalari qanday?

12. Respublika va hududiy g'azna hisobraqamlaridan yagona g'azna hisobraqamiga o'tish davrida amalga oshirilgan tadbirlar va qabul qilingan me'yoriy hujjatlar sharhini keltiring.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Hududlarning ijtimoiy taraqqiyotida byudjet g'azna ijrosining ahamiyati haqida esse tayyorlang.
2. Mahalliy byudjetlar daromadlari tizimining uch yillik dinamikasini tayyorlab tahlil qiling.
3. Hududiy g'aznachilik organlari faoliyatini tavsiflovchi buklet tayyorlang.

16-MAVZU. DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALAR G'AZNA IJROSINI TASHKIL ETISH

16.1. Davlat maqsadli jamg'armalarining mohiyati va mazmuni, ularning guruhlanishi, maqsad va vazifalari

16.2. Davlat maqsadli jamg'armalari ijrosini tashkil etish

16.3. Davlat maqsadli jamg'armalari g'azna ijrosini amalga oshirish tartibi

16.1. Davlat maqsadli jamg'armalari mohiyati va mazmuni, ularning guruhlanishi, maqsad va vazifalari

Ma'lumki, davlatning markazlashgan pul jamg'armasi bo'lmish davlat byudjetiga turli manbalardan va turli vositalar (soliqlar, yig'img'lar, bojlar, majburiy to'lovlar) bilan mablag' to'planadi, o'z navbatida, bu mablag'lar turli maqsadlarda va yo'nalishlarda sarflanadi (masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va sh.k.). Bunda aniq bir daromad turi ma'lum bir xarajat turini qoplash uchun birlashtirilmaydi. Shu jihatdan davlat byudjeti universal pul jamg'armasi hisoblanadi. Lekin amaldagi byudjet qonunchiligi mablag'larning aniq yo'nalishlar, xarajat guruhlari va moddalari bo'yicha sarf etilishini talab etadi. Bunday sharoitda alohida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni aniq manbalar hisobidan mablag' bilan barqaror ta'minlab borish zarurati tug'iladi, chunki iqtisodiyotdagi keskinlik, nobarqarorlik va ularning natijasi o'laroq, byudjetdagi yetishmovchiliklar davrida aynan ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan xarajatlarni kamaytirish xavfi yuzaga keladi. Shuning uchun ham jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim

yo'nalishlarini aniqlab olish va mablag'larning maqsadli ishlatilishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu holatlar bir qator umumdavlat vazifalarini moliyalashtirish uchun tegishli byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni tashkil etish uchun jiddiy asos bo'lib xizmat qildi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni quyidagi usullar bilan shakllantirish mumkin:

– ma'lum maqsadga mo'ljallangan pul jamg'armasi tuzish uchun mablag'larni davlat byudjeti (yoki tegishli hududiy byudjetlar)dan ajratish yo'li bilan;

– hukumat qarorlari bilan aniq maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etish va ularga majburiy va ixtiyoriy to'lovlarni joriy qilish yo'li bilan.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida har ikkala usuldan ham foydalanilmoqda. Davlat moliya tizimida amal qilib turgan mavjud maqsadli jamg'armalar byudjet qonunchiligi bilan belgilab qo'yilgan o'z daromad manbalari bilan bir qatorda, davlat byudjetidan ajratmalar (ayrim soliqlarning bir qismini o'tkazib berish, byudjetdan dotatsiyalar ajratish shaklidagi) hisobidan ham shakllanadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etishdan maqsad - jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni mustaqil manbalar hisobidan mablag' bilan ta'minlash.

Maqsadli jamg'armalar dastlab maxsus jamg'armalar shaklida yoki hukumatning maxsus hisobraqamlaridagi mablag'lari shaklida paydo bo'lgan. Hukumatlar o'z faoliyatining kengayib borishi bilan uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yangi-yangi xarajatlarga ehtiyoj sezardi. Bu mablag'lar maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan alohida jamg'armalarda yig'ilar edi. Bu jamg'armalar odatda vaqtinchalik amal qilib, davlatning rejalashtirilgan tadbirlari amalga oshirib bo'linganidan keyin o'z faoliyatini to'xtatar edi. Shu bilan bog'liq ravishda turli maqsadlarga mo'ljallangan jamg'armalarning soni ham doimo o'zgarib turar edi.


Markazlashgan davlatning mustahkamlanishi bilan uning funksiyalarini to'laqonli bajarilishining moddiy asosi bo'lgan davlat

byudjeti ham mustahkamlandi. Lekin jamiyat ehtiyojlari kengayib borayotgan bugungi kunda davlat byudjeti bilan bir qatorda, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati ortib bormoqda.

Shunday qilib, davlat moliya tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan *byudjetdan tashqari jamg'armalar* milliy daromadni aholining ma'lum ijtimoiy guruhlari foydasiga qayta taqsimlashning bir usulidir (16.1-rasm).

Byudjetdan tashqari jamg'armalar quyidagi *asosiy vazifalarni* bajaradi:

- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlash;
- aholi uchun ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish va ularni moliyalashtirish.



16.1-rasm. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning ta'riflanishi

Byudjetdan tashqari jamg'armalar davlat moliyasi tizimining tarkibiy bo'g'ini bo'lish bilan birga, bir necha *o'ziga xos xususiyatlarga ega*:

○ davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan rejalashtiriladi hamda qat'iy maqsadli yo'naltirilgan bo'ladi;

○ jamg'armalar mablag'laridan byudjetga kiritilmagan davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladi;

○ asosan yuridik va jismoniy shaxslarning majburiy va ixtiyoriy ajratmalari asosida shakllantiriladi;

○ jamg'armalarga sug'urta badallarini to'lash va bu boradagi o'zaro munosabatlar soliq xarakteriga ega, ya'ni badallarning miqdori va sug'urta tariflari davlat tomonidan belgilab qo'yiladi hamda barcha to'lovchilar uchun majburiy hisoblanadi;

○ jamg'armalarning pul mablag'lariga davlat egalik qiladi, ular qonun hujjatlarida ko'zda tutilmagan maqsadlarga ishlatilmaydi;

○ jamg'armalar mablag'laridan maxsus ko'rsatmalarga muvofiq davlat tomonidan belgilangan maqsadlarda foydalaniladi.

Yuqoridagi rasmda (16.1-rasm) ko'rsatilganidek, *byudjetdan tashqari jamg'armalar* – davlat tomonidan ba'zi jamoat ehtiyojlarini qo'shimcha moliyalashtirish uchun mustaqil tezkorlik asosida moliyaviy resurslardan qat'iy maqsadli foydalanish shaklidir.

Mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda davlat moliya tizimida ham qator o'zgarishlar amalga oshirildi. 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi davlat moliya tizimida bir necha davlat byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalari tashkil etildi va faoliyat yurita boshladi, Bandlikka ko'maklashuvchi jamg'arma, Mineral-xomashyo resurslarini tiklash jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi jamg'armasi kabilar shular jumlasidandir. Ularning har biri ma'lum vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan. Bandlikka ko'maklashuvchi jamg'arma ishsizlik masalalarini hal etsa, Mineral-xomashyo resurslarini tiklash jamg'armasi - mineral-xomashyo bazalarini rivojlantirish uchun mablag'larni jalb etar edi. Yo'l jamg'armasi O'zbekiston hududida avtotransport kommunikatsiyalarini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash muammolarini hal etsa, Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta uchun

yo'naltirilgan, Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi jamg'armasi mehnatkashlar huquqlarini ta'minlash vazifasini bajarish uchun tuzilgan edi.

1995 yildan boshlab mablag'lardan foydalanishning maqsadli yo'naltirilganligini saqlagan holda, davlat byudjeti tarkibida davlat maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalari jamlandi. Ushbu chora davlatning barcha mablag'larini davlatning fiskal organlari nazorati ostida jamlash imkonini berdi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning guruhlanishi. Byudjetdan tashqari jamg'armalar haqida gap ketganda shuni ta'kidlash lozimki, bu jamg'armalar har doim ham davlatga tegishli bo'lmaydi, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarning kengayishi jamiyat a'zolarining kengayib borayotgan turli xil ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan nodavlat maqsadli jamg'armalarining shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi. Maqsadli jamg'armalarni quyidagi xususiyatlar bo'yicha tasniflash mumkin (16.2-rasm).

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning dastlabki tuzilishiga ko'ra:

- maqsadli jamg'armalarni tashkil qilish uchun davlat byudjetidan maxsus ajratilgan byudjet mablag'lari hisobidan;
- jamg'armalarning o'z mablag'lari hisobidan (masalan, fuqarolarning badallari, korxonalarining to'lovlari, tadbirkorlik faoliyatidan daromadlari).


Shakllantirish usuliga ko'ra:

- maxsus o'rnatilgan soliqlar va majburiy ajratmalar hisobiga;
- davlat byudjetidan ajratmalar hisobiga;
- maxsus yoki ixtiyoriy zayomlar chiqarish yo'li bilan;
- qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va joylashtirish orqali.

Amal qilish muddatiga ko'ra:

- doimiy va uzoq muddat amal qiluvchi jamg'armalar (masalan, pensiya jamg'armalari, ijtimoiy sug'urta jamg'armalari, bu jamg'armalar bajaradigan vazifalar nisbatan doimiy xarakterga ega bo'ladi);
- vaqtinchalik (ma'lum bir muddatga) tashkil etilgan jamg'armalar, ular jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichida ijtimoiy-

iqtisodiy, siyosiy yoki ekologik vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladi.



16.2-rasm. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning tasniflashi¹⁶¹

Egalik qilish huquqi va mulkiy jihatdan tegishliligiga ko'ra:

- davlatga tegishli jamg'armalar;
- turli maqsadlarda tuzilgan davlatlararo jamg'armalar;
- xalqaro jamg'armalar.

Maqsad va vazifalariga ko'ra:

- ijtimoiy maqsadlardagi jamg'armalar (pensiya jamg'armalari, bandlik jamg'armalari, nogironlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari);
- sug'urta jamg'armalari (ijtimoiy sug'urta jamg'armasi kabi);

¹⁶¹ Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya, O'quv qo'llanma. T., VNESHINVESTPROM, 2013. 140-b.

– iqtisodiy maqsadlardagi jamg‘armalar (masalan, Yo‘l jamg‘armasi, Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi kabilar);

– kredit jamg‘armalari (fuqarolar va xo‘jalik subyektlariga u yoki bu maqsadda kredit resurslarini berish uchun maxsus tashkil etilishi mumkin);

– ilmiy-tadqiqot jamg‘armalari (ma‘lum bir ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish va aniq ilmiy natijalarga erishish maqsadida tuzilgan jamg‘armalar);

– investitsion jamg‘armalar;

– ekologik maqsadlardagi milliy, xalqaro yoki hududiy darajada tashkil etilgan jamg‘armalar (masalan, “Ekosan”, “Orol” kabi jamg‘armalar);

– siyosiy jamg‘armalar (u yoki bu siyosiy kuchlarning manfaatini ko‘zlab tashkil etilishi mumkin) va boshqalar.

Markazlashish darajasiga ko‘ra:

– markazlashgan jamg‘armalar (bunday jamg‘armalar odatda butun mamlakat miqyosida maxsus hukumat qarorlari bilan tuziladi va umumjamiyat maqsadlarida markazlashgan tartibda ishlatiladi);

– markazlashmagan jamg‘armalar (hududiy yoki mahalliy darajada, yohud biron tarmoq miqyosida tuziladi va cheklangan manfaatlarni ko‘zlaydi, masalan, ilmiy-tadqiqot jamg‘armalari, investitsion jamg‘armalar).

Demak, mablag‘larning maqsadli yo‘naltirilishiga ko‘ra byudjetdan tashqari jamg‘armalar ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa jamg‘armalarga ajratiladi. Ijtimoiy ahamiyatdagi jamg‘armalar hukumatga faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu jamg‘armalar mablag‘larining shakllanishida asosan sug‘urtalanuvchi shaxslarning va tadbirkorlarning sug‘urta badallari, davlat subsidiyalari va foizsiz ssudalaridan foydalaniladi. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy maqsadlardagi jamg‘armalarga Pensiya jamg‘armasini, Bandlikka ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasini va boshqa nodavlat jamg‘armalarni kiritish mumkin.

Davlatning *ijtimoiy jamg'armalari* fuqarolarning pensiya va nafaqalar olish, kasalligi, nogironligi, boquvchisini yo'qotganligi holatlarida ijtimoiy ta'minlanish, sog'lig'ini muhofaza qilish, tibbiy xizmatlardan foydalanish, ishsizlikdan himoyalaniş kabilar bilan bog'liq konstitutsion huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Iqtisodiy jamg'armalar jamiyat xo'jalik va ijtimoiy hayotining rivojlanishiga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy maqsadlardagi jamg'armalarga Respublika Yo'l jamg'armasi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi kabilar kiradi.

Oltmishinchi yillarning boshlaridan rivojlangan davlatlarda *ilmiy-texnik* jamg'armalarni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu jamg'armalarning daromad qismini shakllantirishda byudjet mablag'lari bilan bir qatorda, yirik kompaniyalarning mablag'lari, universitetlarning badallari va boshqa manbalardan foydalaniladi. Ushbu jamg'armalarning mablag'lari fundamental tadqiqotlar olib borish, ilmiy markazlar qurish, kadrlar tayyorlash sohasidagi dasturlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Turli mamlakatlarda ularda tanlangan moliya siyosatiga mos ravishda turli yo'nalishdagi jamg'armalar tashkil etiladi. Bir mamlakatda amalda bo'lgan jamg'armaning mavjudligi, hatto u umuminsoniy va umumbashariy maqsadlarni ko'zlasa-da, boshqa bir mamlakatda ham huddi shunday jamg'armaning mavjud bo'lishiga asos bo'lmaydi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasida Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi mavjud, O'zbekiston Respublikasida esa ijtimoiy sug'urta funksiyalarini Pensiya jamg'armasi bajaradi. Ko'plab Yevropa mamlakatlarida davlat pensiya ta'minoti funksiyasini mablag' bilan ta'minlash Pensiya jamg'armalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davriylik xususiyatiga ko'ra byudjetdan tashqari jamg'armalarni *doimiy va vaqtinchalik* jamg'armalarga ajratish mumkin, dedik. Vaqtinchalik jamg'armalar ma'lum bir davrga tuzilib, o'zining pirovard maqsadini amalga oshirganidan so'ng tugatiladi.

Davlat maqsadli jamg'armalarining shakllanish manbalari va mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar maqsadli foydalanish uchun yo'naltirilgan. Odatda, jamg'armaning nomida uning maqsadi va xarajatlarning maqsadli yo'naltirilishi aks etadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish manbalari ularning oldida turgan vazifalarning xarakteri va ko'lamiga qarab belgilanadi. Manbalarning turli-tumanligi va hajmiga rivojlanishning u yoki bu bosqichdagi mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy holati bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning shakllanish manbalari nisbatan ham doimiy, ham vaqtinchalik bo'lishi, shuningdek, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari bo'yicha ham turlicha bo'lishi mumkin.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari jamg'armalarning maqsadi, aniq iqtisodiy sharoitlar hamda ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan dasturlardan kelib chiqib belgilanadi.

Mablag'larning ma'lum bir qismi ta'sischi faoliyatiga, shuningdek, qimmatli qog'ozlarga qo'yiladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar investor hamda moliya bozori subyekti sifatida ishtirok etishi mumkin, chunki ko'p hollarda jamg'armalar mablag'larining shakllanish vaqti bilan ishlatish vaqti mos kelmaydi va natijada jamg'armalar ixtiyorida vaqtincha bo'sh mablag'lar paydo bo'ladi, ularni moliya bozorida foydali joylash-tirishga imkon tug'iladi, ikkinchidan, mablag'larni investitsiyalashdan olingan daromadlar tegishli jamg'armaga qo'shimcha daromad keltiradi.

16.2. Davlat maqsadli jamg'armalari ijrosini tashkil etish

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida Konsolidatsiyalashgan byudjet tizimida jamlanadigan davlat maqsadli jamg'armalari

tarkibi keltirilgan. Konsolidatsiyalashgan byudjet O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo‘yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda byudjet tizimi byudjetlarining barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini, ular o‘rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladi. Mablag‘lari soliqlar, majburiy to‘lovlar va jarimalar, shuningdek byudjet subsidiyalaridan shakllantiriladigan davlat maqsadli jamg‘armalari davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etiladi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari yuridik shaxs shaklida yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan tuzilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga quyidagilar kiradi (16.3-rasm):

- Davlat byudjeti;
- davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari.

O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga kiritiladigan davlat maqsadli jamg‘armalarining ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadi¹⁶².


Hozirgi vaqtda jamlanma byudjet tarkibidagi davlat maqsadli jamg‘armalari qatoriga quyidagi jamg‘armalar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish jamg‘armasi;

¹⁶² O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrda O‘RQ-508-sonli qonuniga asosan.

– O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi.¹⁶³

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.



16.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti tuzilmasi¹⁶⁴

¹⁶³ O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrda O‘RQ-508-sonli qonuniga asosan.

¹⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 46-moddasi asosida.

O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Xususiyashtirilgan korxonalariga ko'maklashish jamg'armasi davlat aktivlarini xususiyashtirishdan va boshqa manbalardan tushadigan, belgilangan tartibda taqsimlanadigan mablag'larni jamlaydi

O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi xarajatlar moliyalashtirilishini ta'minlash uchun yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar va boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda 4086-sonli qaroriga ko'ra 2019 yil 1 yanvardan boshlab *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi* ijtimoiy soha muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash bo'yicha manzilli dasturlarni moliyalashtirish va kelishish funksiyalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklagan holda, *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi* sohani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish, magistral (viloyatlararo) kollektorlarni ta'mirlash va tiklash bo'yicha buyurtmachi funksiyalarini O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi zimmasiga, meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish, ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha manzilli dasturlarni moliyalashtirish va kelishish funksiyalarini esa Moliya vazirligi zimmasiga yuklagan holda, *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi* Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish dasturini O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish nazarda tutilgan holda bu jamg'armalarning faoliyatlari tugatildi.

Shuningdek, yo'l xo'jaligi sohasidagi qurilish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash bo'yicha manzilli dasturlarni moliyalashtirish va kelishish, shuningdek, avtomobil yo'llaridan foyda-

lanish va saqlash bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish, O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, uning hududiy bosh boshqarmalari, tuman yo'llardan foydalanish korxonalari, yo'llardan muntazam foydalanish korxonalari, ko'priklardan foydalanish korxonalari, Respublika yo'l jamg'armasi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasini saqlash funksiyalarini Moliya vazirligi zimmasiga yuklagan holda *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi* O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi tasarrufiga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasadir. 2007 yildan boshlab davlat byudjeti parametrlarida alohida satr bilan Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ko'zda tutila boshlandi. Mazkur jamg'arma iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo, bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish loyihalarining amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakatni barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek, samarali tarkibiy va investitsion siyosatni amalga oshirish maqsadida tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari o'zining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisobvaraqlarida chet el valyutasida shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining hisobvaraqlariga tushadigan milliy valyutadagi mablag'larning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mablag'lar tushgan sanadagi almashuv kursi bo'yicha chet el valyutasiga konvertatsiyasini amalga oshirib, ularni keyinchalik mazkur jamg'armaning valyuta hisobvarag'iga kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari:

- asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bashorati va Davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

qarorlari bilan strategik resurslarga belgilanadigan chegara narxidan jahon narxining oshishi natijasida tushadigan tushumlar;

- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi-ning aktivlarini boshqarishdan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining bo'sh turgan qoldiqlarini joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'laridan:

- rivojlanish davlat dasturlariga kiritilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish;

- yangi sanoat ishlab chiqarishlarini bundan buyon joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar berish;

- yangidan tashkil etilayotgan moliyaviy institutlarning hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi strategik ahamiyatga molik korxonalarining ustav kapitaliga investitsiya kiritish;

- davlat tomonidan tashqi mablag'larni jalb qilish bo'yicha xalqaro moliya institutlari va chet ellik kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash;

- O'zbekiston Respublikasining Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturlari doirasida tijorat banklari uchun chet el valyutasida ochiladigan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish va amalga oshirish;

- grant asosida yoki foizsiz kreditlar berish yo'li bilan ayrim loyihalarning dastlabki yoki uzil-kesil texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni moliyalashtirish;

- tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va asbob-uskunalar, strategik

ahamiyatga molik boshqa tovarlar xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berish;

- ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik milliy davlat dasturlarini hamda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishga doir loyihalarni grant asosida moliyalashtirish;

- qarz oluvchi korxonalarining investitsiya dasturlarini (biznes-rejalarini), shu jumladan ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko'paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilish hajmlarini oshirish, qo'shilgan qiymat o'sishini ta'minlashga imkon beradigan investitsiya dasturlarini (biznes-rejalarini) tijorat banklari bilan birgalikda moliyalashtirish uchun foydalaniladi.¹⁶⁵

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

-Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ko'rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

-davlat boshqaruvi organlarining Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;

-Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda ko'rib chiqadi;

-o'tgan moliya yili uchun Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tashqi audit o'tkazish hamda baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

¹⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 25-moddasiga asosan.

– byudjetga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag‘laridan belgilangan maqsadda foydalanilishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalari bo‘yicha:

– Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobot bo‘yicha tashqi audit va baholashni amalga oshiradi hamda ular yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi.

– Davlat byudjeti hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalarini tayyorlaydi;

– davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari loyihalarini ko‘rib chiqadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga byudjetnoma loyihasini ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi;

– davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmlarini yetkazadi;

– davlat maqsadli jamg‘armalari parametrlariga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar taqdim etadi;

– byudjet tizimi byudjetlarining kassa ijrosini yuritadi;

– byudjet tizimi byudjetlarining Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larini boshqaradi;

– byudjet tizimi byudjetlari ijrosining byudjet hisobini yuritadi;

– byudjet tizimi byudjetlarining kassa ijrosini yuritadi;

– byudjet tizimi byudjetlarining Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larini boshqaradi;

– byudjet tizimi byudjetlari ijrosining byudjet hisobini yuritadi.

Davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar¹⁶⁶:

¹⁶⁶ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 33-moddasiga asosan.

– davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalarini tayyorlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga kiritadi;

– davlat maqsadli jamg‘armalarining mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

– davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari daromadlari bashoratini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga yilning har choragida yetkazadi;

– belgilangan tartibda davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

– davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy to‘lovlar va boshqa tushumlar to‘liq hamda o‘z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

– davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

– davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini ijro etish jarayonida tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

– davlat maqsadli jamg‘armalarining xarajatlari maqbullashtirishini amalga oshiradi;

– davlat maqsadli jamg‘armalarining Yagona g‘azna hisobvarag‘i va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larini boshqaradi;

– davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari ijrosining byudjet hisobini yuritadi;

– davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining daromadlari va xarajatlari balanslilikiga ta‘sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazadi.

Davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

16.3. Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarini yagona g'azna hisobraqamida shakllantirish va YaG'H orqali ular xarajatlari to'lovini amalga oshirish

Davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, qonun ustuvorligini ta'minlash kabi vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi davlat ixtiyorida mablag'lar hajmi va ko'lamiga chambarchas bog'liq. Davlat tasarrufidagi mablag'larning miqdori uning siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, davlat oldiga qo'yilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, davlat boshqaruvi bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish uchun ko'plab mablag'lar zarur bo'ladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat byudjeti bilan bir qatorda, davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati yanada ortib bormoqda. Byudjetdan tashqari jamg'armalar milliy daromadni taqsimlash mahsulini aholi qatlamlariga yetkazishning ishonchli vositasiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari *Pensiya jamg'armasining* daromadlari:

- yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to'lash xarajatlarining o'rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o'rni qoplanadigan mablag'lar tushumining bir qismi, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining mudatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan

kiritiladigan mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari, majburiy to'lovlar, badallar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararining o'rnini qoplash uchun to'lanadigan nazarda tutilgan mablag'lar, vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

Pensiya jamg'armasining mablag'laridan quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

- ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;
- ishlaymaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;
- davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan keksa va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar;

– belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar.

daromadlari:

– vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" 2017 yil 18 apreldagi PF-5016-son Farmonini ijro etish hamda O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatini tashkil etildi.¹⁶⁷

¹⁶⁷ "Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish jamg'armasi mablag'larini

Jamg'arma yuridik shaxs maqomisiz tashkil etiladigan davlat maqsadli jamg'armasi hisoblanadi. Mablag'larni xususiylashtirilgan korxonalarni amaliy ravishda qo'llab-quvvatlashga, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga va tadbirkorlarning biznes yuritish asoslariga o'qishini tashkil etishga yo'naltirish Jamg'armaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Jamg'arma mablag'lari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

– Jamg'armaga yo'naltiriladigan davlat mulki ijarasidan tushadigan mablag'lar, ijara to'lovini to'lash kechiktirilganligi uchun penya va shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun jarimalar summasi;

– Korxonalarni, xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aksiyalar (ulushlar)ni, yer uchastkalarini (shu jumladan, yakka tartibda uy-joy qurish (dehqon xo'jaligini yuritish) uchun yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi) va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mulklarni (keyingi o'rinlarda davlat aktivlari deb ataladi) sotishdan tushgan mablag'lar;

– Jamg'arma mablag'lari hisobidan ilgari berilgan qarzlarni bo'yicha qarz oluvchilar tomonidan olingan qarzlarning asosiy summasi va ular bo'yicha hisoblangan foizlar tarzida qaytarilgan tushumlar;

– Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

– tuzilgan va bekor qilingan davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari), berilgan qarzlarni bo'yicha tushgan penyalar va jarimalar;

– xo'jalik jamiyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatilganda davlat ulushi bo'yicha tushumlar;

– protokolni yoki oldi-sotdi shartnomasini imzolashdan bosh tortgan yoki uni rad etgan auksionlar, tanlovlar (tenderlar) yoki ommaviy oferta g‘oliblaridan ushlab qolingana zakalat summalari;

– davlat aktivlarini sotishda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun neustoyka summalari;

– Jamg‘armaning mablag‘lari hisobidan ilgari o‘tkazilgan mablag‘lar qaytarilishidan tushumlar;

– sud qarorlari bo‘yicha tushumlar;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadalashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 17 yanvardagi PF-4933-son Farmoniga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining qarorlari asosida sotiladigan davlat mulki obyektlarini sotishdan tushadigan mablag‘lar Davlat raqobat qo‘mitasi hududiy organlari tomonidan tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlariga yo‘naltiriladi.

Davlat raqobat qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Savdosoanoat palatasi tasarrufida qoldiriladigan shuningdek, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga yo‘naltiriladigan auksion savdolarida fuqarolarga yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini sotishdan tushadigan tushumning 10 foizi mablag‘lar bundan mustasno.

Bunda:

– tushgan mablag‘lardan davlat aktivini sotish bilan bog‘liq xarajatlar (baholovchi tashkilotlar, savdolar tashkilotchilari, vositachilar va depozitariylar xizmatlarini to‘lash xarajatlari) chegiriladi. Davlat

aktivlari oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari) bekor qilingan taqdirda tegishli byudjetlarga, Davlat raqobat qo‘mitasiga va O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga, Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga avval yo‘naltirilgan mablag‘lar qaytarilmaydi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlariga, Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga mablag‘lar ularning tushishiga ko‘ra har haftada yo‘naltiriladi.

Jamg‘arma mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalarida ochilgan shaxsiy hisobraqamlarida jamlanadi.

Jamg‘armaga barcha turdagi manbalar bo‘yicha tushgan mablag‘lar soliqqa tortilmaydi. Jamg‘arma mablag‘larini taqsimlash quyidagi nisbatlarda amalga oshiriladi:

a) 96,5 foizi – kichik tadbirkorlik subyektlarining xususiylashtirilgan obyektlar va korxonalar negizida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga maqsadli yo‘naltirish uchun tijorat banklariga;

b) 1,5 foizi – mablag‘larni maqsadli ravishda bozor infratuzilmasini rivojlantirishga va tadbirkorlarni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga, shu jumladan, tadbirkorlar uchun tashkil etilgan o‘quv kurslarini moliyalashtirishga yo‘naltirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga;

d) 2 foizi – tasarruf etish va boshqarish funksiyalarini amalga oshirish, shu jumladan, davlat mulki va xususiylashtirilgan obyektlar elektron bazasi va reyestrini shakllantirish, xususiylashtirilgan korxonalarini rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining byudjetdan tashqari jamg‘armasiga.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida aniq davlat aktivini sotishdan tushgan mablag'lar boshqa maqsadlarga to'liq yoki qisman yo'naltirilgan taqdirda mablag'larning qolgan qismiga tatbiq etiladi.

Bunda tushgan mablag'lar nazarda tutilgan maqsadlarga:

– sotib olish to'lovlari (shu jumladan, hisoblangan taqdirda – penyalar) to'liq to'langandan keyin yo'naltiriladi, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg'armalari va davlat boshqaruv organlari va/yoki byudjet tashkilotlari hisobraqamlariga yo'naltiriladigan mablag'lar bundan mustasno;

– davlat aktivlarining tuzilgan va bekor qilingan oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari) bo'yicha penya va jarimalar summasi, shuningdek ushbu davlat aktivini sotish bilan bog'liq xarajatlar (baholovchi tashkilotlar, savdolar tashkilotchilari, vositachilar va depozitariylar xizmatlarini to'lash xarajatlari) chegirilgan holda yo'naltiriladi.

– Jamg'arma mablag'larining tushishi va taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar hududiy organlar tomonidan har oyda hisobot oyidan keyingi oyning birinchi sanasidagi holatiga ko'ra, hisobot oyining 5-sanasidan kechikmay Davlat raqobat qo'mitasiga taqdim etiladi.

– Jamg'arma hisobotining daromad va xarajat qismidan quyidagilar chegirib qolinadi:

– xato va ortiqcha kirim qilingan summalar, shuningdek talabgorlar tomonidan shartnomalar (bitimlar) tuzish uchun deponentlangan, lekin ular bo'yicha shartnomalar (bitimlar) tuzilmagan mablag'lar – ular qaytarilgan davrda;

– Jamg'arma mablag'lari hisobidan xato va ortiqcha o'tkazilgan summalar – ular o'tkazilgan davrda.

Davlat raqobat qo'mitasi har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasidan kechikmay O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga Jamg'arma byudjetining ijrosi to'g'risida hisobot taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining daromadlari:

- belgilangan miqdordagi yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari;
- vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining mablag‘laridan:

- ishsiz deb topilgan shaxslarni kasbiy tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari;

- ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko‘chib o‘tish munosabati bilan kompensatsiyalar to‘lash hamda ishsizlarga moddiy yordam berish;

- ishsiz deb topilgan shaxslarga muddatidan ilgari pensiya tayinlanishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi xarajatlarining o‘rnini qoplash;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamoat ishlariga haq to‘lash;

- nogironlar, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o‘rinlarini va ishlab chiqarishlarni tashkil etishga doir tadbirlarni qisman moliyalashtirish;

- aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari bo‘linmalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish;

- respublika miqyosida va hududiy miqyosda sotsiologik kuzatuvlarni tashkil etish va o‘tkazish, bandlik masalalari bo‘yicha aholining ayrim guruhlarida anketa so‘rovlarini o‘tkazish;

- mehnat bozorining respublika va hududiy axborot tizimlarini yaratish va ularning dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish, shu jumladan texnika vositalari olish;

– ish bilan band bo‘lmagan aholiga yordam ko‘rsatish, shu jumladan ishga joylashtirishga ko‘maklashish va maslahat xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar;

– aholi bandligi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha xalqaro hamkorlikni hamda xalqaro loyihalar va shartnomalarni amalga oshirishni moliyalashtirish;

– chet elga ishga yuborilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ishga joylashtirilishini tashkil etish va ularning ijtimoiy muhofaza qilinishini ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlar;

– belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa maqsadlar uchun foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, zamonaviy talablar va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda respublika umumta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini tizimli asosda rivojlantirish va mustahkamlash, ularni eng ilg‘or o‘quv, axborot-kompyuter texnikasi, darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalari bilan jihozlash maqsadida 2019 yil 1 yanvardan boshlab *O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan Xalq ta‘limini rivojlantirish jamg‘armasi* tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasining umumta‘lim maktablari bo‘yicha aktiv va passivlari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi huzuridagi Xalq ta‘limini rivojlantirish jamg‘armasiga o‘tkaziladi;

Bunda, 2019 yil 1 yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasining umumta‘lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash (qo‘shimcha jihozlash) ishlari bo‘yicha foydalanilmay qolgan qoldiq mablag‘larining tegishli qismi

tasdiqlangan manzilli ro'yxatlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Xalq ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi.

Jamg'arma daromadlari va xarajatlari bashoratini tayyorlash, ko'rib chiqish va tasdiqlash qonun hujjatlariga muvofiq kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi rivojlanish davlat dasturlari va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyihalarini tayyorlash bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Direksiya har yili navbatdagi yil uchun Jamg'armaning daromadlari bashorat rejasini:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar)lar hokimliklari takliflariga ko'ra;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa manbalar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi yoki boshqa vakolatli vazirlik va idoralar bilan birgalikda shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:

– har yili 15 iyungacha keyingi yil uchun Direksiyaga barcha yo'nalishlar bo'yicha Jamg'arma xarajatlari bashoratlarini, Jamg'arma xarajatlari bo'yicha byudjet so'rovini hamda keyingi yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tumanlar (shaharlar) bo'yicha umumta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (qo'shimcha jihozlash) ning dasturlarini;

– har yili 1 avgustgacha Direksiya bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi va Moliya vazirligiga O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni shakllantirish uchun uch yillik davrga mablag'lar ajratish bashorat hajmlarini taqdim etadi.

Direksiya O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida belgilangan tartibda Jamg‘arma daromadlari va xarajatlari bashorati bo‘yicha byudjet so‘rovini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

Jamg‘armani shakllantirish manbalari	Xarajatlar moddalari
<ul style="list-style-type: none"> • Davlat byudjeti parametrlarida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘lim sohasini moliyalashtirish uchun har yili nazarda tutiladigan mablag‘larning kamida 6%; • Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari mablag‘lari; • jismoniy va yuridik shaxslarning, sh.j. norezidentlarning homiylik xayriyalari; • xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy davlatlarning grantlari va texnik ko‘maklashish mablag‘lari; • Rivojlantirish jamg‘armasining vaqtincha bo‘sh mablag‘larini joylashtirishdan tushadigan daromadlar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar. 	<ul style="list-style-type: none"> • umumta‘lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlash, sh.j. zarurat bo‘lganda o‘quv korpuslarini o‘quv ustaxonalari va laboratoriyalar tashkil etgan holda kengaytirish, sport zallari va maydonchalarini hamda boshqa infratuzilma obyektlarini barpo etish bo‘yicha ishlarni moliyalashtirish; • zamonaviy talablarni hisobga olgan holda va tasdiqlangan normativlardan kelib chiqib, umumta‘lim muassasalarini eng yangi o‘quv-laboratoriya, ilmiy va ishlab chiqarish uskunalari, musiqa asboblari, sport uskunalari va anjomlari, kompyuter texnikasi hamda o‘quv axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshqa elementlari, shuningdek, o‘quv mebeli va anjomlari bilan jihozlashni (qo‘shimcha jihozlashni) moliyalashtirish; • jamg‘armaning ijroiya direksiyasini Vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan yillik xarajatlar smetasiga muvofiq ta‘minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining har yilgi parametrlari tasdiqlanib, Jamg‘arma uchun ajratilgan mablag‘lar miqdori

oʻrnatilgan tartibda Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligiga yetkazilgandan soʻng 15 kun muddat ichida Jamgʻarma Boshqaruv kengashi vazirlik va Direksiyaning taklifiga koʻra:

- Jamgʻarmaning qonunchilikda belgilangan yoʻnalishlar boʻyicha yillik daromadlari va xarajatlari parametrlarini;

- xalq taʼlimi muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal taʼmirlash va jihozlash (qoʻshimcha jihozlash) manzilli dasturlarining parametrlarini;

- Direksiyaning saqlash xarajatlari yillik smetasini tasdiqlaydi.

2018 yil 1 noyabrdan boshlab Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamgʻarmasi Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi idoraviy boʻysunuviga oʻtkazildi.¹⁶⁸

Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamgʻarmasi Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamgʻarmasining barcha huquq va majburiyatlari boʻyicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamgʻarmasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

- ✓ umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim muassasalarining kutubxona jamgʻarmalari uchun umumtaʼlim fanlari boʻyicha darsliklar va oʻquv-metodik majmualar bilan taʼminlashga qaratilgan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablagʻlari va homiylik xayriyalarini, xalqaro moliya institutlarining kredit va grantlarini, darsliklar va chet tillari boʻyicha mashq daftarlarining ijara toʻlovlarini jamlash, ushbu mablagʻlardan samarali foydalanishni tashkil etish;

- ✓ umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim muassasalarining ayrim toifadagi, yaʼni birinchi sinf oʻquvchilarini, «Mehribonlik» uylari

¹⁶⁸ Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 22 fevraldagi 155-son qarori "Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi huzuridagi Xalq taʼlimini rivojlantirish jamgʻarmasi toʻgʻrisida"gi Nizom.

tarbiyalanuvchilari, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning o'quvchilarini, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalardagi o'quvchilarni hamda o'qituvchilarni O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining kutubxona jamg'armalari uchun umumta'lim fanlaridan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni xarid qilish va yetkazib berishni moliyalashtirish;

✓ umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'quvchilarini ijara asosida ta'minlash uchun umumiy o'rta ta'lim muassasalarining kutubxona jamg'armalariga umumta'lim fanlaridan darsliklar va chet tillari bo'yicha mashq daftarlarini xarid qilish va yetkazib berishni moliyalashtirish;

✓ ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalari hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun bepul va ijara asosida umumta'lim fanlaridan darsliklarni umumiy o'rta ta'lim muassasalarining kutubxona jamg'armalariga xarid qilish va yetkazib berishni moliyalashtirish;

✓ xarid qilishning tasdiqlangan istiqbol kvotalaridagi darsliklar va o'quv-metodik majmualarni chop etuvchi nashriyotlar va bosmaxonalarga darsliklarning chakana savdo tarmog'i orqali sotilishini qo'llab-quvvatlash uchun qisqa muddatli maqsadli ssudalar ajratish orqali yordam ko'rsatish;

✓ jamg'arma mablag'larining o'z vaqtida tushishini ta'minlash va tahlil qilib borish.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda shakllantirilgan umumta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning har yilgi manzilli ro'yxatlari navbatdagi yil uchun O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlariga yoki Investitsiya dasturlariga belgilangan tartibda kiritiladi.

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim muassasalarining ayrim toifadagi, yaʼni birinchi sinf oʻquvchilarini, “Mehribonlik” uylari tarbiyalanuvchilari, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning oʻquvchilarini, ijtimoiy yordamga muhtoj boʻlgan oilalardagi oʻquvchilarni hamda oʻqituvchilarni darsliklar, shuningdek ijara asosida darsliklar bilan birlamchi taʼminlashga hamda Oʻzbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlariga yoki Investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarni moliyalashtirishga Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilgan mablagʻlar har oyda Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamgʻarmasi va Xalq taʼlimini rivojlantirish jamgʻarmasiga ularning asoslangan buyurtmanomasiga koʻra oʻtkazib beriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xoʻjaligini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi 2017 yil 27 iyundagi PF-5095-sonli Farmonini ijro etish hamda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining davlat xaridi va zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xoʻjaligi texnikasini yetkazib berishni maqsadli moliyalashtirishning tamoyilial yangi mexanizmini joriy etish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xoʻjaligini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi tashkil etildi.¹⁶⁹

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankiga Jamgʻarmaga moliyaviy operatsiyalar oʻtkazish uchun milliy va chet el valyutasida tegishli maxsus hisobvaraqlari ochilgan.

Jamgʻarma rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarning agrar sohani moliyalashtirish boʻyicha tajribasini oʻrganish va keyinchalik uning ijobiy tomonini respublikada tatbiq etishda tegishli xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qiladi.

¹⁶⁹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 maydagi PF-5428-sonli Farmoni asosida.

Jamg'armaning daromad va xarajatlarini tayyorlash, ko'rib chiqish va tasdiqlash

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Xalq ta'limi vazirligi	Keyingi yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar bo'yicha umumiy lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jehozlash manzili har yilgi dasturini, xarajatlar boshorati hajmlarini va byudjet so'rovini Jamg'arma ijro etuvchi direksiyaiga taqdim etadi	kelgusi yil uchun joriy yilning 15 iyunigacha
2-bosqich	Xalq ta'limi vazirligi, Ijro etuvchi direksiya	Rivojlanish davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni shakllantirish uchun uch yillik davrga mablag'lar ajratish boshorat hajmlari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi va Moliya vazirligiga taqdim etadi	har yili 1 avgustga qadar
3-bosqich	Ijro etuvchi direksiya	O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida belgilangan tartibda Jamg'arma daromadlari va xarajatlari boshorati bo'yicha byudjet so'rovnomasini Moliya vazirligiga taqdim etiladi	Byudjet kodeksida belgilangan muddatlarda
4-bosqich	Jamg'arma Boshqaruv Kengashi	Ijro etuvchi direksiya va Xalq ta'limi vazirligi taklifiga ko'ra keyingi yil uchun Jamg'arma daromadlari va xarajatlari parametrlarini, shu jumladan, Jamg'arma Ijro etuvchi direksiyaiga saqlash xarajatlari boshoratini tasdiqlaydi	O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlari tasdiqlangan keyin 15 kun muddatda

5-bosqich	Jamg'arma Ijro etuvchi direksiyasi	Jamg'arma mablag'larini tegishli oluvchilarga ular uchun belgilangan xarajatlar bashorati hajmlarini yuboradi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklariga tegishli byudjetlardan Jamg'armaga ajratiladigan mablag'lar miqdorini ma'lum qiladi	Jamg'arma Boshqaruv Kengashi tomonidan Jamg'arma parametrlari tasdiqlangandan keyin 10 kun muddatda
6-bosqich	Jamg'arma Ijro etuvchi direksiyasi	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda Jamg'arma xarajatlarini moliyalashtirish uchun ushbu maqsadga Davlat byudjeti parametrlari doirasida o'tkaziladigan mablag'lar bo'yicha reja-jadvalini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda tegishli byudjetlardan Jamg'armaga mablag'lar o'tkazish jadvallarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.	har yili 15 yanvarga qadar har yili 30 yanvarga qadar

Jamg'armani shakllantirishning asosiy manbalari hisoblanadi:

- paxta tolasini eksport va ichki iste'molchilarga sotishdan tushadigan bo'nak, shuningdek ular yuzasidan yakuniy hisob-kitob qilishdan tushadigan mablag'lar;

- tasdiqlangan preyskurandagi ulgurji narxlardan yuqori bo'lgan mablag'lar, tegishli yil hosili paxta tolasini sotish yakunlari bo'yicha – ijobiy tafovutning to'liq miqdordagi yakuniy summasi;

- don, un va un mahsulotlarini sotish va qayta baholashdan, shuningdek mahsulotlar eksportidan tushgan valyuta mablag'larini erkin birja savdolari orqali sotishdan tushadigan mablag'lar;

- maqsadli ajratilgan mablag'larni qaytarishdan tushadigan tushumlar va ularga hisoblangan foizlar;

- byudjet tizimining byudjetlari mablag'lari;

- jalb etiladigan kreditlar;

- xalqaro moliya institutlari grantlari va donor tashkilotlar mablag'lari;

- Jamg'armaning bo'sh qoldiq mablag'larini joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Jamg'arma mablag'laridan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- etishtiriladigan paxta va g'alla hosilini o'z vaqtida moliyalashtirish;

- davlat xaridi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishda ishtirok etadigan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlariga zamonaviy, yuqori unumli qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berishni moliyalashtirish;

- jalb etilgan kredit va unga hisoblangan foizlarni qaytarish;

- rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarning agrar sohani moliyalashtirish bo'yicha tajribasini keyinchalik uning ijobiy natijalarini respublikada joriy etish maqsadida o'rganish;

- urug'lik paxta etishtiruvchi xo'jaliklar, nav originatorlari bo'lgan ilmiy muassasalarga, shuningdek urug'lik chigitni tayyorlashda

ishtirok etgan boshqa subyektlarga to'lanadigan ustama mablag'lari xarajatlarini qoplash;

- sug'urta hisobvarag'ida jamlangan paxta tolasiga preyskurant va jahon narxlari o'rtasidagi ijobiy tafovut mablag'laridan, vaqtinchalik mablag' taqchilligida paxta hosilini etishtirish va yakuniy hisob-kitobini moliyalashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasini boshqarish departamenti (keyingi o'rinlarda Departament deb ataladi) faoliyatini ta'minlash xarajatlarini moliyalashtirish.

Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- etishtiriladigan paxta va g'alla hosili hisob-kitobini o'z vaqtida moliyalashtirish;

- davlat xaridi uchun qishloq ho'jaligi mahsulotlarini etishtirishda ishtirok etadigan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlariga zamonaviy, yuqori unumli qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berishni rag'batlantirish uchun qaytarib berish asosida qarz mablag'lari ajratish;

- moliyalashtirishga zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarini joriy etish va uni asosida hisob-kitob tizimini takomillashtirish;

- rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarning agrar sohani moliyalashtirish bo'yicha tajribasini keyinchalik uning ijobiy natijalarini respublikada joriy etish maqsadida o'rganish.

Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- Jamg'armaning daromadlari va xarajatlarining har yilgi balansi loyahasini ishlab chiqadi, belgilangan tartib va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi;

- Jamg'arma mablag'lari tushumini tahlil qiladi va o'z vaqtida tushishini ta'minlaydi;

- Jamg'armadan ajratiladigan mablag'larni maqsadga muvofiq ishlatish, qishloq xo'jaligi tashkilotlari tomonidan yetkazib berilgan

mahsulotlarga, yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar uchun to'liq hisob-kitob qilishni o'z vaqtida amalga oshirish javobgarligi kontraktatsiya shartnomalarini bajarishda ishtirok etayotgan tumanlar hokimlari o'rinbosarlari, qishloq xo'jaligi tashkilotlari va tijorat banklari filial rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

“Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki, paxta-to'qimachilik tashkilotlarga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari, “O'zpxatasanoat” aksiyadorlik jamiyati paxta tolasini sotishdan, “O'zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi don, un va un mahsulotlarini sotishdan tushgan mablag'larni o'z vaqtida Jamg'armaga to'lamaganligi uchun, “O'zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati hamda “O'zmashlizing” mas'uliyati cheklangan jamiyati va ularning hududiy tashkilotlari rahbarlari, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining rahbarlari va bosh buxgalterlari Jamg'arma mablag'larini maqsadga muvofiq ishlatmaganligi, hisob-kitob qilish tartibini buzganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar. Jamg'arma mablag'larining maqsadli sarflanishi, to'lovlar va hisoblarni to'liq hamda o'z vaqtida amalga oshirish ustidan nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi 2008 yil 29 dekabr PQ-1024-son qarorining 23-bandiga muvofiq, 2009 yildan boshlab davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar daromadlari va xarajatlarining g'azna ijrosi mexanizmlari tadbiiq etila boshlandi.

Bugungi kunga kelib, Konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibiga kiruvchi aksariyat davlat maqsadli jamg'armalarining daromad va xarajatlari ijrosi davlat byudjeti g'azna ijrosi mexanizmlari bilan qamrab olingan bo'lib, bu jamg'armalar mablag'lari bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish, ularni ro'yxatga olish va

ular bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish tartibi xuddi byudjet mablag'lari kabi g'aznachilikning huquqiy-me'yoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Jamg'armalarga kelib tushadigan mablag'lar ular uchun G'aznachilikda ochilgan shaxsiy hisobraqamlariga kirim qilinadi va davlat byudjetining Yagona g'azna hisobraqamida aks ettiriladi. Jamg'armalar mablag'lari hisobidan to'lovlar ularning shaxsiy hisobraqamlaridagi mablag'lar qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi.

“Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi Qoidalari”¹⁷⁰ O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son “Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-son “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq Yagona g'azna hisobvarag'ini qo'llash orqali O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlari, shuningdek boshqa maqsadli jamg'armalar byudjetlarining maxfiy xususiyatga ega bo'lmagan daromad va xarajatlarining g'azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi ham g'azna ijrosi bilan qamrab olingan. Mazkur Qoidalarning amal qilishi byudjet tizimi byudjetlari va BMJ byudjetlarining g'azna ijrosi jarayonida ishtirok etuvchi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari va buyurtmachilarga tatbiq etiladi. DMJ(davlat maqsadli jamg'aralari) va BMJ(boshqa maqsadli jamg'armalar) byudjetlariga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar YaG'Hga kirim qilinadi va qonun

¹⁷⁰ “O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari” O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №2580.

hujjatlariga muvofiq mos ravishda DMJ va BMJ byudjetlari daromadlarida aks ettiriladi. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablagʻlari YaGʻHga kiritiladi va mazkur tashkilotlarga tushumlar sifatida aks ettiriladi.

Byudjet tizimi va BMJ byudjetlari xarajatlari YaGʻH yoki Moliya vazirligining (gʻaznachilik boʻlinmalarining) boshqa bank hisobvaraqlaridan Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda hamda DMJ va BMJ byudjetlari mablagʻlari qoldigʻi doirasida amalga oshiriladi.

Buyurtmachilarning joriy moliya yilida qaytarilgan oʻtgan yillarning debitor qarzdorlik summalari YaGʻHga kiritiladi va DMJ va BMJ mablagʻlari boʻyicha – DMJ va BMJ byudjetlarining tegishli shaxsiy gʻazna hisobvaraqlarida joriy moliya yilining daromadlari sifatida tegishli shaxsiy gʻazna hisobvaraqlarida joriy moliya yilining daromadlari sifatida hisobga olinadi.

DMJ yoki BMJ byudjetlaridan mablagʻ oluvchilarning joriy moliya yilida qaytarilgan oʻtgan yillarning debitor qarzdorlik summalari, shuningdek tovar-moddiy qimmatliklarini yoki asosiy vositalarni sotishdan va inventarizatsiya (tekshirishlar) natijalari boʻyicha tushgan mablagʻlari YaGʻHga kiritiladi va tegishli DMJ va BMJ byudjetlarida joriy moliya yilining daromadi sifatida hisobga olinadi.

Bunda DMJ yoki BMJ byudjetlaridan mablagʻ oluvchilarning byudjet mablagʻlari hisobidan sotib olingan tovar-moddiy qimmatliklarini yoki asosiy vositalarini sotishdan tushgan mablagʻlar tegishli byudjetlar daromadiga oʻtkaziladi.

Oʻquvchilarning ota-onalari yoki ularning oʻrni bosuvchi shaxslar tomonidan toʻlangan darsliklar ijara toʻlovlari va darsliklar yoki oʻquv-metodik qoʻllanmalarni yoʻqotilganlik yoki yaroqsiz holga keltirilganlik uchun toʻlovlar boʻyicha tushumlarning kiritilishi, shuningdek ularni keyinchalik Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jangʻarmasining shaxsiy gʻazna hisobvaragʻiga oʻtkazilishi taʼlim

muassasalarining tegishli (4011 mablag'lar manbasi bilan) shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarining tegishli (4011 mablag'lar manbasi bilan) shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazilishi "O'RMV" ATda avtomatlashtirilgan ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Byudjet tizimi byudjetlari, shuningdek BMJ byudjetlari daromadlariga kirim qilish uchun asos bo'lmagan YaG'Hga kelib tushgan mablag'lar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan aniqlanmagan tushumlar sifatida qabul qilinadi. Agar uch ish kuni mobaynida ushbu tushumlarni aniqlash hamda ularni tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlarga kirim qilish imkoni bo'lmasa, g'aznachilik bo'linmalari ularni uchinchi ish kunida, biroq joriy yilning 31 dekabridan kechiktirmasdan belgilangan shaklda Yagona g'azna hisobvarag'idan to'lanishi (qaytarilishi) lozim bo'lgan aniqlanmagan tushumlar bo'yicha elektron to'lov topshiriqnomalari reyestri asosida "O'RMV" ATda elektron to'lov hujjatini shakllantirish orqali mablag'lar qaysi bank hisobraqamlaridan o'tkazib berilgan bo'lsa shu bank hisobraqamlariga qaytaradi.

YaG'Hdan to'lovlarni o'tkazish uchun "Bank-G'aznachilik" dasturiy majmuasi orqali yuborilgan to'lov topshiriqnomalarining asli O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim etilmaydi va g'aznachilik bo'linmalarida saqlanadi, bundan "UzASBO" DM orqali elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan elektron to'lov topshiriqnomalari mustasno.

Daromadlar bashoratlari, tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar, DMJ va BMJ byudjetlari hisobini yuritish uchun DMJ va BMJ taqsimlovchi organlari tomonidan "O'RMV" ATda quyidagilar shakllantiriladi:

- tegishli byudjetlar tasdiqlanguniga qadar – birinchi chorak uchun oylar kesimida vaqtinchalik xarajatlar yoyilmalari;

- byudjetlar tasdiqlanganidan so‘ng – oylar kesimida daromadlar va xarajatlarning yillik yoyilmalari.

DMJ va BMJ taqsimlovchi organlar “O‘RMV” ATga quyidagi ma’lumotlarni kiritadi:

- xarajatlar smetalari ro‘yxatga olinguniga qadar – birinchi chorak uchun oylar kesimida tegishli DMJ va BMJ taqsimlovchi organlari tomonidan ro‘yxatga olingan vaqtinchalik xarajatlar smetalari ma’lumotlarini;

- xarajatlar smetalari ro‘yxatga olinganidan so‘ng – oylar kesimida tegishli DMJ va BMJ taqsimlovchi organlari tomonidan ro‘yxatga olingan xarajatlar smetalari va ularga o‘zgartirishlar bo‘yicha ma’lumotlarni.

DMJ byudjetlari daromadlarining g‘azna ijrosi Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining kassa ijrosi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga (ro‘yxat raqami 2771, 2016 yil 30 mart) muvofiq amalga oshiriladi.

DMJ va BMJlar xarajatlarini amalga oshirishda yuridik majburiyatlarni shakllantirish va ro‘yhatdan o‘tkazish, moliyaviy majburiyatlar va xarajatlar to‘lovini amalga oshirish tartibi “Byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosi Qoidalari”da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlat maqsadli jamg‘armalariga ta’rif bering. Ularni shakllantirish zarurati nimada? Ular qanday vazifalarni bajaradi?

2. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarning shakllanish usullarini aytib bering.

3. Davlat moliya tizimida davlat byudjetdan tashqari jamg‘armalarining o‘rni va ahamiyati nimalardan iborat?

4. O‘zbekiston Respublikasi jamlanma byudjetidagi davlat maqsadli jamg‘armalarining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

5. Davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining shakllanish manbalari va ishlatilish yo‘nalishlarini aytib bering.

6. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining maqsad va vazifalari, shakllanish manbalari va ishlatilish yo‘nalishlarini aytib bering.

7. Davlat maqsadli jamg‘armalari g‘azna ijrosini tashkil etish tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari qanday?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. “Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida iqtisodiy maqsadlardagi jamg‘armalarning o‘rni va ahamiyati”, “Xorijiy davlatlarda maqsadli jamg‘armalardan foydalanish amaliyoti”, “Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining o‘rni va ahamiyati”, “Davlat maqsadli jamg‘armalarining g‘azna ijrosini tashkil qilish” mavzularidan biri bo‘yicha mustaqil ta‘lim majmuasini tayyorlang.

2. Biror byudjetdan tashqari jamg‘armani tanlab oling va uning asosiy vazifalari, mablag‘larining shakllanish manbalari va ishlatilish yo‘nalishlari, uning daromadlari va xarajatlari g‘azna ijrosini tashkil etish amaliyoti to‘g‘risida taqdimot tayyorlang, taqdimotni tayyorlashda jamg‘armaning faoliyatini, uning g‘azna ijrosini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy bazadan foydalaning.

17-MAVZU. G‘AZNACHILIK FAOLIYATI NAZORATI

17.1. Davlat moliyaviy nazoratida g‘aznachilik faoliyati nazoratining tutgan o‘rni

17.2. G‘aznachilikda xarajatlar smetalarini ro‘yxatga olish asosida nazoratni tashkil etish

17.3. G‘aznachilik ijrosi nazoratini amalga oshirishni takomillash-tirish

17.1. Davlat moliyaviy nazoratida g‘aznachilik faoliyati nazoratining tutgan o‘rni

G‘aznachilik tizimi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga mos holda davlat xarajatlarini samarali boshqarishga yo‘naltirilgan tashki-liy-huquqiy munosabatlarning yig‘indisidan iborat. Bu munosabatlar davlat byudjetining daromad va xarajatlari bo‘yicha amaliyotlarni qamrab olganligi sababli, O‘zbekiston sharoitida davlat moliyasini boshqarishning markazidan o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasining milliy G‘aznachiligi tizimi Davlat byudjetining G‘azna ijrosi jarayonida byudjet mablag‘larini maqsadli va samarali sarflanishini ta‘minlash hamda nazoratni kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan.

Har qanday kompaniya, tashkilot va davlat tashkilotlarida ichki nazoratni shakllanishiga bir qator omillar sabab bo‘lgan. Birinchidan, resurslarni cheklanganligi moliyaviy resurslarni tejab sarflashni taqozo etadi. Ikkinchidan, moliyaviy mablag‘lar qanchalik oqilona sarflansa korxonada ixtiyorida aylanma mablag‘lar ko‘payadi, bu esa ishlab chiqarish hajmini oshirish va investitsiya hajmini ko‘paytirish imkoniyatini beradi. Boshqa tomondan esa investitsiya jalb etilgan

taqdirda investorga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarni sifati ta'minlanadi.¹⁷¹

Moliyaviy nazoratni tashkil etishda uning turlarini to'g'ri belgilash muhim hisoblanadi. Shu jihatdan moliyaviy nazoratni 3 turga bo'lish maqsadga muvofiq hisoblanadi: byudjet moliyaviy nazorati, moliyaviy-xo'jalik(tadbirkorlik, tijorat) nazorati, mustaqil audit (17.1-rasm).¹⁷²

Byudjet moliyaviy nazorati	Moliyaviy- xo'jalik (tijorat, tadbirkorlik nazorati)	Mustaqil audit
Taftish va tekshirish natijalarini kamomad hamda o'g'irliklar sodir bo'lganda yuqori tashkilotga taqdim etish		Auditorlik firmasining maslahat xizmatlari

17.1-rasm. Moliyaviy nazorat turlari

Davlatimizning milliy me'yoriy hujjatlari va xalqaro standart va tavsiyalarda ichki nazorat to'g'risida bir qator ta'riflar keltirilgan. Mazkur ta'riflar ma'lum bir tizimning maqsadi, xususiyatlari va tuzilmasidan kelib chiqqan holda shakllantirilgan. Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarda va davlat byudjetidan mablag' oluvchilarda ichki nazorat tizimi har xil bo'lishi mumkin, biroq asosiy maqsad yagonadir, bu - *moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanilgan holda* maqsadga erishishdir.

Ichki nazorat tizimi - xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati tomonidan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish va samarali yuritish, aktivlar va hisob hujjatlarining saqlanishini ta'minlash, xato va firibgarlik holatlarini oldini olish va aniqlash, buxgalteriya yozuvlarining aniq va to'liqligi va o'z vaqtida ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan tashkiliy tadbirlar, usullar va amallar (ichki nazorat vositalari) yig'indisidir. G'aznachilik

¹⁷¹ Steven M.Bragg. TREASURY MANAGEMENT The Practitioner's Guide. John Wiley & Sons, Inc. 2010 New Jersey.

¹⁷² Ibragimov A., Sugirbayev B. Byudjet nazorati va auditi, O'quv qo'llanma, T.2010, infoCOM.UZ

ijrosi davomida byudet mablag‘larining xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan limitlar doirasida ishlatilishining *dastlabki va joriy nazorati* – yuridik va moliyaviy majburiyatlarning majburan g‘aznachilik bo‘linmalarida shakllantirilishi asosida amalga oshiriladi.

Ichki nazorat ta‘rifi qayd etilgan bir qator xalqaro standartlar va tavsiyalar mavjud. Xususan SOSO (Committee of Sponsoring of the treadway commission) tavsiyalarida ichki nazoratni shunday ta‘riflagan - “Ichki nazorat bu – tashkilot oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishga ishonch hosil qilish borasidagi tashkilotning barcha darajadagi tuzilmalari va xodimlari ishtirok etadigan jarayon”.¹⁷³

Yana shunday ta‘rif keltiriladiki, *ichki nazorat – bu direktorlar kengashi, menejment va personal tomonidan maqsadga erishishni kafolatli ta‘minlashga qaratilgan jarayon bo‘lib, u faoliyatning samaradorligiga, moliyaviy hisobotning ishonchliligi va tegishli qonunlar talablari va me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etish kabi kategoriyalarga yo‘naltiriladi*.¹⁷⁴

Mazkur hujjatda ichki nazoratning komponentlari sifatida nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat jarayonlari, informatsiya va kommunikatsiya hamda monitoring qayd etilgan.

G‘aznachilik bo‘linmalarida ichki nazoratni tuzilmalarini shakllantirish va amalga oshirishga Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori bilan tasdiqlangan Nizomda belgilangan maqsad, vazifa va funksiyalar ham asos hisoblanadi.


G‘aznachilik tizimida ichki nazorat – hududiy bo‘linma faoliyati samaradorligini va natijaviyligini oshirishga, g‘aznachilik operatsiyalarini amalga oshirishda qonunchilikka va me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlashga, lavozim majburiyatlarini maqbul

¹⁷³ Steven M. Bragg. TREASURY MANAGEMENT The Practitioner’s Guide. John Wiley & Sons, Inc. 2010 New Jersey.

¹⁷⁴ Акперов И.Г. и др. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации: Учебное пособие. И.А.Коноплева, С.П.Головач. М.: Финансы и статистика, 2007. С. 352.

tarzda taqsimlanishiga, risk, xato va kamchiliklarni oldini olishga, tezkor aniqlashga, ishonchli buxgalteriya hisobini yuritilishiga va hisobotlarni sifatli tuzilishiga yo'naltirilgan monitoring, jarayonlar, tadbirlar va tuzilmalar majmuasidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimiz G'aznachilik tizimi-da ichki nazorat tizimini takomillashtirish orqali davlat byudjeti mablag'laridan samarali va tejab foydalanish, g'aznachilik operatsiyalari jarayonidagi har qanday ko'rinishdagi risklarni oldindan aniqlash va tezkor bartaraf etishga imkoniyat yaratadi.



17.2-rasm. Davlat moliyaviy nazorati mexanizmi

Mamlakatda byudjet-soliq tizimini tuzish bilan birga, davlat moliyasini samarali boshqarish asosiy masala hisoblanadi. *Ma'lumki, boshqaruv - bu ma'lum bir ijobiy natijaga erishish uchun uslublar va tamoyillar yig'indisi orqali bir obyektga maqsadga muvofiq ta'sir etishdir, desak bo'ladi. Inson faoliyatining barcha sohalariga, jumladan, davlat moliya sohasiga ham boshqaruv jarayoni taalluqlidir.*¹⁷⁵

¹⁷⁵ Steven M. Bragg. TREASURY MANAGEMENT The Practitioner's Guide. John Wiley & Sons, Inc. 2010 New Jersey.

Davlat moliyaviy nazorati iqtisodiyotning turli bo'g'inlarining iqtisodiy faoliyatidagi yangi hodisalarni yoritib beradi, ushbu faoliyatni takomillashtirish maqsadida uning qonunchiligini belgilaydi.

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlar davlat moliyaviy nazorati subyektlari hisoblanadi. Davlat moliyaviy nazorati obyekt – bu byudjet tizimi byudjetlari, davlat mulki, tabiiy resurslar yoki soliqqa tortish, eksport va import bo'yicha biror-bir imtiyozlardir.

*Byudjet kodeksiga asosan G'aznachilik bo'linmalari davlat moliyaviy nazoratini.*¹⁷⁶

o byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari mablag'lari hisobiga tuzilgan shartnomalarini xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan summalar doirasida hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq tuzilganligi ustidan nazorat qilish asosida majburiy ro'yxatdan o'tkazish;

o xarajatlar smetalarida va ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarda nazarda tutilgan summalar doirasida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar nomidan hamda ularning topshirig'i bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilarning hisobvaraqlariga to'lovlarni bevosita amalga oshirish orqali to'lov intizomiga rioya etilishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiradi.

G'aznachilik tizimi nazorati – byudjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatini ijroga qabul qiladi va keyin taqdim qilingan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun g'aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig'iga asosan vakolatni o'ziga oladi va byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishini ta'minlash asosida to'lovni amalga oshirish maqsadida byudjetdan mablag' oluvchilarning xo'jalik shartnomalarini majburan ro'yhatdan o'tkazida va narxlar monitoringini, byudjet me'yorlariga rioya qilinishini dastlabki va joriy nazoratini amalga oshiradi.

¹⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 176-moddasi asosida.

Dastlabki moliyaviy nazorat moddiy va moliyaviy resurslarni samarasiz ishlatilishining oldini olishga xizmat qilib, bu nazoratni amalga oshirish jarayonida qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlari, ko‘zda tutilgan xarajatlarning asoslanmaganligini aniqlash mumkin. Nazoratning bu shaklida xo‘jalik operatsiyalarining moliyaviy yoki byudjet yilining boshlanishidan oldinroq qonunlar va me‘yoriy hujjatlar talablarini buzilishini oldi olinadi.¹⁷⁷




17.3-rasm. O‘tkazilish vaqti bo‘yicha moliyaviy nazoratning shakllari

Byudjet moliyaviy nazoratining maxsus uslublari: doimiy monitoring-kuzatuv, markazlashgan topshiriqlar bo‘yicha tekshirish, xarajatlar smetasining ijrosi yuzasidan hujjatli taftish, xo‘jalik faoliyati tahlili singari usublarga bo‘linadi. Oraliq vazifalarni bajarish uchun muqobil tekshirish, pul mablag‘lari va moddiy boylklarni ro‘yxatga olish, miqdor hisobni tiklash va boshqalardan foydalaniladi.

¹⁷⁷ Vahobov A.V., Maltkov T.S. Moliya. Darslik. TMI. T.: Noshir, 2012. 712 b.


G'aznachilik tizimiga o'tishgacha bo'lgan davrda byudjet ijrosi jarayoni 2 bosqichni o'z ichiga oladi: byudjet tushumlarini taqsimlash va byudjet mablag'larini davlat byudjeti mablag'larini oluvchilar hisobraqamlariga o'tkazish. Davlat byudjeti mablag'larining keyingi taqdiri butunlay foydalanuvchilarning ixtiyoriga bog'liq. Davlat byudjeti mablag'laridan samarali va oqilona foydalanilishini esa buxgalteriya hisoboti orqali tekshirish mumkin.



17.4-rasm. Moliyaviy nazoratning usullari¹⁷⁸

G'aznachilik tizimiga o'tishgacha bo'lgan davrda byudjet ijrosi jarayoni 2 bosqichni o'z ichiga oladi: byudjet tushumlarini taqsimlash va byudjet mablag'larini davlat byudjeti mablag'larini oluvchilar hisobraqamlariga o'tkazish. Davlat byudjeti mablag'larining keyingi taqdiri butunlay foydalanuvchilarning ixtiyoriga bog'liq. Davlat byudjeti mablag'laridan samarali va oqilona foydalanilishini esa buxgalteriya hisoboti orqali tekshirish mumkin.

¹⁷⁸ Vahobov A. V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. TMI. T.: Noshir, 2012. 712 b.



17.5-rasm. G'aznachilik faoliyati nazorati vazifalari

Davlat moliyaviy nazoratida g'aznachilik faoliyati nazorati vazifalari mavjud:

- qisqa fursatlarda davlat moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash;
- davlat moliyasining holati to'g'risidagi tezkor axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish;

– davlat byudjetining ham daromadlari, ham xarajatlari qismi kassali ijrosining har kungi detallashtirilgan monitoringini o‘tkazish;

– tasdiqlangan byudjet mablag‘lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldida majburiyatlar qabul qilish bosqichida (shartnoma moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o‘z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchilar tomonidan suiste‘mol qilish va noto‘g‘ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat qilish;

– byudjet tashkilotlari majburiyatlarini olgandan keyin pul mablag‘larini g‘aznachilik hisobraqamidan to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘minotchilarning hisobraqamiga o‘tkazish natijasida pul oqimlari harakati bo‘yicha jarayonlarni qisqartirish;

– g‘aznachilikning bir pog‘onasidan ikkinchi pog‘onasiga pul mablag‘larini o‘tkazishni soddalashtirish natijasida byudjet mablag‘larini tezkor ishlatish.

G‘aznachilik tizimi davlat moliyasini samarali boshqarish uchun ham, undan oqilona foydalanilishi ustidan qat‘iy nazoratni ta‘minlash uchun ham zamin yaratdi. Buni esa quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchidan, g‘aznachilik davlat byudjetining ijrosi jarayonida yuzaga keladigan daromad va xarajatlarni o‘z hisob varaqlarida jamlaydi. Mablag‘arning Yagona g‘azna hisobvarag‘iga soliq va soliq bo‘lmagan daromadlar ko‘rinishida kelib tushishi moliyaviy resurslarni operativ boshqarish va davlat byudjeti xarajatlarini o‘z vaqtida to‘lash uchun barqaror baza yaratadi.

Ikkinchidan, dastlabki nazoratni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keladi, ya‘ni davlat byudjetining maqsadli va to‘g‘ri foydalanilishi keyingi nazorat o‘rnatish orqali amalga oshirilmaydi, byudjet mablag‘lari ko‘zda tutilmagan maqsadlar uchun ajratilmaydi.

Mamlakatimizda davlat moliyasi tizimini isloh qilish jarayonida amalga oshirilayotgan har bir o‘zgarishlar natijasida pirovard maqsad ko‘zlanib ish yuritilmoqda.

G'aznachilik organlarining davlat byudjetining kassa ijrosi, daromadlar va xarajatlar ustidan nazorat hamda byudjet mablag'larini boshqarish sohasidagi vazifalari:

- Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushgan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

- Davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisobraqami, shuningdek, tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlari oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

Shartnomalarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirishdagi vazifalari:

- Byudjet tashkilotlarining tovarlar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarni, shuningdek, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmalarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga yo'naltirilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasida ko'zda tutilmagan hamda ajratilgan limitdan ortiqcha xarajatlarni oldini olish;

- Byudjet tashkilotlarini, jumladan mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- Davlat byudjeti G'aznachilik tizimiga o'tilganda byudjet muassasalari tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar uchun to'lovlar moliyaviy majburiyatlarni tasdiqlovchi va xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovarlar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga

byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan joriy nazoratni ta'minlashga erishilishi.

G'azna ijrosi jarayonida buxgalteriya hisobi va hisoboti.

Davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish hamda kafolatlarini bajarish sohasidagi vazifalari.

G'aznachilik faoliyati nazoratini amalga oshirganda nazorat natijalariga ko'ra byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish holatlarini aniqlash va bartaraf etish tartiblari amalga oshiriladi.

Byudjet kodeksiga ko'ra quyidagilar *byudjet intizomini buzish maqomida*:¹⁷⁹

-Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini ularni olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo'lmagan maqsadlarga yo'naltirish;

-mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo'shimchalar va boshqa to'lovlar miqdorlariga rioya etmaslik;

- byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlarni to'lash uchun pul mablag'lari berilishini, shuningdek pensiyalarni yetkazib berishni amalga oshiruvchi muassasalarga pul mablag'lari berilishini banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz kechiktirish.

Byudjet ijrosi bosqichida quyidagilar *smeta-shtat intizomini buzishdir*:

- noto'g'ri ma'lumotlar asosida va normativlarga nisbatan oshirib ko'rsatilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larni xarajatlar smetasiga kiritish;

¹⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 187-moddasi asosida.

- xodimlarning belgilab qo'yilgan cheklangan umumiy soniga, xodimlarning toifalari o'rtasidagi o'zaro nisbat normativlariga, namunaviy shtat normativlariga rioya etmaslik;

- byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibiga rioya etmaslik;

- tarifikatsiya ro'yxatlarini tuzishning belgilangan tartibi va normativlariga rioya etmaslik.

Moliya va g'aznachilik organlariga byudjet so'rovini, ro'yxatdan o'tkazish uchun xarajatlar smetalarini va shtat jadvallarini, shuningdek moliyaviy hisobotni belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik byudjet so'rovini, ro'yxatdan o'tkazish uchun xarajatlar smetalarini va shtat jadvallarini, shuningdek moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibini buzishdir.¹⁸⁰

O'zbekiston Respublikasiga beg'araz yordam doirasida kelib tushgan tovarlarni sotish, ijaraga berish yoki boshqa tijorat maqsadlariga yo'naltirish ulardan foydalanish tartibini buzishdir.

Byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

17.2. G'aznachilikda xarajatlar smetalarini ro'yxatga olish asosida nazoratni tashkil etish

Byudjet tashkilotlari bo'ysunuviga ko'ra respublika byudjeti va mahalliy (viloyat, tuman, shahar) byudjetlardan mablag' bilan ta'minlanadilar, ularning joriy faoliyati byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlashning o'rnatilgan tartibiga asosan moliyalashtiriladi, bunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tashkilotlar mustaqil ravishda o'z moliyaviy rejalarini *xarajatlar smetasi* shaklida qonunchilik bilan belgilangan tartibda ishlab chiqadilar.

Byudjetdan mablag' oluvchilar byudjet xarajatlarini amalga oshirish uchun g'aznachilik bo'linmalariga quyidagilarni:

a) byudjet mablag'lari bo'yicha:

¹⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 190-moddasi asosida.

– doimiy xarajatlar smetalari moliya organlarida ro‘yxatga olinguniga qadar – birinchi chorak uchun oylar kesimida moliya bo‘limlarida ro‘yxatga olingan vaqtinchalik xarajatlar smetalari nusxalarini;

– doimiy xarajatlar smetalari moliya organlarida ro‘yxatga olingandan so‘ng – moliya organlarida ro‘yxatga olingan, oylar kesimida doimiy xarajatlar smetalari;

b) byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha – moliya organlarida ro‘yxatga olingan, byudjetdan tashqari mablag‘larning kelib tushishi va ishlatilishining cheklanishi oylar kesimida ko‘rsatilgan vaqtinchalik va aniqlangan xarajatlar smetalari nusxalarini taqdim etadilar (kelib tushishi va sarflanish yo‘nalishi cheklanmagan byudjetdan tashqari mablag‘lar turlari bundan mustasno).

Byudjetdan mablag‘ oluvchilar byudjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetalari nusxalarini va ularga ilovalarni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Zaxira jamg‘armasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi zaxira jamg‘armasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimligi zaxira jamg‘armalari mablag‘lari hisobiga va byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalarni, ular moliya organlarida o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatga olinganidan so‘ng, g‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim qiladilar.

Kapital qurilish obyektlari bo‘yicha xarajatlarning oylar kesimidagi yoyilmasiga aniqliklar qurilishlarning manzilli va titul ro‘yxatlarining aniqlanishi asosida kiritiladi.

G‘aznachilik bo‘linmalari byudjetdan mablag‘ oluvchilarning byudjet tasnifining tegishli bo‘lim, bob va paragraflari bo‘yicha xarajatlarini quyidagi hollarda to‘xtatish huquqiga ega:

– byudjetdan mablag‘ oluvchilarning tegishli moliya organlariga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan hisobotlarni taqdim etmagan hollarda (moliya organlari tomonidan g‘aznachilik bo‘linmalarini byudjetdan mablag‘ oluvchilarning hisobot topshirmaganligi to‘g‘risidagi yozma bildirishnomasi bo‘yicha), tegishli byudjetdan mablag‘ oluvchilarning rahbarlarini xabardor qilgan holda;

– tegishli moliya organlari tomonidan tegishli byudjetlarning vaqtinchalik va doimiy daromadlar va xarajatlar yoyilmalari belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda – ular taqdim etilgunga qadar muddatga;

– tegishli byudjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan xarajatlar smetalari belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda – ular taqdim etilgunga qadar muddatga;

– yoyilmada ko‘rsatilgan byudjetlar xarajatlari summasi va smetalarda ko‘rsatilgan xarajatlar summasining yig‘indisi o‘rtasida farqlar aniqlanganda – farqlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etgungacha muddatga;

– byudjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan ajratilgan byudjet mablag‘larini o‘zgartirishga so‘rovnoma kelishish uchun taqdim qilinganda – ular tomonidan so‘rovnoma asosida tayyorlangan smetaga tegishli barcha o‘zgartirishlarni va ularning o‘zaro muvaffaqiyatli solishtirishlarni yoki tegishli moliya organining kiritilayotgan o‘zgartirishni rad etganligi to‘g‘risidagi yozma xabarnomasi taqdim etilgunga qadar muddatga;

– moliya organlari tomonidan ajratilgan byudjet mablag‘larini o‘zgartirishga taqdimnoma kelishish uchun taqdim qilinganda – ular tomonidan taqdimnomalar asosida tayyorlangan smetalarga tegishli barcha o‘zgartirishlarni va ularning o‘zaro muvaffaqiyatli solishtirishlari yoki tegishli moliya organining kiritilayotgan o‘zgartirishlarni rad etganligi to‘g‘risidagi yozma xabarnomasi taqdim etilgunga qadar muddatga;

– qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Bunda, xarajatlarning to‘xtatilishi ajratilgan byudjet mablag‘larining kamaytirilishi nazarda tutilayotgan bo‘lim, bob va paragraflar va xarajatlar moddalari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlarning yoyilmasiga, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetalariga, qurilishlarning manzilli va titul ro‘yxatlari (loyiha-tadqiqot ishlarining manzilli

ro'yxati)ga o'zgartirishlarning kiritilishi moliya organlari tomonidan byudjetdan mablag' oluvchilar va buyurtmachilar bilan birgalikda, ushbu o'zgartirishlar uchun so'rovnomalalar va taqdimnomalar tegishli g'aznachilik bo'linmalarini bilan kelishilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Budjet tashkiloti majburiyatlarning g'aznachilik nazorati	
Yuridik majburiyat	Moliyaviy majburiyat
Shartnoma tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yuridik majburiyat vujudga keladi	Tovar va xizmatlar yetkazib berilgandan keyin schyot-faktura yoki budjet tashkilotining kreditorlik qarzi mavjudligi tasdiqlovchi hujjat bo'lgan sharoitda moliyaviy majburiyat vujudga keladi
Shartnomani imzolashdan olsin budjet mablag'lari mavjudligi tekshiriladi	Moliyaviy majburiyat g'aznachilikning Bosh kitobida qayd qilinadi
Shartnoma to'liq yuridik kuchga ega bo'lishi uchun g'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tiladi	Moliyaviy majburiyatshartnomayoki boshqa kelishuvlarining muddati o'tgunga qadar qoplanadi.
Yuridik majburiyatlarni hisobga olishni asosiy maqsadi budjet nazoratining samaradorligini oshirishdan iborat, xarajatlarning tasdiqlangan rejadan oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi	

17.6-rasm. Yuridik va moliyaviy majburiyatlar asosida g'aznachilik faoliyati nazorati

Ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari summalarining qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek amalga oshirilgan kassa xarajatlarning ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari summalaridan oshishiga olib keladigan miqdorlarda byudjet mablag'larining kamaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi.


Ajratilgan byudjet mablag'larining kamaytirilishi byudjetdan mablag' oluvchilar va ularning mahsulot yetkazib beruvchilari bilan o'zaro yuridik majburiyatlarni bir xilga kamaytirish hollarida amalga oshirilishi mumkin.

Ajratilgan byudjet mablag'lari ko'paytirilgandan so'ng, byudjetdan mablag' oluvchilar va ularning mahsulot yetkazib beruvchilar bilan

shartnomalariga tomonlar yuridik majburiyatlarining bir xilda ko'payishini nazarda tutadigan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Tegishli byudjet mablag'larining taqsimlovchilari (oluvchilari) tashabbusi bilan byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga o'zgartirish kiritilgan hollarda, ular tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan so'rovnomalar imzolash uchun g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladi.

G'aznachilik bo'linmalari taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini tekshirishni taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini, tegishli byudjet mablag'larining taqsimlovchilari (oluvchilari) bo'yicha ularning yuridik va moliyaviy majburiatlari, shuningdek kassa xarajatlari bilan band qilinmagan, ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradi.



17.7-rasm. Moliyaviy majburiyatlar va to'lovlar bo'limining ish haqini to'lash tartibi

So'rovnomada ko'rsatilgan xarajatlar turlari bo'yicha ajratilgan byudjet mablag'lariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning

imkoni mavjud bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalari G'aznachilik dasturiy majmuida ushbu byudjet mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar)ning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi tegishli xarajatlar moddalari bo'yicha keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi. G'aznachilik dasturiy majmuida keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirish to'xtatib qo'yilgandan so'ng, byudjetdan mablag' oluvchilar (taqsimlovchilar)ning so'rovnomasi tegishli g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli xodimlari tomonidan imzolanadi va muhri bilan tasdiqlanadi.

Imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi so'rovnoma, uni g'aznachilik bo'linmasiga taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda, byudjet mablag'ining taqsimlovchi (oluvchi)ga keyinchalik uni tegishli moliya organlariga taqdim etish uchun qaytariladi.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band bo'lmagan byudjet mablag'lari mavjud bo'lmaganda va byudjet mablag'lariga so'rovnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, g'aznachilik bo'linmalari so'rovnomani qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda byudjetdan mablag' oluvchilar (taqsimlovchilar)ga qaytaradilar.

Byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga tegishli moliya organlari tashabbusi bilan o'zgartirishlar kiritilgan hollarda, ular tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan taqdimnoma yoki ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihalari g'aznachilik bo'linmalariga imzolash uchun taqdim etiladi.

G'aznachilik bo'linmalari taqdimnomada taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini, taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini tegishli byudjet mablag'larining taqsimlovchilari (oluvchilari) bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek kassa xarajatlari bilan band qilinmagan ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradi.

Taqdimnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha ajratilgan byudjet mablag'lariga o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalari G'aznachilik dasturiy majmuida ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar moddolari bo'yicha keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi.

G'aznachilik dasturiy majmuida keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirish to'xtatib qo'yilgandan so'ng, moliya organining taqdimnomasi tegishli g'aznachilik bo'linmasining vakolatli xodimlari tomonidan imzolanadi va uning muhri bilan tasdiqlanadi.

Imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi taqdimnoma, u g'aznachilik bo'linmasiga taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda, tegishli moliya organiga qaytariladi.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band bo'lmagan ajratilgan byudjet mablag'lari mavjud bo'lmaganda va ajratilgan byudjet mablag'lariga taqdimnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, g'aznachilik bo'linmalari taqdimnomani tegishli moliya organiga qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda yozma ravishda qaytaradilar.

Moliya organlari tomonidan qonun hujjatlari asosida byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar (kamaytirishlar) kiritilgan hollarda, g'aznachilik bo'linmalariga ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihalari taqdim qilinadi (respublika byudjeti bo'yicha – Moliya vazirligining tarmoq boshqarmalari O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi G'aznachiligiga ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasini taqdim etadi).

G'aznachilik bo'linmalari taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini tekshirishni, taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek tegishli

byudjetda turuvchi, barcha byudjet mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar)ning tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar moddalari bo'yicha kassa xarajatlari bilan band qilinmagan ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradilar.

Ma'lumotnoma-bildirishnomada ko'rsatilgan ajratilgan byudjet mablag'lari limitlariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni kiritish imkoni mavjud bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalari:

– G'aznachilik dasturiy majmuida tegishli byudjet mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar)ning tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar moddalari bo'yicha keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlar olishni va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi;

– ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasi taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda ijobiy xulosa tuzadi va uni tegishli moliya organlariga taqdim etadi.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band bo'lmagan ajratilgan byudjet mablag'lari mavjud bo'lmagan hollarda va so'rovnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha ajratilgan byudjet mablag'lari limitlariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lmaganda, g'aznachilik bo'linmalari, ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasi taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda, unga o'zgartirishlar kiritish imkoni yo'qligi sabablari ko'rsatilgan holda xulosa tuzadi.

Ma'lumotnoma-bildirishnomaga salbiy xulosa olingandan so'ng, tegishli moliya organlari ularni o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha choralarni ko'radilar.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yishni yechish, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan moliya organlari tegishli ma'lumotnoma-bildirishnomalar va ularni o'zaro solishtirish asosida tayyorlangan byudjet mablag'lari taqsimlovchilar (oluvchilar)ning xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar ro'yxatining barcha nusxalarini taqdim qilganidan keyin amalga oshiriladi.

G'aznachilikda yuridik majburiyat vujudga kelishidan avval dastlabki nazoratni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu *narxlar monitoringi* orqali ta'minlanadi. Buyurtmachilarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazishda va hisobga olishda narx yechimi hamda narxlar monitoringini amalga oshiriladi.¹⁸¹

G'aznachilik bo'linmalari buyurtmachilar tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan tuzilayotgan shartnomalarning sifatli ta'minlanishini va narx-navo yechimini nazarda tutuvchi byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni tanlov (tender) savdolari o'tkazilganligi natijalarini tasdiqlovchi tanlov (tender) komissiyasi qarorlari bayonnomasi nusxasi hamda elektron savdolar bayonnomasi nusxasini olish yo'li bilan amalga oshiradi.

Buyurtmachilar tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan tuziladigan shartnomalardagi narx-navo yechimi hamda ularning qonun hujjatlariga muvofiq tuzilganligiga javobgardir.

17.3. G'aznachilik ijrosi nazoratini amalga oshirishni takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasida davlatning byudjet siyosati vazifalarini barqaror va samarali amalga oshirilishida byudjet nazorati tizimi muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazarda mamlakatda byudjet ijrosini joriy nazoratini g'aznachilik organlari amalga oshiradi.

Davlat byudjetini boshqarishni tashkil qilish ishlarini yuqori darajaga ko'tarishni g'aznachilik tizimisiz ta'minlash mumkin emas. Chunki g'aznachilik tizimi byudjet daromadlari va xarajatlarini to'g'ri rejalashtirish hamda moliyaviy nazorat asosida ijro qilish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimida moliyaviy

¹⁸¹ "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №2580 7-bobi asosida.

nazoratni takomillashtirish va xalqaro tajribalaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratish, g'aznachilik operatsiyalarining nazoratini takomillashtirish muhim vazifa etib belgilangan.

Davlat moliyaviy nazorati tizimining asosini byudjet nazorati tashkil etadi, u bir tomondan, resurslarning hal qiluvchi qismini o'zida jamlaydigan davlat byudjeti mablag'larining shakllanishi va ishlatilishini tartibga solish imkonini beradi, ikkinchi tomondan esa, barcha moliya bo'g'inlari, g'aznachilik organlari va byudjet muassasalarining smeta asosida xarajatlarni moliyalashtirish amaliyotidagi o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnologik yangilanish davrida byudjet nazoratining barqaror ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshdi. Aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida byudjetdan ancha miqdorda mablag' talab qilinadi. Ushbu mablag'larni to'liq va o'z vaqtida yetkazib berish, asosan, samarali byudjet nazorati orqali ta'minlanadi. Shunday ekan g'aznachilik faoliyati nazorati hozirgi davrda respublika va uning hududlarida davlat byudjeti samarali ijrosini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish byudjetdan mablag' oluvchilar bilan birgalikda g'aznachilik organlariga ham yuklatiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizning moliya-byudjet tizimida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlarning maqsadi byudjet siyosatida byudjet kamomadining o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik, byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, ijtimoiy xarajatlarning aniq maqsadli va yo'naltirilganlik bo'lishini ta'minlashdir. Islohotlar byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish, byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarni mablag' bilan ta'minlash mexanizmini soddalashtirish, byudjet mablag'laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag'larni oqqilona taqsimlash, byudjet tashkilotlari xodimlari mehnatini

rag'batlantirish, ular faoliyatining yanada samarali bo'ulishini ta'minlash, shart-sharoitlar yaratish, byudjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda byudjet intizomini mustahkamlash uchun byudjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish, mas'uliyatini oshirish kabi yo'nalishlarda olib borilmoqda.

Byudjet mablag'laridan foydalanishda smeta-shtat intizomiga rioya etishlik, muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlariga yo'l qo'ymaslik, mablag'larni xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan maqsadlarga yuo'naltirish, byudjet mablag'laridan foydalanishda amaldagi qonun hamda boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga qat'iy rioya qilishni ta'minlash, turli xil o'g'irlik, kamomad, suiste'molliklarni oldini olishda g'aznachilikning moliyaviy nazorati muhim o'rin tutadi.

G'aznachilik nazorat faqatgina byudjet mablag'larini xarajat kilinishi ustidan emas, balki byudjetning daromadlarini shakllantirishda ham samarali bo'lmog'i lozim. Ya'ni byudjetga tushishi lozim bo'lgan daromadlarni o'z vaqtida va to'liq tushirishni va Yagona G'azna hisobraqmlarida kirim qilinishini ta'minlash, byudjetga qo'shimcha daromadlar manbalarini aniqlashda g'aznachilik ijrosi nazorati muhim o'rin tutadi.

Byudjet mablag'larini shakllantirish va ulardan oqilona xarajat kilinishi ustidan g'aznachilik faoliyati nazoratining samaradorligini oshirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirmoq lozim:

- byudjet tizimi byudjetlari ijrosi bo'yicha to'liq «shaffoflik»ni, ya'ni oshkoralikni ta'minlash. Byudjetga soliq va boshqa to'lovlarni amalga oshiruvchi har bir yuridik va jismoniy shaxslar byudjetga to'lagan mablag'lari qanday maqsadlarga sarflanganligi haqida tulik axborot olish imkoniyatiga ega bulishi kerak.

- byudjet tizimi byudjetlari ijrosi ustidan nazorat qiluvchi vakolatli organlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, tajriba va axborot almashuv tizimini yo'lga qo'yish lozim. Bunda obyektlarni birin-ketin tekshirish, ya'ni bir-birini takrorlamaslikka e'tibor qaratish kerak buladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi «Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-5075-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash hamda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish va xarajatlarini maqbullashtirishda ularning manfaatdorligini oshirishni ta‘minlaydigan mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlari va majburiyatlarini belgilashning *zamonaviy mexanizmlarini joriy etish maqsadida* O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi markaziy apparati boshqaruv xodimlarining cheklangan soni doirasida 2 ta shtat birligidan iborat byudjet inspektorlari lavozimlari joriy etldi va ularning asosiy vazifalari etib quyidagi belgilandi¹⁸²:

- mahalliy byudjetlar parametrlarining byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, belgilangan normativlar hamda mazkur qaror asosida shakllantirilishi va ijro qilinishini *monitoring qilish*;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvalini sifatli tuzilishi hamda uning ijrosi bo‘yicha *nazoratni ta‘minlash*;

- mahalliy byudjetlarda aylanma kassa mablag‘larining saqlanishi, daromadlar bashoratining oshirib bajarilishi va erkin qoldiq mablag‘lari miqdorlarining to‘g‘ri aniqlanishi ustidan *monitoring qilish*;

- mahalliy byudjetlar ijrosi to‘g‘risidagi moliyaviy hisobotlarni normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda va muddatlarda Xalq deputatlari Kengashi va yuqori moliya organiga *taqdim etilishini ta‘minlash*;

- mahalliy byudjetlar hisobidan byudjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlarini, shu jumladan, e‘lonlar berish muddatlari belgilanishi hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzilishi maqsadga muvofiqligini *nazorat qilish*.

¹⁸² O‘zg‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas‘uliyatini oshirish to‘g‘risida» PQ-3042-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 iyundagi Farmoni PF-5075-son ijrosini ta‘minlash, shuningdek, 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamda mahalliy byudjetlarning daromadlari bazasini tubdan mustahkamlash, yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish, uy-joy-kommunal, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiyalash va texnik yangilash bo‘yicha strategik muhim investitsiya loyihalarni amalga oshirishni so‘zsiz ta‘minlash yuzasidan *mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishi va mas‘uliyatini oshirish maqsadida* O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2018 yilgi soliq va byudjet siyosati Konsepsiyasi doirasida respublikamizning barcha hududlariga tajriba tartibini joriy etish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash hisobiga ***O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti g‘aznachiligi ijrosini yanada takomillashtirish va kuchaytirish*** masalalari takomillashtirilmoqda.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlat moliyaviy nazorati tarkibida g‘aznachilik faoliyati nazoratining o‘rni qanday?
2. G‘aznachilik nazorati va ichki nazoratning qanday bog‘liqligi mavjud?
3. G‘aznachilikda moliyaviy nazoratning qaysi usullaridan foydalaniladi?
4. Dastlabki moliyaviy nazorat g‘aznachilikning qaysi funksiyalari asosida amalga oshiriladi?
5. G‘aznachilik byudjet tizimi byudjetlari ijrosining joriy nazoratini qay tartibda amalga oshiradi?

6. G'aznachilik organlarining qaysi vakolatlari byudjet ijrosi nazorati bilan bog'liq?

7. Xarajatlar smetalari g'aznachilik organlarida ro'yhatdan o'tkazilishining maqsadi nima?

8. Xarajatlar smetalarini g'aznachilik organlarida ro'yhatdan o'tkazilishining tartibi qanaqa?

9. Nima uchun yuridik majburiyatlarni G'aznachilikda majburiy tarzda ro'yxatga olish tartibi joriy etilgan?

10. G'aznachilikda narx monitoringini amalga oshirish mexanizmlari haqida nima bilasiz?

11. Tenderlar haqida nima bilasiz, ularning maqsad va vazifalari, zarurligi va ahamiyati nimada?

12. Muqobil narxlarni belgilash qaysi usullar orqali amalga oshiriladi?

13. Narxlar monitoringi natijalari byudjet xarajatlari ijrosiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

14. G'aznachilik tizimi nazoratini amalga oshirishning qanday muammolari mavjud?

15. G'aznachilik nazoratini samarali tashkil etish uchun qanday choralar belgilanmoqda?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. G'aznachilik byudjet tizimi byudjetlari ijrosining joriy nazoratini amalga oshirish tartibi haqida slayd tayyorlang.

2. G'aznachilik organlarining byudjet ijrosi nazorati bilan bog'liq funksiyalarini tavsiflang.

3. G'aznachilikda byudjet ijrosining dastlabki nazorati va joriy nazoratini amalga oshirilishini chizmalarda ifodalang.

18-MAVZU. G‘AZNACHILIKDA DAVLAT XARIDINI BOSHQARIH

18.1. Davlat xaridining davlat funksiyalari bilan bog‘liqligi, uning mazmuni va mohiyati

18.2. Davlat xaridining ishtirokchilari va ularning vakolatlari

18.3. Davlat xaridlarining tamoyillari

18.4. G‘aznachilik sharoitida davlat xaridini amalga oshirish mexanizmlari

18.5. O‘zbekistonda davlat xaridlari tizimi samarali faoliyatini ta‘minlash istiqbollari

18.1. Davlat xaridining davlat funksiyalari bilan bog‘liqligi, uning mazmuni va mohiyati

Ma‘lumki, davlat sektorining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashdagi roli katta ahamiyatga ega. Uning uzluksiz va samarali faoliyati uchun tegishli tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o‘z vaqtida ta‘minlab turish zarur bo‘ladi. Davlat xaridlari esa ayni shu maqsadda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta‘kidlash joizki, davlat moliyasini isloh qilish yuzasidan olib borilayotgan o‘zgarishlarning markazida davlat byudjetining shakllanishi va uning mablag‘laridan yanada samarali foydalanish, byudjet taqchilligi o‘shishiga ta‘sir etuvchi omillarning oldini olish, shu bilan birga byudjet mablag‘laridan foydalanish jarayonida byudjet intizomlariga rioya etilishini ta‘minlash va bunda byudjet mablag‘laridan tejamkorlik asosida maqsadli va oqilona foydalanish, qolaversa, samarali davlat xaridi tizimini shakllantirish orqali davlat byudjetining

mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini oshirish masalalari turadi.

Byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishga samarali davlat xaridi tizimini shakllantirmasdan turib erishib bo‘lmaydi. Ma‘lumki, davlat byudjeti mablag‘larining katta qismi byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilarning tasdiqlangan ehtiyojlarini tovar, ish, xizmatlar bilan ta‘minlashga sarflanadi.

Davlat byudjeti iqtisodiyot rivojlanishining turli boqichlarida byudjet siyosatini amalga oshirish quroli, mo‘ljallangan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag‘larining asosiy manbai hisoblanadi. Shu bois, byudjet mablag‘laridan foydalanish yuzasidan davlat xaridi moliyaviy barqarorlik uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan davlat moliyaviy siyosatini ifodalaydi. Davlat davlat xaridining bosh maqsadi byudjet mablag‘laridan samarali, hamda oqilona foydalanishni ta‘minlashdan iborat.

Shuningdek, davlat moliyaviy nazoratining oldida turgan eng asosiy vazifa davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini hamda byudjet mablag‘laridan tejamli foydalanishni ta‘minlashdan iborat.

Davlat xaridi davlat organlari (tashkilot, muassasalari)ning davlat funksiyasini amalga oshirish uchun qiladigan xarajatlarning asosiy qismini tashkil etib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va investitsiya oqimini ta‘minlash uchun qulay shart-sharoitlar shakllanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Davlat xaridi investitsiya salohiyatini samarali taqsimlash va davlat uchun strategik ahamiyatli bo‘lgan tarmoqlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishining, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish va natijalarini ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilishning muhim vositasi sanaladi. Shuning uchun davlat xaridlarini tashkil etish bilan bog‘liq muammolar doim dolzarb bo‘lib, barcha davlatlarda davlat xaridi tizimini takomillashtirishga qaratilgan uzviy va davomli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi "Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-1475 sonli Qarorini qabul qilinishi bilan davlat xaridlarini takomillashtirishning yangi davri boshlandi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash yuzasidan mamlakatimizda bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ochiqlik, shaffoflik va raqobatga asoslanga davlat xaridi tizimini joriy etish va takomillashtirish yuzasidan qarayb 5 yil davomida shu qadar keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'lari hisobidan byudjet tashkilotlari, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalardan mablag' oluvchilarning ehtiyojlari uchun tovar(ish, xizmat)larni muqobil variantda sotib olishga erishishdir.

Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlar va narx tizimini davlat tomonidan tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, iqtisodiyotda narx tizimini tartibga solish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishiladi, bozor raqobat natijasida sifatli mahsulot, ish va xizmatlarga to'yinadi. Korxonalar tomonidan ishlab chiqaladigan strategiyalar bevosita narx siyosatiga bog'liq bo'lib, raqobat kurashi kuchaygan sharoitda oqilona narx siyosati korxonalar moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, davlat xaridi tizimida raqobatni rivojlantirish maqsadida optimal narxda tovar(ish,xizmat) yetkazib beruvchi korxonalar va kichik biznes subyektlarining elektron katalog va elektron savdolarda ishtiroklari ko'lamini kengaytirish dolzarb masalalardan biridir.

Xalqaro miqyosda yuzaga kelgan yangi iqtisodiy vaziyat, davlat mablag'lari hisobidan xarajatlarni amalga oshirishda hukumatlar oldiga qo'yilgan vazifalarning muhimligini oshirmoqda.

Ma'lumki, davlat o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya qilishga, aholining turmush darajasini ko'tarishga, hamda ijtimoiy

vazifalarni bajarishga qaratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani ta'minlash kabi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Umumdavlat xarajatlari, asosan, davlat byudjeti va davlatning boshqa markazlashtirilgan fondlari orqali moliyalashtiriladi.

Davlat byudjetining iqtisodiy tushunchasi, umumjamiyat miqyosida markazlashgan, davlat ishtirokida to'plangan va sarflanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi.

Davlat xarajatlarining muhim tarkibiy qismi sifatida davlat xaridi alohida o'ringa ega. Tovar va xizmatlarni xarid etish dunyo rivojlanish amaliyotida muhim o'rin egallaydi hamda fondlar hamda investitsiyani samarali o'zlashtirishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayon hisoblanadi. O'zbek tilidagi "xarid" termini (inglizchada, procurement – prokurment) "sotib olish" ma'nosi bilan bir ma'noda ishlatilib, zamonoviy tushunchalarda mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlarni ma'lum haq evaziga olish demakdir (inglizchada, procurement of goods, works and services).

Davlat xaridini boshqarishga tizimli yondashuv to'g'riroq bo'ladi. Shunday ekan, davlat ehtiyojlari uchun xaridni rejalashtirish va amalga oshirish hamda nazorat etish bilan bog'liq barcha jarayonlar *davlat xaridi tizimini* yuzaga keltiradi.

Davlat xaridi davlat infratuzilmasini moddiy-moliyaviy ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiy tarzda ikkita yirik tarkibiy qismiga ajratish mumkin:

- iqtisodiy infratuzilma (transport, maishiy xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo'lgan infratuzilmalar);

- ijtimoiy infratuzilma (maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, yoki boshqacha aytganda, jamiyat kundalik hayoti uchun birlamchi infratuzilmalar). Ijtimoiy sohalarga Davlat xaridini amalga oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. O'zbekistonda ijtimoiy sohalarga investitsiyalar va davlat xaridi mavjud qonuniy-me'yoriy aktlar orqali tartibga solinadi.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh etish bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida, davlat xaridini tashkil etishni tubdan isloh etish, uni tartibga soluvchi huquqiy bazani shakllantirish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish samarali yo'nalish hisoblanadi: davlat xaridini boshqarish yuzasidan ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish; davlat xaridi siyosatini davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga muvofiqlashtirish; davlat xaridi sohasidagi amalga oshirilayotgan siyosatni monitoring va baholashni tatbiq etish.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, davlat xaridi uchun qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining kvalifikatsiya darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifasi hisoblanadi.


Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlarga quyidagilar kiradi:

tovarlarga – xom-ashyo, materiallar, uskunalar, qattiq, suyuq va gaz holatidagi predmetlar, elektr energiyasi, shuningdek, tovarlarni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar qiymati (agar u tovarning bahosidan yuqori bo'lmasa) kiritiladi;

ishlarga – qurilish, ta'mirlash, bino, inshoot va obyektlarni qurish yoki ta'mirlash bilan bog'liq faoliyat turlari, shuningdek, gruntlarni qazish, yangidan qurish, jihozlash, qurilish-montaj ishlari uchun qurilish maydonlarini tayyorlash va boshqa qurilish ishlari (masalan, geodeziya, burg'ulash bo'yicha ishlar, ayero va sun'iy yo'ldosh orqali sur'atga olish, seysmik tadqiqotlar o'tkazish (agar ushbu xizmatlar bahosi asosiy ishlar bahosidan yuqori bo'lmasa)) kiradi;

xizmatlarga – tovar va ishlarga taalluqli bo'lmagan barcha xarid predmeti kiritiladi.

DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISH MODELLARI



18.1-rasm. Davlat xaridini modellari

Davlat xaridi davlat infratuzilmasini moddiy va moliyaviy jihatdan ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiy tarzda ikkita yirik tarkibiy qismga ajratish mumkin¹⁸³:

- iqtisodiy infratuzilma (transport, aloqa, kommunal xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo'lgan infratuzilmalar);

- ijtimoiy infratuzilma (maktablar, kasalxonalar, kutubxonalar yoki boshqacha aytganda, jamiyat a'zolarining kundalik hayoti, ijtimoiy ehtiyoji uchun zarur bo'lgan birlamchi infratuzilmalar). Ijtimoiy sohalar uchun davlat xaridini amalga oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi va u mavjud qonuniy-me'yoriy aktlar orqali tartibga solinadi.

O'zbekistonda davlat xaridining hajmi YaIMning 11 foizini tashkil etgani holda, uni iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil

¹⁸³ Burxonov U. Davlat xaridi. T.: InfoCOM.UZ. 2010. 10-b.

ekanligini ko'rsatadi.¹⁸⁴ Davlat xaridi YaIMning shakllanishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shuni inobatga olib, davlat xaridini amalga oshirish sohasida olib borilgan oqilona siyosat makroiqtisodiy siyosatga jiddiy ta'sir etuvchi instrument sifatida yuzaga chiqadi.

Davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish orqali, o'sha sohalar rivojiga va aholi bandligi hamda daromadlari darajasiga ijobiy ta'sir etiladi. Jumladan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy etish orqali, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sir etishi mumkin;

- sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talablariga tenglashtirish orqali milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etishi mumkin;

- ochiq tenderlarni e'lon qilish orqali raqobatni rivojlantirishga ta'sir etish mumkin bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlarda faqatgina mamlakat darajasida davlat xaridini boshqarishning samarali mexanizmlari mavjud bo'lgan sharoitda, ya'ni xaridni oqilona rejalashtirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini to'g'ri baholash orqali erishish mumkin.

18.2. Davlat xaridining ishtirokchilari va ularning vakolatlari

Davlat xaridlari o'tkazilishi davlat xaridlari to'g'risidagi shart-nomasini shakllantirishga asos bo'ladi. Davlat xaridlari to'g'risidagi shartnoma – davlat xaridlari bo'yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida buyurtmachi va davlat xaridlarining ijrochisi o'rtasida tuziladigan bitim.

Davlat xaridlarining subyektlari –

- davlat buyurtmachisi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi;

¹⁸⁴ О проблемах управления государственными закупками в Республике Узбекистан и направлениях совершенствования. Аналитическая записка ЮНДП. Т., 2013. С. 3.

- **yagona yetkazib beruvchi** – tabiiy monopoliya subyekti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida farmonlarida, qarorlarida va farmoyishlarida yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan subyektlar, shuningdek davlat tomonidan xarid qilinayotgan, bozorda muqobillari mavjud bo‘lmagan noyob tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi;

- **davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ** – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

- **hisob-kitob-kliring palatasi** – avans to‘lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo‘li bilan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajara oladigan ishtirokchilarni elektron xaridlarga kirishini ta‘minlovchi maxsus axborot portalining tarkibiy bo‘linmasi;

-xarid komissiyasi,

-maxsus axborot portali operatori

- maxsus axborot portali ekspert.

Davlat buyurtmachilari deganda quyidagilar tushuniladi:

1) byudjet buyurtmachilari:

davlat organlari;

byudjet tashkilotlari;

xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan byudjet mablag‘larini oluvchilar;

davlat maqsadli jamg‘armalari;

2) korporativ buyurtmachilar:

davlat korxonalari;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar;

ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig‘i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar.

Davlat buyurtmachisi:

- mustaqil ravishda yoki ixtisoslashgan tashkilotni jalb etgan holda tovarning (ishning, xizmatning) boshlang‘ich narxini belgilash, bundan qonun hujjatlarida belgilangan hollar mustasno;

- davlat xaridlarini amalga oshirishda o'z rasmiy veb-saytiga yoki o'zining yuqori turuvchi organi rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalariga e'lon joylashtirish;

- xarid qilish tartib-taomillarining barcha ishtirokchilariga tatbiq etiladigan takliflarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish;

- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari takliflarining amal qilish muddatini muayyan davrga uzaytirish to'g'risidagi taklif bilan ularga murojaat qilish;

- ikkinchi bosqich yakunlari bo'yicha tender tarzida xarid qilish tartib-taomilini o'tkazishda g'olib bilan narxni pasaytirish to'g'risida muzokaralarga kirishish huquqiga ega.

- xarid qilish tartib-taomili turini tanlash to'g'risida qaror qabul qilishi;

- belgilangan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirishi;

- davlat xaridlari to'g'risidagi axborotni belgilangan tartibda va muddatlarda maxsus axborot portaliga joylashtirishi;

- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) va davlat xaridlarining tartib-taomillari bilan bog'liq so'rovlari bo'yicha ularga qonun hujjatlariga muvofiq tushuntirishlar berishi;

- xarid qilish tartib-taomillarining g'olib deb topilgan ishtirokchilari bilan shartnomalar tuzishi, shuningdek ularning ijro etilishini ta'minlashi;

- bo'lajak davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlarni faqat moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi tasdiqlangan taqdirdagina maxsus axborot portaliga va boshqa ommaviy axborot vositalariga joylashtirishi shart.

- belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomilida davlat xaridlarini ijro etish uchun talabgorlar sifatida ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

Davlat buyurtmachilarining tasniflanishi

Byudjet buyurtmachilari	Korporativ buyurtmachilar
davlat organlari	davlat korxonalari
byudjet tashkilotlari	ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50% va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar
xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan byudjet mablag'larini oluvchilar	ustav fondining (ustav kapitalining) 50% va undan ortig'i 50% va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar
davlat maqsadli jamg'armalari	

Belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomilida davlat xaridlarini ijro etish uchun talabgorlar sifatida ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

Ishtirokchi:

- davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hajmda foydalanish;
- muayyan davlat xaridlari tartib-taomillari, ularni o'tkazish talablari va shartlari bo'yicha so'rovlar berish va tushuntirishlar olish;
- xarid komissiyasi tomonidan takliflar ochilayotganda belgilangan tartibda ishtirok etish;

Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari

T/r	Xarid tartib-taomillari turi	Qisqacha ta'rif	Mezonlari (birgalikda amalga oshiriladigan)
1	Elektron do'kon	Maxsus talablar tatbiq etilmaydigan iste'mol tovarlarining va boshqa tovarlarning (ishlar-ning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan maxsus axborot portalidagi maxsus maydoncha	bir shartnoma bo'yicha byudjet buyurtmachilari uchun EKIHning 25 baravaridan oshmaydigan, biroq bir yilda bir davlat buyurtmachisi EKIHning 2 500 baravari miqdoridagi summadan ko'p bo'lmagan tovarlar xaridini amalga oshirish bir davlat buyurtmachisi uchun EKIHning 25 baravaridan oshmaydigan miqdordagi ishlar xizmatlar xaridini amalga oshirish
2	Boshlang'ich narxni pasaytirish o'tkaziladigan auktsion (elektron shaklda)	Ishirokchini tanlashning yagona omili narx hisoblanadi (<i>belgilangan tovar sifatini standartlariga rioya qilgan holda</i>)	tovar standart xususiyatlarga ega tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zaruraining mavjud emasligi xizmatlarning, ishlarining davlat xaridi obyektiga bo'lmashligi
3	Tanlov	Shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan ishtirokchi g'olib deb	tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha byudjet buyurtmachilari uchun auktsiondagi davlat xaridlari bir shartnoma bo'yicha EKIHning 2 500 baravaridan ortiq bo'lmashligi kerak tovarning (ishning, xizmatning) batafsil va aniq ta'rifini ta'riflash imkoniyati mavjudligi

			topiladi	g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'lishi
				tovar* qiymati bir shartnoma bo'yicha byudjet buyurtmachilari uchun – EKJHning 2 500 baravaridan 6 000 baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi
				xizmatlarning, ishlarning* qiymati bir shartnoma bo'yicha byudjet buyurtmachilari uchun – EKJHning 25 baravaridan 6 000 baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi
4	Tender		Shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tender ishtirokchisi g'olib deb topiladi	g'olibni aniqlash mezonlari tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o'z ichiga oladi
	Yagona beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari		Quyidagilardan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish: – tabiiy monopoliya subyektidan; – Prezidentning yoki Vazirlar Mahkamasining hammay hujjatida belgilangan	tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha byudjet buyurtmachilarida – EKJHning 6 000 baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi
				bozorda muqobilari bo'lmagan va faqat yagona yetkazib beruvchidan xarid qilish mumkin bo'lgan texnik jihatidan murakkab tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xaridi
				madaniy qiymatliklarni olish

<p>subyektdan; – noyob tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchidan.</p>	<p>Prezidentning normativ hujjatlari yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosidagi davlat xaridlari</p>
<p>Barcha yagona yetkazib beruvchilar maxsus reyestrga kiritiladi.</p>	<p>Tabiiy monopoliya subyekti tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) davlat xaridi</p>
	<p>o'z vakolatlariga muvofiq faqat davlat hokimiyati va boshqaruv organlari yoki ularning tasarrufidagi davlat muassasalari yoki tashkilotlari tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarga yoki ko'rsatilishi mumkin bo'lgan xizmatlarga ehtiyoj paydo bo'lishi</p>
	<p>tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) Hukumat tomonidan belgilanadigan tariflar bo'yicha davlat xaridi</p>

* Agar investitsiya loyihalari doirasidagi Prezident normativ hujjati bilan tender o'tkazmaslikka ruxsat berilgan bo'lsa, u holda davlat xaridi qiymatidan qat'iy nazar, tanlov o'tkaziladi.

- xarid qilish tartib-taomillari buzilgan taqdirda davlat xaridlari natijalari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

- davlat xaridlari tartib-taomillarida ko'rsatilgan hollarda qonun hujjatlariga muvofiq takliflarga o'zgartishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish;

- davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

- davlat xaridlari to'g'risidagi hujjatlar talablariga muvofiq bo'lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchiligi uchun javobgar bo'lishi;

- g'olib deb topilgan taqdirda davlat buyurtmachisi bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.

Xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha g'olib deb topilgan va u bilan shartnoma tuzilgan ishtirokchi davlat xaridlari ijrochisidir:

- davlat buyurtmachisi bilan tuzilgan shartnomani ijro etish jarayonida tushuntirishlar olish uchun unga murojaat qilish;

- yetkazib berilgan tovar (ish, xizmat) uchun haq olish;

- shartnoma shartlariga muvofiq va (yoki) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda shartnomani bekor qilishi;

- davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

- shartnomani uning shartlariga muvofiq ijro etishi;

- shartnomani ijro etish jarayonida davlat buyurtmachisiga yoki vakolatli davlat organiga uning so'rovi bo'yicha tushuntirishlar va axborot berishi shart.

- Ijrochi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari g'olibini tanlash to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan kollegial

organdir. Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi - ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iborat.

Xarid komissiyasi davlat buyurtmachisi huzurida doimiy faoliyat ko'rsatadigan, davlat buyurtmachisining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladigan va tarqatib yuboriladigan organdir. Xarid komissiyasi – davlat buyurtmachisi huzurida doimiy faoliyat ko'rsatadigan, xarid qilish tartib-taomillari g'olibini tanlash to'g'risidagi qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan kollegial organ. Xarid komissiyasi toq sonli a'zoldan iborat bo'ladi (*a'zolar tarkibi va soni o'zgartirilishi mumkin*), davlat buyurtmachisining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

Xarid komissiyasi toq sonli a'zoldan iborat bo'ladi, uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin. Xarid komissiyasi ijrochini aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosiligi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

Xarid qiymati EKIHning 5 000 baravaridan yuqori bo'lganda, xarid komissiyasi majlisi yuzma-yuz o'tkaziladi. Summa kamroq bo'lganda, sirdan – so'rov orqali, barchaning ishtirokisiz o'tkaziladi. Qiymati EKIHning 5 000 baravaridan ortiq miqdordagi davlat xaridlari o'tkazilganda xarid komissiyasi tarkibiga Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining va "O'zInjiniring" RLning vakillari kiritiladi.

Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tanlov (tender) hujjatlarini kelishadi;
- takliflar qabul qilinadigan muddatlarni belgilaydi;

- takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;
- takliflarni baholash mezonlarini belgilaydi;
- taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;
- xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;
- malaka tanlovini o'tkazadi, agar tanlov (tender) hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;
- xarid qilish tartib-taomillarini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi;
- xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari ijrochisini va zaxira ijrochisini belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha ishtirokchilar uchun majburiydir.

Xarid qilish tartib-taomillari:

- xo'jalik faoliyati doirasida o'tkazilganda xarid komissiyasi davlat buyurtmachisining vakillari orasidan, zarur bo'lgan taqdirda ovoz berish huquqiga ega ekspertlar jalb etilgan holda shakllantiriladi;
- loyiha faoliyati doirasida o'tkazilganda xarid komissiyasi vazifalarini belgilangan tartibda tashkil etiladigan loyihani amalga oshiruvchi guruh bajaradi, u xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish natijalari to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Maxsus axborot portali operatori - maxsus axborot portalining uzluksiz ishlashini, unga joylashtirilgan axborotning but saqlanishini va bir butunligini, mazkur portalning tegishli davlat boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytlari va axborot tizimlari bilan belgilangan tartibda uyg'un ishlashini ta'minlaydi;

- qonun hujjatlariga muvofiq axborotning elektron shaklda saqlanishini, shu jumladan elektron hujjatlar va elektron xabarlar saqlanishini ta'minlaydi;

- maxsus axborot portalida davlat boshqaruvi organlari o'rtasida axborot almashinuvini tashkil etadi;

- maxsus axborot portalini O'zbekiston Respublikasi hududidagi apparat-texnika vositalariga joylashtiradi;

- vakolatli organ, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zinjining" respublika loyihalashtirish instituti bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha vakolatga ega:

- davlat xaridlari sohasida byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- xarid qilish tartib-taomillari turlarini takomillashtirish va ularning qo'llanilishini kengaytirish bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining keng ishtirokini nazarda tutuvchi takliflar tayyorlanishini muvofiqlashtiradi;

- vakolatli organ bilan birgalikda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining davlat xaridlari sohasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi hamda ularga yo'nalish beradi, ularning faoliyati ustidan nazoratni ta'minlaydi.

Davlat xaridlari sohasini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-sonli "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi qarorida ko'rsatilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2011 yil 1 apreldagi 100-son qaroriga huzurida Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasi tashkil qilindi va uning ishchi organi etib O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi deb belgilangan edi. 2017 yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ etib belgilandi.

Vakolatli organ:

- davlat xaridlari sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;
- davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda ro'yobga chiqarishning samaradorligi va shaffofligini oshirish bo'yicha choralar ko'radi;
- maxsus axborot portalining operatorini va uning davlat xaridlarini tashkil etish hamda o'tkazish borasidagi faoliyati qoidalarini belgilaydi;
- taklifni baholash va taqqoslash usullarini hamda mezonlarini, shuningdek davlat xaridlarini amalga oshirish usulini tanlash tartibini va ularning tartib-taomilini belgilaydi;
- iqtisodiy jihatdan eng foydali taklifni baholash usulini qo'llash tartibini (baholashning narxga asoslanmagan mezonlarini) belgilaydi;
- davlat xaridlari bo'yicha axborotni joylashtirish, oshkor qilish va undan foydalanish tartibini hamda hajmlarini, shuningdek tovarga (ishga, xizmatga) hamda davlat xaridlarini amalga oshirish usuliga qarab e'lon qilishga doir qo'shimcha talablarni belgilaydi;
- xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish to'g'risidagi e'lon va xabarning, xarid qilish hujjatlarining, xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisi taklifining, xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish uchun buyurtmanomalarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasining namunaviy nusxalarini tasdiqlaydi;
- insofsiz ijrochilarning yagona reyestrini shakllantirish tartibini belgilaydi;

- davlat xaridlaridagi shartnoma majburiyatlarini bajarish masalalariga doir nizolar va kelishmovchiliklarni, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga kelib tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi.

Vakolatli organ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

18.3. Davlat xaridlarining tamoyillari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsad, nafaqat davlat mablag‘laridan foydalanishning samarali hisob va nazoratini tashkil etish, balki davlat buyurtmachilarining shartnomaviy-huquqiy tartibga rioya etish darajasini oshirishdan iborat.

Davlat xaridini tashkil etish bo‘yicha mutlaqo yangi tamoyillarga asoslangan tizim shakllantirilmoqda va tabiiy ravishda, bu sohada o‘z yechimini kutayotgan qator muammolarni ko‘rsatish mumkin, jumladan:

- davlat xaridini amalga oshirishning mavjud tizimi respublika miqyosida davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun qilinadigan xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermaydi;

- me‘yoriy-huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, xususan, O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari to‘g‘risida qonun qabul qilinmaganligi;

- davlat xaridini amalga oshiruvchi va uning nazoratini ta‘minlovchi malakali kadrlarning yetishmasligi;

- xarid tizimining hamda uning mexanizmlarining ochiq-oydin emasligi va boshqalar.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda g‘aznachilik tizimidan foydalanishni kengaytirish borasida alohida mexanizm ishlab chiqilishi va amalda qo‘llanilishi, kichik biznes korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko‘rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo‘yicha ochiq

elektron tizimning bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishga erishiladi.

Davlat xaridi tizimini isloh etish kompleks yondashuvni talab etadi. Islohotlar faqatgina maxsus qarorlar qabul qilish va davlat xaridi bo'yicha vakolatli agentlikni tashkil etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli davlat organlarining hamkorlikdagi harakatini yo'lga qo'yish, ular o'rtasida vakolatlarni to'g'ri taqsimlash, tizimda kuchlar nisbati tengligini ta'minlovchi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, davlat xaridi borasida qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining malaka darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlardagi kamchiliklarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda va davlat xaridini amalga oshirishda qatnashuvchi boshqa subyektlar ishtirokida davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Davlat xaridlarini amalga oshirishning quyidagi tamoyillari shakllantirilgan:

- ✓ davlat buyurtmachisining kasbiy mahorati;
- ✓ asoslanganlik;
- ✓ moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi;
- ✓ ochiqlik va shaffoflik;
- ✓ tortishuv va xolislik;
- ✓ mutanosiblik;
- ✓ davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi;
- ✓ korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik.

Davlat xaridlarining asosiy tamoyillari davlat xaridlari jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanilishi kerak.

Davlat buyurtmachisining kasbiy mahorati tegishli bo'linmalar xodimlariga nisbatan soha bo'yicha ma'lumoti bo'lishi, malakasini muntazam ravishda oshirishi hamda bosqichma-bosqich amaliy tajribaga ega bo'lib borishi to'g'risida talablar belgilash yo'li bilan ta'minlanadi.

Davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun javobgar bo'lgan shaxsni belgilashi shart.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan taqdirda, xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun javobgar bo'lgan shaxs bajariladigan vazifalardan chetlashtirilishi lozim.

Davlat xaridlari davlat buyurtmachisining o'z oldida turgan vazifalarni hal etishni ta'minlaydigan haqiqiy talablari va ehtiyojlarini samarali qanoatlantirish uchun davlat xaridlarini o'tkazishning maqsadga muvofiqligi va zarurligi, tovarni (ishni, xizmatni) tanlashning, uning iste'mol xususiyatlarining (tavsifining), sifat ko'rsatkichlari va qiymatining asoslanganligi hisobga olingan holda amalga oshirilishi kerak.

Davlat xaridlari:

➤ davlat buyurtmachisining davlat xaridlarini o'tkazish xarajatlarini va tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatini hisobga olish;

➤ davlat xaridlari uchun ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish, shu jumladan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olishdan ko'rilgan naf, ularning sifati va qiymati o'rtasidagi maqbul nisbatni (foydalanish davri xarajatlarini hisobga olgan holda) ta'minlash;

➤ davlat xaridlarini maqbul muddatlarda o'tkazish imkonini beradigan oqilona va tejamkor usulda amalga oshirilishi kerak.

Davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligi:

tegishli davlat organlariga, davlat xaridlari subyektlariga va jamoatchilikka davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'liq, o'z vaqtida, erkin va bepul

foydalanish imkoniyatini ta'minlagan holda uni maxsus axborot portaliga joylashtirish, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno;

xarid qilish tartib-taomillariga doir hujjatlarni va hisobotlarni tuzish hamda but saqlashni ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Davlat xaridlaridagi tortishuv xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari o'rtasida tortishuv, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqishda hamda xolis va asosli mezonlar asosida eng maqbul variant foydasiga yakuniy qaror qabul qilishda beg'arazlik va shaffoflik mexanizmlaridan foydalanish hisobidan qo'llab-quvvatlanadi.

Davlat xaridlarining xolisligi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqishdagi va eng maqbul variant foydasiga yakuniy qaror qabul qilishdagi beg'arazlikni nazarda tutadi.

Davlat xaridlarining xolisligi:

✓ xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga teng imkoniyatlarni ta'minlashga;

✓ davlat xaridlari subyektlari o'rtasida raqobatni va ularga nisbatan beg'arazlikni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga;

✓ davlat xaridlari jarayonida shikoyatlar, nizolar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqishning hamda tegishli chora-tadbirlar ko'rishning ochiq, oshkora va tortishuv mexanizmlariga asoslanadi.

Davlat xaridlarida mutanosiblik:

- davlat xaridlarini amalga oshirish usulining tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavf-xatariga, qiymatiga, xususiyatiga va murakkabligiga;

- talablarning xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari malakasiga oid ma'lumotlarga, takliflarni baholash mezonlari va usullarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga);

- davlat xaridlari subyektlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi ularning o'z vazifalariga mosligi bilan ta'minlanadi.

Davlat xaridlari maqsadlar, tamoyillar va yondashuvlarning yagonaligiga, davlat xaridlari jarayoni barcha bosqichlarining yaxlitligi

va o'zaro aloqadorligiga hamda davlat xaridlari barcha subyektlarining hamkorligiga asoslanadi.

Davlat xaridlarining yagonaligi va yaxlitligi:

✓ davlat xaridlarini tartibga soluvchi yagona va yaxlit normativ-huquqiy baza hamda uni bir xilda qo'llash;

✓ davlat xaridlarining davlat xaridlari to'g'risidagi barcha axborotni to'plash, unga ishlov berish va uni tahlil qilishni hamda barcha manfaatdor shaxslarga undan foydalanishni ta'minlaydigan yagona, yaxlit va kompleks axborot tizimi mavjudligi;

✓ davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmlari, tartib-taomillari va usullarini birxillashtirish;

✓ davlat xaridlariga oid hujjatlarni birxillashtirish;

✓ tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yagona milliy klassifikatorini joriy etish;

✓ davlat xaridlarini rejalashtirish va amalga oshirishni, davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalarni (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) tuzish va ijro etishni, monitoringni va nazoratni amalga oshirishni, nizolar hamda kelishmovchiliklar ustidan shikoyat qilish va ularni ko'rib chiqishni, davlat xaridlari subyektlarining kasbiy mahorati darajasini va mas'uliyatini oshirishni tashkil etish imkonini beradigan yagona infratuzilmaning mavjudligi bilan ta'minlanadi.

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishga doir talablar davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasligi kerak. Bunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarining samarali ijrosini, davlat buyurtmachilari faoliyatining uzluksizligini ta'minlash, shuningdek, davlat xaridlarining amalga oshirilishini tartibga solishni takomillashtirish maqsadida quyidagilarga tadbir qo'yiladi:¹⁸⁵

¹⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi PQ-3953-sonli qaroriga asosan.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq davlat xaridlari strategik subyektlari amalga oshiriladigan davlat xaridlariga, davlat tomonidan himoya qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarning xavfsizligini ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta‘minlash va ichki tartibni saqlash uchun amalga oshiriladigan davlat xaridlariga, shuningdek, davlat sirlari bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xaridlariga,

- favqulodda vaziyatlar yuz bergan hollarda O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlariga,

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari sayloviga,

- O‘zbekiston Respublikasining referendumlariga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularni o‘tkazish uchun amalga oshiriladigan davlat xaridlariga,

- agar donor mamlakatlarning, tegishli xalqaro, hukumatga qarashli bo‘lgan va hukumatga qarashli bo‘lmagan chet el tashkilotlarining tartib-taomillarida yoki O‘zbekiston Respublikasining kafolati ostida chet el kreditlarini va chet el grantlarini taqdim etish shartlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning boshqacha tartibi belgilangan bo‘lsa,

- sud muhokamalarida ishtirok etish uchun advokat (vakil) tayinlanishi bilan bog‘liq davlat xaridlariga, narxlari qonun hujjatlariga muvofiq qat‘iy belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Davlat xaridi xarid komissiyalari tomonidan *baholanadigan eng yaxshi takliflarni saralab olish yo‘li bilan amalga oshirilishi belgilandi:*

- davlat tomonidan himoya qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarning xavfsizligini ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta‘minlash va ichki tartibni saqlash uchun, shuningdek davlat sirlari bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari sayloviga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishgan holda tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining referendumlariga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularni o‘tkazish uchun;

to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha:

- O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishgan holda tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha favqulodda holatlarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta‘minlash uchun;

– sud muhokamalarida ishtirok etish uchun advokat (vakil) tayinlanishi bilan bog‘liq;

– narxlari qonun hujjatlariga muvofiq qat‘iy belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) davlat xaridlariga nisbatan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Hisob palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat buyurtmachilari tomonidan belgilangan ro‘yxatga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni keyinchalik ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 3 kundan kechiktirmasdan davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtirgan holda to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida xarid qilish tartibi belgilandi.

18.4. G‘aznachilik sharoitida davlat xaridini amalga oshirish mexanizmlari

Davlat xaridi - bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to‘liq davlat mablag‘lari evaziga sotib olishdir.¹⁸⁶ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida “*davlat xaridlari* –

¹⁸⁶ U. Burxanov. Gosudarstvennie zakupki. http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf

byudjet tizimi byudjetlarining mablag‘lari hisobidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish” deb ta’rif berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “**davlat xaridi** – tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat buyurtmachilari tomonidan pulli asosda olish” ta’rifi keltirilgan.

Davlat xaridlarini amalga oshirishning quyidagi tushunchalar shakllantirilgan:

1. **Tanlov** – shartnomani bajarish bo‘yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan ishtirokchi g‘olib deb topiladigan xarid qilish tartib-taomilini amalga oshirishning turi;

2. **Tanlov taklifi** – tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq ishtirokchining tanlov predmetiga nisbatan taqdim etiladigan taklifi;

3. **Lot** – turli belgilari bo‘yicha guruhlashtirilgan (foydalanish, texnik va funksional xususiyatlariga ko‘ra) bir xil turdagi tovarlarning jamlanmasi sifatida buyurtmachi tomonidan belgilangan va alohida shartnoma bo‘yicha xarid predmetining miqdoriy qismi;

4. **Taklifni ta‘minlash** – buyurtmachining talabiga binoan ishtirokchi tomonidan takliflar va majburiyatlarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usulda ta‘minlanishi;

5. **Shaxsiy kabinet** – elektron davlat xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta‘minlaydigan, buyurtmachi yoki xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisining maxsus axborot portaldagi individual sahifasi;

6. **Reja-jadval** – tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridining hajmlari va joylashtirish muddatlarini nazarda tutuvchi hujjat;

7. **Davlat xaridlari bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma** – maxsus axborot portalida ro‘yxatga qo‘yilishi shart bo‘lgan, davlat xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida buyurtmachi va davlat xaridlarining ijrochisi o‘rtasida tuziladigan bitim;

8. **Qadam o'Ichovi** – narxni pasaytirish uchun auksionning boshlang'ich narxini yoki oldingi ishtirokchi narxining foiz bilan belgilanadigan kamaytirish pul miqdori;

9. **Yagona yetkazib beruvchilar reyestri** – vakolatli organ bilan kelishilgan holda maxsus axborot portali operatori tomonidan yuritiladigan axborot resursi;

10. **Zaxira ijrochisi** – tegishli xarid komissiyasining qarori bilan tanlov yoki tender g'olibidan so'ng tanlov yoki tender taklifi eng yaxshi deb topilgan tanlov yoki tender ishtirokchisi;


11. **Maxsus axborot portali** – operatorning davlat xaridlari o'tkazilishini, davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlar, davlat xaridlari yakunlari, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflari haqidagi axborotning va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborotning elektron shaklda joylashtirilishini va ko'rilishini, shuningdek elektron davlat xaridlari o'tkazilishini ta'minlovchi veb-sayti va maxsus elektron platformasi;

12. **Tender taklifi** – tender hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq tender predmetiga nisbatan ishtirokchining taklifi;

13. **Elektron davlat xaridlari** – elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion kabi maxsus axborot portalining dasturiy-texnik kompleksi orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish usullari.

Byudjetdan mablag' oluvchilarning elektron savdolarida ishtirok etishi tartibi. Moliya vazirligi G'aznachiligi va O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining ma'lumotlar bazasini elektron bog'lash yo'li orqali byudjetdan mablag' oluvchilar birja tomonidan markazlashgan tartibda avtomatik tarzda buyurtmachi sifatida ro'yxatdan (akkreditatsiyadan) o'tkaziladi.

Byudjetdan mablag' oluvchilar O'zbekiston respublika tovar xomashyo birjasida tashkil etilgan elektron savdolarga mustaqil ravishda yoki agentlar (brokerlar) orqali qatnashadi.



18.3-rasm. Elektron savdolarga tayyorgarlik bosqichlari

Byudjetdan mablag' oluvchilar va agentlar o'rtasidagi munosabatlarni ular o'rtasida tuzilgan topshiriq shartnomasiga asosan belgilanadi. Topshiriq shartnomasida quyidagi shartlar ko'zda tutilishi lozim:

1) Agentlarga xizmati uchun to'lovlar (O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi hamda Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan belgilangan miqdorda);


2) Birjaning vositachilik xizmati (elektron savdolarda tuzilgan bitim summasining 0,05 foizi miqdorida);

3) Savdo o'tkazish to'g'risidagi e'lonlar maxsus axborot portaliga joylashtirganligi uchun to'lovlar (e'lonlar agentlar orqali maxsus axborot portaliga joylashtirilgan hollarda – O'zbekiston respublika tovar xomashyo birjasi hamda Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilangan miqdorda).

Shuningdek, topshiriq shartnomasida shartnoma maqsadi, hisob-kitob qilish tartibi, buyurtmachi va agentning majburiyatlari, tomonlarning javobgarligi, shartnomaning amal qilish muddati va

boshqa shartlar ko'rsatiladi. Topshiriq shartnomasida summa belgilanmaydi. Byudjetdan mablag' oluvchi va agent o'rtasida tuzilgan topshiriq shartnomalari asosiy shartnoma vazifasini o'taydi va ular Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalarida ro'yxatga olinmaydi, ya'ni faqatgina ularning hisobi yuritiladi. Byudjetdan mablag' oluvchilar agentlar bilan topshiriq shartnomasini tuzayotganda ularga rahbar va bosh hisobchining imzo namunalari kartochkalarini keyinchalik birjaning hududiy bo'linmalariga yetkazish uchun taqdim qiladilar.

Byudjet tashkilotlarini birjada ro'yxatdan o'tkazish tartibi



18.4-rasm. Byudjet tashkilotlarini birjada ro'yxatdan o'tkazish

Shuningdek, topshiriq shartnomasida shartnoma maqsadi, hisob-kitob qilish tartibi, buyurtmachi va agentning majburiyatlari, tomonlarning javobgarligi, shartnomaning amal qilish muddati va

boshqa shartlar ko'rsatiladi. Topshiriq shartnomasida summa belgilanmaydi. Byudjetdan mablag' oluvchi va agent o'rtasida tuzilgan topshiriq shartnomalari asosiy shartnoma vazifasini o'taydi va ular Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalarida ro'yxatga olinmaydi, ya'ni faqatgina ularning hisobi yuritiladi. Byudjetdan mablag' oluvchilar agentlar bilan topshiriq shartnomasini tuzayotganda ularga rahbar va bosh hisobchining imzo namunalari kartochkalarini keyinchalik birjaning hududiy bo'linmalariga yetkazish uchun taqdim qiladilar.

Birja va agentlar xizmatlariga avans to'lovlari byudjetdan mablag' oluvchi tomonidan Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalariga taqdim qilingan talabnomalar asosida aniqlanadi (birja va agentlar xizmati bo'yicha xarajatlar, tovar (ish, xizmat) olinayotgan modda bo'yicha, tegishli talabnomalarning jamlamalari asosida aks ettiriladi).

Byudjetdan mablag' oluvchilar davlat xaridlari to'g'risida o'z vaqtida e'lon qilish uchun ular tomonidan xaridlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan oydan ilgariroq xaridlar rejasini tuzishlari kerak.


Hukumat komissiyasi belgilagan, alohida tovarlar (ish, xizmat) bo'yicha O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasida tashkil etilgan elektron savdolar orqali amalga oshiriluvchi, davlat xaridlari bo'yicha xaridlar rejasini alohida bo'lishi lozim. Byudjetdan mablag' oluvchilar elektron savdolarda qatnashish to'g'risida davlat xaridlarini amalga oshirish uchun talabnomalarni maxsus axborot portaliga joylashtirishdan avval xarajatlar smetasida yetarli mablag' mavjudligini hamda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat (XTR) berilganligini inobatga olishlari lozim. Byudjetdan mablag' oluvchilarning bosh hisobchilari g'aznachilik bo'linmalari tomonidan berilgan XTRni har bir davlat xaridlari bo'yicha e'lonlar va talabnomalarga to'g'ri taqsimlanishi va ishlatilishiga javobgardirlar, shu bilan birga, tayyorlangan xaridlar rejasiga muvofiq O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi

maxsus axborot portaliga e'lonlarni o'zlari mustaqil yoki agentlar orqali kiritadi.

Elektron davlat xaridlarini o'tkazishning umumiy shartlari

Buyurtmachi va ishtirokchilar Hisob kitob Kliring Palatasidagi HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlariga avans to'lovlarini kiritganlaridan so'ng elektron davlat qo'yiladi.

Tanlov asosida savdolarini tayyorlash va tashkil etishning namunaviy modeli



5-rasm. Konkurs savdolarini tashkil etish tartibi

Buyurtmachi va ishtirokchilar elektron xaridlardagi ishtiroklarini elektron raqamli imzolaridan (foydalangan holda amalga oshiradi). Buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan ERIDan foydalanish, elektron

tizimda tuziladigan shartnomalarni haqiqiy deb topish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan kiritilgan zakalat shartnoma majburiyati bajariladigan vaqtga qadar yoki shartnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar xatlab qo'yiladi. Ishtirokchilarning zakalati boshqa ishtirokchilar tomonidan pastroq narxdagi taklif berilgunga qadar xatlanadi.

Elektron xaridlar elektron do'konda yoki elektron auksionda amalga oshiriladi.

Buyurtmachi ro'yxatga kirmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) elektron xaridlar vositasida xarid qilishi mumkin. Operator tomonidan buyurtmachi va ishtirokchilardan undiriladigan vositachilik haqi miqdori qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Operatorning elektron tizimi avtomatik rejimda quyidagilarni amalga oshiradi:

- kiritilgan avans summasiga muvofiq har bir lot bo'yicha elektron xaridlardan foydalanish;
- elektron xaridlarni o'tkazish;
- elektron xaridlar natijasi bo'yicha ishtirokchilarni aniqlash;
- bitimni ro'yxatga olish va shartnomani shakllantirish.

Elektron do'kon ishtirokchilarning takliflaridan shakllantiriladi. Ishtirokchining elektron do'konga qo'yilgan taklifi buyurtmachilarga yuborilgan ommaviy ofertadir.

Elektron do'konda quyidagi davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin:

✓ bir shartnoma bo'yicha eng kam ish haqining ikki yuz ellik baravaridan (byudjet buyurtmachilari uchun eng kam ish haqining yigirma besh baravaridan) oshmaydigan, biroq bir yilda bir buyurtmachi uchun eng kam ish haqining ikki ming besh yuz baravari miqdordagi summadan ko'p bo'lmagan tovarlar;

✓ bir buyurtmachi uchun eng kam ish haqining yigirma besh baravaridan oshmaydigan miqdordagi ishlar, xizmatlar.

✓ Ishtirokchi elektron do‘konga joylashtirilgan o‘z taklifida quyidagilarni ko‘rsatadi:

- ✓ taklif etilayotgan tovarning (ishning, xizmatning) nomi;
- ✓ sotish narxi;
- ✓ tovarning eng ko‘p va eng kam to‘pi;
- ✓ tovarning rusumi va texnik parametrlari (texnik pasport yoki boshqa hujjat asosida);
- ✓ tovarning fotosurati;
- ✓ tovar yetkazib beriladigan (ish bajariladigan, xizmat ko‘rsatiladigan) hudud;
- ✓ tovarni ishlab chiqaruvchi va tovar kelib chiqqan mamlakat to‘g‘risidagi axborot;
- ✓ kafolat shartlari va muddati to‘g‘risidagi axborot;
- ✓ tovar ishlab chiqarilgan yil;
- ✓ tovarning yaroqlilik muddati;
- ✓ ishni bajarish, xizmatni ko‘rsatish muddati;
- ✓ zarur bo‘lganda, litsenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoki sertifikat mavjudligi to‘g‘risidagi axborot.

Ishtirokchi elektron do‘konda joylashtirilgan axborotning ishonch-liligi bo‘yicha to‘liq javobgar bo‘ladi.

Ishtirokchining ofertasi u elektron do‘konga joylashtirilgan paytdan boshlab o‘n besh kalendar kun mobaynida amal qiladi. Ushbu muddat tugaganidan so‘ng ishtirokchi uni yana o‘n besh kalendar kunga aktivlashtirishi mumkin.

Oferta buyurtmachi tomonidan akseptlangunga qadar ishtirokchi ofertani har qanday muddatda chaqirib olishi yoki unga tuzatishlar kiritishga haqli.

Buyurtmachi elektron do‘konda ishtirokchilarning ofertalarini o‘rganish yo‘li bilan o‘zi uchun zarur bo‘lgan tovarni (ishni, xizmatni) tanlaydi va tovar (ish, xizmat) tanlangach, xarajatlar moddasini belgilagan holda narxlar so‘rovi mexanizmidan foydalanadi.

Portal avtomatik rejimda, narxlar so'rovi mexanizmini amalga oshirgan holda elektron do'konda o'xshash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan barcha ishtirokchilarga xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish to'g'risida takliflar yuborilishini ta'minlashga majbur.

Narxlar so'rovi mexanizmi, buyurtmachiga o'xshash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan ishtirokchilardan pastroq narxni so'rash imkoniyatini taqdim etadigan elektron tizimning funksiyasidan iborat.

Ishtirokchilar narxlar so'rovida ishtirok etish to'g'risidagi taklif portal tomonidan yuborilgan paytdan e'tiboran qirq sakkiz soat ichida o'z takliflarini berishga haqli.

Ishtirokchilarning manziliga yuborilayotgan narxlar so'rovida ishtirok etish to'g'risidagi taklif buyurtmachi tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasiga havolani o'z ichiga oladi. Ishtirokchilar narxlar so'rovida ishtirok etish haqidagi taklifni olgan vaqtdan boshlab buyurtmachi tomonidan tanlangan oferta narxidan pastroq narx bo'yicha taklif kiritishga haqli.

Buyurtmachi va ishtirokchilar xaridlarni elektron do'konda tartib-taomili orqali amalga oshirishdan oldin HKKPdagi shaxsiy hisobvavrag'iga ishtirokchi oferta qiymatining 3 foizi miqdoridagi zakalatni joylashtiradi. Agar narx so'rovi mobaynida ishtirokchi tomonidan taklif qilingan narx buyurtmachi tomonidan tanlangan narxdan 15 va undan ortiq foizga past bo'lsa, ishtirokchi buyurtmachi tomonidan tanlangan ofertaning narxi va o'zi tomonidan taklif etilgan narxning farqi miqdoridagi qo'shimcha zakalatni xarid predmetining har bir birligi uchun oldindan kiritishi shart.

Qo'shimcha zakalat mavjud bo'lmagan taqdirda ushbu takliflar elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda rad etiladi.

Ishtirokchilar tomonidan berilgan narx bo'yicha takliflarni taqqoslash portal tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

Ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlardan buyurtmachi yoki ishtirokchilar yakuniy natijalar e'lon qilinguniga qadar foydalana olmaydi. Ijrochining nomi va uning taklif qilgan narxi g'olib aniqlangan paytda portalda aks ettiriladi.

Portal shartnomani buyurtmachi tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasida bayon etilgan shartlarga muvofiq hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narxda shakllantiradi.

Portal tuzilgan bitimni ro'yxatga oladi, buyurtmachi va ishtirokchining shaxsiy hisobvarag'idan operatorning vositachilik haqini echib oladi. Bitimni ro'yxatga olish elektron tizim tomonidan shartnomani shakllantirish va unga o'ziga xos raqam berish bilan amalga oshiriladi.

Portalda ro'yxatdan o'tkazilgan ishtirokchilarning hech biri dastlabki taklifdan pastroq narxni taklif qilmasa, portal buyurtmachi va ijrochi o'rtasidagi bitimni ro'yxatdan o'tkazadi.

Xarid qilish tartib-taomili yakuniga ko'ra elektron do'konda tovar (ish, xizmat) mavjud emasligi sababli shartnoma tuzilmagan bo'lsa, buyurtmachi mustaqil ravishda tanlangan yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzish orqali to'g'ridan to'g'ri xaridni amalga oshirishga haqli. To'g'ridan to'g'ri xarid natijasida tuzilgan shartnoma u tuzilgan sanadan e'tiboran uch kundan kechiktirmay portalga joylashtirilishi lozim. To'g'ridan to'g'ri xarid uchun javobgarlik buyurtmachining zimmasida bo'ladi.

Auksion o'tkazish

Auksion vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- tovarning standart xususiyatlarga ega bo'lishi;
- tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zaruratining mavjud emasligi;

- xizmatlarning, ishlarning davlat xaridi obyekti bo'lmashligi;
- tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha eng kam ish haqining besh ming baravaridan kam bo'lishi. Byudjet buyurtmachilari uchun auksiondagi davlat xaridlari bir shartnoma bo'yicha eng kam ish haqining ikki ming besh yuz baravaridan ortiq bo'lmashligi kerak.

Buyurtmachi auksion o'tkazish haqida xaridlar reja-jadvaliga muvofiq portalga e'lon joylashtiradi.

Buyurtmachilar va ishtirokchilar tomonidan auksionda ishtirok etishdan oldin HKKPdagi shaxsiy hisobraqamlariga auksionning boshlang'ich narxdan 3 foiz miqdorida zakalat mablag'i o'tkaziladi.

Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon auksion g'olibini aniqlangunga qadar kamida o'n kun avval joylashtirilishi kerak.

Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- ✓ buyurtmachining nomi va manzili;
- ✓ auksionning birinchi va oxirgi kuni (auksion o'tkaziladigan davr);
- ✓ auksion predmetining boshlang'ich narxi;
- ✓ auksion predmetining xususiyatlari (auksion predmetining tasnifi);
- ✓ auksion predmetini lotlar bo'yicha bo'lib chiqish va har bir lotning hajmi;
- ✓ tovarlarni yetkazib berish muddatlari va shartlari;
- ✓ tovarlar yetkazib beriladigan joy (manzil);
- ✓ litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning mavjudligi haqida talab (zarur bo'lganda);
- ✓ tovarning o'ziga xos xususiy parametrlarini ifodalovchi alohida shartlar.

Auksion buyurtmachining e'lonida bayon etilgan talablarni inobatga olgan holda o'tkaziladi.

Auksion elektron tizimda boshlang'ich narxni qadam-baqadam pasaytirish yo'li bilan o'tkaziladi. Qadam o'lchovi operator tomonidan vakolatli organ bilan kelishilgan holda belgilanadi, lekin ishtirokchi

tomonidan kiritiladigan zakalat miqdoridan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Byudjet buyurtmachisining e'loni buyurtmachi tomonidan e'lon joylashtirilgan vaqtdan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining pul mablag'lari mavjudligi haqidagi tasdig'i olingandan so'ng aktivlashtiriladi va ishtirokchilarning takliflarini qabul qilish boshlanadi. Agar taklif narxi buyurtmachi tomonidan berilgan boshlang'ich narxdan past va/yoki boshqa ishtirokchining taklif qilgan narxidan past bo'lsa, portal ishtirokchilarning takliflarini qabul qilishni ta'minlaydi.

Auksionni o'tkazish chog'ida ishtirokchilar auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon chop etilgan kundan e'tiboran va u tamom bo'ladigan paytga qadar butun muddat ichida narx bo'yicha takliflarni cheklanmagan miqdorda berishga haqli.

Auksion uni o'tkazish haqidagi e'londa ko'rsatilgan muddatda (sana va vaqt), biroq oxirgi taklif kelib tushgan vaqtdan so'ng besh minutdan kam bo'lmagan vaqtda tugagan deb hisoblanadi.

Mazkur vaqt ichida yangi taklif berilgan taqdirda, ishtirokchilardan takliflarni qabul qilish muddati oxirgi taklif olingandan so'ng yana besh minutga uzaytiriladi.

Bunda, auksionning tugash muddati operatorning ish kuni va ish vaqtiga to'g'ri kelishi lozim.

Ishtirokchilarning nomi va ular bilan bog'lanishga doir ma'lumotlar auksion g'olibi aniqlanmaguniga qadar portalda aks ettirilmaydi.

Agar auksion mobaynida ishtirokchi tomonidan taklif qilingan narx boshlang'ich narxdan 15 va undan ortiq foizga past bo'lsa, ishtirokchi boshlang'ich narx va o'zi tomonidan taklif etilgan narxning farqi miqdoridagi qo'shimcha zakalatni xarid predmetining har bir birligi uchun oldindan kiritishi shart.

Qo'shimcha zakalat mavjud bo'lmagan taqdirda ushbu takliflar elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda rad etiladi.

Auksion tugaydigan vaqt kelganda portal auksion o'tkazilgan vaqt davomida berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan taklifni avtomatik ravishda aniqlab oladi. Eng past narx ko'rsatilgan taklifni bergan ishtirokchi auksion g'olibi sifatida portal tomonidan saralab olinadi. Ijrochining nomi portalda aks ettirilib, ushbu tizim tuzilgan bitimni avtomatik ravishda qayd etadi va buyurtmachining buyurtmanomasida bayon etilgan shartlarga muvofiq shartnomani shakllantiradi. Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, auksion o'tkazilmagan deb hisoblanadi va g'olib aniqlanmaydi, buyurtmachi auksionni besh kunga uzaytiradi. Auksionni uzaytirish avvalgi auksion tamom bo'lgan paytdan e'tiboran uch kun ichida buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi. Auksionni uzaytirishda buyurtmachi boshlang'ich narxni, texnik talablarni, xususiyatlarni yoki texnik topshiriqni qayta ko'rib chiqishga haqli. Agar qayta auksion takliflar mavjud emasligi sababli o'tkazilmagan deb topilgan bo'lsa, buyurtmachi nazarda tutilgan tartib-taomil bo'yicha tanlov o'tkazishga haqli.

Tanlov o'tkazish tartib-taomillari

Tanlov vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

– tovarning (ishning, xizmatning) batafsil va aniq ta'rifini ta'riflash imkoniyati mavjud;

– g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi.

Korporativ buyurtmachilar tomonidan quyidagi hollarda tanlov orqali xaridlar amalga oshiriladi:

– tovar qiymati bir shartnoma bo'yicha eng kam ish haqining besh ming baravaridan yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorni;

- xizmatlarning, ishlarning qiymati bir shartnoma bo'yicha eng kam ish haqining yigirma besh baravaridan yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etganda.

Byudjet buyurtmachilari tomonidan quyidagi hollarda tanlov orqali xaridlar amalga oshiriladi:

- tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha eng kam ish haqining ikki ming besh yuz baravaridan olti ming baravarigacha bo'lgan miqdorni;

- ishlarning, xizmatlarning qiymati eng kam ish haqining yigirma besh baravaridan olti ming baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etganda.

Tovarning (ishning, xizmatning) qiymati eng kam ish haqining besh ming baravaridan oshgan hollarda tanlov bo'yicha texnik topshiriq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishib olinishi lozim. Agar investitsiya loyihalari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bilan buyurtmachilarga tenderni o'tkazmasdan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzish huquqi berilgan taqdirda, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat'iy nazar tanlov o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Bunda tanlov haqidagi e'lon buyurtmachi tomonidan takliflarni qabul qilish muddati tugaguniga qadar kamida o'n kun oldin portalda joylashtiriladi.

Davlat xaridlari tizimida avans to'lovi va uning miqdori

Avans to'lovi bu buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan kiritiladigan, operatorning vositachilik yig'imlarini va tomonlarning zakalatini o'z ichiga olgan moliyaviy mablag'lar summasi. Har ikki toifadagi buyurtmachilar uchun avans to'lovi bir xil, ya'ni komission yig'imlar 0,15 % va lotning boshlang'ich narxidan 3 % qismiga teng. Farqi shundaki, korporativ buyurtmachilar komission yig'im va avans to'lovini Hisob-kitob kliring palatasidagi ikkilamchi hisob varag'iga,

byudjet buyurtmachilari esa Hisob-kitob kliring palatasining Moliya vazirligi g'aznachiligidagi maxsus shaxsiy hisob varag'iga o'tkazadi.

Elektron davlat xaridlarida buyurtmachilar va yetkazib beruvchilar ishtirok etishi uchun yaratilgan qulaylik

Eng asosiy va muhim afzallik shundaki, davlat xaridlari bo'yicha barcha operatsiyalar Elektron raqamli imzodan foydalangan holda buyurtmachining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi. Bu esa O'zRTXBga kelish majburiyatidan ozod qiladi, ya'ni davlat xaridlarida ishtirok etishingiz uchun qog'oz shaklidagi hujjatlar talab etilmaydi, barcha operatsiyalar – ro'yxatdan o'tishdan tortib to tovarni sotish yoki qabul qilib olishgacha bo'lgan jarayon elektron tarzda amalga oshiriladi.

Buyurtmachilar maxsus axborot portaliga reja jadvalni qanday joylashtiradilar?

Portalda barcha e'lonlar buyurtmachining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi. Buyurtmachilar o'z shaxsiy kabinetga kiringach, "E'LON JOYLASH TIRISH" tugmasi bosiladi va "Reja jadval" bandi tanlanadi.

Reja jadvalda quyidagi qatorlar ochiladi va ularni to'ldirish talab etiladi:

- Mavsum (yil yoki chorak);
- Tovar kategoriyasi;
- Buyurtma nomi;
- Tovar miqdori;
- O'lchov birligi;
- Savdo o'tkazilish oyi;
- Moliyalashtirish manbai.

Davlat xaridlarini o'tkazilishi to'g'risida e'lon moderatsiyadan o'tkaziladi. Lotda savdo boshlanadigan oy ko'rsatilishi shart.

Elektron do‘konda buyurtmachi sifatida zarur bo‘lgan tovarni tanlash

Davlat xaridlari bilan bog‘liq har qanday operatsiyani amalga oshirish uchun avvalo, shaxsiy kabinetga kirishingiz lozim. Shaxsiy kabinetga esa elektron raqamli imzo yordamida kiriladi. Shaxsiy kabinetga kirgach, “Tovarlar katalogi” bo‘limi orqali filtdan foydalangan holda zarur tovarni tanlashingiz mumkin.

Quyidagi parametrlarga ko‘ra qidiruvni amalga oshirishingiz mumkin:

- Tovar raqami;
- Tovar kategoriyasi;
- Tovar nomi;
- Tovarni yetkazib berish hududi;
- O‘rtacha narx berish orqali;
- Tovar sonini ko‘rsatish orqali
- Ishlab chiqarilgan mamlakat.

Elektron do‘konda zarur tovarni tanlagach, mazkur lotning barcha parametrlari va shartlari bilan sinchiklab tanishib chiqishingiz kerak. Agar tovar barcha talablaringizga mos kelsa, siz narxlar so‘rovi mexanizmini faollashtirishingiz mumkin. Buning uchun:

- Tovar yetkazib berish hududi;
- Tovar yetkazib berish tumani tanlanadi;
- Zarur partiya miqdori kiritiladi;
- Hisobraqam aniqlanadi;
- Harajatlar moddasi tanlanadi (byudjet buyurtmachilari uchun);
- “NARXLAR SO‘ROVI” tugmasini bosgan holda, Narxlar so‘rovi mexanizmini faollashtirishingiz mumkin.

Elektron do‘konda narxlar so‘rovi mexanizmi ishlash tartibi

Buyurtmachi shaxsiy kabinetga kirib, o‘ziga zarur tovarni tanlagach, narxlar so‘rovi mexanizmini ishga tushirishi mumkin. Mazkur mexanizm ishga tushgach, elektron tizim byudjet buyurtmachisi bo‘yicha zarur mablag‘lar mavjudligini tasdiqlash uchun talab

etilayotgan to'lovlar so'rovnomasini avtomatik tarzda Moliya vazirligining G'aznachiligiga yuboradi. G'aznachilik tomonidan mablag'lar mavjudligi tasdiqlanganidan keyin, byudjet buyurtmachisi avans to'lovini kiritadi va savdo boshlanadi. Albatta, savdolar boshlanishi uchun Buyurtmachi yetarli avans to'lovlarini kiritishi lozim.

Savdolar jaryonida ishtirokchilar 48 soat mobaynida lot bo'yicha o'z takliflarini berishlari mumkin. 48 soat yakunlangach, mexanizm eng past narx bergan ishtirokchini savdoning g'olibi deb topadi. Keyin buyurtmachi va g'olib ishtirokchi o'rtasida shartnoma avtomatik tarzda ularning shaxsiy kabinetida elektron shaklda tuziladi va ro'yxatga olinadi. Agar ishtirokchilardan hech qaysi biri narx taklif etmasa, buyurtmachi va ofertani joylashtirgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi va ro'yxatga olinadi.

Buyurtmachilar to'lovni qay tartibda o'tkazadilar?

- Shaxsiy kabinetda buyurtmachi va ishtirokchi o'rtasida shartnoma rasmiylashtirilgandan keyin, byudjet buyurtmachisi 10 kun ichida Birjaning G'aznachilikdagi maxsus hisob varag'iga pul o'tkazadi. Korporativ buyurtmachisi esa pul mablag'ini 10 kun ichida Birjaning hisobraqamiga o'tkazadi.

- Birja ijrochiga shaxsiy kabinet orqali 100% to'lov qabul qilinganligi to'g'risida xabar yuboradi.

- Ijrochi shartnomada belgilangan muddat ichida va uning boshqa shartlariga muvofiq tovarni yetkazib beradi.

- Tovar qabul qilingach, buyurtmachi 3 kun ichida Byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi va hisobotining avtomatlashtirilgan tizimining dasturiy kompleksi orqali tovarni to'liq hajmda qabul qilinganligi to'g'risida xabar jo'natadi.

- Shartnoma bo'yicha mablag' Hisob-kitob kliring orqali, tovar buyurtmachiga to'liq yetkazib berilgandan so'ng ijrochiga o'tkaziladi.

- Byudjet buyurtmachilari toifasida tovar to'liq yetkazib berilgach, 3 % zakalat summasi Hisob-kitob kliring palatasi tomonidan avtomat

tarzda byudjet buyurtmachisining tegishli shaxsiy hisob varag'iga qaytariladi.

Buyurtmachilar elektron auksionda qay tartibda ishtirok etadi?

Buyurtmachilar davlat xaridlarida ishtirok etish uchun avvalo, ro'yxatdan o'tishi zarur va shaxsiy kabinetga ega bo'ladi. Byudjet buyurtmachilari dxarid.uzex.uz, korporativ buyurtmachilar exarid.uzex.uz saytiga kirishlari lozim. Auksionda ishtirok etish uchun buyurtmachi xarid.uz saytiga kirib, "E'LON JOYLASH TIRISH" tugmasi bosiladi va "Reja jadval" bandi tanlanadi.

Reja jadvalda quyidagi qatorlar to'ldiriladi:

- Mavsum (yil yoki chorak)
- Tovar kategoriyasi
- Buyurtma nomi
- Tovar miqdori
- O'lchov birligi
- Savdo o'tkazilish oyi
- Moliyalashtirish manbai

Davlat xaridlarini o'tkazilishi to'g'risida e'lon moderatsiyadan o'tkaziladi. Lotda savdo boshlanadigan oy ko'rsatilishi shart.

18.4. O'zbekistonda davlat xaridlari tizimi samarali faoliyatini ta'minlash istiqbollari

Davlat byudjeti xarajatlarining asosiy qismi davlat xaridlari orqali amalga oshiriladi. Byudjet mablag'lari oqilona sarflanishi mazkur jarayonlarda ochiqlikni ta'minlaydi. Bu korrupsiyaga yo'l qo'yilmasligida katta ahamiyatga egadir. Ta'kidlash joizki, me'yoriy hujjatlarda huquqiy asos aniq, uyg'un, to'liq aks ettirilmagan va ko'pgina qarama-qarshiliklar mavjudligini ko'rish mumkin edi. Bu kabi kamchiliklar natijasida davlat xaridlarining tejamliligi, samaradorligiga putur etgan. Barcha ishtirokchilarga nisbatan teng va

xolisona munosabatda bo‘linmagan. Insofli yetkazib beruvchilar uchun davlat xaridlari bozorining jozibadorligi hamda raqobatdoshligi ta‘minlanmagan edi.

Yangi huquqiy hujjat davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish, shu orqali davlat xaridlari ishtirokchilarining ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Davlat xaridlari sohasida maxsus vakolatli organni belgilash ushbu jarayonlarni to‘liq nazorat qilish, tahlil yuritish va takomillashtirish imkonini yaratadi.

2018 yil 9 aprel kuni “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qabul qilingan qonun davlat xaridlari ochiqqligini va shaffofligini hamda, bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta‘minlashga xizmat qilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, davlat byudjeti, markazlashtirilgan manbalar va davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalar mablag‘laridan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Qonun xaridlarning besh tartib-taomilini belgilaydi, undan ikkitasi davlat xaridi bo‘yicha qaror qabul qilishda inson omilini butkul inkor etadi. Qolgan xarid tartib-taomillari shaffofligi maxsus axborot portalida zarur axborot chop etish yo‘li bilan ta‘minlanadi.

Qonun bilan xalqaro standartlarni hisobga olgan holda birinchi bor yagona yetkazib beruvchida xaridni amalga oshirish kabi xarid tartib-taomili turi amaliyotga kiritildi. Hujjat davlat xaridlarini amalga oshirishning amaldagi tajribasini hamda, xalqaro tajribani, shu jumladan, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha Komissiyasining (YuNSITRAL) model qonunchiligining asosiy qoidalarini, Yevropa Ittifoqi, AQSH, Rossiya, Belarus, Qozog‘iston va boshqa davlatlar qonunchiligini hisobga olgan.

Davlat xaridi tizimida shaffoflik va samaradorlikni ta‘minlash maqsadida yangi qonunda elektron davlat xaridining davlat boshqaruvi tizimi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni isloh qilish sharoitida resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish, nazorat

qilishning zamonaviy shakl hamda uslublarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, davlat va korporativ xaridlarining hamda tender savdolarini tashkil etishning amaldagi tartibi zamonaviy talablarga javob bermaydi. Turli xil korrupsiya ko'rinishlari uchun sharoit yaratadigan ko'plab kelishish bosqichlari, bir-birini takrorlaydigan tartib-taomillar va sansalorlik holatlari mavjud. Bundan tashqari, tender jarayonlarining cho'zilishi, narx-navoni manipulyatsiya qilish, tovarlarning sifati, tavsifi haqidagi ma'lumotlarni buzib ko'rsatish va elektron savdoda tuzilgan bitimlar bo'yicha tovarlarni yetkazib bermaslik holatlari ko'plab kuzatildi. Qonun davlat dasturlarini, Prezident farmonlari, qarorlari hamda farmoyishlari, hukumat qarorlarida nazarda tutilgan loyihalar, korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik faoliyatini ro'yobga chiqarishda amalga oshiriladigan davlat xaridlariga nisbatan amal qiladi.

Qonundagi muhim masalalardan yana biri shuki, davlat xaridlarining ochiqligi, shaffofligini ta'minlash maqsadida tegishli davlat organlariga, davlat xaridlari subyektlariga, jamoatchilikka davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan to'liq, o'z vaqtida, erkin va bepul foydalanish imkoniyati yaratilmoqda. Bundan tashqari, Qonunda amalga oshiriladigan loyihalarning maqsadga muvofiqligi, asoslantirilgani va rentabelligini tahlil qilish, baholash qoidalari ifoda etilgan. Ularning qiymatini oshirib ko'rsatish va boshqa suiiste'molchilik alomatlarini aniqlashni ta'minlaydigan me'yorlar kiritilgan. Qonunda shuningdek, davlat xaridlari tartib-taomilini amalga oshirish, shartnoma tuzish va uni ijro etish qoidalari belgilangan. Yetkazib beruvchi va buyurtmachi o'rtasida yuz berishi mumkin bo'lgan nizolar hamda kelishmovchiliklar ustidan shikoyat qilish, ularni hal etish chog'ida shaffoflikni ro'yobga chiqarishni nazarda tutuvchi me'yorlar ham o'rin olgan.

Qonunda byudjet mablag'larining maqsadli va to'g'ri sarflanishini nazorat qilish, davlat xaridlari ishtirokchilariga qulay sharoitlar yaratish maqsadida vakolatli organ belgilandi. Vakolatli organ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi. Davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha qoidalar, uning usuli va tartib-taomilini, axborot joylashtirish, oshkor qilish hamda undan foydalanish mezonini belgilaydi.

Ta'kidlash kerakki, davlat xaridlari sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish **dolzarb masala** sanaladi. Qonunbuzarlik holatlarini aniqlash va unga chek qo'yishga qaratilgan chora-tadbirlar Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Prezident huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi hamda Moliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan. Mazkur davlat idoralariga sohani monitoring va nazorat qilish yuklatildi.

Davlat xaridlari asosan elektron do'kon orqali amalga oshirilishi eng muhim o'zgarish bo'ladi. Bu tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yo'lini ochadi.

Xarid qilish tartib-taomillari davlat va jamoatchilik nazoratida bo'lishi juda muhimdir. Monitoring yuritilishi soha samaradorligini tahlil qilish imkonini oshiradi. Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati ochiqlik va shaffoflik orqali amalga oshiriladi. Mazkur qonun yordamida davlat xaridlarining o'ziga xos yangi tizimini yaratishga erishiladi. Natijada byudjet mablag'lari va boshqa markazlashgan manbalar, hukumat kafolati bilan kredit resurslaridan samarali foydalanish imkoni ortadi. Davlat sektori «narx-sifat»ning o'zaro maqbulligida kerakli miqdorda zarur tovar, ishlar va xizmatlar bilan ta'minlanadi. Xaridlarni raqobat asosida amalga oshirishning ochiq va shaffof mexanizmi yo'lga qo'yiladi. Eng muhimi, mazkur jarayonlarda korrupsiyaning oldini olish yo'lida katta qadam qo'yiladi

Davlat buyurtmachisining ikkita yangi kategoriyalari kiritilgan - byudjet va korporativ buyurtmachilarga bo'linadi. Byudjet buyurtmachilar tarkibiga davlat organlari, byudjet tashkilotlari, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yuboriladigan byudjet mablag'larini oluvchilar kiradi. Korporativ buyurtmachilar davlat korxonalari, ustav fondida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ta'sischi tarkibida ustav fondi 50 foiz va undan ortiq qismini tashkil qiluvchi yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

Qonunning to'g'ridan to'g'ri amal qilishini ta'minlash uchun havolaki me'yorlardan foydalanmaslik maqsadida elektron do'kon, tanlov, tender va auksion o'tkazishning tartibi ham belgilab qo'yilgan.

Tanlov savdolari o'rnatilgan mezonlarga javob beradigan tovar (ishlar, xizmatlar)ning barcha turlariga tatbiq etiladi. Ilgari tanlov savdolarini o'tkazish mexanizmi faqat kapital qurilish sohasida amal qilar edi.

Xarid qilish tartib-taomillari ustidan monitoring va nazorat tartibga solinmoqda. Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha tuzilayotgan Komissiyaning faoliyati xaridlarning barcha turlariga tadbiq etiladi. Ilgari davlat xaridlarini nazorat qilish masalasi tartibga solinmagan, nizo va kelishmovchiliklar faqat elektron savdolar bo'yicha maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqilgan.

“Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili”da xalqning turmush darajasini oshirishga xizmat qiluvchi keng miqyosli loyihalar amalga oshirildi. Mazkur ijobiy o'zgarishlar bozor tamoyillari asosida hamda keng jamoatchilikning faol ishtiroki bilan yuz berganligi alohida e'tiborga loyiqdir. Mamlakatimiz rahbari bir necha marotaba O'zbekistonni rivojlantirishning yagona yo'li – haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tish, deb ta'kidlagani ham bejizga emas.

O'tgan yillarda sodir bo'lgan katta o'zgarishlar bozor infratuzilmasining asosiy shakllaridan biri hisoblangan birja institutlari sohasiga ham ta'sir o'tkazdi. Xususan, O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi 2018 yilda rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. Bunga birinchi o'rinda tovar bozorlari, birja faoliyati va elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi turtki berdi.

“O'zRTXB” AJ da ochiq birja savdolari orqali ichki va tashqi bozorlarga sotiladigan tovarlar hajmi o'sdi va ularning nomenklaturasi kengaydi, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, tadbirkorlarning moddiy-texnika resurslaridan foydalanish imkoniyati oshdi, tovar bozorlarida sog'lom raqobat kuchaydi va real bozor sharoitlarini hisobga olgan holda tovarlarga narx belgilashning zamonaviy mexanizmi joriy etildi. Shu bilan birga, O'zRTXB o'z mijozlari uchun yangi xizmatlarni taqdim etgan holda biznes jarayonlarga innovatsion yechimlarni faol ravishda joriy etishni davom ettirdi.

Birjaning tovar aylanma dinamikasi uning faoliyatini baholashda eng muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida o'tgan yil yakunlarini yaqqol namoyon etmoqda. 2018 yilda O'zRTXB da imzolangan bitimlarning qiymati 31,8 trln so'mni tashkil qildi, bu esa 2017 yilgi natijadan 2,3 barobar ortiq ekanligini ko'rsatdi. Bundan birja savdolarining ulushi 90 foiz yoki 28,7 trln so'mni tashkil qiladi. Sotuv hajmining real o'sishi quyidagi birja tovarlari bo'yicha qayd etilgan: Mineral o'g'itlar – 8 karra, dizel yoqilg'isi – 7 karra, qora metall prokati – 4 karra, paxta linti – 2,5 barobar, tsement – 61% va polipropilen – 40,2% ga oshgan. Birjaning kotirovka varag'iga 9,5 mingta yangi standart shartnomalar kiritilgan, shu jumladan 112 ta yangi shartnomalar eksport pozitsiyalari uchun ochildi.

Birja aylanmasining o'sishi natijasida elektron savdolarga 37 mingdan ziyod yangi mijozlar jalb etildi, ularning asosiy qismini

tadbirkorlar tashkil qiladi. Shu o‘rinda birjada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ishtirokida tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 2017 yilga nisbatan 70% ga o‘sib, 15,9 trln so‘mga etdi. Ular birja orqali 11,2 trln so‘mga teng tovarlarni xarid qilishgan va o‘zlarining 4,7 trln so‘mlik mahsulotlarini sotishgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar bir tomondan mamlakatimizda son va sifat jihatdan tadbirkorlik faoliyati rivojlanayotganligidan dalolat bersa, yana bir tomondan ular zamonaviy savdo operatsiyalarini amalga oshirishdan asosli ravishda manfaatdor ekanligini ham namoyon etmoqda.

Shu bilan birga O‘zRITXBning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblangan elektron tijorat sohasida ham sezilarli o‘zgarishlar qayd etildi. 2018 yilda avtoraqam.uzex.uz saytida 24,0 mingdan ziyod avtomobil raqam belgilari sotildi. Avtoraqamlar savdosi o‘tgan yilning iyul oyida ularning boshlang‘ich narxlari pasaytirilgandan so‘ng keskin oshdi. Onlayn auksion orqali sotilgan avtomobillar uchun davlat raqam belgilarining umumiy qiymati 121,7 mlrd so‘mdan oshib ketdi, ularning o‘rtacha bahosi esa 5,1 mln so‘mni tashkil qildi. Ko‘rib chiqilayotgan davr mobaynida ko‘rgazma-yarmarka savdolari platformasida V2V kelishuvlarning hajmi 1,1 trln so‘mdan oshdi. Bu borada eng katta ulushlarni kimyo sanoati (38%), metall mahsulotlari (14%), oziq-ovqat mahsulotlari (11%) va qurilish materiallari (5%) egallaydi.

2018 yildagi yana bir yangiliklardan biri “O‘zRITXB” AJning davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali – xarid.uz ning operatori etib tayinlanganligi bo‘ldi. Mazkur portal orqali butun respublika bo‘ylab tovar yetkazib beruvchilari, xususan biznes subyektlari onlayn rejimda davlat buyurtmalarini amalga oshirish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu o‘z navbatida davlat xaridlarining ochiqqligini ta‘minlash, sohada “xufiyona iqtisodiyot” elementlarini bartaraf etish va raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, davlat xaridlarining elektron tizimiga kiritilgan yana bir muhim yangiliklardan biri bu – elektron xaridlarni faqat elektron raqamli imzo yordamida amalga oshirilishi va shartnoma shartlarini bajarilish kafolatini hisob-kitob kliring palatasi orqali ta'minlanishi bo'ldi. Bularning natijasida, 2018 yil davomida xarid.uz portali orqali qiymati 1,9 trln so'mdan ortiq 513 mingta bitimlar imzolandi. Shu bilan birga, byudjet va korporativ buyurtmachilar 320,0 mlrd so'm mablag' tejab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Tuzilgan bitimlarning 96% ga yaqini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi.

O'zbekistonning tashqi dunyoga yanada kengroq ochilishi sharoitida "O'zRTXB" AJ rahbariyati tashqi aloqalarni o'rnatish va xorijiy hamkorlar, birinchi navbatda, yaqin qo'shni mamlakatlarning birjalari bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni shakllantirishga e'tibor qaratdi. Natijada Qozog'istonning "ETS" savdo birjasi, "Qirg'iziston fond birjasi" AJ va "Belorussiya universal tovar birjasi" AJ bilan hamkorlik to'g'risida kelishuvlar imzolandi. "Moskva birjasi" AJ, "Sankt-Peterburg xalqaro tovar – xomashyo birjasi" AJ, "Kaspiy" tovar birjasi" AJ, "Tojikistonning Osiyo fond birjasi" AJ va Turkiyaning "Borsa Istanbul" fond birjasi bilan birjalararo ishbilarmonlik aloqalari o'rnatildi. MDH Xalqaro birjalar uyushmasi, Evro-Osiyo fond birjasi Federatsiyasi (FEAS) va Xalqaro fyuchers uyushmasi (AFM) bilan o'zaro hamkorlik aloqalar yanada kuchaytirildi.

Imzolangan kelishuvlarni amalda tatbiq etish ishlari doirasida birja savdolarini tashkil qilish yuzasidan tajriba almashildi, savdo tizimlarini birlashtirish va o'zaro hamkorlik borasida seminarlar, forumlar va uchrashuvlar o'tkazildi, tomonlarning brokerlik idoralari o'zaro akkreditatsiya qilindi. Shu bilan birga Olma-ota va Minsk shaharlarida O'zRTXBning xorijiy savdo maydonchalari ochildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – mahalliy tovarlarni tashqi bozorlariga olib chiqishdan iboratdan. Ana shu yutuqlar samarasi o'laroq, birjada

amalga oshirilgan eksportning hajmi 2,1 karraga oshib, 125,9 mln AQSH dollarni tashkil qildi. Eksport tushumida eng katta ulushlarga paxta tolasi (35%), polietilen (29%), mis (13%) va sanoat moyi (6%) ega bo'ldi.

Davlat xaridlarining o'zi O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasida tashkil qilinadigan elektron savdolar orqali amalga oshiriladi. Ularga barcha manfaatdor tomonlarning qatnashishiga yo'l ochishni ta'minlash uchun har bir tuman bo'yicha kichik biznes subyektlari hamda byudjetdan mablag' oluvchilar uchun eng qulay joylarda savdo maydonchalari va brokerlik kontoralari tizimi tashkil qilinadi.

G'aznachilik uchun davlat xaridlarini amalga oshirishni hamda joriy va dastlabki nazorat samaradorligini takomillashtirish va xalqaro tajribalardan samarali foydalanishga e'tibor qaratish, g'aznachilik operatsiyalarining nazoratini takomillashtirish muhim vazifa etib belgilangan.

Davlat byudjeti ijrosi, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni ustidan nazoratni takomillashtirish maqsadida G'aznachilikning harakatlari birinchi navbatda byudjet tashkilotlarining byudjet va shartnomaviy intizom darajasini oshirishga yo'naltirilishi, byudjet tashkilotlarining ta'minotchi tashkilotlar bilan shartnomalarini G'aznachilik tomonidan ro'yxatga olinishi bu byudjet tashkilotlarining to'lashga qodirligi davlat tomonidan tasdiqlanadi va ta'minotchi tashkilot uchun byudjet tashkiloti tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda, davlat tomonidan to'lov kafolati beriladi.

Mamlakatimizda davlat va korporativ xaridlari mexanizmini yanada takomillashtirish, tender savdolarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha izchil va kompleks ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron savdolar joriy etildi, O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasining maxsus axborot portali yaratildi, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi bo'yicha, shu jumladan, investitsiya loyihalari doirasida ko'p pog'onali idoralararo tender komissiyalari tashkil etildi.

Shu bilan birga, davlat va korporativ xaridlarining hamda tender savdolarini tashkil etishning amaldagi tartibi zamonaviy talablarga javob bermaydi, turli xil korrupsiya ko'rinishlari uchun sharoit yaratadigan ko'plab kelishish bosqichlari, bir-birini takrorlaydigan tartib-taomillar va sansalorlik holatlari mavjud. Bundan tashqari, tender jarayonlarining cho'zilishi, narx-navoni manipulyatsiya qilish, tovarlarning sifati, tavsifi haqidagi ma'lumotlarni buzib ko'rsatish va elektron savdoda tuzilgan bitimlar bo'yicha tovarlarni yetkazib bermaslik holatlari ko'plab kuzatilmoqda.

Byudjet tashkilotlari tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridining amaldagi me'yorlari va tartibi tovar-moddiy boyliklar, shu jumladan, ularning eng zarurlari (kanselyariya buyumlari, kompyuter texnikasi va avtotransportni ta'mirlash) bilan normal va barqaror ta'minlashda qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Oxir-oqibatda bu loyihalar, shu jumladan, xorijiy va xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari amalga oshirilishining kechiktirilishiga olib kelmoqda.

Narx-navoni manipulyatsiya qilish, tovarlarning sifati, tavsifi haqidagi ma'lumotlarni buzib ko'rsatish va elektron savdoda tuzilgan

Xo'jalik jamiyatlari va strategik ahamiyatga ega korxonalarining joriy ishlab chiqarish faoliyatining uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, ularning eksport salohiyatini yuksaltirish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatdoshligini oshirish maqsadida 2018 yil 22 yanvarda "Xo'jalik jamiyatlari va strategik ahamiyatga ega korxonalar faoliyatini ko'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" prezident Qarori PQ-3487-son qabul qilindi. Ushbu qaror asosida tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) xarid qilishning alohida tartibi belgilanaib, strategik ahamiyatga ega xo'jalik jamiyatlari va korxonalarining ro'yxati tasdiqlandi va davlat xaridlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi ho'jalik subyektlari uchun tartib belgilandi. Unga muvofiq:

- xo'jalik jamiyatlari va strategik ahamiyatga ega korxonalarining joriy ishlab chiqarish faoliyatida ishlatiladigan, summasidan qat'iy nazar, eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li orqali, xo'jalik jamiyatlari va strategik ahamiyatga ega korxonalari tomonidan tuziladigan va ularning rahbarlari tomonidan boshqariladigan idoraviy tanlov komissiyalari tomonidan baholanadigan uskunalar, xomashyo, materiallar, ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlarni, shuningdek, ishlar va xizmatlarni xarid qilish, shu jumladan, import shartnomalarini tuzish huquqiga ega;

- ekvivalenti 50 ming AQSH dollaridan ortiq bo'lgan summadagi tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) xarid qilishga bo'lgan texnik topshiriqlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligida majburiy kelishuvdan o'tkaziladi;

- belgilangan tartibda tutilgan tartibda, eng yaxshi takliflarni tanlab olish natijalari bo'yicha tuzilgan barcha kontraktlar, shu jumladan, import kontraktlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligida majburiy ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Shu bilan birga ushbu tartib:

- O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirish doirasida xo'jalik jamiyatlari va strategik ahamiyatga ega korxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlariga;

- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi kafolatlari orqali jalb qilinayotgan kreditlar hisobidan moliyalashtiriladigan kontraktlarga tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Davlat bojxona qo'mitasi bilan birgalikda xo'jalik jamiyatlari va strategik ahamiyatga ega korxonalar tomonidan qat'iy joriy ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun olib kelinayotgan uskunalar, xomashyo, materiallar, ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlardan maqsadli foydalanilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatilish belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-sonli “Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlari bo‘yicha hukumat komissiyasi tashkil qilindi. Hukumat komissiyasiga O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron savdolarida amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo‘yicha tovarlar ro‘yxatini aniqlash hamda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo‘yicha tovarlar (ish, xizmat) guruhiga o‘rnatilgan minimal ulushlar (kvota) miqdorini belgilab borish va boshqa vazifalar topshirilgan.

Byudjetdan mablag‘ oluvchilar O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron savdolarida amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo‘yicha tovarlar ro‘yxati, kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo‘yicha tovarlar (ish, xizmat) guruhi va ularga o‘rnatilgan minimal ulushlar (kvota) miqdori to‘g‘risida maxsus tasdiqlangan jamlanma jadvalga muvofiq xarajatlarni amalga oshirishlari talab qilinadi. Byudjetdan mablag‘ oluvchilar 2011 yilning 1 apreldan boshlab yuqoridagi qaror bilan tasdiqlangan markazlashgan mablag‘lar hisobiga davlat ehtiyojlari uchun to‘liq (100 foiz miqdorda) kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo‘yicha tovarlar (ish, xizmat) guruhiga (PQ-1475-sonli qarorning 3-ilovasi) muvofiq faqatgina kichik biznes subyektlari bilan shartnomalar imzolashlari mumkin.

Shuningdek, byudjetdan mablag‘ oluvchilar 2011 yilning 1 apreldan boshlab Hukumat komissiyasining 2011 yil 15 fevraldagi 1-sonli yig‘ilish bayonnomasining¹⁸⁷ 2- ilovasiga muvofiq kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan tovar(ish, xizmat)lar bo‘yicha davlat xaridlarini ularga o‘rnatilgan eng kam ulushlar (kvota)

¹⁸⁷ Elektron ko‘rinishda G‘aznachilikning saytida joylashtirilgan (www.treasury.uz)

miqdorlaridan kam bo'lmagan tarzda kichik biznes subyektlari orqali amalga oshirishlari lozim.

4-jadval

Davlat xaridlarida ishtirok etgan tarmoq vazirliklarining bitimlar hajmi dinamikasi¹⁸⁸

2018 yil yanvar-iyun oylarida davlat xaridlari bo'yicha o'tkazilgan elektron auksion savdolar natijalari bo'yicha vazirliklar va idoralar kesimida quyidagicha:

№	Vazirliklar va idoralar nomlari	Bo'lib o'tgan bitimlar			
		Soni	Ulushi %da	Summa (mild. so'm)	Ulushi %da
1	Mehnat vazirligi tashkilotlari (<i>bandlikka ko'maklashish markazlari, mehnat boshqarmalari</i>)	540	0,3	1,0	0,4
2	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tashkilotlari (<i>o'rmon xo'jaliklari, nasos stansiyalari</i>)	3 211	1,6	17,0	6,8
3	Xalq ta'limi vazirligi tashkilotlari (<i>maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari, xalq ta'limini moliyalashtirish bo'limlari</i>)	146 341	73,6	93,7	37,6
4	Sog'liqni saqlash vazirligi muassasalari (<i>politiklinikalar, shifoxonalar, qariyalar uyi, pansionatlar, mehribonlik uylari, sanatoriyalar va boshqa davolash muassasalari</i>)	27 507	13,9	46,0	18,4
5	Madaniyat va sport ishlari vazirligi tashkilotlari (<i>madaniyat uylari, musiqa maktablari, sport maktablari, muzeylar va boshqa muassasalari</i>)	2 957	1,5	9,9	4,0
6	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi (<i>fakademik litseylar va kollejlari</i>)	6 135	3,1	15,0	6,0
7	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi muassasalari (<i>oltoy o'quv yurtlari</i>)	1 045	0,5	7,3	2,9
8	Boshqa vazirliklar va idoralar	11 003	5,5	59,5	23,9
	JAMI	198 739	100	249,5	100

¹⁸⁸ Elektron ko'rinishda G'aznachilikning saytida joylashtirilgan (www.treasury.uz)

Byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar to'liq (100 foiz miqdorda) kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo'yicha maxsus axborot portaliga savdo o'tkazish yoki elektron savdo o'tkazish to'g'risida e'lonlarni joylashtirishda, e'lon shartida faqatgina kichik biznes subyekti qatnashishi mumkinligini ko'rsatib o'tishlari lozim. Bunda, portalning axborot bazasida tegishli ma'lumotlar bo'lmagan hollarda, tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar byudjetdan mablag' oluvchilarga ushbu e'lonlar bo'yicha savdoda qatnashish uchun tegishli statistika yoki soliq organlari tomonidan tasdiqlangan tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchining kichik biznes subyektiga kirishi to'g'risidagi ma'lumotni taqdim qilishlari lozim.

O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi va uning hududiy bo'linmalari to'liq (100 foiz miqdorda) kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo'yicha maxsus axborot portaliga joylashtirilgan talabnomalar bo'yicha elektron savdolarda faqat kichik biznes subyektlari ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

G'aznachilik organlarining yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'limi xodimlari byudjetdan mablag' oluvchilar taqdim qilgan faqat to'liq (100 foiz miqdorda) kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo'yicha tuzilgan shartnomalarni "G'aznachilik" dasturiy majmuida ro'yxatga olishda tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchini kichik biznes subyektiga kirish yoki kirmasligini nazorat qiladi. Bunda, g'aznachilik organlarining yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va narxlar monitoringi bo'limi xodimi byudjetdan mablag' oluvchilarning yuqoridagi shartnomalarini "G'aznachilik" dasturiy majmuiga kiritishda, tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchini kiritishda, uning kichik biznes subyektiga kirishini ushbu dasturiy majmuada ko'rgandan so'ng oxirigacha rasmiylashtiradilar. Aks holda, ushbu shartnomalarni g'aznachilik bo'linmalari tomonidan byudjetdan mablag' oluvchiga ro'yxatdan o'tkazilmasdan qaytariladi. Shuningdek, byudjetdan mablag' oluvchilar kichik biznes

subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan tovarlarga (ish, xizmat) oʻrnatilgan eng kam ulushlarga (kvota) muvofiq xarajatlarni amalga oshirishlarini monitoring qilib boradi

Takrorlash uchun savollar

1. Davlat xaridining mazmuni, iqtisodiyot taraqqiyoti uchun ahamiyati nimalardan iborat?

2. Davlat xaridining obyektlarini tushuntiring.

3. Davlat xaridlarining nazorat organlari kimlar?

4. Davlat xaridlarining shaffofligi deganda nimani tushunasiz?

5. Davlat xaridlarini ishtirokchilari kimlar?

6. Moliya vazirligi Gʻaznachiligi Davlat xaridlari boʻyicha Hukumat Komissiyasining ishchi organi etib belgilanish sabablarini tushuntiring.

7. Moliya vazirligi Gʻaznachiligi Davlat xaridlari boʻyicha Hukumat Komissiyasining ishchi organi sifatida qanday vakolatlarga ega?

8. Davlat xaridlarini samarali tashkil etish uchun qanday choralar belgilandi?

9. Konkurs savdolari qanday tartibda amalga oshiriladi?

10. Erkin savdolarni amalga oshirishning qanday shartlari mavjud?

11. Tender savdolari qanday tashkil etiladi va qanday tarkibda komissiya shakllantiriladi?

12. Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish chora tadbirlar belgilanishining maqsadi nima?

13. Davlat xaridlariga kichik biznes subyektlarini ustuvor darajada jalb qilish mexanizmi qanday?

14. Elektron auksion savdolarni uyushtirish tartiblari, unda byudjetdan mablagʻ oluvchilarning ishtirok etish qoidalari toʻgʻrisida nimalar bilasiz?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Davlat xaridlari tizimini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani aks ettiruvchi taqdimot tayyorlang va mazmunini yoritib bering.
2. Elektron auksion savdolarida qatnashish tartibini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izohlab bering.
3. Xorijiy davlatlarda davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini o'rganing va bu haqda mustaqil ta'lim majmuini yarating.

19-MAVZU. G‘AZNACHILIK ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMI

19.1. Byudjet g‘azna ijrosini ta‘minlashda g‘aznachilik yagona axborot tizimining ahamiyati

19.2. G‘aznachilik dasturiy majmuasining faoliyati mexanizmi

19.3. Byudjet g‘azna ijrosini ta‘minlashda “UzASBO” avtomatlashtirilgan tizimi xususiyatlari

19.4. G‘aznachilikda axborot tizimining rivojlanish istiqbollari

19.1. Byudjet g‘azna ijrosini ta‘minlashda g‘aznachilik yagona axborot tizimining ahamiyati

Jahondagi har qanday rivojlangan davlatlar o‘z yalpi ichki mahsulotining yirik qismini maqsadli va manzilli qayta taqsimlashga, mamlakat iqtisodiyotini erkin hamda xalqaro tajriba tamoyillari asosida rivojlantirishga, davlat moliyaviy resurslari yo‘nalishlari, uning xarajatlarini to‘g‘ri samarali amalga oshirilishi va nazoratini ta‘minlashga qodir bo‘lgan zamonaviy davlat byudjeti g‘azna ijrosini takomillashtirib borishni talab etadi. Davlat aktiv va majburiyatlarini hisobini yuritishning yagona tizimini qo‘llash, natijaga yo‘naltirilgan byudjet ijrosi, byudjet jarayonining ishtirokchilari o‘rtasida real vaqt rejimida uzluksiz elektron hujjatlar aylanish tizimi joriy etish, to‘lovlarni yagona hisobvaraqdan to‘g‘ridan to‘g‘ri byudjet birliklari tomonidan mustaqil amalga oshirish, shuningdek, davlat qarzini boshqarish, tahlil qilish va hisobini yuritgan holda milliy iqtisodiyotga joriy etishning afzalliklarini belgilab beradi. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasi va ilmiy yutuqlarini tadqiq etish g‘aznachilik tizimini taraqqiyoti uchun, shuningdek, tizimlar o‘rtasida o‘zaro munosabat-

larning barcha sohalariga tegishli qonunchilik baza yaratilishi va o‘z navbatida mamlakatlarning moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishi, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish va o‘z navbatida mamlakatning xalqaro reytingida o‘rni yuksalishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Respublikamizda davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish doirasida davlat byudjeti g‘azna ijrosi mexanizmi joriy etilgan. G‘aznachilikning joriy etilishi byudjet daromadlarining to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda xarajatlarining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini bermoqda. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “xarajatlarni ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda, davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta‘minlash, byudjetning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish” bo‘yicha ustuvor vazifalar doirasida iqtisodiy islohotlar davlat moliyasi tizimida ham jadal sur‘atlar bilan amalga oshirilmoqda.¹⁸⁹

Davlat byudjetining g‘azna ijrosi bu – hisob va axborot texnologiyalari tizimiga asoslangan davlat byudjeti xarajatlariga moliyaviy resurslarni yetarli bo‘lishini ta‘minlash hamda davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari hisobi olib borilishi borasidagi iqtisodiy munosabatlardir.

Shu bilan bir qatorda, davlat byudjetining ijrosida uning kassa ijrosi ya‘ni tushumlar va to‘lovlar hisob-kitobi muhim o‘rin tutadi. U davlat byudjeti ijrosining markaziy qismi hisoblanadi.

Byudjet tizimi va byudjet jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish va rivojlantirish ushbu mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Byudjet tizimi katta hajmdagi axborot oqimlari

¹⁸⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y. №6 (766)-son.

kesishuvining markazi hisoblanadi. Byudjet jarayonining axborot oqimlari oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilgani holda, ularni soddalashtirilgan tarzda qayta ishlash va avtomatlashtirish uchun bir tizimga solish va tartibga keltirish talab etiladi. Shu sababli mamlakatimiz hukumati tomonidan bu muammoning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimini shakllantirish yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilingan va maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi bu axborotlarni tezlik bilan qayta ishlash uchun mo‘ljallangan iqtisodiy-matematik metodlar, modellar, dasturlar va texnologik vositalar yig‘indisidir.

*Byudjet jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari real vaqt rejimida byudjet jarayoni (shu jumladan, byudjet ijrosi) axborot oqimlarining kompleks hisobini olib borish va iqtisodiy tahlilini amalga oshirish imkonini berali, ma’lumotlarning haqqoniyligi va tezkorligini oshiradi va operativ tarzda tegishli oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon yaratadi*¹⁹⁰.

Tabiiyki, mamlakatimizda byudjet jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimini tashkil etish va rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo‘lib, byudjet jarayonini boshqarishni to‘liq avtomatlashtirish, ya’ni real vaqt (on-line) rejimida byudjet jarayoni axborot makonini yaratish maqsad qilib qo‘yilgan.

G‘aznachilik faoliyatida daromadlarni byudjetlarning turli pog‘onalari o‘rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning smeta xarajatlari ijrosini amalga oshirish va Davlat byudjeti ijrosi liisobotlarini tayyorlashni inobatga olgan holda Davlat byudjetining kassa ijrosi bajariladi. Tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi kassa uzilishlarni ogohlantirishni ta’minlaydigan yagona g‘aznachilik hisobi yuriladi, hamda hududiy g‘aznachilik hisoblarini tatbiq qilish orqali Davlat byudjeti mablag‘lari boshqariladi.

¹⁹⁰ Steven M. Bragg. TREASURY MANAGEMENT The Practitioner’s Guide. John Wiley & Sons, Inc. 2010 New Jersey.

G'aznachilikni samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy shartlaridan biri zamonaviy kompyuterlar texnologiyasi va aloqa tizimidan foydalanishdir. Shuning uchun bugungi kunda g'aznachilik ishini axborotlar bilan ta'minlash tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuni aytib o'tish kerakki, g'aznachilik organlarini zamonaviy kompyuterlar texnologiyasi va aloqa uzatish vositalari bazasida axborotlar bilan ta'minlash g'aznachilikni joriy etish bilan birga parallel ravishda olib boriladi. G'aznachilik organlarining barcha bosqichlarini, byudjetdan mablag' oluvchilarni va byudjet mablag'i taqsimlovchilarining o'zaro aloqasini elektron axborotlar bilan ta'minlaydigan va avtomatlashtirilgan tizimga rahbarlikni amalga oshiradigan axborot bo'limi ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ko'pgina moliyaviy, analitik va boshqaruv operatsiyalarni va ularning talablariga javob beradigan egiluvchan va samarali axborot tizimining faoliyati ish boshladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimi joriy qilingan resurslardan maksimal foydalanish, iloji boricha ishlovchining savollariga javob berishi, axborotlarni saqlash uchun tarkiblashtirilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun bunday axborot tizimini tarkiblashtirishda tizim modullarini yaratish arxitekturasini loyihalashtirishda, eng avvalo, axborot tizimining arxitektura konsepsiyasi ko'rib chiqildi. Har bir murakkab tizimni joriy qilishning asosiy aspektining axborot arxitekturasini yaratish hisoblanadi. Odatda, bunday murakkab axborot tizimlari yuqori darajada o'zaro aloqada o'zi alohida tizim bo'lgan komponentlarning yig'indisi sifatida loyihalashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligining axborot tizimi arxitekturasini – axborot texnologiyalari qo'yilgan maqsadga erishishni qo'llab-quvvatlaydigan aniq maqsadni ifodalaydi, bu maqsadga erishish uchun axborot tizimi qanday ishlarni qilishi kerakligini ko'rsatadigan moduldir.¹⁹¹

¹⁹¹ Pulatov D., Nurmuxamedova B. G'aznachilik. Darslik. T.: Iqtisod-moliya, 2014. 314 b.

Bugungi kunda g‘aznachilik bilan byudjet jarayonining boshqa subyektlari o‘rtasidagi axborot va huquqiy o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish bilan bog‘liq muammolar o‘z aksini topgan (19.1-rasm):

G‘aznachilik		
Bank tizimi bilan:	Soliq va bojxona organlari bilan:	Byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar va oluvchilar bilan:
<ul style="list-style-type: none"> • G‘aznachilik organlari Markaziy bankning elektron hisob-kitoblar tizimiga kiritilmagan; • axborotdan samarali foydalanish va unga avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish imkoniyatini ta‘minlovchi elektron o‘zaro aloqa ta‘minlanmagan. 	<ul style="list-style-type: none"> • axborotdan samarali foydalanish va unga avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish imkoniyatini ta‘minlovchi elektron o‘zaro aloqa mavjud emas; • g‘aznachilik organlari va boshqa moliya organlari o‘rtasida axborot almashish metodologiyasi va texnologiyasi ishlab chiqilmagan. 	<ul style="list-style-type: none"> • barcha byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar va oluvchilar bo‘yicha shaxsiy hisobvaraqlar orqali xarajatlarni amalga oshirish yagonaligining huquqiy asosi mavjud emas, ya‘ni elektron o‘zaro aloqa mavjud bo‘lmay, bir tizimga keltirilmagan; • g‘azna hisobvaraqlariga byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari va davlat maqsadli jamg‘armalarining mablag‘lari elektron o‘zaro aloqa bilan bir tizimga keltirilmagan; • byudjet majburiyatlarini qabul qilish, tasdiqlash va to‘lash uchun javobgarlik sohasi chegaralanmagan.

19.1-rasm. G‘aznachilik organlari bilan byudjet jarayonining boshqa subyektlari o‘rtasidagi mavjud muammolar¹⁹²


Shu munosabat bilan g‘aznachilik, soliq, bojxona organlari, banklar byudjet ijrosi jarayonlarining barcha subyektlarining o‘zaro hamkorligini tashkil qilish masalasini sifat jihatdan yuqori darajada hal

¹⁹² M.Mansurov. Davlat moliyasi tizimida g‘aznachilik va uni rivojlantirish istiqbollari. Avtoreferat. T., 2019. www.tfi.uz

qilish va tizimni zamonaviy yuqori texnologiyalarga hamda xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirishni taqozo etadi.


G'aznachilikning axborot tizimining xizmatchi qismlari quyidagilardan iborat:

- ma'lumotlar xavfsizligi va himoyasi;
- informatsion xizmatlar;
- idoralararo munosabatlar;
- tizim administratorligi.



19.2-rasm. G'aznachilikning axborot tizimining xizmatchi qismlari

Mamlakatimizda Davlat moliyasini boshqarish (DMB)ni isloh etish strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri – davlat byudjeti g'azna ijrosining avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish va takomillashtirish hisoblanadi. Bu strategik vazifani bajarish maqsadida “Davlat byudjetining g'azna ijrosi” dasturiy majmuasi yaratildi va bugungi kunda u davlat boshqaruvining barcha pog'onalarida byudjet ijrosini boshqarishning samarali va istiqbolli avtomatlashtirilgan axborot tizimiga aylanib bormoqda.




19.3-rasm. G'aznachilik axborot tizimi modullari

O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrda O'RQ-360-son "O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 aprelda O'RQ-472-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining 2016 yil 24 martda 20, 2016-14, 01-02/8-10-son "Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining kassa ijrosi to'g'risidagi

yo'riqnoma"ni tasdiqlash to'g'risida qarori, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Ayni vaqtda byudjet tizimi byudjetlarining barchasi uchun birdek ochiq bo'lgan tranzit tarzida harakatlanishi mumkin bo'lgan daromad (tushum)lar kirim qilinadigan maxsus hisobraqamlar yopilib, ularning o'rniga "O'zbekiston respublikasi moliya vazirligi" axborot tizimi (O'RMV AT) majmuaviy dasturi bo'yicha davlat byudjetining daromadlar qismiga kelib tushadigan tushumlar uchun alohida shaxsiy hisobraqamlarning ochilishi joriy etildi.

G'aznachilik axborot tizimining quyidagi axborot tizimlari bilan o'zaro aloqalari ta'minlanadi:



19.4-rasm. G'aznachilik axborot tizimining axborot tizimlari bilan o'zaro aloqalari

Moliya vazirligi G'aznachiligi hamda uning joylardagi hududiy bo'linmalarining funksional faoliyatini amaliy va normativ-huquqiy jihatdan ta'minlash uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilmoqda. Moliya vazirligi G'aznachiligi o'z zimmasiga yuklatilgan funksional faoliyatni amalga oshirishida joriy qonunchilik talablariga, shuningdek, ayni turdagi faoliyatga taalluqli jahon standartlari (MSBGUS, RSGF-2001)ga muvofiq ish yuritilishi ta'minlanadi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosida byudjet mablag'larini kutishga hojat qolmaydi, chunki yagona g'azna hisobvarag'iga daromadlar shaklida tushumlarning tushishi mazkur hududdagi byudjet xarajatlarini operativ moliyalashtirish uchun barqaror jamg'armani tashkil qiladi. Bunday tizimda byudjet daromadlari hajmi va tushumi, byudjet maqsadlarining hajmi; smeta xarajatlari; tuzilgan shartnomalar bo'yicha amalga oshirilgan avans va to'liq to'lovlar hajmi to'lovlari; miqdori va boshqa harakatlarni aniq nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bizga ma'lumki, O'zbekistonda davlat byudjetining g'azna ijrosi joriy qilingunga qadar nazoratning shakllaridan faqatgina so'nggi nazorat mavjud bo'lib, u faqatgina huquqbuzarliklar sodir bo'lgandan so'ng aniqlanib, ularning oldini olish imkoniyati yo'q edi. Davlat byudjeti g'azna ijrosi joriy qilinishi dastlabki va joriy nazoratni kuchaytirib, bu bo'shliqni to'ldirdi. "Byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosi qoidalari" joriy qilinishi asosida tegishli byudjetlarning byudjet jarayonini kompleks avtomatlashtirish, shu jumladan byudjet tizimi byudjetlari va BMJ byudjetlari ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni aks ettirish uchun mo'ljallangan axborot tizimi – "O'RMV" AT Davlat byudjetining kirim qismiga tushiriladigan mablag'larni turli darajali byudjetlar o'rtasida taqsimlab berish jarayonlari amaldagi normativlarga mos ravishda bajarilishi va xarajatlarni amalga oshirilishida g'aznachilik organlari tomonidan ma'lumotlarni uzatish yoki ma'lumot almashishda ahamiyatga ega tizim sifatida joriy etildi.¹⁹³

¹⁹³ O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2850-son (22.12.2016) bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalari".

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning tegishli hujjatlarini elektron qabul qilish va ma'lumotlarni almashishda byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobi va hisobotning yuritilishini kompleks avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy majmua – "UzASBO" DM joriy etilgan.

19.2. G'aznachilik dasturiy majmuasining faoliyati mexanizmi

"O'RMV" AT majmuaviy dasturining turli modullari orasida tegishli informatsiyalar bilan almashinuv jarayonlari modullararo mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar paketning o'zak qismida hamda modul tizimining alohida sozlash tizimlarida joylashtirilgan. Modul paketining o'zak qismi normativ-spravochnik tipidagi informativ blokka ham ega. Ushbu informativ blok negizida bajariladigan operatsiyalar klassifikatori, G'aznachilik hamda bank bo'linmalari haqidagi spravochniklarda saqlab qo'yiladi.

"Daromadlarni boshqarish" moduli yordamida davlat byudjetiga kelib tushadigan soliq to'lovlari va boshqa xil majburiy to'lovlarning turlari va ularning qaysi byudjet bo'g'iniga tushirilishi lozimligiga qarab ro'yxatga olib borish, belgilab qo'yilgan normativlarga muvofiq turli darajali byudjetlarga tushiriladigan mablag'larning kundalik taqsimlanishi haqida ma'lumotlar olish, yagona g'azna hisobraqami (YaG'HR)ga tushayotgan mablag'lar haqidagi kundalik ma'lumotlarni jamlash, byudjetga kundalik kelib tushgan soliq to'lovlari va ularning taqsimoti haqida ma'lumotlar bilan tanishib borish mumkin bo'ladi.

Davlat byudjetining daromadlar qismiga tushadigan mablag'lar jumlasiga amaldagi qonunchilik me'yorlariga muvofiq joriy etilgan soliq to'lovlari hamda boshqa xildagi majburiy to'lovlar (ular haqidagi to'liq ma'lumot DMBAT dasturiy majmuaning spravochniklarida saqlanadi) kiritiladi. Soliq to'lovchi subyektlar byudjetga to'lanadigan to'lovlarni barcha bank bo'linmalarida amalga oshirishlari mumkin, o'z navbatida mazkur bank bo'linmalari qabul qilingan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahridagi

Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKM) da ochilgan YaG‘HRga tegishli maxsus hisobraqamiga o‘tkazib beradi. Byudjetga to‘lanadigan to‘lovlar naqd pul ko‘rinishida yoki pul o‘tkazish yo‘llari bilan amalga oshirilishi mumkin. To‘lov operatsiyalari pul o‘tkazish yo‘li bilan bajarilganida zimmasidagi majburiyatlarini bajaruvchi subyektning zarur rekvizitlari (daromadlar kirim qilinadigan shaxsiy hisobraqamining kodi, soliq to‘lovchining identifikatsion raqami (INN), kirim operatsiyalarining administratori (DSI, Bojxona organi)ning kodi, to‘lovlar qachon amalga oshirilganligi haqidagi ma‘lumot, YaG‘HRning hisob-kitobraqami ochilgan agent-bankning kodi) aks ettirilishi shart.

Moliya vazirligi G‘aznachiligining bo‘linmalari “Daromadlarni boshqarish” modulining sozlovchi mexanizmlariga, qanday ish tartibiga sozlanganiga qarab, agent-bank beradigan ma‘lumotlarni avtomatik tarzda yoki mexanik tarzda bajariladigan operatsiyalar yordamida qabul qilib olib, so‘ngra olingan ma‘lumotlar tegishli tartibda ishlanganidan keyin turli darajali byudjetlar bo‘yicha taqsimlab beradilar. Tushgan daromadlarni turli darajali byudjetlar o‘rtasida taqsimlab berish operatsiyasi amaldagi qonunchilik me‘yorlariga muvofiq daromadlarni byudjetlar o‘rtasida taqsimlash normativlariga asoslanib tayyorlangan maxsus spravochniklarga tayangan holda avtomatik tarzda bajariladi.¹⁹⁴

Davlat byudjetining kirim qismiga tushiriladigan mablag‘larni turli darajali byudjetlar o‘rtasida taqsimlab berish jarayonlari amaldagi normativlarga mos ravishda bajarilishi, shuningdek, “O‘RMV AT” majmuaviy dasturining tegishli spravochniklari bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘ladigan soliq summalarini to‘g‘ri belgilab berilishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish uchun G‘aznachilikning bo‘linmalarida mas‘ul xodimlar tayinlanib, ular normativ-spravochnik materiallariga taalluqli o‘zgarishlarni muntazam ravishda kuzatib borishi lozim.

¹⁹⁴ Pulatov D., Nurmuxamedova B. G‘aznachilik. Darslik. T.: Iqtisod-moliya, 2014. 314 b.

Davlat byudjetining kirim qismiga tushadigan mablag'lar G'aznachilikning YaG'HRga kelib tushgani haqida ma'lumot olinganidan keyin to'plangan barcha daromadlar summasi haqidagi ma'lumotlar generatsiyalanib (bir yerga jamlanib), tahlil qilinadi va shundan keyin jamlangan mablag'lar darajasiga qarab tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadigan byudjet mablag'lari miqdori aniqlanadi, buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha muayyan operatsiyalar bajariladi, avtomatik tarzda G'aznachilikning YaG'HRga kelib tushgan absolyut summalar hamda har xil byudjetlarga ajratilgan mablag'lar haqidagi ma'lumotlar shakllantirilib saqlab qo'yiladi.

Ushbu modul G'aznachilikning YaG'HRga kelib tushgan mablag'larni qayd qilish va ular bilan bog'liq turli xil kassa operatsiyalarini bajarish bo'yicha quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beradi:

- G'aznachilikning YaG'HRga kelib tushgan kirimlar hisobini yuritish (jumladan, kundalik tartibda YaG'Hga kelib tushgan summalar hamda turli xil byudjetlarga qayerdan va kimning nomidan kelgani aniqlanmagan mablag'lar haqidagi tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish va ishlash);

- belgilangan me'yordan ortiq miqdorlarda ilgariroq byudjetga o'tkazilgan mablag'larni qaytarib berish hamda turli xil byudjetlarga qayerdan va kimning nomidan kelgani aniqlanmay qolgan mablag'larni egasini aniqlab qaytarib berish;

- soliqning biron bir turi bo'yicha belgilangan me'yordan ortiq miqdorlarda byudjetga o'tkazilgan mablag'larni boshqa turdagi soliq to'lovlari bo'yicha mavjud qarzdorlik hisobiga o'tkazib tafovut o'rnini qoplash (amalda bo'lgan turli xil soliq to'lovlari bo'yicha balans hosil qilishga xizmat qiladi), shuningdek, tasniflanib ulgurilmagan kirimlarni turli xil darajadagi byudjetlarga ajratib berish.

- mamlakat miqyosida yig'iladigan soliq va boshqa xildagi majburiy to'lovlarni turli darajadagi byudjetlarga o'tkazib berish imkonini beradi; eng muhimi, to'planadigan mablag'larni bir xilda quyi darajali byudjetdan yuqoridagisiga va aksincha, yuqori darajadagi byudjetdan quyi darajadagi byudjetlarga o'tkazib bera oladi;

– o‘zaro hisob-kitoblarni qayd etish asosida barcha kassa operatsiyalari haqidagi ma’lumotlarni jamlash uchun qulaylik tug‘diradi, bunday imkoniyatning yaratilishi oqibat natijada aniq maqsadga yo‘naltirilgan loyihalar bo‘yicha xarajatlarni amalga oshirish vaqtida tomonlarning o‘zaro hisob-kitoblarini qayd etish imkonini beradi;

– dastur ish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlab tuzatish imkonini ham beradi;

– byudjetga kelayotgan kirimlarni hamda ularni qaytarib berish bilan bog‘liq kassa operatsiyalari bo‘yicha turlicha hisobotlar tayyorlanadi, shuni hisobga olib, turli xil hisobotlarni tayyorlash mumkin bo‘ladi;

– modul tizimi negizida normativ-spravochnik ma’lumotlarini o‘rnatish va sozlash imkonini beradi (ushbu modul asosidagi funksional vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun yuqorida aytib o‘tilgan spravochniklar tizimga kiritib qo‘yilishi kerak);

– modul tizimi negizida memorial orderlar haqidagi (jumladan, analitik buxgalteriya hisoblariga oid yozuvlar qayd etiladigan jamlangan (yig‘ilgan, terma) memorial orderlarning tuzilgan vaqti, qayd qilish raqami haqidagi tegishli ma’lumotlarni) spravochnik o‘rnatilishi mumkin bo‘ladi;

– buxgalteriya hisoblar rejasining tuzilishi bilan bog‘liq jarayonlar (xususan, byudjetning kirim qismi bo‘yicha hisobga olinadigan barcha kassa operatsiyalarini bajarishga doir turli xildagi analitik materiallarning ro‘yxati)ga oid rasmiy yozishma materiallari bo‘yicha spravochnik o‘rnatishga imkon beradi.

Tizim bo‘yicha turli xil ma’lumotlarni qabul qilib olish hamda masofaga uzatish uchun maxsus *“Ma’lumotlarni qabul qilib ular bilan ishlash, uzatish”* deb nomlangan modul ham yaratilgan. G‘aznachi-likning turli bo‘linmalari hamda agentlik vazifasini bajaruvchi bank tizimi o‘rtasida operativ tarzda kerakli ma’lumotlar bilan almashinuv

jarayonini yo'lga qo'yish uchun maxsus kommunikatsiya tizimlari yordamida yoxud kuryerlar vositasida ta'minlanadigan aloqa tizimi o'rnatilishi kerak. Bunday aloqa tizimidan foydalanish vaqtida agentlik vazifasini bajaruvchi bank tomonidan yozib beriladigan rasmiy hujjatlarning ko'chirma nusxasi G'aznachilikka elektron variantda yuboriladi. Ayni vaqtning o'zida agentlik vazifasini bajaruvchi bank tomonidan yozib beriladigan rasmiy hujjatlarning ko'chirma nusxalarini jamlab qo'yiladigan, harakati nazorat qilinadigan va o'zaro aloqadorlik munosabatlarida bo'lgan har ikki tomondan yuboriladigan rasmiy hujjatlar jumlasiga avtomatik tarzda kiritiladi. Yuqorida aytib o'tilgan operatsiyalarning avtomatik tarzda bajarilishini "Ma'lumotlarni qabul qilib ular bilan ishlash, uzatish" deb nomlangan modul ta'minlab beradi.

Davlat byudjetining daromad va xarajatlari moddalar bo'yicha amalga oshirilgan kassa operatsiyalariga asoslanib "*Bosh kitob*" deb nomlangan modul tomonidan G'aznachilikda yuritiladigan Bosh kitobda qayd etilishi uchun alohida ma'lumot tayyorlanadi. Bu xildagi ma'lumotlar har kuni kun davomida muntazam ravishda G'aznachilikka yuborib turiladi. G'aznachilik tarkibiga kiruvchi barcha bo'linmalardan kerakli ma'lumotlarni yig'ib olganidan keyin har kun davomida bir marotabadan jamlangan ma'lumotlar Bosh kitobda qayd etiladi va bajarilgan ishlar asosida joylarga tasdiqlangan ma'lumotlar yuboriladi. Yaratilgan modul kommunikatsiya tizimidagi aloqalar nisbatan yomon ishlaganida, G'aznachilikning hududiy bo'linmalaridan yuboriladigan ma'lumotlarning kelishi nisbatan sust kechganida ham bir maromda ishlab turishga qodir.

G'aznachilikning har bir hududiy bo'linmasidan keladigan, u yerda amalga oshirilgan kassa operatsiyalari haqidagi ma'lumotlarga asoslanib hisobotlarni generatsiyalovchi alohida modul yordamida har xil hisobotlar (byudjetning daromad qismiga kelib tushgan tushumlar, daromadlarning turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi,

byudjetning xarajat qismi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar, byudjetdan xarajatlari amalga oshirilgan loyihalar, shuningdek, har qanday yig'ma va konsolidatsiyalangan hisobotlar) tayyorlash imkoniyati bo'ladi. Tadbiriq etilayotgan informatsion tizim yuqorida aytib o'tilgan asosiy funksiyalardan tashqari, byudjetdan xarajatlari amalga oshiriladigan tashkilotlarga byudjetdan tashqari manbalardan ajratib beriladigan mablag'larning qabul qilinishi va sarflanishi haqidagi to'liq ma'lumotlarni avtomatik tarzda hisobga olib keyinchalik nazorat qilib borishga imkoniyat yaratib beradi.

*Ma'lumki, byudjet qurilishi mamlakatning davlat byudjeti va byudjet tizimini, uning bo'g'inlari o'rtasidagi byudjetlararo munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjet mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.*¹⁹⁵

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 7-moddasida qayd etilgan *byudjet tizimining yagonaligi* tamoyiliga muvofiq, barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish va ijro etishda yagona byudjet tasnifi qo'llaniladi. Barcha darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tasniflash obyektlariga tegishli raqam(kod)lar berish bilan guruhlanadi hamda tasnif ko'rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi.

Byudjet tasnifi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hamda ulardan mablag' oluvchi tashkilotlarga qo'llaniladi hamda davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro qilish, shuningdek davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash maqsadida foydalaniladi.

¹⁹⁵ Steven M. Bragg. TREASURY MANAGEMENT The Practitioner's Guide. John Wiley & Sons, Inc. 2010 New Jersey.

Byudjet tasnifi O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarining guruhlanishi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- davlat byudjeti daromadlarining tasnifi;
- davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifi;

– davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.

Byudjet tasnifi davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma‘lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va byudjet ma‘lumotlarining xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma‘lumotlari bilan qiyoslanishini ta‘minlaydi.

Davlat byudjeti daromadlarining tasnifi barcha darajadagi byudjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlarining guruhlanishidan iborat. 25 koddan iborat bo‘lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to‘rt qismli ko‘rinishga ega:

- mablag‘lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi;
- daromadlar turi;
- hududiy tasnif.

Daromadlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko‘rinishga ega:

Mablag‘lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi	Daromadlar turi	Tashkiliy tasnif	Hududiy tasnif
---	-----------------	------------------	----------------

Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi (DMBAT) tatbiq etilguniga qadar O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tuzishda faqatgina “Daromadlar turi” kodi qo‘llaniladi.

Xarajatlar tasnifi. Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalar xarajatlari tasnifi barcha byudjet

darajalari xarajatlari guruhlanishini o'zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funksiyalarini bajarishga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishga byudjet mablag'larining yo'naltirilishini aks ettiradi.

Xarajatlar tasnifi quyidagilardan iborat:

- mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi;
- hududiy tasnif;
- xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi;
- xarajatlarning iqtisodiy tasnifi;
- xarajatlarning iqtisodiy tasnifi (xarajatlar guruhi bo'yicha);
- tashkiliy tasnif;

Xarajatlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega:

Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi	Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi	Tashkiliy tasnif	Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi	Hududiy tasnif
x				

DMBAT to'liq tatbiq etilguniga qadar xarajatlar smetasini va xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobotni (davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni qo'shgan holda) tuzishda "Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi", "Tashkiliy tasnif" va "Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi" kodlari qo'llaniladi.

G'aznachilik tizimi samarali faoliyat qilishi uchun byudjet daromadlari va xarajatlarning mukammal ishlab chiqilgan funksional va iqtisodiy tasnifi bo'lishi lozim. Davlat mablag'lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini bank tizimidan G'aznachilikka o'tkazilishi bilan barcha operatsiyalar yagona G'aznachilik tizimining Bosh kitobida aks ettiriladi. Bunda konsolidatsiyalashgan byudjetni ijro etishda, davlat moliyasi bilan amalga oshiriladigan barcha jarayonlarni o'z vaqtida va aniq hisobini yuritishda G'aznachilikning hisob-kitob schyotlari byudjet daromadlari

va xarajatlarining tasniflash tizimiga mos kelishi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, G‘aznachilikning ma’lumotlar bazasida barcha ma’lumotlar byudjet tasnifiga asosan guruhlanadi.

19.3. Byudjet g‘azna ijrosini ta’minlashda “O‘zASBO” avtomatlashtirilgan tizimi xususiyatlari

Davlat byudjetini ijro etish jarayonida bo‘ladigan byudjet operatsiyalari hisobi, yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, buxgalteriya hisobining quyidagi turlariga bo‘linadi¹⁹⁶:

- byudjet (davlat byudjeti (respublika va mahalliy byudjetlar), davlat maqsadli jamg‘armalari) ijrosi operatsiyalari hisobi;
- byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasini ijro etish operatsiyalari hisobi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 24-bob, 161-moddasiga ko‘ra, *byudjet hisobi* byudjet tizimi byudjetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek mazkur aktivlar va majburiyatlarni o‘zgartiruvchi operatsiyalarning holati to‘g‘risidagi axborotni to‘plash, ro‘yxatdan o‘tkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidir.

Byudjet hisoboti byudjet hisobi ma’lumotlari asosida belgilangan shakllar bo‘yicha tuziladigan aktivlar va majburiyatlarning holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning umumlashtirilgan tizimidir.

Byudjet hisobi va byudjet hisobotining yagona metodologiyasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Byudjet Kodeksi, Byudjet hisobining standartlari, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Byudjet hisobining standartlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Byudjet tizimi byudjetlari ijrosining byudjet hisobi:

- moliya organlari;
- g‘aznachilik bo‘linmalari;
- davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari;

¹⁹⁶ Pulatov D., Nurmuxamedova B. G‘aznachilik. Darslik. T.: Iqtisod-moliya, 2014. 314 b.

- byudjet tashkilotlari;
- davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan yuritiladi.

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi bo'yicha byudjet hisobi kassa usuli bo'yicha yuritiladi.

– Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish strategiyasi qator yo'nalishlar bilan birgalikda, yangi byudjet tasnifi va buxgalteriya hisobining yangi hisoblar rejasiga asoslangan yagona byudjet va hisob tizimini yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Bu strategik vazifani bajarish doirasida byudjet hisobining va byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning yangi, takomillashgan va kompyuterlashgan tizimi bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013 yil 30 apreldagi 63-sonli "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida hamda byudjet tashkilotlarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada takomillashtirish va joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq, Moliya vazirligining tegishli tuzilmalariga quyidagi vazifalar yuklatildi.

"O'zASBO" Kompyuter dasturi byudjet tashkilotlariga bepullik asosida amalga oshiriladi.

"O'zASBO" KD:

1. byudjet tashkilotlaridagi buxgalteriya hisobining to'liq tsiklini o'z ichiga olgan buxgalteriya hisobi bo'yicha operatsiyalarni avtomatlashtiradi;

2. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi bo'yicha Yo'riqnoma"ning va byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning talablariga to'liq muvofiqlikni ta'minlaydi;

3. Moliya vazirligining ma'lumotlar markazida byudjet tashkilotlari ma'lumotlarining markazlashtirilgan tarzda saqlanishi va yuqori ishonchliligini ta'minlaydi;

4. “G‘aznachilik-4” Kompyuter dasturi va boshqa mavjud kompyuter dasturlari bilan integratsiyalashuv uchun keng imkoniyatlar beradi;

5. Moliya vazirligi va moliya organlari bilan o‘zaro ta’sirlashuv asosida byudjet tashkilotlari mablag‘larini jiddiy tejaydi;

6. byudjet tashkilotlari xodimlariga dasturdan foydalanish huquqini beradi, ular Moliya vazirligining Axborot-hisoblash markazidan olingan “O‘zASBO” KDga kirish uchun loginlar va parollarga muvofiq Moliya vazirligining dasturiy maydonchasidan (www.mdm.uz) foydalanishlari mumkin.

“O‘zASBO” KD avmatlashtirilgan tizimi xususiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2010-yil 17-dekabrdagi 105-sonli buyrug‘iga va Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi 2169-sonli yo‘riqnomaga asosan ishlab chiqilgan.

Dasturdan foydalanish internet tarmog‘i asosida amalga oshiriladi

19.5-rasm. “O‘zASBO” avtomatlashtirilgan tizimi xususiyatlari

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular byudjet qonunchiligi, Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi bo‘yicha yo‘riqnoma, shuningdek, byudjet tashkilotlaridagi buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘yicha boshqa me‘yoriy hujjatlar, ularning tarmoq spetsifikasi bilan belgilanadi. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

– byudjet tasnifi moddolari kesimida buxgalteriya hisobini tashkil qilish;

– xarajatlar smetasining ijro etilishini nazorat qilish;

– byudjetlarni ijro etishning g‘aznachilik tizimiga o‘tish;

– hisobda kassa xarajatlari va haqiqiy xarajatlarni ajratish;

– byudjet sohasi (sog‘liqni saqlash, ta’lim, ilm-fan va h.k.) muassasalarida hisobning tarmoq xususiyatlarini inobatga olish.

“O‘zASBO” KDni joriy etish bo‘yicha ishlar natijasida quyidagi maqsadlarga erishiladi:

– barcha byudjet tashkilotlari uchun yagona “O‘zASBO” KD versiyasi yaratilgan va qo‘llaniladi, bu unga o‘zgarishlarni markazlashtirilgan tarzda kiritish, shuningdek ma’lumotlarni ishonchli saqlash va rezervlashni ta’minlaydi;

– barcha mintaqalarda joylashgan byudjet tashkilotlarining buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘yicha ma’lumotlar bazasi tuzilmasi yaratiladi;

– buxgalteriya hisobi va hisobotining yagona metodologiya bo‘yicha yuritilishini ta’minlaydigan markazlashtirilgan ma’lumotlar bazasi yaratiladi;

– tarixiy xronologiyani kuzatib borish, hisob davrlari, shu jumladan byudjet tashkilotlarining avvalgi yillardagi faoliyati davrlari bo‘yicha hisob yuritish imkoni beriladi;

– tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan analitik va sintetik hisob yuritish bo‘yicha registrlarni (vedomostlar, Bosh kitob va h.k.), turli joriy va davriy hisobotlarni (1-, 2-son shakllar, balans va unga ilovalar va h.k.) yuritish va ularni qog‘ozga tushirish imkonini beradi.

Dastur umumiy markazlashtirilgan serverga, ma’lumotlarni saqlash va ishlash bo‘yicha yagona tizimga ega bo‘lgan yagona integratsiyalangan apparat - dasturiy kompleksdir.

“O‘zASBO” KD quyidagi komponentlar (hisob obyektlari) bo‘yicha buxgalteriya hisobini yuritish imkonini beradi:

- tovar-moddiy zaxiralar;
- debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar;
- asosiy vositalar (nomoliyaviy aktivlar) va nomoddiy aktivlar;
- pul mablag‘lari, kassa xarajatlari va haqiqiy xarajatlar;
- moliyaviy natijalarni hisobga olish bo‘yicha schyotlar, hisobotni shakllantirish va tuzish;
- xodimlar va stipendiatlar bilan hisob-kitoblar;
- “G‘aznachilik-4” kompyuter dasturi bilan o‘zaro ta’sirlashuv.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bilan bog‘liq boshqa axborot “G‘aznachilik” KD dan “O‘zASBO” Kd ga quyidagi ma’lumotlar bilan almashiniladi:



Budjet tashkilotlarining “G‘aznachilik” KD da ochilgan tegishli shaxsiy hisobvaraqlarida mablag‘larning harakati haqida axborot berish



Budjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilari bilan ro‘yxatga olingan (qaytarilgan) shartnomalari haqida axborot berish



Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bilan bog‘liq boshqa axborotlarni berish

19.6-rasm. “O‘zASBO” KD va “G‘aznachilik” KDlar ma’lumot almashinuvi

Foydalanuvchilar dasturdan foydalanish uchun WEB-texnologiyalarni qo‘llagan holda Moliya vazirligining dasturiy maydoniga kiradilar (<http://www.mdm.uz>).

“O‘zASBO” KD tarkibiy tuzilmasi funkcionallikni boshqaruv darajalari bo‘yicha taqsimlashni, boshqa turdosh axborot tizimlari bilan informatsion o‘zaro ta’sirlashuvni o‘z ichiga oladi.

“O‘zASBO” KD amaliy dasturiy ta‘minotning boshqa tizimlar bilan o‘zaro axborot ta‘sirlashuvi “G‘aznachilik” KD, shuningdek dasturiy komplekslar o‘rtasidagi himoyalangan aloqa kanallari orqali moliyaviy axborotning yagona ma‘lumotlar bazasi bilan axborot ta‘sirlashuvidan iborat, “O‘zASBO” KD bilan axborot ta‘sirlashuvi jarayonida quyidagi ma‘lumotlar bilan almashinuv amalga oshadi:

“O‘zASBO” KDdan “G‘aznachilik” KDga;

– ro‘yxatga olingan xarajatlar smetalari va byudjet tashkilotlari daromadlari va xarajatlari bo‘yicha ma‘lumotlar sinxronizatsiyasi;

– byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasiga o‘zgartirishlar.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bilan bog‘liq boshqa axborot “G‘aznachilik” KD dan “O‘zASBO” KDga quyidagi ma‘lumotlar bilan almashiniladi:

– byudjet tashkilotlarining “G‘aznachilik” KD da ochilgan tegishli shaxsiy hisobvaraqlarida mablag‘larning harakati haqida axborotni berish;


– byudjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilari bilan ro‘yxatga olingan (qaytarilgan) shartnomalari haqida axborot berish;

– byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bilan bog‘liq boshqa axborotlarni berish.

Dastur bir vaqtning o‘zida 30000 tagacha foydalanuvchining qulay ishlashini ta‘minlay oladi. Bunda xodimlarning, dastur bilan bevosita ishlaydigan xodimning axborot texnologiyalari sohasidagi malakasi davlat sektoridagi ofis xodimining axborot texnologiyalari bo‘yicha bilimlariga qo‘yiladigan talablar bilan cheklanishi mumkin.

Byudjet daromadlarining shakllanishida soliq qonunchiligiga ko‘ra ortiqcha to‘langan soliqlar summalarini qaytarish yoki hisobga olish uchun davlat soliq xizmati organi axborot tizimida mablag‘larni qaytarish yoki hisobga olish to‘g‘risida elektron xulosa tayyorlaydi va ERI bilan tasdiqlash orqali “O‘RMV” ATga elektron tarzda yuboradi.

Tuman (shahar) moliya bo'limi 1 kun mobaynida uni ko'rib chiqib, qonun hujjatlariga muvofiq xulosada ko'rsatilgan mablag'larni qaytarish yoki hisobga olishga e'tirozlari bo'lmaganida xulosani tasdiqlaydi, e'tirozlar bo'lganida esa, sababini ko'rsatgan holda qaytaradi.



19.6-rasm. Byudjet mablag'larini oluvchi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bilan shug'ullanuvchi "O'zASBO" KD bilan ishlash huquqiga ega xodimlarning vazifalari

Tuman (shahar) moliya bo'limlari tomonidan "O'RMV" ATda tasdiqlangan xulosalar tegishli g'aznachilik bo'linmalari tomonidan xulosada ko'rsatilgan daromad shaxsiy g'azna hisobvarag'idan joriy tushumlar hisobidan qaytarish yoki hisobga olish uchun 1 ish kuni muddatida ijroga qabul qilinadi.

Ma'muriy va iqtisodiy sudlarning jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ortiqcha to'langan davlat bojini qaytarish bo'yicha sud qarori (ajrimi, buyrug'i) mavjud bo'lganda tegishli g'aznachilik bo'linmalariga vakolatli organ tomonidan xulosa o'rniga sud qarori taqdim qilinadi.

Agar mablag'lar yetarli bo'lmasa - alohida hollarda, agar 10 ish kuni mobaynida (*ilgari 30 kun mobaynida*) joriy tushumlarning yetishmasligi yoki mavjud bo'lmaganligi sababli qaytarish yoki hisobga olish imkoniyati bo'lmasa, ortiqcha to'langan mablag'ni qaytarish yoki hisobga olish tegishli byudjetning shaxsiy g'azna hisobvarag'idan amalga oshirilishi mumkin. Belgilangan muddat o'tganidan so'ng mablag'ni qaytarish yoki hisobga olish to'g'risidagi elektron xulosani ijro etish avtomatik tarzda to'xtatiladi va qaytarish yoki hisobga olish bo'yicha qoldiq summa:

- EKIHning 10 000 baravaridan yuqori bo'lgan hollarda Moliya vazirligi tomonidan "O'RMV" ATda ma'qullangach;

- EKIHning 10 000 baravaridan kam bo'lgan hollarda avtomatik tarzda tegishli byudjet mablag'laridan (tegishli daromad turini kamaytirgan holda) qaytarish yoki hisobga olish bo'yicha to'lov hujjati shakllantiriladi.

To'lovnomani kim tasdiqlaydi - byudjet mablag'laridan qaytarish yoki hisobga olish bo'yicha to'lov hujjati mablag'lar:

- respublika byudjetidan qaytarilishi lozim bo'lsa – Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan;

- Qoraqalpog'iston respublika byudjeti, viloyat byudjetlari va poytaxtning shahar byudjetidan qaytarilishi lozim bo'lsa – Qoraqalpog'iston Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya bosh boshqarmalari tomonidan;

- tuman va shahar byudjetlaridan qaytarilishi lozim bo'lsa – tuman va shahar moliya bo'limlari tomonidan;

- DMJ byudjetidan qaytarilishi lozim bo'lsa – ularni taqsimlovchi tomonidan bir ish kuni muddatida "O'RMV" ATda ma'qullanadi.

Buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha barcha operatsiyalar me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqilgan holda avtomatlashtirilgan.

Yuqori turuvchi tashkilot tomonidan buxgalteriya hisobining yuritilishi quyidagi hajmda olib boriladi:

– buxgalteriya hisobi bo‘yicha operatsiyalarni byudjetdan mablag‘ oluvchining shaxsiy hisobraqamida avtomatlashtirilgan tarzda yuritish bilan bog‘liq zarur ma‘lumotlarni kiritish;

– buxgalteriya hisobi bo‘yicha birlamchi hujjatlarni tayyorlash va shakllantirish;

– byudjet mablag‘larini tasarruf etuvchining yig‘ma xarajatlar smetasi buxgalteriya hisobini yuritish bo‘yicha hujjatlar aylanmasini shakllantirish bo‘yicha operatsiyalarni bajarish;

– xarajatlar smetalarini taqsimlash va ularning idoraviy mansubdagi byudjet tashkilotlari tomonidan ijro etilishi hujjatlarini shakllantirish bo‘yicha operatsiyalarni bajarish;

– Moliya vazirligi bilan birgalikda elektron ko‘rinishdagi avtomatlashtirilgan hujjatlar aylanmasi bo‘yicha operatsiyalarni bajarish;

– buxgalteriya hisobi birlamchi registrlarini, byudjet mablag‘larini oluvchining joriy va davriy hisobotlarini shakllantirish;

– turdosh dasturiy mahsulotlar (“G‘aznachilik” KD) bilan avtomatlashtirilgan ma‘lumotlar almashinuvi;

– moliyaviy axborotning yagona ma‘lumotlar bazasi bilan avtomatlashtirilgan ma‘lumotlar bazasi;

– qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa operatsiyalar.

Byudjet mablag‘larini oluvchilarning FES xodimlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya hisobi bo‘yicha hisobotlarni chiqarish bilan bog‘liq operatsiyalarning, shuningdek ma‘lumotlar bazasining ma‘murlanishi Moliya vazirligi axborot-hisoblash markazi xodimi – bosh administrator tomonidan nazorat qilinadi, bu xodim foydalanuvchilar rollarini belgilaydi, ularga login va boshlang‘ich parolni beradi, barcha zarur ma‘lumotnomalarni (Moliya vazirligining davlat byudjeti bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda), shu jumladan buxgalteriya hisobi registrlari va tegishli hisobotlar registrlarini boshqaradi.

G'aznachilik bo'linmalarida yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish uchun barcha hujjatlarni faqat elektron shaklda taqdim etadigan "UzASBO" DMga ulangan buyurtmachilar va kapital qo'yilma buyurtmachilari tomonidan imzolar namunalari va muhr izi kartochkasi g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etilmaydi.

"UzASBO" DMga ulangan buyurtmachilar YuMMR buyurtmasini "UzASBO" DMda shakllantiradi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda g'aznachilik bo'linmalariga elektron hujjat shaklida yuboradi.. YuMMR buyurtmalarining elektron shaklda rasmiylashtirilishi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun buyurtmachilar javobgar hisoblanadi.

"UzASBO" DMga ulangan buyurtmachilar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi ma'lumotlarini "UzASBO" DMga kiritadi va elektron hujjat shaklida elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda g'aznachilik bo'linmalariga yuboradi. Buyurtmachilarning "UzASBO" DM orqali elektron hujjat shaklida g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan YuMMR buyurtmalari va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi g'aznachilik bo'linmalari tomonidan xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga muvofiq ravishda tuzilishi ustidan nazorat o'rnatish asosida bir ish kuni ichida mas'ul xodimning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan holda "O'RMV" ATda elektron tarzda ro'yxatdan o'tkaziladi yoki hisobga olinadi, kamchiliklar aniqlanganida esa tegishli kamchiliklari ko'rsatilgan holda elektron tarzda buyurtmachilarga qaytariladi.

"UzASBO" DMga ulangan kapital qo'yilma buyurtmachilari yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan tuzgan shartnomalarini va unga tegishli ilovalarni belgilangan tartibda "UzASBO" DM orqali g'aznachilik bo'linmalariga yuborishlari mumkin.

"UzASBO" DMga ulangan kapital qo'yilma buyurtmachilari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yetkazib beruvchini tanlab shartnoma tuzganidan so'ng tanlov (tender) bayonnomasi hamda

shartnoma (qonun hujjatlariga muvofiq bajarish muddati bir yildan ortiq muddatni tashkil etadigan shartnomalar bo'yicha shartnomaga qo'shimcha kelishuv) ma'lumotlarini "UzASBO" DMga kiritadi va elektron hujjat shaklida elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda g'aznachilik bo'linmalariga yuboradi. Kapital qo'yilma buyurtmachilari shartnoma ma'lumotlarini "UzASBO" DMga kiritishda shartnoma bo'yicha ishlarni boshlash uchun zarur hujjatlar (qurilishning manzilli va titul ro'yxati, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bilan kelishilgan tanlov savdolari natijalari hisoboti, pudrat tashkilotining qurilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash yuzasidan shartnomasi, qurilish-montaj ishlarini bajarishga O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining ruxsati, davlat ekologiya ekspertizasi xulosasi (zarur bo'lganda) mavjudligini "UzASBO" DMda elektron tarzda tasdiqlaydi.

"UzASBO" DM orqali elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda elektron hujjat shaklida g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan tanlov (tender) bayonnomasi hamda shartnomaning qog'oz shaklidagi asl nusxasi, shuningdek shartnoma tuzish uchun asos bo'lgan hujjatlar g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etilmaydi va kapital qo'yilma buyurtmachilarida saqlanadi. Bunda byudjet tizimi byudjetlari mablag'lari hisobidan shartnoma tuzishda yetkazib beruvchilarni tanlash tartibotlarini to'g'ri o'tkazilishi, shartnomani rasmiylashtirishda qonun hujjatlarida belgilangan barcha talablarga rioya etilishi, shartnoma bo'yicha ishlarni bajarishga vakolatli organlar xulosalari va ruxsatlarining mavjudligi, shuningdek tanlov (tender) bayonnomasi va shartnomaning qog'oz va elektron shaklining o'zaro muvofiqligi, ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi, shartnomaning asli va shartnoma tuzish uchun asos bo'lgan barcha hujjatlarning saqlanishi uchun kapital qo'yilma buyurtmachilari javobgar hisoblanadi.

"UzASBO" DMga ulangan kapital qo'yilma buyurtmachilari buyurtmachi xizmatini saqlab turishga xarajatlari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yig'imlar, badallar, soliqlar va boshqa to'lovlar

bo'yicha "UzASBO" DMda buyurtma shakllantiradi va elektron hujjat shaklida elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda g'aznachilik bo'linmalariga yuboradi. "UzASBO" DM orqali elektron hujjat shaklida elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan buyurtma qog'oz shaklida rasmiylashtirilmaydi. Buyurtma uchun asos bo'lgan hujjatlar g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etilmaydi va kapital qo'yilma buyurtmachilarida saqlanadi. Bunda buyurtmaning asosiligi va unga asos bo'lgan barcha hujjatlarning saqlanishi uchun kapital qo'yilma buyurtmachilari javobgar hisoblanadi.

Kapital qo'yilma buyurtmachilarining "UzASBO" DM orqali elektron hujjat shaklida g'aznachilik bo'linmalariga yuborilgan shartnomalari va buyurtmalari g'aznachilik bo'linmalari tomonidan xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga muvofiq ravishda tuzilishi ustidan nazorat o'rnatish asosida bir ish kuni ichida mas'ul xodimning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan holda "O'RMV" ATda elektron tarzda ro'yxatdan o'tkaziladi yoki hisobga olinadi, kamchiliklar aniqlanganida esa tegishli kamchiliklari ko'rsatilgan holda elektron tarzda kapital qo'yilma buyurtmachilariga qaytariladi.

19.4. G'aznachilikda axborot tizimidan foydalanishni rivojlantirish

Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik har chorakda turli darajadagi davlat boshqaruv organlarining qoplanmagan qarzlarini, byudjet tashkilotlarining va davlat muassasalarining qarzlarini qo'shib, barcha qoplanmagan qarzlar ro'yxatini tasdiqlaydi va nashr qiladi. Bunday ro'yxat har bir qarzlar bo'yicha quyidagi axborotlarni beradi:

- qarzdor nomi;
- ✓ shart-nomadagi boshlang'ich summa;
- ✓ qoplanmagan qismining hajmi;
- ✓ foiz stavkasi;

✓ to'lov muddati;

✓ joriy moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlar hajmining bashorati;

✓ kelgusi moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlarning hajmi bashorati;

✓ boshqa zarur axborotlar.

G'aznachilik har chorakda davlat zayomlari bo'yicha qarzlar ro'yxatini tasdiqlaydi va nashr qiladi. Bunday ro'yxat har bir qarzlar bo'yicha quyidagi axborotlarni beradi:

✓ qarzdor nomi;

✓ zayomning boshlang'ich summasi;

✓ tolanmagan qismining hajmi;

✓ foiz stavkasi;

✓ to'lov muddati;

✓ joriy moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlar hajmining bashorati;

✓ kelgusi moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlar hajmining bashorati;

✓ boshqa zarur axborotlar.

Mazkur hisobotlarni tayyorlash uchun barcha davlat boshqaruvi organlari va davlat tashkilotlari g'aznachilik tomonidan belgilangan shaklda va muddatda zarur axborotlarni g'aznachilikka taqdim qiladi. Federal byudjetning daromadlari va xarajatlari ijrosida byudjet ijrosi jarayonidagi g'aznachilik texnologiyasi tahlil qilindi, davlat moliyasini boshqarish tizimining mintaqa darajasida g'aznachilik organlari faoliyatida qator omillar aniqlandi. Federal G'aznachilik organlari faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan qator omillar tizimlashtirildi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosini amalga oshirish mexanizmlaridan biri daromadlar va xarajatlarni rejalashtirish bo'lib, u ham vaqt ham, miqdor bo'yicha tushumlar va mablag'lar xarajatiga doir axborotni o'zida aks ettiradi. Shuning uchun byudjet daromad

tushumlari va mablag'lar xarajatlarini to'g'ri rejalashtirishni tashkil etish Yagona g'azna hisobvarag'i funksiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va byudjet tushumlari va xarajatlari samarali boshqarilishini ta'minlaydi.

Fikrimizcha, bugungi kunda YaG'Hida nafaqat Davlat byudjetining, balki davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ham daromadlari, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari jamlanganini e'tiborga olgan holda, mazkur hisobvaraqdagi mablag'larni samarali boshqarish tabora dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi byudjetning vaqtincha bo'sh turgan mablag'lari tijorat banklarida depozitlarda joylashtirilishi mumkin.

Bu esa qayd etganimizdek, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi jarayonida Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'lardan unumli foydalanish va mablag'larni samarali boshqarish mexanizmlarini joriy etish byudjet tizimi byudjetlarini tezkor, oqilona va samarali boshqarish uchun imkoniyat yaratadi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimida online tizimidagi YaG'Hning tashkil etilishi sifat jihatdan yangi texnologiya hisoblanadi va bunda turli darajadagi byudjet daromadlari boshqa mablag'larning markazlashtirilishi, ularni mumkin qadar qisqa muddatda tegishli byudjetlarga taqsimlash va xarajatlarining amalga oshirilishi, barcha darajadagi byudjetlar hisobidan amalga oshirilgan davlat byudjeti xarajatlari va daromadlari bo'yicha operatsiyalarning har kuni aks ettirilishi va Davlat byudjeti ijrosi haqidagi hisobotni istalgan sana va hisobot davri uchun tezkor shakllantirish imkoniyatiga erishiladi. Bu, o'z navbatida, ijro etuvchi hokimiyat, moliya va soliq organlariga viloyat, shahar va tumanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha darajadagi byudjetlarga tushayotgan soliqlar va

yig'implar hisobi hamda soliq turlari va tushumlar bo'yicha daromadlar haqida tezkor ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.

Jahon byudjet jarayoni tajribasidan ma'lumki, yuqoridan quyiga qarab moliyaviy oqimlarni o'z ichiga oluvchi byudjet tizimini tartibga solish amaliyoti turli darajadagi byudjetlarning daromad va xarajatlari tengligini ta'minlashga qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri byudjet tizimini tartibga solishning barqaror mexanizmini shakllantirish hisoblanadi. Bu esa byudjetlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda o'z aksini topadi.

Shu o'rinda, byudjetning daromad va xarajat qismiga o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq o'zaro hisob-kitoblar muammosiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Davlat byudjeti g'azna ijrosi, davlat byudjeti ijrosi jarayonida pul mablag'larining oqimi hamda byudjet xarajatlarini bashorat qilish usullaridan keng foydalanish va uni takomillashtirish byudjetni oqilona va samarali ijro etishga keng imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik tizimi rivojlanishi jarayoni davom etmoqda. G'aznachilik tizimi oldida davlat byudjet siyosatini amalga oshirishning muhim masalalari turibdi va bunda mamlakat moliya tizimining kelgusi rivojlanish strategiyasida g'aznachilik muhim rol o'ynaydi.

G'aznachilik davlat moliyasida asosiy ijro etuvchi institut bo'lishi lozim. Bunda uning rejasiga o'z funksiyalarini kengaytirish zarur bo'lib, g'aznachilik markazlashtirilgan davlat moliyaviy resurslari hisob-kitobi vazifasini to'laqonli bajarishi, davlat moliyaviy siyosatini amalga oshirishning samarali mexanizmiga aylanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Turli darajadagi byudjetlar ijrosining g'aznachilik tizimi faoliyati byudjet tizimi holati va xususiyatidan kelib chiquvchi tamoyillar asosida qurilishi kerak. Byudjet g'azna ijrosi axborot tizimini quyidagi

asosiy tamoyillar asosida takomillashtirish lozim: ilmiylik, markazlashish va markazlashtirilmaganlik, barcha darajadagi tegishli organlar o'rtasida funksiya va vazifalarni chegaralash, umumlashtirish, huquqiy va me'yoriy baza hamda axborotga talablarning yagonaligi.

Ko'rsatilgan tamoyillar g'aznachilik axboro tizimini takomillashtirishning turli tomonlarini xarakterlaydi. Ularga rioya qilishning bir vaqtdaligi va majmuaviyligi – tashkiliy tuzilma rivojlanishi va g'aznachilik tizimida moliyaviy oqimlar aylanmasini optimallashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy shartidir.

Hududiy byudjetlar idrosini boshqarishda g'aznachilik texnologiyalaridan foydalanish yordamida byudjet ijrosi mexanizmlarini unifikatsiyalashtirish yo'nalishida hududiy moliya organlarini qayta tashkil qilishni tezlashtirish kerak. Strategik va taktik vazifalar, g'aznachilikni mustahkamlovchi yechimlar ro'yxatini belgilash, davlatning yagona byudjet siyosatini o'tkazishni amalga oshirish, uning qonunchilik-huquqiy asosini ta'minlash unga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish imkonini beradi.

O'zbekiston g'aznachilik tizimini rivojlantirishning muhim strategik vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. G'aznachilik tizimi faoliyatining qonunchilik va me'yoriy bazasini takomillashtirish.

2. Davlat ijro hokimiyati instituti sifatida g'aznachilikning maqomini o'zgartirish.

3. Byudjetni boshqarish, qarz munosabatlari va aktivlarini tartibga solish, kapital xarajatlarni moliyalashtirish, davlat maqsadli dasturlarini moliyalashtirish, jamg'arma bozorida, bank-kredit sohasida qatnashish bo'yicha g'aznachilik tizimi bajaradigan funksiyalarni sezilarli darajada kengaytirish.

Strategik vazifalarni hal qilish taktik xususiyatdagi vazifalarni amalga oshirishga real sharoitlar yaratadi.

Davlat g'aznachilik axborot tizimi rivojlanishining taktik vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- g'aznachilik vositasida xizmat ko'rsatishga barcha davlat moliyaviy oqimlarini o'tkazish;

- bojxona xizmati hisobvaraqlarini yopish va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining bojxona to'lovlarini byudjetga hisoblash bilan bog'liq moliyaviy oqimlarni g'aznachilik tizimiga o'tkazish;

- davlat moliyaviy resurslarini iqtisodiy tashxislash hamda monitoring qilish vositalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- davlat soliq va bojxona xizmatlari, g'aznachilik, davlatning boshqa moliyaviy agentlari hududiy bo'limlari axborot oqimlarini birlashtirishga qodir bo'lgan yagona telekommunikatsion tarmoq va ma'lumotlar bazasini tashkil qilish;

- davlat g'aznachiligining hududiy bo'g'inlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

Davlatning moliyaviy-iqtisodiy tuzilmalarini isloh qilish jarayonida axborotning ahamiyati doimiy o'sib boradi va tashkil qilinayotgan yagona telekommunikatsion tarmoqlar davlat boshqaruv organlari, viloyat, shahar va tumanlarni yaxlit majmuaga bog'lab, ularning samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Yagona telekommunikatsion tarmoqni tashkil qilish davlat byudjet tizimini kompleks monitoring va iqtisodiy tashxislash imkonini berib, davlat g'aznachiligining bo'limlari oldida turgan vazifalarni samarali hal qilishga xizmat qiladi. Shu maqsadda quyidagilardan foydalanish kerak:

1. Soliq va soliqsiz tushumlarning sifat hamda miqdoriy parametrlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar.
2. Davlat xarajatlarining miqdoriy va sifat parametrlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar.
3. Davlat iqtisodiyotiga kredit qo'yilmalarining miqdoriy va sifat parametrlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar.

4. Davlat byudjet tizimi ijrosining sifatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar.

G'aznachilik va kredit muassasalari takomillashmaganligi sababli byudjet g'aznachilik bankini tashkil qilish to'g'risidagi xulosaga kelinmoqda. Barcha pog'onadagi byudjet ijrosi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olgan moliyaviy tuzilma o'zining muhim bo'g'ini – byudjet bank muassasalarisiz to'laqonli faoliyat yuritishi mumkin emas. Byudjet bankini tashkil qilish – yagona hisobvaraqqa to'liq o'tishda, fikrimizcha, Moliya vazirligida barcha byudjet mablag'larini to'plash bo'yicha yagona yechimdir.

Albatta, g'aznachilik bankini tashkil qilish g'oyasini amalga oshirish murakkab ish bo'lib, ammo real g'aznachilik tuzilmasi nafaqat sof moliyaviy organ sifatida ishlaydi, balki bank operatsiyalarini takomillashtiradi, nazorat qilinadigan moliyaviy bank davlat tizimini qurish uchun sharoit yaratadi.

Davlat byudjetining zaxira jamg'armasini shakllantirish davlat byudjetini rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri sanaladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, g'aznachilik tizimida davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishdagi eng ko'p holatlarda naqd pul mablag'lari olingandan so'ng g'aznachilik organlari tomonidan nazorat amalga oshirilmoqda, bu vaqtda naqd pul harakatini amalda nazorat qilib bo'lmaydi. Bunda maqsadsiz foydalanishning asosiy sababi byudjet tasnifning bir moddasi bo'yicha mablag'lar yetishmasligi va boshqa modda bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish zaruriyatidir.

G'aznachilik tizimi boshqaruv darajasida davlat byudjetining zaxira jamg'armalarini tashkil qilish yo'li bilan mazkur muammoni hal qilishi lozim. Ular hukumat zaxira jamg'armasiga o'xshash bo'lishi kerak. Mazkur holatda g'aznachilik nafaqat moliyaviy sanksiyalar qo'llash, balki zaxira jamg'armasidan mablag'lar ajratishga yo'l qo'ymaslik huquqiga ega bo'ladi.

G'aznachilikning muhim funksiyalaridan biri – davlatning kredit resurslarini shakllantirish va taqsimlashdir. Shuni aniq tushunish kerakki, davlat iqtisodiy tizimning moliyaviy instituti sifatida quyi bo'g'inlarga o'z talablarini qo'yadi. Shuning uchun byudjet jarayonining mazkur segmentida asosiy urg'u bank sektoriga tushishiga qaramasdan, davlatning kredit resurslarini taqsimlashda g'aznachilik shakliga o'tish muqarrardir. Afsuski, bugungi kunda g'aznachilik kreditlashning yaxlit tizimi hozircha yo'q.

Demak, davlat byudjeti doirasida mahalliy iqtisodiyotni g'aznachilik tomonidan kreditlash tizimi beshta uzviy bog'langan tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- bozorning kredit ajratilayotgan sektorining dastlabki tahlili va joriy monitoringi;
- davlat tomonidan o'tkaziladigan kredit auksion shartlari va moliyaviy parametrlarini ishlab chiqish;
- kredit auksion qatnashchisi bo'lgan korxonalar moliyaviy hisoboti, tijoriy holati, biznes obro'sini ko'rib chiqish va tahlil qilish;
- davlat kreditini ajratishda zarur hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;
- kredit shartnomasi shartlari ijrosini nazorat qilish, shuningdek, agar u g'aznachilik va korxonalar o'rtasida tuzilgan kelishuv bo'lsa, kreditni so'ndirishni ko'rib chiqish.

Shunday tarzda g'aznachilikda bo'sh pul mablag'lariga tayanish imkoniyati mavjud bo'lib, davlat uchun bu qo'shimcha ustunliklardan kelib chiqadi.

Bunday holat davlat qarzini boshqarish bo'yicha kompleks choralar ko'rishni talab qiladi. Mazkur operatsiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- barcha qabul qilingan majburiyatlarni so'zsiz bajarish; davlat qimmatli qog'ozlari emissiyasi shartlari va sifat parametrlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish; qarzning vaqt va moliyaviy tarkibini

optimallashtirish; davlat qarzi bilan ishlash bo'yicha hukumatning moliyaviy agentlarini tanlash;

- boshqa maxsus chora va tadbirlar.

Hozirgi vaqtda davlat qarzini boshqarish uchun javobgarlik aniq belgilanmagan, u uchun bir nechta muassasa javob beradi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishda xo'jalikning tashkiliy tuzilmasida bir qator tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Yildan yilga axborot texnologiyalari davlatning samarali iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlamoqda, shu jumladan, axborot texnologiyalarini davlat moliyasini boshqarishda joriy qilinishi muhim omil bo'lib bormoqda.

Davlat byudjeti ijrosining g'azna tizimiga o'tishi byudjet ijrosining mexanizmiga, byudjet hujjatlari aylanishi tizimiga, axborot oqimlari harakatiga va hisob-kitoblar texnologiyasiga tegishli o'zgarishlar kiritish zarurligini nazarda tutadi.

Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari hisobini yuritish bo'yicha yagona vakillik hisobvarag'ini boshqarish uchun Avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT) qoshida axborot oqimlarining yagona tizimining yaratilishi, hisob-kitoblar ilg'or texnologiyasini iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarga mostashtirgan holda elektron to'lov tizimi va ma'lumotlarni uzatish tizimi bo'yicha axborot almashuvi bilan bog'lovchi axborotni qayta ishlash va uzatish yagona texnologiyasini yaratish; Yagona g'azna hisobvarag'i (YaG'H)dan xarajatlarni moliyalash uchun resurslarni jamlash; davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarga daromadlarning o'tkazilishini tezlashtirish, mavjud himoyalangan aloqa tarmoqlaridan axborotni qabul qilish va uzatish uchun foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, debitor qarzdorliklar summalari qoldiqlari o'z vaqtida yoki hisobot oyi tugaguniga qadar o'tkazilmagan hollarda o'ying ohirgi ish kunida avtomatlashtirilgan holda tegishli byudjet daromadlariga o'tkaziladi.

Byudjet tashkilotlariga noto‘g‘ri yoki ortiqcha kelib tushgan mablag‘larni shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan “UzASBO” DMda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron to‘lov topshiriqnomalarni g‘aznachilik bo‘linmalariga yuborish orqali qaytariladi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan noto‘g‘ri yoki ortiqcha to‘langan to‘lovlarni o‘z vaqtida qaytarishda qulayliklar yaratish maqsadida soliq va majburiy to‘lovlarni qaytarish bo‘yicha vakolatli organlari tomonidan xulosalarni elektron tarzda g‘aznachilik organlariga elektron ma‘lumotlar almashinuvi yo‘li orqali yuborilishi yuzasidan kelishib olinadi. Bu esa ortiqcha va noto‘g‘ri to‘langan mablag‘larni tezkorlik bilan yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarilishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Ma‘lumot uchun, hozirgi kunda yuridik va jismoniy shaxslar ortiqcha yoki noto‘g‘ri to‘langan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni qaytarishi uchun 15 kundan 20 kungacha vaqt talaba etmoqda. To‘liq elektron tizimga o‘tilishi natijasida bu jarayon 3-4 barobargacha qisqaradi. Soliq kodeksining 56-57 moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida soliqning ortiqcha to‘langan summalarini hisobga olish yoki qaytarish endilikda tegishli moliya organlarining o‘rniga Moliya vazirligi G‘aznachiligi orqali amalga oshirilishi belgilab olindi. Bu esa, ortiqcha va noto‘g‘ri to‘langan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni tezkorlik bilan qaytarilishini ta‘minlaydi (ma‘lumot uchun soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning ortiqcha to‘langan summalarini hisobga olish hamda qaytarib berish davlat soliq xizmati organlari tomonidan rasmiylashtirilib, Moliya va G‘aznachilik organlariga ijro uchun yuborilgan¹⁹⁷).

Elektron davlat xaridlari orqali tuzilgan shartnomalarni qo‘shish va buyurtmachilar elektron davlat xaridlari orqali tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilib olganlaridan so‘ng uch ish kuni muddatida bu hakdagi ma‘lumotlarni “UzASBO” DMga kiritadi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda AATga yuboriladi. Bu esa, elektron

¹⁹⁷ www.mf.uz

tizimlar orqali elektron hisob-fakturalar bo'yicha ma'lumotlar almashinuvini joriy etish, to'lov tizimini soddalashtirish, tender, tanlov natijasida va to'g'ridan to'g'ri tuzilgan shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlarni maxsus axborot portali orqali Moliya vazirligi axborot tizimiga yuborilishi bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni tezkor yechish yo'llarini belgilab beradi. Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan byudjet mablag'larining daromadlarini shakllanishi hamda ularning maqsadli sarflanishi yuzasidan nazorat tadbirlarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ma'lumotlar bazasi vositasida kameral nazoratdan keng foydalaniladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan "Davlat moliyasini boshqarish axborot dasturi" va byudjet tashkilotlari bevosita ishlaydigan "UzASBO" DM ma'lumotlaridan foydalangan holda har yili (2018 yil yilda 1691 ta) muassasalarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzilishi yuzasidan kameral nazorati o'tkazildi.

Ma'lumotlarni bunday uzatish tizimi xavfsizlik va axborotni himoyalashning barcha zarur chora-tadbirlariga amal qilingan holda g'aznachilik tizimi foydalanuvchilarining AATga on-line ulanishini, shuningdek, interfeys orqali O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi hamda boshqa ishtirokchi vazirliklar va tashkilotlar bilan ulanishini ham ta'minlaydi.

Shuningdek, G'aznachilik funksional aloqa va ma'lumotlarni uzatish tizimi quyidagi vazifalarning hal etilishini ta'minlaydi: g'aznachilikning barcha uzoqda joylashgan bo'linmalari uchun on-line rejimida byudjet axboroti yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasi bilan ishlash imkoniyati; g'aznachilikning barcha uzoqda joylashgan bo'linmalari uchun on-line rejimida farmoyish, normativ va axborot ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati; on-line rejimida

boshqaruvning yuqori darajalariga tezkor hisobotlarni taqdim etish; bank, soliq, bojxona va boshqa tizimlar bilan integratsiyalashish; markaziy server orqali Dasturiy ta'minot (DT)ning yangi versiyalarini tezkor yangilash; g'aznachilik sayti orqali foydalanuvchilar darajasida g'aznachilik axborotining boshqa iste'molchilari (Oliy Majlis, Senat, Vazirlar Mahkamasi va boshqalar)ning g'aznachilik axborotidan foydalanish imkoniyati.

O'zbekistonda mamlakatni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi doirasida davlat moliyasi tizimida olib borilayotgan islohotlarning negizida davlat byudjeti, uning aniq yo'naltirilganligi va ijro sifati yotadi. Davlat byudjeti ishlab chiqariladigan jamiyat mahsulotlari qiymatini qayta taqsimlash bosqichlarini o'zida aks ettiruvchi daromadlar va xarajatlarning muhim iqtisodiy shakli sifatida faoliyat yuritadi va iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda, ijtimoiy sohada ilg'or o'zgarishlarni amalga oshirishning zarur bazasi bo'lib ham xizmat qiladi.

Bunda davlat daromadlari va xarajatlari, aktiv va majburiyatlari aniqligini ta'minlash va hisobini to'laqonli yuritish, davlat byudjeti va uning ijrosini o'z vaqtida zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish hamda takomillashtirib borish davlat moliyasining muhim va ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

G'aznachilik tashkiliy tuzilma sifatida o'z o'tgan davrida davlat moliyasi siyosatini amalga oshirish vositalaridan biriga aylandi. Ushbu tuzilma davlat moliyasining qariyb barcha jarayonlarida ishtirok etishi va uning nazorat funksiyasi, mavjud makroiqtisodiy munosabatlarda yuzaga keladigan nomutanosiblar o'rnini qoplash imkonini yaratadi va davlat byudjeti xarajatlarini moliyalash hajmini to'g'ri va aniq belgilash imkonini beradi.

G'aznachilik davlat tuzilmasi sifatida Davlat byudjetining g'azna ijrosi jarayonida byudjet mablag'lari tushumining hamda byudjet xarajatlarining shaffofligi, maqsadli va manzilli, tejamkor va samarali

tarzda ulardan foydalanish yuzasidan dastlabki va joriy nazoratni amalga oshiradi va bunda davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligi oshadi.

G'aznachilik organlarining faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish - davlat moliyaviy resurslarini, jumladan, davlat daromadlari shuningdek, xarajatlari ijrosi, uning nazorati, hisobini yuritish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat. Bu esa, o'z navbatida, davlat byudjeti soliqlarining tushishi va uning xarajatlarini to'lab berishni o'z vaqtida aniq real vaqt ("on-line") rejimida amalga oshirilishini ta'minlaydi hamda vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Davlat moliyasi tizimida yagona yondashuv, byudjet islohotlarining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishdagi moliyaviy strategiyani shakllantirish va milliy byudjet-soliq siyosatini amalga oshirishda uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish taqozo qilinadi. Bunda davlat moliya tizimining istiqbolli maqsadlari uning joriy byudjet ehtiyojlari, barcha bo'g'indagi hokimiyatning byudjet vakolatlari va javobgarlik darajasi bilan bog'lanish va mamlakat milliy byudjet mulkini boshqarish, foydalanish va taqsimlash g'aznachilik tizimi orqali amalga oshirish imkonini beradi.

Davlatning moliyaviy-iqtisodiy tuzilmalarini isloh qilish jarayonida axborotning ahamiyati doimiy o'sib boradi va tashkil qilinayotgan yagona telekommunikatsion tarmoqlar davlat boshqaruv organlari, viloyat, shahar va tumanlarni yaxlit majmuaga bog'laydi. Bu, davlat byudjet tizimini kompleks monitoring va iqtisodiy tashxislash imkonini berib, davlat g'aznachiligining bo'limlari oldida turgan vazifalarni samarali hal qilishga xizmat qiladi. O'z navbatida, davlat moliyaviy jarayonlariga yagona axborot makonini joriy etish, undan samarali foydalanish uning, huquqiy himoyalash obyektlarini belgilab beruvchi, konseptual asoslarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shunday qilib, Davlat byudjetining g'azna ijrosini rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqishga qaratilgan taklif va tavsiyalar g'aznachilik tizimini takomillashtirish, moliyaviy oqimlar aylanmasini optimallashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish va mamlakat iqtisodiy siyosatini yaxshilash imkonini beradi.

Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan byudjet mablag'larining daromadlarini shakllanishi hamda ularning maqsadli sarflanishi yuzasidan nazorat tadbirlarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ma'lumotlar bazasi vositasida kameral nazoratdan keng foydalaniladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan "Davlat moliyasini boshqarish axborot dasturi" va byudjet tashkilotlari bevosita ishlaydigan "UZASBO" DM ma'lumotlaridan foydalangan holda har yili (2018 yil yilda 1691 ta) muassasalarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzilishi yuzasidan kameral nazorati o'tkazildi¹⁰.

Ma'lumotlarni bunday uzatish tizimi xavfsizlik va axborotni himoyalashning barcha zarur chora-tadbirlariga amal qilingan holda g'aznachilik tizimi foydalanuvchilarining AATga on-line ulanishini, shuningdek, interfeys orqali O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi hamda boshqa ishtirokchi vazirliklar va tashkilotlar bilan ulanishini ham ta'minlaydi.

Shuningdek, G'aznachilik funksional aloqa va ma'lumotlarni uzatish tizimi quyidagi vazifalarning hal etilishini ta'minlaydi: g'aznachilikning barcha uzoqda joylashgan bo'linmalari uchun on-line rejimida byudjet axboroti yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasi bilan ishlash imkoniyati; g'aznachilikning barcha uzoqda joylashgan bo'linmalari uchun on-line rejimida farmoyish, normativ va axborot ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati; on-line rejimida boshqaruvning yuqori darajalariga tezkor hisobotlarni taqdim etish;

bank, soliq, bojxona va boshqa tizimlar bilan integratsiyalashish; markaziy server orqali Dasturiy ta'minot (DT)ning yangi versiyalarini tezkor yangilash; g'aznachilik sayti orqali foydalanuvchilar darajasida g'aznachilik axborotining boshqa iste'molchilari (Oliy Majlis, Senat, Vazirlar Mahkamasi va bq.)ning g'aznachilik axborotidan foydalanish imkoniyati.

Takrorlash uchun savollar

1. G'aznachilik yagona axborot tizimining mazmuni, afzalliklari va ishlash tamoyillarini tushuntirib bering.

2. Byudjet tashkilotlarida yagona buxgalteriya hisobini yuritishning kompyuter dasturini tadbiiq etishning ijobiy tomonlari nimada?

3. Byudjet tasnifi nima, uning davlat byudjeti g'azna ijrosini samarali tashkil qilishdagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

4. Byudjet tasnifining turlari, ularning tarkibiy qismlarini tegishli me'yoriy hujjatlar asosida bayon qilib bering.

5. G'aznachilik dasturiy majmualarining mohiyati, zarurligi va ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

6. O'zbekiston Respublikasida G'aznachilik faoliyatini yana qaysi yo'nalishlarda takomillashtirish zarur, deb hisoblaysiz?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Internet resurs manbalardan foydalangan holda mamlakatimizda byudjet jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimini tashkil etish va rivojlantirish bosqichlarini aks ettiradigan jadval, blok-sxema yoki chizma tayyorlang va qisqacha izoh yozing. Unda har bosqichda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va amalga oshirilgan tadbirlar sharhini keltiring.

2. "Global integratsiyalashgan axborot tizimi" (GIAT) va "O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi axborot tizimi"ning uyg'unlashuvini aks ettiruvchi taqdimot tayyorlang va himoya qiling.

3. Xorijiy davlatlarning biron-tasi misolida byudjet tasnifi tarkibini o'rganing va O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifi bilan solishtirma tahlilini ko'rgazmali misollarda taqdimot ko'inishida amalga oshiring.

4. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning "O'zASBO" avtomatlashtirilgan tizimi xususiyatlari, afzalliklari, imkoniyatlarini aks ettiradigan ma'lumotli jadval tayyorlang.

20-MAVZU. G‘AZNACHILIKDA DAVLAT KAFOLATLARINI BOSHQARISH

20.1. Davlat qarzlarning mohiyati va shakllari

20.2. Davlat qarzlarni boshqarishning zarurligi, vazifalari va usullari

20.3. Davlat ichki va tashqi qarzlarni boshqarish

20.4. G‘aznachilik sharoitida davlat kafolatlarini boshqarish

20.1. Davlat qarzlarning mohiyati va shakllari

Hozirgi davrda dunyoda ko‘pchilik mamlakatlarning hukumatlari balanslashtirilmagan davlat byudjetlarini shakllantirish amaliyotiga murojaat etmoqdalar. Rejalashtirilgan xarajatlarni taqchilik sharoitida to‘liq hajmda amalga oshirish uchun davlatlar shu jumladan (ichki va tashqi) moliya bozorlaridan mablag‘larni jalb qilish amaliyotiga murojaat etadilar. Bu davlat qarzining paydo bo‘lishiga olib keladi, qo‘shimcha mablag‘lar jalb qilinishi esa uning oshib borishiga sabab bo‘ladi.

Davlat qarzi – davlatning tashqi va ichki kredit operatsiyalari bo‘yicha qarzdorlik summasi. Davlat zayomlari – kredit munosabatlarining bir turi bo‘lib, unda davlat (yoki uning mahalliy organlari) qarz oluvchi yoki qarz beruvchi sifatida amal qiladi. Shu bilan birga, byudjet faoliyati amaliyotida byudjetga daromadlarni tushish vaqti bilan xarajatlarni amalga oshirish vaqti o‘rtasidagi farq kassa uzilishi ko‘rinishida vujudga kelishi mumkin. Xarajatlarni o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirish maqsadida davlat zayomlar va moliya bozorida mablag‘larni jalb etishni amalga oshiradi. Bozor munosabatlari

sharoitida davlat moliya bozorining ishtirokchisi sifatida qarz oladi, pul mablag'larini qarzga beradi yoki qarz oluvchilarning majburiyatlari bo'yicha kafolat beradi, ya'ni ularning to'lovga qobiliyatsizligi uchun moliyaviy javobgar hisoblanadi. Pul mablag'larini jalb qilish davlatning moliya bozoridagi faoliyatining passiv shakli sifatida tavsiflanishi mumkin. Davlat o'z ixtiyoriga omonatchilarning vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini olish bilan ularni shartnoma shartlari bo'yicha belgilangan muddatda qaytarish va foizlarni to'lash majburiyatlarini oladi.

Davlat pul mablag'larini qarzga berishi uning moliya bozoridagi harakatining faol shakli sifatida qaralishi mumkin. Chunki davlat qarz oluvchilarga mablag'larni belgilangan muddatda qaytarish va shu mablag'lardan foydalanganlik evaziga to'lovni amalga oshirish (foiz to'lash) shartlari bilan beradi. Davlatning kafolat berish faoliyati Davlat boshqaruvi sektorining birliklari ko'pchilik hollarda boshqa birliklar tomonidan olingan qarz majburiyatlari bo'yicha kafolatlar beradi. Ko'pchilik hollarda kreditor debitor (qarzdor)ga davlat boshqaruvi sektorining birligi tomonidan qarz bo'yicha kafolat berilgan taqdirda qarz berishga tayyordir. Qarzning olinishi kreditor tomonidan kafolatni talab etish imkoniyati yaratiluvchi shartnoma shartlari qo'llanilishi, davlat boshqaruvi sektori birligi esa asosiy qarzdor yoki debitor sifatida qarz bo'yicha majburiyat olinishi sharoitida yuzaga keladi.

Shunday qilib, qarzni qabul qilishda uch institutsional birlik qatnashadi – davlat boshqaruvi setori ***birligi, kreditor va birlamchi debitor (qarzdor)***.

Davlat boshqaruvi organlari kreditorga nisbatan yangi majburiyatni qabul qiladilar, debitorning birlamchi majburiyati esa tugatiladi. Yangi qarz shartlari birlamchi qarz shartlari bilan bir xil bo'lishi mumkin yoki kafolatlarni qo'llash natijasida yangi shartlar kuchga kirishi mumkin.

Davlat kafolatlari shakllari quyidagilardir:

1. davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari yoki soliq organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan byudjet ssudalari,

2. tovar kreditlari, imtiyozli kredit va soliq to'lovining kechiktirilishi ko'rinishidagi investitsion soliq kreditlari.

Moliya bozorida ishtirok etish davlatga takror ishlab chiqarish nuqtai nazaridan muhim tarmoqlar (infratuzilma, uy-joy qurilishi, qishloq xo'jaligi)ni moliyalashtirish orqali moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishga, ijtimoiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatishga, iqtisodiyotni tartibga solishga imkoniyat yaratadi. Ammo, asossiz va samarasiz hamda ta'minlanmagan pul mablag'larining taqdim etilishi soliq yukining oshib ketishiga, kapital chiqib ketishiga va boshqa salbiy natijalarga (iqtisodiyot to'liq beqarorlashuvigacha) olib kelishi mumkin. Ko'pchilik hollarda mamlakatning davlat qarzini barqarorlik darajasi Maastrixt mezonlari bo'yicha baholanadi: davlat qarzi YaIMga nisbatan 60 foizdan oshib ketmasligi kerak. Xalqaro tasnif asosida qabul qilingan ekspertlarning baholashlari quyidagicha bo'lishi mumkin: 1. Mamlakat katta qarzga ega, agar:

- xizmat ko'rsatilayotgan qarz summasi YaMMning 80 foizdan oshib ketsa;

- xizmat ko'rsatilayotgan qarz summasi eksportning 220 foizdan oshib ketsa.

Mamlakat o'rtacha qarzga ega, agar:

- xizmat ko'rsatilayotgan qarz summasi YaMMning 48-80% doirasida bo'lsa;

- xizmat ko'rsatilayotgan qarz summasi eksportning 132-220% doirasida bo'lsa.

O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha *davlat qarzi – bu davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisidir.*

Davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish – bu aktivlarni ichki manbalardan (rezident yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarni) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishi bo‘lib, uning natijasida davlat ichki qarzlari paydo bo‘ladi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish – aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarni) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi bo‘lib, uning natijasida davlat tashqi qarzlari paydo bo‘ladi.

Har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan keyingi yilga Davlat byudjetini qabul qilinishi bilan birga davlat ichki va tashqi qarzlarning yuqori chegaralari ham tasdiqlanadi. O‘zbekistonda davlat qarzining paydo bo‘lishi va oshib borishiga olib keluvchi faoliyat hukumat – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u tomonidan belgilangan vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag‘ jalb qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida mablag‘ jalb qilishning maqsadlari:

- 1) iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini, shu jumladan davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirish;
- 2) Davlat byudjeti daromadlari bilan xarajatlari o‘rtasida tushumlar vaqtga ko‘ra muvofiq emasligi tufayli kelib chiqqan yillik ichki tafovutni to‘g‘irlash;
- 3) mavjud qarzni qayta moliyalashtirish;
- 4) byudjet taqchilligini moliyalashtirish;
- 5) tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda vaziyatlar tufayli mablag‘-larga bo‘lgan ehtiyojlarni qoplash;

6) qonun hujjatlarida belgilangan boshqa maqsadlar.

Xorijdan mablag' quyidagi yo'llar bilan jalb qilinadi:

- davlat yoki O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan zayomlar, tovarlar yoki xizmatlarni import qilish shaklida kreditlar jalb etilishi. Mablag' jalb qilishning maqsadlari - iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, shu jumladan davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirish tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda vaziyatlar tufayli mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarni qoplash Davlat byudjeti daromadlari bilan xarajatlari o'rtasida kelib chiqqan yillik ichki tafovutni to'g'irlash mavjud qarzni qayta moliyalashtirish byudjet taqchilligini moliyalashtirish;

- norezidentlar mablag'larining O'zbekiston Respublikasi moliya institutlari tomonidan depozitlarga jalb etilishi;

- lizing operatsiyalari;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va rezidentlarning obligatsiyalar, veksellar hamda boshqa xil qimmatli qog'ozlar chiqarib, chet el bozorlarida joylashtirishi;

- boshqa tur va shakllardan foydalanish.

Qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki xorijdan mablag' jalb qilish borasida muayyan vakolatlarga egadirlar.

Xorijdan mablag' jalb qilish borasida **O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining vakolatlariga** quyidagilar kiradi:

- xorijdan mablag' jalb qilish masalalari yuzasidan xalqaro moliya tashkilotlari bilan muzokaralar olib borish;

- davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi bo'yicha loyihalarni baholash;

- davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi bo'yicha shartnomalarni va kafolatlarni ro'yxatga olish;

- davlat tashqi qarzini hisobga olish va kuzatib borish;

- davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi bo'yicha to'lovlar balansini yuritish, jalb etilgan mablag'lardan foydalanish va ularni to'lash ustidan nazoratni amalga oshirish;

- davlat tashqi qarzi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga axborot taqdim etish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Xorijdan mablag' jalb qilish borasida **O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking vakolatlariga** quyidagilar kiradi:

- xorijdan mablag' jalb qilish masalalari bo'yicha xalqaro moliya tashkilotlari bilan muzokaralar olib borish;

- O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlanmagan xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi shartnomalarni ro'yxatga olish;

- xorijdan mablag' jalb qilishga doir operatsiyalarni hisobga olish va kuzatib borish;

- umumiy tashqi qarzning hisobini yuritish;

- davlat tashqi qarzlariga hisob-kitob-bank xizmati ko'rsatilishini tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan xorijdan jalb qilingan mablag'larga hisob-kitob-bank xizmatlari ko'rsatish yuzasidan vakolatli banklarga agentlik vakolatlarini berish;

- xorijdan mablag' jalb qilish bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish;

- Vazirlar Mahkamasiga rezidentlarning tashqi qarzi bo'yicha axborotlar taqdim etish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilishda qarz majburiyatlarining quyidagi turlaridan foydalanilishi mumkin :

1) qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan), o'rtacha muddatli (bir yildan besh yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan) va uzoq muddatli (besh yildan ortiq davrga chiqariladigan) davlat qimmatli qog'ozlari

- 2) kreditlar ; (qisqa muddatli, o'rtacha muddatli va uzoq muddatli);
- 3) O'zbekiston Respublikasining kafolatlari;
- 4) byudjet daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik tafovutni qoplash uchun qisqa muddatli ssudalar.

Davlat zayomlari ixtiyoriy hisoblanadi. Davlat zayomi shartnomasi *bo'yicha zayom oluvchi – davlat, zayom beruvchi – fuqaro yoki yuridik shaxsdir.*

Davlat tomonidan qarz olish jarayonida hukumat yoki uning vakolatli organi bank, moliya tashkilotlari bilan davlat qarzigiga xizmat ko'rsatuvchi agentlar funksiyasini bajarish va davlat qarzlari bo'yicha o'z vaqtida va to'g'ri hisob-kitob qilinishini nazorat qilish bo'yicha shartnomalar imzolashi mumkin. Davlat qarzi nominal qiymat bo'yicha baholanadi, chunki qarz to'lov muddati kelganda to'lanmagan majburiyatlarning summasidir. Qarz – harakat (oqim) emas, balki holat (zaxira)dir, chunki u ma'lum bir qayd etilgan muddatga baholanadi, ma'lum bir davrda uning o'zgarishi esa (muddatlar o'rtasida) sof qarz (qarz minus qoplama) olish evaziga sodir bo'ladi. Tarkibiy jihatdan qarz asosiy va qoplanmagan (joriy) qarzdin tashkil topib, unga asosiy qarzdin tashqari qarz summalarining foizlari ham qo'shiladi.

20.2. Davlat qarzlarni boshqarishning zarurligi, vazifalari va usullari

O'zbekistonda davlat kafolatlari faqatgina rezident-yuridik shaxslarning majburiyatlari bo'yicha beriladi, jismoniy shaxslarning majburiyatlari bo'yicha kafolatlar berilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan, xorijiy kreditorlarga xorijdan mablag' jalb qilish shartnomalari bo'yicha xorijiy davlatlar, banklar yoki yuridik shaxslarga beriladi.

Joriy qarz – to'lov muddati kelgan majburiyatlar bo'yicha davlatning qarzi

Asosiy qarz – to‘lov muddati kelmagan yoki hozirgi davrda to‘lovi talab qilinmaydigan davlatning barcha qarzlari summasi

Ayrim hollardagina O‘zbekiston Respublikasi kafolatlari tijorat banklariga quyidagilarni amalga oshirish uchun beriladi:

- O‘zbekiston Respublikasi kafolati bilan olingan xorijiy kreditlarni qayta moliyalashtirish;

- qaytarish manbai sifatida davlat byudjeti mablag‘lari belgilangan strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirishni ta‘minlash.

O‘zbekiston Respublikasi kafolatlari har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadigan davlat tashqi qarzini yangi jalb qilish hajmlari doirasida taqdim etiladi. O‘zbekistonning tashqi qarzi 2018 yil 1 yanvar holatiga YaIMning 14 foizni tashkil etdi va xalqaro tasnif bo‘yicha “har jihatdan maqbul holat” sifatida tavsiflanadi. Davlat qarzi bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishga hamda davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag‘ jalb qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining majburiyatlaridan kelib chiquvchi to‘lovlarni amalga oshirish uchun mablag‘larni jamlashga shart-sharoit yaratish maqsadida respublika byudjeti tarkibida Kafolat jamg‘armasi tuziladi. Kafolat jamg‘armasining mablag‘lari yetishmagan taqdirda, yetishmayotgan summa davlat byudjeti hisobidan to‘ldiriladi.

Davlat qimmatli qog‘ozlari qarz majburiyatlarining bir turi hisoblanib, ularning markazlashtirilgan emissiyasi iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Davlat qimmatli qog‘ozlarini chiqarish orqali davlat qarzini moliya- lashtirish bank kreditlari orqali mablag‘larni jalb etishdan ko‘ra kam xarajatli hisoblanadi. Davlat qimmatli qog‘ozlar bozori davlatga byudjet taqchilligini moliyalashtirishning noinflyatsion, noemission manbalar (ichki va tashqi qarzlar) hisobiga yangi progressiv shakllaridan foydalanish imkonini beradi. Investorlar uchun davlat qimmatli

qog'ozlar bozori mablag'larni daromadli investitsiyalashga sharoit yaratadi, chunki davlat qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalar bir qator soliq imtiyozlariga ega va ular moliyaviy bozorning ishonchli vositasi hisoblanadi.

Davlat qimmatli qog'ozlar bozorini shartli ravishda birlamchi va ikkilamchi bozorlarga bo'lish mumkin. Birlamchi bozorda turli davlat qimmatli qog'ozlarining birlamchi joylashtirilishi amalga oshiriladi. Bunday joylashtirishlar quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin: davlat qimmatli qog'ozlarining bevosita g'aznachilik tomonidan har hafta auksionlar o'tkazishlar yordamida yoki tilxatlar orqali sotilishi. Davlat qimmatli qog'ozlarini birlamchi joylashtirish ko'pgina subyektlarning vositachiligida amalga oshiriladi. Ular orasida bosh o'rinni markaziy banklar egallaydilar, ular yangi zayomlarni tarqatish bo'yicha ishlarni tashkillashtiradilar, yangi investorlarni jalb qiladilar, ba'zi hollarda o'zlari davlat qarz majburiyatlarining yirik paketlarini sotib oladilar. Ikkilamchi bozor asosan birjadan tashqari bozor bo'lib, unda shaxsiy kelishuvlar asosida har qanday bitimlar tomonlarning shaxsiy va telefon bog'lanishi orqali amalga oshiriladi.

Maxsus kompyuter xizmatlaridan foydalanib tomonlar keng doiradagi servis xizmatlarini taklif etuvchi elektron birjadan tashqari bozor sohasiga kiradilar. Keng rivojlangan tarmoqlar birjalar analogi kabi faoliyat yuritadi. Davlat qimmatli qog'ozlarining ikkilamchi bozorida barcha moliyaviy institutlar (bevosita yoki vositachilar orqali) faoliyat yuritadi. Jahon amaliyotida davlat qimmatli qog'ozlari quyidagi bir qator belgilarga ko'ra tasniflanadi:

- joylashtirilish joyi bo'yicha – tashqi va ichki;
- aylanish usuli bo'yicha – bozor va nobozor;
- mablag'larni jalb etish muddati bo'yicha – qisqa, o'rtacha va uzoq muddatli;
- qaytarilishini ta'minlash usuli bo'yicha – garovli va garovsiz;

- emitentning darajasi bo'yicha: unitar tipdagi mamlakatlarda – markaziy hukumatning davlat zayomlari va mahalliy zayomlar; federal tipdagi mamlakat- larda – federal, mintaqaviy va mahalliy;

- daromadni to'lash shakli bo'yicha – foizli, diskontli, yutuqli, indeksatsiyali;

- muddatidan oldin qaytarish huquqi borligi va yo'qligi;

- qarzni qaytarish usuli bo'yicha – bir vaqtda (birdaniga) qaytariladigan va bo'lib-bo'lib qaytariladigan (teng qismlar bilan yoki kelishilgan muddat davrida o'sib yoki kamayib boradigan);

- daromadni aniqlash metodi bo'yicha – qat'iy daromad va suzib yuruvchi daromad;

- foydalanish yo'nalishlari bo'yicha – maqsadli va maqsadsiz;

- joylashtirish usuli bo'yicha – erkin muomaladagi (ixtiyoriy), majburiy va tilxat orqali joylashtiriladigan;

- emissiya texnologiyasi bo'yicha – obligatsiyali va obligatsiyasiz.

O'zbekistonda davlat qimmatli qog'ozlarining quyidagi turlari amal qiladi:

- O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik majburiyatlari;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatli organlari tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

O'zbekistonda Davlat qimmatli qog'ozlari amal qilishi muddatidan kelib chiqib qisqa muddatli (bir yilgacha muddatga), o'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq muddatga) etib chiqarilishi mumkin. Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish emissiya risolasisiz va davlat qimmatli qog'ozlarining chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. O'zbekistonda davlat qimmatli qog'ozlarining quyidagi turlari muomalada:

- Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar (1996 yil);

- O‘zbekiston Respublikasi g‘aznachilik majburiyatlari (2004 yil);

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki obligatsiyalari (2002 yil).

Amal qilish muddati bo‘yicha O‘zbekiston davlat qimmatli qog‘ozlari:

- qisqa muddatli (bir yilgacha bo‘lgan muddatga);

- o‘rta muddatli (bir yildan besh yilgacha bo‘lgan muddatga);

- uzoq muddatli (besh yilan va undan ko‘p muddatdaga) turlarga bo‘linadi.

Davlat qimmatli qog‘ozlari emissiya risolasisiz va davlat qimmatli qog‘ozlarining chiqarilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazmasdan chiqariladi. Davlat qimmatli qog‘ozlar bozori amal qilishining huquqiy asosi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, hukumat qarorlari va normativ hujjatlar xizmat qiladi.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorining maqsadi – bir qator muhim makroiqtisodiy vazifalarni yechish, chunonchi: byudjet taqchilligini inflyatsion moliyalashtirishni qisqartirish, bozor ishtirokchilariga yuqori likvidli va ishonarli vositalarni taqdim etish, Moliya vazirligi va Markaziy bankka pul-kredit siyosatini yuritish imkoniyatini ta‘minlash, shu jumladan ochiq bozorda operatsiyalarni amalga oshirish orqali. Moliya vazirligi tomonidan kafolatlanadigan davlat obligatsiyalarining yuqori daromadlilik va ishonarliligi, shuningdek vakolatli bank-dilerlar va samarali birja infratuzilmasi orqali ta‘minlanuvchi bozorning yuqori likvidlilik ushbu qarz vositasiga mablag‘ qo‘yilishini ta‘minlovchi muhim omil hisoblanadi

Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari quyidagilardir:

• bozorni tashkil etuvchilar – bular bozorda faoliyat yuritish qoidalarini va ishtirokchilar tarkibini belgilovchi emitentlar, ya‘ni

Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (Moliya vazirligining bosh agenti sifatida)dir;

- diler – bu yuridik shaxs, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq investitsion institut (qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi) yoki bankdir, u O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan obligatsiyalar bo'yicha operatsiyalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolaydi;

- investor– diler bo'lmagan yuridik shaxs, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq obligatsiyalarni mulk sifatida sotib oladi va ularni ishlab chiqarish shartlari va parametrlarini boshqara oladi.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari – qarz qog'ozlari bo'lib, ularga binoan zayom beruvchi (davlat) kredit oluvchiga (investor – O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan har qanday yuridik shaxs) belgilangan muddat o'tgandan so'ng investitsiyalangan summa, shuningdek ma'lum bir daromad to'lanishini kafolatlaydi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari 3, 6, 9 va 12 oylik aylanish muddati (auksion kuni bilan qarzni qaytarish vaqti oralig'idagi davr) bilan chiqariladi, ular davlatning barcha aktivlari bilan ta'minlanib, investitsiyalarga o'ta ishonchlilikni ta'minlaydi. Obligatsiya emissiyasi vaqti-vaqti bilan alohida chiqarishlar shaklida amalga oshiriladi. Har chiqarish, ko'pchilik hollarda, oyda bir bo'lib o'tadi. Obligatsiyaning nominal qiymati 1000 so'm. Auksionda birlamchi joylashtirilganda obligatsiyalar diskont bilan sotiladi, qarz nominal bo'yicha qaytariladi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bilan operatsiyalardan olingan daromad soliqqa tortilmaydi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining har bir chiqarilishi ma'lum bir parametrlar bilan tavsiflanadi va auksionda sotiladi. Chiqarish parametrlari, hajmi, joylashtirish va qoplash vaqti, potensial ishtirokchilarni chegaralash emitent (Markaziy bank bilan kelishilgan holda Moliya vazirligi) tomonidan amalga oshiriladi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining har bir chiqarilishiga davlat registratsiya raqami beriladi.

Davlat registratsiya raqami to‘qqizta razryaddan tashkil topadi.

Masalan: 1) birinchi marta chiqarilgan uch oylik obligatsiyalar quyidagi raqamga ega bo‘ladi: “21001UMFS”, bu yerda:

- birinchi razryad, “2” soni qimmatli qog‘oz turini ko‘rsatadi – qarz majburiyati;

- ikkinchi razryad qimmatli qog‘oz tipini anglatadi: “1” - uch oylik davlat obligatsiyalari, “2” - olti oylik; “3” - to‘qqiz oylik; “4” - o‘n ikki oylik;

- uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi razryadlar: bu tipning chiqarilish tartib raqamini anglatadi;

- oltinchi, yettinchi va sakkizinchi razryadlar, abbreviatura “UMF” emitentni ko‘rsatadi – “Uzbekistan Ministry of Finance”;

- to‘qqizinchi razryad, “S” harfi, qimmatli qog‘oz davlatniki ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu davlat registratsiya raqami xalqaro operatsiyalarda ishlatilishi ISIN raqami kabi amalga oshiriladi, uning chap tomoniga ikki razryadli prefiks qo‘shiladi, o‘ng tomoniga esa ISO 6166 xalqaro standartiga muvofiq kontrol razryadi qo‘shiladi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari qog‘ozsiz shaklda chiqariladi va sotilganda egalarining Depozitariydagi shaxsiy hisob varaqlarida (“depo” hisob varaqlarida) qayd etish tarzida rasmiylashtiriladi. Qonun hujjatlariga muvofiq obligatsiyalar bozori ishtirokchilari ikki toifaga: dilerlar va investorlarga bo‘linadi.

Investor diler (dilerlar) bilan xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma imzolashi shart. Bu shartnoma obligatsiyalarni sotib olish, ularga egalik qilish va ularni sotish tartibini, shuningdek ushbu operatsiyalarni bajarishda tomonlarning huquq, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining birlamchi joylashtirilishi auksionda amalga oshiriladi. Unda Markaziy bankning rasmiy ro‘yxatga olingan dilerlari obligatsiyalar sotib olish uchun buyurtma-

larni barcha xohlovchilardan to'plab beradilar. Buyurtmalarda sotib olinayotgan obligatsiyalar narxi va soni ko'rsatiladi. Buyurtmalar narxlarni ko'rsatmasdan berilishi mumkin (raqobatsiz buyurtmalar), ularning hajmi emitent tomonidan oldindan chegaralanadi. Emitent talab summasi va chiqarish hajmidan kelib chiqib kesib tashlanadigan narxni – obligatsiya sotilishining minimal narxini belgilaydi. Shu narxda va undan yuqori narxlarda obligatsiyalarni sotib olish bo'yicha tushgan buyurtmalar qondiriladi, minimal narxdan past darajadagi takliflar qondirilmaydi, ya'ni kesib tashlanadi. Amalda yopiq auksion savdosini o'tkazishning ikki tizimi – “amerikacha” va “gollandcha” tizimlar qo'llaniladi. “Amerikacha” tizim bo'yicha kesib tashlanadigan narxdan yuqori darajadagi narxlar qayd etilgan buyurtmalar buyurtma narxlari bo'yicha, raqobatsiz buyurtmalar esa – o'rtacha narxlar bo'yicha qondiriladi. “Gollandcha” tizim bo'yicha barcha buyurtmalar yagona minimal ruxsat etilgan narx – kesib tashlanadigan narxda qondiriladi. O'zbekistonda davlat qisqa muddatli obligatsiyalari savdo tizimi “amerikacha” tizimga o'xshashdir. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining savdo sessiyalari respublika valyuta birjasi (O'zRVB)da amalga oshiriladi. Oldi-sotdi va hisob-kitob operatsiyalarining hammasi obligatsiyalar elektron savdosi har kuni amalga oshirilishini ta'minlovchi kompyuterlashtirilgan savdo-depozitar tizimi yordamida amalga oshiriladi. Savdo sessiyalari tugaganidan so'ng ma'lumotlar hisob-kitob tizimiga kelib tushadi, u yerda kliring amalga oshiriladi, ishtirokchilar va birjaning o'zaro majburiyatlari aniqlanadi, pul mablag'lari bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshiriladi, qimmatli qog'ozlar bo'yicha esa bu depozitariyda bajariladi.

Obligatsiya egasi keyingi chiqarishdagi obligatsiyalarni sotib olishda qarzi qoplanayotgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari qiymati bilan to'lash huquqiga ega. Ular bilan operatsiyalar “depo” hisob varaqlarida qayd etish orqali amalga oshiriladi.

Obligatsiyalarning ikkilamchi bozorda aylanishi faqatgina oldi-sotdi bitimlarini, shu jumladan Savdo tizimi (O‘zRVB) orqali garovga qo‘yilgan obligatsiyalarni sotish bitimlarini imzolash orqali amalga oshiriladi. Obligatsiyalarni chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha savdo, hisob-kitob tizimi va depozitariyni yaratish O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasi zimmasiga yuklangan. Chiqarilishi rejalashtirilayotgan obligatsiyalarni joylashtirish davrida 20 foizdan ortig‘i sotilsa, ularni chiqarish amalga oshdi deb hisoblanadi. Markaziy bank va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ikkilamchi bozorda obligatsiyalarni sotib olish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Hukumatning zayomlar bo‘yicha faoliyati qimmatli qog‘ozlar bozorida faollashadi, bu hol byudjet taqchilligini qoplashda Markaziy bank kreditlaridan foydalanishning rad etilishi natijasidir. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorida mablag‘larni o‘zlashtirish muddatining uzayishi, auksionlarda va ikkilamchi bozorlarda obligatsiyalar qiymatining pasayishi, obligatsiyalar qarzini to‘lash qat‘iy belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi, vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag‘larini risksiz aktivlarga qisqa muddatli investitsiyalash imkoniyatlari bozor ishtirokchilari doirasining kengayishiga olib keldi, bu esa, o‘z navbatida, uning hajmi sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ldi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari jozibadorligining oshishida muhim omillardan biri davlat qimmatli qog‘ozlari daromadlarini imtiyozli soliqqa tortish rejimi saqlanib qolinganligidir. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorida eng katta investorlar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va sug‘urta kompaniyalari hisoblanadi. Bozorning eng yirik operatorlari – Sanoatqurilishbank, Asaka bank, Kredit standart bank, Qishloq-qurilishbank va Xalq banki.

O‘zbekiston Respublikasining davlat o‘rta muddatli pul majburiyatlari Hukumat nomidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qog‘ozsiz shaklda (depozitariyda “depo” hisob

varaqlari bo'yicha elektron yozuv ko'rinishida) chiqariladi va qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'ladi, davlat o'rta muddatli pul majburiyatlari tijorat banklari va yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari o'rtasida joylashtiriladi. Davlat o'rta muddatli g'aznachilik majburiyatlari (DO'G'M)ning nominal qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi va 1000 so'mni tashkil etadi. Diler o'z nomidan, investor nomidan va uning topshirig'iga binoan DO'G'M bo'yicha bitimlar imzolashda brokerlik funksiyasini bajarishi mumkin. Dilerlar ikki toifaga bo'linadi: birlamchi va ikkilamchi diler.

Birlamchi diler:

– auksionlarda DO'G'Mni sotib olish bo'yicha operatsiyalarni o'z nomidan va o'z hisobiga, o'z nomidan va investorlar hisobiga va topshirig'iga binoan amalga oshirish huquqiga egadirlar;

– DO'G'Mni joylashtirish bo'yicha har bir auksionga Markaziy bank tomonidan DO'G'Mni sotib olish bo'yicha birlamchi dilerlarga qo'yilgan minimal talablar darajasidan kam bo'lmagan me'yorda ularni sotib olish buyurtmalarini berishga majbur;

– DO'G'Mni sotib olishga va sotishga kotirovkalarni o'rnatish orqali ikkilamchi bozorda DO'G'Mning aylanishini qo'llab turishga majbur;

– auksionda DO'G'Mni pul mablag'larini oldindan zaxira qilib qo'yishsiz sotib olish huquqiga ega va auksionda sotib olingan DO'G'Mni auksionning ertasidan kech bo'lmagan muddatda pulini to'lashga majbur.

Ikkilamchi diler ikkilamchi savdolarida ishtirok etish va ikkilamchi bozorda DO'G'Mni o'z nomidan va o'z hisobidan, o'z nomidan va investor hisobidan va uning topshirig'iga binoan sotib olish huquqiga ega. DO'G'Mning har bir chiqarilishiga davlat registratsiya raqami beriladi. Davlat registratsiya raqami o'nta razryaddan tashkil topadi. Masalan:

– birinchi marta chiqarilgan o‘n sakkiz oylik qayd etilgan foizli daromadga ega DO‘G‘M quyidagi raqamga ega bo‘ladi: “25001UMFS F”, bu yerda:

- birinchi razryad “2” soni qimmatli qog‘oz turini ko‘rsatadi – qarz majburiyati;

- ikkinchi razryad, qimmatli qog‘oz tipini anglatadi: “4” - o‘n ikki oylik DO‘G‘M, “5” - 18 oylik; “6” - 24 oylik; “7” - 30 oylik; “8” - 36 oylik; “9” - 48 oylik; “0” - 60 oylik;

- uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi razryadlar: bu tipni chiqarilishi tartib raqamini anglatadi;

- oltinchi, ettinchi va sakkizinchi razryadlar, abbreviatura «UMF», emitentni ko‘rsatadi – “Uzbekistan Ministry of Finance”;

- to‘qqizinchi razryad, “S” harfi, qimmatli qog‘oz davlatniki ekanligini ko‘rsatadi;

- o‘ninchi razryad, foiz to‘lovlarining foiz stavklarini o‘zgarishini ko‘rsatadi: - “F” qayd etilgan foiz, “V” - o‘zgaruvchan foiz.

36 oylik o‘zgaruvchan foizli daromali DO‘G‘Mning birlamchi chiqarilishi quyidagi raqamga ega edi: “7001UMFS V”. DO‘G‘M bo‘yicha depozitariya “depo” hisob varaqlarini ochish va yuritish tartibi davlat qisqa muddatli obligatsiyalar hisob varaqlarini yuritishga o‘xshash ravishda va “Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini muomalaga chiqarish va xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi Nizom”ga binoan amalga oshiriladi.

Emissiya bir yildan besh yilgacha aylanish muddatiga qayd qilingan yoki o‘zgaruvchan foizli daromadga ega bo‘lgan alohida chiqarishlar bilan amalga oshiriladi. Davlat o‘rta muddatli g‘aznachilik majburiyatlarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar respublika byudjetiga kelib tushadi. Davlat o‘rta muddatli g‘aznachilik majburiyatlarini joylashtirish va chiqarishni qoplash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Moliya vazirligi nomidan va davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Moliya

vazirligi har bir chiqarilish hajmini, to'lovlar muddatini va foizli daromad hajmini moliya bozori konyunkturasi va byudjet ehtiyojlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan holda aniqlaydi, shuningdek ikkilamchi bozorda davlat o'rta muddatli obligatsiyalarini g'aznachilik (majburiyatlarini) sotib olish operatsiyalarini va muddatidan oldin ularning qarzini to'lash operatsiyalarini amalga oshiradi.

Zayom obligatsiyalari bo'yicha barcha daromadlar yutuqlar ko'rinishida to'lanadi. Zayom obligatsiyalari 250, 500 va 1000 so'mlik ko'rinishda chiqarildi. Yigirma yillik zayom muddatida barcha obligatsiyalarning 32% yutuqlidir, qolgan 68% obligatsiyalar zayom muddati tugaganidan so'ng ustiga yozib qo'yilgan qiymat bo'yicha sotib olinadi. Yutuqli obligatsiyalar bo'yicha qarzlar to'lanadi va ular keyingi yutuqlar tirajidan chiqarib tashlanadi. Yigirma yillik zayom muddati ichida 80 ta yutuqlar tiraji o'tkaziladi, bir yilda 4 marta.

O'zbekiston Respublikasi ichki yutuq zayomlari obligatsiyalari va ular bo'yicha yutuqlar soliqlardan ozod qilingan. Jahon moliya bozorida O'zbekiston ko'pincha qarz oluvchi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonning asosiy kreditorlari bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar bo'lib, ular mablag'larni hukumatlararo zayomlar va banklararo kreditlar ko'rinishida taqdim etadilar.

O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan amalga oshiriladigan tashqi qarzlarni jalb qilish turlari

1. Davlatlararo kelishuvlar asosida xorijiy kreditlar va zayomlar. Xorijiy mamlakatlarning ixtisoslashtirilgan hukumat moliya institutlari (KfV bank (Germaniya), Djayka (Yaponiya), Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik jamg'armasi (Janubiy Koreya), KFAYER (Quvayt), SFR (Saudiya Arabistoni) va boshqalar) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga xorijiy tijorat banklari kreditlarini rasmiy hukumat eksport-kredit va sug'urta agentliklarining (Koreya, AQSH eksport-

import banklari, Euler-Germes (Germaniya), KOFAS (Fransiya) sug'urta agentliklari va boshqalar) sug'urtasi bilan xorijiy kreditorlar foydasiga O'zbekiston Respublikasi kafolatlari bilan taqdim etiladi.

2. Xalqaro moliya institutlari tomonidan strategik jihatdan muhim ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalarni alohida kreditlar va O'zbekiston hukumati va (yoki) O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan amalga oshiriladigan tashqi qarzlarni jalb qilish turlari Davlatlararo kelishuvlar asosida xorijiy kreditlar va zayomlar Portfel investitsiyalar Xalqaro moliya institutlari tomonidan strategik jihatdan muhim ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalarni alohida kreditlar va (yoki) zayomlar berish, shuningdek kredit liniyalari ochish orqali moliyalashtirish.

O'zbekistonda loyihalarni moliyalashtirish Jahon banki guruhi moliyaviy tashkilotlari (Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish agentligi, Xalqaro moliya korporatsiyasi), Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish bo'yicha OPEK jamg'armasi, Yevropa ta'mirlash va taraqqiyot banklari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Portfel investitsiyalar – xorijiy firmalar kapitalini korxonalar aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarga daromad olish maqsadida joylashtirishdir, bunda korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat o'rnatish maqsadi ko'zlanmaydi. "Toshkent" respublika fond birjasida maxsus maydoncha tashkil etilgan bo'lib, u yerda xorijiy firmalar xususiylashtirilayotgan korxonalarining 100% aksiyalarini sotib olishlari mumkin

4. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar – O'zbekiston hududidagi uzoq muddatli investitsiyalar bo'lib, ularni nazorat qilish investorlar tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan kompaniya aksiyadorlik kapitalining 10 foizdan kam bo'lmagan qismining sotib olinishi to'g'ridan to'g'ri xorijiy

investitsiyalar hisoblanadi. Ularning xususiyati – shu korxonalar boshqaruvida bevosita ishtirok etish.

5. Qo'shma tadbirkorlik. O'zbekiston uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishning ustuvor sohalarini quyidagilardir:

- agrosanoat kompleksi, bu oxir natijada aholi turmush darajasining oshishiga olib keladi;

- sanoat, kimyo, to'qimachilik, yoqilg'i-energetika kompleksining ustuvor tarmoqlarini jadal rivojlantirish, xalq xo'jaligining faoliyat yuritayotgan sohalaridagi ilmtalab texnologiyalarini yangilash va yangi kuchlarini yaratish, bu oxir natijada respublikaga tovarlar importini kamaytiradi;

- kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish, qadimgi va an'naviy hunarmandchilikni tiklash. Zayomlarning asosiy oluvchilaridan biri davlat sektori hisoblanadi (byudjet taqchilligini moliyalashtirish, davlat korxonalarini va tashkilotlarini kreditlash, davlat investitsiya loyihalarini kreditlash). Zayomlar bilan birga davlat kreditlashni ham amalga oshiradi. Masalan, O'zbekiston qonunchiligiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi, ular yuqori byudjetlarning ssudalari hisobiga tartibga solinadi. Yuridik shaxslarga tarkibiy qayta qurishlarni amalga oshirish uchun ssudalar berish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Moliya vazirligining moliyaviy rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Byudjet ssudalarini berish to'g'risidagi shartnomaga rioya qilinishi ustidan nazoratni Moliya vazirligi va uning joylardagi tarkibiy bo'linmalari amalga oshiradi. Ssudalar joriy moliya yili davridan oshib ketmagan muddatga beriladi va uning to'lovlari davlat qarzi bo'yicha foizlar to'lanishini ta'minlaydigan hajmda bo'ladi. Ssudalar maqsadli tavsifga ega bo'lib, ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish uchun, maqsadli kreditlarni hisob-kitob qilish uchun (masalan, uskunalarni sotib olishga), yangi texnologiyalarni, uskunalari va materiallarni ishlab chiqish, joriy qilish yoki sotib olish uchun beriladi.

Tashqi ssudalar – O‘zbekiston Respublikasi tomonidan xorijiy davlatlarga, yuridik shaxslarga va xalqaro tashkilotlarga beriladigan kreditlardir. Xorijiy davlatlar, yuridik shaxslar va xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasi oldida moliyaviy majburiyatlari paydo bo‘ladi. Hozirgi vaqtdagi moliyaviy holat O‘zbekistonning faol kreditor sifatidagi faoliyatini cheklamoqda. Davlat amaliyotida Tojikiston va Qirg‘izistonga bir martali beg‘araz moddiy yordam berish hollari qayd etilgan.

20.3. Davlat ichki va tashqi qarzlarni boshqarishning hozirgi zamon muammolari

Tashqi qarz majburiyatlarini tasniflash bilan qarzga xizmat ko‘rsatish va uni samarali boshqarish tushunchalari uzviy bog‘liqdir. Qarzga xizmat ko‘rsatish – bu qarz majburiyatlarini qoplash uchun umumiy to‘lovlar bo‘lib, ularga qarzning asosiy qismi bo‘yicha majburiyatlarni, foizlarni, komissiya va jarimalarni to‘lash kiradi. Qarzga xizmat ko‘rsatish me‘yori (koeffitsienti) tashqi qarz holatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Bu ko‘rsatkich mamlakat qarziga xizmat ko‘rsatish to‘lovlari foizdagi ifodasining tovar va xizmatlar ekspor- tidan kelgan tushumlarga nisbati ko‘rinishida bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich odatda davlat tashqi qarzini va davlat tomonidan kafolatlangan tashqi qarzni tavsiflaydi. Davlat qarzini boshqarish davlatning quyidagi harakatlari majmuini o‘z ichiga oladi:

- ssuda kapitali bozorining konyunkturasini o‘rganish;
- yangi zayomlar chiqarish hamda ularni chiqarish shartlarini ishlab chiqish;
- avval chiqarilgan zayomlar bo‘yicha foizlarni to‘lash;
- zayomlar konversiyasi va konsolidatsiyasini o‘tkazish;
- pul bozorida obligatsiyalarning kurslarini belgilash;
- davlat tomonidan berilayotgan kreditlar va ssudalar bo‘yicha foiz stavkalarini belgilash tadbirlarini o‘tkazish;

- amal qilish muddati tugagan, avval chiqarilgan zayomlar bo'yicha qarzlarni qoplash.

Davlatning davlat qarzini boshqarish borasidagi harakatlari davlat ichki qarzlarini boshqarish qimmatli qog'ozlar birlamchi va ikkilamchi bozorlarining samarali faoliyat yuritishi, qarz olish xarajatlarini minimallashtirish, davlat iqtisodiy siyosati bilan davlat qarzini boshqarish siyosatini uyg'unlashtirish, ya'ni davlat qimmatli qog'ozlar bozori va umuman moliya sektorini rivojlantirishga yo'naltirilgandir. Davlatning davlat qarzini boshqarish borasidagi harakatlari yangi zayomlar chiqarish hamda chiqarish shartlarini ishlab chiqish zayomlar konversiyasi va konsolidatsiyasini o'tkazish ssuda kapitallar bozorining konyunkturasini o'rganish pul bozorida obligatsiyalar kurslarini belgilash davlat tomonidan berilayotgan kreditlar va ssudalar bo'yicha foiz stavkalarini belgilash tadbirlarini o'tkazish amal qilish muddati tugagan, avval chiqarilgan zayomlar bo'yicha qarzlarni qoplash avval chiqarilgan zayomlar bo'yicha foizlarni to'lash.

Birlamchi bozorni tashkil etish choralari quyidagilardir:

- ❖ davlat qarzi vositalarini diversifikatsiyalashuvi;
- ❖ davlat qimmatli qog'ozlar egalari doirasining kengayishi, savdo operatsiyalarini boshqarish;
- ❖ davlat qarzini boshqarish xizmatini tashkil etish, moliya bozoriga kirish erkinligini ta'minlash;
- ❖ bozor konyunkturasini quvvatlash.

Samarali faoliyat yurituvchi va likvidli ikkilamchi bozorlar potensial investorlarni jalb etishni va ularning soni ortib borishini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, qarz majburiyatlari kotirovkalari notekis harakatining oldini olish va bozorni barqarorlashtirishga olib keladi. Tashqi qarzni boshqarish davlat ma'muriy faoliyatining murakkab yo'nalishi bo'lib, bu jarayonda hukumatning turli bo'g'inlari (Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va Markaziy bank) aniq, ixtisoslashtirilgan sohalar uchun javobgar hisoblanadilar. Boshqarish-

ning maqsadi – to‘lov balansi va davlat byudjeti bilan muammolarni yuzaga keltirmasdan tashqi moliyalashtirish imkoniyatlaridan keng foydalanish uchun sharoit yaratishdir.

Tashqi qarzni boshqarish quyidagilarni nazarda tutadi:

✚ tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish doirasida mamlakat majburiyatlari bo‘yicha vaqtinchalik holatini belgilash;

✚ tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish uchun yetarli bo‘lgan kutilayotgan sof eksport tushumlarini, mumkin bo‘lgan yangi tashqi ziyomlar;

✚ tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish doirasida mamlakat majburiyatlari bo‘yicha vaqtinchalik profilni belgilash;

✚ ichki soliq tushumlarini bashoratlashtirish.

Davlatning rejalashtirilayotgan daromadlari tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Tashqi qarzni boshqarish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- moliyalashtirishning optimal turini tanlash;

- qarz hajmi haqida aniq bir qarorga kelish;

- mamlakat qarzi to‘g‘risida o‘z vaqtida va to‘liq hisobot berish uchun tashqi qarz statistikasi tizimini tashkil etish.

Har qanday davlat uchun chetdan mablag‘lar jalb qilish hajmi quyidagi omillar bilan belgilanadi: xorijiy kapitalning qanday hajmini davlat samarali ishlatishi mumkin va tashqi to‘lovlarga muammolar tug‘dirmasdan qarzning qanday hajmiga xizmat ko‘rsatish mumkin. Davlat qarzini boshqarish siyosatini davlatning umumiy iqtisodiy siyosati bilan uyg‘unlashtirish moliyaviy siyosat doirasida amalga oshiriladi. Moliyaviy siyosat byudjet taqchilligini bartaraf etishga, ichki kredit ekspansiyasini va kapital importini qoplovchi byudjetni kreditlashga yo‘naltirilgandir. Ushbu siyosatning muhim xususiyati davlat qarzini boshqarish vositalarini diversifikatsiyalash hisoblanadi. Davlat obligatsiyalari bozorining kengayib borishi egiluvchan foiz stavkalaridan, qarzni qoplash muddati va alohida chiqarishlar

muddatlaridan, foizli daromadlarni soliqqa tortish xususiyatlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Davlat qarzini boshqarish bo'yicha operatsiyalar byudjetning kassa ijrosi bilan uzviy bog'langan va ko'pincha zayomlar chiqarishda qatnashuvchi, ular bo'yicha foizlar to'lovchi (yutuqli obligatsiyalar bo'yicha yutuqlarni to'laydigan va foizli zayomlar bo'yicha foizlarni to'laydigan) emission banklar tomonidan amalga oshiriladi, shu bilan birga bu banklar qayta sotib olinishi kerak bo'lgan obligatsiyalar pulini to'laydi. Davlat qarzini boshqarish xarajatlari, qoida tariqasida, byudjetdan alohida bo'lgan maxsus moliyaviy operatsiyalar orqali qoplanadi. Byudjetning xarajatlar qismiga faqatgina qoplash manbai Davlat byudjeti deb belgilangan davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha joriy to'lovlar kiritiladi va aks ettiriladi. Davlat qarzining keskin o'sishi sharoitida hukumat uni boshqarishning turli metodlaridan foydalanadi.

Davlat qarzini boshqarish metodlari. Qarzni qoplashni davlat ko'pincha yangi zayomlar chiqarish orqali amalga oshiradi. Bu usul qarzni qayta moliyalash deb ataladi. Davlat zayomning birlamchi shartlariga aniqlik kiritishi mumkin. Zayomlarning daromaddorligiga tegishli bo'lgan birlamchi shartlarning o'zgarishi konversiya deb ataladi. Konversiya sharoitida zayom foizlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun davlat xarajatlarini pasaytirish maqsadida nominal foiz hajmi pasaytiriladi. Konversiyani amalga oshirishning quyidagi metodlari farqlanadi:

- majburiy konversiya – kreditor eski zayom obligatsiyalarini yangisiga pasaytirilgan foiz stavkasida almashtirishga majbur;
- ixtiyoriy konversiya – kreditor yangi shartlarga ko'nish huquqiga ega yoki uning pulini qaytib olishi mumkin;
- fakultativ konversiya – kreditor zayom shartlarini o'zgarishiga rozi bo'lishi yoki rozi bo'lmasligi mumkin.

Davlat ko'pincha zayomlarning daromaddorligini o'zgartirmasdan, uning muddatlarini o'zgartirish usulidan foydalanadi. Zayom muddati bilan bog'liq shartlarning o'zgarishi qarzni konsolidatsiyalash deb ataladi. Konsolidatsiya konversiya bilan qo'shilishi ham mumkin. Zayomlarni unifikatsiyalash deganda bir nechta zayomlarni birlashtirish tushuniladi, oldin chiqarilgan zayom obligatsiyalari yangi zayom obligatsiyalariga almashtiriladi.

Davlat zayomlarini unifikatsiyalash va konsolidatsiyalash bilan birga amalga oshirilishi mumkin, bunda jamlangan qarz vujudga keladi. Ayrim hollardagina hukumat obligatsiyalarning regressiv nisbatda almashuvini amalga oshirishi mumkin – oldin chiqarilgan bir nechta obligatsiyalar bitta yangisiga tenglashtiriladi. Davlat kreditor bilan ikki tomonlama kelishuv asosida berilgan moliyaviy kredit bo'yicha majburiyatlarni boshqa majburiyat bilan almashtirishi mumkin va bu jarayon novatsiya (yangilash) deb ataladi. Zayomni qoplashni kechiktirish (yoki avval chiqarilgan barcha zayomlarni qoplashni kechiktirish) davlat uchun yangi zayomlarni chiqarish bo'yicha operatsiyalarni faol rivojlantirish moliyaviy samara bermagan taqdirda amalga oshiriladi. Zayomni qoplashni kechiktirish konsolidatsiyalashdan shu bilan farq qiladiki, kechiktirishda qarzni qoplash muddatining surilishi daromadlarni to'lashni to'xtatish bilan birga amalga oshiriladi. Zayomlarning konsolidatsiyalashuvi sharoitida davlat qimmatli qog'ozlarining egalari ular bo'yicha daromadlarni olishni davom ettiradilar. Davlat zayomlari konversiyasi, konsolidatsiyasi, unifikatsiyasi va obligatsiyalarning almashuvi faqatgina ichki zayomlarga nisbatan amalga oshiriladi. Novatsiyalar va majburiyatlarni qoplashni kechiktirish tashqi qarzlarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin va bu kreditor bilan kelishuv asosida amalga oshiriladi. Bir qator mamlakatlarda davlat qarzini boshqarish metodi uning o'sishini limit belgilash orqali cheklash (maksimal chegarasini o'rnatish)ni ham o'z ichiga oladi. Davlat qarzi muammosini hal etishning o'ziga xos

usuli bankrotlik hisoblanadi, bunda hukumat davlat qarzini bekor qiladi. Davlat qarzini bekor qilish – bu davlat tomonidan chiqarilgan zayomlar bo‘yicha (ichki, tashqi yoki umuman tashqi qarz bo‘yicha) majburiyatlardan butunlay voz kechishdir. Qimmatli qog‘ozlarni bekor qilish ikki sababga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin: davlatning moliyaviy nochorligi, ya’ni bankrotlik holati hamda hokimiyat tepasiga yangi siyosiy kuchlar kelishi va ular ma’lum sabablarga ko‘ra avvalgi hukumatning moliyaviy majburiyatlarini tan olmasligi tufayli.

Davlat qarzlarning bekor qilinishi favqulodda xususiyatga ega bo‘lib, dunyo amaliyotida kam uchraydigan holdir. Misol tariqasida, ko‘pincha Sovet Rossiyasi Rossiya imperiyasi va Muvaqqat hukumatning ichki va tashqi majburiyatlar bo‘yicha davlat qarzidan voz kechganligi keltiriladi. Qarzni boshqarishga ma’lum bir moliyaviy va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali davlat qimmatli qog‘ozlar kursini bir me’yorda ushlab turish ham kiradi. Davlat qarzini boshqarish bo‘yicha asosiy metodlardan tashqari hukumat ssuda kapitali bozorida muomalada bo‘lgan zayomlarni markaziy va tijorat banklari orqali qaytarib sotib olishi mumkin.

Davlat qarzini boshqarishda yangi zayomlarni chiqarish shartlarini belgilash bilan bog‘liq faoliyat muhim hisoblanadi. Zayomlarning emissiya shartlarini belgilashda (kreditorlar uchun qimmatli qog‘ozlarning daromaddorlik darajasi, zayomlarning amal qilish muddati, daromadlarni to‘lash usullari) davlat faqatgina zayomlar bo‘yicha maksimal samaraga erishishga e’tibor bermasdan, moliya bozoridagi real konyunkturani ham hisobga olishi zarur. Davlat zayomi obligatsiyalarini tayyorlash, saqlash va tarqatish Moliya vazirligining tegishli bo‘linmalariga, qimmatli qog‘ozlarni sotish esa – bank tizimiga yuklatilgan. Banklar davlat zayom obligatsiyalarini barcha ish kunlari erkin sotadi va sotib oladi, yutuq tirajlari o‘tkazilgan davrdan rasmiy jadval olingan kunga qadar bo‘lgan davr bundan mustasno. Tashqi zayom obligatsiyalari qarz oluvchi davlat nomidan xorijiy pul

bozorlarida bank konsorsiumlari tomonidan joylashtiriladi, konsorsiumlar ushbu xizmati uchun vositachilik haqi oladilar. Hukumatlararo zayomlar asosan obligatsiyasiz bo'ladi. Davlat qarzini boshqarish hozirgi amaliyotida quyidagi masalalar alohida ahamiyat kasb etadi: foizli va diskontli daromadni bitta qimmatli qog'ozda mujassamlashtirish imkoniyati, davlat qarzini moliyalashtirishga xorijiy investorlarni jalb etish usullari, davlat obligatsiyalari bozorining yangi vositalaridan foydalanish xususiyatlari.

G'aznachilik moliya tizimini boshqarish jarayonida Markaziy bankdan, umuman, bank tizimidan yoki xususiy sektordan olinadigan qarzlar hajmini keskin kamaytirishga turtki beradi. G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, davlat boshqaruv organlarining qarz munosabatlariga doir shartnomalarning asl nusxalarini, qarzga kafolat bo'lgan boshqa hujjatlarni yig'adi va saqlaydi. Xorij mamlakatlari amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat tuzilishi turlicha bo'lgan mamlakatlarda davlatga qarashli mablag'lar Moliya vazirligining tarkibiy qismi bo'lgan G'aznachilikning yagona hisobraqamida to'planadi, davlat qarzlarini boshqarish g'aznachilikka yuklatilgan. G'aznachilik departamenti muomalaga qimmatli qog'ozlar chiqarishni, ularni hajmini, tarkibini va to'lov muddatini nazorat qiladi va ularning tarkibiga bog'liq barcha masalalarni echadi. G'aznachilik davlat qarzlarini boshqarishda turli bosqichlarda qatnashishi mumkin va u bajarilgan hisob-kitob operatsiyalari uchun javob beradi. Har bir mamlakatda Davlat moliyasini boshqarishni o'zi turli yo'nalishlarga ega:

1. Naqd mablag'larni boshqarish.
2. Moliyaviy rejalashtirish.
3. Davlat qarzlarini boshqarish.
4. Davlatning moliyaviy aktivlari ustidan nazorat qilish.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, g'aznachilik tizimi tarkibiy tuzilishi, huquqiy asoslari hamda bajaradigan

vazifalari bilan turli mamlakatlarda turli xil ko‘rinishga ega. G‘aznachilik davlat qarzlari boshqarishda turli bosqichlarda qatnashishi mumkin va nihoyat, g‘aznachilik bajarilgan hisob-kitob operatsiyalari uchun javob beradi. Ba’zi mamlakatlarda g‘aznachilik davlat qarzi, qimmatbaho metallar va boshqa aktivlarni boshqarish masalalariga javob bersa, boshqalarida u to‘lovlarni amalga oshirishdan avval nazorat ishlarini olib boradi, yana boshqalarida g‘aznachilik byudjet ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tuzishga va nashr qilishga javob beradigan boshqaruv organi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Masalan, Avstraliya Buyuk Britaniya, AQSH kabi davlatlarda g‘aznachilik tizimining “kengaytirilgan funksiyali” tizimi mavjud bo‘lib, bunday tizimda g‘aznachilik organlari davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini olib boradi.

Har xil mamlakatlarda g‘aznalarga yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar yuklatilgan edi, ularning mahalliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, yangi vazifalar yuklatildi va ba’zilari olib tashlandi. Uzoq davom etgan urushlar sababli davlat boyligining kamayishi oqibatida g‘aznalarga yangi vazifa-ichki va tashqi qarz majburiyatlarini ishlab chiqish yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan xarajatlar sohasida yuritilayotgan siyosati, byudjet taqchiligini YaIMga nisbatan har yili o‘rnatiladigan doirasi miqdorida Davlat byudjeti balansligini ta‘minlashga qaratildi. Iqtisodiyotga investitsiyalar hajmi, aniq maqsadli va samarali kredit resurslarini taqsimlash kengaydi, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlantirildi, byudjet taqchiligi va inflyatsiya sur‘atlari qisqardi.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari va uni moliyalashtirish mexanizmlarini o‘rganishda taqchillikni moliyalashtirishning oqibatlari, obligatsiya chiqarishni davlat qarzlari bilan bog‘liqligi, shuningdek, byudjet taqchiligi bilan pul massasi, davlat qarzlari o‘rtasidagi mutanosiblik e‘tiborga olinadi. Byudjet taqchilligini

moliyalashtirish uchun davlat ochiq bozorda pulni qarzga olish yoki pul bosib chiqarishi yoki o'z mulkining bir qismini sotishi mumkin.

20.4. G'aznachilik sharoitida davlat kafolatlarini boshqarish

G'aznachilik tizimida Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning iqtisodiyotga ta'siri bir xil bo'lmaydi, shuning uchun har bir manbalarini ko'rib chiqish lozim. Qachonki davlat o'z taqchilligini ochiq bozordan qarz olish orqali moliyalashtirsa, unda u qarzli moliyalashtirishga tushib qoladi. Qarz olib moliyalashtirish iqtisodiyotni dastlabki holati qanday bo'lishiga qarab unga turlicha ta'sir ko'rsatadi va qisqa muddatli hamda uzoq muddatli kelajakda turli natijalarni beradi. G'aznachilik amaliyotida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning hududiy boshqarmalarida ochilgan Yagona G'azna hisobvarag'i faoliyat ko'rsatadi. G'aznachilikning Yagona G'azna hisobvarag'ida vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning va mahalliy hokimiyat organlarining shaxsiy hisobraqamlari ochiladi. Davlat byudjetining barcha xarajatlari, jumladan, mahalliy byudjet xarajatlari Yagona G'azna hisobvarag'idan moliyalashtiriladi.

Yagona G'azna hisobvarag'ida mablag'larga taqchilik bo'lganda, G'aznachilik organi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan yoki moliya bozorida mablag' jalb qiladi.

Fransiyada G'aznachilik funksiyalari Davlat G'aznasi va Davlatning hisob-kitob yuritish bosh direksiyasi o'rtasida bo'lingan. Har ikkala tashkilot yuqori tashkilotlarning ikkinchi pog'onasi hisoblanadi: Davlat G'aznasi Moliya vazirligining, Davlatning hisob-kitob yuritish bosh direksiyasi Byudjet vazirligining tarkibiga kiradi. Fransiyada barcha moliyaviy resurslar G'aznachilikning yagona hisobraqamida yig'iladi, bu mablag'larning miqdori Markaziy Bankda joylashgan barcha tushumlar va to'lovlar yig'iladigan shu hisobraqam bilan nazorat qilinadi.

Davlat G'aznasi quyidagilarni nazorat qiladi:

1. Daromadlar sohasida:

- a) davlatning qarzi talabnomalarini undiradi;
- b) davlat muassasalarining har bir guruhi uchun qabul qilingan amaldagi qonun hujjatlarida va nizomlarda ko'zda tutilgan daromadlar olishga ruxsat beradi.

2. Xarajatlar sohasida:

- a) byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning vakolatlarini nazorat qiladi;
- b) kreditlarning mavjudligini nazorat qiladi;
- c) qarzi majburiyatlarida ko'rsatilgan muddatlarni nazorat qiladi;
- d) xarajatlarni aniq byudjet tasnifi bo'yicha amalga oshirilishini nazorat qiladi.

3. Mol-mulk sohasida:

- a) mulk egalari huquqlarini, imtiyozlarini, ipotekalarni va nazorat qiladi;
- b) buxgalteriya hisob-kitobi olib boriladigan mol-mulknini saqlanishini nazorat qiladi.

Byudjetning xarajatlar bo'yicha ijrosi Byudjet direktorati tomonidan nazorat qilinadi. Byudjet direktorati o'z tizimiga qarashli moliyaviy nazoratchilar yordamida mablag'larni xarajat qilish sur'atlarini nazorat qiladi. Xarajatlar juda qattiq nazorat qilinadi: Fransiyadagi G'aznachilik Avstraliyadagi G'aznachilik kabi davlatning ichki va tashqi qarzlarni boshqaradi, yuqorida aytib o'tganimizdek, muomalaga qimmatli qog'ozlarni chiqarishni nazorat qiladi, ularni hajmiga, to'lov muddatiga va tarkibiga bog'liq masalalarni echadi. Davlat moliyasini boshqarish, uning hisob-kitobini yuritish mablag' jalb qilish bilan birga olib boriladi. U davlat majburiyatlarini boshqaradi, ichki va tashqi mablag'ni jalb qiladi, ularning hisob-kitobini yuritadi va har yilgi davlat qarzlari to'g'risidagi hisobotni tayyorlaydi.

Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik har chorakda turli darajadagi davlatning boshqaruv organlarining qoplanmagan qarzlari, byudjet tashkilotlarining va davlat muassasalarining qarzlari qo'shib, barcha qoplanmagan qarzlarning ro'yxatini tasdiqlaydi va nashr qiladi. Bunday ro'yxat har bir qarzlarning bo'yicha quyidagi axborotlarni beradi:

- qarzdor nomi;
- shartnomadagi boshlang'ich summa;
- qoplanmagan qismining hajmi;
- foiz stavkasi;
- to'lov muddati;
- joriy moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlar hajmining bashorati;
- kelgusi moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlarning hajmi bashorati;
- boshqa zarur axborotlar.

Mazkur hisobotlarni tayyorlash uchun barcha davlat boshqaruvi organlari va davlat tashkilotlari G'aznachilik tomonidan belgilangan shaklda va muddatda zarur axborotlarni G'aznachilikka taqdim qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, Rossiya Federatsiyasida "Byudjet tasnifi tugrisida"gi 1996 yil 15 avgustdagi №115 Federal Qonunda ko'rsatilgan quyidagi tasniflaridan foydalaniladi.

1. Rossiya Federatsiyasi byudjet daromadlarining tasnifi.
2. Rossiya Federatsiyasi byudjet xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi.
3. Rossiya Federatsiyasi byudjet xarajatlarining tashkiliy tasnifi.
4. Rossiya Federatsiyasi byudjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifi.
5. Rossiya Federatsiyasi byudjeti defitsitini moliyalashtirishning ichki manbalarining tasnifi.
6. Rossiya Federatsiyasi byudjeti defitsitini moliyalashtirishning tashki manbalarining tasnifi.

7. Rossiya Federatsiyasi davlat qarzlari va Rossiya Federatsiyasi subyektlarining ichki qarzlari tasnifi.

8. Rossiya Federatsiyasi tashqi davlat qarzlari va tashqi aktivlari tasnifi.

Rossiya Federatsiyasida birinchi marta 1998 yilda Federal byudjet defitsitni hisobga olgan holda umumjahon uslubiyoti asosida tuzildi. Bunda daromadlar va xarajatlarni balanslashtirish tartibida, xarajatlarni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalarida, byudjet defitsitini ko'rsatishda, xarajatlarni hisob-kitobini olib borishda, davlat qarziga xizmat ko'rsatish va uni qoplashda o'zgarishlar kiritildi. Rossiya Federatsiyasida mahalliy byudjetning defitsitini moliyalashtirishning ichki manbalari sifatida munitsipal qimmatli qog'ozlar (zayomlar), yuqori darajadagi byudjetdan olingan byudjet ssudalari va kredit muassasalaridan olingan kreditlardan foydalanish amaliyotga kiritildi. O'zbekistonda chuqur iqtisodiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida Davlat byudjetining ahamiyati oshib bormoqda. Respublika hukumati boshlangan iqtisodiy islohotlarni davom ettirib, Davlat byudjeti taqchilligi hajmini va inflyatsiya sur'atlarini pasaytirish, sanoat ishlab chiqarishni va eksport hajmini, aholini real daromadlarini oshirish siyosatini yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunning "Davlat tomonidan mablag' jalb qilish" deb nomlangan 40-moddasida ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi kelgusi moliya yili uchun davlat byudjetini qabul qilinyotganda davlat ichki va tashqi qarzining eng yuqori miqdorini tasdiqlaydi. Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilishga hamda davlat qarzi ko'payishiga olib keladigan boshqa harakatlar O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, jumladan, davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirish.

2. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasida tushumlar vaqtga ko'ra muvofiq emasligi tufayli kelib chiqqan ichki tafovutni to'g'rilash;

3. Mavjud qarzni qayta moliyalashtirish.

4. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish.

5. Tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda vaziyatlar tufayli mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarni qoplash maqsadida amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan barcha mablag' jalb qilishlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga axborot taqdim qiladi.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ davlat qarziga xizmat ko'rsatuvchi va davlat tomonidan mablag' jalb qilish bo'yicha hisob-kitoblarning o'z vaqtida va to'g'ri yuritilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi agent vazifasini bajarishlari yuzasidan banklar, moliya tashkilotlari bilan shartnomalar tuzishi mumkin. Rezident-yuridik shaxslarning majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan beriladi.

Jismoniy shaxslarning majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining kafolatlari berilmaydi. Kafolatlar berish tartibi, shuningdek, kafolatlar berilganligi uchun uni oluvchidan haq olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Davlat qarzi bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishga hamda davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining majburiyatlaridan kelib chiquvchi to'lovlarni amalga oshirish uchun mablag'larni jamlashga

shart-sharoit yaratish maqsadida respublika byudjeti tarkibida Kafolat jamg'armasi tuziladi.

G'aznachilik:

- kassadagi naqd pullarni boshqarish;
- oylik kassa limitlarini o'rnatish;
- byudjet tashkilotlarining shartnomalarini ro'yxatga olish;
- byudjet tashkilotlarining moliyaviy sarf-xarajatlarini joriy nazorat qilish (to'lov arizalari nazorati);
- byudjet ijrosining hisobini yuritish va moliyaviy hisoboti;
- davlat qarzi va hukumat kafolatlari hisobini olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan barcha mablag' jalb qilishlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga axborot taqdim qiladi. Davlat tomonidan mablag' jalb qilishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ davlat qarziga xizmat ko'rsatuvchi va davlat tomonidan mablag' jalb qilish bo'yicha hisob-kitoblarning o'z vaqtida va to'g'ri yuritilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi agent vazifasini bajarishlari yuzasidan banklar, moliya tashkilotlari bilan shartnomalar tuzishi mumkin.

Kafolat jamg'armasi tashkil etish va undan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunida davlat qarzi-davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi deb ta'rif beriladi.

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi davlatning ichki qarzlari deyiladi. Davlat tomonidan xorijdan mablag'ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi davlatning tashqi qarzlari deyiladi.

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish- aktivlarni ichki manbalardan rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlari va qarzlarni to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishidir. Davlat tomonidan xorijdan mablag'ni jalb qilish - aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini-qarzlarni to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga keladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlat qarzi deganda nima tushuniladi?
2. Davlat qarzining vujudga kelishi sabablarini ko'rsating.
3. Davlatning ichki qarzi nima? Uning vujudga kelishi sabablarini tushuntirib bering.
4. Davlatning tashqi qarzi nima? Uning vujudga kelishi sabablarini tushuntirib bering.
5. Davlat zayomlari deganda nima tushuniladi?
6. Mamlakat davlat qarzining barqarorligi darajasi qanday baholanadi?
7. Davlat qarzining yuqori chegarasini belgilovchi Maastrixt mezonlarini ayting.
8. O'zbekistonda foydalaniladigan qarz majburiyatlari turlarini ayting.
9. Asosiy davlat qarzi deganda nima tushuniladi?
10. Joriy davlat qarzi deganda nima tushuniladi?
11. Jahon amaliyotida qo'llaniladigan davlat qimmatli qog'ozlarining tasnifiy belgilari va turlarini ayting.
12. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarini ko'rsating va ularga tavsif bering.

13. Tashqi qarzni boshqarish deganda nima tushuniladi?
14. Davlat qarzini boshqarish usullarini sanang va ularga tavsif bering.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Davlat qarzlarini boshqarishning vazifalari va usullari asosida BBB jadvalini ishlab chiqing.
2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalarni yo'naltirish amaliyoti bo'yicha jadval tuzing va izohlang
3. O'zbekiston Respublikasida xalqaro moliya institutlari mablag'laridan foydalanishda g'aznachilik operatsiyalarning amalga oshirilishini tavsiflang.

21-MAVZU. G‘AZNACHILIK TIZIMIDA BYUDJET TASNIFIDAN FOYDALANISH

21.1. Byudjet tasnifining mazmun-mohiyati va g‘aznachilik tizimidagi ahamiyati

21.2. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tasnifi amal qilishining huquqiy asoslari.

21.3. Byudjet daromadlari tasnifidan foydalanish

21.4. Byudjet xarajatlari tasnifini yuritish tartibi

21.5. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.

21.6. G‘aznachilik tizimida byudjet tasnifining qo‘llanilishi

21.7. O‘zbekistonda byudjet tasnifidan foydalanish istiqbollari

21.1. Byudjet tasnifining mazmun-mohiyati va g‘aznachilik tizimidagi ahamiyati

Davlat byudjeti moliya tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida mamlakatning asosiy moliya rejasini tashkil etuvchi va foydalanuvchi umumdavlat pul fondidir.

Byudjet so‘zi inglizcha “budget” – xalta ma’nosini anglatib davlatning ma’lum muddatga mo‘ljallab tuzilgan va qonun bilan tasdiqlangan daromadlari hamda xarajatlari hisobi bandlar bo‘yicha tasdiqlangan hujjatidir.

Davlat o‘z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, shuningdek, rivojlanishning har bir bosqichida dolzarb bo‘lgan strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma’lum bir qismini o‘z qo‘lida to‘plamog‘i obyektiv zaruriyatdir. Aynan shu obyektiv zaruriyatning mavjud bo‘lishi **davlat byudjetining** mavjud bo‘lishini va amal qilishini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 3-moddasida O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga ta’rif berilgan. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti (Davlat byudjeti) – davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta’minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasi;

Davlat byudjetida, moliya tizimining boshqa bo‘linmalaridan farqli o‘laroq, ikki tushunchaning terminologik qo‘shilishi mavjud:

- 1) byudjet – iqtisodiy (moliyaviy) kategoriya sifatida;
- 2) byudjet – mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida.


“Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo‘lishini ta’minlash - eng muhim ustuvor vazifa-mizdir” degan edilar muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.¹⁹⁸

Byudjet tasnifi bu byudjet tizimi byudjetlari ijrosi jarayonida byudjet daromadlari va byudjet xarajatlari, hamda byudjet taqchilligini qoplash manbalari harakatiga oid iqtisodiy munosabatlarni guruhlash majmuasidir.

Byudjet tasnifining subyektlari bo‘lib, moliya organlari (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari, bo‘limlari), O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari, Davlat maqsadli jamg‘armalari, byudjet tashkilotlari bo‘lib hisoblanadi.

Byudjet tasnifining obyektlari bo‘lib, byudjet tizimi byudjetlari ijrosi jarayonida byudjet daromadlari va xarajatlari, hamda byudjet taqchilligini qoplash manbalari hisoblanadi (21.1.-rasm).

¹⁹⁸ *Shavkat Mirziyoyev*. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. 2017 yil 14 yanvar. T.: O‘zbekiston, 2017. 8-b.



21.1-rasm. Byudjet tasnifining obyektleri

Byudjet tasnifi davlat byudjetidan mablag' oluvchi tashkilotlar tomonidan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini tuzish, ko'rib chiqish va ijrosini amalga oshirish, shuningdek ularni ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashda foydalaniladi.

Soliqsiz daromadlarning ro'yxati barcha darajadagi byudjetlar bo'yicha bir xil bo'lib, u Byudjet tasnifi bilan belgilanadi.

Byudjet tasnifi – qaror qabul qilish tizimining muhim vositasi bo'lganligi sababli, unda davlatning asosiy funksiyalaridan kelib chiqadigandavlat faoliyatining maqsadli yo'nalishlari aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Byudjet tasnifining alohida xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Byudjet tasnifi asosida byudjet tizimi byudjetlari ijrosi hisobni tashkil etilishi;
- Byudjet tasnifi asosida byudjet tizimi byudjetlari ijrosini nazorat qilinishi;
- Byudjet tasnifi asosida daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosini nazorat qilinishi;
- Davlat byudjeti g'azna ijrosi sharoitida byudjet tizimi byudjetlari daromadlari, xarajatlari va byudjet taqchilligini qoplash manbalari tasnifi asosida ularning hisobini tashkil etilishi va yuritilishi;

- Byudjet tashkilotlarida soha xususiyatlari bo'yicha daromadlar va xarajatlar turlari kodlari asosida hisobni tashkil etilishi va boshqalar.

“Byudjet tasnifi” G‘aznachilik tizimidagi ahamiyati. Byudjet jarayonining barcha bosqichlarida byudjet tizimi byudjetlari va davlat maqsadli jamg‘armalari ijrosini ta’minlashda byudjet tasnifidan foydalangan holda byudjetni loyihalash, ijro etish, hisobotlarni tayyorlashda byudjet tasnif ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Shu boisdan ham respublikamizdagi Byudjet tizimi Byudjetlari va davlat maqsadli jamg‘armalari ijrosini tuzish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi

Byudjet jarayonining barcha bosqichlarida byudjet tizimi byudjetlari va davlat maqsadli jamg‘armalari ijrosini ta’minlashda byudjet tasnifidan foydalangan holda byudjetni loyihalash, ijro etish, hisobotlarni tayyorlashda byudjet tasnif ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

Shu boisdan ham byudjet tasnifi respublikamizdagi byudjet tizimi byudjetlari va davlat maqsadli jamg‘armalari ijrosini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Byudjet tizimidagi byudjetlarni tuzish va ijro etish bo'yicha asosiy metodologik hujjat bo'lib Byudjet tasnifi xizmat qiladi.

Byudjet tasnifi – Byudjet tizimining barcha darajalaridagi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, ushbu byudjetlarning taqchilliklarini moliyalashtirish manbalari va davlat qarzi turlarini birxil belgi bo'yicha qonunga muvofiq guruhlash bo'lib, undan byudjetlarni tuzish va ijro etishda tasnif obyektlariga guruh kodlarini berish orqali foydalaniladi. Tasnif barcha darajadagi byudjetlar ko‘rsatkichlarining qiyosiylikini, ularni iqtisodiy va statistik tahlil qilish imkoniyatini ta’minlaydi.¹⁹⁹

Byudjet tasnifining ahamiyati shu bilan belgilanadiki, undan:

– davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etishda;

¹⁹⁹ Srojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi: Darslik. T., 2010-y.

– byudjet mablagʻlarining ajratilishi va ulardan foydalanilishini nazorat qilishda;

– turli darajadagi byudjetlarning koʻrsatkichlarini bir-biri bilan taqqoslashda;

– barcha darajada jamlangan byudjet tizimini tuzishda foydalaniladi.

Byudjet tasnifi quyidagi **tamoyillarga** asoslanadi:

– toʻliqlik (byudjet jarayonining barcha ishtirokchilarini qamrab oladi);

– yagonalik (byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari uchun yagonadir);

– oʻzaro muvofiqlik (byudjet tasnifi kodlari bir vaqtning oʻzida byudjet jarayonining turli operatsiyalarini aks ettirishi kerak emas).

Byudjet tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlarini, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarining guruhlanishi boʻlib, quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi;
- byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifi;
- davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi.²⁰⁰

Byudjet tasnifi byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish hamda ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi va u byudjet maʼlumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday maʼlumotlari bilan qiyoslanishini taʼminlaydi.

Byudjet daromadlari va xarajatlarining tushish manbalarining turli tumanligi, moliya-byudjet munosabatlarining murakkabligi sharoitida davlat moliyasini boshqarishni pul oqimlarini harakatining qonuniy tasdiqlangan yagona tizimisiz tasavvur qilish juda mushkul. Shu maqsadda, tarkibiy bir-biriga yaqin byudjet koʻrsatkichlarni

²⁰⁰ Byudjet tasnifini qoʻllash boʻyicha yoʻriqnomani tasdiqlash haqidagi Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 11 oktabrda №-2146 raqami bilan roʻyhatdan oʻtkazilgan yoʻriqnoma.

umumlashtirish yo'llaridan biri bo'lib hisoblanadigan muxsus byudjet tasnifi xizmat qiladi. Byudjet tasnifi o'z vazifa va funksiyalarni bajarish uchun mablag'larni qanday sarflashni ko'rsatib beradi.


Byudjet tasnifi smetalarni va byudjetlarni umumiy jamlanmaga birlashtirish uchun sharoit yaratadi, ularni ko'rib chiqishni soddalashtiradi va iqtisodiy tahlil qilish imkoniyatini yaratadi, byudjet ijrosi nazorati va mablag'larni o'z vaqtida to'liq jamlanishini soddalashtiradi, hamda mablag'larni maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni osonlashtiradi. Byudjet tasnifi byudjet ijrosi bo'yicha hisobotlardagi daromadlar va xarajatlarni solishtirish va budjdet mablag'lari sarflanishida moliyaviy intizomga rioya etilishini kuzatish imkoniyatini yaratadi. Davlat moliyasi aniqrog'i, davlat byudjetini tuzish aniq tamoyillarga asoslanadi, bu o'z navbatida muhim ahamiyatga molik bo'lgan byudjet jarayonining hamma bosqichlarini bir tizimga solish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shunday tizimlardan biri bu byudjet tasnifidir.

Iqtisodiy adabiyotlarda byudjet tasnifining umumiy tamoyillariga, davlat va mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarining mohiyati va ularni guruhlashtirish va byudjet tasnifidan optimal ravishda foylanishga qaratilgan muhim fikrlar berilgan. Shuningdek, davlat va mahalliy byudjetlar jarayonida tasnifning iqtisodiy mohiyati va uning roli to'g'risida ham ko'p ta'kidlab o'tiladi. Bunda byudjet daromadlari va xarajatlarini jamiyatning iqtisodiy hayotidagi, xususan ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati, tasnifni aniq belgilariga asosan guruhlashtirish, iqtisodiyotning tarmoqlari bo'yicha mohiyatini ochib berishga harakat qilinadi.

Byudjetni guruhlash tavsifi va ularni tuzish tamoyillari, byudjet daromadlari va xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, iqtisodiyotning tuzilishi va uni boshqarishga bog'liq ravishda aniqlanadi. Daromad manbalarini bilish va byudjet sarflarining yo'nalishini

aniqlab olish, bu byudjet jarayonining samarali ishlashiga sharoit yaratadi.


Shuningdek, byudjet daromadlari va xarajatlarini bir tizimga solib guruhlash nafaqat bir qancha o'xshash daromad va xarajatlarni birlashtirish imkoniyatini beradi, balki iqtisodiyotda moliyaviy nazoratni mustahkamlashni va byudjet intizomiga rioya etilishini ham ta'minlaydi. Davlat moliyasi tizimida byudjet tasnifi byudjet holati haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtiradi va hisob-kitob ma'lumotlarini ham ta'minlab beradi. Byudjet tasnifi Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma'lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi. Byudjet tasnifi byudjet ma'lumotlarini xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslashni ta'minlaydi. Byudjetning muhim qismini tashkil etuvchi tizim bu byudjet tasnifi bo'lib, turli darajadagi byudjet ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslash, moliyaviy manbalarni, byudjet taqchilligini qoplash manbalarini belgilash imkonini beradi.



21.2-rasm. Byudjet tasnifining byudjet ijrosidagi roli

Byudjet tasnifi hamma byudjetlarning ma'lumotlarini bir yagona davlat byudjetiga jamlash imkoniyatini yaratadigan asosiy tashkiliy funksiyani amalga oshiruvchi hujjatgina bo'lib qolmay, u katta iqtisodiy ahamiyatga egadir. Tasnifda davlat byudjeti daromadaari va

xarajatlari bir xil xususiyatlari bo'yicha guruhlanadi va ular bo'linmalar deb yuritiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Turli darajadagi byudjetlar yagona byudjet tasnifi ko'rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi, ya'ni tasnif obyektlariga berilgan guruhlashtirish kodlari bo'yicha daromadlar va xarajatlar guruhlanadi (21.2-rasm).



21.3-rasm. Byudjet tasnifining mazmuni²⁰¹

²⁰¹ T.S.Malikov, N.H.Haydarov. Byudjet (Tizimi, tuzilmasi, jarayoni): O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2008-y.

Davlat moliyasi tizimida byudjet tasnifi davlat byudjetining holati to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobini yuritish va tizimlashtirishni ta'minlaydi.

Byudjet tasnifidan byudjet jarayonining barcha bosqichlarida foydalaniladi. Byudjet tasnifi tasdiqlangan byudjet asosida daromadlarni tushishi va xarajatlarni moliyalashtirishni hisobga olish imkonini beradi. Byudjet tasnifi asosida davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot tuziladi. Byudjet tasnifidan foydalanish daromadlarni har bir turi bo'yicha tushishi, xarajatlarni yo'nalishlar bo'yicha moliyalashtirish, bir turdagi tashkilotlar bo'yicha xarajatlar smetalarini taqqoslash, hamda tahlil qilish imkonini beradi. Uning asosida ko'rsatkichlar rivojlanishi dinamikalari va tendensiyalari kuzatiladi, byudjet munosabatlari rivojlanishiga nisbatan bashoratlar ishlab chiqiladi, hamda byudjet ko'rsatkichlariga statistik ishlov beriladi.

Tasnif barcha darajadagi byudjetlar ko'rsatkichlarining qiyosiylikini, ularni iqtisodiy va statistik tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Byudjet tasnifining ahamiyati shu bilan belgilanadiki, undan:

- davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etishda;
- byudjet mablag'larining ajratilishi va ulardan foydalanilishini
- nazorat qilishda;
- turli darajadagi byudjetlarning ko'rsatkichlarini bir-biri bilan
- taqqoslashda;
- barcha darajada jamlangan byudjet tizimini tuzishda foydalaniladi.


Byudjet jarayonining samarali amalga oshirishda byudjet tasnifi muhim ahamiyatga ega.

Byudjet tasnifi bir qator funksiyalarni bajaradi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi yagonaligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi byudjet kodeksi byudjet tizimi yagonaligi tamoyili namoyon bo'lishining biri sifatida, byudjet

tasnifining yagonalidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi byudjet kodeksi byudjet tizimi byudjetlari uchun byudjet tasnifining har bir turining (guruh, bo'lim, modda) bazaviy va yagona pozitsiyasini belgilaydi. Natijada barcha byudjetlar yagona sxema bo'yicha quriladi. Buning natijasida O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining barcha darajalarida byudjet ko'rsatkichlarining taqqoslanishi ta'minlanadi. Boshqacha qilib aytganda, byudjet tasnifining ko'rsatkichlaridan foydalanib turli byudjetlarga ma'lum manbalardan qancha mablag'lar kelib tushmoqda yoki qanday maqsadlarga qancha byudjet mablag'lari sarflanayotganligini oson solishtirish mumkin.

Ikkinchidan, byudjet tasnifi byudjetni tuzish, tasdiqlash va ijro etishga, hamda byudjet hisobotini tuzish va tasdiqlashga yordam beradi.



21.4-rasm. Byudjet tasnifiga qo'yiladigan talablar

Byudjet tasnifi muhim tashkiliy ahamiyatga ega. U:

- Davlat byudjeti va mahalliy byudjet ko'rsatkichlarini taqqoslash uchun sharoit yaratadi;
- Byudjetni shaffofligini ta'milaydi;

- Byudjetlarni ko'rib chiqish va iqtisodiy tahlilni soddalashtiradi.
- Byudjet ijrosi ustidan nazoratni, mablag'larni o'z vaqtida va to'liq yig'ilishini, ularni maqsadli ishlatilishini soddalashtiradi;
- Byudjet tashkilotlari va muassasalarida daromadlar va xarajatlarning sintetik va analitik hisobini yuritish imkoniyatini beradi.

Byudjet tasnifining yagona tizimi davlat boshqaruvining daromadlarni to'planishi, hisobi va taqsimlanishi hamda xarajatlarni amalga oshirilishining har bir bosqichida moliyaviy operatsiyalarning hisobi yuritiladigan barcha darajalarida axborotlarning shaffofligi va mosligini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi.

Byudjet tasnifining asosiy maqsadi quyidagilar:

1) hokimiyat va boshqaruv organlari, moliyaviy nazorat organlarining byudjetni samarali rejalashtirish, byudjetlarni boshqarish, davlatni asosiy funksiyalarini bajarish uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish;

2) byudjetlarni shakllantirish, tasdiqlash, ijro etish, hamda ularni ijro etish to'g'risida hisobotlarni tuzish jarayonlari axborotlarining ochiqligi;

3) byudjet hisobotida ham davlat moliyasi statistikasi munosabatlarida metodologik yagonalik, solishtiruvchanlik va taqqoslanuvchanlik.

Byudjet tasnifi quyidagi asosiy vazifalarni bajarishga mo'ljallangan:

1) mamlakat byudjet tizimining yagonaligi tamoyilini amalga oshirish uchun uslubiy asos yaratish;


2) byudjet hujjatlashtirilishi shakllari yagonaligini ta'minlash;

3) tegishli byudjetlarni ijro etishda tezkor (operativ) nazoratni amalga oshirish;

4) byudjet tizimining barcha byudjetlari ko'rsatkichlarining taqqoslanuvchanligini, konsolidatsiyalashgan byudjet ko'rinishida jamlanma byudjet axborotlarini olish imkoniyati;

5) byudjet jarayonini amalga oshirishda davlat moliyaviy nazorati va audit instrumentlarni shakllantirish.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 18-moddasida byudjet tasnifiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, Byudjet tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlashdan iborat bo'lib, byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi.



21.5-rasm. Byudjet tasnifi²⁰²

²⁰² T.S.Malikov, N.H.Haydarov. Byudjet (Tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2008-y.

Byudjet tasnifi xalqaro tasnif tizimlariga muvofiq ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi Moliyavazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

*Byudjet tasnifi byudjet boshqaruvining mustaxkam fundamental blokli tizimi bo‘lib hisoblanadi, u byudjet qanday tartibda tuziladi, qabul qilinadi va ijro qilinishini belgilaydi. Shu bilan birga byudjet tasnifi byudjetning oshkoralik va muvofiqligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.*²⁰³

Byudjetlashtirishda asosiy e’tibor xarajatlar obyektidan mablag‘larni davlatning strategik maqsadlarini ijrosini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan davlatning dasturlarini amalga oshirishga ajratilishiga qaratiladi.

*Mablag‘lar turli maqsadlar (natijalar) va davlat mablag‘larini boshqaruvchi organlari xarajatlari uchun ajratiladi, shu bilan birga natijalarga erishishning iqtisodiy jihatdan foydaliroq va innovatsion usullarini izlashadi. Markaziy byudjet boshqaruvi har bir tashkilotning dasturiy maqsadlariga erishish uchun qaratilgan.*²⁰⁴

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining byudjet tasnifi tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

Byudjet tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlashdan iborat bo‘lib, byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi. Byudjet tasnifi xalqaro tasnif tizimlariga muvofiq ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Byudjet tasnifi:

- davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma’lumotlarini bir tizimga solish uchun foydalaniladi;

²⁰³ Budget Classification. Davina Jacobs, Jean-Luc Hélias, and Dominique Bouley. December. 2009. International Monetary Fund Fiscal Affairs Department Washington, DC USA.

²⁰⁴ Budgeting and budgetary institutions. Anwar Shah. 2007. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank 1818 H Street, N.W. Washington, DC. ISBN 0-8213-6939-3.

- mamlakat byudjet ma'lumotlarini xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslash imkonini beradi.

Soliq bazalarining kengayishi, soliq tizimiga o'zgartirishlar kiritilishi, yangi soliq turlarining joriy etilishi yoki amaldagi soliqlarning bekor qilinishi, shuningdek, davlat oldidagi vazifalarning o'zgarishi bilan byudjet xarajatlari tarkibining o'zgarishi amaldagi byudjet tasnifiga tegishli o'zgartirishlar kiritilishini taqozo etadi.

Shu sababli byudjet amaliyoti taraqqiyotining ma'lum bosqichlariga kelib, mavjud byudjet tasnifnomasiga o'zgartirishlar kiritib turiladi. Byudjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Byudjet ko'rsatkichlarining milliy tasniflash tizimini ishlab chiqishda xalqaro tasniflash tamoyillariga rioya qilinishi kerak.

Byudjet tasnifining turlari va asosiy tamoyillari. Davlat byudjeti ijrosida qatnashuvchi hamma organlarda davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarini hisobga olish asosida byudjet tasnifi yotadi. Byudjet tasnifi Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma'lumotlarini tizimga solish uchun foydalanish va u byudjet ma'lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlash maqsadida Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek ularning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlash hisoblanadi. Byudjet tasnifi hamma byudjetlarni yagona davlat byudjetiga jamlash imkoniyatini yaratadigan asosiy tashkiliy funksiyani amalga oshirishuvchi hujjat bo'libgina qolmasdan, u katta iqtisodiy ahamiyatga ham egadir. Tasnifda Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari bir xil alomatlari bo'yicha guruhlashtiriladi va uning bo'linmalari deb yuritiladi. Bo'limlar, paragraflar, boblar va moddalar byudjet tasnifi bo'linmalari deb hisoblanadi.

Byudjet tasnifining asosida shunday ko'rsatkichlarni guruhlash yotibdiki, u turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy daromadlarni shakllantirish va xarajatlarni amalga oshirish hamda ularni tarkibi va tuzilishi

to'g'risida tasavvur hosil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining Byudjetquyidagi turlari amal qiladi:


Byudjet tasnifi:

- byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifini;
- byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifini;
- Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining Byudjetbyudjet

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi daromadlarni ularning turlari va manbalari bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi.

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi tuzilmasi quyidagilardan iborat:



21.6-rasm. Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi tuzilmasi²⁰⁵


Xalqaro valyuta jamg'armasi doirasida daromadlar quyidagi toifalarga ko'ra tasniflanadi:

²⁰⁵ Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash haqida yo'riqnomasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 11 oktyabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2146.

(1) soliqlar, (2) ijtimoiy ajratmalar, (3) grantlar va (4) boshqa daromadlar. Soliqlar uchun tasnif soliq undiriladigan asosiy bazaga ko'ra belgilanadi (masalan daromadlar, xarajatlar, mulk aktivlari, omonatlar va boshqalar).²⁰⁶

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi kelib tushayotgan daromadlarning tegishli mablag'lar manbalariga va ushbu byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Davlat byudjeti daromadlarining tasnifi qonun hujjatlariga muvofiq ularni turlari va manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat (21.7-rasm).



21.7-rasm. Byudjet daromadlari tasnifi

Daromadlarning turi bo'lim, paragraf va daromad tipidan iboratdir.

Daromadlar bo'limi daromadlarni ularni olish manbalari bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi. Daromadlar paragrafi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlarni ularni undirish bazasi bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi. Daromad tipi byudjet tizimi byudjetlari daromadining aniq turidan iborat bo'ladi.

Tashkiliy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning ana shu daromadlarni ma'muriy jihatdan idora qiluvchi tegishli organga mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi.

Hududiy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning ushbu daromadlar shakllantirilayotgan yoxud o'tkazib berilayotgan tegishli

²⁰⁶ Budget Classification. Davina Jacobs, Jean-Luc Héris, and Dominique Bouley. December 2009. International Monetary Fund Fiscal Affairs Department Washington, DC USA.

ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi. Mazkur tasnifda byudjet daromadlari turlari byudjet tasnifnomasining tegishli bo'limlarida, bu daromadlarning tushish manbalari esa tegishli paragraflarda aks ettiriladi.

21.1-jadval

Hududiy tasnif (Andijon viloyati misolida)²⁰⁷

Kod		Nomi
Hudud	Tuman/shahar	
03	000	Andijon viloyati
03	200	Tumanlar
03	202	Oltinko'l tumani
03	203	Andijon tumani
03	206	Baliqchi tumani
03	209	Bo'z tumani
03	210	Buloqboshi tumani
03	211	Jalolquduq tumani
03	214	Izbosgan tumani
03	217	Ulug'nor tumani
03	220	Qo'rg'ontepa tumani
03	224	Asaka tumani
03	227	Marhamat tumani
03	230	Shahrixon tumani
03	232	Paxtaobod tumani
03	236	Xo'jaobod tumani

Masalan, amaldagi daromadlar tasnifiga muvofiq, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i tasnifnomaning 1-bo'limida, bu soliqning tushish manbalari esa 1-bo'limning paragraflarida hisobga olinadi. Boshqa bir misol: suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq daromadlar tasnifnomasining 13-bo'limida, bu bo'limning tegishli paragraflarida esa mazkur to'lovni to'lovchi yuridik shaxslar, ya'ni soliq manbalari aniqlashtiriladi.

²⁰⁷ Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash haqida yo'riqnomasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 11 oktyabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2146.


Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi davlat funksiyalarini bajarish uchun mablag'lar yo'nalishini aks ettiruvchi xarajatlarni guruhlashdir.

Xarajatlarning tashkiliy tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining mablag'larini taqsimlovchilar bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi.

Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi xarajatlarni iqtisodiy yo'nalishiga ko'ra kodlashdan iborat bo'ladi.

Hududiy tasnif byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Misol uchun quyidagi jadvalda Andijon viloyati misolida hududiy tasnifni ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifi byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarini kodlashdan iborat bo'ladi va ularning yo'nalishini aks ettiradi. Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari tasnifining tuzilmasini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin (21.8-rasm):



21.8-rasm. Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari tasnifining tuzilmasi²⁰⁸

²⁰⁸ Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash haqida yo'riqnomasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 11 oktyabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2146.

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi amalga oshirilayotgan xarajatlarning tegishli mablag'lar manbalari va byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Davlat byudjeti xarajatlari tasnifining quyidagi turlari mavjud:

1) Byudjet xarajatlarining **vazifa jihatidan (funksional) tasnifi** (7-13 kodlar) barcha byudjet darajalari xarajatlari guruhlanishini o'zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funksiyalarini bajarishga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishga byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni yo'naltirishini aks ettiradi.

2) Byudjet xarajatlarining **tashkiliy tasnifi** byudjetdan ajratiladigan mablag'larning ularni bevosita oluvchilar o'rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar va tadbirlar turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi. Bu tasnif byudjet mablag'larining vazirliklar, mahkamalar, davlat tashkilotlari va idoralari bo'yicha taqsimlanishini tahlil qilish imkonini beradi. Har bir mahkama bo'yicha qilingan xarajatlar ularga berilgan shifrlarga muvofiq aniqlashtriladi.

3) Byudjet xarajatlarining **iqtisodiy tasnifi** to'lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi. Bunda xarajatlar ularning aniq turlari, ya'ni xarajat guruhlari va moddalari bo'yicha guruhlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 11 oktyabrda 2146 raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risidagi yo'riqnomaga asosan, byudjetdan amalga oshiriladigan joriy xarajatlar quyidagi xarajat guruhlari bo'yicha moliyalashtiriladi:

I-guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali onalarga nafaqalar, stipendiyalar va boshqalar);

II-guruh – Ish beruvchilarning ajratmalari (Ish haqiga ustamalar);

III-guruh – Kapital qo'yilmalar (Davlat investitsion Dasturlariga kirgan manzilli loyihalar bo'yicha);

IVguruh – Boshqa xarajatlar

IV guruh "Boshqa xarajatlar" tarkibiga tegishli xarajat turlari va ularga mos xarajat kodlari kiradi:

Ma'lumki, byudjet mablag'lari oluvchi tashkilot va muassasalarning ehtiyojlari ajratilgan limitlar va me'yorlar doirasida ma'lum darajada byudjet mablag'lari hisobidan qondiriladi. Amalda ular xarajatlarining mingdan ziyod turlari mavjud bo'lib, Moliya vazirligi tomonidan iqtisodiy tasnifnomani qo'llashga doir ko'rsatmalar ishlab chiqiladi. Unda alohida olingan har bir xarajat turining tasnifnomaning qaysi bo'lim, bob yoki paragrafda aks ettirilishi aniqlashtirib berilgan.

Xorijiy tajribada xarajatlar odatda ma'muriy, iqtisodiy va funksional tasnifga ko'ra qayd qilinadi. Xarbiroperatsiyaning byudjet kodi ushbu operatsiya bilan bog'liq barcha kerakli ma'lumotlarni taqdim qilishi kerak. Masalan xarajatlar sinfining uchta asosiy tasnifi, sakkizta tasnifosti sinflari (nomi, bo'limi va boshqalar), shu bilan birga o'n uchta belgilari mavjud. Bir mamlakatdagi bu tasnifosti sinflariga tayinlangan nomlar boshqa bir mamlakatda farq qilishi mumkin.²⁰⁹

Byudjet amaliyotida yuqorida keltirilgan tasniflardan birgalikda, ya'ni **aralash tasniflardan** foydalaniladi. Xususan, respublika va mahalliy byudjetlarni tuzish, ijro etish, ijrosi yuzasidan hisobotlarni to'plash va nazorat qilishda funksional va iqtisodiy tasnifdan aralash tarzda shaxmat usulida foydalaniladi. Masalan, mahalliy byudjetdan funksional tasnif bo'yicha xalq ta'limiga ajratilgan mablag'larning iqtisodiy tasnif bo'yicha ish haqi, kommunal xizmatlar, joriy remont kabilarga ishlatilish darajasi tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiningbyudjet

²⁰⁹ "Budget Classification" Davina Jacobs, Jean-Luc Héris, and Dominique Bouley. December 2009. International Monetary FundFiscal Affairs DepartmentWashington, DC. USA.

Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi ularni ichki va tashqi manbalar bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi.

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo'yicha guruhlashdan iboratdir. Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi quyidagilardan tashkil topadi:

- *bo'lim;*
- *paragraf.*

Bo'lim – davlat byudjeti taqchilligini uni moliyalashtirish manbalari bo'yicha guruhlanishidan iborat.

Paragraf -davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish turlari bo'yicha guruhlardan iborat.

Byudjet tasnifining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining Byudjet tasnifining asosiy tamoyillari to'liqlik, yagonalik va o'zaro muvofiqlikdan iboratdir.

Byudjet tasnifining to'liqlik tamoyili byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari qamrab olinishini nazarda tutadi.

Byudjet tasnifining yagonalik tamoyili byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan yagona byudjet tasnifi qo'llanilishini anglatadi.

Byudjet tasnifining o'zaro muvofiqligi tamoyili byudjet tasnifining kodlari bir vaqtning o'zida byudjet jarayonining turli xil operatsiyalarini hisobga olish uchun qo'llanilmasligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet kodeksida qayd etilgan "byudjet tasnifi tizimi, hisob-byudjet hujjatlari va byudjet jarayoni tuzilishining yagonaligi" tamoyiliga muvofiq, barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish va ijro etishda yagona byudjet tasnifi qo'llaniladi. Barcha darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tasniflash obyektlariga tegishli raqam(kod)lar berish bilan guruhlanadi hamda tasnif ko'rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi.

21.2. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tasnifi amal qilishining huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasida byudjet tasnifi amal qilishining huquqiy asoslari bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 20 avgustdagi 65-sonli buyrug‘i bilan (2010 yil 11 oktyabrda 2146-raqami bilan ro‘yxatga olingan) O‘zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma va hukumatimizningboshqa me‘yoriy hujjatlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida byudjet tasnifining qonuniy asoslaridan biri bo‘lib hisoblanadigan Byudjet kodeksining 3-bobida, byudjet tasnifining asosiy tamoyillari va uning tuzilishi keltirilgan. Byudjet kodeksiga muvofiq byudjet tasnifi byudjet tizimining yagonaligi va barcha darajadagi byudjetlar shaffofligini saqlashga yordam beradi. Byudjet tasnifi kodlarining tuzilishi, tayinlash tamoyili, shuningdek byudjet tasnifining tarkibiy qismlari kodlari o‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlari uchun yagona hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida byudjet tasnifi amal qilishining huquqiy asoslarini takomillashtirish. 1999 yilga qadar mamlakatimiz byudjet amaliyotida asosan sobiq Ittifoqda qo‘llanilgan tasnifdan foydalanib kelindi. Mazkur tasnif byudjet daromadlari va xarajatlarining bo‘limlar, boblar va moddalarga bo‘linib, umumlashgan funksional va iqtisodiy tasnif belgilariga ega edi. Bu tasnifning batafsil bayoni xalqaro standartlarga muvofiq hisobotlar taqdim etish yoki milliy hisoblar tizimiga mos kelishi jihatidan talabga javob bermas edi. Yangi tasnifni amalga kiritish bilan bu kamchilikka barham berildi va yangi tasnif 2000 yil byudjetini ishlab chiqish va ijro etishda ilk bor qo‘llanildi. Yangi tasnif byudjet daromadlari va xarajatlari ijrosini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Davlat byudjetining amaldagi Daromadlar va xarajatlar tasnifiga u qabul qilingan vaqtdan (1993 yil) buyon 230 dan ortiq o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

Masalan, Moliya vazirining buyrug'iga binoan 2008 yilda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining yangi tasnifi tasdiqlandi, uni joriy etishni (xalqaro maslahatchilarning tavsiyalariga binoan tuzatishlar kiritilganidan so'ng) 2010 yil 1 yanvardan Toshkent shahrining Bektemir tumanida boshlab tajriba sifatida qo'llanilib ko'rildi. Yangi tasnifning muhim vazifalari: byudjet mablag'larining shaffofligi va maqsadli ishlatilishini ta'minlash; byudjetning daromadlar va xarajatlar ko'rsatkichlari tarkibi va tuzilishi davlat moliyasining xalqaro statistikasi standartlariga muvofiqligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lar manbalari va byudjet darajalari tasnifi Davlat byudjetining g'azna ijrosiga o'tilishi munosabati bilan kiritilgan bo'lib, o'zi bilan mablag'lar manbalari (Davlat byudjeti, Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari, boshqa byudjetdan tashqari Davlatning jamg'armalari, grantlar, kreditlar)ni O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilmalari darajalari bo'yicha guruhlanishini namoyon etadi va Davlat byudjeti xarajatlarini ularni tashkil topish joy (hudud, tuman, shahar)lariga daxl etishga imkon berdi.

Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan yangi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Ushbu hujjatning afzalliklari va muhim jihatlari quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha ochib berish mumkin:

– *milliy byudjet tasnifini davlat moliyasi tasnifining xalqaro standartlari bilan uyg'unlashtirilishi;*

– *byudjet tasnifining davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining yagona hisob varaqlar rejasi bilan uyg'unlashtirilishi natijasida davlat byudjeti ijrosi bilan bog'liq ma'lumotlarni takomillashtirilishi (tizimlashtirilishi);*

– *byudjet jarayonining barcha ishtirokchilarini (davlat byudjeti, byudjetdan mablag' oluvchilar, davlat maqsadli va boshqa*

*jamg'armalarni) to'liq qamrab olinishi natijasida byudjet tasnifida davlat byudjeti ijrosining yanada to'liqroq aks ettirish imkonining vujudga kelishi va hokazo.*²¹⁰

- davlat byudjeti g'azna ijrosining joriy etilishi;
- bir qator davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa nobyudjet fondlarining tuzilishi va amal qilishi;
- byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag'larni jalb qilish manbalarining kengayishi va ular ustidan nazoratni yaxshilash zarurligi;
- byudjet tasnifi, byudjet hisobi va hisoboti tizimining takomillashuvi;
- yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi va boshqa holatlar bilan bog'liq bo'lib, byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi.

Natijada amaldagi “Byudjet tizimi to'g'risida”gi hamda “Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda Byudjet Kodeksida o'z aksini topdi.

Shunisi ahamiyatliki, 2014–2015-yillar davomida kodeksning norma va qoidalari qanday bajarilayotgani ustidan monitoring o'tkazish, zarur bo'lsa, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish ko'zda tutildi. Yangi kodeksda byudjet tasnifi va tuzilmasi Xalqaro Valyuta jamg'armasining 2011 yil 1 yanvardan kuchga kiritilgan xalqaro andozalariga asoslangan. I bo'limda byudjet tasnifning tuzilmasi, tarkibi va qo'llanish tamoyillarini belgilab beradi.

Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida amalga kiritilayotgan yangi Byudjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish,

²¹⁰ Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce. 2013. 656 p.

byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Byudjet Kodeksi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish maqsadida ishlab chiqildi. Byudjet Kodeksining byudjet tasnifi bilan bog'liq alohida qismi 3 bobning 18-moddasidan 24-moddasigacha tarif berilgan. 3-bob, Byudjet tasnifi ByudjetByudjet byudjet

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 20 avgustdagi 65-sonli buyrug'i bilan (2010 yil 11 oktyabrda 2146-raqami bilan ro'yxatga olingan) O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma tasdiqlandi. Ushbu hujjat milliy byudjet tasnifini davlat moliyasi tasnifining xalqaro standartlari bilan uyg'unlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2011 yilning 1 yanvaridan amalga kiritildi.

Ma'lumki, byudjet tasnifi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan mablag' oluvchi tashkilotlarga qo'llaniladi hamda Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro qilish, shuningdek, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash maqsadida foydalaniladi. Ushbu hujjatning afzalliklari va muhim jihatlarni quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha ochib berish mumkin:

– milliy byudjet tasnifini davlat moliyasi tasnifining xalqaro standartlari bilan uyg'unlashtirilishi;

– byudjet tasnifining davlat byudjeti g‘azna ijrosi buxgalteriya hisobining yagona hisobvaraqlar rejasi bilan uyg‘unlashtirilishi natijasida davlat byudjeti ijrosi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni takomillashtirilishi (tizimlashtirilishi);

– byudjet jarayonining barcha ishtirokchilarini (davlatbyudjeti, byudjetdan mablag‘ oluvchilar, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalarni) to‘liq qamrab olinishi natijasida byudjet tasnifida davlat byudjeti ijrosining yanada to‘liqroq aks ettirish imkonining vujudga kelishi va hokazo.

Byudjet tasnifi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalari guruhlanishi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– Davlat byudjeti daromadlarining tasnifi;

– Davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifi;

– - Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.

Byudjet tasnifi Davlat byudjetini uzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma‘lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va u byudjet ma‘lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma‘lumotlari bilan qiyoslanishini ta‘minlaydi.

Mazkur hujjatga muvofiq byudjet tasnifini tuzishning asosiy tamoyillari, deb quyidagilar e‘tirof etilgan:

– to‘liqlilik – byudjet tasnifi byudjet jarayonining barcha ishtirokchilarini qamrab olishi shart;

– yagonalik – byudjet tasnifi byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari uchun yagona bo‘lishi shart;

– o‘zaro muvofiqlik – byudjet tasnifining kodlari bir vaqtning o‘zida byudjet jarayonining har xil operatsiyalarini aks ettirish uchun qo‘llanilmasligi kerak, ya‘ni byudjet tasnifining har bir kodi o‘ziga xos

bo'lgan shart, Daromadlar tasnifi: asosiy o'zgarishlar Davlat byudjeti daromadlarining tasnifi barcha darajadagi byudjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlarining guruhlanishidan iborat.

Yigirma bir koddan iborat bo'lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi (amaldagi daromadlar tasnifi to'rt koddani borat edi) to'rt qismli ko'rinishga ega:

- mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi;
- daromadlar turi;
- tashkiliy tasnif;
- hududiy tasnif.

Ya'ni yangi byudjet tasnifi bo'yicha daromadlar tasnifining tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi				Daromadlar turi		Tashkiliy tasnif	Hududiy tasnif	
x	xxx	x	x	x	xxx	xxx	xx	xxx

Yangi byudjet tasnifi bo'yicha davlat byudjetiga (davlat maqsadli va boshqa jamg'armalarni ham qo'shgan holda) kelib tushayotgan barcha daromadlar quyidagi bo'limlar bo'yicha guruhlashtirilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlarni xalqaro tasnif tizimining ma'lumotlari bilan o'zaro solishtirish imkonini beradi, ya'ni:

- soliqlar;
- ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar;
- grantlar;
- boshqa daromadlar;
- aktiv va majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar.

O'z navbatida yuqorida ko'rsatilgan daromadlar turlari ham mazkur daromadlarni soliqqa tortish bazasi bo'yicha guruhlangan holda (paragraflar bo'yicha) aks ettiriladi. Jumladan, Soliqlar

daromadlarni soliqqa tortish bazasi bo'yicha quyidagi asosiy paragraflardan tashkil topadi:

- daromad, foyda va kapital o'sishiga soliqlar;
- mol-mulkka solinadigan soliq;
- tovarlar va xizmatlarga soliqlar;
- xalqaro savdo va operatsiyalarga soliqlar;
- boshqa soliqlar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yangi byudjet tasnifi bo'yicha daromadlarni tasniflash amaldagi daromadlar tasnifiga nisbatan tizimlashgan, to'liq va xalqaro talablarga mos ravishda ishlab chiqilgan.

Xarajatlar tasnifi davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar xarajatlari tasnifi barcha byudjet darajalari xarajatlari guruhlanishini o'zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funksiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga byudjet mablag'larini yo'naltirilishini aks ettiradi hamda quyidagilardan tashkil topgan:

- mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi;
- xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi;
- tashkiliy tasnif;
- xarajatlarning iqtisodiy tasnifi;
- hududiy tasnif.

Xarajatlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko'rinishda aks ettiriladi:

Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi				Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi			Tashkiliy tasnif	Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi			Hududiy tasnif	
X	xxx	x	x	x	xxx	xxx	xxx	xx	xx	xxx	xx	xxx

Endi yuqorida keltirilganlardan xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi va iqtisodiy tasnifga to'xtalib o'tsak.

Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi barcha byudjet darajalari xarajatlari guruhlanishini o'zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funksiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni yo'naltirilishini aks ettiradi.

Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi Jumladan, xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifini quyidagicha asosiy bo'limlarga bo'lingan holda aks ettirishimiz mumkin:

Xarajat turlari	Kodlar		
Umumiy ahamiyatdagi davlat xizmatlari	7	010	000
Mudofaa	7	020	000
Jamoat tartibi va xavfsizlik	7	030	000
Iqtisodiy masalalar	7	040	000
Atrof muhitni muhofaza qilish	7	050	000
Uy joy va kommunal xizmatlari	7	060	000
Sog'liqni saqlash	7	070	000
Dam olish, madaniyat, sport va din	7	080	000
Ta'lim	7	090	000
Ijtimoiy himoya	7	100	000

Mazkur hujjatda keltirilgan xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi amaldagi tasnifga nisbatan davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funksiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni yo'naltirilishini yanada aniqroq aks ettiradi.

Bunga misol tariqasida davlat byudjetidan ta'lim sohasiga amalga oshiriladigan xarajatlarni quyidagi solishtirish jadvali orqali amaldagi va yangi vazifa jihatidan tasnifni solishtirib ko'rishimiz mumkin:

Amaldagi tasnif			
Kodlar			Nomi
7	000	000	Jami xarajatlar
7	090	000	ta'lim
7	091	000	Maktabgacha ta'lim
7	091	100	Maktabgacha bolalar muassasalari
7	091	200	Maktabgacha maktab-bolalar muassasalari
7	096	400	Respublika maqsadli kitob jamg'armasi xarajatlari
7	096	500	Maktab ta'lim jamg'armasi
7	097	000	Ta'lim sohasidagi ilmiy-tadqiqot tajriba konstruktiv ishlanmalar
7	098	100	Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligini saqlash xarajatlari
7	098	200	O'rta maxsus kasb hunar ta'limi markazini saqlash xarajatlari
7	098	400	Xalq ta'limi vazirligini saqlash xarajatlari
7	098	800	Kapital qo'yilmalar va namunaviy loyihalashtirish

Ya'ni, yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, yangi byudjet tasnifida ta'lim sohasi uchun davlat byudjetidan (davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetidan amalga oshirilgan xarajatlarni ham qo'shgan holda) amalga oshirilgan barcha xarajatlar, u hoh ta'lim muassasalarini saqlash xarajatlari bo'lsin, yoki ta'lim sohasida amalga oshirilgan kapital qurilish xarajatlari bo'lsin, yohud ta'lim sohasidagi ilmiy-tadqiqot tajriba konstruktiv ishlanmalar bo'lsin ta'lim uchun amalga oshirilgan barcha xarajatlarni o'zida to'liq aks ettiradi. Amaldagi xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifida esa, ushbu xarajatlar (masalan, ta'lim sohasida amalga oshirilgan kapital qurilish xarajatlari yoki ta'lim sohasidagi ilmiy-tadqiqot tajriba konstruktiv ishlanmalar) ta'lim sohasi xarajatlarida emas, balki boshqa yo'nalishdagi xarajatlar tarkibida aks ettirilgan.

Iqtisodiy xarajatlar tasnifi.

Iqtisodiy xarajatlar tasnifi O'zbekiston Respublikasining barcha darajadagi byudjetlari xarajatlarni xo'jalik belgilariga, ishlab chiqarish elementlariga ko'ra farqlashni nazarda tutadi, davlat boshqaruvida

amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib byudjet xarajatlari yo‘nalishlarini belgilab beradi. Davlat byudjetining iqtisodiy xarajatlar tasnifining tuzilmasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

Toifa	Modda va kichik modda	Element
xx	xx	xxx

Iqtisodiy xarajatlar tasnifini ham quyidagi xarajatlarning iqtisodiy jihatidan asosiy yo‘nalishlariga bo‘lingan holda aks ettirishimiz mumkin:

40	00	000	Xarajatlar
41	00	000	Ishchilar mehnatiga xaq to‘lash
41	10	000	Ish haqi
41	20	000	Ijtimoiy ehtiyojlar uchun badallar / ajratmalar
42	00	000	Mahsulot va xizmatlar bo‘yicha xarajatlar
42	10	000	Xizmat safarlari xarajatlari
42	20	000	Kommunal xizmatlar
			...
43	00	000	Asosiy vositalar bo‘yicha xarajatlar
44	00	000	Foizlar
45	00	000	Subsidiyalar
46	00	000	Grantlar
47	00	000	Ijtimoiy nafaqalar
48	00	000	Boshqa xarajatlar
49	00	000	Moliyaviy aktivlar va majburiyatlar bo‘yicha xarajatlar

Iqtisodiy xarajatlar tasnifini ham amaldagi tasnif bilan misol tariqasida ish haqi xarajat moddasi bo‘yicha solishtirish orqali quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin, jumladan:

Amaldagi tasnif

41 10 000 – Ish haqi

41 11 000 – Pul shaklidagi ish haqi:

41 11 100 – Asosiy ish haqi

41 11 200 – Ish haqiga ustamalar va qo‘shimchalar

41 11 210 – Umumta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassalarining o‘rnatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasi mablag‘lari

41 11 220 – Tibbiyot tashkilotlari xodimlariga ustamalar va qo‘shimchalar

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, amaldagi xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo‘yicha davlat byudjetidan amalga oshiriladigan kommunal xizmatlar bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlari, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi hamda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqalar ish haqi xarajat moddasi bo‘yicha aks ettirilgan bo‘lsa, endilikda ushbu xarajatlar xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda ish haqi xarajatlari tarkibida emas, balki xarajatlarning tegishli moddalarida (mahsulot va xizmatlar bo‘yicha xarajatlar va ijtimoiy nafaqalar) aks ettiriladi.


O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlari ijrosini yanada takomillashtirish maqsadida 2017 yil 24 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan 06.12.2017 yilgi № 2146-7 byudjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining № 169 buyrug‘i bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

21.3. Byudjet daromadlari tasnifidan foydalanish

Davlat byudjetiga majburiy to‘lovlarning kelib tushishi soliq va bojxona tizimlariga kiruvchi maxsus vakolatli organlar hamda mazkur vazifa zimmasiga yuklatilgan boshqa davlat organlari tomonidan ta’minlanadi.

Davlat byudjeti daromadlari – davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o‘rtasidagi mamlakat byudjet fondining shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni anglatadi.

Davlat daromadlari - bu yaratilgan milliy boylikning davlat ehtiyojlari uchun jalb etiladigan qismidir. Davlat daromadlari keng mazmunli tushuncha bo'lib, o'z ichiga byudjet daromadlari (milliy daromadning turli darajadagi byudjetlarga jalb etilgan qismi)ni ham, byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari mablag'larini ham o'z ichiga oladi. Byudjet daromadlari davlat daromadlarining eng salmoqli qismini tashkil etadi.



21.1-rasm. Davlat byudjeti daromadlari tasniflanishi²¹¹

Aslida, davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai bo'lib mamlakat yalpi milliy mahsuloti va milliy daromadi hisoblanadi, davlat

²¹¹ Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat budjeti: O'quv qo'llanma / Toshkent Moliya instituti. T.: Iqtisod-Moliya, 2007.

markazlashgan pul fondiga mablag'larni jalb qilish quroli esa soliqlardir.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari qismi asosini mamlakatimizda 2014 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 50-51-52-moddalari bilan belgilab qo'yilgan daromadlar tashkil qiladi.

Yuqoridagi rasmda biz hozirgi amaliyotda Davlat byudjetining daromadlarining tasniflanish tartibi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining IV bo'limi, 9-bob, 50-moddasida Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishga tarif berilgan.

Davlat byudjeti daromadlari:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 20 avgustdagi 65-sonli buyrug'i bilan (2010 yil 11 oktyabrda 2146-raqami bilan ro'yxatga olingan) O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomaga tasdiqlandi. Ushbu hujjat milliy byudjet tasnifini davlat moliyasi tasnifining xalqaro standartlari bilan uyg'unlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2011 yilning 1 yanvaridan amalga kiritila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Budet kodeksining 21-moddasida Byudjet tizimi byudjetlaridaromadlarining tasnifi keltirilgan. Unga

ko'ra Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi daromadlarni ularning turlari va manbalari bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi.

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi tuzilmasi quyidagilardan iborat:

➤ byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi;

➤ daromadlarning turlari;

➤ tashkiliy tasnif;

➤ hududiy tasnif.

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi kelib tushayotgan daromadlarning tegishli mablag'lar manbalariga va ushbu byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Daromadlarning turi bo'lim, paragraf va daromad tipidan iboratdir.

Daromadlar bo'limi daromadlarni ularni olish manbalari bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi.

Daromadlar paragrafi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlarni ularni undirish bazasi bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi.

Daromad tipi byudjet tizimi byudjetlari daromadining aniq turidan iborat bo'ladi.

Tashkiliy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning ana shu daromadlarni ma'muriy jihatdan idora qiluvchi tegishli organga mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi.

Hududiy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning ushbu daromadlar shakllantirilayotgan yoxud o'tkazib berilayotgan tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi.

Yigirma bir koddan iborat bo'lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to'rt qismli ko'rinishga ega:

➤ byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi;

➤ daromadlarning turlari;

➤ hududiy tasnif.

Daromadlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko‘rinishga ega:

Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining manbalari va darajalari tasnifi	Daromadlarning turlari	Tashkiliy tasnif	Hududiy tasnif
X XXX X X	X XXX XXX	XXX	XX XXX

(6-band O‘zbekiston Respublikasi moliyavazirining 2014 yil 20 fevraldagi 11-sonli buyrug‘i (ro‘yxatraqami 2146-3, 17.03.2014 y.) tahririda – O‘R QHT, 2014 y., 12-son, 140-modda)

Davlat moliyasini boshqarishning Axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda DMBAT deb yuritiladi) tatbiq etilguniga qadar O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tuzishda faqatgina “Daromadlarning turlari” kodi qo‘llaniladi.

Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining manbalari va darajalari tasnifi (1 – 6 kodlar) byudjetga tushayotgan daromadlarni tegishli mablag‘lar manbalariga va ushbu byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi.

7 ta raqamli daromadlarning turlari (7 – 13 kodlar) quyidagilardan iborat:

- ✓ bo‘lim;
- ✓ paragraf;
- ✓ daromad tipi.

Bo‘lim daromadlarni ularning olish manbalari bo‘yicha guruhlanishini bildiradi:

3 100 000 “Soliqlar”;

3 200 000 “Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar”;

3 300 000 “Grantlar”;

3 400 000 “Boshqa daromadlar”;

3 500 000 “Aktiv va majburiyatlarga tranzaksiyalar bo‘yicha tushumlar”.

Paragraf soliq yoki boshqa turdagi daromadlarni soliqqa tortish bazasi bo'yicha daromadlarning guruhlanishini bildiradi.

“Soliqlar” (3 100 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

3 110 000 “Daromad, foyda va kapital o'sishiga soliqlar”;

3 130 000 “Mol-mulkka solinadigan soliq”;

3 140 000 “Tovarlar va xizmatlarga soliqlar”;

3 150 000 “Xalqaro savdo va operatsiyalarga soliqlar”;

3 160 000 “Boshqa soliqlar»;

“Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar” (3 200 000) 3 210 000

“Ijtimoiy ta'minotga ajratmalar/badallar” paragrafini o'z ichiga oladi.

“Grantlar” (3 300 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

3 310 000 “Xorijiy davlatlar hukumatlaridan”;

3 320 000 “Xalqaro tashkilotlardan”;

3 330 000 “Davlat boshqaruvi sektorining boshqa birliklaridan”.

“Boshqa daromadlar” (3 400 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

3 410 000 “Mol-mulkdan daromadlar”;

3 420 000 “Tovarlar va xizmatlar sotilishi”;

3 430 000 “Jarimalar, penyalar va neustoykalar”;

3 440 000 “Ixtiyoriy transfertlar, grantlar bundan mustasno”;

3 450 000 “Aniqlab bo'lmaydigan va boshqa daromadlar”.

“Aktiv va majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar” (3 500 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

3 510 000 “Tranzaksiyalardan aktivlarga tushadigan tushumlar”;

3 520 000 “Majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar”.

Tegishli bo'lim va paragrafning yanada detallashtirilishi va tavsifi mazkur Yo'riqnomaning 2-ilovasiga muvofiq daromad tipi bo'yicha amalga oshiriladi.

Tegishli byudjetning daromadlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar daromadlar tasnifining mumkin bo'lgan barcha elementlarini qo'llagan holda shakllantiriladi.

Byudjet tizimi byudjetlari bo'yicha tushumlarning taqsimlanishi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Tashkiliy tasnif (14 – 16 kodlar) kelib tushayotgan daromadlarning ana shu daromadlarni ma'muriy jihatdan idora qiluvchi tegishli organga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va sh.k.) mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zaro hisob-kitoblar bo'yicha yuqori (quyi) byudjetning quyi (yuqori) byudjet oldidagi majburiyatining qaytarilishi hisobiga quyi byudjetlarga dotatsiya, subvensiya, byudjet ssudalari va mablag'lari kelib tushganda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga biriktirilgan koddan foydalaniladi.

Hududiy tasnif (17 – 21 kodlar) kelib tushayotgan daromadlarning ushbu daromadlar shakllantirilayotgan yoxud o'tkazib berilayotgan tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi.

21.4. Byudjet xarajatlari tasnifini yuritish tartibi

Davlatning o'z funksiyalari va vazifalarini bajarishi bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan chiqimlar byudjet xarajatlari deyiladi. Bu chiqimlar davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag'larini turli yo'nalishlar bo'yicha foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Byudjet xarajatlari umumiy moliyaviy kategoriya bo'lgan byudjetning ko'rinishlaridan biri bo'lib, unga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlarga egadir, ya'ni ular taqsimlash xarakteriga ega, ifodalanishning pul shakli xos, pul fondlarining amal qilishi bilan bog'langan va davlat tomonidan tashkil qilinadi. Shu bilan birgalikda byudjet xarajatlari bir butunning o'ziga xos qismi bo'lganligi uchun ular davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag'laridan foydalanish va tegishli fondlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. Bu taqsimlash munosabatlarining moddiy-buyumlashgan shakli turli

sohalarga yo'naltirilayotgan byudjet mablag'larining harakatidan iborat.

Byudjet xarajatlarining iqtisodiy mohiyati uning turli-tuman ko'rinishlari (turlari) orqali namoyon bo'ladi. Xarajatlarning har bir turi esa o'zining miqdoriy va sifat xarakteristikasiga ega. Bunda ularning sifat xarakteristikasi voqelikning iqtisodiy tabiatini ifodalab, byudjet xarajatlarining mo'ljallanganligini, miqdoriy xarakteristika esa ularning o'lchamini (miqdorini, hajmini) aniqlashga imkon beradi.

Byudjetning barcha xarajatlari joriy xarajatlar va kapital xarakterdagi xarajatlardan iborat bo'ladi. Mablag'ning asosiy qismi joriy xarajatlarga to'g'ri keladi, ularga tovar va xizmatlarni sotib olish davlat xizmatchilarining ish haqi uchun ajratmalar, ichki qarzlar va davlatning tashqi qarzlarini to'lash va boshqalar kiradi. Kapital xarajatlarga asosiy fondlarga kapital qo'yilmalar, kapital qurilish, kapital ta'mirlash kiradi.

Joriy byudjet xarajatlari – bu mahalliy byudjet xarajatlarining bir qismi bo'lib, mahalliy boshqaruv organlari, byudjet tashkilotlari, davlat tomonidan byudjet va boshqa iqtisodiy subyektlarga joriy davrdagi faoliyatlari uchun dotatsiya, subvensiya va ssuda ko'rinishida mablag'lar ajratishdir. Bu xarajatlar barcha byudjet bo'g'inlarida asosiy o'rinni egallab kelgan.

Kapital xarajatlar – bu xarajatlar ham byudjet xarajatlarining bir qismi bo'lib, u korxonalar va tashkilotlarga investitsiya qilish, yangi korxonalar barpo etish, innovatsion faollikni oshirishga qaratilgan tabirlarni moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlardir. Boshqacha qilib aytganda, bu – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasiga investitsiya qilish, kapital ta'mirlashga, ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan boshqa xarajatlar hisoblanadi.

Davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyat organlari, shuningdek, boshqa byudjet tashkilotlari tomonidan ijro etiladigan asosiy vazifalar

bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi. Biz byudjet tashkiloti deganda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun davlat byudjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkilotini tushunamiz.

Xarajatlar moddasi – byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining iqtisodiy yo'nalishi va to'lovlarning aniq turlari bo'yicha belgilovchi byudjet tasnifining bir qismi.

Jamiyatning iqtisodiy hayotida byudjet xarajatlarining roli va ahamiyatini aniqlash uchun ularni ma'lum belgilarga ko'ra turkumlashtirish maqsadga muvofiq. Nazariya va amaliyotda byudjet xarajatlarini tasniflashning bir necha belgilari mavjud. Ular o'zlarining iqtisodiy mazmuni, funkcionalligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli, ishlab chiqarish tarmoqlari va faoliyat turlari yoki idoraviy bo'linishi, ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha, hududiy turkumlanishi, ma'lum maqsadlari va yuridik nuqtai-nazardan yoki davlat boshqaruvi darajasiga ko'ra alohida guruhlarga ajratilishi mumkin.

Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari: Davlat byudjetining xarajat qismi tarkibida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar byudjetlarining va Toshkent shahri byudjetining zaxira jamg'armalari hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 13-bobi, 69-moddasida Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibida Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi keltirilgan.

Byudjet xarajatlarining yuqoridagi tartibda tasniflanishi ijtimoiy hayotning turli jabhalarida davlatning rolini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 22-moddasida Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifiga tarif berilgan. Unga ko'ra byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifi byudjet tizimi

byudjetlari xarajatlarini kodlashdan iborat bo'ladi va ularning yo'nalishini aks ettiradi.

Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari tasnifining tuzilmasi quyidagilardan iborat:

✓ byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi;

✓ vazifa jihatidan tasnif;

✓ tashkiliy tasnif;

✓ iqtisodiy tasnif;

✓ hududiy tasnif.

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi amalga oshirilayotgan xarajatlarning tegishli mablag'lar manbalari va byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo'llaniladi. Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi davlat funksiyalarini bajarish uchun mablag'lar yo'nalishini aks ettiruvchi xarajatlarni guruhlashdir. Xarajatlarning tashkiliy tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining mablag'larini taqsimlovchilar bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi. Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi xarajatlarni iqtisodiy yo'nalishiga ko'ra kodlashdan iborat bo'ladi. Hududiy tasnif byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.


O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 23-moddasida byudjet tizimi byudjetlarining iqtisodiy belgilar bo'yicha xarajatlari keltirilgan. Unga ko'ra byudjet tizimi byudjetlarining iqtisodiy belgilar bo'yicha xarajatlari quyidagi xarajatlar guruhlarini o'z ichiga oladi (21.6-rasm).

Xarajatlar guruhlari bo'yicha aniq moddalar byudjet tasnifiga muvofiq belgilanadi.²¹²

Xarajatlarning I va II guruhlarini respublika va mahalliy byudjetlardan xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash) smetalarga va byudjet

²¹² O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 2013 yil 26 dekabr. O'RQ №360-son.

xarajatlari ro'yxatlariga, ularga kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda, shuningdek oldingi hisobot davri uchun belgilangan baholash ko'rsatkichlarining bajarilishiga muvofiq har oyda amalga oshiriladi.



216-rasm. Byudjet tizimi byudjetlarining iqtisodiy belgilar bo'yicha xarajatlari guruhleri²¹³

Kapital qo'yimlarni va boshqa xarajatlarni moliyalashtirish (to'lash) byudjetga mablag'lar tushishiga qarab har oyda amalga oshiriladi.

G'azna ijrosiga o'tmagan byudjet tashkilotlari xarajatlarini:

– respublika byudjetidan mablag' bilan ta'minlash (to'lash) – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida belgilangan shakldagi maqsadli sertifikat (unda byudjet tasnifnomasi paragraflari va xarajatlar guruhlarini ko'rsatgan holda) va xarajatlarning har bir guruhi bo'yicha bir satrda mablag' o'tkazish uchun to'lov qog'ozi bilan rasmiylashtiriladi;

²¹³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" №414-sonli Qarori. 03.09.1999.

– mahalliy byudjetlardan mablag‘ bilan ta‘minlash (to‘lash) – topishli moliya organlarida belgilangan shakldagi tayinlash sertifikatini va xarajatlar ning har bir guruhi bo‘yicha bir satrda mablag‘ o‘tkazish uchun to‘lov qog‘ozi bilan rasmiylashtiriladi

Xarajatlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko‘rinishga ega:

Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining manbalari va darajalari tasnifi				Vazifa jihatdan tasnif			Tashkiliy tasnif	Iqtisodiy tasnif			Hududiy tasnif	
X	XXX	X	X	X	XXX	XXX	XXX	XX	XX	XXX	XX	XXX

(23-band O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2014 yil 20 fevraldagi 11-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2146-3, 17.03.2014 y.) tahririda – O‘R QHT, 2014 y., 12-son, 140-modda)

Xarajatlar odatda ma‘muriy, iqtisodiy va funksional tasnifga ko‘ra qayd qilinadi. har bir operatsiyaning byudjet kodi ushbu operatsiya bilan bog‘liq barcha kerakli ma‘lumotlarni taqdim qilishi kerak. Masalan xarajatlar sinfining uchta asosiy tasnifi, sakkizta tasnifosti sinflari (nomi, bo‘limi va boshqalar), shu bilan birga o‘n uchta belgilari mavjud. Bir mamlakatdagi bu tasnifosti sinflariga tayinlangan nomlar boshqa bir mamlakatda farq qilishi mumkin²¹⁴.

DMBAT tatbiq etilguniga qadar xarajatlar smetasini va xarajatlar smetasi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni (Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni qo‘shgan holda) tuzishda “Vazifa jihatdan tasnif”, “Tashkiliy tasnif” va “Iqtisodiy tasnif” kodlari qo‘llaniladi.

Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi xarajatlarni iqtisodiy yo‘nalishiga ko‘ra kodlashdan iborat bo‘ladi.

²¹⁴ “Budget Classification” Davina Jacobs, Jean-Luc Héris, and Dominique Bouley. December 2009. International Monetary Fund Fiscal Affairs Department Washington, DC.USA

Iqtisodiy tasnif

Kodlar			Nomi
40	00	000	XARAJATLAR
41	00	000	ISHChILAR MEHNATIGA HAQ TO'LASH
41	10	000	Ish haqi
41	11	000	Pul shaklidagi ish haqi
41	11	100	Asosiy ish haqi
41	11	200	Ish haqiga ustama va qo'shimcha to'lovlar
41	11	210	Umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning Direktor jamg'armasi mablag'lari
41	11	220	Tibbiyot tashkilotlari xodimlariga ustama va qo'shimchalar
41	20	000	Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar
41	21	000	Ijtimoiy ehtiyojlarga haqiqatda qilinadigan ajratmalar/badallar
41	21	100	Yagona ijtimoiy to'lov
41	21	200	Ijtimoiy ehtiyojlarga boshqa ajratmalar/badallar
41	22	000	Shartli hisoblanadigan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar
42	00	000	TOVAR VA XIZMATLAR BO'YICHA XARAJATLAR
42	10	000	Xizmat safarlari xarajatlari

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi (1–6 kodlar) amalga oshirilayotgan xarajatlarning qaysi mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasiga (tegishli byudjet darajasiga, davlat maqsadli jamg'armasi turiga va sh.k.) mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Vazifa jihatdan tasnif (7–13 kodlar) barcha byudjet darajalari xarajatlari guruhlanishini o'zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funksiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni yo'naltirilishini aks ettiradi.

Vazifa jihatdan tasnif ikki darajadan iborat:

Vazifa jihatdan tasnifning birinchi darajasi (bo'limlar) davlatning asosiy vazifasini bajarish uchun moliyaviy resurslarning yo'nalishini aks ettiradi. Kichik bo'limlar vazifa jihatdan tasnifning ikkinchi

darajasi hisoblanib, davlat vazifalarining bajarilishida byudjet mablag'larining bo'limlar doirasidagi yo'nalishini aniqlashtiradi.

Vazifa jihatdan tasnif

Kodlar			Xarajatlar
7	000	000	JAMI XARAJATLAR
7	010	000	UMUMIY AHAMIYATDAGI DAVLAT XIZMATLARI
7	011	000	Ijro etuvchi va qonunchilik organlari, byudjet – moliyaviy masalalar, xalqaro munosabatlar
7	011	100	Davlat vakillik organlari, qonunchilik hokimiyati organlari faoliyati
7	011	101	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini saqlash xarajatlari
7	011	102	Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesini saqlash xarajatlari
7	011	104	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining va Senat a'zolarining faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar
7	011	105	Oliy Majlis palatalarining majlisga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar
7	011	107	Hokimiyat vakillik organlari faoliyati bilan bog'liq boshqa xarajatlar
7	011	200	Davlat hokimiyati organlari faoliyati
7	011	201	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti apparatini saqlash xarajatlari
7	011	202	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini saqlash xarajatlari
7	011	203	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashini saqlash xarajatlari
7	011	204	Viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) hokimiyatlarini saqlash xarajatlari
7	011	209	Boshqa toifalariga kiritilmagan davlat hokimiyati organlarining faoliyatini ta'minlovchi boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari
7	011	300	Byudjet-moliyaviy masalalar
7	011	310	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalarini saqlash xarajatlari

Vazifa jihatdan tasnifning kichik bo‘limlarining tuzilishi davlatning asosiy vazifalarini aniqlashtirish tamoyiliga asosan qurilgan.

Vazifa jihatdan tasnifning kodi 7 ta raqamdan iborat bo‘lib, shundan 4 ta raqam – bo‘lim, 3 ta raqam esa – kichik bo‘limdir.

Vazifa jihatdan tasnifning bo‘limlari va kichik bo‘limlari yagona bo‘lib, byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini tuzishda, tasdiqlashda va ijro qilishda foydalaniladi.

Masalan:

7 011 000 “Ijro etuvchi va qonunchilik organlari, byudjet–moliyaviy masalalar, xalqaro munosabatlar” bo‘limi bo‘yicha davlat vakillik organlari, qonunchilik hokimiyati organlari, davlat hokimiyati organlari, fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatiga qilinadigan xarajatlar, byudjet-moliyaviy masalalarga, xalqaro faoliyatga, zaxira jamg‘armalari va boshqa umumdavlat boshqaruvi organlariga xarajatlar aks ettiriladi.

7 011 100 “Davlat vakillik organlari, qonunchilik hokimiyati organlari faoliyati” kichik bo‘limi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengisini saqlash xarajatlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining va Senati a‘zolarining faoliyatini ta‘minlash, Oliy Majlis palatalarining majlisiga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar, shuningdek davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati bilan bog‘liq boshqa xarajatlar aks ettiriladi.

Iqtisodiy tasnif byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarini xo‘jalik belgilariga, ishlab chiqarish elementlariga ko‘ra farqlashni nazarda tutadi, davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib byudjet xarajatlari yo‘nalishlarini belgilab beradi. Iqtisodiy tasnifning tuzilmasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

Toifa	Modda va kichik modda	Element
XX	XX	XXX

Iqtisodiy tasnif toifalar, moddalar va kichik moddalar kodlarini o‘z ichiga olgan 7 raqamdan iborat.

- toifa – 2 ta raqam;
- modda – 1 ta raqam;
- kichik modda – 1 ta raqam;
- element – 3 ta raqam.

Masalan:

41 00 000 “Ishchilar mehnatiga haq to‘lash” toifasi mehnat qonunchiligiga muvofiq byudjet tashkilotlari ishchilariga bajargan (bajarilayotgan) ishiga pul yoki natura ko‘rinishida taqdirlash lozim bo‘lgan xarajatlarni aks ettiradi. Mazkur toifaga ijtimoiy sug‘urta dasturiga ishchilar nomidan ish beruvchilarning amalga oshiradigan “Ish haqi” (41 10 000) va “Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar” (41 20 000) moddalari kiradi.

41 11 100 “Asosiy ish haqi” elementi – bu O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy bitimlari bo‘yicha jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to‘lanadigan to‘lovlar hisoblanib, predmeti ish bajarish va xizmat ko‘rsatish bo‘lib hisoblanadi, shu jumladan:

✓ to‘lovlar: lavozim maoshlari, yagona tarif setkasi bo‘yicha tarif stavkalari, soatbay haq to‘lash, harbiy va maxsus unvonlar bo‘yicha;

✓ mukofotlar, moddiy yordamlar, yillik ish yakunlari bo‘yicha taqdirlash, mualliflik, ijrochilik va postanovka uchun mukofotlar va boshqa mukofot va rag‘batlantirish to‘lovlari;

✓ yillik mehnat ta‘tillari, o‘quv ta‘tillari, foydalanilmagan ta‘til uchun kompensatsiya to‘lovlari;

✓ xodimlarning kasbiy tayyorgarlik, malaka oshirish, yoki boshqa kasblarga o‘rganish davri uchun, tibbiy tekshiruv kunlari, qon topshirish va donor-xodimlarga taqdim qilinadigan dam olish davri,

davlat yoki jamoat majburiyatlarini bajarishda ishtirok etish kunlari uchun to'lovlar;

✓ malakaviy razryad (martaba darajasi, diplomatik martaba, malakaviy klass);

✓ davlat va boshqa xizmatlarning o'ziga xos shartlari;

✓ uzoq xizmat muddati uchun;

✓ qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsientlar bo'yicha to'lovlar);

✓ maxfiylik darajasiga ega bo'lgan ma'lumotlar bilan ishlaganlik;

✓ shifr ishi xavfsizligi;

✓ maxsus rejimdagi ishlar;

✓ davlat siri bilan ishlash huquqi;

✓ o'ziga xos sharoit;

✓ dotsent va professor lavozimlari;

✓ ilmiy unvon;

✓ ilmiy daraja;

✓ tungi vaqtda, bayram va dam olish kunlarida ishlaganlik uchun va boshqa ustamalar;

✓ boshqa shunga o'xshash xarajatlar.

Hududiy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning ushbu daromadlar shakllantirilayotgan yoxud o'tkazib berilayotgan tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'i bilan Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 martdagi PQ-2847-son "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2010 yil 20 avgustdagi 65-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2146, 2010 yil 11 oktyabr)

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010 y., 40-41-son, 156-modd) bilan tasdiqlangan Byudjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. 2017 yil 24 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 169-son buyrug‘iga muvofiq Byudjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Hududiy tasnif

Kod		Nomi
Hudud	Tuman/shahar	
03	000	Andijon viloyati
06	000	Buxoro viloyati
08	000	Jizzax viloyati
10	000	Qashqadaryo viloyati
12	000	Navoiy viloyati
14	000	Namangan viloyati
18	000	Samarqand viloyati
22	000	Surxondaryo viloyati
24	000	Sirdaryo viloyati
26	000	Toshkent shahri
27	000	Toshkent viloyati
30	000	Farg‘ona viloyati
33	000	Xorazm viloyati
35	000	Qoraqalpog‘iston Respublikasi

21.5. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi

Davlat byudjeti taqchilligi – muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo‘lishini taqozo qiladi. Lekin ko‘pchilik hollarda davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi kuzatiladi, buning oqibatida

byudjet taqchilligi tez sur'atlar bilan o'sadi. Bu holning sabablari ko'p bo'lib, ularning ichida, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi alohida o'rin tutadi. Byudjet taqchilliganing o'zgarishi xo'jalik konyukturalariga joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va rsjlanishlarni ham aks ettiradi, krizislar davrida davlat byudjetga mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sektorlari ishlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda, investitsiyalar hajmini saqlab turishga majbur bo'ladi. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash) ning muhim sharoiti davlat krediti bo'lib chiqadi.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari turlari.


Byudjet taqchilligi vaqtinchalik hisoblanadi, agarda uni zabt etish uchun imkoniyatlar va sharoitlar yetarli bo'lsa. Jaxon tajribasida iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi sharoitida passiv byudjet taqchilligi YaIMga nisbatan 2-3 % bilan chegaralanadi, milliy daromadga- 5%, byudjetnin xarajatlar qismiga nisbatan – 8-10%.

Davomiyligiga ko'ra byudjet taqchilligi surunkali va vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Surunkali byudjet taqchilligi yildan yilga uzoq davr mobaynida yuzaga keladi va "qiyin davolanadigan" hisoblanadi.

Uning paydo bo'lishining asosiy sabablari bo'lib iqtisodiy krizisning uzoq muddatli sikli, uzoq davom etadigan urushlar, favqulotda hodisalar, tinch davrda harbiy sohaga haddan ziyod xarajatlar va boshqa shu kabi sabablar bo'lishi mumkin.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari turlari.

Byudjet taqchilligi vaqtinchalik hisoblanadi, agarda uni zabt etish uchun imkoniyatlar va sharoitlar yetarli bo'lsa. Jaxon tajribasida iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi sharoitida passiv byudjet taqchilligi YaIMga nisbatan 2-3 % bilan chegaralanadi, milliy daromadga- 5%, byudjetnin xarajatlar qismiga nisbatan – 8-10%.



21.7-rasm. Byudjet taqchilligining vujudga kelishidagi eng umumiy sabablari²¹⁵

²¹⁵ Qosimova G.A. Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta'minlash: O'quv qo'llanma. T.: Fan va texnologiya. 2007.

Davomiyligiga ko'ra byudjet taqchilligi surunkali va vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Surunkali byudjet taqchilligi yildan yilga uzoq davr mobaynida yuzaga keladi va "qiyin davolanadigan" hisoblanadi. Uning paydo bo'lishining asosiy sabablari bo'lib iqtisodiy krizisning uzoq muddatli sikli, uzoq davom etadigan urushlar, favqulotda hodisalar, tinch davrda harbiy sohaga haddan ziyod xarajatlar va boshqa shu kabi sabablar bo'lishi mumkin. Surunkali byudjet taqchilligidan farqli o'laroq vaqtinchalik taqchillik unchalik xavfli va bartaraf etish juda ham mushkul hisoblanmaydi.

Uning davomiyligi bir necha oyga teng bo'lishi mumkin. Uning asosida qoidaga ko'ra iqtisodiyotdagi chuqur bo'lmagan krizis hodisalari yotadi, balki bir qator obyektiv (tabiiy ofatlar va boshqalar) va subyektiv (rejalashtirish va bashorat qilishdagi xatolar, jaxonda tovar va fond bozorlaridagi narxlarning tebranishi va boshqalar) sabablar hisoblanadi.

Byudjet taqchilligini yana bir qator kriteriyalar bo'yicha turlarga bo'lishimiz mumkin. Vujudga kelish xarakteriga qarab byudjet taqchilligini tasodifiy va haqiqiy bo'lishi mumkin. Tasodifiy (kassaviy) byudjet taqchilligi daromadlarni tushishi va xarajatlarni amalga oshirilishidagi vaqtinchalik uzilishlarida paydo bo'ladi. Tasodifiy byudjet taqchilligi asosan mahalliy byudjetlarga xos, chunki ular ko'pincha yagona moliyalashtirish manbasiga bo'g'liq bo'ladilar. Haqiqiy byudjet taqchilligi byudjet daromadlarining o'sishi byudjet xarajatlari o'sishidan ortda qolishi sababli vujudga keladi. Shunday qilib byudjet taqchilligi – bu tasodifiy hodisa emas, u iqtisodiyotni rivojlanishida qator faktorlar orqali siklli jarayonlarda vujudga keladi.

Byudjet barqaroqligini ta'minlash va byudjet taqchilligiga yo'l qo'ymaslikning asosiy yo'nalishlaridan biri bu byudjetni to'g'ri rejalashtirish hisoblanadi. Byudjet barqaroqligiga erishish uchun byudjetni rejalashtirishda qator usullar qo'llaniladi:

1. Byudjet xarajatlarini limitlash, aniqrog'i har bir byudjet muassasasi uchun har bir xarajat turi bo'yicha chegara miqdorini belgilash;

2. Turli darajadagi byudjetlar o'rtasida daromadlarni ularning xarajatlar vakolatiga muvofiq taqsimlash;


3. Byudjet tashkilotlari faoliyatlarini monitoring qilish asosida byudjet daromadlarini maksimallashtirish bo'yicha tadbirlar va qo'shimcha manbalar aniqlash;

4. Byudjetlararo munosabatlar sohasida byudjetni tartibga solishni modernizatsiya qilish;

5. Iqtisodiyotni rag'batlantirish va ijtimoiy muammolarni samarali hal etish hisobiga daromadlarni o'sish imkoniyatlariga olib keluvchi byudjet xarajatlarini rejalashtirish;

6. Xarajatlarni iqtisod qilish tamoyiliga amal qilish, jamiyat ravnaqi nuqtayi nazaridan muhim bo'lmagan xarajatlardan voz kechish.


Ko'plab rivojlangan davlatlarda byudjet taqchilligini moliyalashtirishning quyidagi asosiy usullaridan foydalanishadi:



21.9-rasm. Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning asosiy usullari

Yuqoridagi rasmdan ko'rishimiz ham mumkin byudjet taqchilligini moliyalashtirishda pul-kredit emissiyasi, davlatning ichki yoki tashqi qarzlari evaziga, shuningdek davlat byudjetiga to'lanayotgan soliqlar

stavkasini oshirish, hamda davlat mulkini xususiylashtirish yoki sotishdan tushgan daromadlar evaziga qoplanishi mumkin.



21.10-rasm. Byudjet taqchilligini qoplash manbalari

Amaliyotda byudjet taqchilligini qoplash manbalari asosan ikki turga bo'linadi (21.10-rasm).

O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan kreditlarni (qarzlarni) qaytadan kreditlashda kredit (qarz) bo'yicha xizmat ko'rsatish yuzasidan ehtimoldagi tavakkalchiliklarni qoplashda foydalanish uchun jalb qilinayotgan kredit (qarz) stavkasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda O'zbekiston Respublikasi marjasi belgilanishi mumkin. Kredit (qarz) bo'yicha qarzdorlik to'liq to'langan taqdirda kredit (qarz) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi marjasining foydalanilmay qolgan summasi O'zbekiston Respublikasi byudjetining daromadiga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasining davlat kafolati qarz oluvchi-rezident o'zidan undiriladigan summani qarz (kredit) bo'yicha bitimlarda belgilangan muddatda to'lamagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining qarz beruvchi oldidagi qarzni to'liq yoki qisman to'lab berish majburiyatidir.

O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari qarz beruvchilarga qarz oluvchi-rezidentlar o'zi olgan kreditlar (qarzlarni) bo'yicha majburiyatlarni bajarishining ta'minoti sifatida beriladi. Jismoniy shaxslarning majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari berilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini rasmiylashtirish bo'yicha vakolatli organdir.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining berilgan davlat kafolatlari bilan shart qilib qo'yilgan to'lovlarni amalga oshirgach, amalga oshirilgan to'lovlar va ular bilan bog'liq xarajatlar summasini qarz oluvchi-rezidentdan so'zsiz undirib olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini rasmiylashtirish, taqdim etish, ro'yxatdan o'tkazish va ular bo'yicha majburiyatlarni

bajarish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 156-moddasida O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlariga tarif berib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat qimmatli qog'ozlarini chiqaradi. Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish va ularning cheklangan hajmi to'g'risidagi qaror belgilangan tartibda qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan emissiya qilingan davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishda;

- davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha qiymatni, foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lashda;

- davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirishda fiskal agent sifatida ishtirok etishi mumkin.

Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarishdan olingan tushumlar Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbaidir.

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishning tashqi manbalarini tasniflash O'zbekiston Respublikasi hukumatining xalqaro moliya institutlari, hukumatlar va xorijiy mamlakatlar moliya bozorlaridan jalb qilinayotgan qarz mablag'larini guruhlashdan iborat.

Iqtisodiy adabiyotlarda, byudjet taqchilligining quyidagi shakllari farqlanadi:

- tarkibiy byudjet taqchilligi – hukumatning iqtisodiy rivojlanishini amalga oshirish maqsadida davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni pasaytirish choralarining qo'llanilishi natijasida yuzaga keladigan taqchillik bo'lib, u ijtimoiy jarayonlar inqirozining ifodasi emas, balki davlatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish tarkibida ilg'or siljishlarni amalga oshirishi natijasidir.

- davriy byudjet taqchilligi – ishlab chiqarishning tsikli davriy natijasida kelib chiqadigan va iqtisodiyotdagi inqiroz holatlarini,

hukumatning moliyaviy holatni nazorat qila olmasligini ifoda etadigan taqchillik.

Byudjet taqchilligi vujudga kelishining eng umumiy sabablari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- yirik davlat kapital quyilmalarini amalga oshirishning zarurligi;
- byudjet mexanizmining to'g'ri tashkil etilmaganligi va boshqa sabablar.

- moliya-kredit munosabatlarining yetarli darajada samarali emasligi;

- ishlab chiqarish samaradorligining pastligi;
- tashqi iqtisodiy aloqalarning samarasizligi;
- byudjet xarajatlari tarkibining real jarayonlarga nomutanosibiligi;
- qarzlار evaziga xarajatlarning salmoqli qismini moliyalashtirish.

Davlat byudjeti defitsitining YaIMga nisbatan 3%gacha bo'lishi, boshqarish mumkin bo'lgan defitsit hisoblanib, moliya-kredit tizimiga va iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.


Shunday bo'lsa-da, moliya yili yakuniga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan byudjet taqchilligini qoplash manbalari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ko'zda tutiladi. "O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ga muvofiq byudjet taqchilligini moliyalashtirish quyidagicha tasniflanadi.

Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi. Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi ularni ichki va tashqi manbalar bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi. Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishning ichki manbalarini tasniflash O'zbekiston Respublikasi hukumati, respublika ijroiya organlari tomonidan mamlakatning moliya bozoridan jalb qilinayotgan qarz mablag'larini guruhlashdan iborat.


O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 24-moddasida Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi keltirilgan. Unga ko'ra davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi ularni ichki va tashqi manbalar bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi.

Davlat byudjeti taqchilligi:

- O'zbekiston Respublikasi byudjeti mablag'larining moliya yili boshidagi qoldiqlari;
- davlat tomonidan mablag' jalb qilish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.



12-rasm. Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi²¹⁶



21.13-rasm. Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi²¹⁷

²¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. 2013 yil 26 dekabr. 360-son O'RQ.

²¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. 2013 yil 26 dekabr. 360-son O'RQ.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kreditlarini Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbasi sifatida jalb qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat byudjetining daromadlari uning xarajatlaridan ortishi davlat byudjeti profitsitidir.

Davlat byudjeti profitsiti faqat davlat byudjeti bo'yicha aniqlanadi.

Davlat byudjeti **taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi** taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat (50 va 51-bo'limlar). Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishning **ichki manbalarini** tasniflash O'zbekiston Respublikasi hukumati, respublika ijroiya organlari tomonidan mamlakatning moliya bozorida jalb qilinayotgan qarz mablag'larini guruhlashdan iborat (1-jadval).

Bo'lim	Paragraf	Nomi
50	X	Moliyalashtirishning ichki manbalari
	1	Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan olingan mablag'lar
	2	Markaziy bank kreditlari
	3	Davlat mulkini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishdan olingan mablag'lar
	4	O'zbekiston Respublikasi byudjeti mablag'lari qoldig'i
	5	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari qoldig'i
	6	Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari qoldig'i
	7	Yo'l jamg'armasi mablag'lari qoldig'i
	8	Davlat mulki qo'mitasining maxsus hisobraqami mablag'lari
	9	Boshqa ichki manbalardan mablag' jalb etish

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishning **tashqi manbalarini** tasniflash O‘zbekiston Respublikasi hukumatining xalqaro moliya institutlari, hukumatlar va xorijiy mamlakatlar moliya bozorlaridan jalb qilinayotgan qarz mablag‘larini guruhlashdan iborat (2-jadval).

Bo‘lim	Paragraf	Nomi
51	x	Moliyalashtirishning tashqi manbalari
	1	Davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishdan olingan mablag‘lar
	2	Xalqaro moliya institutlarning, tashkilotlarning kreditlari
	3	Xorijiy davlatlar kreditlari
	4	Boshqa tashqi manbalardan mablag‘ jalb etish

50-bo‘lim “Ichki manbalar” quyidagi paragraflardan tashkil topgan:

501 “Davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar”;

503 “Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar”;

504 “O‘zbekiston Respublikasi byudjeti mablag‘larining moliya yili boshidagi qoldiqlari”;

505 “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining qoldig‘i”;

506 “O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘larining qoldig‘i”;

507 “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘larining qoldig‘i”;

508 “Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar jamg‘armasi mablag‘lari”;

509 “Boshqa ichki manbalardan jalb qilinadigan mablag‘lar”.

51-bo‘lim «Tashqi manbalar» quyidagi paragraflardan tashkil topgan:

511 “Davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar”;

512 “Xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar kreditlari»;

513 “Xorijiy davlatlar kreditlari”;

514 “Boshqa tashqi manbalardan jalb qilinadigan mablag‘lar”.

Davlat byudjeti ijrosida qatnashuvchi barcha organlarda davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarini hisobga olish asosida byudjet tasnifi yotadi. Byudjet tasnifi davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma‘lumotlarini bir tizimga solish uchun foydalanish va u byudjet ma‘lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma‘lumotlari bilan qiyoslanishini ta‘minlash maqsadida davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlash hisoblanadi. Byudjet tasnifi hamma byudjetlarni bir yagona davlat byudjetiga jamlash imkoniyatini yaratadigan asosiy tashkiliy funksiyasini amalga oshirishuvchi hujjatgina bo‘lib qolmay, u katta iqtisodiy ahamiyatga ham egadir. Tasnifda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari bir xil alomatlari bo‘yicha guruhlanadi va ular bo‘linmalar deb yuritiladi. Bo‘limlar, paragraflar, boblar va moddalar byudjet tasnifi bo‘linmalari hisoblanadi. Byudjet tasnifi qonunchilikda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Turli darajadagi byudjetlar yagona byudjet tasnifi ko‘rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi, ya‘ni tasnif obyektlariga berilgan guruhlashtirish kodlari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar guruhlanadi.

21.6. G‘aznachilik tizimida byudjet tasnifining qo‘llanilishi

Ma‘lumki, byudjet qurilishi mamlakatning davlat byudjeti va byudjet tizimini, uning bo‘g‘inlari o‘rtasidagi byudjetlararo munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimiga

kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjet mablag‘larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.

2007 yildan boshlab respublikaning barcha hududlarida davlat byudjetining g‘azna ijrosi elementlari joriy etildi, davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga ko‘ra barcha guruhlar bo‘yicha ijrosi g‘aznachilik bilan qamrab olindi.

2011 yildan boshlab yangi byudjet tasnifiga asoslangan, davlat byudjeti g‘azna ijrosini amalga oshirishga xizmat qiluvchi G‘aznachilik dasturiy majmui ishga tushirildi. Hozirgi kunda G‘aznachilikning yagona axborot tizimi yaratilgan bo‘lib, “Davlat mablag‘larini boshqarishning axborot tizimi” (DMBAT) deb ataladi. Byudjet operatsiyalari bo‘yicha kodlashtirilgan va tasniflangan ma‘lumotlar DMBAT ga avtomatik ravishda yuklanadi, bu esa daromadlarni tasniflar, hududiy belgilari, byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlar bo‘yicha aniqlash imkonini beradi. Davlat byudjeti g‘azna ijrosining buxgalteriya hisobi G‘aznachilik tomonidan, shuningdek, davlat soliq va bojxona xizmati organlari, byudjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan davlat byudjetining g‘azna ijrosi buxgalteriya hisobining yagona hisoblar rejası va byudjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. G‘aznachilik belgilangan byudjet tasnifiga muvofiq, barcha davlat tushumlarini ularning aniq ro‘yxati bo‘yicha yagona g‘azna hisobraqamida yuritilishini ta‘minlaydi.

G‘aznachilikda Yuridik va moliyaviy majburiyatlar byudjet tasnifining turi bo‘lgan iqtisodiy tasnif kodlari bo‘yicha byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan qabul qilinadi hamda G‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziadi. G‘aznachilik tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng ularning to‘lovi amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 7-moddasida qayd etilgan *byudjet tizimining yagonaligi* tamoyiliga muvofiq, barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish va ijro etishda yagona byudjet tasnifi qo‘llaniladi. Barcha darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tasniflash obyektlariga tegishli raqam(kod)lar berish bilan guruhlanadi hamda tasnif ko‘rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi.

Byudjet tasnifi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari hamda ulardan mablag‘ oluvchi tashkilotlarga qo‘llaniladi hamda davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro qilish, shuningdek davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash maqsadida foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”ga muvofiq, yangi byudjet tasnifi 2011 yil 1 yanvardan amalga kiritildi.

Ushbu yo‘riqnomaga ko‘ra, *byudjet tasnifi* O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarining guruhlanishi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- davlat byudjeti daromadlarining tasnifi;
- davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifi;
- davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.

Byudjet tasnifi davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma‘lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va byudjet ma‘lumotlarining xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma‘lumotlari bilan qiyoslanishini ta‘minlaydi.

Davlat mablagʻlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarining buxgalterlik hisobini bank tizimidan gʻaznachilikka oʻtkazilishi bilan, barcha operatsiyalar yagona gʻaznachilik tizimining Bosh kitobida aks ettiriladi. Ushbu Bosh kitobdagi hisobraqamlar barcha xarajatlarning hisobi, byudjet tashkilotlarini qamrab oladi, ularning yagona byudjet tasnifini va byudjet mablagʻlagʻlarining sarf qilinishini barcha jarayonlari aks ettirilishi kerak. Bunda konsolidatsiyalashgan byudjetni ijro qilish maqsadida va davlat moliyasi bilan qilinadigan barcha jarayonlarni oʻz vaqtida va aniq hisobini qilish uchun gʻaznachilikning hisob-kitob schyotlari davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining tasnif tizimiga mos kelishi kerak boʻladi. Gʻaznachilik tizimi samarali faoliyat qilishi un byudjet daromadlari va xarajatlarining mukammal ishlab chiqilgan funksional va iqtisodiy tasnifi boʻlishi lozim. Davlat mablagʻlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini bank tizimidan Gʻaznachilikka oʻtkazilishi bilan barcha operatsiyalar yagona Gʻaznachilik tizimining Bosh kitobida aks ettiriladi. Bunda konsolidatsiyalashgan byudjetni ijro etishda, davlat moliyasi bilan amalga oshiriladigan barchajarayonlarni oʻz vaqtida va aniq hisobini yuritishda Gʻaznachilikning hisob-kitob schyotlari daromadlari va xarajatlarining tasniflash tizimiga mos kelishi kerak boʻladi. Bundan tashqari Gʻaznachilikning maʼlumotlar bazasida maʼlumotlar byudjet tasnifiga asosan guruhlanadi.

Gʻaznachilikning Bosh kitobi gʻaznachilik ijrosida buxgalteriya hisobini yuritish uchun ishlab chiqilgan. Buxgalteriya hisobi mahalliy byudjetlarni ijrosida barcha hisoblarni inobatga oladigan, yaʼni barcha daromadlar va xarajatlarning moliyaviy oqimlarini, bundan tashqari barcha moliyaviy va nomoliyaviy qoldiqlarni hisobini ham yuritadi. Gʻaznachilikning Bosh kitobidan tashqari, gʻaznachilikning maʼlumotlar baʼzasida barcha maʼlumotlar byudjet tasnifiga asosan quyidagi tarzda boʻladi:

Daromadlarni boshqarishda soliq to'lovchi soliq to'lash haqida to'lov topshiriqnomasini to'ldiradi, bevosita Yagona g'aznachilik hisobraqamiga o'tkazadi. Daromadlar uchun to'ldirilgan topshiriqnomada to'lov turi va yo'nalishi iqtisodiy tasnif bo'yicha ko'rsatilishi kerak.

– Markaziy bank G'aznachilikning Bosh Boshqarmasiga Yagona g'aznachilik hisobraqamidan mablag' haqida ma'lumot jo'natadi.

– G'aznachilikning Bosh Boshqarmasi Markaziy bank bergan ma'lumot asosida belgilangan me'yorlar doirasida bu mablag'larni respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlaydi.

Daromad va xarajat qismini shakllantirish tartibi xalqaro andozalarga to'g'ri keladi. Bu esa turli mamlakatlar byudjet tizimlarini bir xillashtirib borishning zaruriy elementi bo'lib, moliyaviy masalalar bo'yicha xalqaro muzokaralarni ancha yengillashtirish imkonini beradi.

Demak, O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifi byudjet jarayonini harakatlantiruvchi muhim vositalardan biridir, shuningdek, Davlat va mahalliy byudjetning ma'lumotlarini umumlashtirish, ro'yxatga olish, yagona tizim asosida ma'lumotlarni to'plash kabi jarayonlarni o'z ichiga oluvchi byudjet tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. g'aznachilikda byudjet tasnifi va byudjet hisobining schyotlar rejasi axborotlarni qayta ishlash va moliya resurslarini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Byudjet xarajatlari orqali byudjet mablag'larini oluvchilar moliyalashtiriladi. Bu o'z navbatida olingan mablag'larni taqsimlovchi-ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tashkilotlari bo'lishi mumkin. Mahalliy byudjetlar orqali moliyalashtirilgan mablag'larni faqatgina tasnif bo'yicha qancha miqdordagi hajmini aniqlash mumkin, lekin bevosita tasnif bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish byudjet tashkilotlarining o'z zimmalariga yuklatilgan. Bundan tashqari, mahalliy byudjetga yoki shu byudjetdan bevosita boshqa vakolatli organlar orqali byudjet oluvchilariga dotatsiya, subvensiya va ssuda ko'rinishida mablag'lar

ajartilishi mumkin. Asosan bu tarzda mablag'lar qaytarilmaslik sharti bilan moliyalashtiriladi. Faqatgina byudjet kreditlari va byudjet ssudalari qaytarilishi shart.

Byudjet tasniflanishi - mahalliy byudjetlarning mustaqil faoliyat olib borishlari bilan birga, ularning yagona uslubiy me'yorga asoslangan qoidaga tayanib byudjetni tuzish va uni ijro etishda hamda turli sohalar bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash imkonini beradi. Mahalliy byudjet tasniflanishi orqali shu hududning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-hududiy ahvoli, daromadlarining shakllanishi va mablag'larning qayerga yo'naltirilayotganligi hamda ularning tarkibi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Mahalliy byudjet tasnifining asosiy talablaridan biri – daromad va xarajatlarni guruhlashtirishda ularning oshkoraligi va aniqligidir. Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijrosini amalga oshirishda turli xildagi byudjet tasnifidan foydalaniladi, chunki bir hududning o'zida turli darajadagi tarmoq va sohaga kiradigan byudjet tashkilotlari va boshqa korxonalar mavjud bo'lishi mumkin.

Mahalliy byudjet tasnifi ham byudjet jarayonini amalga oshirishda aniq tamoyillarga asoslanadi. Birinchi navbatda uning asosiy vazifasi byudjet mablag'larini samarali va tejab foylanishda, kam xarajat qilib ko'proq daromad keltirish yo'llarini izlab topishga qaratilishi lozim bo'ladi. Avvalo, bu yerda byudjet mablag'lari oluvchilarning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish davrida olingan mablag'larni byudjet parametrlari doirasida samarali va tejalgan holda xarajat qilishlari nazarda tutiladi.

Tasnif bo'yicha ajarilgan mablag'lar yetishmagan holda byudjet tashkilotlari o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo'shimcha mablag' topish yo'llarini izlashi kerak. Ajratilgan mablag'larni maqsadli ishlatilishi byudjet mablag'larini tasdiqlangan parametrlar doirasida ijro etish hisoblanadi. Agar byudjet mablag'larini oluvchilar o'zlariga birlashtirilgan ma'suliyatni bajarmasalar u holda amaldagi

qonun ujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri yoki mahalliy Moliya organining rahbari byudjet jarayonining hohlagan bosqichida moliyalashtirilishni to'xtashiga haqli. Maqsadsiz ravishda sarflangan mablag'lar xarajat qilinib yuborilganidan qat'iy nazar byudjetga qaytarilishi shart. Mahalliy byudjetlardagi ishtirok etuvchi barcha darajadagi byudjetlarning ichida asosiy ahamiyatga ega bo'lgan xarajatlar bu ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish hisoblanadi, ayniqsa, bu bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bizning mamlakatimizda juda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mahalliy byudjetlarni amaldagi davlat byudjeti tasnifi asosida mazmunini belgilash shuni anglatadiki, byudjet daromadlari va xarajatlarini elementlari bo'yicha guruhlashtirish, ular bo'yicha moliya resurslarini haqiqiy harakatini tasvirlab berishga va shu asnoda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etishiga ko'maklashadi.

Tasnif orqali byudjetning reja va hisobot ma'lumotlarini solishtirish va ularni tahlil etish ma'lum xulosalarni berish va takliflar ishlab chiqishga hamda pul resurslarini jamlash va qayta to'g'ri taqsimlashga xizmat qiladi. Daromad va xarajatlarni detallari bo'yicha guruhlashtirish byudjet ma'lumotlarini nazorat qilishni osonlashtiradi, turli darajadagi byudjetlar smeta xarajatlarini taqqoslash imkonini beradi.

Tasnif har bir byudjet oluvchilarining smeta xarajatlarini moddalari bo'yicha umumlashtirish va umumiy yig'ma smetani hosil qilishga yordam beradi. Ularni umumiy holda qayta ishlash va iqtisodiy tahlil qilishga sharoit yaratadi. Shuningdek, mablag'larni jamlash va ularni maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni olib borishda samarali foydalaniladi.

G'aznachilikda xududiy tasnif byudjet tashkilotlarining geografik joylashishi belgilash va ko'rsatish uchun foydalaniladi. Umuman olganda, tasnif daromad va xarajatning byudjet ijrosi bo'yicha hisobot ma'lumotlarini bir-biri bilan taqqoslaydi, shu orqali moliya intizomiga

rioya etilishi, mablag'larni tejamkorlik bilan sarflanishi va moliyaviy rejalarni to'g'ri bajarilishi bo'yicha nazoratni olib borilishini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, byudjet amaliyotida amalga oshirilayotgan tadbirlar amaldagi byudjet tasnifini ham takomillashtirishni taqozo etadi. G'aznachilik tizimi samarali faoliyat qilishi uchun byudjet daromadlari va xarajatlarining mukammal ishlab chiqilgan funksional va iqtisodiy tasnifi bo'lishi lozim. Davlat mablag'lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini bank tizimidan G'aznachilikka o'tkazilishi bilan barcha operatsiyalar yagona G'aznachilik tizimining Bosh kitobida aks ettiriladi. Bunda konsolidatsiyalashgan byudjetni ijro etishda, davlat moliyasi bilan amalga oshiriladigan barcha jarayonlarni o'z vaqtida va aniq hisobini yuritishda G'aznachilikning hisob-kitob schyotlari byudjet daromadlari va xarajatlarining tasniflash tizimiga mos kelishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, G'aznachilikning ma'lumotlar bazasida barcha ma'lumotlar byudjet tasnifiga asosan guruhlanadi.

21.7. O'zbekistonda byudjet tasnifidan foydalanish istiqbollari

Mamlakatimizda byudjet siyosatini takomillashtirishga qaratilgan faol ishlar olib borilmoqda, bu ishlar ajratilayotgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishni qisqartirishga yordam beradi. Mazkur vazifa dolzarb ahamiyatga ega. Byudjet mab'lag'laridan oqilona foydalanish to'g'risida ham muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday degan: *...Albatta, Davlat byudjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va okilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu - hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat.*²¹⁸

²¹⁸ *Shavkat Mirziyoyev*. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larini maqsadli ishlatilishini soddalashtirilgan nazorat turidan biri bu – byudjet tasnifidir.

Byudjet tasnifi deganda Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek ularning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashtirish tushuniladi.

Ma'lumki, byudjet qurilishi mamlakatning davlat byudjeti va byudjet tizimini, uning bo'g'inlari o'rtasidagi byudjetlararo munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjet mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 7-moddasida qayd etilgan byudjet tizimining yagonaligi tamoyiliga muvofiq, barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish va ijro etishda yagona byudjet tasnifi qo'llaniladi. Barcha darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tasniflash obyektlariga tegishli raqam(kod)lar berish bilan guruhlanadi hamda tasnif ko'rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi.

Byudjet amaliyotda qo'llanilayotgan byudjet tasnifi doimo o'zgartirilib va takomillashtirilib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining mustaqil byudjetini shakllantirishga qadar, byudjet xarajatlarini turkumlashtirishning besh xil usulidan foydalanilgan.

1. Ijtimoiy ishlab chiqarish sohalariga byudjet mablag'larini yo'naltirilishi bo'yicha-moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish soha xarajatlari.

2. Tarmoqlar bo'yicha byudjet mablag'larini yo'naltirilishi-sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va boshqalar.

3. Byudjet mablag'larini maqsadli yo'naltirilishi bo'yicha- joriy, rivojlantirish, qayta ta'mirlash xarajatlari.

eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza 2017 yil 14 yanvar. T.: O'zbekiston. 2017. 31- bet.

4. Tashkiliy belgilari bo'yicha-maqsadli dasturlar xarajatlari.

5. Boshqaruv organlarining xarajatlari bo'yicha-respublika va mahalliy byudjetlar xarajatlari.

Ko'rinib turibdiki, byudjet xarajatlarini iqtisodiy mohiyati ko'p-gina xarajatlarda o'z ifodasini topgan.


Davlat byudjeti ijrosida qatnashuvchi hamma organlarda davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarini hisobga olish asosida byudjet tasnifi yotadi. Byudjet tasnifi Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma'lumotlarini tizimga solish uchun foydalanish va u byudjet ma'lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlash maqsadida Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek ularning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlash hisoblanadi. Byudjet tasnifi hamma byudjetlarni yagona davlat byudjetiga jamlash imkoniyatini yaratadigan asosiy tashkiliy funksiyani amalga oshirishuvchi hujjat bo'libgina qolmasdan, u katta iqtisodiy ahamiyatga ham egadir. Tasnifda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari bir xil alomatlari bo'yicha guruhlashtiriladi va uning bo'linmalari deb yuritiladi. Bo'limlar, paragraflar, boblar va moddalar byudjet tasnifi bo'linmalari deb hisoblanadi.

Byudjet tizimining barcha darajalaridagi byudjetlari daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, ushbu byudjetlarning taqchilliklarini moliyalashtirish manbalari va davlat qarzi turlarini bir xil belgi bo'yicha qonunga muvofiq guruhlash bo'lib, undan byudjetlarni tuzish va ijro etishda tasnif obyektlariga guruh kodlarini berish orqali foydalaniladi. Tasnif barcha darajadagi byudjetlar ko'rsatkichlarining qiyosiylikini, ularni iqtisodiy va statistik tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Byudjet tasnifining ahamiyati shu bilan belgilanadiki, undan:

- ✓ davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etishda;
- ✓ byudjet mablag‘larining ajratilishi va ulardan foydalanilishini
- ✓ nazorat qilishda;
- ✓ turli darajadagi byudjetlarning ko‘rsatkichlarini bir-biri bilan taqqoslashda;
- ✓ barcha darajada jamlangan byudjet tizimini tuzishda foydalaniladi.

DMBAT to‘liq tatbiq etilguniga qadar xarajatlar smetasini va xarajatlar smetasi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni (davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni qo‘shgan holda) tuzishda “Xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifi”, “Tashkiliy tasnif” va “Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi” kodlari qo‘llaniladi.



21.3-rasm. Muhim tasniflash tizimlari

Byudjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Hamma darajadagi byudjetlar yagona byudjet tasnifi ko‘rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi, ya’ni tasnif obyektlariga berilgan guruhlashtirish kodlari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar guruhlashtiriladi.

Byudjet tasnifi:

1. Byudjet daromadlarining tasnifini;

2. Byudjet xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifini;
3. Byudjet xarajatlarining tashkiliy tasnifini;
4. Byudjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifini;
5. Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifini o'z ichiga oladi.

Soliq bazalarining kengayishi, soliq tizimiga o'zgartirishlar kiritilishi, yangi soliq turlarining joriy etilishi yoki amaldagi soliqlarning bekor qilinishi, shuningdek, davlat oldidagi vazifalarning o'zgarishi bilan byudjet xarajatlari tarkibining o'zgarishi amaldagi byudjet tasnifiga tegishli o'zgartirishlar kiritilishini taqozo etadi. Shu sababli byudjet amaliyoti taraqqiyotining ma'lum bosqichlariga kelib, mavjud byudjet tasnifnomasiga o'zgartirishlar kiritib turiladi. Byudjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Byudjet ko'rsatkichlarining milliy tasniflash tizimini ishlab chiqishda xalqaro tasniflash tamoyillariga rioya qilinishi kerak.

Bunda byudjet tashkiliy birliklar, bo'limlar, qismlar hamda xarajatlarga ko'ra ikki guruhga bo'linib, har bir kategoriyada ish haqi, maoshlar kabi tavsiflanadi.

Afzalliklari:

➤ Obyekt muhimligi tasnifi boshqarishni va hisobga olishni qulaylashtiradi.

➤ U mablag'larni aniq joylashtirishni namoyon etib beradi, masalan, ish haqiga, safar xarajatlariga qancha foiz xarajat ketishi va boshqalar.

➤ Obyekt muhimligi tasnifi safar xarajatlari, chet elga chiqish va boshqa asosiy muhim xarajatlarni o'z vaqtida moliyaviy jihatdan aniqlashga imkon beradi.


Funksional tasnif

Funksional tasnif byudjetni amalga oshirish tizimida juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham funksional tasnifda byudjet xarajatlarini tashkil etish funksiyalar, dasturlar, faoliyatlar va loyihalardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak. Funksional tasnif boshqaruv funksiyasini narxlarga bog'liq holda faoliyatini me'yorlashtirishdan iborat. Funksional tasnifda dasturning natijasi muomilalar jismoniy maqsadlar miqyosida kiringga bog'langan bo'lishi talab qilinadi. Ular moliyaviy shartlarda byudjetni ta'minlash uchun o'zgartiriladi va dastur yoki faoliyatga joriy etish talab qilinadi. Funksional tasnif quyidagicha tasniflanadi.

Funksional tasnif		
Termin	Ta'rif	Misol
<i>Funksiya</i>	Maxsus xizmat turlari bilan ta'minlab beruvchi davlatning alohida bo'limi	Ta'lim
<i>Dastur</i>	Odatda yakuniy mavjud bo'lgan funksionaning segmentidir. Ushbu yakun davlatning muhim bo'linishi bilan ta'minlanadi.	Boshlang'ich/ O'rta/ Texnik/ Professional ta'lim
<i>Faoliyat/ Loyiha</i>	Dasturning bir turiga kiruvchi ishlar yoki jadvallarga bo'linishi.	Maktab binosi, laboratoriyalarini qurilishi va boshqalar

Ushbu turdagi tasnif davlat manbalari tabiati va jamiyat sarflining ulushi haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Davlat byudjeti iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib hisoblanadi. Chunki uning to'la hajmdagi tasdiq hujjatlari va davlat sarflari va byudjet orqali ifodalanadigan turli xil siyosatlari iqtisodiyotning tarkibini va yo'nalishini o'zgartira olishi mumkin bo'lgan muhim omillar hisoblanadi. Shu sababli byudjet ta'minotini iqtisodiy ko'lamlar jihatidan guruhlash muhim hisoblanadi. Masalan, kapital shakllanishida qancha chetdan ajratildi, qancha to'g'ridan to'g'ri sarflandi, qancha pul mablag'i grantlar, kreditlar berish orqali boshqa iqtisodiyot sohalariga davlat tomonidan o'tkazildi va boshqalar. Iqtisodiy tasniflash davlatning umumiy xarajatlarini foydali iqtisodiy turlarga ajratadi.

Iqtisodiy tasnif



21.4-rasm. Iqtisodiy tasnif

Ular investitsiya, chiqim, kirimning yaralishi, kapital shakllanishi va boshqalar. Quyida turkumlanish keltirilgan.

Umumiy xarajatlarning iqtisodiy tasnifi:	
1. Chiqim xarajatlari	a) Mudofaa b) Boshqa davlat ma'muriyati
2. O'tkazma to'lovlar (Joriy)	a) Foiz to'lovlari b) subsidiyalar c) davlatga va birlashgan hududlarga grantlar d) boshqalar.
3. Byudjet resurslarining yalpi kapital shakllanishi	a) Jismoniy aktivlar b) Moliyaviy aktivlar
4. Boshqalar	
5. Umumiy xarajatlar	

Yillik qiyoslash kapital shakllanishiga xarajatning o'sishini yoki muddatdan o'tib ketishini ifodalaydi.

Davlat moliyasining xalqaro statistikasiga muvofiq davlat boshqaruvi sektori xarajatlari ikki mezon bo'yicha tasniflanadi:

- ularning funksional maqsadiga ko'ra;
- operatsiyalarning iqtisodiy tavsifiga ko'ra.

Byudjet tasnifi – qaror qabul qilish tizimining muhim vositasi bo'lganligi sababli, unda davlatning asosiy funksiyalaridan kelib chiqadigan davlat faoliyatining maqsadli yo'nalishlari aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Bu vazifani davlatning asosiy funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarning funksional tarkibi yechadi. Umumlashgan holda bu funksiyalar barcha mamlakatlar uchun o'zgarmas va xarakterli bo'lib, ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- davlat boshqaruvi;
- ichki va tashqi havfsizlikni ta'minlash;
- xalqaro faoliyat;
- ilmiy-texnika taraqqiyotiga ko'maklashuv;
- ijtimoiy rivojlanish.

Iqtisodiy guruhlash xarajatlarni predmetli belgi asosida mufassal taqsimlash imkonini beradi (ish haqi, aholiga transfertlar va hokazolar) va barcha oluvchilarga byudjet ijrosi nuqtai nazaridan yagona yondashuv imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekistonda byudjet jarayonida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar davlat byudjetida moliyaviy resurslar oqimini tartibga solish, byudjet taqchilligini tartiblash, byudjet tasnifini takomillashtirish masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda.

Byudjet jarayonining ijro bosqichidagi islohotlar mamlakatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va moliyaviy nazoratni ta’minlash, byudjet tasnifini mukammallashtirish g‘aznachilik tizimini rivojlantirish bilan bog‘liq. Byudjet daromadlarini to‘liq va o‘z vaqtida tushirish, respublika va mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan iqtisodiy-ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirish, byudjet taqchilligini tartibga solish, ish haqi va nafaqalarni o‘z vaqtida to‘lash, g‘aznachilik tizimida byudjet mablag‘laridan foydalanish jarayonida shtat-smeta, byudjet intizomiga rioya etish masalalari turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet tizimining barcha darajadagi byudjetlarga tushumlarning manbalari bo‘yicha soliqlarning yig‘ilishi to‘g‘risida, byudjet tasnifi asosida respublika va mahalliy byudjet xarajatlarining kassa ijrosi bo‘yicha har kuni axborot olinishi mumkin bo‘ladi.

Byudjet tasnifi – bu byudjet daromadlari va xarajatlari, byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashtirish va byudjetlarni tuzish va ularni ijro etish hamda turli darajadagi byudjet ko‘rsatkichlarini nazorat qilish imkonini beradi. Byudjetni guruhlash tavsifi va ularni tuzish tamoyillari byudjet daromadlari va xarajatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, iqtisodiyotning tuzilishi a uni boshqarishga bog‘liq ravishda aniqlanadi. Byudjet sarflarining

tasnifini shakllantirishda jahon tajribasidan va amaldagi xalqaro andozalardan foydalanish masalasi muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining byudjet tasnifi tarkibiga dasturiy tasnifni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Dastur doirasidagi har bir tadbirga xarajatlar alohida ko'rsatiladi. Bevosita byudjetda baholash mezonlarining mohiyati ochiladi. Byudjet tasnifi shu dastur doirasida moliyalashtirilayotgan obyekt yoki xizmatning holatini va dastur yakunlanganda erishilishi rejalashtirilayotgan holatni aks ettiradi.


O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining rivojlanish darajasi juda yuqori, davlat moliyasini boshqarishda g'aznachilik organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar yildan-yilga takomillashtiriladi. G'aznachilik tizimida byudjet tasnifi tizimiga asoslangan davlatning moliyaviy nazorati kuchaytiriladi. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetini boshqarishni takomillashtirish, byudjet jarayonini tizimlashtirish, byudjet tasnifini mukammallashtirish bo'yicha nazariy ishlanmalar va amaliy asoslarning sezilarli darajada zamon talabidan ortda qolmasligi uchun byudjet tasnifi bo'yicha aniq tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 20 avgustdagi 65-sonli buyrug'i bilan (2010 yil 11 oktyabrda 2146-raqami bilan ro'yxatga olingan) O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomaga tasdiqlandi. Ushbu hujjat milliy byudjet tasnifini davlat moliyasi tasnifining xalqaro standartlari bilan uyg'unlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2011 yilning 1 yanvaridan amalga kiritildi.

Ma'lumki, byudjet tasnifi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan mablag' oluvchi tashkilotlarga qo'llaniladi hamda davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro qilish,

shuningdek, davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash maqsadida foydalaniladi.

Ushbu hujjatning afzalliklari va muhim jihatlari quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha ochib berish mumkin (21.3-rasm):



21.5-rasm. Yo'riqnomaning afzalliklari va muhim jihatlari

Davlat byudjeti daromadlarining tasnifi barcha darajadagi byudjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlarining guruhlanishidan iborat.

Byudjet tizimidagi islohotlar byudjet tasnifining takomillashuvini taqozo etadi. Mustaqil davlat sifatida O'zbekiston Respublikasida mustaqil davlat byudjeti, ma'lum darajada shakllangan va iqtisodiy taraqqiyotning har bir bosqichida takomillashib borayotgan byudjet qonunchiligi, byudjet munosabatlarini tashkil etish tamoyillari, alohida vakolatlariga ega bo'lgan byudjet tizimini boshqarish organlari mavjud.

Byudjet amaliyotida qo'llanilayotgan byudjet tasnifi ham doimo o'zgarib va takomillashib bormoqda.

Avval amal qilib kelgan tasnif tizimini makroiqtisodiy boshqaruviga moslashmaganligi, xalqaro tasniflash tizimlari bilan muvofiq emasligi, asosan, rejali iqtisodiyot tamoyillaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilganligi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimi jarayonida amalga oshirilayotgan tadbirlar amaldagi byudjet tasnifini ham takomillashtirishni taqozo etadi.

Xorijiy mamlakatlar byudjet tizimining tahlili shuni ko'rsatadiki, daromadlarning shakllanishi va ulardan foydalanish yo'nalishlari tarkibiga ko'ra byudjet daromadlari va xarajatlari o'ziga xos xususiyatga ega. Yagona byudjet tizimi doirasida daromadlar va xarajatlarni rejalashtirish va bashorat qilish jarayonida, daromadlar va xarajatlarning tasnifi juda kata ahamiyatga ega.

Ko'pchilik xorijiy mamlakatlarning byudjet tasnifi Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan ishlab chiqilgan Davlat moliyasining xalqaro statistika standartlari asosida ishlab chiqilgan. Byudjet amaliyotida yuz berayotgan o'zgarishlar – byudjet ijrosining g'aznachilik tizimiga o'tilishi, yagona byudjet va hisob tizimining ishlab chiqilishi yangi byudjet tasnifini ishlab chiqish va kiritishni taqozo etmoqda.

Rossiya Federatsiyasida Federal byudjetni tuzish va ijro etish bo'yicha asosiy metodologik hujjat bo'lib byudjet tasnifi xizmat qiladi. Byudjet tasnifi – byudjet tizimining barcha darajalaridagi byudjetlari daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, ushbu byudjetlarning taqchilliklarini moliyalashtirish manbalari va davlat qarzi turlarini bir xil belgi bo'yicha qonunga muvofiq guruhlash bo'lib, undan byudjetlarni tuzish va ijro etishda tasnif obyektlariga guruh kodlarini berish orqali foydalaniladi. Tasnif barcha darajadagi byudjetlar ko'rsatkichlarining qiyosiylikini, ularni iqtisodiy va statistik tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligining asosiy vazifalari va funksiyalar G'aznachilikka oid tegishli qo'llanma va yo'riqnomalarni ishlab chiqish, byudjet tasnifini takomillashtirish loyihasini tayyorlashdan iborat.

Rossiya Federatsiyasi byudjeti jarayoniga «natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish»ni kiritish, byudjetni rejalashtirishni maqsadli dasturlar uslubini mukammallashtirish, byudjet tasnifini takomillashtirish bilan bog'liq. Shu maqsadda byudjet tasnifi tarkibiga dasturiy tasnif kiritiladi. Rossiya Federatsiyasi byudjetlari xarajatlarining funksional tasnifi xarajatlarning turi hamda maqsadli moddalarini hududiy va mahalliy byudjetlar qismi byudjet to'g'risidagi qonun bilan tasdiqlanadi. Xarajatlar moddalarini maqsadli moddalar tarkibiga dastur va kichik dasturlar kodlarini kiritiladi. Byudjet xarajatlari tasnifining dasturini shakllantirishning asosi deb baholash mumkin. Dasturiy tasnif o'rta muddatli dasturlash doirasida natijaviylikka asoslangan byudjetlashtirishning ajralmas qismidir. Byudjetlashtirish ko'rsatilgan modelini ishlatishga o'tish Rossiya Federatsiyasining 2004–2018-yillar byudjet jarayonini isloh qilish ishlarining muhim masalasidir. G'aznachilik sharoitida Rossiya Federatsiyasi byudjet tasnifida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Federal byudjetning barcha sohalari, bosqichlari va jarayonlarini qamrab olgan.

Nazorat uchun savollar

1. Byudjet tasnifini G'aznachilik tizimida qo'llashdan maqsadi nima?
2. Byudjet tasnifini asosiy vazifalari qanday?
3. Byudjet tasnifining ahamiyati qanday?
4. Byudjet nima degani?
5. Byudjet tasnifi deb nimaga aytiladi?
6. Byudjet daromadlari va xarajatlarini tasniflashdan maqsad nima?
7. Byudjet tasnifining asosida nimalar yotadi?
8. Byudjet tasnifining ahamiyati nimalardan iborat?
9. O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifi qanday tasniflarni o'z ichiga oladi?
10. Hozirgi paytda byudjet tasnifi o'z ichiga nimalarni oladi?
11. Davlat byudjeti daromadlarining tasnifi nimalardan iborat?

12. Davlat byudjeti xarajatlarning vazifa, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan tasnifi nimalardan iborat?

13. Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari klassifikatsiyasi qanday guruhlardan tashkil topadi?

14. Byudjet tasnifi kim tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi?

15. Davlat moliyasini boshqarishda byudjet tasnifining ahamiyati qanday?

16. O'zbekistonda byudjet tasnifidan foydalanish istiqbollari qanday tassavur etasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi. T.: O‘zbekiston 2001. 39 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O‘RQ-360-son. 26.12.2013.

3. “Davlat byudjeti g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori PQ-594-son, 28.02.2007.

4. “O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi Qoidalari” O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug‘igaekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami №2580

5. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasini isloh qilish loyahasini amalgam oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-son Qarori 26.04.2002.

7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008. 176 b.

8. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O‘zbekiston, 2011. 440 b.

9. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: “O‘zbekiston”, 2015. 302 b.

10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston. NMIU, 2017. 488 b.

11. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston. NMIU, 2017. 104 b.

12. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. NMIU, 2017. 56 b.

13. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O‘zbekiston. NMIU, 2017. 48 b.

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

14. Pulatov D.X., Nurmuxmedova B.I. “G‘aznachilik” Darslik. T.: Sano-standart, 2014y. 372 b.

15. Qosimova G. G‘aznachilik. O‘quv qo‘llanma. T.: “Iqtisod-Moliya”. 2013. 476 b.

16. Burxanov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiya”, 2012. 152 b.

17. T.S. Malikov, N.X. Xaydarov. Byudjet daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2007. 245 b.

18. Malikov T.S., Xaydarov N.X. Davlat byudjeti. T.: Iqtisod-Moliya, 2007. 84 b.

19. Qosimova G.A. Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijrosini ta’minlash. O‘quv qo‘llanma. T.: Fan va texnologiya. 2007.

20. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B. Byudjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma . T.: infoCOM.UZ. 2009.

21. Haydarov M. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2010.

22. Z.Srojiddinova. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. infoCOM.UZ. T., 2010.

23. Z.Srojiddinova. Byudjetlararo munosabatlar. infoCOM.UZ. T., 2010.

24. S.Mexmonov, Z.Karimova, A.Tursunov. Byudjet tizimi. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2018.

25. B.Nurmuxamedova. Davlat byudjeti. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2018. 425 b.

26. D.A.Tashmuxamedova. G'aznachilik asoslari. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2018. 304 b.

27. D.A.Tashmuxamedov. Byudjet g'azna ijrosi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 440 b.

28. A.Tuychiyev, M.Abidov. Byudjet tasnifi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 200 b.

29. B.K.Hamdamov, A.A. Ostonokulov. Byudjet nazorati. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 320 b.

30. Steven M. Bragg. Treasury management: The Practitioner's Guide /Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.

31. Колесов А.С. Бюджетный процесс: сущность и совершенствование / Финансы №11. 2010. С. 8.

32. Акперов И.Г. и др. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2007. 352 стр.

33. Жданчиков П.А. Казначейство. Автоматизированное бизнес-технологии управления финансовыми потоками. Учебное пособие. М.: «Высшая школа экономики». 2010. 363 стр.

34. Ali Hashim Bair Allan. Treasury reference model. World Bank & IMF. March. 2010. 347 p.

35. Williams M. Government: Cash Management Its Interaction with Other Financial Policies. International Monetary Fund Fiscal Affairs Department Technical Guidance Note. 2010. 201 p

Internet saytlari

- www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti);
- www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi Hukumat sayti);
- www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti);
- www.tfi.uz (Toshkent moliya instituti sayti);
- www.minfin.ru (Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi sayti).

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

I BOB. G‘AZNACHILIK TIZIMI FAOLIYATINING NAZARIY VA TASHKILY ASOSLARI

1-MAVZU. “G‘AZNACHILIK” FANIGA KIRISH.....	6
1.1. “G‘aznachilik” fanining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari... 6	6
1.2. “G‘aznachilik” fanining predmeti, maqsad va vazifalari	8
1.3. “G‘aznachilik” fanining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o‘rni va ahamiyati	11

2-MAVZU. BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI.....	14
2.1. Byudjet tizimi byudjetlari haqida tushuncha	14
2.2. Byudjet tizimi byudjetlarining tamoyillari	20
2.3. Byudjet tizimini boshqarish	23

3-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BYUDJET JARAYONI.....	34
3.1. Byudjet jarayoni, uning o‘ziga xos xususiyatlari va asosiy vazifalari	34
3.2. Byudjetlar loyihalarini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish hamda tasdiqlash	39
3.3. Byudjet tizimi byudjetlarini ijro etish tartibi	52
3.4. Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot va uni tasdiqlash.....	60

4-MAVZU. BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI G‘AZNACHILIK IJROSINING NAZARIY JIHLTLARI.....	67
4.1. Byudjet g‘azna ijrosining zarurligi, mohiyati va mazmuni	67

4.2. O‘zbekistonda davlat byudjeti g‘aznachilik ijrosiga o‘tishning bosqichlari.....	82
4.3. G‘aznachilik ijrosini amalga oshirishning tashkiliy elementlari va xususiyatlari	91

5-MAVZU. BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI G‘AZNA IJROSINING HUQUQIY TA‘MINOTI.....	104
5.1. G‘aznachilik faoliyatini shakllantirishning huquqiy asoslari	104
5.2. Byudjet Kodeksi - davlat byudjeti g‘azna ijrosining huquqiy asosi	112
5.3. “Byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi qoidalari”ning mazmuni va tarkibi	115
5.4. Moliya vazirligi G‘aznachiligining funktsiya va vazifalari	120
5.5. Moliya vazirligi G‘aznachiligining tarkibi va tashkiliy tuzilishi.....	130

6-MAVZU. G‘AZNACHILIK ORGANLARI FAOLIYATINING TASHKIL ETILISHI.....	137
6.1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi - byudjet tizimi byudjetlari ijrosini ta‘minlovchi organ sifatida.....	137
6.2. Davlat byudjeti g‘azna ijrosini tashkil qilishda G‘aznachilikning o‘rni va ahamiyati	140
6.3. Moliya vazirligi G‘aznachiligi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari	147
6.4. Hududiy moliya organlari faoliyatining tashkil etilishi	162
6.5. Mahalliy byudjetlar ijrosini ta‘minlashda hududiy g‘aznachilik bo‘linmalari faoliyati	197

7-MAVZU. BYUDJET G‘AZNA IJROSINING XORIJ TAJRIBALARI.....	204
7.1. Xorijiy mamlakatlar g‘aznachilik tizimlarining xususiyatlari	204
7.2. Byudjet tizimini boshqarishda g‘aznachilik mexanizmining modellari	213
7.3. AQSH va Rossiya Federatsiyasida g‘aznachilik tizimi faoliyati	222
7.4. Xorijiy tajribalar asosida g‘aznachilik tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari	236

II-BOB. G‘AZNACHILIK FAOLIYATI MEXANIZMI

8-MAVZU. YAGONA G‘AZNA HISOBVARAG‘I VA SHAXSIY G‘AZNA HISOBRAQAMLARI	248
8.1. Yagona g‘azna hisobraqami to‘g‘risida tushuncha	248
8.2. Respublika va hududiy g‘aznachilik hisobraqamlarining yuritilishi	257
8.3. Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarini yuritish tartibi	263
8.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Yagona G‘azna hisobvarag‘ini yuritilishini takomillashtirish.....	279

9-MAVZU. BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI DAROMADLARINING G‘AZNA IJROSI	284
9.1. Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining g‘azna ijrosini tashkil etishning zarurligi	284
9.2. Yagona g‘azna hisobraqamida byudjet daromadlari ijrosini hisobga olish	294
9.3. To‘lovlar kontingentini “O‘RMV” ATda aks ettirish orqali yag‘hga kiritish va ortiqcha to‘langan to‘lovlarni qaytarish....	302
9.4. Byudjet tizimi byudjetlari daromadlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va hisobini yuritish tartibi.....	310

10-MAVZU. BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI XARAJATLARI G‘AZNA IJROSINI TASHKIL ETISH.....	316
10.1. Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari g‘azna ijrosining mazmuni, zarurligi va davlat funksiyalari bilan bog‘liqligi	316
10.2. Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilarni moliyalashtirish tartibi	324
10.3. G‘aznachilikda byudjet xarajatlarini to‘lash tartibi	334
10.4. Byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlarini amalga oshirish ruxsatnomalari	348

11-MAVZU. G‘AZNACHILIK IJROSIDA BYUDJET TASHKILOTLARI VA BYUDJET MABLAG‘LARI OLUVCHILARNING XARAJATLAR SMETASI VA ULARGA O‘ZGARISHLAR KIRITISH TARTIBI	355
11.1. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi to‘g‘risida umumiy tushuncha.....	355

10.2. Xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash va ro'yhatdan o'tkazish tartibi	364
11.3. G'aznachilik sharoitida xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallariga o'zgartirishlar kiritish tartibi.....	386

12-MAVZU. G'AZNACHILIKDA YURIDIK

MAJBURIYATLARNI RO'YXATGA OLISH MEXANIZMI....

12.1. G'aznachilikda yuridik majburiyat tushunchasi.....	397
12.2. Xo'jalik shartnomasini shakllantirish tartibi.....	409
12.3. Yuridik majburiyatlar bo'limida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi	413

13-MAVZU. G'AZNACHILIKDA MOLIYAVIY

MAJBURIYATLAR VA XARAJATLAR TO'LOVINI

BOSHQARISH

13.1. Moliyaviy majburiyatning shakllanishi, maqsadi va xususiyatlari	434
13.2. I va II guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish hamda xarajatlar to'lovi	442
13.3. III guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish hamda xarajatlar to'lovi	454
13.4. IV guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish hamda xarajatlar to'lovi	462

14-MAVZU. BYUDJET TASHKILOTLARI BYUDJETDAN

TASHQARI MABLAG'LARI G'AZNA IJROSINI

TASHKIL ETISH.....

14.1. Byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining shakllanishi va guruhlanishi	470
14.2. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha g'azna ijrosini tashkil etish.....	479

15-MAVZU. HUDUDIY BYUDJETLAR G'AZNA IJROSINI

TASHKIL QILISH.....

15.1. Hududlarda byudjet g'azna ijrosini tashkil etishning zarurligi, xususiyatlari	505
15.2. Hududiy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini amalga oshirish tartibi	511

15.3. Hududiy g'aznachilik organlari faoliyati.....	524
15.4. Hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida g'azna ijrosini samarali tashkil etish.....	533

16-MAVZU. DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALAR G'AZNA IJROSINI

TASHKIL ETISH	538
16.1. Davlat maqsadli jamg'armalari mohiyati va mazmuni, ularning guruhlanishi, maqsad va vazifalari.....	538
16.2. Davlat maqsadli jamg'armalari ijrosini tashkil etish.....	546
16.3. Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarini yagona g'azna hisobraqamida shakllantirish va YaG'H orqali ular xarajatlari to'lovini amalga oshirish.....	555

17-MAVZU. G'AZNACHILIK FAOLIYATI NAZORATI..... 578

17.1. Davlat moliyaviy nazoratida g'aznachilik faoliyati nazoratining tutgan o'rni.....	578
17.2. G'aznachilikda xarajatlar smetalarini ro'yxatga olish asosida nazoratni tashkil etish.....	589
17.3. G'aznachilik ijrosi nazoratini amalga oshirishni takomillashtirish.....	597

18-MAVZU. G'AZNACHILIKDA DAVLAT

XARIDINI BOSHQARIH..... 603

18.1. Davlat xaridining davlat funksiyalari bilan bog'liqligi, uning mazmuni va mohiyati.....	603
18.2. Davlat xaridining ishtirokchilari va ularning vakolatlari	609
18.3. Davlat xaridlarining tamoyillari.....	621
18.4. G'aznachilik sharoitida davlat xaridini amalga oshirish mexanizmlari.....	627
18.4. O'zbekistonda davlat xaridlari tizimi samarali faoliyatini ta'minlash istiqbollari	645

19-MAVZU. G'AZNACHILIK ZAMONAVIY

AXBOROT TIZIMI..... 661

19.1. Byudjet g'azna ijrosini ta'minlashda g'aznachilik yagona axborot tizimining ahamiyati	661
19.2. G'aznachilik dasturiy majmuasining faoliyati mexanizmi.....	670

19.3. Byudjet g'azna ijrosini ta'minlashda "O'zASBO" avtomatlashtirilgan tizimi xususiyatlari	678
19.4. G'aznachilikda axborot tizimidan foydalanishni rivojlantirish.....	689

20-MAVZU. G'AZNACHILIKDA DAVLAT

KAFOLATLARINI BOSHQARISH..... 705

20.1. Davlat qarzlarining mohiyati va shakllari	705
20.2. Davlat qarzlarini boshqarishning zarurligi, vazifalari va usullari	711
20.3. Davlat ichki va tashqi qarzlarini boshqarishning hozirgi zamon muammolari	725
20.4. G'aznachilik sharoitida davlat kafolatlarini boshqarish.....	733

21-MAVZU. G'AZNACHILIK TIZIMIDA BYUDJET

TASNIFIDAN FOYDALANISH..... 741

21.1. Byudjet tasnifining mazmun-mohiyati va g'aznachilik tizimidagi ahamiyati	741
21.2. O'zbekiston Respublikasida byudjet tasnifi amal qilishining huquqiy asoslari.....	762
21.3. Byudjet daromadlari tasnifidan foydalanish	772
21.4. Byudjet xarajatlari tasnifini yuritish tartibi	778
21.5. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.....	789
21.6. G'aznachilik tizimida byudjet tasnifining qo'llanilishi	801
21.7. O'zbekistonda byudjet tasnifidan foydalanish istiqbollari.....	808

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... 823

**A.TUYCHIEV
D.TASHMUHAMEDOVA**

G'AZNACHILIK

Darslik

Muharrir Z.Bozorova
Badiiy muharrir K.Boyxo'jayev
Kompyuterda sahifalovchi O.Fozilova

Nashr. lits. AI № 305.
Bosishga ruxsat 12.07.2019-yilda berildi.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qog'ozi №2.
"Times New Roman" garniturası.
Shartli b.t. 48,1. Nashr hisob t. 50,1.
Adadi 60 dona. 32-buyurtma.

ISBN 978-9943-13-806-3



9 789943 138063